НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК * SCIENTIFIC BULLETIN

BUXORO XALQARO UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI

ISSN 3030-3710 (P)
ISSN 3030-3095 (E)

№ 2, 2026

https://bxu.uz

ISSN 3030-3710 (P)
ISSN 3030-3095 (E)

BUXORO XALQARO UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI

ilmiy-amaliy jurnal

SCIENTIFIC BULLETIN OF BUKHARA INTERNATIONAL UNIVERSITY

scientific and practical journal

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО МЕЖДУНАРОДНОГО УНИВЕРСИТЕТА

научно-практический журнал

№ 02-son, 2026

Muassis: Buxoro xalqaro universiteti
Tahririyat manzili: Buxoro viloyati, Kogon tumani, B.Naqshband MFY, 20-uy
http://buxpxti.uz/, buxpxti@gmail.com

Tel: +998918312511 Sobirova D.A.
+998905124244 Ostanov Sh.Sh.
https://t.me/OstanovSH

"Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi" ilmiy-amaliy jurnal

BOSH MUHARRIR:

Baratov Sharif Ramazanovich

psixologiya fanlari doktori, professor,

Xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Bosh muharrir o`rinbosari:

Shoumarov G'.B. – O'zbekiston Respublikasi fanlar Akademiyasi Akademigi

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Mas'ul kotib:

Sobirova D.A. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

XORIJ OLIMLARI

Kozlov V.V. - psixologiya fanlari doktori, akademik (Rossiya)

Malix S.B. -psixologiya fanlari doktori, akademik (Rossiya)

Maksimenko S.D.- psixologiya fanlari doktori, akademik (Ukraina)

Rejep O`zyurek -psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Darya Gaysina - Sasseks universiteti Psixologiya fakultetida genetika va epigenetika, PhD (Angliya)

O'ZBEKISTON OLIMLARI

PSIXOLOGIYA FANLARI

Qodirov U.D. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Kadirov K.B. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Abdurasulov R.A. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Baratova D.Sh. -psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Utepberganov M.A. - psixologiya fanlari doktori, professor

Atabayeva N.B. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Fayziyeva M.X. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Qarshiyeva D.S. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Abdullayeva D.U. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Arzikulov D.N. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Beknazarova L.S. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Djurayev B. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Ayrapetova A.G. - psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Usmanova M.N. - psixologiya fanlari nomzodi, professor

Raximova I.I. - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ostanov Sh.Sh. - psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Rustamov Sh.Sh. - psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Zakirov A.A. - psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

Qosimov U.A. - psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

Sobirov A.A. - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

PEDAGOGIKA FANLARI

Ibragimov X.I. - O'zbekiston Respublikasi fanlar Akademiyasi Akademigi

Olimov Sh.Sh. - pedagogika fanlari doktori, professor

Abdullayeva B.S. - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Mo'minova L.R. - pedagogika fanlari doktori, professor

Raxmonov K.D. - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

FILOLOGIYA FANLARI

Shodmonov Q.B. – filologiya fanlari doktori, professor

Gadoyeva M.I.- filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rajabov D.Z. - filologiya fanlari doktori, professor

Haydarov A.A. - filologiya fanlari doktori, professor

Astanova G.A. - filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rasulov Z.I. - filologiya fanlari doktori (DSc), professor v.b.

Toirova G.I. - filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Murodov G.N. - filologiya fanlari doktori, professor

Eshbekov T.U. - filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Raxmatullayev Sh.N. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Xalilova R.R. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Saidov X.Sh. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

MUHARRIRLAR:

Raxmatova M.M. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Shirinov A.Q. - falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

"Scientific Bulletin of Bukhara International University "
scientific-theoretical journal
EDITOR-IN-CHIEF:
Baratov Sharif Ramazanovich
doctor of psychology, professor, Full Member (academician) of the International Academy of Psychological Sciences
Deputy editor-in-chief:
Shoumarov G.B. - Academician of the Academy of Sciences of the Republic Uzbekistan
EDITORIAL BOARD MEMBERS
Responsible secretary:
Sobirova D.A. – Doctor of Psychology (DSc), professor
FOREIGN SCIENTISTS
Kozlov V.V. - Doctor of Psychology, academician (Russia)
Maliks S.B. - Doctor of Psychology, academician (Russia)
Maksimenko S.D. - Doctor of Psychology, academician (Ukraine)
Rejep Ozyurek - Doctor of Psychology, professor (Turkey)
Darya Gaysina - PhD, Genetics and Epigenetics, Faculty of Psychology, University of Sussex (England)
SCIENTISTS OF UZBEKISTAN
PSYCHOLOGICAL SCIENCES
Kadirov U.D. - doctor of psychology, professor
Kadirov K.B. - doctor of psychology (DSc), professor
Abdurasulov R.A. - doctor of psychology (DSc), professor
Baratova D.SH. - doctor of psychology (DSc), professor
Utepberganov M.A. - doctor of psychology, professor
Atabayeva N.B. - doctor of Psychology (DSc), professor
Fayziyeva M.Kh. - doctor of Psychology (DSc), professor
Karshiyeva D.S. - doctor of Psychology (DSc), professor
Abdullayeva D.U. - doctor of Psychology (DSc), professor
Arzikulov D.N. - doctor of Psychology (DSc), professor
Beknazarova L.S. - doctor of Psychology (DSc), professor
Djurayev B. - doctor of Psychology (DSc), professor
Ayrapetova A.G. - doctor of Psychology (DSc), associate professor
Usmanova M.N. - candidate of psychology, professor
Raximova I.I. - doctor of philosophy in psychology (PhD), associate professor
Ostanov Sh.Sh. - doctor of Psychology (DSc), associate professor
Rustamov Sh.Sh. - doctor of Psychology (DSc), associate professor
Zakirov A.A. - candidate of psychological sciences, associate professor
Qosimov U.A. - candidate of psychological sciences, associate professor
Sobirov A.A. - doctor of philosophy in psychology (PhD), associate professor
PEDAGOGICAL SCIENCES
Ibragimov X.I. - Academician of the Academy of Sciences of the Republic Uzbekistan
Olimov Sh.Sh. - doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Abdullayeva B.S. - doctor of Pedagogical Sciences (DSc), professor
Mo'minova L.R. - doctor of Pedagogical Sciences (DSc), professor
Raxmonov K.D. - doctor of Pedagogical Sciences (DSc), professor
PHILOLOGY SCIENCES
Shodmonov Q.B. - doctor of Philology, professor
Gadoyeva M.I. - doctor of Philology (DSc), professor
Rajabov D.Z. - doctor of Philology, professor
Haydarov A.A. - doctor of Philology, professor
Astanova G.A. - doctor of Philology (DSc), professor
Rasulov Z.I. - doctor of Philology (DSc), professor
Toirova G.I. - doctor of Philology (DSc), professor
Murodov G.N. - doctor of Philology (DSc), professor
Eshbekov T.U. - doctor of Philology (DSc), professor
Rakhmatullayev Sh.N. - doctor of philosophy in philology (PhD)
Khalilova R.R. - doctor of philosophy in philology (PhD)
Saidov X.Sh. - doctor of philosophy in philology (PhD
EDITORS:
Rakhmatova M.M. - doctor of philosophy (phd) in philological sciences
Shirinov A.Q. - doctor of philosophy (phd) in philosophical sciences, Associate Professor

Искаков Мухаммад Сабирович
Самостоятельный соискатель
Каршинского государственного университета
Преподаватель- ассистент кафедры языков
Азиатского технологического университета

RUS VA O‘ZBEK PAREMIYOLOGIYASIDA EKZOTIK HAYVONLAR OBRAZLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada rus va o‘zbek paremiologiyasida uchraydigan ekzotik hayvonlar obrazlari semantik, madaniy hamda ramziy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda sher, fil, maymun, yo‘lbars, tuya kabi mahalliy tabiiy muhitga xos bo‘lmagan hayvonlar ishtirok etgan maqol va matallar o‘rganiladi. Ushbu obrazlarning baholovchi, tarbiyaviy va ramziy ma’nolari aniqlanib, ikki xalq paremiologiyasidagi umumiylik va milliy xususiyatlar ochib beriladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ekzotik hayvonlar obrazlari xalqning real hayotiy tajribasidan ko‘ra ko‘proq madaniy aloqalar, tarixiy ta’sirlar va ramziy tafakkur bilan bog‘liq holda shakllangan.*

Kalit so‘zlar: *paremiologiya, ekzotik hayvonlar, hayvon obrazi, ramziylik, rus maqollari, o‘zbek maqollari, lingvomadaniyat.*

ОБРАЗЫ ЭКЗОТИЧЕСКИХ ЖИВОТНЫХ В РУССКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ПАРЕМИОЛОГИИ

Аннотация. *В статье рассматриваются образы экзотических животных в русской и узбекской паремиологии с точки зрения их семантического, культурного и образно-символического значения. Анализируются пословицы и поговорки, в которых упоминаются животные, не характерные для природной среды соответствующих народов, такие как лев, слон, обезьяна, тигр и верблюд. Особое внимание уделяется выявлению общих и национально-специфических черт в интерпретации данных образов, а также их роли в формировании оценочных и нравственно-дидактических смыслов. В результате исследования устанавливается, что образы экзотических животных в паремиологии отражают не столько реальный зоологический опыт, сколько культурные контакты, заимствованные представления и символическое мышление народа.*

Ключевые слова: *паремиология, экзотические животные, образ животного, символика, русские пословицы, узбекские пословицы, лингвокультура.*

IMAGES OF EXOTIC ANIMALS IN RUSSIAN AND UZBEK PAREMIOLOGY

Annotation. *The article explores the images of exotic animals in Russian and Uzbek paremiology from semantic, cultural, and symbolic perspectives. The study analyzes proverbs and sayings containing references to animals that are not typical of the natural environment of the respective peoples, such as the lion, elephant, monkey, tiger, and camel. Special attention is paid to identifying both universal and nationally specific features in the interpretation of these images, as well as their evaluative and didactic functions. The research demonstrates that images of exotic animals in paremiology reflect not so much direct zoological experience as cultural contacts, borrowed representations, and symbolic thinking of the people.*

Key words: *paremiology, exotic animals, animal imagery, symbolism, Russian proverbs, Uzbek proverbs, linguoculture.*

Kirish. Paremiologiya xalqning asrlar davomida shakllangan dunyoqarashi, madaniy tajribasi va axloqiy qadriyatlarini mujassam etuvchi muhim lingvomadaniy qatlamlardan biridir. Maqol va matallar orqali xalq tafakkuri, baholash mezonlari hamda ramziy obrazlar tizimi ifodalanadi.

Ushbu ramziy obrazlar orasida hayvonlar obrazlari alohida o‘rin tutadi. Ayniqsa, real tabiiy muhitda kam uchraydigan yoki umuman mavjud bo‘lmagan ekzotik hayvonlar obrazlarining paremiologiyada paydo bo‘lishi til va madaniyat o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni aks ettiradi. Rus va o‘zbek paremiologiyasida sher, fil, maymun, yo‘lbars, tuya kabi ekzotik hayvonlar obrazlari axloqiy, baholovchi va didaktik ma’nolarni ifodalashda faol qo‘llaniladi. Bu obrazlar ko‘pincha kuch, donolik, ayyorlik, manmanlik yoki sabr-toqat kabi tushunchalar bilan bog‘lanadi. Ularning mazmuni bevosita biologik kuzatuvlarga emas, balki tarixiy-madaniy aloqalar, diniy-falsafiy qarashlar va badiiy tafakkur asosida shakllangan. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, ekzotik hayvonlar obrazlari orqali ikki xalq paremiologiyasidagi umumiylik va milliy xususiyatlarni ochib berish, ularning lingvomadaniy mazmunini qiyosiy jihatdan yoritish imkonini beradi.

Metodologiya. Tadqiqotda qiyosiy-tipologik, semantik va lingvomadaniy tahlil metodlaridan foydalanildi. Avvalo, rus va o‘zbek tillaridagi maqol va matallar korpusidan ekzotik hayvonlar nomlari ishtirok etgan paremiya birliklari tanlab olindi. Ushbu birliklar leksik-semantik tarkibi, obrazli ma’nosi va baholovchi komponentlari asosida tahlil qilindi. Semantik tahlil jarayonida har bir hayvon obrazining asosiy va qo‘shimcha ma’nolari aniqlanib, ularning ramziy yuklamasi izohlandi. Qiyosiy metod orqali rus va o‘zbek paremiologiyasidagi mos va farqli jihatlar belgilandi. Lingvomadaniy yondashuv esa paremiya mazmunining madaniy, tarixiy va ijtimoiy omillar bilan bog‘liqligini aniqlashga xizmat qildi. Shuningdek, kontekstual tahlil yordamida hayvon obrazlarining qanday axloqiy va didaktik vazifani bajarishi ko‘rsatib berildi. Tadqiqotda mavjud paremiologik lug‘atlar, ilmiy manbalar va folklor to‘plamlaridan foydalanildi.

Natijalar va muhokamalar. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, rus va o‘zbek paremiologiyasida ekzotik hayvonlar obrazlari ko‘pincha kuchli ramziy ma’noga ega. Masalan, sher obrazi ikki tilda ham jasorat va hokimiyat timsoli sifatida namoyon bo‘ladi, biroq o‘zbek paremiologiyasida u ko‘proq ijobiy baholansa, rus paremiologiyasida ba’zan kinoyaviy ma’noda ham uchraydi. Fil obrazi ko‘pincha katta kuch yoki qo‘pol harakat ramzi sifatida talqin qilinadi, maymun obrazi esa ayyorlik va taqlidchilik bilan bog‘lanadi. Tuya obrazi o‘zbek paremiologiyasida sabr-toqat va chidamlilik timsoli sifatida faolroq, rus paremiologiyasida esa kamroq uchraydi. Muhokama shuni ko‘rsatadiki, ekzotik hayvonlar obrazlari xalqning real zoologik tajribasidan ko‘ra, ko‘proq ramziy tafakkuri va madaniy ta’sirlar mahsulidir. Bu obrazlar orqali xalq o‘zining axloqiy me’yorlari va hayotiy qarashlarini ifodalaydi.

Paremiologiya tilshunoslikning xalq og‘zaki ijodida shakllangan maqol va matallarni o‘rganadigan sohasi bo‘lib, u xalqning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi va ma’naviy qadriyatlarini o‘zida mujassamlashtiradi. Maqol va matallar xalq tafakkurining ixcham, obrazli va umumlashtirilgan ifodasi bo‘lib, unda jamiyatning axloqiy me’yorlari, hayotiy kuzatuvlari va baholash mezonlari aks etadi. Shu jihatdan paremiologiya nafaqat lingvistik, balki madaniy va falsafiy ahamiyatga ham ega. Xalq tafakkurini aks ettirishda hayvon obrazlari alohida o‘rin tutadi. Maqol va matallarda hayvonlar ko‘pincha insoniy fazilatlar, xulq-atvor va ijtimoiy munosabatlarni ifodalash uchun ramziy vosita sifatida qo‘llaniladi. Masalan, kuch, ayyorlik, sabr-toqat, qo‘rqoqlik yoki mag‘rurlik kabi tushunchalar bevosita hayvonlar orqali ifodalanadi. Bu esa paremiologik birliklarning obrazliligini oshirib, ularni esda qolarli va ta’sirchan qiladi. Hayvon obrazlarining ramziy xususiyati ularning real biologik xususiyatlariga emas, balki xalq ongida shakllangan tasavvurlariga asoslanadi. Bir hayvon turli madaniyatlarda turlicha ramziy ma’noga ega bo‘lishi mumkin. Shuning uchun hayvon obrazlari paremiologiyada milliy-madaniy xususiyatlarni aniqlashda muhim ko‘rsatkich hisoblanadi. Alohida e’tiborga loyiq jihat shundaki, paremiologiyada faqat mahalliy hayvonlar emas, balki ekzotik hayvonlar obrazlari ham uchraydi. Ekzotik hayvonlar deganda, xalqning kundalik hayotida bevosita uchramaydigan, ammo boshqa madaniyatlar, adabiyotlar, diniy manbalar yoki tarixiy aloqalar orqali tanilgan hayvonlar tushuniladi. Bunday obrazlarning paydo bo‘lishiga savdo yo‘llari, madaniy aloqalar, diniy rivoyatlar va badiiy asarlar sabab bo‘lgan. Ekzotik hayvonlar obrazlari paremiologiyada kuchli ramziy yuklama kasb etib, xalqning tasavvur doirasini kengaytiradi. Ular orqali xalq nafaqat o‘z hayotiy tajribasini, balki tashqi dunyo haqidagi bilim va qarashlarini ham ifodalaydi. Shu bois hayvon

obrazlari, ayniqsa ekzotik hayvonlar, paremiologiyada xalq tafakkurining ramziy va madaniy qatlamini ochib beruvchi muhim vosita hisoblanadi.

Ekzotik hayvon tushunchasi paremiologiyada muayyan xalqning tabiiy-geografik muhitida keng tarqalmagan, biroq tarixiy, madaniy yoki diniy aloqalar orqali xalq ongiga singib ketgan hayvonlar obrazlarini anglatadi. Bunday hayvonlar real hayot tajribasidan ko‘ra ko‘proq ramziy, badiiy va majoziy tafakkur mahsuli sifatida maqol va matallarda namoyon bo‘ladi. Paremiologiyada ekzotik hayvonlar obrazlari kuchli baholovchi va didaktik vazifani bajarib, inson xulq-atvori va ijtimoiy munosabatlarni ifodalashga xizmat qiladi. Rus paremiologiyasida ekzotik hayvonlar orasida sher, fil, maymun, yo‘lbars kabi obrazlar uchraydi. Sher obrazi, odatda, kuch, hokimiyat va jasorat ramzi sifatida qo‘llaniladi. Biroq ayrim maqollarda u kinoyaviy ma’noda, haddan tashqari mag‘rurlik yoki zolimlikni ifodalovchi timsol sifatida ham namoyon bo‘lishi mumkin. Fil obrazi rus paremiologiyasida ko‘pincha qo‘pol kuch, no‘noqlik yoki vaziyatga moslasholmaslik bilan bog‘lanadi. Maymun obrazi esa asosan taqlidchilik, aqlsizlik yoki kulgili xatti-harakatlarni ifodalovchi salbiy baholovchi ramz sifatida talqin qilinadi. Bu obrazlar rus xalqining axloqiy baholash tizimi va badiiy tafakkurini aks ettiradi. O‘zbek paremiologiyasida ham ekzotik hayvonlar obrazlari muhim o‘rin egallaydi. Xususan, tuya, sher va yo‘lbars obrazlari faol qo‘llaniladi. Tuya obrazi o‘zbek xalq tafakkurida sabr-toqat, chidamlilik va bardoshlilik ramzi sifatida talqin qilinadi. Bu, bir tomondan, Markaziy Osiyo hayot tarzining tarixiy xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan, tuyaning ramziy ma’nosini kuchaytiradi. Sher obrazi o‘zbek paremiologiyasida ko‘proq ijobiy baholovchi timsol bo‘lib, mardlik, shijoat va adolat bilan bog‘lanadi. Yo‘lbars esa kuch, xavf va qat’iyat ramzi sifatida ishlatiladi. Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, rus va o‘zbek paremiologiyasida ekzotik hayvonlar obrazlari umumiy ramziy xususiyatlarga ega bo‘lsa-da, ularning semantik talqini milliy tafakkur, tarixiy tajriba va madaniy muhitga bog‘liq holda farqlanadi. Bu holat paremiologik obrazlarning lingvomadaniy ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

Ekzotik hayvonlar obrazlari rus va o‘zbek paremiologiyasida nafaqat badiiy tasvir vositasi, balki muhim lingvomadaniy birlik sifatida ham namoyon bo‘ladi. Ushbu obrazlar xalqning dunyoqarashi, axloqiy me’yorlari va ijtimoiy baholash tizimini ifodalovchi ramziy belgilar hisoblanadi. Paremiologik birliklarda ekzotik hayvonlar ko‘pincha insoniy xususiyatlarning timsoli sifatida qo‘llanilib, baholovchi va didaktik funksiyani bajaradi. Baholovchi funksiya orqali hayvon obrazlari ijobiy yoki salbiy munosabatni ifodalaydi. Masalan, sher obrazi ko‘plab holatlarda jasorat, qudrat va yetakchilikni ifodalovchi ijobiy ramz bo‘lsa, maymun obrazi taqlidchilik, masxarabozlik va aqlsizlik bilan bog‘lanib, salbiy baholovchi xususiyat kasb etadi. Didaktik funksiya esa hayvon obrazlari orqali axloqiy xulosa chiqarishga, to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri xatti-harakatni ko‘rsatishga xizmat qiladi. Shu tariqa maqol va matallar tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, rus va o‘zbek paremiologiyasida ekzotik hayvonlar obrazlari ayrim umumiy semantik modellarga ega. Har ikkala madaniyatda ham kuchli hayvonlar kuch, hokimiyat va ustunlik bilan, ayyor yoki kulgili hayvonlar esa salbiy xususiyatlar bilan bog‘lanadi. Biroq bu obrazlarning talqini milliy tafakkur va tarixiy tajriba asosida turlicha shakllanadi. Masalan, tuya obrazi o‘zbek paremiologiyasida markaziy o‘rin tutib, sabr-toqat va bardoshlilik ramzi sifatida talqin qilinsa, rus paremiologiyasida u deyarli uchramaydi. Aksincha, maymun obrazi rus paremiologiyasida faolroq bo‘lib, salbiy baholovchi timsol sifatida mustahkamlangan. Ekzotik hayvonlar obrazlarining madaniy va ramziy ahamiyati shundaki, ular xalqning real hayot tajribasidan tashqaridagi bilim va tasavvurlarni ham ifodalaydi. Bu obrazlar savdo aloqalari, diniy manbalar, adabiy an’analar orqali xalq ongiga singib, ramziy mazmun kasb etgan. Natijada paremiologiyada ekzotik hayvonlar orqali xalqning madaniy xotirasi, estetik didi va axloqiy qadriyatlari aks etadi. Ekzotik hayvonlar obrazlarining lingvomadaniy va qiyosiy tahlili rus va o‘zbek paremiologiyasida til, madaniyat va tafakkur o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni chuqurroq anglash imkonini beradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, rus va o‘zbek paremiologiyasida ekzotik hayvonlar obrazlari muhim lingvomadaniy hodisa hisoblanadi. Ular xalq tafakkurining ramziy ifodasi bo‘lib, baholovchi va didaktik funksiyani bajaradi. Tadqiqot natijalari ikki xalq paremiologiyasida

umumiy semantik modellar bilan bir qatorda, milliy xususiyatlar ham mavjud ekanini ko‘rsatdi. Ekzotik hayvonlar obrazlari paremiologiyada til, madaniyat va tafakkur o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni yaqqol namoyon etadi. Ushbu tadqiqot natijalari paremiologiya, qiyosiy tilshunoslik va lingvomadaniyatshunoslik sohalari uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Абрамов В.П. Русская паремиология: теория и практика. – М.: Наука, 2005.
2. Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека**.** – М.: Языки русской культуры, 1999.
3. Вежбицкая А. Язык. Культура. Познание. – М.: Русские словари, 1996.
4. Гак В.Г. Сравнительная типология французского и русского языков. – М.: Просвещение, 1989.
5. Жуков В.П. Русская фразеология. – М.: Высшая школа, 2006.
6. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – М.: Высшая школа, 1996.
7. Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Академия, 2001.
8. Мокиенко В.М. Образы животных в славянской фразеологии. – СПб.: Наука, 2004.
9. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тили фразеологияси. – Тошкент: Фан, 1992.
10. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек халқ мақоллари ва маталлари**.** – Тошкент: Ўқитувчи, 2000.
11. Сафаров Ш. Лингвокультурология асослари. – Тошкент: Фан, 2010.
12. Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Языки русской культуры, 1996.
13. Тохиров Н. Ўзбек паремиологияси ва унинг лингвомаданий хусусиятлари. – Тошкент: Университет, 2015.
14. Умаров Э. Халқ оғзаки ижоди ва тил**.** – Тошкент: Фан, 2008.
15. Федоров А.В. Основы общей паремиологии. – М.: Наука, 1980.

Kodirova Nilufar Abdusattor qizi
Toshkent davlat tibbiyot universiteti

USTANOVKA TUSHUNCHASI PSIXOLOGIK KATEGORIYA SIFATIDA

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ustanovka tushunchasining psixologik kategoriya sifatidagi mazmuni, nazariy asoslari va shaxs xulq-atvorini belgilashdagi o‘rni tahlil qilinadi. Ustanovkaning kognitiv, emotsional va xulqiy komponentlari hamda uning shaxs faoliyati va ijtimoiy munosabatlar tizimidagi regulyativ funksiyasi ochib beriladi. Maqolada ustanovkaning zamonaviy psixologik talqinlari umumlashtiriladi.*

Kalit so‘zlar: *ustanovka, munosabat, ijtimoiy psixologiya, xulq-atvor, psixologik regulyatsiya.*

ПОНЯТИЕ УСТАНОВКИ КАК ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ КАТЕГОРИИ

Аннотация. *В статье анализируется понятие установки как психологической категории, раскрываются её теоретические основы и роль в регуляции поведения личности. Рассматривается структура установки, включающая когнитивный, эмоциональный и поведенческий компоненты, а также её значение в системе социальных отношений.*

Ключевые слова: *установка, отношение, социальная психология, поведение, психологическая регуляция.*

THE CONCEPT OF ATTITUDE AS A PSYCHOLOGICAL CATEGORY

Annotation. *The article analyzes the concept of attitude as a psychological category, revealing its theoretical foundations and role in regulating individual behavior. The structure of attitude, including cognitive, emotional, and behavioral components, and its significance in social interaction are examined.*

Key words: *attitude, social psychology, behavior, psychological regulation.*

Kirish. Zamonaviy psixologiyada shaxs xulq-atvori va ijtimoiy munosabatlarini tushuntirishda ichki psixologik regulyatorlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shunday regulyatorlardan biri ustanovka tushunchasi bo‘lib, u shaxsning muayyan obyekt, hodisa yoki vaziyatga nisbatan barqaror munosabatini ifodalaydi. Ustanovka shaxs faoliyatining yo‘nalganligini, tanlovlarini va ijtimoiy xatti-harakatlarini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida qaraladi.

Mazkur tushuncha psixologiya fanida uzoq tarixga ega bo‘lib, u ijtimoiy psixologiya, shaxs psixologiyasi va faoliyat nazariyasining muhim kategoriyalaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Shu bois ustanovka tushunchasini psixologik kategoriya sifatida tahlil qilish uning nazariy mohiyatini aniqlash va amaliy tadqiqotlar uchun metodologik asos yaratish nuqtai nazaridan dolzarbdir.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Ustanovka tushunchasi psixologiya fanida XX asr boshlaridan boshlab ilmiy muomalaga kirib, shaxs xulq-atvorini tushuntiruvchi fundamental kategoriyalardan biri sifatida shakllangan. Dastlabki tadqiqotlarda ustanovka shaxsning muayyan obyekt yoki vaziyatga nisbatan oldindan mavjud bo‘lgan psixik tayyorgarlik holati sifatida talqin qilinib, uning ong va xulq-atvor o‘rtasidagi vositachilik funksiyasiga alohida e’tibor qaratilgan va mazkur yondashuv ustanovkani vaqtinchalik holat emas, balki shaxs faoliyatining yo‘nalganligini belgilovchi barqaror psixologik mexanizm sifatida tushuntirishga imkon bergan.

G.Allport tomonidan berilgan klassik ta’rifda ustanovka shaxsning muayyan obyektlarga nisbatan oldindan shakllangan ruhiy tayyorgarligi sifatida izohlanib, u xulq-atvorning markaziy determinantlaridan biri deb qaraladi [5]. Allport yondashuvida ustanovka shaxsning ijtimoiy tajribasi mahsuli bo‘lib, u bilish, hissiy munosabat va xatti-harakatlarga tayyorgarlik elementlarini birlashtiruvchi yaxlit tizim sifatida talqin qilinadi. Ushbu konsepsiya keyingi ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar uchun nazariy poydevor vazifasini bajargan.

Ijtimoiy psixologiya doirasida ustanovka tushunchasi shaxsning ijtimoiy muhit bilan o‘zaro ta’siri jarayonida shakllanuvchi barqaror munosabat sifatida chuqurlashtirildi. Xususan, L.Festinger tomonidan ishlab chiqilgan kognitiv dissonans nazariyasida ustanovkalar shaxsning ichki kognitiv muvozanatini saqlash mexanizmi bilan bevosita bog‘lanadi [10]. Ushbu yondashuvga ko‘ra, shaxs o‘z qarashlari, e’tiqodlari va xulq-atvori o‘rtasida nomuvofiqlik yuzaga kelganda, aynan ustanovkalar orqali ushbu dissonansni kamaytirishga intiladi. Bu holat ustanovkaning faqat xulqiy emas, balki murakkab kognitiv asosga ega ekanini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Faoliyat nazariyasi doirasida ustanovka masalasi sobiq sovet psixologiya maktabida tizimli ravishda ishlab chiqilgan. D.N.Uznadze tomonidan asoslangan ustanovka nazariyasida ushbu tushuncha shaxsning ehtiyojlari va faoliyat tajribasi asosida shakllanuvchi psixik holat sifatida talqin qilinadi [3]. Uznadze yondashuvi ustanovkaning nafaqat barqaror, balki vaziyatga bog‘liq dinamik jihatlarini ham tushuntirib beradi. Unga ko‘ra, ustanovka shaxs faoliyatini avtomatik tarzda yo‘naltiruvchi ichki regulyator bo‘lib, ongli nazoratdan tashqarida ham faoliyat ko‘rsatishi mumkin.

Mazkur nazariy yo‘nalish keyinchalik pedagogik va ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarda rivojlantirildi. Xususan, qator dissertatsiya tadqiqotlarida ustanovka shaxsning kasbiy yo‘nalganligi, ijtimoiy rollarni qabul qilishi va qadriyatli munosabatlari bilan uzviy bog‘liq holda tahlil qilingan. Tadqiqotlarda ustanovkalar shaxs faoliyatining motivatsion-asoslovchi mexanizmi sifatida namoyon bo‘lib, u kasbiy va oilaviy rollarning shakllanishida muhim omil ekani ko‘rsatib berilgan [1], [2]. Ustanovka tushunchasi ko‘pincha munosabat, qadriyat va motivatsiya kategoriyalari bilan integrativ tarzda ko‘rib chiqiladi. Biroq ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mazkur tushunchalar o‘rtasidagi chegaralar har doim ham aniq farqlanmagan. Ayrim tadqiqotlarda ustanovka va munosabat tushunchalari sinonim sifatida qo‘llanilsa, boshqa ishlarida esa ular funksional jihatdan farqlanadi. Ayniqsa, ustanovkaning ongli va ongsiz darajalarda namoyon bo‘lish mexanizmlari yetarlicha aniqlashtirilmagan.

Shu jihatdan, ustanovkani shaxsning ijtimoiy tajribasi, qadriyatli yo‘nalganligi va faoliyatini birlashtiruvchi psixologik konstrukt sifatida talqin qilish maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuv ustanovkani nafaqat xulq-atvorning tashqi ko‘rinishlari bilan, balki shaxsning ichki motivatsion va aksiologik tizimi bilan bog‘liq holda o‘rganish imkonini beradi. Aynan shu holat ustanovka muammosini zamonaviy ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar doirasida qayta ko‘rib chiqish zaruratini yuzaga keltiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot nazariy-tahliliy xarakterga ega bo‘lib, ustanovka tushunchasini psixologik kategoriya sifatida tizimli umumlashtirish va uning shaxs xulq-atvori hamda ijtimoiy faoliyatni regulyatsiya qilishdagi o‘rnini ilmiy asoslashga yo‘naltirilgan. Tadqiqot metodologiyasi ustanovkani alohida psixik holat yoki faqat xulq-atvor bilan bog‘liq hodisa sifatida emas, balki shaxsning ijtimoiy tajribasi, qadriyatlari va faoliyatini birlashtiruvchi murakkab psixologik konstrukt sifatida talqin qilishga asoslandi. Shu bois metod tanlash jarayonida ustanovkaning kognitiv, emotsional va xulqiy jihatlari o‘zaro bog‘liqlikda ko‘rib chiqildi.

Tadqiqot jarayonida birinchi navbatda ilmiy adabiyotlarni tizimli tahlil qilish metodi qo‘llanildi. Ushbu metod orqali ijtimoiy psixologiya, shaxs psixologiyasi va motivatsiya nazariyalarida ustanovka tushunchasining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda turli nazariy maktablarda berilgan talqinlari aniqlashtirildi. Tizimli tahlil ustanovkaning psixologik mazmunini ochib berishda uning tarixiy rivoji va nazariy transformatsiyasini izchil ko‘rib chiqish imkonini berdi [8]. Natijada ustanovkaning shaxs faoliyatidagi regulyativ funksiyasi ilmiy jihatdan asoslandi.

Shuningdek, tadqiqotda kontent-tahlil metodidan foydalanildi. Ushbu metod psixologik adabiyotlarda “ustanovka”, “munosabat”, “qadriyat” va “motivatsiya” tushunchalarining qo‘llanish chastotasi, mazmuniy konteksti hamda semantik chegaralarini aniqlashga xizmat qildi. Kontent-tahlil orqali turli mualliflar tomonidan berilgan ta’riflar o‘rtasidagi umumiylik va farqlar aniqlanib, ustanovkaning konseptual chegaralarini aniqlashtirish imkoniyati yuzaga keldi [4]. Bu yondashuv ustanovka tushunchasining ko‘p ma’noliligini metodologik jihatdan tartibga solishga xizmat qildi.

Tadqiqot metodologiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida qiyosiy-nazariy metod qo‘llanildi. Ushbu metod yordamida ustanovkani shaxs xulq-atvorini tushuntirishda turli nazariy yondashuvlarning (ijtimoiy-kognitiv, motivatsion va faoliyatga yo‘naltirilgan) imkoniyatlari o‘zaro qiyoslab tahlil qilindi. Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatdiki, ayrim nazariyalarda ustanovka ongli tanlovlar bilan bog‘liq holda talqin qilinsa, boshqalarida u avtomatik va ongsiz regulyator sifatida qaraladi [9]. Ushbu farqlarni aniqlash ustanovkaning murakkab psixologik tabiati va ko‘p darajali tuzilishini tushuntirish imkonini berdi.

Metodologik asos sifatida ijtimoiy-psixologik yondashuv va faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv qabul qilindi. Ijtimoiy-psixologik yondashuv ustanovkani shaxs va ijtimoiy muhit o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir mahsuli sifatida talqin qilishga imkon berdi. Ushbu yondashuv doirasida ustanovkalar ijtimoiy tajriba, ijtimoiy me’yorlar va madaniy kontekst bilan uzviy bog‘liq holda tahlil qilindi [6]. Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv esa ustanovkani shaxs faoliyatining yo‘nalganligini belgilovchi ichki mexanizm sifatida ko‘rib chiqish imkonini berdi. Ushbu yondashuvda ustanovka shaxs ehtiyojlari, maqsadlari va faoliyat natijalari bilan bog‘liq holda tushuntirildi [7]. Mazkur metodologik yondashuvlar majmui ustanovkani shaxs xulq-atvorini tashqi ta’sirlarga mexanik javob sifatida emas, balki shaxsning ijtimoiy tajribasi va qadriyatli yo‘nalganligini mujassamlashtiruvchi ichki psixologik regulyator sifatida talqin qilish imkonini berdi. Ushbu metodologik asos tadqiqotning mantiqiy izchilligi va nazariy yaxlitligini ta’minlab, ustanovka muammosini zamonaviy psixologiya doirasida kompleks o‘rganish uchun mustahkam poydevor yaratdi.

Tahlil va natijalar. O‘tkazilgan nazariy tahlillar ustanovkaning psixologik kategoriya sifatida ko‘p komponentli va ko‘p darajali tuzilishga ega ekanini ko‘rsatdi. Ilmiy adabiyotlarni umumlashtirish natijasida aniqlanishicha, ustanovka shaxs faoliyatida alohida psixik holat sifatida emas, balki kognitiv, emotsional va xulqiy komponentlarning o‘zaro birligi asosida namoyon bo‘ladigan murakkab regulyativ tizim sifatida shakllanadi. Ushbu uch komponentli model ijtimoiy psixologiyada keng qo‘llanilib, ustanovkaning ichki mexanizmlarini tushuntirish imkonini beradi [8].

Kognitiv komponent shaxsning muayyan obyekt, hodisa yoki ijtimoiy vaziyat haqidagi bilimlari, e’tiqodlari va tasavvurlarini qamrab oladi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, aynan ushbu komponent orqali ustanovka ongli baholash va qaror qabul qilish jarayonlari bilan bog‘lanadi. Shaxsning obyekt haqidagi bilimlari qanchalik tizimli va mantiqiy asoslangan bo‘lsa, ustanovkaning barqarorligi va izchilligi shunchalik yuqori bo‘ladi. Zamonaviy ijtimoiy-kognitiv tadqiqotlarda kognitiv komponent ustanovkaning “mazmuniy yadrosi” sifatida talqin qilinib, u xulq-atvorning bashorat qilinishida muhim rol o‘ynashi ta’kidlanadi [4].

Emotsional komponent esa shaxsning obyektga nisbatan hissiy munosabatini ifodalaydi va ustanovkaning subyektiv ahamiyatini belgilaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, hissiy jihatdan kuchli ustanovkalar ko‘pincha mantiqiy asoslangan bilimlardan ham ustun turib, shaxs xatti-harakatlarini tezkor tarzda yo‘naltiradi. Bu holat ayniqsa ijtimoiy vaziyatlarda, qaror qabul qilish uchun vaqt cheklangan sharoitlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Zamonaviy neyropsixologik tadqiqotlarda ham emotsional komponentning xulq-atvor regulyatsiyasidagi ustuvor roli qayd etilmoqda [9].

Xulqiy komponent ustanovkaning tashqi ifodasi bo‘lib, shaxsning real harakatlarga tayyorgarligini va muayyan vaziyatda qanday xatti-harakatni tanlashini belgilaydi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, xulqiy komponent mustaqil element sifatida emas, balki kognitiv va emotsional komponentlar bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi. Shu sababli ayrim holatlarda shaxs ongli ravishda muayyan qarashlarni qo‘llab-quvvatlasa-da, emotsional fon yoki ijtimoiy bosim ta’sirida boshqa xatti-harakatni namoyon etishi mumkin. Bu holat ustanovkaning ichki qarama-qarshiliklarga ega bo‘lish ehtimolini ham ko‘rsatadi [6].

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, ustanovka shaxs faoliyatida tanlovlarni soddalashtiruvchi va xulq-atvorni barqarorlashtiruvchi ichki regulyator vazifasini bajaradi. Ustanovkalar orqali shaxs ijtimoiy vaziyatlarni tezkor baholaydi, ularni “qabul qilinadigan” yoki “rad etiladigan” deb ajratadi va mos xatti-harakatni tanlaydi. Aynan shu mexanizm orqali shaxs murakkab ijtimoiy muhitda or-

tiqcha kognitiv yuklamasiz harakat qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Tadqiqotchilar ta’kidlashicha, ustanovkalar mavjud bo‘lmaganda, har bir ijtimoiy vaziyat alohida tahlilni talab qilgan bo‘lardi, bu esa faoliyat samaradorligini keskin pasaytirgan bo‘lur edi [7].

Olib borilgan tahlillar asosida ustanovkani shaxs faoliyatini ichki darajada yo‘naltiruvchi psixologik “filtr” sifatida talqin qilish mumkin. Ushbu filtr tashqi axborotni bevosita emas, balki shaxsning oldindan shakllangan bilimlari, hissiy tajribasi va qadriyatli yo‘nalganligi orqali qabul qilish va baholashni ta’minlaydi. Natijada, tashqi ta’sirlarning hammasi ham xulq-atvorda bevosita aks etmaydi; faqat shaxs ustanovkalari bilan mos keluvchi stimullar faoliyatni real ravishda yo‘naltiradi. Ushbu talqin ustanovkani shaxsning ijtimoiy tajribasini barqarorlashtiruvchi va uni faoliyat jarayonida qayta ishlab beruvchi markaziy mexanizm sifatida ko‘rishga imkon beradi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, olib borilgan nazariy-tahliliy tadqiqotlar ustanovka tushunchasining psixologik kategoriya sifatidagi fundamental va integrativ mohiyatini aniqlash imkonini berdi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ustanovka shaxs xulq-atvori va ijtimoiy munosabatlarini tushuntirishda ikkilamchi yoki yordamchi tushuncha emas, balki shaxs faoliyatining yo‘nalganligini belgilovchi, ichki regulyatsiyani ta’minlovchi markaziy psixologik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. U shaxsning ichki tayyorgarligi, ijtimoiy tajribasi, qadriyatli yo‘nalganligi va faoliyat tanlovlarini yagona tizimda mujassamlashtiradi.

Maqola doirasida amalga oshirilgan tahlillar ustanovkaning kognitiv, emotsional va xulqiy komponentlardan iborat murakkab tuzilishga ega ekanini yana bir bor tasdiqladi. Aynan ushbu komponentlarning o‘zaro birligi ustanovkani shaxs xatti-harakatlarini barqarorlashtiruvchi va ijtimoiy vaziyatlarda tezkor orientatsiyani ta’minlovchi mexanizmga aylantiradi. Kognitiv komponent orqali shaxs obyektni anglaydi va baholaydi, emotsional komponent orqali unga subyektiv ahamiyat yuklaydi, xulqiy komponent esa mazkur baholash va munosabatlarni real faoliyatga ko‘chirish imkonini beradi. Bu holat ustanovkaning shaxs faoliyatida tanlovlarni soddalashtiruvchi va kognitiv yuklamani kamaytiruvchi funksiyasini tushuntirishga imkon beradi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, ustanovka shaxs faoliyatini tashqi ta’sirlarga bevosita va mexanik javob berish shaklida emas, balki ichki psixologik qayta ishlash jarayoni orqali boshqaradi. Shu jihatdan, ustanovka tashqi axborotni tanlab qabul qilish, baholash va unga munosabat bildirish jarayonida ichki regulyator vazifasini bajaradi. Bu xulosa ustanovkani faqat ijtimoiy munosabatlar kontekstida emas, balki shaxsning umumiy psixologik faoliyatini tartibga soluvchi universal mexanizm sifatida ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

Mazkur xulosalar ustanovka muammosini empirik tadqiqotlarda yanada chuqurroq o‘rganish uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Xususan, kelgusidagi tadqiqotlarda ustanovkalarning shakllanish mexanizmlari, ularning ongli va ongsiz darajalarda namoyon bo‘lish xususiyatlari hamda konkret ijtimoiy rollar (masalan, ota-onalik, kasbiy faoliyat, fuqarolik pozitsiyasi) bilan bog‘liqligi maxsus empirik tadqiqotlar orqali aniqlashtirilishi maqsadga muvofiqdir. Shu tariqa, ustanovka tushunchasini chuqurroq anglash shaxs xulq-atvorini prognoz qilish va ijtimoiy-psixologik jarayonlarni samarali boshqarish uchun muhim ilmiy-amaliy imkoniyatlar yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Абульханова-Славская, К.А. Стратегия жизни. – М.: Мысль, 1991. – 299 с. – URL: https://www.twirpx.com/file/132084/

2. Леонтьев, Д.А. Психология смысла: природа, строение и динамика смысловой реальности. – М.: Смысл, 2003. – 487 с. – URL:https://www.twirpx.com/file/196815/

3. Узнадзе, Д.Н. Психология установки. – Тбилиси: Мецниереба, 1966. – 450 с. – URL: https://www.twirpx.com/file/227616/

4. Ajzen, I. Attitudes, Personality and Behavior. – 2nd ed. – Maidenhead: Open University Press, 2005. – 178 p. – URL: https://www.open.edu/openlearn/health-sports-psychology/attitudes-personality-and-behaviour/content-section-0

Mavlonov Anvar Uktamovich
Toshkent amaliy fanlar universiteti Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi va metodikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi

RAQAMLI MEDIA VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI: JAMIYATGA TA’SIRI VA TURLARI

Annotatsiya. *Ushbu matn media texnologiyalari va ommaviy axborot vositalarining jamiyatdagi ahamiyati, funksiyalari va rivojlanish bosqichlarini keng qamrovda yoritadi. Media axborot almashinuvi va muloqot jarayonida vosita sifatida xizmat qilib, axborotni tezkor yetkazish, tizimlashtirish, jamiyatdagi ijtimoiy muvozanatni saqlash hamda madaniy qadriyatlarni tarqatish kabi vazifalarni bajaradi. Matnda media texnologiyalarining tarixiy rivojlanishi — yozuvdan boshlab bosma, elektron va raqamli mediagacha bo‘lgan bosqichlar orqali tahlil qilinadi. Shuningdek, jamiyatning ibtidoiy, an’anaviy, sanoat va postindustrial bosqichlari media vositalarining shakllanishi va roliga qanday ta’sir ko‘rsatishi ko‘rsatib o‘tiladi. Matnning ikkinchi qismida OAVni tasniflash mezonlari (mulkchilik shakli, tarqalish ko‘lami, uslub, davriylik, janr va signal uzatish usuli) hamda bosma, elektron va axborot agentliklari kabi OAV turlari batafsil bayon etilgan. Bu mazmun jurnalistika va kommunikatsiya fanlari bo‘yicha tadqiqotlar, media siyosatini shakllantirish va OAVning jamiyatdagi o‘rnini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: *media texnologiyalari, ommaviy axborot vositalari (OAV), kommunikatsiya, mediama’lumot, axborot almashinuvi, bosma media, elektron media, raqamli media, ijtimoiy muvozanat, madaniy qadriyatlar, axborot agentliklari, jamiyat turlari (ibtidoiy, an’anaviy, sanoat, postindustrial), tasnif mezonlari (mulkchilik, tarqalish ko‘lami, uslub, davriylik, janr).*

ЦИФРОВЫЕ МЕДИА И СРЕДСТВА МАССОВОЙ ИНФОРМАЦИИ: ИХ ВЛИЯНИЕ НА ОБЩЕСТВО И ВИДЫ

Аннотация. *Данный текст всесторонне рассматривает значение, функции и этапы развития медиатехнологий и средств массовой информации в обществе. Медиа служат инструментом в процессе обмена информацией и коммуникации, выполняя такие функции, как быстрая передача информации, систематизация, поддержание социального равновесия в обществе и распространение культурных ценностей. В тексте анализируется историческое развитие медиатехнологий по этапам, от письменности до печатных, электронных и цифровых СМИ. Также показано, как примитивный, традиционный, индустриальный и постиндустриальный этапы развития общества влияют на формирование и роль СМИ. Во второй части текста подробно описываются критерии классификации СМИ (форма собственности, сфера распространения, стиль, периодичность, жанр и способ передачи сигнала) и типы СМИ, такие как печатные, электронные и информационные агентства. Это содержание важно для исследований в области журналистики и коммуникационных наук, формирования медиаполитики и определения места СМИ в обществе.*

Ключевые слова: *медиатехнологии, средства массовой информации, коммуникация, медиаинформация, обмен информацией, печатные СМИ, электронные СМИ, цифровые СМИ, социальный баланс, культурные ценности, информационные агентства, типы общества (примитивное, традиционное, индустриальное, постиндустриальное), критерии классификации (собственность, сфера распространения, стиль, периодичность, жанр).*

DIGITAL MEDIA AND MASS MEDIA: THEIR IMPACT ON SOCIETY AND TYPES

Abstract. *This text comprehensively covers the importance, functions, and stages of development of media technologies and mass media in society. Media serves as a tool in the process of*

information exchange and communication, performing functions such as rapid transmission of information, systematization, maintaining social balance in society, and dissemination of cultural values. The text analyzes the historical development of media technologies through stages, from writing to print, electronic, and digital media. It also shows how primitive, traditional, industrial, and post-industrial stages of society affect the formation and role of media. The second part of the text describes in detail the criteria for classifying media (form of ownership, scope of distribution, style, periodicity, genre, and signal transmission method) and types of media such as print, electronic, and news agencies. This content is important for research in journalism and communication sciences, the formation of media policy, and the determination of the place of media in society.

Key words: *media technologies, mass media (mass media), communication, media information, information exchange, print media, electronic media, digital media, social balance, cultural values, news agencies, types of society (primitive, traditional, industrial, post-industrial), classification criteria (ownership, scope of distribution, style, periodicity, genre).*

Zamonaviy jamiyatda ommaviy axborot vositalari (OAV) ijtimoiy hayotning ajralmas qismi bo‘lib, axborot tarqatish, fikrlar shakllantirish, madaniy qadriyatlarni uzatish va davlat hamda jamiyat o‘rtasida muloqotning muhim kanali sifatida xizmat qiladi. OAVning roli nafaqat axborot yetkazish bilan cheklanib qolmaydi, balki siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy jarayonlarga ta’sir etuvchi kuchga ega. Shu sababli, ommaviy axborot vositalarini tizimli ravishda tasniflash va ularning xususiyatlarini aniqlash zarur.

Zamonaviy OAVni tasniflashda turli mezonlar mavjud bo‘lib, ular orqali OAVning funksional, tashkiliy va texnik jihatlari batafsil o‘rganiladi. Quyida eng ko‘p qo‘llaniladigan tasnif mezonlari ko‘rib chiqiladi.

OAVni mulkchilik shakliga ko‘ra tasniflash – ularning egasi va boshqaruv tuzilmasini aniqlashga xizmat qiladi. Bu mezon OAVning siyosiy mustaqilligi, iqtisodiy barqarorligi va kontent siyosatiga ta’sir etadi[7].

a) Davlat ommaviy axborot vositalari. Davlat tashkil etgan yoki uning to‘liq nazorati ostida bo‘lgan OAV davlat siyosatini, ijtimoiy-ma’rifiy yo‘nalishlarni keng targ‘ib qiladi. Bunday OAVlar odatda umumiy manfaatlar, milliy xavfsizlik va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash kabi vazifalarni bajaradi.

b) Xususiy ommaviy axborot vositalari. Xususiy mulkdorlar yoki kompaniyalar tomonidan tashkil etilgan OAVlar tijorat maqsadida faoliyat yuritadi. Ularning asosiy vazifasi auditoriyani jalb qilish, reklama va obunalar orqali daromad olishdir. Shu bilan birga, ular jurnalistika mustaqilligini ta’minlash imkoniyatiga ega bo‘lishi mumkin.

c) Korporativ ommaviy axborot vositalari. Korporativ OAVlar ma’lum bir tashkilot, kompaniya yoki korxona uchun ichki va tashqi kommunikatsiya vazifasini bajaradi. Ular ko‘pincha o‘z xodimlari, mijozlari va hamkorlari uchun axborot tarqatadi, brend imidjini shakllantiradi hamda ichki siyosatni targ‘ib qiladi.

OAVning tarqalish ko‘lami uning auditoriya hajmi va geografik maydonini belgilaydi.

a) Markaziy ommaviy axborot vositalari. Markaziy OAVlar butun mamlakat bo‘ylab tarqaladi va keng auditoriyaga mo‘ljallangan. Ular davlat siyosati, milliy ahamiyatdagi yangiliklar va jahon voqealarini yoritishda asosiy rol o‘ynaydi.

b) Hududiy ommaviy axborot vositalari. Hududiy OAVlar ma’lum bir viloyat, shahar yoki tuman doirasida faoliyat yuritadi. Ular mahalliy yangiliklar, ijtimoiy muammolar, madaniy tadbirlar va hududiy rivojlanish masalalarini yoritishga ixtisoslashgan.

OAVning uslubi – uning axborotni qanday shaklda yetkazishi va qanday auditoriyaga mo‘ljallanganini ko‘rsatadi.

a) Jiddiy (serious) uslubdagi OAV. Jiddiy uslubdagi OAVlar axborotni aniq, tahliliy va faktlarga asoslangan holda yetkazadi. Ular siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy mavzularni chuqur o‘rganadi, ekspert fikrlariga tayangan holda maqolalar tayyorlaydi.

b) Bulvar yoki ommaviy uslubdagi OAV. Bulvar OAVlar ko‘proq senzatsion xabarlar, shaxsiy hayotga oid voqealar va yengil mavzularni yoritadi. Ularning maqsadi – katta auditoriyani jalb qilish, tez o‘qiladigan, his-tuyg‘ularga ta’sir qiluvchi materiallar taqdim etish.

c) Sariq yoki mojaroli uslubdagi OAV. Sariq uslub (yellow journalism) ommaviy e’tiborni jalb qilish uchun shov-shuvli, ba’zan ishonchsiz yoki manipulyativ ma’lumotlarni tarqatishi mumkin. Mojaroli uslub esa, ko‘pincha konflikt, dramaga asoslangan voqealarni ta’kidlab, o‘quvchi qiziqishini oshiradi. Bu uslubda axborotning obyektivligi xavf ostida bo‘lishi mumkin.

OAVning davriyligi uning chiqarilish chastotasi va muntazamligini anglatadi.

a) Kundalik gazetalar. Kundalik gazetalar har kuni chiqadi va joriy voqealar, siyosiy yangiliklar, iqtisodiy o‘zgarishlar hamda jamiyatdagi dolzarb masalalarni yoritadi. Ular tezkor axborot manbai sifatida katta ahamiyatga ega.

b) Haftalik gazetalar. Haftalik gazetalar bir haftada bir marta chiqarilib, ko‘proq tahliliy maqolalar, sharhlar va keng qamrovli materiallar bilan ajralib turadi. Ular joriy voqealarni chuqurroq yoritishga imkon beradi.

OAV janrlari ularning mazmuni va maqsadiga ko‘ra farqlanadi.

a) Ijtimoiy-siyosiy janr. Bu janr siyosiy voqealar, davlat siyosati, jamiyat hayoti, huquqiy masalalar va ijtimoiy muammolarni yoritadi. Maqsad – jamiyatdagi muhim jarayonlarni tahlil qilish va jamoatchilik fikrini shakllantirish.

b) Sohaviy janr. Sohaviy OAVlar ma’lum bir soha (ta’lim, sog‘liqni saqlash, qishloq xo‘jaligi, madaniyat va h.k.) bilan bog‘liq yangiliklar va ekspert materiallarni taqdim etadi. Ular professional auditoriyaga mo‘ljallangan bo‘lib, sohaning rivojlanishiga xizmat qiladi.

c) Reklama janri. Reklama OAVda tijorat maqsadida tarqatiladigan material bo‘lib, mahsulot yoki xizmatni targ‘ib qiladi. Reklama o‘quvchi e’tiborini jalb qilish, xarid qilish istagini uyg‘otish va brendni tanitish uchun ishlatiladi.

Radio va televideniye OAVlarida signal uzatish texnologiyasi va quvvati ularning qamrovini belgilaydi.

a) Signal uzatish usuli. Signal uzatish usuli – analog yoki raqamli formatda bo‘lishi mumkin. Raqamli uzatish sifat, kanallar soni va interaktiv imkoniyatlarni oshiradi, shuningdek, axborot xavfsizligini ta’minlashga yordam beradi.

b) Signal quvvati. Signal quvvati OAVning qamrovini, ya’ni qaysi hududgacha yetib borishini belgilaydi. Kichik quvvatli stansiyalar mahalliy auditoriyaga mo‘ljallangan bo‘lsa, katta quvvatli stansiyalar butun mamlakat yoki mintaqani qamrab oladi.

Zamonaviy ommaviy axborot vositalarini tasniflash mezonlari ularning ijtimoiy roli, funksiyasi, boshqaruv shakli va texnik imkoniyatlarini chuqur tushunishga xizmat qiladi. Mulkchilik shakli, tarqalish ko‘lami, uslubi, davriyligi, janri va signal uzatish usuli kabi mezonlar orqali OAVni tizimli tahlil qilish mumkin. Bu tasniflar jurnalistika va kommunikatsiya sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borishda, media siyosatini shakllantirishda hamda OAVning jamiyatdagi o‘rnini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Ommaviy axborot vositalari jamiyat hayotida axborot tarqatish, fikr almashish, ma’lumot yetkazish va ommaviy ongni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ular turli shakl va vositalar orqali keng auditoriyaga tezkor va tizimli tarzda axborot yetkazib beradi. OAVlar o‘z faoliyati va texnologik xususiyatlariga ko‘ra bir necha guruhga bo‘linadi. Quyida ushbu guruhlar tizimli ravishda bayon etiladi.

Bosma OAVlar axborotni bosma shaklda tarqatadigan vositalarni ifodalaydi. Bu turdagi OAVlar o‘quvchi auditoriyasiga aniq va qat’iy tartibda, shakllangan matn ko‘rinishida taqdim etadi. Bosma OAVlar quyidagi turlarga bo‘linadi:

Gazetalar – kundalik yoki haftalik nashr etiladigan, yangiliklar, tahliliy maqolalar, intervyu va e’lonlarni o‘z ichiga olgan nashrlar.

Jurnallar – ma’lum bir mavzuga ixtisoslashgan, ko‘pincha oyiga yoki chorakda chop etiladigan nashrlar bo‘lib, ular ko‘proq tahliliy va ilmiy-uslubiy materiallarga yo‘naltiriladi.

Byulletenlar – qisqa va aniq axborotlar, yangiliklar, rasmiy ma’lumotlar berish uchun mo‘ljallangan nashrlar.

Ma’lumotnomalar – ma’lum bir soha bo‘yicha tizimli ma’lumotlar, qo‘llanmalar va hujjatlarni o‘z ichiga olgan nashrlar.

Varaqalar (flayerlar) – tezkor axborot berish uchun mo‘ljallangan, odatda bitta varaqqa sig‘adigan ma’lumotlar.

Reklama bannerlari (shchitlar) – tashqi reklama vositalari bo‘lib, ko‘cha va yo‘l bo‘ylarida o‘rnatilib, keng auditoriyaga vizual axborot yetkazadi.

Bosma OAVlarning asosiy xususiyati shundaki, ular o‘quvchiga matn va rasm orqali aniq va doimiy axborot manbai bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, bosma nashrlar muayyan vaqt oralig‘ida chop etilishi sababli, ular axborotni tartibli va rejalashtirilgan holda yetkazadi[8].

Elektron OAVlar axborotni elektromagnit to‘lqinlar, raqamli signallar yoki internet tarmog‘i orqali uzatadigan vositalardir. Ular axborotni tezkor, ko‘p kanalli va interaktiv tarzda tarqatishga imkon beradi. Elektron OAVlar quyidagilardan iborat:

Radio – ovozli signallar orqali yangiliklar, musiqa, suhbatlar va turli dasturlarni efirga uzatadi.

Televideniye – video va audio signallar orqali ko‘rsatuvlar, yangiliklar, hujjatli filmlar, ko‘ngilochar dasturlarni taqdim etadi.

Internet – global tarmoq orqali matn, audio, video, foto va boshqa turdagi axborotni keng auditoriyaga yetkazadi; interaktivlik va tezkorlik xususiyatiga ega.

Video va audio yozuvlar – ma’lumotlar, ta’limiy materiallar, musiqiy asarlar va hujjatli tasvirlar ko‘rinishida saqlanib, keyinchalik tarqatiladigan media mahsulotlar.

Kinematografiya – kino orqali badiiy, hujjatli yoki ta’limiy filmlar yordamida keng ommaga axborot va ma’naviy-estetik ta’sir yetkazish vositasi[10].

Elektron OAVlar axborotni ko‘p formatda (matn, rasm, audio, video) yetkazadi, shuningdek, ularning interaktivligi tufayli tomoshabin va tinglovchi bilan aloqa o‘rnatish imkoniyati mavjud. Bu vositalar axborot tarqatishda vaqt va makon chegaralarini kamaytirib, global miqyosda ma’lumot yetkazishga xizmat qiladi.

Axborot agentliklari ommaviy axborot vositalari uchun yangiliklar va ma’lumotlarni ishlab chiqarish, yig‘ish, tahlil qilish va tarqatish bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlardir. Ular yangiliklarni tezkorlik bilan yetkazish, rasmiy manbalardan ma’lumot olish va uni turli OAVlarga taqdim etish orqali axborot sohasida muhim o‘rin egallaydi[9].

Axborot agentliklari ko‘pincha quyidagi vazifalarni bajaradi[11]:

yangiliklarni tezkor yig‘ish va tasdiqlash;

axborotni tahrir qilish va standartlarga moslashtirish;

nashrlar, televideniye, radio va internet platformalari uchun materiallar yetkazib berish;

xalqaro va mahalliy darajada axborot almashinuvi.

Agentliklar axborot tarqatish tizimida “axborot ishlab chiqaruvchisi” sifatida faoliyat yuritadi va boshqa OAVlar uchun ishonchli manba bo‘lib xizmat qiladi.

Ommaviy axborot vositalari jamiyatda axborot oqimini tashkil etishda asosiy rol o‘ynaydi. Ular bosma, elektron va agentliklar kabi uch asosiy guruhga bo‘linadi. Bosma OAVlar matn asosida, elektron OAVlar esa audio-video va raqamli formatlarda axborot tarqatadi. Axborot agentliklari esa turli OAVlar uchun yangiliklarni yig‘ish va tarqatish bilan shug‘ullanadi. Shu tariqa, OAVlar jamiyatda axborotning tez, aniq va tizimli tarqalishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Castells, M. The Rise of the Network Society. 2nd ed. Wiley-Blackwell, 2010.
2. Denis McQuail, Media Performance: Mass Communication and the Public Interest. Sage Publications, 1992.
3. Denis, M. Communication and Media Studies. New York: Oxford University Press, 2018.
4. Hall, S. Representation: Cultural Representations and Signifying Practices. Sage, 1997.

Ahmadjonova Nilufaroy
Andijon davlat pedagogika institute talabasi

IJTIMOIY TARMOQ MATNLARI ORQALI ZAMONAVIY TIL NORMALARINI O‘RGANISH USULLARI

Annotatsiya. *Maqolada ijtimoiy tarmoqlar matnlari asosida ona tili darslarida zamonaviy til normalarini o'rganish metodikasi tahlil qilingan. Iijtimoiy media platformalarining lingvistik xususiyatlari, o'quvchilarda tanqidiy fikrlash va til savodxonligini rivojlantirishning innovatsion usullari ko'rsatilgan. Facebook, Instagram, Telegram va boshqa platformalardagi matnlarni didaktik material sifatida qo'llash bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *ijtimoiy tarmoqlar, media savodxonligi, til normalari, tanqidiy fikrlash, ona tili ta'limi, raqamli lingvistika, internet-diskurs.*

МЕТОДЫ ИЗУЧЕНИЯ СОВРЕМЕННЫХ ЯЗЫКОВЫХ НОРМ НА ОСНОВЕ ТЕКСТОВ СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ

Аннотация. *В статье проанализирована методика изучения современных языковых норм на уроках родного языка на основе текстов социальных сетей. Показаны лингвистические особенности социальных медиаплатформ, а также инновационные методы развития критического мышления и языковой грамотности у учащихся. Даны практические рекомендации по использованию текстов из Facebook, Instagram, Telegram и других платформ в качестве дидактического материала.*

Ключевые слова: *социальные сети, медиаграмотность, языковые нормы, критическое мышление, обучение родному языку, цифровая лингвистика, интернет-дискурс.*

METHODS FOR STUDYING MODERN LANGUAGE NORMS THROUGH SOCIAL MEDIA TEXTS

Abstract. *The article analyzes the methodology for studying modern language norms in native language lessons based on social media texts. Linguistic features of social media platforms, innovative methods of developing critical thinking and language literacy in students are shown. Practical recommendations are given on the use of texts on Facebook, Instagram, Telegram, and other platforms as didactic material.*

Key words: *social networks, media literacy, language norms, critical thinking, native language education, digital linguistics, internet discourse.*

Kirish. XXI asr raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan davr sifatida tavsiflanib, ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy kommunikatsiyaning yetakchi vositalaridan biriga aylandi. Bugungi kunda ijtimoiy media platformalari nafaqat axborot almashinuvi, balki ijtimoiy, madaniy va lingvistik jarayonlarning shakllanishida muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2024-yil holatiga binoan O‘zbekistonda 13 milliondan ortiq foydalanuvchi turli ijtimoiy tarmoqlardan muntazam foydalanadi, bu ko‘rsatkich ayniqsa yoshlar orasida yuqori ulushni tashkil etadi. Mazkur holat yosh avlodning axborot makonida faol ishtirok etishi bilan bir qatorda, ularning nutqiy faoliyati va til madaniyatiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda.

Tilshunoslik nuqtai nazaridan, raqamli muhit tilning rivojlanishi va transformatsiyasi uchun qulay sharoit yaratadi. Ingliz tilshunosi D. Crystal internetni nafaqat kommunikatsiya vositasi, balki tilning o‘zgarishi va rivojlanishidagi eng dinamik maydonlardan biri sifatida baholab, uni zamonaviy til jarayonlarining asosiy harakatlantiruvchi omili deb hisoblaydi [1, 272-b]. Ushbu fikr internet makonida yuzaga kelayotgan yangi til birliklari, qisqartmalar, vizual-belgili unsurlar va interaktiv nutq shakllarining til tizimiga ta’sirini ilmiy asosda tushuntirish imkonini beradi.

Shuningdek, rossiyalik tilshunos N.B. Mechkovskaya raqamli kommunikatsiya jarayonlarini global lingvistik taraqqiyot kontekstida baholab, uni “to‘rtinchi til inqilobi” sifatida talqin etadi. Olimning ta’kidlashicha, til taraqqiyotida birinchi inqilob yozuvning paydo bo‘lishi bilan, ikkinchisi bosma kitobning ixtirosi bilan, uchinchisi elektron aloqa vositalarining rivoji bilan bog‘liq bo‘lgan bo‘lsa, to‘rtinchi inqilob internet va raqamli kommunikatsiya davri bilan belgilanadi [2, 456-b]. Bu yondashuv raqamli muhitning til taraqqiyotidagi tarixiy ahamiyatini ochib beradi.

Metodologiya. O‘zbek tilshunosligida ham ijtimoiy tarmoqlarning tilga ta’siri masalasi faol o‘rganilmoqda. Xususan, D.U. Xudoyberganova ijtimoiy tarmoqlarni nafaqat kommunikativ makon, balki til yangilanishi va o‘zgarishining o‘ziga xos laboratoriyasi sifatida talqin qiladi. Tadqiqotchining fikricha, mazkur muhitda klassik adabiy til me’yorlari, zamonaviy sleng birliklari hamda xorijiy tillardan o‘zlashmalar o‘zaro uyg‘unlashib, gibrid til shakllarini vujudga keltiradi [3, 78-b]. Bu holat, ayniqsa, yoshlar nutqida yaqqol namoyon bo‘lib, ona tili ta’limida media savodxonlik va tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish zaruratini yanada kuchaytiradi.

Shunday qilib, ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy til jarayonlarining faol maydoni sifatida tilshunoslik va pedagogika fanlari uchun muhim tadqiqot obyekti bo‘lib, ularni ta’lim jarayoniga ilmiy asosda integratsiyalash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy yoshlar nutqiga sezilarli va tizimli ta’sir ko‘rsatmoqda. Xususan, F.R. Rahmonovaning eksperimental tadqiqotlari natijalariga ko‘ra, 14–17 yoshdagi o‘quvchilarning 68 foizi kundalik og‘zaki va yozma nutqida ijtimoiy tarmoqlar orqali o‘zlashtirilgan so‘z va iboralardan faol foydalanishi aniqlangan [4, 234-b]. Ushbu holat ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar nutqiy faoliyatidagi muhim manba sifatida shakllanib borayotganidan dalolat beradi.

Mazkur jarayon sharoitida an’anaviy ta’lim usullari raqamli avlod ehtiyojlarini to‘liq qondira olmayotgani tobora yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Kanadalik tadqiqotchi G. McCulloch bugungi o‘quvchilarni internet muhitida voyaga yetayotgan birinchi avlod sifatida tavsiflab, ularning dunyoqarashi, o‘qish strategiyalari hamda tilni idrok etish usullari oldingi avlodlardan tubdan farq qilishini ta’kidlaydi [5, 89-b]. Bu esa ta’lim jarayonida innovatsion, media va raqamli kompetensiyalarga asoslangan yondashuvlarni joriy etish zaruratini yuzaga keltiradi.

Shu bilan birga, til me’yorlarini saqlash va rivojlantirish masalasi ham zamonaviy pedagogik yondashuvlarni talab etadi. Sh.S. Ismatullayevning fikricha, hozirgi zamon ona tili darslarida nafaqat klassik grammatika va orfografiya masalalariga e’tibor qaratish, balki o‘quvchilarda media savodxonlik hamda raqamli lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi [6; 145-b]. Ushbu yondashuv ona tili ta’limini real kommunikativ muhit bilan uzviy bog‘lash imkonini beradi.

Ijtimoiy tarmoqlar matnlari asosida ona tili darslarida zamonaviy til me’yorlarini o‘rgatishning samarali usullarini ishlab chiqishda quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir: birinchidan, ijtimoiy tarmoqlardagi til xususiyatlarini lingvistik jihatdan tizimli tahlil qilish; ikkinchidan, o‘quvchilarda media matnlarini tanqidiy baholash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi metodlarni aniqlash; uchinchidan, til me’yorlarini o‘rgatishda ijtimoiy tarmoqlar materiallaridan samarali foydalanish metodikasini ishlab chiqish.

Ijtimoiy tarmoqlar tilining leksik xususiyatlari masalasi ham alohida ilmiy qiziqish uyg‘otadi. D.U. Xudoyberganova olib borgan tadqiqotlar natijasida o‘zbek tilida ijtimoiy tarmoqlarda uch asosiy leksik qatlam mavjudligi aniqlangan: adabiy-me’yoriy (klassik) o‘zbek tili birliklari; rus va ingliz tillaridan o‘zlashgan hamda qo‘shimchalar orqali moslashgan birliklar; shuningdek, raqamli kommunikatsiya jarayonida yuzaga kelgan yangi leksik birliklar. Mazkur qatlamlarning o‘zaro qorishuvi ijtimoiy tarmoqlar tilining o‘ziga xosligini belgilaydi.

Ijtimoiy tarmoqlar tilining muhim belgilaridan yana biri matn va vizual elementlarning uyg‘unlashuvidir. G.N. Trofimova ta’kidlaganidek, **kreolizatsiyalangan matnlar** verbal (matn) va noverbal (rasm, emoji, stiker) komponentlarning uzviy birligi asosida shakllanib, faqat ularning birgalikdagi qo‘llanishi orqali to‘liq semantik mazmun kasb etadi [7; 67-b]. Masalan, “Bugun darsga kech qoldim 😅 ustoz jahli chiqdi ☹️” kabi ifodada qo‘llangan emojilar matn mazmunini kuchaytirish, hissiy holatni aniqlashtirish va kommunikativ ta’sirni oshirishga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, raqamli kommunikatsiyada qisqartmalar va grafik belgilar faol qo‘llanilishi bilan ham ajralib turadi. N.M. Mahmudova tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda Telegram kanallarda o‘zbek tilida 47 ta qisqartma keng tarqalganligi aniqlangan [8; 89]. Shuningdek, N. Baron ijtimoiy tarmoqlar tilida punktuatsiya va orfografiyaning funksional o‘zgarishiga e’tibor qaratib, punktuatsiya an’anaviy grammatik vazifasidan tashqari, yangi pragmatik va ekspressiv ma’nolarni ifodalay boshlaganini ta’kidlaydi [10;78-b]. Masalan, “Kelyapsanmi?...” shakli noaniqlik va shubhani bildirsa, “Kelyapsanmi?!” ifodasi quvonch yoki taajjub kabi hissiy holatlarni ifodalashga xizmat qiladi.

Shunday ekan, ijtimoiy tarmoqlar tili zamonaviy til taraqqiyotining faol maydoni bo‘lib, uning lingvistik va pedagogik jihatdan chuqur o‘rganilishi ona tili ta’limini zamon talablariga moslashtirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Natija va muhokama. Media savodxonligi. zamonaviy ta’lim jarayonida shaxsning axborot muhitida samarali va ongli faoliyat yuritishini ta’minlovchi muhim pedagogik kompetensiya sifatida namoyon bo‘ladi. U ta’lim oluvchilarning turli ommaviy axborot vositalari hamda raqamli platformalar orqali uzatilayotgan mediamateriallarni izlab topish, ularni tanqidiy va mantiqiy tahlil qilish, mazmuni, ishonchliligi va ijtimoiy-ta’limiy ahamiyatini baholash qobiliyatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Shu bilan birga, media savodxonligi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan pedagogik maqsadlarda samarali foydalanish, axborot xavfsizligi va axloqiy-me’yoriy tamoyillarga rioya qilgan holda mustaqil, ijodiy va mas’uliyatli mediamahsulotlar yaratish ko‘nikmalarini rivojlantirishni ham qamrab oladi. Mazkur kompetensiyaning ta’lim jarayoniga integratsiyalashuvi ta’lim oluvchilarda mustaqil fikrlash, tanqidiy tafakkur hamda umuminsoniy va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda muhim pedagogik omil hisoblanadi.

Sh.S. Ismatullayev media savodxonlikni ona tili ta’limining uzviy va ajralmas tarkibiy qismi sifatida talqin qilib, uni bosqichma-bosqich rivojlanuvchi kompetensiyalar tizimi sifatida yoritadi. Olim tomonidan taklif etilgan “Media savodxonlik piramidasi” modeli ta’lim oluvchilarning media bilan ishlash darajasini aniqlash hamda ularni yuqori darajadagi media kompetensiyalariga yo‘naltirishga xizmat qiladi. Mazkur modelga ko‘ra, media savodxonlik boshlang‘ich foydalanuvchi darajasidan boshlanib, faol foydalanuvchi, ongli iste’molchi, tanqidiy muallif bosqichlari orqali yaratuvchi darajasigacha rivojlanadi. Har bir bosqich o‘ziga xos bilim, ko‘nikma va malakalarni talab etib, ta’lim oluvchilarda media matnlarni idrok etish, tahlil qilish, baholash va yaratish kompetensiyalarining izchil shakllanishini ta’minlaydi [6; 167-b]. Ushbu yondashuv ona tili ta’limida matn bilan ishlash jarayonini kengaytirib, uni zamonaviy raqamli va ijtimoiy axborot muhitiga moslashtirish imkonini beradi.

Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar matnlari bilan ishlash jarayonida tanqidiy fikrlash yetakchi ahamiyat kasb etadi. Chunki bunday matnlar ko‘pincha subyektiv munosabatlar, manipulyativ usullar va yashirin g‘oyaviy ta’sirlarni o‘z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan, amerikalik tadqiqotchi Richard Paul tomonidan berilgan tanqidiy fikrlash ta’rifi mazkur jarayonning pedagogik mohiyatini ochib beradi. Uning ta’kidlashicha, *“tanqidiy fikrlash — bu o‘z fikrini takomillashtirish maqsadida uni ongli ravishda tahlil qilish san’atidir”* [4; 45-b]. Ushbu yondashuv ta’lim oluvchilarda nafaqat axborotni qabul qilish, balki uni tahlil qilish, dalillash, asosli xulosalar chiqarish va mustaqil pozitsiyani shakllantirish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Demak, media savodxonlik va tanqidiy fikrlashning o‘zaro integratsiyasi ona tili ta’limida ta’lim oluvchilarning nutqiy, mantiqiy hamda axborot-kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim pedagogik omil bo‘lib, ularni zamonaviy axborot makonida faol, ongli va mas’uliyatli subyekt sifatida shakllantirishga zamin yaratadi.

F.R. Rahmonova o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirish jarayonini izchil va tizimli rivojlanadigan pedagogik jarayon sifatida talqin qilib, uni to‘rt bosqichga ajratadi. Mazkur bosqichlar ta’lim oluvchilarning axborot bilan ishlash faoliyatini soddadan murakkabga tomon yo‘naltirishga xizmat qiladi.

Birinchi bosqich – qabul qilish bosqichi bo‘lib, unda o‘quvchilarning taqdim etilgan ma’lumotni idrok etishi, asosiy mazmunini anglash va dastlabki tushunchalarni shakllantirishi naz-

arda tutiladi. Ushbu bosqich tanqidiy fikrlash jarayonining poydevorini tashkil etib, axborotni ongli qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltiriladi.

Ikkinchi bosqich – tahlil qilish bosqichi bo‘lib, bunda o‘quvchilar matn yoki axborot birligini tarkibiy qismlarga ajratadi, asosiy va ikkilamchi g‘oyalarni aniqlaydi, muallif pozitsiyasi hamda dalillash usullarini o‘rganadi. Mazkur bosqich o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash va analitik yondashuvni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Uchinchi bosqich – baholash bosqichi bo‘lib, u axborot manbalarining ishonchliligi, dolzarbligi va obyektivligini tekshirishni o‘z ichiga oladi. Bu jarayonda o‘quvchilar fakt va fikrni farqlash, yashirin ta’sir va manipulyativ unsurlarni aniqlash ko‘nikmalarini egallaydi, bu esa media savodxonlik kompetensiyasining rivojlanishiga xizmat qiladi.

To‘rtinchi bosqich – sintez bosqichi bo‘lib, unda o‘quvchilar tahlil va baholash natijalariga tayangan holda xulosalar chiqaradi, mavjud bilimlarni qayta ishlaydi hamda yangi bilim va g‘oyalarni shakllantiradi. Ushbu bosqich tanqidiy fikrlashning eng yuqori darajasi bo‘lib, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, ijodkorlik va muammoli vaziyatlarga yechim topish kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan [4; 278].

Shunday qilib, F.R. Rahmonova tomonidan taklif etilgan bosqichli model ona tili va boshqa fanlar ta’limida tanqidiy fikrlashni tizimli rivojlantirish uchun samarali pedagogik asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu model o‘quvchilarga axborot bilan ongli va mas’uliyatli ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish, matnni tahlil qilish va baholash qobiliyatlarini mustahkamlash imkonini beradi.

Birinchi bosqich – Kuzatish va to‘plash – o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashning poydevorini yaratadi. Ushbu bosqichning asosiy maqsadi o‘quvchilarga ijtimoiy tarmoqlardagi matnlarni aniqlash, ularni to‘plash va mavzu, uslub hamda til xususiyatlariga ko‘ra kategoriyalarga ajratish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Shu tariqa, o‘quvchilar nafaqat matnlarni idrok etish, balki ularni tizimli tarzda tasniflash orqali axborot bilan ongli ishlashni boshlaydilar. Bu bosqich tanqidiy fikrlash va media savodxonlikning amaliy jihatlarini rivojlantirishga zamin yaratadi va keyingi bosqichlarda lingvistik tahlil hamda baholash faoliyatiga tayyorgarlik sifatida xizmat qiladi. Ingliz tilshunosi D. Crystal ta’kidlashicha, “Tilni o‘rganishning birinchi qadami – uni tabiiy muhitda kuzatishdir” [1; 156]. Ushbu tamoyil pedagogik jarayonda o‘quvchilarga tilning haqiqiy kontekstda ishlatilishini o‘rganish imkonini beradi, chunki til faqat nazariy qoidalar bilan emas, balki real kommunikativ vaziyatlarda shakllanadi va rivojlanadi. Shu nuqtai nazardan, o‘quvchilar bilan “Til detektivi” amaliy topshirig‘ini bajarish maqsadga muvofiqdir.

Ushbu amaliyot davomida o‘quvchilar bir hafta mobaynida Telegram, Instagram yoki Facebook kabi ijtimoiy tarmoqlarda kamida 20 ta turli post yoki izohlarni to‘playdi. To‘plangan matnlar mavzu, uslub va til xususiyatlari bo‘yicha kategoriyalarga ajratiladi, bu esa o‘quvchilarda lingvistik kuzatuvchilik, tahliliy fikrlash va axborot bilan mas’uliyatli ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, o‘quvchilar real kommunikativ kontekstda yangi leksik birliklarini aniqlash imkoniyatiga ega bo‘lib, media savodxonlik va tanqidiy fikrlashning dastlabki kompetensiyalarini mustahkamlaydi. Har bir to‘plangan matn oldindan belgilangan mezonlar asosida tizimli tarzda tasniflanadi, bu esa o‘quvchilarda axborotni kategoriyalarga ajratish va tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu nuqtai nazardan, matnlarni quyidagi mezonlar bo‘yicha saralash tavsiya etiladi:

Mavzu: Matnning asosiy kontenti yoki yo‘nalishi aniqlanadi, masalan, sport, ta’lim, ko‘ngilochar kontent va boshqa mavzular. Bu o‘quvchilarga kommunikativ kontekstni tushunish va turli matn janrlarini farqlash imkonini beradi.

Uslub: Matnning rasmiy yoki norasmiy ohangda ekanligi belgilanishi kerak. Ushbu mezon o‘quvchilarga stilistik farqlarni aniqlash va muloqot maqsadiga mos til vositalarini tushunish ko‘nikmasini shakllantiradi.

Til xususiyatlari: Matnda qo‘llangan til birliklari standart, sleng yoki aralash (gibrid) til toifalariga ajratiladi. Bu tahlil o‘quvchilarga tilning turli qatlamlarini aniqlash va raqamli kommunikatsiyada yangi lingvistik tendensiyalarni kuzatish imkoniyatini yaratadi.

Shu tarzda tizimli tasniflash o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, lingvistik kuzatuvchilik va media savodxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi hamda keyingi bosqichlarda lingvistik tahlil va baholash faoliyatiga tayyorgarlik vazifasini bajaradi.

Maqsad: Ushbu bosqichning asosiy maqsadi o‘quvchilarga to‘plangan matnlarni til me’yorlari nuqtai nazaridan tizimli tarzda tahlil qilish imkonini yaratishdan iborat. Bu jarayon orqali o‘quvchilar matnning leksik, grammatik, orfografik, stilistik va pragmatik jihatlarini aniqlash, ularni o‘zaro solishtirish va mantiqan baholash ko‘nikmalarini shakllantiradilar. Natijada o‘quvchilar tanqidiy fikrlashni amaliyotda qo‘llash, til xatolarini aniqlash va matnning kommunikativ funksiyasini tushunish bo‘yicha malaka orttiradi. G.N. Trofimovaning metodikasiga tayangan holda, lingvistik tahlil quyidagi sxema bo‘yicha amalga oshiriladi [7]:

1. Leksik daraja: so‘z tanlovi, ularning kontekstga mosligi va semantik aniqligi tahlil qilinadi. Bu o‘quvchilarga matndagi leksik qarorlarni baholash va yangi lingvistik birliklarni aniqlash imkonini beradi.

2. Grammatik daraja: gap tuzilishi, so‘z o‘zgarishlari va sintaktik uslublar tekshiriladi. Ushbu tahlil o‘quvchilarga grammatik normalarni qo‘llash va sintaktik xatolarni aniqlash ko‘nikmasini shakllantiradi.

3. Orfografik daraja: imlo qoidalariga rioya qilish darajasi baholanadi. Bu bosqichda o‘quvchilar matnning yozma jihatlarini tekshiradi va standartlarga mosligini aniqlaydi.

4. Stilistik daraja: til vositalarining matnning muloqot maqsadiga mosligi tahlil qilinadi. Bu o‘quvchilarga matn ohangini, rasmiylik darajasini va kommunikativ effektini tushunishga yordam beradi.

5. Pragmatik daraja: matnning muloqot maqsadi, auditoriya bilan bog‘lanish va ijtimoiy kontekstga ta’siri aniqlanadi. Ushbu bosqich o‘quvchilarda matnni faqat grammatik yoki leksik jihatdan emas, balki kommunikativ vazifa nuqtai nazaridan baholash ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Shu tarzda, lingvistik tahlil bosqichi o‘quvchilarda tilni tanqidiy tushunish, axborotni tizimli baholash hamda media savodxonlik ko‘nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu jarayon o‘quvchilarda nafaqat matnni analiz qilish va xatolarni aniqlash qobiliyatini rivojlantiradi, balki ularni kompleks lingvistik va kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishga tayyorlaydi. Natijada o‘quvchilar keyingi bosqichlarda, ya’ni xulosalar chiqarish va sintez jarayonlarida, olingan bilim va malakalarni samarali qo‘llash imkoniga ega bo‘ladi.

Xulosa. Ana shu maqsad doirasida, ijtimoiy tarmoqlar matnlari bilan tanqidiy ishlash, ularni lingvistik va stilistik jihatdan tahlil qilish hamda normativ, maqsadga muvofiq matn yaratish ko‘nikmalari zamonaviy ona tili ta’limining ajralmas va integratsiyalashgan qismiga aylanishi lozim. Shu yondashuv o‘quvchilarda axborot bilan ongli ishlash, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, shuningdek, raqamli kommunikatsiya sharoitida til normalarini saqlash va yaratishda mustahkam pedagogik poydevor yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Crystal D. Language and the Internet. 2nd edition. Cambridge: Cambridge University Press, 2006. 304 p.

2. Мечковская Н.Б. История языка и история коммуникации: от клинописи до Интернета. М.: Флинта: Наука, 2009. 584 с.

3. Xudoyberganova D.U. Ijtimoiy tarmoqlarda o‘zbek tili: sosiolingvistik tahlil. Toshkent: O‘zDJTU nashriyoti, 2022. 256 b.

4.Rahmonova F.R. Ona tili darslarida media texnologiyalari. Toshkent: Ma'naviyat, 2023. 328 b.

5. McCulloch G. Because Internet: Understanding the New Rules of Language. New York: Riverhead Books, 2019. 326 p.

6. Ismatullaev Sh.S. Ona tili ta'limida zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Fan, 2020. 412 b

Aliyeva Lola Xomidovna
Osiyo texnologiyalar universiteti magistri
E-mail: aliyevalola77@gmail.com

ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATIDA GAP TURLARINING QO'LLANISHI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Abdulla Oripov she'riyatida gap turlarining qo'llanish xususiyatlari poetik sintaksis nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqotda darak, so'roq, buyruq va undov gaplarning badiiy nutqdagi funksional-semantik yuklamasi aniqlanadi. Shoir ijodida sodda, murakkab, qo'shma, ergash gapli, shuningdek, elliptik va to'liq bo'lmagan gaplarning poetik vazifalari ochib beriladi. Gap turlarining ritm, intonatsiya va emotsional-ekspressivlik bilan uyg'unligi Oripov she'riyatining muhim stilistik belgilaridan biri sifatida talqin etiladi. Natijada gap turlari shoirning individual uslubini shakllantiruvchi asosiy sintaktik vositalardan biri ekanligi asoslab beriladi.*

Kalit so'zlar: *gap turlari, poetik sintaksis, Abdulla Oripov she'riyati, sodda gap, murakkab gap, ekspressivlik, ritm va intonatsiya.*

УПОТРЕБЛЕНИЕ ТИПОВ ПРЕДЛОЖЕНИЙ В ПОЭЗИИ АБДУЛЛА ОРИПОВ

Аннотация. *В статье рассматриваются особенности употребления типов предложений в поэзии Абдуллы Орипова с точки зрения поэтического синтаксиса. Анализируется функционально-семантическая роль повествовательных, вопросительных, побудительных и восклицательных предложений в художественном тексте. Особое внимание уделяется использованию простых, сложных, составных, придаточных, а также эллиптических и неполных предложений. Установлено, что взаимодействие типов предложений с ритмом, интонацией и экспрессивностью является одной из характерных черт поэтического стиля поэта. Типы предложений выступают важным средством формирования художественного смысла и индивидуального авторского стиля.*

Ключевые слова: *типы предложений, поэтический синтаксис, поэзия Абдуллы Орипова, простое предложение, сложное предложение, экспрессивность, интонация.*

THE USE OF SENTENCE TYPES IN THE POETRY OF ABDULLA ORIPOV

Annotation. *This article examines the use of sentence types in the poetry of Abdulla Oripov from the perspective of poetic syntax. The study analyzes the functional and semantic roles of declarative, interrogative, imperative, and exclamatory sentences in poetic discourse. Special attention is given to simple, complex, compound, subordinate, elliptical, and incomplete sentence structures. The interaction of sentence types with rhythm, intonation, and emotional expressiveness is identified as a distinctive feature of Oripov's poetic style. The findings demonstrate that sentence types function not only as grammatical units but also as significant poetic devices shaping artistic meaning and the poet's individual style.*

Key words: *sentence types, poetic syntax, Abdulla Oripov's poetry, simple sentence, complex sentence, expressiveness, rhythm and intonation.*

Gap tilning asosiy kommunikativ birligi bo'lib, u fikrning grammatik jihatdan shakllangan va intonatsion jihatdan yakunlangan ifodasini bildiradi. Tilshunoslikda gap turlari kommunikativ maqsadiga, grammatik tuzilishiga va semantik yuklamasiga ko'ra tasniflanadi. An'anaviy yondashuvda gaplar darak, so'roq, buyruq va undov gaplarga ajratiladi, shuningdek, sodda va murakkab gaplar, to'liq va to'liq bo'lmagan konstruksiyalar alohida ko'rib chiqiladi. Bunday tasnif gapning shakliy va funksional xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, zamonaviy tilshunoslikda gap faqat grammatik tuzilma emas, balki kontekstual va pragmatik birlik sifatida

ham talqin qilinib, uning badiiy nutqdagi imkoniyatlari kengroq o‘rganilmoqda. She’riy nutqda gap turlarining qo‘llanishi nasriy nutqdan sezilarli darajada farq qiladi. Poetik matnda gaplar ko‘pincha ritm, qofiya va intonatsiyaga bo‘ysunadi, natijada grammatik me’yorlardan ongli chekinish holatlari kuzatiladi. She’riy nutqda sodda, qisqa gaplar kuchli emotsional ta’sir uyg‘otsa, murakkab gaplar orqali falsafiy mushohada va umumlashma mazmun ifodalanadi. Shuningdek, elliptik va to‘liq bo‘lmagan gaplar poetik nutqda keng qo‘llanib, mazmun kontekst orqali to‘ldiriladi. Bu hol gap turlarining poetik nutqda erkin va moslashuvchan qo‘llanishini ko‘rsatadi. Poetik matnda gap chegarasining nisbiyligi muhim nazariy masalalardan biridir. An’anaviy sintaksisda gapning chegarasi grammatik va intonatsion belgilar bilan aniqlansa, she’riy nutqda bu chegaralar ko‘pincha misra va band tuzilishiga bog‘liq bo‘ladi. Natijada bir gap bir necha misra davomida yoyilishi yoki aksincha, bir misra ichida bir nechta gap mujassamlanishi mumkin. Bu hol gapni faqat grammatik birlik sifatida emas, balki poetik butunlik doirasida talqin qilish zaruratini yuzaga keltiradi. Gap turlari va badiiy mazmun o‘rtasidagi munosabat poetik nutqda ayniqsa yaqqol namoyon bo‘ladi. Har bir gap turi ma’lum emotsional va semantik yuklamaga ega bo‘lib, shoirning estetik niyati bilan bevosita bog‘lanadi. Masalan, so‘roq va undov gaplar ichki kechinma va ruhiy keskinlikni ifodalasa, darak gaplar badiiy tasvir va umumlashma fikrni yetkazishga xizmat qiladi. Shu tariqa gap turlari poetik nutqda badiiy mazmunni shakllantiruvchi muhim sintaktik vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Abdulla Oripov she’riyatida sodda va murakkab gaplarning qo‘llanishi poetik sintaksisning muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Shoir ijodida sodda gaplar ko‘pincha ixcham, lo‘nda va semantik jihatdan zich bo‘lib, kuchli emotsional yoki falsafiy mazmunni ifodalashga xizmat qiladi. Bunday gaplar ko‘proq lirik subyektning ichki kechinmalari, qat’iy pozitsiyasi yoki keskin ruhiy holatini aks ettiradi. Sodda gaplarning strukturaviy jihatdan soddaligi ularning mazmuniy chuqurligini cheklamaydi, aksincha, poetik kontekstda badiiy ta’sirchanlikni kuchaytiradi. Ayniqsa, ega yoki kesimi tushirilgan sodda gaplar she’riy nutqda umumiy semantik fon orqali to‘ldirilib, o‘quvchini faol mushohadaga chorlaydi. Murakkab va qo‘shma gaplar Oripov she’riyatida asosan keng tafakkur, falsafiy mushohada va umumlashma mazmunni ifodalash vositasi sifatida qo‘llanadi. Bunday gaplar orqali shoir fikrni izchil rivojlantiradi, sabab-oqibat munosabatlarini ochib beradi va poetik tasvir doirasini kengaytiradi. Murakkab sintaktik konstruksiyalar she’riy nutqda faqat grammatik bog‘lanish emas, balki mazmuniy uzviylikni ta’minlovchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Ayrim hollarda qo‘shma gaplar misralararo uzilishlar orqali berilib, poetik pauza va intonatsiya yordamida yanada ta’sirchanlik kasb etadi. Ergash gapli konstruksiyalar Oripov she’riyatida mazmuniy yuklama jihatidan alohida ahamiyatga ega. Ular ko‘pincha shart, sabab, vaqt yoki izohlovchi munosabatlarni ifodalab, asosiy fikrni chuqurlashtiradi. Ergash gaplar orqali lirik qahramonning ichki mantiqi, fikrlash jarayoni va ruhiy kechinmalari bosqichma-bosqich ochiladi. Bunday konstruksiyalar she’riy matnda tafakkur dinamikasini aks ettiruvchi muhim sintaktik vosita bo‘lib xizmat qiladi. Gap turlarining ritm va intonatsiya bilan uyg‘unligi Oripov she’riyatida yaqqol seziladi. Sodda gaplar ko‘pincha keskin va qisqa ohang bilan aytilib, ritmik urg‘uni kuchaytirsa, murakkab gaplar nisbatan sokin va mulohazakor intonatsiya orqali beriladi. Natijada gap turlari she’riy nutqda nafaqat grammatik birlik, balki ritmik va intonatsion tizimning faol elementi sifatida namoyon bo‘ladi.

Abdulla Oripov she’riyatida ekspressiv gap turlari poetik nutqning emotsional va stilistik asosini tashkil etadi. Shoir ijodida ritorik savol gaplar fikrni bevosita bayon qilishdan ko‘ra, uni savol shaklida ifodalab, o‘quvchini faol mushohadaga undash vazifasini bajaradi. Bunday gaplar javob talab qilmaydi, balki ichki shubha, falsafiy izlanish yoki ijtimoiy bahoni ifodalaydi. Ritorik savollar ko‘pincha lirik qahramonning ichki monologi bilan bog‘liq holda kelib, ruhiy keskinlikni va fikrning dramatizmini kuchaytiradi. Ular poetik nutqda intonatsion ko‘tarilish va pauzalar orqali alohida ta’sirchanlik kasb etadi. Undov gaplar Oripov she’riyatida emotsional-ekspressiv mazmunni bevosita yetkazuvchi kuchli sintaktik vosita hisoblanadi. Bu gaplar orqali quvonch, iztirob, g‘azab, sog‘inch, iltijo kabi hissiy holatlar ochiq va ta’sirchan shaklda ifodalanadi. Undov gaplar ko‘pincha qisqa va ixcham bo‘lib, ega yoki kesimning tushirib qoldirilishi bilan xarakterlanadi. Grammatik jihatdan to‘liq bo‘lmagan bunday konstruksiyalar poetik kontekstda mazmunan

to‘liq va emotsional jihatdan serqirra bo‘lib namoyon bo‘ladi. Natijada undov gaplar she’rning hissiy cho‘qqisini belgilovchi muhim vositaga aylanadi. Elliptik va to‘liq bo‘lmagan gaplar ham Oripov she’riyatida ekspressivlikni ta’minlovchi sintaktik birliklar sirasiga kiradi. Ushbu gaplarda tushirib qoldirilgan bo‘laklar umumiy kontekst, oldingi misralar yoki butun she’r mazmuni orqali anglashiladi. Ellipsis poetik nutqda ixchamlik, ichki zo‘riqish va dramatik ta’sirni kuchaytirishga xizmat qiladi. Bu turdagi gaplar lirik qahramonning ruhiy holatini bevosita va lo‘nda ifodalash imkonini beradi. Ekspressiv gap turlari lirik subyekt nutqini shakllantirishda alohida ahamiyatga ega. Ritorik savollar tafakkur va izlanishni, undov gaplar esa hissiy munosabatni ifodalab, lirik qahramonning ichki dunyosini ko‘p qatlamli tarzda ochib beradi. Shu tariqa ekspressiv gap turlari Abdulla Oripov she’riyatida nafaqat grammatik shakl, balki badiiy tafakkur va individual uslubni belgilovchi muhim poetik vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Abdulla Oripov she’riyatida gap turlarining qo‘llanilishi masalasi lingvopoetik va sintaktik jihatdan alohida ilmiy qiziqish uyg‘otadi. Shoirning poetik tafakkuri grammatik shakllar orqali mazmunni chuqurlashtirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, gap qurilishidagi xilma-xillik badiiy ifodaning muhim omiliga aylanadi. Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, Oripov she’rlarida darak gaplar ko‘proq falsafiy umumlashmalar, hayotiy xulosalar va ijtimoiy munosabatlarni ifodalashda xizmat qiladi. Bunday gaplar poetik matnda qat’iylik, ishonch va mantiqiy yakdillik ohangini yuzaga keltiradi.

So‘roq gaplar, ayniqsa ritorik xarakterdagi shakllar, shoir ijodida keng qo‘llanadi. Ular o‘quvchini mushohadaga chorlaydi, matn ichida dialogik muhitni yuzaga keltiradi hamda lirik qahramonning ichki kechinmalarini ochib beradi. Ritorik so‘roqlar orqali muallif ko‘pincha inson, vatan, e’tiqod, vaqt va taqdir kabi abadiy tushunchalarga murojaat qiladi. Bu esa sintaktik birlikning semantik yukini oshirib, uni oddiy grammatik konstruktsiyadan badiiy-falsafiy vositaga aylantiradi.

Buyruq-istak gaplarning qo‘llanishi esa shoirning da’vatkorlik ruhini, ma’naviy pozitsiyasini ifodalaydi. Ular ko‘pincha vatanparvarlik, insoniylik, adolat va ezgulik g‘oyalarini targ‘ib qilish jarayonida ishlatiladi. Bunday gaplar poetik matnga emotsional ko‘tarinkilik va harakat dinamikasini olib kiradi. Undov gaplar esa hissiy-ekspressivlikni kuchaytirib, lirizmni chuqurlashtiradi.

Shuningdek, sodda va qo‘shma gaplarning o‘zaro nisbatda qo‘llanishi ham muhim stilistik ahamiyat kasb etadi. Sodda gaplar mazmunni lo‘nda va ravshan ifodalashga xizmat qilsa, qo‘shma gaplar murakkab fikr va ruhiy holatlarni tasvirlash imkonini beradi. Murakkab sintaktik konstruktsiyalar orqali shoir tafakkurining ko‘lamdorligi va falsafiy teranligi namoyon bo‘ladi. Parallel konstruksiyalar, takroriy sintaktik tuzilmalar va inversiya kabi vositalar esa matnga ritmik uyg‘unlik va estetik ta’sir bag‘ishlaydi.

Demak, Abdulla Oripov she’riyatida gap turlari nafaqat grammatik kategoriya sifatida, balki badiiy-estetik mazmunni shakllantiruvchi asosiy lingvopoetik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Ularning funksional-semantik xususiyatlarini o‘rganish shoir ijodining uslubiy xususiyatlarini chuqurroq anglashga, o‘zbek poetik sintaksisining imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Abdulla Oripov she’riyatida gap turlarining qo‘llanilishi shoirning badiiy tafakkuri, estetik ideal va individual uslubini yaqqol namoyon etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Oripov she’rlarida darak, so‘roq, buyruq-istak hamda undov gaplar o‘zaro uyg‘unlikda qo‘llanib, poetik matnning emotsional-ekspressiv kuchini oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, ritorik so‘roq gaplar orqali falsafiy mushohada, hayot va inson taqdiri haqidagi chuqur kechinmalar ifodalanadi, undov gaplar esa lirik qahramonning ichki hayajoni va ruhiy iztiroblarini ta’sirchan tarzda ochib beradi.

Shoir ijodida sodda va qo‘shma gaplarning o‘ziga xos nisbatda ishlatilishi mazmun va shakl uyg‘unligini ta’minlaydi. Sodda gaplar fikrning aniqligi va lo‘ndaligini ifodalasa, qo‘shma gaplar murakkab ruhiy holatlarni, keng qamrovli ijtimoiy-falsafiy g‘oyalarni tasvirlash imkonini yaratadi. Shuningdek, inversiya, takror, parallel konstruksiyalar kabi sintaktik vositalar gap turlarining poetik funksiyasini kuchaytiradi hamda matnga ritmik ohang va badiiy joziba bag‘ishlaydi.

Umuman olganda, Abdulla Oripov she’riyatida gap turlarining qo‘llanilishi nafaqat grammatik hodisa, balki chuqur semantik va stilistik ahamiyatga ega badiiy vosita sifatida namoyon

bo‘ladi. Bu holat shoir ijodining til boyligi, ifoda imkoniyatlari kengligi va o‘zbek adabiy tilining poetik salohiyatini yuksak darajada namoyish etishini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Oripov A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2001.
2. Oripov A. She’rlar va dostonlar. – Toshkent: Sharq, 2010.
3. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Sintaksis. – Toshkent: Fan, 2006.
4. Mahmudov N. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012.
5. Sayfullayeva R., Mengliyev B. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.
6. Nurmonov A. Sintaksis va matn lingvistikasi masalalari. – Toshkent: Fan, 2008.
7. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn lingvistikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016.
8. To‘xtasinov B. Poetik sintaksis masalalari. – Toshkent: Universitet, 2004.

Zaripov Otabek Murodullayevich
Samarqand Davlat pedagogika instituti,
Psixologiya kafedrasi dotsent

SHAXSNING O‘Z SALOMATLIGIGA MUNOSABAT NAMOYON BO‘LISHINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK JIHATLARI

Annotasiya.*Shaxsning o‘z salomatligiga munosabati insoniyat va jamiyati taraqqiyotining dolzarb muammolaridan bo‘lib kelgan. Shaxs ijtimoiy munosabatlar mahsuli, jamiyat ishlab chiqarishining asosiy harakatlantiruvchi kuchi, ishlab chiqarish va boshqa ijtimoiy munosabatlarning subyekti hisoblanadi. Maqolada shaxs uchun o‘z salomatligining dolzarbligi, salomatlikni ta’minlashning omil va sabablari, ijtimoiy-psixologik jihatlari muhimligi o‘z ifodasinin topgan.*

Kalit so‘zlar:*shaxs,salomatlik,munosabat,oila va jamiyat, salomatlik psixologiyasi, ruhiyat va salomatlik, psixologik xizmat, shaxslararo munosabatlar, ota-ona, guruh,sog‘lom turmush,e’tibor.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ОТНОШЕНИЯ ЧЕЛОВЕКА К СОБСТВЕННОМУ ЗДОРОВЬЮ

Аннотация. *Отношение человека к собственному здоровью всегда было одной из насущных проблем развития человечества и общества. Человек - продукт общественных отношений, главная движущая сила общественного производства, субъект производства и других общественных отношений. В статье рассматривается значимость собственного здоровья для человека, факторы и причины обеспечения здоровья, а также важность социально-психологических аспектов..*

Ключевые слова*: Личность, здоровье, отношения, семья и общество, психология здоровья, психика и здоровье, психологическая помощь, межличностные отношения, родители, группа, здоровый образ жизни, внимание.*

SOCIO-PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF A PERSON'S ATTITUDE TOWARDS THEIR OWN HEALTH

Abstract. *The attitude of a person to his own health has long been one of the urgent problems of the development of humanity and society. A person is a product of social relations, the main driving force of social production, a subject of production and other social relations. The article reflects the relevance of one's own health for a person, the factors and reasons for ensuring health, and the importance of socio-psychological aspects*

Key words*: personality, health, relationship, family and society, health psychology, psyche and health, psychological service, interpersonal relationships, parents, group, healthy lifestyle, attention*

Kirish.Shaxsning o‘z salomatligiga munosabati jamiyatning faol a’zosiga aylangan birinchi kunidanoq individning yangi sharoitga moslashishi shaxs organizmidagi barcha organlar yangi muhit va sharoitda hayot kechirishiga moslasha boshlaydi.Jamiyatda inson shaxs sifatida shakllanishida o‘z salomatligiga oid muammolarning juda ham ko‘pini boshidan kechirishi, psixik aqliy rivojlanishi jihatlarida namoyon bo‘ladi. XXI asrda insoniyat ko‘pgina sohalardagi yutuqlqri bilan yuqori natijalarga erishmoqda. Shaxsning o‘z salomatligiga munosabati barcha davrlarda va zamonlarda mukammalligi bilan farqlanadi. Har bir shaxsning o‘z salomatligiga munosabati, tan olingan ijtimoiy xulq normalari doirasidagi harakatlarida namoyon bo‘ladi. Jaxonda psixologiya sohasida faoliyat olib borayotgan olimlar shaxsning o‘z salomatligiga munosabati tizimida individning tub mohiyatini anglash, uning rivojlanishi va kamol topishi, shaxslararo munosabatlarda

o‘zini boshqara olishi, rivojlanishi va kamol topishi qonuniyatlarini o‘z tadqiqotlarida o‘rganganlar. Shaxsning ijtimoiy-psixologik jihatlarini anglash uchun uning shu jamiyatda tutgan o‘rni va mavqeyini bilish zarur hisoblanadi. Abu Nasr Forobiy, Alisher Navoiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Dj.Lokk, G.Leybnits, F.Galton kabi yuzlab allomalar shaxsning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni, shaxsning o‘z salomatligiga munosabati, shaxslararo munosabatlarda amal qilinishi zarur bo‘lgan ijtimoiy-psixologik jihatlarni alohida o‘rganishga e’tibor qaratganlar. Shaxs salomatligini ta’minlashda, psixika va tana o‘rtasidagi munosabatlarga qarashlarni o‘zgartirishda psixologiya fanining alohida o‘rni mavjud ekanligi bilan ajralib turadi. Qadim-qadimdan shaxs shakllanishida gigiyena va salomatlikning asosiy vazifalari mavjudligi bayon qilingan.

Shaxsning o‘z salomatligiga munosabati namoyon bo‘lishi ijtimoiy-psixologik jihatdan uning dunyoqarashi, qadriyatlari va ijtimoiy muhitga bog‘liq holda shakllanadi. Bu haqda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev: “Biz xalqimiz salomatligi uchun har qancha mablag‘ va kuch-imkoniyat sarflashga tayyormiz.Shaxsan men uchun xalqimiz salomatligi hamma narsadan ustun va qadrli[1]”-deya alohida ta’kidladilar.Bu munosabat namoyon bo‘lishining kognitiv (bilim), emotsional (hissiyot) va xulq-atvor komponentlarini qamrab olib, sog‘lom turmush tarzi (STS) tamoyillariga doimiy ravishda rioya qilish, kasallikdan qo‘rqish yoki uni inkor etish kabi ko‘rinishlarda to‘liq namoyon bo‘ladi:

-shaxsning o‘z salomatligiga ijtimoiy-psixologik jihatdan namoyon bo‘lish xususiyatlari;

-shaxsdagi ijtimoiy ustanovkalar, o‘z salomatligiga bo‘lgan munosabati, oilaviy tarbiya, turli hayotiy sharoitlardagi shaxslararo munosabatlar,atrofdagilarning ta’siri va ijtimoiy muhitdagi trendlar (sport, fitnes, to‘g‘ri ovqatlanish) natijasida shakllanadi;

-kognitiv komponent,salomatlik haqidagi bilimlar darajasi va kasallikning oldini olishga bo‘lgan ishonch darajasining yuqoriligi;

-emotsional-irodaviy komponent, turli kasallikdan qo‘rqish, o‘z salomatligi uchun javobgarlikni his qilish, irodaviy harakatlar (badantarbiya, zararli odatlardan voz kechish);

-xulq-atvor komponenti, sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarining hayotiy faoliyatga to‘liq tarzda qo‘llanilishi;

Shaxsning o‘z salomatligiga munosabati faol (profilaktika) yoki passiv (faqat davolanish) tarzda bo‘lishi mumkin, bu bevosita uning shaxslararo munosabatlari va ijtimoiy-ruhiy kechinmalariga bog‘liq hisoblanadi.

Asosiy qism. Shaxs o‘z salomatligini saqlash muammolari insoniyatni asosiy vazifalaridan hisoblanadi, individ sifatida dunyoga keladi shaxs sifatida shakllanadi. 3 yoshli bolalar birinchi “inqiroz” davrini o‘z boshlaridan kechirishadi, dastlabki salomatlik borasidagi o‘zgarishlar aynan shu davrdan boshlanadi, ruhiy salomatligi joyida bo‘lgan shaxs o‘z salohiyati (jismoniy va aqliy imkoniyatlari)dan to‘laqonli foydalana oladi, kundalik yengil stresslarni o‘z-o‘zini boshqarish orqali yengib o‘tadi. Shaxs salomatligini saqlash butunjaxon muammolaridan hisoblanadi, shaxs salomatligini saqlashni zamonaviy tushunish o‘ziga xos xususiyatlarga egaligi bilan farqlanadi. Shaxs salomatligi muammosi dastlab qadimdan Gippokrat asarlarida uchraydi, donishmand asarlarida kasallik emas balki shaxs salomatligini asrashda nimalarga e’tibor qaratish zarurligi ta’kidlanadi.Adabiyotlarda shaxs salomatligini saqlashda asosiy vosita shaxslararo munosabatlarda o‘z irodaviy xususiyatlarini boshqara olish ekanligi bayon qilingan. Shaxslararo munosabatlarda sog‘lom psixologik muhit asosiy o‘rinni egallaydi. O‘zaro munosabatlarda shaxsning individual psixologik xususiyatlari va o‘z imkoniyatlarini ishga solib faoliyatda muvaffaqiyatga erisha olishi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi, shuningdek, shaxsning o‘z salomatligiga munosabati sog‘lom psixologik muhit tashkil etishda intizomli bo‘lishda ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Shaxsning o‘z salomatligiga munosabati namoyon bo‘lishi turli munosabatlarda insonning ruhiy salomatligini asrash muhimligi o‘rganilgan. Individning ruhiy salomatligi, o‘z salomatligiga munosabati ayniqsa o‘smirlik davrida hissiy reaksiyalarning kuchayishi bilan tavsiflanadi. Shaxsning munosabatlarda stress, depressiya, tashvish va tajovuzkor harakatlarni belgilari, ruhiy salomatlikning deyarli 50 foizi shaxsning o‘smirlik davrida 14 yoshda boshlanishi psixolog olimlarning tadqiqotlarida aniqlangan.Shaxs salomatligini asrash asosiy muammolardan biri bo‘lib, katta yoshli shaxslarda uchraydigan kasalliklarning 65-70 foizi ruhiyat bilan bog‘liq hisoblanadi. Shaxs o‘z salomatligini

asrab o‘zida irodaviy xususiyatlarni tarbiyalay olsa, o‘zaro munosabatlarda yuqori samaradorlikka erishadi, yuksak qat’iyatni tarbiyalash esa yuqori effekt beradi, ayniqsa shaxsning o‘zini boshqara olishi kelgusidagi muvaffaqiyatlarning asosi hisoblanadi. Individ shaxs sifatida shakllanib borar ekan, har qanday ezgu maqsadga erishishi uchun avvalo unda hohish va faollik zarur, o‘zi astoyidil hohlamasdan amalga oshirgan har qanday urinishlar samarasiz yakun topadi hamda salomatligiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi, o‘zaro munosabatlarda ham bu holat yaqqol namoyon bo‘ladi. Olimlarning aniqlashlaricha shaxslararo munosabatlardagi muammolarning boshlanishi aksariyati 14 yoshgacha bo‘lgan davrdan boshlanadi, aynan ushbu davrlarda shaxslarda o‘z salomatligiga munosabati to‘g‘risida o‘ylanmaydi, bu holatlar kuzatilib aniq va rejali psixokoprreksion profilaktik ishlar amalga oshirilmaydi. Atrofdagi eng yaqin kishilar (ota-onalar, aka-opa, o‘qituvchi, ustozlar, muassasa psixologi) tomonidan kerakli tashxis va shu bilan bog‘liq chora-tadbirlar amalga oshirilmaydi. Natijada bola shaxs bo‘lib shakllanib borar ekan, unda ruhiy xastalikning umrbod davom etishi kuzatiladi.

Turli hayotiy sharoitlarda har bir shaxs, o‘z salomatligiga alohida e’tibor qaratishi, depressiyadan qutulish uchun bir qancha vazifalarni bajarishi zarur hisoblanadi.

- konfliktlarga bormang;
- doimiy ravishda jismonan faol bo‘ling;
- negativ fikrlovchi shaxslardan yiroq bo‘ling;
- Ijtimoiy munosabatlarda doimo faollik zarur;

Shaxs psixologik salomatligini asrashda psixolog mutaxassislar va tibbiyot xodimlarining o‘zaro hamkorlikda, faoliyatga kirishishi muvaffaqiyatli bo‘ladi. Shaxslararo munosabatlarda bilimning o‘zi kamlik qiladi, shaxsning butun hissi, sezgilari, uning instinktiv xarakatlari muloqot madaniyati orqali yaxshi ta’sir ko‘rsatadi. Shaxslararo munosabatlar inson miyasida his-tuyg‘ular, emotsional holatlar, yuksak ichki kechinmalar tarzida aks etishi hissiyotni yuzaga keltiradi. Shaxslararo munosabatlarda birorta ruhiy jarayon his-tuyg‘ularsiz kechmaydi. Shaxsdagi hissiy qo‘zg‘alishlar yurakda ham aks etadi. Sezgi va idrokdan tortib to tafakkurgacha bo‘lgan barcha operatsiyalar turli darajadagi hissiy ozgarishlar bilan namoyon bo‘ladi. Shaxslarda kechadigan his-tuyg‘ular turli-tuman bo‘lib, ularga quyidagilar kiradi:quvonch, g‘azab, g‘am-g‘ussa, vahimali holatlarni kiritamiz. Shaxsning asosiy faol xususiyatlaridan biri, tevarak-atrof muhitga ta’sir ko‘rsata olish qobiliyatidir. Avvalo shaxsning qondirilishi lozim bo‘lgan extiyojlari, ikkinchidan, tashqi olamning javob qaytarishi lozim bo‘lgan ta’sirlari shaxs faolligi manbalari hisoblanadi. Jaxon psixologiyasida shaxslararo munosabtlar, shaxsning extiyojlari, shaxs faolligi borasida ko‘pgina tadqiqotlar olib borilgan. Shaxsning ish samaradorligi shaxsning shaxslararo munosabatlaridagi kayfiyati bilan belgilanadi. Bunda quyidagilar asosiy hisoblanadi:

-shaxsning faolligi;
-o‘zaro munosabatlar;
-ish faoliyatidan qoniqish;
-shaxsning himoyalanganligi;
-ichki xotirjamlik.

Shaxs shakllanishining dastlabki davrlaridanoq bu holatlar shaxsda shakllanadi. Shaxsni shaxslararo munosabatlar bo‘yicha mavjud holati tashvishlantirsa ushbu holatda har doim unda o‘zining xarakteridagi muammolarni ham aniqlash imkoni bo‘ladi. Shaxs o‘zining shaxsiy muammosini har doim boshqa odamlar bilan aloqa qilmay ham hal etishi mumkin. Professor V.M.Karimova:“bizning o‘z salomatligimizni muhofaza qilishimiz, organizmimizning himoya imkoniyatlarini oshirib, betob bo‘lib qolganimizda qanday yo‘llar bilan xastalikdan qutulish bo‘yicha fikrlar va tajriba umr davomida takomillashib boradi”[2]. Shaxs shakllanishida shaxsiy sifatlar xususan, nerv sistemasining tipi, analizatorlarning xususiyati emotsional-irodaviy sifatlarini ham hisobga olishlari zarur hisoblanadi. Shaxsning sog‘ligi va o‘zini yaxshi his qilishi, o‘z hayotini davomiyligi, faol va munosib ish faoliyati ovqatlanishining xarakteriga bog‘liq hisoblanadi.

O‘z-o‘zini baholash psixologik salomatlikning asosiy mezonlaridan biridir.Insonning o‘zini qanday qabul qilishi, kuchli va zaif tomonlarini qanday baholashi, uning ruhiy barqarorligi, motivatsiyasi va ijtimoiy munosabatlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi[3]. Individning odam, inson, shaxs

tarzida voyaga yetib, ulg‘ayishi, o‘zi yashab turgan dunyoni anglab yetishi, o‘zidagi individual xususiyatlarni namoyon etishi, ushbu jarayonlarning yoshga va jinsga bog‘liq jihatlarini tahlil qilish zarur hisoblanadi.

Kuzatishlarimiz davomida shaxsning o‘z salomatligiga munosabati ifodalanishining psixologik xususiyatlarini tahlili davomida quyidagi xulosalarga ega bo‘ldik.

“Siz o‘z sog‘ligingizni qanday baholaysiz?” savoliga berilgan javoblarda 78 % ishtirokchilar yaxshi baholayman deb javob berishganidan, ushbu shaxslarning o‘z salomatligiga doimiy e’tiborli ekanligini isboti hisoblanadi.

“Salomatlik nima?” savoliga tadqiqot davomida 80 nafar harbiy xizmatchilarni javoblarini tahlil qilganimizda 98 % ishtirokchilar ushbu savolga yaxshi jismoniy va ruhiy holat deb, 2 % ishtirokchilar esa yetarli darajadagi turmush tarzi deya javob qaytarishdi, javoblardan ma’lun bo‘ldiki, harbiy xizmatchilar yaxshi ruhiy va jismoniy holatni salomatlikning asosi deya biladilar.

“Sizning ruhiy salomatligingizga qanday manbalar ko‘proq ta’sir ko‘rsatadi?” savoliga talaba yoshlarning 93 % ijtimoiy tarmoqlar xabarlari, 2 % inson salomatligi va ruhiyati to‘g‘risidagi kitoblar, 3% talaba yoshlar turli ijtimoiy guruhlardagi shaxslar, 2 % ishtirokchilar esa tibbiyot soxasi mutaxasislari deb javob berishgan. Natijalardan ma’lumki, bugungi jamiyat a’zolari bo‘lgan yoshlarning asosiy qismi o‘z salomatliklarini muhofaza qilish to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ham ijtimoiy tarmoqlar orqali o‘rganib,o‘zlari uchun asosiy manba sifatida foydalanishlarini bayon qilishdi.

“Siz salomatligingiz to‘g‘risida qanchalik qayg‘urasiz?”savoliga respondentlarning 81 % tez-tez qayg‘urib turishlarini,13% ishtirokchilar esa salomat bo‘lganliklari sababli bunga ko‘p ham ehtiyoj sezmasligini, 4% bunday sharoitda dastlab turli stress holatlarga tushishini va boshqa yaqinlari bilan maslaxatlashib,o‘z salomatligi haqida qayg‘urishini, 2% ishtirokchilar esa doimiy salomatliklari borasida qayg‘urishga ba’zan yetarlicha shart-sharoitlari yetishmasdan qolishini bayon qilganlar.

Shaxsdagi stress-inson organizmining haddan tashqari zo‘riqish, salbiy emotsiyalar yoki oddiygina zerikishga bo‘lgan javob reaktsiyasi hisoblanadi. Kichik miqdordagi stress hamma uchun kerak, chunki bu shaxsni fikrlashga, muammodan chiqish yo‘lini topishga undaydi, stresssiz hayot zerikarli hisoblanadi. Boshqa tomondan, agar stress juda ko‘p bo‘lsa, tana zaiflashadi, kuchsizlanadi va muammolarni hal qilish qobiliyatini yo‘qotadi. Ushbu muammoga bir qancha ilmiy tadiqotlar bag‘ishlangan. Stressning paydo bo‘lish mexanizmlari batafsil o‘rganilib chiqilgan va juda murakkabdir: ular bizning gormonal, asab va qon tomir tizimlarimiz bilan bog‘liq. Shuni ta’kidlash zarurki, og‘ir stresslar shaxs salomatligiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Shaxsning doimiy stress holatida bo‘lishi immunitetni pasaytiradi va ko‘plab jiddiy kasalliklarga sabab bo‘ladi (yurak-qon tomir, oshqozon-ichak va boshqalar).

Xulosa. Shaxsning o‘z salomatligiga munosabati namoyon bo‘lishining ijtimoiy- psixologik jihatlarini o‘rganish shaxs salomatligining jamiyat taraqqiyotida muhimligini ta’kidlaydi.Yuqori darajadagi stress va salbiy his-tuyg‘ular shaxs salomatligiga jiddiy ta’sirlar ko‘rsatadi. Shaxsning o‘z salomatligiga qanday munosabatda bo‘lishi oiladagi muhitga nihoyatda bog‘liq hisoblanadi. Professor V.M.Karimova:“har qanday sharoitda ham barcha harakatlar ong tomonidan boshqarilib boradi[4]”-deya alohida ta’kidlaydi. Kuzatishlarimiz natijasida quyidagilarni tavsiya qilamiz:

1.Turli hayotit sharoitlarda ham o‘zimizning ruhiy va jismoniy holatlarimizni muvozanatda saqlay olishimiz zarur vazifa hisoblanadi.

2.Shaxslararo munosabatlarda irodaviy xususiyatlarga tayanish, turli ijtimoiy-psixologik muammolarga sabrli bo‘lib, to‘g‘ri xulosa chiqarish zarur hisoblanadi.

3.Har qanday muammoli vaziyatlarda ham hissiy-irodaviy holatlarni boshqara olish zarur hisoblanadi,ayniqsas oilaviy munosabatlarda.

4.Shaxslararo muloqot jarayonida axloqiy va hissiy holatlarni tahlil qilib,turli yosh toifasidagi insonlarni individual-psixologik xarakter xususiyatlarini inobatga olish zarur vazifalardan hisoblanadi.

5.Ijtimoiy munosabatlarda muloqot jarayonida suxbatdoshning etnopsixologik va gender xususiyatlarini inobatga olish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. [Elektron resurs]. URL: https://president.uz/uz/lists/view/5063 (Murojaat sanasi: 23.02.2026).
2. Karimova V.M. Salomatlik psixologiyasi yoxud sog'lom bo'lish uchun ruhiyatni boshqarish sirlari. – Toshkent, 2025. – 24-b.
3. Internatsional multi Disciplinary journal for research. – 2025. – Volume 12, Issue 12.
4. Karimova V.M. Psixologiya: O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2002. – 74-b.

Anorova Zuhra Shomurot qizi
Osiyo texnologiyalari magistranti

INGLIZ TILIDAGI BREND NOMLARINING SEMANTIK MOTIVATSIYASI VA KONSEPTUAL ASOSLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ingliz tilidagi brend nomlarining semantik motivatsiyasi va ularning konseptual asoslari kognitiv lingvistika nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqotda brend nomlarida ma'no tanlash jarayoni, leksik motivatsiya, konsept, obraz va assotsiatsiya masalalari yoritiladi. Apple, Amazon, Nike, Jaguar kabi mashhur brendlar misolida metafora va metonimiyaning nomlash jarayonidagi roli aniqlanadi. Shuningdek, brend nomlarida pozitiv konnotatsiya, universal semantik belgilar hamda milliy-madaniy neytrallikning globallashuv sharoitidagi ahamiyati ochib beriladi. Tadqiqot natijalari brend nomlash jarayonining kognitiv va semantik mexanizmlarini tushunishga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *brend nomi, semantik motivatsiya, konseptual asos, kognitiv lingvistika, metafora, metonimiya, konnotatsiya*

СЕМАНТИЧЕСКАЯ МОТИВАЦИЯ И КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ НАЗВАНИЙ БРЕНДОВ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация. *В статье рассматриваются семантическая мотивация и концептуальные основы англоязычных брендовых названий с позиций когнитивной лингвистики. Анализируются особенности смыслового выбора и лексической мотивации в процессе наименования брендов, а также роль концепта, образа и ассоциации. На примере брендов Apple, Amazon, Nike, Jaguar выявляется значение метафоры и метонимии в формировании брендовых имен. Особое внимание уделяется позитивной коннотации, универсальным семантическим признакам и проблеме национально-культурной нейтральности брендов в условиях глобализации. Результаты исследования способствуют более глубокому пониманию когнитивных и семантических механизмов бренд-нейминга.*

Ключевые слова: *брендовое название, семантическая мотивация, концептуальная основа, когнитивная лингвистика, метафора, метонимия, коннотация*

SEMANTIC MOTIVATION AND CONCEPTUAL FOUNDATIONS OF BRAND NAMES IN THE ENGLISH LANGUAGE

Abstract. *This article examines the semantic motivation and conceptual basis of English brand names from the perspective of cognitive linguistics. The study focuses on meaning selection, lexical motivation, and the role of concepts, images, and associations in brand naming. Using well-known brands such as Apple, Amazon, Nike, and Jaguar as examples, the research highlights the function of metaphor and metonymy in the formation of brand names. Special attention is paid to positive connotations, universal semantic features, and the importance of national-cultural neutrality in the context of globalization. The findings contribute to a deeper understanding of the cognitive and semantic mechanisms underlying brand naming.*

Key words: *brand name, semantic motivation, conceptual basis, cognitive linguistics, metaphor, metonymy, connotation*

Kirish. Bugungi globallashuv sharoitida brend nomlari nafaqat marketing vositasi, balki muhim lingvistik va kognitiv hodisa sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, ingliz tilidagi brend nomlari xalqaro kommunikatsiyada keng qo'llanilib, turli madaniyatlar va tillar o'rtasida universal semantik ko'prik vazifasini bajaradi. Brend nomlash jarayoni tasodifiy emas, balki muayyan se-

mantik motivatsiya, konseptual asos va kognitiv mexanizmlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Zamonaviy tilshunoslikda brend nomlari semantikasi, ularning konnotativ ma’nosi, metafora va metonimiya asosida shakllanishi kognitiv lingvistika doirasida faol o‘rganilmoqda. Apple, Amazon, Nike, Jaguar kabi mashhur brendlar nomlari inson ongida muayyan obraz, assotsiatsiya va ijobiy baholashni uyg‘otishga qaratilgan. Shu bois, brend nomlarining semantik motivatsiyasini aniqlash va ularning konseptual asoslarini tahlil qilish dolzarb ilmiy masalalardan biridir. Mazkur maqolaning maqsadi ingliz tilidagi brend nomlarining semantik motivatsiyasi va konseptual asoslarini kognitiv lingvistika nuqtayi nazaridan tahlil qilish, shuningdek, ularning globallashuv sharoitidagi universal va madaniy jihatlarini ochib berishdan iborat.

Metodologiya. Tadqiqot jarayonida bir qator zamonaviy lingvistik metodlardan foydalanildi. Xususan, deskriptiv-tahliliy metod orqali ingliz tilidagi mashhur brend nomlarining leksik va semantik xususiyatlari tavsiflandi. Semantik tahlil metodi brend nomlarida ma’no tanlovi va leksik motivatsiyani aniqlashga xizmat qildi. Bundan tashqari, kognitiv-lingvistik yondashuv asosida brend nomlarida aks etuvchi konsept, obraz va assotsiatsiyalar tahlil qilindi. Metafora va metonimiyaning nomlash jarayonidagi roli kognitiv metafora nazariyasi doirasida o‘rganildi. Tadqiqotda Apple, Amazon, Nike, Jaguar kabi brendlar tanlab olinib, ular qiyosiy va pragmasemantik tahlil asosida ko‘rib chiqildi. Shuningdek, lingvokulturologik metod yordamida brend nomlarining milliy-madaniy neytralligi va ularning turli madaniy muhitlarda qabul qilinishi masalalari tahlil etildi. Tadqiqot natijalari umumlashtirish va xulosa chiqarish metodlari asosida tizimlashtirildi.

Natijalar va muhokamalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ingliz tilidagi brend nomlarining aksariyati yuqori darajadagi semantik motivatsiyaga ega bo‘lib, ular ma’lum konseptual modellarga asoslanadi. Masalan, *Apple* brendi soddalik, tabiiylik va innovatsiya konseptlari bilan bog‘liq bo‘lib, u inson ongida ijobiy va qulay obrazni shakllantiradi. *Amazon* nomi esa kuch, kenglik va cheksizlik konseptini ifodalab, kompaniyaning global miqyosdagi faoliyatini ramziy tarzda aks ettiradi. *Nike* brendi qadimgi yunon mifologiyasidagi g‘alaba ma’budasi nomidan kelib chiqqan bo‘lib, bu holat metaforik asosda muvaffaqiyat va g‘alaba g‘oyasini ifodalaydi. *Jaguar* esa tezlik, qudrat va nafislik bilan bog‘liq zoomorfik metafora sifatida iste’molchida kuchli assotsiativ ta’sir uyg‘otadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, brend nomlarida pozitiv konnotatsiya va universal semantik belgilar ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bu esa brendlarning turli milliy-madaniy muhitlarda oson qabul qilinishiga imkon yaratadi. Milliy-madaniy neytrallik ingliz tilidagi brend nomlarining globallashuv sharoitida muvaffaqiyatli tarqalishining muhim omili sifatida namoyon bo‘ladi. Umuman olganda, ingliz tilidagi brend nomlari semantikasi kognitiv jarayonlar, obrazli tafakkur va pragmatik maqsadlar bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, bu holat brend nomlash jarayonining murakkab va ko‘p qirrali lingvistik hodisa ekanini tasdiqlaydi.

Zamonaviy globallashuv jarayonida brend nomlari nafaqat iqtisodiy yoki marketing vositasi, balki muhim lingvistik va kognitiv hodisa sifatida ham qaralmoqda. Ayniqsa, ingliz tilidagi brend nomlari xalqaro kommunikatsiyada yetakchi o‘rin egallab, turli madaniyat vakillari ongida muayyan obraz va assotsiatsiyalarni shakllantiradi. Shu sababli brend nomlash jarayoni semantik motivatsiya va konseptual asoslar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularni ilmiy jihatdan tahlil qilish dolzarb masalalardan biridir. Tilshunoslikda semantik motivatsiya tushunchasi til birliklarining shakli va mazmuni o‘rtasidagi ichki bog‘liqlikni anglatadi. Brend nomlarida esa bu jarayon ongli ravishda amalga oshiriladi. Nom tanlashda leksik birlikning denotativ va konnotativ ma’nolari, fonetik qulayligi, obrazliligi va assotsiativ imkoniyatlari hisobga olinadi. Ingliz tilidagi ko‘plab brend nomlari sodda, qisqa va esda qolarli bo‘lib, ular universal semantik belgilar asosida shakllanadi.

Kognitiv lingvistika nuqtayi nazaridan qaralganda, brend nomlari muayyan konseptual modellarni ifodalaydi. Konsept – bu inson ongida shakllangan bilimlar, tasavvurlar va baholashlar majmui bo‘lib, brend nomi ushbu konseptni faollashtiruvchi lingvistik signal vazifasini bajaradi. Masalan, *Apple* brendi tabiiylik, soddalik va innovatsiya konseptlari bilan bog‘lanadi. “Olma” mevasining kundalik hayotga yaqinligi va ijobiy konnotatsiyasi texnologik mahsulotlarni mu-

rakkablikdan xoli, foydalanuvchiga qulay sifatida qabul qilishga xizmat qiladi. *Amazon* brendi nomi esa dunyodagi eng katta daryo bilan bog‘liq bo‘lib, kenglik, qudrat va cheksizlik konseptini ifodalaydi. Bu nom kompaniyaning global miqyosdagi faoliyatini va cheklanmagan imkoniyatlarini ramziy tarzda aks ettiradi. Ushbu holatda geografik obyekt nomi metonimik asosda qo‘llanilib, brendning ko‘lamini ifodalovchi semantik belgiga aylanadi.

Metafora brend nomlash jarayonida eng faol ishlatiladigan kognitiv mexanizmlardan biridir. *Jaguar* brendi bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Hayvon nomi asosida yaratilgan ushbu brend tezlik, kuch va nafislik kabi xususiyatlarni avtomobil obraziga ko‘chiradi. Natijada iste’molchi ongida mahsulot haqida kuchli va ijobiy obraz shakllanadi. Zoomorfik metaforalar brend semantikasini jonlantirib, uning emotsional ta’sirini kuchaytiradi. *Nike* brendi esa qadimgi yunon mifologiyasidagi g‘alaba ma’budasi nomidan olingan bo‘lib, u muvaffaqiyat, g‘alaba va harakat konseptlari bilan bog‘lanadi. Bu holatda madaniy-mifologik obraz metaforik asosda zamonaviy sport diskursiga ko‘chiriladi. Brend nomining bunday konseptual asosga ega bo‘lishi uning pragmatik samaradorligini oshiradi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ingliz tilidagi brend nomlarida asosan pozitiv konnotatsiya ustuvorlik qiladi. Salbiy yoki noaniq ma’noga ega birliklardan qochiladi. Bu esa brendning turli madaniy muhitlarda bir xil ijobiy qabul qilinishiga zamin yaratadi. Milliy-madaniy neytrallik inglizcha brend nomlarining muhim xususiyati bo‘lib, ular ko‘pincha muayyan xalq yoki hudud bilan keskin bog‘lanmagan bo‘ladi. Globallashuv sharoitida brend nomlari universallikka intiladi. Ingliz tili esa xalqaro aloqa tili sifatida brend nomlash uchun qulay platforma yaratadi. Natijada ingliz tilidagi brend nomlari turli tillar va madaniyatlar doirasida semantik jihatdan oson qabul qilinadi va kognitiv jihatdan tez o‘zlashtiriladi. Ingliz tilidagi brend nomlarining semantik motivatsiyasi va konseptual asoslari murakkab kognitiv jarayonlar bilan bog‘liqdir. Metafora, metonimiya, obraz va assotsiatsiyalar brend nomlash jarayonining asosiy mexanizmlari sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu jihatlar brend nomlarini nafaqat iqtisodiy, balki muhim lingvistik hodisa sifatida o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Zamonaviy global bozor sharoitida brend nomlari nafaqat mahsulot yoki xizmatni belgilovchi til birligi, balki kuchli semantik va konseptual yuklamaga ega bo‘lgan lingvistik fenomen sifatida namoyon bo‘ladi. Ingliz tilidagi brend nomlari ko‘pincha maqsadli auditoriya ongida muayyan assotsiatsiyalarni uyg‘otish, mahsulotning sifatini, qadriyatlarini va imijini ifodalashga qaratilgan bo‘ladi. Shu sababli, ularning shakllanishida semantik motivatsiya va konseptual asos muhim o‘rin tutadi. Semantik motivatsiya brend nomining ichki ma’nosi bilan uning ifodalamoqchi bo‘lgan mahsulot yoki xizmat o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlikni anglatadi. Ingliz tilidagi ko‘plab brend nomlari leksik ma’no asosida motivatsiyalangan. Masalan, *Apple* brendi oddiy va tanish meva nomi orqali soddalik, tabiiylik va qulaylik konseptlarini ifodalaydi. *Amazon* nomi esa dunyodagi eng katta daryo obraziga asoslanib, kenglik, cheksizlik va resurslarning boyligini anglatadi. Bu kabi nomlar semantik jihatdan ochiq bo‘lib, iste’molchiga tez va oson tushuniladi.

Konseptual asos esa kognitiv lingvistika bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, inson tafakkurida shakllangan konseptlar orqali brend mazmunini tushuntiradi. Brend nomlari ko‘pincha metafora, metonimiya va ramziy obrazlarga tayanadi. Masalan, *Nike* brendi qadimgi yunon mifologiyasidagi g‘alaba ma’budasi nomi bilan bog‘liq bo‘lib, “g‘alaba”, “tezlik” va “kuch” konseptlarini faollashtiradi. Bu holatda brend nomi faqat nominativ vazifani emas, balki konseptual ramz funksiyasini ham bajaradi. Ingliz tilidagi brend nomlarida fonosemantik motivatsiya ham muhim ahamiyatga ega. Ayrim tovushlar tezlik, yengillik yoki ishonchlilik kabi ma’nolar bilan assotsiatsiyalanadi. Masalan, *Coca-Cola* nomidagi takroriy “k” va “l” tovushlari ritmik ohang yaratib, esda qoluvchanlikni oshiradi. *Google* nomi esa “googol” matematik atamasiga ishora qilib, cheksiz axborot va bilim konseptini anglatadi.

Shuningdek, inglizcha brend nomlari ko‘pincha sun’iy yaratilgan (neologik) birliklar bo‘lib, ular an’anaviy lug‘aviy ma’noga ega bo‘lmasada, konseptual jihatdan kuchli ta’sir ko‘rsatadi. *Kodak*, *Pepsi*, *Xerox* kabi nomlar semantik jihatdan neytral bo‘lsa-da, marketing va madaniy kontekst orqali muayyan konseptlar bilan bog‘lanib ketgan. Ingliz tilidagi brend nomlari semantik motivatsiya va konseptual asoslarning uyg‘unligi natijasida shakllanadi. Ular til, tafakkur va madaniyat

kesishgan nuqtada vujudga kelib, iste'molchi ongida barqaror obraz va ijobiy assotsiatsiyalarni hosil qiladi. Shu jihatdan, brend nomlarini lingvistik va kognitiv tahlil qilish zamonaviy tilshunoslik va marketing tadqiqotlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ingliz tilidagi brend nomlariga qo'shimcha semantik va konseptual misollar

1. Facebook (Meta)

Facebook nomi ikki leksik birlik – face (yuz) va book (kitob) komponentlaridan tashkil topgan bo'lib, insonlar haqidagi ma'lumotlar jamlanmasi konseptiga asoslanadi. Nom ijtimoiy aloqalar, ochiqlik va shaxsiy identifikatsiya konseptlarini ifodalaydi. Bu brend nomi semantik jihatdan motivatsiyalangan bo'lib, foydalanuvchilar orasidagi muloqotni aks ettiradi.

2. Instagram

Ushbu nom instant (tezkor) va telegram so'zlarining qisqartma va birikmasi sifatida talqin qilinadi. Brend nomi tezkor vizual axborot almashinuvi konseptiga asoslanadi. Bu yerda "tezlik" va "tasvir" konseptlari asosiy kognitiv tayanch bo'lib xizmat qiladi.

3. YouTube

You (sen) va tube (televideniye ma'nosida ishlatilgan) birliklarining birikmasi orqali yaratilgan ushbu brend nomi shaxsiylik va ommaviylik konseptlarini uyg'unlashtiradi. Nom foydalanuvchi markazida bo'lgan media platforma g'oyasini ifodalaydi.

4. Microsoft

Microcomputer va software so'zlarining qisqartmasi bo'lgan Microsoft brend nomi texnologik aniqlik va professional funksionallik konseptlariga asoslanadi. Bu nom semantik jihatdan texnik va ilmiy soha bilan bevosita bog'langan.

5. Netflix

Net (internet) va flicks (kino, film) komponentlaridan tashkil topgan ushbu brend nomi raqamli ko'ngilochar kontent konseptini ifodalaydi. Nom semantik jihatdan shaffof bo'lib, xizmat mazmunini aniq ko'rsatadi.

6. Starbucks

Ushbu brend nomi Herman Melvillning "Moby Dick" asaridagi personaj nomidan olingan. Star komponenti yuqori sifat va yetakchilik konseptini anglatadi. Brend nomi madaniy va adabiy asosga ega bo'lib, iste'molchida ishonch va an'ana tasavvurini shakllantiradi.

7. Tesla

Brend nomi mashhur olim Nikola Tesla nomi bilan bog'liq bo'lib, innovatsiya, ilm-fan va kelajak texnologiyalari konseptlarini faollashtiradi. Bu antroponim asosidagi semantik motivatsiya bo'lib, brendning ilmiy imijini mustahkamlaydi.

8. Uber

Nemis tilidan kirib kelgan über ("ustun", "yuqori darajada") so'ziga asoslangan bu brend nomi qulaylik, tezkorlik va ustun xizmat konseptlarini ifodalaydi. Nom qisqa va fonetik jihatdan kuchli bo'lib, global miqyosda oson qabul qilinadi. Keltirilgan misollar shuni ko'rsatadiki, ingliz tilidagi brend nomlari leksik ma'no, metafora, madaniy kontekst, antroponimlar va texnologik terminlar asosida shakllanadi. Ularning semantik motivatsiyasi brendning bozordagi pozitsiyasi va iste'molchi ongidagi konseptual modelini belgilaydi. Shunday qilib, brend nomlari tilshunoslik, kognitiv semantika va marketing strategiyalarining uzviy bog'liqligini yaqqol namoyon etadi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot ingliz tilidagi brend nomlarining semantik motivatsiyasi va konseptual asoslarini kognitiv lingvistika nuqtayi nazaridan tahlil qilishga bag'ishlandi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, brend nomlari tasodifiy tanlanmaydi, balki muayyan semantik, kognitiv va pragmatik omillar asosida shakllanadi. Brend nomlarida ma'no tanlovi, leksik motivatsiya hamda konsept va obrazlar iste'molchi ongida ijobiy assotsiatsiyalar hosil qilishga qaratilgan. Apple, Amazon, Nike, Jaguar kabi brendlar misolida olib borilgan tahlillar metafora va metonimiyaning brend nomlash jarayonida muhim vosita ekanini ko'rsatdi. Ushbu birliklar orqali abstrakt tushunchalar aniq obrazlar bilan bog'lanib, brendning semantik va kommunikativ qiymati oshiriladi. Brend nomlarida pozitiv konnotatsiya va universal semantik belgilar ustuvorligi ularning turli madaniy muhitlarda muvaffaqiyatli qabul qilinishiga xizmat qiladi. Shuningdek, ingliz tilidagi

brend nomlarining milliy-madaniy neytralligi globallashuv sharoitida ularning xalqaro bozorda keng tarqalishiga imkon beruvchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ldi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari brend nomlash jarayonining semantika va kognitiv mexanizmlar bilan chambarchas bog‘liq murakkab lingvistik hodisa ekanini tasdiqlaydi hamda ushbu yo‘nalishda keyingi tadqiqotlar uchun ilmiy asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем. – М.: Едиториал УРСС, 2004. – 256 с.
2. Кубрякова Е. С. Язык и знание: На пути получения знаний о языке. – М.: Языки славянской культуры, 2004. – 560 с.
3. Котлер Ф., Келлер К. Маркетинг менеджмент. – СПб.: Питер, 2012. – 816 с.
4. Aaker D. A. Building Strong Brands. – New York: Free Press, 1996. – 380 p.
5. Keller K. L. Strategic Brand Management: Building, Measuring, and Managing Brand Equity. – New Jersey: Pearson Education, 2013. – 592 p.
6. Danesi M. Brands. – London: Routledge, 2006. – 188 p.

Qalandarova Gulqand Mamurovna
O‘zbekiston davlat Jahon tillari universiteti,
pedagogika psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

INNOVATSION TA'LIM MUHITIDA BO‘LAJAK PSIXOLOGLARNING O‘RNI VA PSIXOLOG MUTAXASSISLARNI TAYYORLASHNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya. *Innovatsion ta'lim muhitida psixologlarning roli va ahamiyati bugungi kunda har qachongidan ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. Ta'lim jarayoni faqat bilim berishdan iborat emas, balki talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi psixologik munosabatlarni, shuningdek, o‘quv muhitini yaratishda psixologlarning o‘rni katta. Psixologlar ta'lim jarayonida nafaqat bilim va ko‘nikmalarni o‘rgatish, balki talabalar ruhiy holatini, motivatsiyasini va o‘z-o‘zini anglashini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu maqolada innovatsion ta'lim muhitida bo‘lajak psixologlarning ahamiyati va psixologlarni tayyorlashning nazariy asoslari haqida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *innovatsion ta'lim, psixologiya, tanqidiy fikrlash, individual xususiyatlar, pedagogik mahorat, bilim va ko‘nikmalar, zamonaviy ta'lim metodlari, ko‘nikmalar, ijodiy fikrlash.*

РОЛЬ БУДУЩИХ ПСИХОЛОГОВ В ИННОВАЦИОННОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ И ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОДГОТОВКИ ПСИХОЛОГОВ

Аннотация. *Роль и значение психологов в инновационной среде обучения сегодня более актуальны, чем когда-либо. Образовательный процесс – это не только передача знаний, психологи играют большую роль в создании психологических отношений между учениками и преподавателями, а также среды обучения. Психологи играют важную роль в образовательном процессе не только в обучении знаниям и умениям, но и в развитии психического состояния, мотивации и самосознания учащихся. В этой статье представлена информация о важности будущих психологов в инновационной среде обучения.*

Ключевые слова: *инновационное образование, психология, критическое мышление, индивидуальные особенности, педагогические умения, знания и умения.*

THE ROLE OF FUTURE PSYCHOLOGISTS IN AN INNOVATIVE EDUCATIONAL ENVIRONMENT AND THEORETICAL FOUNDATIONS FOR THE TRAINING OF PSYCHOLOGISTS

Abstract. *The role and importance of psychologists in innovative learning environments is more relevant today than ever. The educational process is not only about imparting knowledge, but psychologists have a great role in creating psychological relationships between students and teachers, as well as the learning environment. Psychologists play an important role in the educational process, not only in teaching knowledge and skills, but also in developing students' mental state, motivation and self-awareness. This article provides information on the importance of future psychologists in innovative learning environments.*

Key words: *innovative education, psychology, critical thinking, individual characteristics, pedagogical skills, knowledge and skills.*

Kirish. Innovatsion ta'lim - bu zamonaviy ta'lim jarayonini yangilash va rivojlantirishga qaratilgan yondashuvdir. U an'anaviy ta'lim usullaridan farq qiladi va o‘quv jarayonida yangi texnologiyalar, pedagogik metodlar va strategiyalarni qo‘llashni nazarda tutadi. Innovatsion ta'limning maqsadi - talabalarning ijodiy fikrlash qobiliyatini, mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini va amaliy tajribalarini rivojlantirishdir. Innovatsion ta'limning asosiy tamoyillari o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishga qaratilgan. Bular orasida talabalarning faol ishtiroki, o‘zaro hamkorlik, muammolarni hal qilishga qaratilgan yondashuv va o‘z-o‘zini baholash kabi tamoyillar

mavjud. Talabalar o‘z fikrlarini erkin ifoda etish, o‘zaro fikr almashish va guruhda ishlash imkoniyatiga ega bo‘lishlari kerak. Bu tamoyillar o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi va ularni o‘qish jarayonida faol ishtirok etishga undaydi.

Innovatsion ta'lim muhitida psixologlarning ahamiyatini tushunish uchun avvalo, innovatsion ta'limning o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rib chiqish zarur. Innovatsion ta'lim, an'anaviy ta'limdan farqli o‘laroq, o‘quvchilarning ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu jarayonda psixologlar o‘quvchilarning individual xususiyatlarini, ularning ehtiyojlarini va qobiliyatlarini hisobga olishlari kerak. Bu esa o‘z navbatida, ta'lim jarayonini yanada samarali va foydali qilishga yordam beradi.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi. Psixologlar innovatsion ta'lim muhitida o‘quvchilarning ruhiy holatini kuzatish va baholashda muhim rol o‘ynaydi. Ular o‘quvchilarning stress darajasini, motivatsiyasini va o‘z-o‘zini anglashini o‘rganish orqali ta'lim jarayonini yaxshilashga yordam berishlari mumkin. Bu jarayonda psixologlar o‘quvchilarga psixologik yordam ko‘rsatish, ularning muammolarini hal qilishda qo‘llab-quvvatlash va o‘z-o‘zini anglashlarini rivojlantirishda faol ishtirok etadilar. Innovatsion ta'lim muhitida psixologlarning o‘rni shunchaki o‘quvchilarga yordam berish bilan cheklanmaydi. Ular o‘qituvchilar bilan ham yaqindan hamkorlik qilishadi. Psixologlar o‘qituvchilarga ta'lim jarayonida qanday qilib o‘quvchilarning ehtiyojlarini hisobga olish, ularni rag‘batlantirish va motivatsiya berish bo‘yicha maslahatlar berishlari mumkin. Bu esa o‘qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirishga va ta'lim jarayonini yanada samarali qilishga yordam beradi.[1]

Muhokama va natijalar. Innovatsion ta'limning bir qator afzalliklari mavjud. Birinchidan, bu yondashuv talabalar uchun qiziqarli va motivatsion muhit yaratadi. O‘quv jarayonida zamonaviy texnologiyalar va metodlardan foydalanish, ta'limni yanada qiziqarli va samarali qiladi. Ikkinchidan, innovatsion ta'lim talabalarni mustaqil fikrlashga va muammolarni hal qilishga o‘rgatadi. Bu esa ularning kelajakdagi professional faoliyatlarida muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, innovatsion ta'lim o‘qituvchilar uchun ham yangi imkoniyatlar yaratadi. O‘qituvchilar o‘z bilimlarini yangilash, yangi pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirish va o‘z tajribalarini boshqalar bilan baham ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu jarayon o‘qituvchilarning professional rivojlanishiga yordam beradi va ta'lim sifatini oshiradi. [1]

Psixologiyani o‘qitish jarayoni, avvalo, ta'limning asosiy maqsadlari va vazifalarini belgilashdan boshlanadi. Psixologlar, inson psixikasini o‘rganish, uning rivojlanishi, muammolarini hal qilish va ijtimoiy munosabatlarni yaxshilashda muhim rol o‘ynaydi. Shuning uchun, psixologlarni tayyorlashda innovatsion yondashuvlar, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va psixologik bilimlarni o‘z ichiga olgan o‘quv dasturlari ishlab chiqilishi zarur. Innovatsion ta'lim muhitida psixologlarni tayyorlash jarayonida, o‘qituvchilar va talabalarning o‘zaro aloqasi, hamkorlik va muloqot muhim ahamiyatga ega.

Innovatsion ta'lim muhitida psixologlar ta'lim muassasalarida ijtimoiy va emosional o‘quvni rivojlantirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Ijtimoiy va emosional o‘quv, o‘quvchilarning o‘zaro munosabatlari, hissiy holatlari va jamiyatda o‘z o‘rnini topish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Psixologlar bu jarayonda o‘quvchilarga ijtimoiy ko‘nikmalarni o‘rgatish, ularning hissiy intellektini rivojlantirish va ijtimoiy muammolarni hal qilishda yordam berishlari mumkin. Bundan tashqari, psixologlar innovatsion ta'lim muhitida ta'lim tizimining samaradorligini oshirishda ham muhim ahamiyatga ega. [2]

Ular ta'lim jarayonida o‘quvchilarning muvaffaqiyatini baholashda, o‘quv dasturlarini takomillashtirishda va ta'lim muassasalarining strategik rivojlanishida ishtirok etadilar. Psixologlar ta'lim tizimining ijtimoiy va madaniy kontekstini hisobga olgan holda, ta'lim jarayonini yanada samarali va moslashtirilgan qilishda yordam berishlari mumkin. Innovatsion ta'lim muhitida psixologlarning ahamiyatini yanada kuchaytiradigan omil, zamonaviy texnologiyalar va raqamli resurslarning ta'lim jarayoniga kirishi hisoblanadi. Psixologlar yangi texnologiyalarni qo‘llash orqali o‘quvchilarning o‘z-o‘zini anglashini, ijodkorligini va o‘z qobiliyatlarini rivojlantirishda yordam bera oladilar. Masalan, onlayn platformalar orqali psixologik yordam ko‘rsatish, o‘quvchilarning o‘z fikrlarini ifoda etishlari uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Bu jarayonda,

o‘qituvchilar talabalarga o‘z bilimlarini, tajribalarini va ko‘nikmalarini etkazish bilan birga, ularni mustaqil fikrlashga va o‘z bilimlarini amaliyotda qo‘llashga rag‘batlantirishlari kerak. O‘qituvchilar, talabalarning o‘z-o‘zini rivojlantirishiga yordam berish uchun innovatsion usullarni qo‘llashlari zarur. Bu esa, o‘z navbatida, psixologlarni tayyorlash jarayonida samaradorlikni oshiradi. Innovatsion ta'lim muhitida psixologlarni tayyorlashda, zamonaviy texnologiyalar va onlayn platformalardan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, onlayn kurslar, vebinarlar, elektron resurslar va boshqa interaktiv vositalar, psixologik bilimlarni o‘rganish jarayonini yanada qulay va samarali qiladi. Bu orqali talabalar, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda oshirish, yangi g‘oyalar bilan tanishish va amaliy tajribalar orttirish imkoniyatiga ega bo‘lishadi [3]

Shuningdek, psixologlar innovatsion ta'lim muhitida o‘quvchilarning o‘zaro munosabatlarini rivojlantirishda ham faol ishtirok etadilar. Ular o‘quvchilar o‘rtasidagi ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash, guruh ishlarini tashkil etish va o‘quvchilarning bir-biriga bo‘lgan ishonchini oshirishda yordam berishlari mumkin. Bu esa o‘quvchilarning o‘zaro munosabatlarini yaxshilashga va ta'lim muhitini yanada ijobiy qilishga yordam beradi. Psixologlarni tayyorlash jarayonida, amaliyot va nazariy bilimlar o‘rtasidagi muvozanatni saqlash ham muhimdir. Talabalar, o‘qish jarayonida nazariy bilimlarni o‘zlashtirish bilan birga, amaliyotda ularni qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘lishlari kerak. Bu, o‘z navbatida, psixologik xizmatlarni ko‘rsatish va muammolarni hal qilishda talabalar uchun zarur ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Amaliy tajriba, talabalar uchun psixologik bilimlarni hayotiy vaziyatlarda qo‘llash imkoniyatini beradi va ularning professional tayyorgarligini oshiradi. Innovatsion ta'lim muhitida psixologlarni tayyorlashda, individual yondashuv ham muhim ahamiyatga ega. Har bir talaba o‘ziga xos xususiyatlarga, qobiliyatlarga va qiziqishlarga ega. Shuning uchun, psixologlarni tayyorlash jarayonida, o‘qituvchilar talabalar bilan individual ravishda ishlashlari, ularning ehtiyojlarini va qiziqishlarini hisobga olishlari zarur. Bu, o‘z navbatida, talabalar uchun o‘qish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. Psixologlarni tayyorlash jarayonida, jamoaviy ish va hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Talabalar, jamoa bo‘lib ishlash, bir-biridan o‘rganish va tajribalarini baham ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘lishlari kerak. Jamoaviy ish, talabalar orasida ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga, hamkorlikni oshirishga va muammolarni birgalikda hal qilishga yordam beradi. Bu esa, psixologlarni tayyorlash jarayonida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan jamoaviy fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi [4]

Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, bugungi kunda yoshlar o‘rtasida kiberbulling hodisalarining oshib borayotganligi sababli, kiberbulling shakllariga maxsus yondashuv normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirishni zarur. Ushbu huquqiy normalar odamlarning jamiyatda so‘z erkinligini cheklamasligi kerak[8]. Psixolog mutaxassislarni tayyorlashda ularning zamonaviy tahdidlarga qarshi kurashish kompetensiyalarini shakllantirib borish zarur.

Psixolog mutaxassislarni tayyorlashda ularda emotsional intellektga oid tarkibiy ko‘nikmalarni rivojlantirish muhim. U o‘z-o‘zini anglash, o‘zini o‘zi boshqarish, ijtimoiy ko‘nikmalar, motivatsiya va empatiya kabi bir qator ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi. Emotsional intellekt - o‘z his-tuyg‘ularingizni anglash, tushunish va boshqarish, shuningdek, boshqalarning his-tuyg‘ularini anglash va tushunish qobiliyatidir. U o‘z-o‘zini anglash, o‘zini o‘zi boshqarish, ijtimoiy ko‘nikmalar, motivatsiya va empatiya kabi bir qator ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi. Agar aqliy salohiyat (IQ) insonning intellektual, mantiqiy va analitik qobiliyatlarini o‘lchasa, emotsional intellekt (EQ) shaxsiy va ijtimoiy ko‘nikmalarini o‘lchaydi. Qachonki shaxs o‘z his-tuyg‘ulari bilan do‘stlasha olsa u odamlar bilan munosabatlarni oson o‘rnata olishi mumkin. Shaxsda emotsional intellektning rivojlanganlik belgilari sifatida quyidagilarni sanab o‘tish mumkin: boshqalarning emotsiya va hissiyotlarini ularning mimikasi ya’ni, yuz ifodalari, imoishoralar, ovoz, xatti-harakatlar orqali tanib olish qobiliyati; empatiyaning mavjudligi, suhbatdoshning hissiyotlariga qiziqish; diqqat bilan tinglash, o‘z fikrlarini yetkazisha olish va jamoada ishlay olish qobiliyati; o‘z hissiyotlarining tabiatini, ularning sabablari va namoyon bo‘lish xarakterini tushuna olishdir. Amaliy ma’noda, bu insonning o‘z hissiyotlari va emotsiyalari uning o‘z xulqini boshqarishi, shu qatorda boshqalarga nafaqat ijobiy, balki salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini tushunishga yordam beradigan ko‘nikmalar to‘plamidir [9].

Innovatsion ta'lim muhitida psixologlarning ahamiyatini to‘liq anglash uchun, ularning o‘z bilim va ko‘nikmalarini doimiy ravishda yangilab borishlari zarur. Psixologlar zamonaviy tadqiqotlar, yangi psixologik metodlar va innovatsion yondashuvlar haqida doimiy ravishda o‘rganishlari va o‘z bilimlarini amaliyotda qo‘llashlari kerak. Bu esa ularning ta'lim jarayonidagi o‘rnini yanada mustahkamlashga yordam beradi.[5]

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, innovatsion ta'lim muhitida bo‘lajak psixologlarning ahamiyati juda katta. Ular ta'lim jarayonida nafaqat o‘quvchilarga, balki o‘qituvchilarga ham yordam berish orqali ta'lim tizimini yanada samarali va ijobiy qilishda muhim rol o‘ynaydilar. Psixologlar o‘quvchilarning ruhiy holatini, motivatsiyasini va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda faol ishtirok etib, ta'lim muhitini yanada yaxshilashga yordam beradilar. Shu bilan birga, psixologlar zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash orqali ta'lim jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilishlari mumkin. Ularning bilim va ko‘nikmalarini doimiy ravishda yangilab borish, innovatsion ta'lim muhitida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zarurdir. Psixologlarni tayyorlashda innovatsion yondashuvlar va zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash, talabalarni mustaqil fikrlashga, o‘z bilimlarini amaliyotda qo‘llashga va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu jarayon, psixologlarning professional tayyorgarligini oshirish va ularning kelajakdagi faoliyatida muvaffaqiyatli bo‘lishlariga yordam berishi muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Abdurahmanov, O. Educational Psychology: Theoretical and Practical Foundations / O. Abdurahmanov. – Tashkent : Teacher, 2021. – 210 p.

2. Kadirova, S. Psychological support and its role in the educational process / S. Kadirova. – Tashkent : Science and technology, 2022. – 195 p.

3. Karimov, E. Psychology and Education: New Approaches / E. Karimov. – Namangan : Namangan State University, 2022. – 156 p.

4. Khudoyberdiyev, R. The Role of Psychologists in Innovative Learning Environments / R. Khudoyberdiyev. – Andijan : Andijan State University, 2021. – 134 p.

5. Muradov, A. Innovative Education and Psychological Approaches / A. Muradov. – Samarkand : Publication of Samarkand State University, 2022. – 240 p.

6. Polvanova, D. T. Cyberbullying as a socio-psychological problem and legal ways to solve it abroad / D. T. Polvanova // EPRA International Journal of Research and Development (IJRD). – 2022. – Vol. 7, Issue 2. – [Elektron resurs]. – URL: https://eprajournals.com/IJSR/article/6562/abstract (murojaat sanasi: 02.03.2026).

7. Polvanova, D. T. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarda ijtimoiy-hissiy intellektni rivojlantirish zaruriyati / D. T. Polvanova // Republican scientific and practical conference “Introduction of socio-emotional education methods in general secondary educational institutions: problems and solutions”. – 2025. – Septmber 16. – B. 170–173. – [Elektron resurs]. – URL: https://zenodo.org/records/17170824.

8. Rahmonova, D. Social-emotional development of students / D. Rahmonova. – Fergana : Fergana State University, 2023. – 188 p.

9. Tursunova, N. Collaboration between teachers and psychologists / N. Tursunova. – Bukhara : Bukhara State University, 2023. – 142 p.

Murodov Ulug‘bek O‘tkir o‘g‘li
Buxoro davlat pedagogika instituti taynch doktoranti
E-mail:murodovulugbek@buxdpi.uz

SUN’IY INTELLEKTGA ASOSLANGAN TA’LIMDA TALABA VA O‘QITUVCHILARNING PEDAGOGIK MUNOSABATLARI HAMDA AXLOQIY QADRIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada sun’iy intellektga asoslangan ta’lim sharoitida talaba va o‘qituvchilarning pedagogik munosabatlari hamda axloqiy qadriyatlari empirik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish darajasi, unga bo‘lgan ishonch va pedagogik jarayondagi foydaliligi axloqiy qadriyatlar orqali talaba–o‘qituvchi munosabatlari sifatiga qanday ta’sir ko‘rsatishi aniqlanadi. Tadqiqot kvantitativ metod asosida olib borilib, so‘rovnoma usuli orqali talabalar va o‘qituvchilardan ma’lumotlar yig‘ildi. Olingan natijalar sun’iy intellekt ta’lim jarayonida nafaqat texnologik vosita, balki axloqiy va pedagogik munosabatlarni shakllantiruvchi muhim omil ekanligini ko‘rsatdi. Tadqiqot natijalari ta’lim tizimida sun’iy intellektdan foydalanishda axloqiy yondashuvni kuchaytirish zarurligini asoslab beradi.*

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, ta’lim, axloqiy qadriyatlar, pedagogik munosabatlar, talaba–o‘qituvchi munosabatlari, empirik tadqiqot.*

СЕМАНТИЧЕСКАЯ МОТИВАЦИЯ И КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ НАЗВАНИЙ БРЕНДОВ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация. *В статье проводится эмпирический анализ педагогических отношений и этических ценностей студентов и преподавателей в условиях образования, основанного на использовании искусственного интеллекта. В исследовании рассматривается влияние уровня использования искусственного интеллекта, доверия к нему и его педагогической полезности на качество взаимоотношений между студентами и преподавателями посредством этических ценностей. Исследование выполнено на основе количественного метода с применением анкетирования среди студентов и преподавателей. Полученные результаты свидетельствуют о том, что искусственный интеллект в образовательном процессе выступает не только как технологический инструмент, но и как значимый фактор формирования этических и педагогических отношений. Результаты исследования обосновывают необходимость усиления этического подхода при внедрении искусственного интеллекта в систему образования.*

Ключевые слова: *искусственный интеллект, образование, этические ценности, педагогические отношения, отношения студент–преподаватель, эмпирическое исследование.*

SEMANTIC MOTIVATION AND CONCEPTUAL FOUNDATIONS OF BRAND NAMES IN THE ENGLISH LANGUAGE

Annotation. *This article presents an empirical analysis of pedagogical relationships and ethical values of students and teachers in the context of artificial intelligence–based education. The study examines how the level of AI usage, trust in AI, and its pedagogical usefulness influence the quality of student–teacher relationships through ethical values. A quantitative research design was employed, and data were collected through a questionnaire administered to students and teachers. The findings indicate that artificial intelligence functions not only as a technological tool in education but also as a significant factor shaping ethical and pedagogical relationships. The results highlight the importance of strengthening ethical considerations in the integration of artificial intelligence into educational practices.*

Key words: *artificial intelligence, education, ethical values, pedagogical relationships, student–teacher relationships, empirical study.*

Kirish. So‘nggi yillarda sun’iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta’lim tizimida tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. An’anaviy o‘qitish usullari asta-sekin raqamli va intellektual tizimlar bilan boyitilmoqda. Sun’iy intellektga asoslangan ta’lim platformalari, avtomatlashtirilgan baholash tizimlari, adaptiv o‘qitish modellarining joriy etilishi ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish bilan birga, pedagogik munosabatlarning mazmuniga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda [1].

Ta’lim jarayonida sun’iy intellektdan foydalanish, avvalo, o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi an’anaviy muloqot shakllarining qayta ko‘rib chiqilishini talab etadi. O‘qituvchi bilim manbai rolidan ko‘proq yo‘naltiruvchi va maslahatchi roliga o‘tayotgan bir paytda, talaba esa mustaqil o‘rganish subyekti sifatida shakllanmoqda. Ushbu jarayonda sun’iy intellekt vositalari pedagogik munosabatlarni kuchaytirishi yoki aksincha, insoniy omilning susayishiga olib kelishi mumkin [2].

Alohida e’tibor talab etadigan jihat shundaki, sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim jarayoniga kirib kelishi axloqiy qadriyatlar tizimiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Akademik halollik, adolatli baholash, mas’uliyat va shaffoflik kabi qadriyatlar sun’iy intellektdan foydalanish sharoitida yangi mazmun kasb etmoqda. Masalan, avtomatlashtirilgan baholash tizimlarining adolatliligi, sun’iy intellekt yordamida yaratilgan topshiriqlarning mualliflik masalalari va akademik halollik bilan bog‘liq muammolar dolzarb masalalardan biriga aylandi [3].

Shu nuqtai nazardan qaraganda, sun’iy intellektga asoslangan ta’lim muhitida axloqiy qadriyatlar va pedagogik munosabatlarning o‘zaro bog‘liqligini empirik asosda o‘rganish ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, talaba va o‘qituvchilarning ushbu jarayonga nisbatan qarashlarini taqqoslab tahlil qilish ta’lim tizimida sun’iy intellektdan oqilona va mas’uliyatli foydalanish bo‘yicha ilmiy xulosalar chiqarishga imkon beradi.

Tadqiqotning dolzarbligi. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi bir necha omillar bilan izohlanadi. Birinchidan, sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim tizimiga keng joriy etilishi pedagogik jarayonning faqat texnik emas, balki axloqiy jihatdan ham qayta ko‘rib chiqilishini taqozo etmoqda. Ikkinchidan, mavjud tadqiqotlarning aksariyati sun’iy intellektning texnologik samaradorligiga qaratilgan bo‘lib, axloqiy qadriyatlar va talaba–o‘qituvchi munosabatlari bilan bog‘liq empirik izlanishlar yetarli emas [4]. Uchinchidan, talaba va o‘qituvchilarning sun’iy intellektga bo‘lgan munosabatlarida farqlar mavjud bo‘lishi mumkin, bu esa ta’lim siyosatini shakllantirishda inobatga olinishi lozim.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari

Tadqiqotning maqsadi:

Sun’iy intellektga asoslangan ta’lim sharoitida talaba va o‘qituvchilarning pedagogik munosabatlari hamda axloqiy qadriyatlarini empirik jihatdan tahlil qilish va ularning o‘zaro bog‘liqligini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning asosiy vazifalari:

sun’iy intellektdan foydalanish darajasini talaba va o‘qituvchilar nuqtai nazaridan aniqlash;

sun’iy intellektga bo‘lgan ishonch va uning pedagogik foydaliligini baholash;

sun’iy intellekt sharoitida axloqiy qadriyatlarning shakllanish xususiyatlarini tahlil qilish;

axloqiy qadriyatlarning talaba–o‘qituvchi munosabatlari sifatiga ta’sirini aniqlash;

talaba va o‘qituvchilar qarashlari o‘rtasidagi farqlarni statistik jihatdan taqqoslash.

Adabiyotlar tahlili. Sun’iy intellektning ta’lim tizimiga joriy etilishi so‘nggi yillarda ilmiy tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Tadqiqotchilar sun’iy intellekt asosidagi o‘qitish tizimlarining ta’lim sifati, o‘quvchilarning akademik yutuqlari va pedagogik samaradorlikka ta’sirini turli nazariy va empirik yondashuvlar asosida o‘rganib kelmoqdalar [1]. Ushbu izlanishlarda sun’iy intellekt ko‘pincha ta’lim jarayonini individuallashtirish, baholashni avtomatlashtirish va o‘rganish jarayonini moslashtirish vositasi sifatida talqin qilinadi.

Bir qator tadqiqotlarda sun’iy intellektning pedagogik jarayondagi ijobiy jihatlari, xususan, talabalar motivatsiyasini oshirishi, o‘quv materiallarini tushunishni yengillashtirishi va o‘qituvchilarning ish yukini kamaytirishi ta’kidlangan [2]. Shu bilan birga, ayrim olimlar sun’iy intellektdan haddan tashqari foydalanish ta’lim jarayonida insoniy omilning zaiflashuviga olib

kelishi mumkinligini qayd etadilar. Bu holat, ayniqsa, talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi pedagogik munosabatlarning sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi ehtimolini yuzaga chiqaradi [3].

Pedagogik munosabatlar masalasi ta’lim psixologiyasi va pedagogika fanlarida muhim o‘rin egallaydi. Talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi o‘zaro ishonch, hurmat, muloqot va hamkorlik ta’lim samaradorligining asosiy omillari sifatida e’tirof etiladi. Zamonaviy tadqiqotlarda ushbu munosabatlar raqamli ta’lim muhiti, xususan, sun’iy intellekt texnologiyalari ta’sirida qanday o‘zgarayotgani alohida o‘rganilmoqda [4]. Ayrim tadqiqotlarda sun’iy intellekt pedagogik munosabatlarni mustahkamlovchi vosita sifatida baholansa, boshqalarida esa u bilvosita masofani kuchaytiruvchi omil sifatida talqin qilinadi.

Sun’iy intellektning ta’lim jarayoniga kirib kelishi bilan bog‘liq eng muhim masalalardan biri axloqiy qadriyatlar muammosidir. Axloqiy qadriyatlar akademik halollik, adolat, mas’uliyat va shaffoflik kabi tamoyillarni o‘z ichiga oladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellektdan foydalanish sharoitida ushbu qadriyatlar yangi shaklda namoyon bo‘lmoqda [5]. Masalan, avtomatlashtirilgan baholash tizimlarining adolatliligi yoki sun’iy intellekt yordamida bajarilgan topshiriqlarning mualliflik masalasi axloqiy muammolar sifatida ko‘tarilmoqda.

Ayrim empirik tadqiqotlarda sun’iy intellektga bo‘lgan ishonch darajasi ta’lim jarayonidagi axloqiy qarorlar bilan chambarchas bog‘liqligi aniqlangan. Agar talabalar va o‘qituvchilar sun’iy intellekt tizimlarini adolatli va shaffof deb qabul qilsalar, pedagogik munosabatlar ham ijobiy shakllanishi ehtimoli ortadi [6]. Aksincha, ishonchning pastligi axloqiy shubhalar va pedagogik ziddiyatlarni kuchaytirishi mumkin.

Shu bilan birga, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab tadqiqotlar faqat talabalar yoki faqat o‘qituvchilar nuqtai nazarini o‘rganish bilan cheklanadi. Talaba va o‘qituvchilarning sun’iy intellektga asoslangan ta’limga munosabatlarini birgalikda empirik tahlil qilishga qaratilgan izlanishlar yetarli emas [7]. Bundan tashqari, axloqiy qadriyatlarning talaba–o‘qituvchi munosabatlari sifatidagi vositachi (mediator) roli ko‘plab tadqiqotlarda chuqur ochib berilmagan.

Demak, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellektga asoslangan ta’lim sharoitida pedagogik munosabatlar va axloqiy qadriyatlarning o‘zaro bog‘liqligini talaba va o‘qituvchilar kesimida empirik asosda o‘rganish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi. Mazkur tadqiqot aynan shu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot sun’iy intellektga asoslangan ta’lim sharoitida talaba va o‘qituvchilarning pedagogik munosabatlari hamda axloqiy qadriyatlarini empirik jihatdan o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, kvantitativ tadqiqot dizayni asosida amalga oshirildi. Tadqiqotda so‘rovnoma usuli qo‘llanilib, talaba va o‘qituvchilarning qarashlari o‘zaro taqqoslandi.

Tadqiqot modeli

Tadqiqot modeli sun’iy intellektdan foydalanish bilan talaba–o‘qituvchi munosabatlari sifati o‘rtasidagi bog‘liqlikni axloqiy qadriyatlar orqali tushuntirishga asoslanadi. Modelga ko‘ra, sun’iy intellektdan foydalanish darajasi, unga bo‘lgan ishonch va pedagogik foydalilik axloqiy qadriyatlarga ta’sir ko‘rsatadi, axloqiy qadriyatlar esa o‘z navbatida talaba–o‘qituvchi munosabatlari sifatini belgilaydi. Shu bilan birga, model talaba va o‘qituvchilar o‘rtasidagi farqlarni aniqlash imkonini ham beradi.

Respondentlar va tanlanma

Tadqiqot respondentlari sifatida oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar hamda faoliyat yuritayotgan o‘qituvchilar tanlab olindi. Tanlanma tasodifiy tanlash usuli asosida shakllantirildi. Tadqiqotda ishtirok etish ixtiyoriy bo‘lib, respondentlarga so‘rovnoma anonim tarzda taqdim etildi. Bu holat respondentlarning fikrlarini erkin va xolis bildirishiga imkon yaratdi.

Tadqiqot instrumenti (so‘rovnoma)

Ma’lumotlarni yig‘ish uchun maxsus ishlab chiqilgan so‘rovnoma qo‘llanildi. So‘rovnoma Likert shkalasining besh pog‘onali ko‘rinishiga asoslandi (1 – mutlaqo rozi emasman, 5 – to‘liq roziman). So‘rovnoma to‘rtta asosiy blokdan iborat bo‘ldi:

sun’iy intellektdan foydalanish darajasi;

sun’iy intellektga bo‘lgan ishonch va uning pedagogik foydaliligi;

axloqiy qadriyatlar (akademik halollik, adolat, mas'uliyat, shaffoflik);

talaba–o'qituvchi munosabatlari sifati (ishonch, muloqot, hurmat, hamkorlik).

So'rovnoma savollari talaba va o'qituvchilar uchun mazmunan bir xil bo'lib, faqat subyektga moslashtirilgan shaklda taqdim etildi. Bu yondashuv ikki guruh o'rtasida taqqoslovchi tahlil o'tkazish imkonini berdi.

Ma'lumotlarni tahlil qilish usullari

Yig'ilgan ma'lumotlar statistik dastur yordamida tahlil qilindi. So'rovnoma ichki ishonchliligi Cronbach's Alpha ko'rsatkichi orqali tekshirildi. Deskriptiv statistika yordamida respondentlarning umumiy qarashlari tahlil qilindi. Talaba va o'qituvchilar o'rtasidagi farqlarni aniqlash uchun mustaqil tanlanmalar uchun t-test qo'llanildi. Shuningdek, regressiya tahlili yordamida axloqiy qadriyatlarning talaba–o'qituvchi munosabatlari sifatiga ta'siri aniqlandi.

Tadqiqotning axloqiy jihatlari

Tadqiqot jarayonida ilmiy axloq me'yorlariga qat'iy amal qilindi. Respondentlarning shaxsiy ma'lumotlari yig'ilmadi va ularning javoblari faqat ilmiy maqsadlarda foydalanildi. Tadqiqot natijalari umumlashtirilgan holda taqdim etilib, respondentlarning shaxsiy fikrlari oshkor etilmadi.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. Mazkur bo'limda sun'iy intellektga asoslangan ta'lim sharoitida talaba va o'qituvchilarning pedagogik munosabatlari hamda axloqiy qadriyatlariga oid empirik tadqiqot natijalari statistik jihatdan tahlil qilinadi va muhokama etiladi.

3.1. Respondentlarning umumiy tavsifi

Tadqiqotda jami 300 nafar respondent ishtirok etdi. Shundan 180 nafari talabalar, 120 nafari o'qituvchilarni tashkil etdi. Respondentlarning taqsimoti tadqiqotning taqqoslovchi xarakteriga mos keladi.

3.2. So'rovnoma ishonchliligi (Reliability Analysis)

So'rovnoma ichki ishonchliligi Cronbach's Alpha ko'rsatkichi yordamida tekshirildi.

1-jadval

O'zgaruvchilar bo'yicha ishonchlilik ko'rsatkichlari

O'zgaruvchi	Cronbach's Alpha
AI'dan foydalanish darajasi	0.81
AI'ga ishonch va pedagogik foydalilik	0.84
Axloqiy qadriyatlar	0.88
Talaba–o'qituvchi munosabatlari sifati	0.86

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, barcha o'zgaruvchilar bo'yicha Cronbach's Alpha ko'rsatkichlari 0.80 dan yuqori, bu esa so'rovnomaning yuqori darajadagi ishonchliligini tasdiqlaydi [4].

3.3. Deskriptiv statistika natijalari

Respondentlarning sun'iy intellekt, axloqiy qadriyatlar va pedagogik munosabatlarga oid umumiy qarashlari deskriptiv statistika yordamida tahlil qilindi.

2-jadval

Asosiy o'zgaruvchilar bo'yicha o'rtacha qiymatlar

O'zgaruvchi	O'rtacha qiymat (M)	Standart og'ish (SD)
AI'dan foydalanish darajasi	3.92	0.71
AI'ga ishonch	3.68	0.76
Axloqiy qadriyatlar	3.85	0.69
Pedagogik munosabatlar sifati	3.79	0.73

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, respondentlar sun’iy intellektdan foydalanishni umumiy jihatdan ijobiy baholagan. Ayniqsa, axloqiy qadriyatlar va pedagogik munosabatlar sifati bo‘yicha o‘rtacha qiymatlarning yuqori bo‘lishi sun’iy intellektning ta’lim jarayonidagi ijobiy potensialini ko‘rsatadi.

3.4. Talaba va o‘qituvchilar o‘rtasidagi farqlar (T-test)

Talaba va o‘qituvchilarning qarashlari o‘rtasidagi farqlarni aniqlash maqsadida mustaqil tanlanmalar uchun t-test o‘tkazildi.

3-jadval

Talaba va o‘qituvchilar o‘rtasidagi farqlar (t-test)

O‘zgaruvchi	Guruh	M	t	p
AI’dan foydalanish	Talabalar	4.01	2.34	0.02
	O‘qituvchilar	3.78		
Axloqiy qadriyatlar	Talabalar	3.72	-2.89	0.01
	O‘qituvchilar	3.98		
Pedagogik munosabatlar sifati	Talabalar	3.70	-2.11	0.03
	O‘qituvchilar	3.91		

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, talabalar sun’iy intellektdan foydalanishni o‘qituvchilarga nisbatan yuqoriroq baholagan ($p < 0.05$). Biroq o‘qituvchilar axloqiy qadriyatlar va pedagogik munosabatlar sifati bo‘yicha yuqoriroq baho bergan. Bu holat o‘qituvchilarning ta’lim jarayonida axloqiy mas’uliyatga ko‘proq e’tibor qaratishini ko‘rsatadi.

3.5. Regressiya tahlili natijalari

Axloqiy qadriyatlarning talaba–o‘qituvchi munosabatlari sifatiga ta’sirini aniqlash uchun regressiya tahlili o‘tkazildi.

4-jadval

Regressiya tahlili natijalari

Mustaqil o‘zgaruvchi	β	t	p
AI’dan foydalanish	0.28	4.12	0.001
AI’ga ishonch	0.31	4.65	0.000
Axloqiy qadriyatlar	0.46	6.98	0.000

Regressiya tahlili natijalariga ko‘ra, axloqiy qadriyatlar talaba–o‘qituvchi munosabatlari sifatiga eng kuchli ta’sir etuvchi omil ekanligi aniqlandi ($\beta = 0.46$). Bu natija axloqiy qadriyatlarning vositachi (mediator) rolini tasdiqlaydi.

3.6. Natijalar muhokamasi

Olingan empirik natijalar shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellektga asoslangan ta’lim muhitida axloqiy qadriyatlar pedagogik munosabatlarni shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Talabalar sun’iy intellektni ko‘proq texnologik qulaylik sifatida qabul qilgan bo‘lsalar, o‘qituvchilar uni axloqiy mas’uliyat va pedagogik ta’sir nuqtai nazaridan baholaganlar. Bu natijalar avvalgi tadqiqotlar xulosalari bilan uyg‘un keladi [5].

Shuningdek, axloqiy qadriyatlar va pedagogik munosabatlar o‘rtasidagi kuchli bog‘liqlik sun’iy intellektdan foydalanishda insoniy omilni saqlab qolish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi. Tadqiqot natijalari ta’lim tizimida sun’iy intellektni joriy etishda faqat texnologik emas, balki axloqiy-pedagogik yondashuv muhim ekanligini asoslab beradi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot sun’iy intellektga asoslangan ta’lim sharoitida talaba va o‘qituvchilarning pedagogik munosabatlari hamda axloqiy qadriyatlarini empirik jihatdan tahlil qilishga qaratildi. Tadqiqot natijalari sun’iy intellektning ta’lim jarayonidagi roli faqat texnologik

samaradorlik bilan cheklanmasdan, balki pedagogik munosabatlar va axloqiy qadriyatlar tizimiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatishini tasdiqladi.

Empirik tahlillar natijasida sun’iy intellektdan foydalanish darajasi va unga bo‘lgan ishonch axloqiy qadriyatlar bilan ijobiy bog‘liqlikka ega ekanligi aniqlandi. Ayniqsa, axloqiy qadriyatlarning talaba–o‘qituvchi munosabatlari sifatiga kuchli ta’siri mavjudligi ushbu omilning vositachi (mediator) rolini tasdiqlaydi. Bu holat sun’iy intellekt ta’lim jarayonida insoniy omilni mustahkamlovchi vosita sifatida xizmat qilishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Talaba va o‘qituvchilar qarashlarini taqqoslash natijalari shuni ko‘rsatdiki, talabalar sun’iy intellektni asosan qulaylik va samaradorlik nuqtai nazaridan baholagan bo‘lsalar, o‘qituvchilar uni axloqiy mas’uliyat va pedagogik ta’sir jihatidan muhim deb hisoblaydilar. Ushbu farqlar ta’lim jarayonida sun’iy intellektni joriy etishda manfaatdor tomonlarning qarashlarini muvofiqlashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari sun’iy intellektga asoslangan ta’lim tizimida axloqiy qadriyatlar pedagogik munosabatlarning barqarorligi va sifatini ta’minlovchi muhim omil ekanligini ilmiy jihatdan asoslab berdi.

Tavsiyalar. Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalar ilgari suriladi:

Ta’lim muassasalarida sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etishda axloqiy qadriyatlar alohida mezon sifatida inobatga olinishi lozim.

O‘qituvchilar uchun sun’iy intellektdan foydalanishda akademik halollik, adolat va mas’uliyat masalalariga bag‘ishlangan maxsus malaka oshirish dasturlarini ishlab chiqish tavsiya etiladi.

Talabalarda sun’iy intellektdan mas’uliyatli foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadida axloqiy yo‘naltirilgan o‘quv modullarini joriy etish maqsadga muvofiq.

Ta’lim jarayonida sun’iy intellekt vositalaridan foydalanishda talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi muloqotni kuchaytiruvchi pedagogik mexanizmlarni ishlab chiqish zarur.

Kelgusidagi tadqiqotlarda sun’iy intellektning ta’limdagi axloqiy ta’siri sifat va aralash (mixed methods) metodlar asosida chuqurroq o‘rganilishi tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Ҳайитметов А. Қул Убайдий вафо қилсанг (Туркий «Девон»дан намуналар) / Нашрга тайёрловчи филол. фан. доктори. – Тошкент: «Ёзувчи» нашриёти, 1994. – 32-б.

2. Holmes W., Bialik M., Fadel C. Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. – Boston: Center for Curriculum Redesign, 2019. – 112 p.

3. UNESCO. Artificial Intelligence and Education: Guidance for Policy-makers. – Paris: UNESCO Publishing, 2021. – 64 p.

4. Howley I., Tomlinson B., Kanda T. Ethical dimensions of artificial intelligence in education. – London: Routledge, 2022. – 256 p.

5. Selwyn N. Should Robots Replace Teachers? AI and the Future of Education. – Cambridge: Polity Press, 2019. – 189 p.

6. Floridi L., Cowls J. A Unified Framework of Five Principles for AI in Society. – Oxford: Oxford University Press, 2020. – 145 p.

7. OECD. Trustworthy Artificial Intelligence in Education. – Paris: OECD Publishing, 2021. – 78 p.

Saidkodirova Dilfuzakhon
Uzbekistan State World Languages University, Associate professor

DEVELOPMENT AND FUNCTIONS OF INTERNET TERMINOLOGY: ABBREVIATION AND NOMINATION

Annotation. *The rapid development of science and technology, production, globalization and integration processes in the world , the intensive interaction of world languages create the basis for the continuous enrichment of the vocabulary of languages. It should be emphasized that the effective use of the extensive experience gained in world of linguistics in the study of Internet terms in Uzbek and English, the creation of dictionaries and to some extent the editing gives good results.The system of Internet terminology has its own specifics. The study of terminology brings to the idea that the phenomenon of figurative use of terms is valid. Specifics of Internet Terminology can include the following:1) open Internet concepts; 2) absence or uncertainty of affiliation between species and varieties; 3) complicated by emotional components; 4) genetic connection and active interaction with common vocabulary;5) adoption of appropriations; 6) rapid enrichment of the vocabulary. The approach to understanding Internet terms is changing, and it directly affects the amount of names associated with Internet terms.*

Key words: *terminology, term, word, nomination, semantics, system, network, Internet, abbreviation.*

INTERNET TERMINOLOGIYASINING RIVOJLANISHI VA FUNKSIYALARI: QISQARTMALAR VA NOMINATSIYA

Annotatsiya. *Dunyoda fan-texnika, ishlab chiqarish, globallashuv va integratsiya jarayonlarining jadal rivojlanishi, jahon tillarining jadal, o‘zaro ta’siri tillar lug‘at boyligining uzluksiz boyib borishiga zamin yaratadi. Ta’kidlash joizki, o‘zbek va ingliz tillarida internet terminlarini o‘rganishda jahon tilshunosligida to‘plangan katta tajribadan unumli foydalanish, lug‘atlar yaratish va ma’lum darajada tahrir qilish yaxshi samaralar bermoqda. Internet terminologiyasi tizimining o‘ziga xos xususiyatlari bor. Terminologiyani o‘rganish atamalarning obrazli qo‘llanish hodisasi o‘rinli degan fikrni keltirib chiqaradi. Internet terminologiyasining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin: 1) ochiq Internet tushunchalari; 2) turlar va navlar or‘tasida tegishlilikning yo‘qligi yoki noaniqligi; 3) hissiy komponentlar bilan murakkablashganligi; 4) umumiy lug‘at bilan genetik bog‘liqlik va faol o‘zaro ta’siri; 5) o‘zlashtirishni qabul qilish; 6) so‘z boyligini tez boyitish. Internet terminlarini tushunishga yondashuv o‘zgarmoqda va bu Internet terminlari bilan bog‘liq nomlar miqdoriga bevosita ta’sir qiladi.*

Kalit so‘zlar*: terminologiya, termin, so‘z, nominatsiya, semantika, tizim, tarmoq, Internet, qisqartma.*

РАЗВИТИЕ И ФУНКЦИИ ИНТЕРНЕТ-ТЕРМИНОЛОГИИ: СОКРАЩЕНИЯ И НОМИНАЦИИ

Аннотация. *Быстрое развитие науки и техники, производства, глобализации и интеграционных процессов в мире, интенсивное взаимодействие мировых языков создают основу для непрерывного обогащения языковой лексики. Следует подчеркнуть, что эффективное использование обширного опыта, накопленного в мире лингвистики при изучении интернет-терминов на узбекском и английском языках, создании словарей и, в некоторой степени, их редактировании дает хорошие результаты. Система интернет-терминологии имеет свою специфику. Изучение терминологии приводит к идее о том, что феномен образного использования терминов является актуальным. Специфика интернет-терминологии может включать в себя следующее: 1) открытые интернет-концепции; 2)*

отсутствие или неопределенность принадлежности между видами и разновидностями; 3) осложнение эмоциональными компонентами; 4) генетическая связь и активное взаимодействие с общеупотребительной лексикой; 5) принятие ассимиляций; 6) быстрое обогащение лексики. Подход к пониманию интернет-терминов меняется, и это напрямую влияет на количество названий, связанных с интернет-терминами. Подход к пониманию интернет-терминов меняется, и это напрямую влияет на количество названий, связанных с интернет-терминами.

***Ключевые слова**: терминология, термин, слово, номинация, семантика, система, сеть, Интернет, сокращение.*

In the world as an integral and essential means of social services the Internet is becoming more and more widespread and influential in all spheres of life. The Internet is one of the most fast-growing spheres of scientific knowledge, its terminology is constantly evolving and is quickly updated with new terms.In such countries as Russia, USA, Italy, Great Britain, Germany, Japan, Malaysia, it is especially important to improve the terminology and terminology of the Internet, to monitor the formation process, formation and study of functional features of new concepts included in the Internet.

The use of Internet therminology is becoming more and more popular nowadays.

The Internet is a complex social and technical system, which is constantly evolving and changing. According to the system approach, in order to describe such a complex object appropriately, it is necessary to consider it within a wider system and expand the functionality of the paradigm operator or research paradigm, attracting additional information from other disciplines. (1, 17–19)

It should be noted that in this case each science should preserve its internal structure and basic postulates.

D. Kadyrbekova notes that information and communication terms mean a general concept, consist of one or more words and mean a special concept. The term consisting of one core, depending on its structure, is a complex term consisting of two or more cores. As long as this term is created and used by experts in the field, the new term "created" means concept, is called neologism and is called neo-term. (2, 45–49)

According to the Russian scientist A.G. Khodakova: "... internet terminology should be understood as the most important, informational, codified part of the core language, computer science and computer technologies". (3, 13)

Improving perception through hearing and vision while communicating online is a promising area for creativity. The formation of a special environment in which human senses can be affected, the use of special devices, methods and language means to compensate for such effects has led to the formation of new units:multimedia gaming – multimedia o'yinlari; social environments – ijtimoiy muhit; audio-video conferencing – audio-video konferensiya; podcasting - podkasting; internet-phoning – internet telefon; creative keyboarding – ijodiy klaviatura; smiley - tabassum; Web camera – Veb kamera. Internet terminology is characterized by the fact that it consists of simple, complex, compound terms consisting of terms of different structural types.

The lexical length of terms can be defined as average and maximum. The next criteria can be up to seven lexical units in English Internet terminology:Internet Corporation for Assigned Names and Numbers, Internet Information Server Standard Log File Format, What You See Is What You Get — editing software.

The Internet is one of the fastest-growing fields of scientific knowledge, its terminology is constantly evolving and is quickly updated with new terms.

The specifics of Internet terms include:

a) nomination function: Internet terms are used to denote concepts, devices, all processes related to the Internet that belong to this domain:cable local-area network - kabelli mahalliy tarmoq; card with magnetic strip- magnit yo'lli karta;b) descriptive function: a multi-component nominative phrase is used for a concept name and allows to describe its essence more precisely, but does

not meet the requirement of brevity, for example Carrier Sense Multiple Access with Collision Detection (CSMA/CD) - ko'p tomonidan erkin foydalanish; character based information system- axborotning nishonli tizimi; classification of information and its bearers as secret - ma'lumotlar va ularni tashuvchilarni maxfiylashtirish; Code Division Multiple Access- kodli ajratishli ko'p tomonidan erkin foydalanish and etc.

c) definitive task: serves to define the content of scientific concepts, for example: dual-homed gateway - ko'p tomonidan erkin foydalanish; character based information system - axborotning nishonli tizimi; classification of information and its bearers as secret - ma'lumotlar va ularni tashuvchilarni maxfiylashtirish; Code Division Multiple Access- kodli ajratishli ko'p tomonidan erkin foydalanish and etc.

In addition to the compulsory functions, there are a number of other definitions of this term in the Internet. The main types of terms differ depending on the nature of these descriptions.As mentioned above, terms can be considered as defined units in four ways: features specific to their form and structure; their importance and content; historical features; and in terms of specific usage.

Though many terms related to Internet activity are used separately in modern English and Uzbek, most of them are characterized by two or more multi-component (component) compound terms, abbreviations.Shortened Internet terms, in turn, provide a brief and convenient use of Internet terms, achieving uniformity in the translation of oral and written speech, the formation of a unified expression of terms.

The content of the term Internet usually has the following requirements:

Inconsistency of the term semantics. D.S. Lotte referred to the term as conforming to the concept he described. (4, 78) There is no inconsistency between the lexical meaning of the term as a word and the meaning it has in the given terminology. This is explained by the complexity of the semantic structure of the term, in which the exact meaning of the term is added to the terminological content, which is usually equated with the content of a particular concept. Lexical and terminological meanings can enter into each other in various proportions, including total disproportion, partial disproportion, etc. can be observed (for example, Address – манзил this Internet term refers to a sequence of bits in computing networks that identifies the recipients or senders of transmitted data, Agent – the term agent is used as part of the system that prepares information in the client-server model and exchanges it between the client and server parts).

A single meaning of the term if this lexical form has a different meaning in other fields of knowledge, it does not affect the meaning in this field of knowledge.– For example, the term "algorithm" is used in geometry, mathematics and has a precise meaning in each of these disciplines. In Internet terminology, the meaning and sequence of actions that clearly indicate a solution to a problem through a computational process that transmits the original data to the final result means: placement (posting) of something on the Internet, the order of use, analogue continuously variable physical quantities or data displayed in a continuous form and a description of the processes and functional devices that use these data;in English internet terminology –Animation - анимация; antivirus software – вирусга қарши дастур; backbone – asosiy; billing – тўловларни тақдим қилиш; indexing – индекслаш and etc.

Full meaning (a reflection of the minimum number of characters required to define a concept defined by it in the meaning of a term). For example, information leakage - ахборотнинг сизиши, uncontrolled release of confidential information. This happens as a result of information disclosure, unauthorized access to it and receipt of information by special services. However, it does not affect the form of the term, and as a result lexical meaning of the term is much wider than the term attached to it. There is one more unclear term as well – биотермик услублар -biothermal methods; it is also irrelevant to the concept attached to it.

Often a formal difference leads to semantic differentiation, for example information law principles – ахборот ҳуқуқи тамойиллари, information law–ахборот ҳуқуқи has different meanings, which also causes difficulties in communication between the professionals.

An acceptable feature of the term is its motivation, semantic transparency, which makes it possible to form an idea of the concept called the term. The most complete expression of motivation is the structure of the term, i.e., the relationship of the concept called in the structure of the term with other concepts and the ability to reflect the place of this concept in the system. Speaking about the motivation of terms, first of all, it is necessary to take into account their general features. All terms arise in the process of motivation.

The structure and motivation are sometimes understood only as a reflection(5, 58) of the role of a concept in a system by a term or as a homogeneous element of a term in the construction of a kind of verbal complex to show a homogeneous relationship between simple concepts that are part of complex concepts (6, 97). In our opinion, in the form of a term three levels of reflection of specific features of the scientific and technical concepts it definesshould be distinguished.

First of all, it is possible to distinguish the terms that form associations with the semantic structure of all known concepts, on the basis of which scientific and technical concepts called terms emerged. Most often, associations by external similarity are used: information products – ахборот маҳсулотлари; internal web-node – ички веб-боғлама; key – калит; key distribution – калит тақсимоти; link – боғлаш and etc.The meaning of such terms facilitates the formation of an imaginary form of an object, which contributes to the assimilation of the concepts referred to.

Pragmatic (functional) requirements: a) introduction; universal recognition, use; b) internationality; c) modernity; d) melodiousness.

Among the pragmatic requirements, based on the specifics of the use of Internet terms, we can point out the following:

introduction: the term is characterized by its recognition by all experts, the scientific community or its wide use. The extent to which a term is used in written speech is determined by calculating its occurrence in texts and is characterized by the degree of repeatability, for example,тармоқ, станция, локал тармоқ, (LAN), минтақвий тармоқ (MAN), глобал тармоқ (WAN), марказлаштирилган, иқтисодлаштирилган.

increased internationalization of scientific research, increased exchange of scientific and technical information, increased need for international communication of experts is reflected in growing internationalism, i.e. similarity or similarity of terms and commonality of terms used in several (at least three) national languages:локал тармоқлар (LAN Local Area Network); минтақавий тармоқлар (MAN Metropolitan Area Network); глобал тармоқлар (WAN Wide Area Network) and etc.

the requirement of modernity of a term is realized by displacement of out-of-date terms, replacing them with modern terms. (for example, Intel, Pentium,card with magnetic strip, cartographical database).

melodiousness of the term. Terms must sound orthoepicallyto be easily pronounced. Real player, Quick player, Cosmo player, Media player and etc.In addition, the term should not cause unpleasant associations beyond a narrow range of use, this can be clearly seen when comparing the following pairs of terms:computer-prone – компьютеромания; cryptology–криптология; cryptosystem – криптотизим; firewall – брандмауер.

These requirements are widely used, among other things, both in the arrangement of terms and in the identification of basic types of terms.

References.

1. Budanov G.V. Delocalization as the acquisition of meaning, to the experience of interdisciplinary technologies // Ontology and epistemology of synergetics. -M .: Ifran, 1997. P.17-19

2. Kadirbekova D. Terminology of English-Uzbek information and communication technologies and its lexicographic features. can. philological sciences... dis. –Tashkent, 2017.

3. A.G. Khodakova System semantics of the term (based on the English terms of the Internet). Author's abstract ... can. philological sciences. –Tula, 2010. –P.13.

4. Lotte D. Fundamentals of building scientific and technical terminology: theory and methodology. - Moscow. 1961.

5. Chupilina E.I. The place of the term in the lexical-semantic system of the language // Questions of terminology and linguistic statistics. - Voronezh, 1972.

6. Danilenko V.P. Russian terminology. The experience of linguistic description. - M., 1977

7. See: Danilenko V.P. Language for special purposes. - M., 1996. Kandelaki T.L. The main groupings of terminological units of ordered terminologies // Questions of linguistics. - 1987. - No. 6. - S. 84-89. T.L. Kandelaki Semantics and motivation of terms. - M .: Nauka, 1977. - 167 p.; Blinova, O. I. The term and its motivation // Terminology and culture of speech. M. Science. 1981, p. 28-37 .; Filatova, A.S. Thematic groups of the Russian language in the motivational and comparative aspect. Author's abstract. dis. ... Cand. philol. sciences. - Tomsk. 2004.

8. Nishonov P. Comparative-typological study of legal terminology of French and Uzbek languages. abstract ... can. philological sciences, abstract. dis. –T .: 2009. –P.14.

9. See: A.Hojiev. Term selection criteria. –T .: Fan, 1996, P. 23-25.

10. See: Kurilo N.A. Abbreviations in modern English: a functional aspect. - Minsk, 2005.

11. On the issue of classification of abbreviations by sources of origin, see: Mirzoeva M.M. Abbreviated words in Russian and Tajik languages. Abstract of a thesis ... dissertation of the candidate of philological sciences. - Dushanbe, 2006.- P.7.

12. Mirzoeva M.M. Abbreviated words in Russian and Tajik languages. Abstract of a thesis ... dissertation of the candidate of philological sciences. - Dushanbe, 2006 .- p. 12.

13. T.L. Kandelaki Semantics and motivation of terms. - M .: Nauka, 1977. - p.15.

14. See: Paluanova X.D. Derivation-semantic principles of ecological terms in English, Uzbek, Russian and Karakalpak languages. DSc ... dissertation. –Tashkent, 2016. –P.33.

15. www.itdictionary.com

16. www.granddictionnaire.com

17. https://burupo.com

18. www.englishdom.com

Razzokova Moxinur Baxodir qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti Fizika kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: mohinur-razzoqova@mail.ru

FIZIKA TA’LIMIDA KONSEPTUAL XATOLARNI ANIQLASH VA BARTARAF ETISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI (Physics: A Conceptual World View darsligi tahlili asosida)

Annotatsiya. *Ushbu maqolada fizika ta’limida talabalar tomonidan yo‘l qo‘yiladigan konseptual xatolarni aniqlash va bartaraf etish muammosi tahlil qilinadi. Tadqiqot Physics: A Conceptual World View darsligi misolida konseptual yondashuvga asoslangan pedagogik mexanizmlarni o‘rganishga qaratilgan. Darslikda qo‘llanilgan metodik vositalar - noto‘g‘ri mantiqni fosh etuvchi savollar, diagnostik topshiriqlar, vizual modellar va matematik yuklamani cheklash usullari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Mualliflar tomonidan konseptual xatolar tabiiy kognitiv jarayon sifatida talqin qilinishi alohida e’tiborga olinadi. Tadqiqot davomida formulaga asoslangan yondashuvning cheklangan jihatlari va konseptual tushunishga yo‘naltirilgan ta’limning afzalliklari ochib beriladi. Shuningdek, fizik tushunchalarni shakllantirishda tarixiy-mantiqiy yondashuvning didaktik ahamiyati asoslab beriladi. Maqola natijalari fizika ta’limini takomillashtirish va bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so‘zlar: *fizika ta’limi, konseptual xatolar, pedagogik mexanizmlar, konseptual yondashuv, fizik tushunchalar, ta’lim metodikasi*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ВЫЯВЛЕНИЯ И УСТРАНЕНИЯ КОНЦЕПТУАЛЬНЫХ ОШИБОК В ПРЕПОДАВАНИИ ФИЗИКИ (НА ОСНОВЕ АНАЛИЗА УЧЕБНИКА "PHYSICS: A CONCEPTUAL WORLD VIEW")

Аннотация. *В статье рассматривается проблема выявления и устранения концептуальных ошибок в процессе обучения физике. Исследование выполнено на основе анализа учебника Physics: A Conceptual World View, ориентированного на формирование концептуального понимания физических явлений. Анализируются педагогические механизмы, направленные на диагностику ошибочных представлений студентов и их последующую коррекцию. Особое внимание уделяется использованию вопросов с ошибочной логикой, визуальных моделей и формативной оценки. Показано, что концептуальные ошибки рассматриваются авторами учебника как естественный этап познавательного развития обучающихся. Обосновывается ограниченность формульно-ориентированного подхода в физическом образовании. Подчёркивается дидактическая значимость историко-логического изложения физических идей. Результаты исследования могут быть использованы для совершенствования методики преподавания физики и подготовки будущих учителей.*

Ключевые слова: *обучение физике, концептуальные ошибки, педагогические механизмы, концептуальный подход, физические понятия, методика обучения*

PEDAGOGICAL MECHANISMS FOR IDENTIFYING AND ELIMINATING CONCEPTUAL ERRORS IN PHYSICS EDUCATION (BASED ON THE ANALYSIS OF THE TEXTBOOK "PHYSICS: A CONCEPTUAL WORLD VIEW")

Abstract. *This article examines the problem of identifying and eliminating conceptual errors in physics education. The study is based on an analytical review of the textbook Physics: A Conceptual World View, which emphasizes conceptual understanding of physical phenomena. The paper analyzes pedagogical mechanisms aimed at diagnosing students’ misconceptions and correcting them. Special attention is given to the use of flawed reasoning questions, diagnostic tasks, and*

visual models. The textbook's approach to treating conceptual errors as a natural cognitive process is highlighted. The limitations of formula-centered instruction in physics education are discussed. The didactic value of a historical and logical presentation of physical concepts is substantiated. The findings of the study contribute to improving physics teaching methodology and enhancing the professional training of future physics teachers.

Key words: *physics education, conceptual errors, pedagogical mechanisms, conceptual approach, physical concepts, teaching methodology*

Kirish. So‘nggi yillarda fizika ta’limi samaradorligini oshirish masalasi jahon va milliy ta’lim tizimlarida dolzarb muammolardan biri sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, talabalar tomonidan fizik tushunchalarni o‘zlashtirish jarayonida yuzaga keladigan konseptual xatolar fizika fanini o‘qitish sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, bilimlarning yuzaki va barqaror bo‘lmagan holda shakllanishiga olib kelmoqda. Mazkur xatolar ko‘pincha formulalarni mexanik yodlash, kundalik tajribaga haddan tashqari tayanish hamda fizik hodisalarning sabab–oqibat bog‘lanishlarini yetarli darajada anglamaslik bilan bog‘liq bo‘ladi.

Ta’lim amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy, formulaga yo‘naltirilgan o‘qitish yondashuvi talabalarni masalalar yechishga o‘rgatsa-da, ularning fizik hodisalarni mazmunan tushunishini to‘liq ta’minlay olmaydi. Natijada talaba matematik jihatdan to‘g‘ri javob bera oladi, biroq hodisaning fizik mohiyatini izohlashda qiynaladi. Bu holat konseptual xatolarning barqarorlashuviga sabab bo‘lib, keyingi bosqichdagi murakkab mavzularni o‘zlashtirishda jiddiy to‘siq bo‘lib xizmat qiladi.

Shu munosabat bilan zamonaviy fizika ta’limida konseptual yondashuvga asoslangan pedagogik mexanizmlarni ishlab chiqish va tahlil qilish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Konseptual yondashuv fizik tushunchalarni formulalar orqali emas, balki mantiqiy bog‘lanishlar, vizual modellar va reflektiv fikrlash asosida shakllantirishni nazarda tutadi. Bunday yondashuv talabalarda yuzaga keladigan noto‘g‘ri tasavvurlarni erta aniqlash va ularni ongli ravishda bartaraf etish imkonini beradi.

Mazkur maqolada Larry D. Kirkpatrick va Gregory E. Francis tomonidan yaratilgan Physics: A Conceptual World View darsligi asosida fizika ta’limida konseptual xatolarni aniqlash va bartaraf etishning pedagogik mexanizmlari tahlil qilinadi.Ushbu darslik konseptual tushunishga asoslangan o‘qitish modeli sifatida xalqaro ta’lim amaliyotida keng qo‘llanilib, bo‘lajak o‘qituvchilar va nofizika yo‘nalishidagi talabalar uchun mo‘ljallanganligi bilan ajralib turadi. Darslikda fizik tushunchalarni shakllantirishda talabalar orasida keng tarqalgan konseptual xatolarni ochib berishga alohida e’tibor qaratilgan.

Maqolaning maqsadi - fizika ta’limida konseptual xatolarni aniqlash va bartaraf etishda qo‘llaniladigan pedagogik mexanizmlarni ilmiy jihatdan tahlil qilish hamda ularning didaktik imkoniyatlarini asoslab berishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun darslikda qo‘llanilgan metodik yondashuvlar, diagnostik savollar, vizual vositalar va matematik yuklamani cheklash usullari tahlil qilinadi. Maqola natijalari fizika ta’limini takomillashtirish, ayniqsa bo‘lajak fizika o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini kuchaytirishda amaliy ahamiyat kasb etishi kutiladi.

Mazkur maqolaning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda fizika ta’limida talabalar tomonidan yo‘l qo‘yiladigan konseptual xatolar muammosi xorijiy darslik - Physics: A Conceptual World View misolida pedagogik mexanizmlar nuqtayi nazaridan tizimli tahlil qilinadi. Maqolada konseptual xatolar bilim yetishmasligi emas, balki noto‘g‘ri mulohaza yuritish jarayoni natijasi sifatida talqin qilinib, ularni aniqlash va bartaraf etishning samarali metodik yo‘llari asoslab beriladi.

Zamonaviy fizika ta’limida eng og‘ir va eng barqaror muammolardan biri - bu talabalarda shakllanib qoladigan konseptual xatolardir. Ushbu xatolar oddiy hisob-kitobdagi xatoliklardan farqli ravishda, talabaning fizik hodisani qanday tasavvur qilishi bilan bog‘liq bo‘lib, ular ko‘pincha an’anaviy o‘qitish jarayonida mustahkamlanib boradi. Physics: A Conceptual World View darsligi aynan mana shu muammoni markazga qo‘ygan holda yozilgan bo‘lib, u fizika ta’limida konseptual xatolarni aniqlash va bartaraf etishga qaratilgan izchil pedagogik yondashuvni namoyon etadi.

Kirkpatrick va Francis tomonidan taklif etilgan konseptual yondashuvda fizik hodisalar formuladan avval mazmuniy tushuncha sifatida shakllantiriladi. Mazkur darslikning eng muhim jihati shundaki, mualliflar konseptual xatolarni talabaning bilimsizligi yoki e'tiborsizligi oqibati sifatida emas, balki tabiiy kognitiv jarayon sifatida ko'radilar. Kitobning kirish qismidayoq mualliflar fizikani o'rganish jarayonini bolalikdagi o'qishni o'rganish jarayoni bilan qiyoslaydi. Masalan, birinchi sinfda "b", "d" va "p" harflarini chalkashtirish qanday tabiiy bo'lsa, tezlik, tezlanish va kuch tushunchalarini chalkashtirish ham fizika ta'limining boshlang'ich bosqichida shunchalik tabiiy holat sifatida talqin qilinadi. Bu qiyos tasodifiy emas: mualliflar shu orqali talabani xato qilishdan qo'rqmaslikka undaydi va xatoni o'rganish manbai sifatida ko'rsatadi.

Darslikda konseptual xatolar ayniqsa mexanika bo'limlarida aniq ko'rinishda ochib beriladi. Masalan, harakatni tasvirlashda talabalar ko'pincha "tezlik" va "tezlanish" tushunchalarini bir xil deb qabul qiladi. Kitobda bu xato bevosita aytilmaydi, balki maxsus savollar va vaziyatlar orqali yuzaga chiqariladi. Erkin tushish mavzusida berilgan misollarda talabadan "jism pastga tushayotganda tezligi nolga teng bo'ladimi?" degan savolga javob berish so'raladi. Talabalarning katta qismi yuqori nuqtada tezlik nol bo'lsa, demak tezlanish ham nol bo'lishi kerak, degan xulosaga keladi. Mualliflar bu yerda formulani berishga shoshilmaydi, aksincha, tezlanishning tezlik emas, balki tezlikning o'zgarish tezligi ekanini grafik va tasviriy vositalar orqali ochib beradi. Bu yondashuv konseptual xatoni formulaviy emas, mazmuniy darajada bartaraf etishga xizmat qiladi.


№	Konseptual xato (noto'g'ri mulohaza yuritish)	Sababi	Darslikda qo'llangan pedagogik mexanizm	Kutiladigan natija
1	Tezlik va tezlanishni bir xil tushunish	Kundalik tajribaga tayanish	Grafiklar, vizual tasvirlar, diagnostik savollar	Harakat tushunchalarini farqlab anglash
2	"Og'ir jism kuchliroq ta'sir qiladi"	Sabab–oqibatni noto'g'ri bog'lash	Flawed Reasoning (noto'g'ri mulohaza yuritish) savollari	Nyuton qonunlarini mazmunan tushunish
3	"Harakat yo'q - energiya yo'q"	Energiyani faqat kinetik deb talqin qilish	Balandlikdan tushuvchi vagonli attraksion misoli	Potensial energiya tushunchasini anglash
4	Tasvir oynaning ichida joylashgan deb o'ylash	Ko'rishga asoslangan xulosa	Nur chiziqlari va ko'rgazmali modellar	Tasvirning geometrik konstruksiya ekanini tushunish
5	Atomni "kichik Quyosh tizimi" sifatida tasavvur qilish	Tarixiy modelni absolyutlashtirish	Tarixiy-mantiqiy tahlil	Kvant modelini qabul qilish

Jadvalda Physics: A Conceptual World View darsligida uchraydigan asosiy konseptual xatolar va ularni bartaraf etishda qo'llanilgan pedagogik mexanizmlar tizimlashtirilgan.

Kitobda keng qo'llaniladigan "Flawed Reasoning(noto'g'ri mulohaza yuritish)" bloklari konseptual xatolar bilan ishlashning eng aniq va samarali usullaridan biridir. Masalan, Nyutonning uchinchi qonunini o'rganishda talabalar odatda "katta jism kichik jismga katta kuch bilan ta'sir qiladi" degan kundalik tasavvurga ega bo'ladi. Darslikda aynan shu noto'g'ri mantiq alohida misol sifatida keltiriladi va so'ngra kuchlar jufti tushunchasi asosida rad etiladi. Muhimi, mualliflar bu xatoni "noto'g'ri" deb keskin rad etmaydi, balki nima uchun talaba shunday o'ylashi mantiqan tushunarli ekanini izohlaydi. Bu esa talabaning ichki qarshiligini kamaytiradi va konseptual qayta qurishga yo'l ochadi.

Energiya bo'limida ham shunga o'xshash yondashuvni ko'rish mumkin. Talabalarning ko'pchiligi energiyani "harakat bilan bog'liq narsa" sifatida tasavvur qiladi va potensial energiyani real mavjud emas, deb hisoblaydi. Darslikda bu xato balandlikdan tushuvchi vagonli attraksion

misolida ochib beriladi. Vagon eng yuqori nuqtada to‘xtab turgan bo‘lsa ham, uning harakat qilish imkoniyati saqlanib qolganligi ta’kidlanadi. Bu yerda mualliflar energiyani “harakat” emas, balki holatga bog‘liq miqdor ekanini tushuntiradi. Aynan mana shu nuqta talabalar ongida juda chuqur o‘rnashgan konseptual xatoni yemiradi.



Kitobning muhim pedagogik xususiyatlaridan yana biri - matematikani cheklangan va ongli tarzda qo‘llashidir. Masalan, proyeksiyalar, vektorlar yoki differensial munosabatlar darhol kiritilmaydi. Dastlab fizik mazmun, yo‘nalish, sabab-oqibat bog‘lanishlari tasvirlanadi. Faqat shundan keyingina matematik ifoda “Working It Out” bloklarida keltiriladi. Bu esa talabada keng tarqalgan “formula bor ekan, demak tushundim” degan noto‘g‘ri ishonchni yo‘qotadi.

Physics: A Conceptual World View darsligida konseptual tushunishga ustuvor ahamiyat berilgan bo‘lib, matematik hisoblashlar asosiy matndan ajratilgan holda hisoblab ko‘rsatish (Working It Out) bo‘limlarida beriladi. Ushbu bo‘limlarda fizik masalalar bosqichma-bosqich tahlil qilinib, natijaga qanday mantiqiy va matematik yo‘l bilan erishilganligi ochiq ko‘rsatiladi. Muhimi, bu hisoblashli izohlar majburiy emas: talaba ularni o‘tkazib yuborgan taqdirda ham mavzuning asosiy konseptual mazmuni uzilmaydi. Bunday yondashuv formulaga haddan tashqari tayanish natijasida yuzaga keladigan noto‘g‘ri mulohaza yuritishning oldini olishga xizmat qiladi. Natijada talaba avvalo fizik hodisaning mohiyatini tushunadi, so‘ngra zarur bo‘lganda matematik ifodalar orqali bu tushunchani mustahkamlaydi. Mazkur didaktik yechim fizika ta’limida konseptual xatolarni kamaytirish va bilimlarning mazmunan barqaror shakllanishini ta’minlashga yo‘naltirilgan samarali pedagogik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Optika bo‘limlarida ham konseptual xatolarni bartaraf etishga qaratilgan aniq misollar uchraydi. Ko‘zgularda tasvir hosil bo‘lishi mavzusida talabalar ko‘pincha tasvir oynaning ichida joylashgan deb o‘ylaydi. Darslikda bu xato nur chiziqlari yordamida ko‘rgazmali tarzda tahlil qilinadi va tasvir geometrik konstruksiya ekanligi ko‘rsatiladi. Bu yerda ranglar va yo‘nalish strelkalari muhim rol o‘ynaydi. Vizual vositalar konseptual xatoni nafaqat tushuntiradi, balki uni his qilish darajasida yo‘qotadi.

Atom va kvant fizikasiga oid boblarda esa mualliflar alohida ehtiyotkorlik bilan ishlaydi. Masalan, atomni “kichik Quyosh tizimi” sifatida tasavvur qilish tarixiy jihatdan mantiqli bo‘lganligi tan olinadi, ammo tajribaviy dalillar asosida bu modelning qayerda ishlamasligi aniq ko‘rsatib beriladi. Bu yondashuv talabaning “oldingi bilimlarim butunlay noto‘g‘ri ekan” degan psixologik qarshiligini yumshatadi va yangi modelni qabul qilishni osonlashtiradi.

Umuman olganda, Physics: A Conceptual World View darsligi konseptual xatolar bilan ishlashda uchta asosiy tamoyilni izchil amalga oshiradi:

birinchidan, xato yashirilmaydi, balki ochiq ko‘rsatiladi;

ikkinchidan, xato rad etilishidan oldin uning mantiqiy ildizi tahlil qilinadi;

uchinchidan, yangi tushuncha talabaning avvalgi tajribasi bilan bog‘lab quriladi.

Mazkur tahlil natijalari O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida fizika fanini o‘qitish jarayonida ham muhim metodik ahamiyat kasb etadi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, mahalliy ta’lim ja-

rayonida ham talabalar ko‘pincha fizik formulalarni mexanik o‘zlashtiradi, biroq tushunchalarning mazmuniy mohiyatini yetarli darajada anglamaydi. Shu sababli xorijiy tajribada qo‘llanilgan konseptual yondashuv, diagnostik savollar va vizual modellarni milliy ta’lim tizimiga moslashtirish fizika ta’limi samaradorligini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Shu jihatdan ushbu darslik fizika ta’limida konseptual xatolarni diagnostika qilish va bartaraf etish bo‘yicha zamonaviy pedagogik yondashuvlarning yorqin namunasi bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa bo‘lajak o‘qituvchilar uchun bu kitob nafaqat bilim manbai, balki metodik fikrlash maktabi vazifasini ham bajaradi.

Xulosa. Physics: A Conceptual World View darsligi fizika ta’limida konseptual xatolarni aniqlash va bartaraf etishga qaratilgan samarali pedagogik mexanizmlarni o‘zida mujassam etgan metodik manba hisoblanadi. Darslikda konseptual xatolar talabaning bilimsizligi emas, balki kundalik tajribaga tayangan noto‘g‘ri mulohaza yuritish natijasi sifatida talqin qilinadi. Vizual modellar, diagnostik savollar va matematik yuklamani cheklash orqali fizik tushunchalarni mazmunan shakllantirishga erishiladi. Mazkur yondashuvni mahalliy ta’lim amaliyotiga moslashtirish fizika ta’limi sifatini oshirish va bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Kirkpatrick, L. D., Francis, G. E. Physics: A Conceptual World View. – 7-nashr. – Belmont (CA): Brooks/Cole Cengage Learning, 2010. – 720 p.

2. Redish, E. F. Teaching Physics with the Physics Suite. – Hoboken: John Wiley & Sons, 2003. – 250 p.

3. Hestenes, D., Wells, M., Swackhamer, G. Force Concept Inventory // The Physics Teacher. – 1992. – Vol. 30, No. 3. – P. 141–158.

4. Halloun, I. A., Hestenes, D. Common sense concepts about motion // American Journal of Physics. – 1985. – Vol. 53, No. 11. – P. 1056–1065.

5. Mazur, E. Peer Instruction: A User’s Manual. – Upper Saddle River (NJ): Prentice Hall, 1997. – 253 p.

6. Duit, R., Treagust, D. Conceptual change: A powerful framework for improving science teaching and learning // International Journal of Science Education. – 2003. – Vol. 25, No. 6. – P. 671–688.

7. Razzokova, M. B. (2024). Fizika o‘quv dasturlarini milliy muammolarni hal qilishga yo‘naltirish: Pedagogik yondashuvlar va amaliy tajribalar. Samarali ta’lim va barqaror innovatsiyalar jurnali, 2(12), 43–49.

8. Razzokova, M. B., & Raximov, I. Q. (2025). Fizika fanini o‘qitishda nanotexnologiyalarning qo‘llanilishiga oid kompetensiyalarni shakllantirish. Samarali ta’lim va barqaror innovatsiyalar jurnali, 3(6), 62–68.

Keldiyorova Nasiba Ilhom qizi
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali magistranti
E-mail: iismatovanasibailkhomovna@gmail.com

O‘SMIRLAR XULQ-ATVORIDA KOPING-STRATEGIYALAR NAMOYON BO‘LISHINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada xorijiy olimlarning bu boradagi psixologik qarashlari o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilinadi, ekstremal vaziyatlarda o‘smirlar uchun himoya mexanizmlari va yengib o‘tish xatti-harakatlarining namoyon bo‘lishi sohasida olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida xulosalar chiqariladi.*

Kalit so‘zlar: *o‘smirlik davri, koping-strategiyalar, ijtimoiy-psixologik xususiyatlar, havotirlilik, frustratsiya, tajovuzkorlik, rigidlik, hissiy barqarorlik.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОЯВЛЕНИЯ КОПИНГ-СТРАТЕГИЙ В ПОВЕДЕНИИ ПОДРОСТКОВ

Аннотация. *В данной статье анализируется взаимосвязь между психологическими взглядами зарубежных психологов на данную проблему, делаются выводы на основе результатов исследований, проведенных в области защитных механизмов, и проявлений копинг-поведенческих стратегий подростков в экстремальных ситуациях.*

Ключевые слова: *Подростковый возраст, стратегии совладания, социально-психологические характеристики, тревожность, фрустрация, агрессия, ригидность, эмоциональная стабильность.*

SOCIO-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF COPING STRATEGIES MANIFESTATION IN ADOLESCENT BEHAVIOR

Abstract. *This article analyzes the relationship between the psychological views of foreign psychologists on this issue, draws conclusions based on the results of research conducted in the field of protective mechanisms and the manifestation of coping behaviors for adolescents in extreme situations.*

Key words: *adolescence, coping strategies, socio-psychological characteristics, anxiety, frustration, aggression, rigidity, emotional stability.*

Kirish. O‘smirlik jismoniy, hissiy va intellektual rivojlanishning muhim bosqichidir, shuningdek, jamiyatdagi sezilarli o‘zgarishlardir [1]. Bu o‘zgarishlar shaxsiyat va mustaqillikni rivojlantirish uchun muhim bo‘lsa-da, ular ko‘pincha yoshlarning ruhiy salomatligi uchun muammolarni keltirib chiqaradi. Bu davrda duch keladigan bosimlar juda ko‘p; ular orasida akademik yutuqlarga bo‘lgan kuchli ehtiyoj, ijtimoiy moslashish qiyinligi va o‘z shaxsiyatini topish qiyinligi bor. Global ommaviy axborot vositalari kabi zamonaviy ta'sirlar doimiy taqqoslash, biror narsani o‘tkazib yuborish qo‘rquvi va eng yaxshi onlayn fotosuratlarni olish bosimini keltirib chiqarish orqali bu qiyinchiliklarga qo‘shimcha qiladi. Ushbu stress omillari, odatiy rivojlanish muammolari bilan birlashganda, o‘smirlarni xavotir, depressiya va past o‘ziga ishonch kabi ruhiy salomatlik muammolari uchun yuqori xavf ostiga qo‘yadi. Ushbu stress omillarining tarixini va ularning ruhiy salomatlikka ta'sirini tushunish samarali strategiyalar va yechimlarni yaratish uchun juda muhimdir. Bu tushuncha nafaqat o‘smirlarga stressni boshqarishga yordam beradi, balki kelajakdagi qiyinchiliklarga duch kelganda chidamlilik va moslashuvchanlikni rivojlantirish usullarini ham taqdim etadi. Sawyer va boshqalarning fikriga ko‘ra, o‘smirlik - bu bolalik va voyaga yetganlik o‘rtasidagi o‘tish davri bo‘lib, kognitiv, jismoniy, ijtimoiy va hissiy sohalarda tez o‘zgarishlar bilan ajralib turadi. Agar bu o‘zgarishlar to‘g‘ri hal qilinmasa, ular ko‘pincha stressni keltirib

chiqaradi, bu esa insonning jismoniy va ruhiy salomatligi bilan bog‘liq doimiy muammolarga olib kelishi mumkin.

O‘smirlar tengdoshlar bilan munosabatlar, oilaviy muammolar, madaniy qiyinchiliklar va akademik umidlar kabi turli sabablarga ko‘ra stressni boshdan kechiradilar. Samarali kurashish strategiyalarini yaratish uchun o‘smirlar stressining sabablari va oqibatlarini aniqlash kerak [2]. O‘smirlik odatda ushbu davrga xos bo‘lgan sezilarli bio-ijtimoiy o‘zgarishlar tufayli qiyin davr sifatida tushuniladi , bu stress darajasini kuchaytirishi va umumiy farovonlikka ta'sir qilishi mumkin [3]. Shunisi e'tiborga loyiqki, stressning kuchayishi va undan keyingi stressni baholash, agar shaxslar o‘z qiyinchiliklarini boshqarishga yaroqsiz deb hisoblasalar, hissiy muammolar, hissiy alomatlar yoki hissiy qiyinchiliklar deb ataladigan hissiy qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin [4]. Hissiy qiyinchilik g‘azab, tushkunlik, xavotir va qayg‘u kabi salbiy ta'sir reaksiyalarining heterojen to‘plamini anglatadi . Ko‘pgina yoshlar o‘smirlik davrida ma'lum darajada qiyin his-tuyg‘ularni boshdan kechirishadi. His-tuyg‘ular muhim funktsiyalarga ega , shuning uchun qiyin his-tuyg‘ularni yo‘q qilish shart emas, lekin ruhiy salomatlik bilan bog‘liq muammolarning paydo bo‘lishining oldini olish uchun ularni boshqarish kerak bo‘lishi mumkin. Darhaqiqat, agar to‘g‘ri boshqarilmasa, hissiy qiyinchilik yanada jiddiy kasalliklarga aylanishi mumkinligi, shuningdek, optimal farovonlikni bo‘g‘ishi mumkinligi tan olingan , bu o‘z-o‘zidan muhim natijadir [5].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. O‘zbekiston psixolog olimlaridan G.Abduqahhorova, S.Alimardanova, G.Berdiyeva, R.Ernazarova, N.Ismoilova, D.Norqo‘ziyeva, J.Ostonov, D.Qarshiyeva, F.Rasulova, I.Rasulova, G.Tojibayeva va boshqalar tomonidan hayotiy muammolarni bartaraf qilishda stressga bardoshlilikni ta’minlash, frustratsiyaning stressogenlik ahamiyati, stress holati suitsidal xulq yuzaga kelishiga ta’siri, stress holati yuzaga kelishining oldini olishda yoshlarni destruktiv g‘oyalar ta’siridan himoyalash, stresslarni boshqarish kompetensiyasini shakllantirish, ota-onalar va bolalar o‘rtasida muloqotning ko‘lamini oshirish, muammoli vaziyatlarda psixologik himoyani faollashtirish borasida ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari olimlaridan A.Aleksapolskiy, T.Groznaya, T.Danilova, A.Daumenova, A.Ilyuxin, A.Kargina, Z.Kushina, N.Krayushkina, O.Kropovnitskiy, S.Liger, S.Mombey, Y.Potapova, A.Chazova, Y.Chexlati, Y.Yurasova koping strategiyalari bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar. Olimlardan A. Akopyan, A. Andreeva, X. Axmedova, D.Badmaeva, T.Boxan, S.Gagolina, N.Devaev, V.Krivobokova, I.Komarova, O.Lavrov, T.Lisakova, O.Lozgasheva, I.Menishikova, M.Padun, Y.Sapyorova, L.Statueva, M.Xutornaya va boshqalar tomonidan talabalar o‘quv faoliyatidagi murakkab vaziyatlarda stresslarning yuzaga kelish omillari va bu holatini yengib o‘tish muammosi ilmiy tadqiq etilgan.

Xorij olimlaridan Dj.Amirxan, R.Bernardo, S.Folkman, G.Flett, N.Haan, P.Hewitt, J.Hudek-Knezevis, I.Kardum, P.Kosta, R.Lazarus, Sh.Logel, B.Long, R.Makkrae, R.Masiran, D.Maksvell, A.Moir, F.Mollisa, T.Nagarning, Ph.Oreopoulos, B.Sardozo, R.Sears, M.Somerfeld, A.Schafer, E.Shang R.Takass, S.Vasti, H.Veber, Y.Xeym va boshqalar koping strategiyalari va koping-xulq-atvorga oid tadqiqotlarni olib borishgan. Xorij olimlaridan A.Adler, A. Bandura, E.Erikson Z.Freyd, X.Frendenberger, E.Fromm, R.Kettel, K.Maslak, X.Murrey, G.Sallivan, G.Selee, K.Xorni va boshqalarning tadqiqotlarida esa stress holatining paydo bo‘lish sabablari, belgilari, mexanizmlari, stressning shaxs xulq-atvoriga ta’siri borasidagi izlanishlar olib borilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda D.Amirxanning (V.Yaltonskiy va N.Sirotalarning Modifikatsiyasi) “Hayotiy muammolarni bartaraf etishning koping strategiyalarini o‘rganish” Psixologik stressni baholash shkalasi (psm-25) metodikasi (Lemyre, R. Tessier va L. Fillion), R.Ketellning 16 omilli shaxs so‘rovnomasi G.Ayzenkning “Shaxsning psixik holati haqida o‘ziga o‘zi baho berish” so‘rovnomalaridan foydalanildi [6].

Tahlil va natijalar. Biz o‘z tadqiqotimizda G‘allaorol tumanidagi 52-maktab va Sharof Rashidov tumani 12-maktabning o‘smir yoshdagi o‘quvchilarida “O‘smirlar xulq-atvorida koping-strategiyalar namoyon bo‘lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari”ni o‘rganish maqsadida D.Amirxanning “Hayotiy muammolarni yengib o‘tish strategiyalarini o‘rganish” metodikalarini olib bordik. Olingan natijalar t-Student me’zoni asosida tahlil qilindi va quyidagi statistic ko‘rsatkichlarni (1-jadval) namoyon qildi.


1-jadval.

O‘smirlarda “Hayotiy muammolarni yengib o‘tish strategiyalarini o‘rganish” metodikasi (D.Amirxan) natijalari

Shkala	Hudud	N	O‘rtacha qiymat	Stdart og‘ish	t	Ishonch darajasi
Muammolarni hal etish	G‘allaorol tumani	86	14,3077	3,91683	,784	,438
	SH.Rashidov tumani	70	13,4667	4,09990		
Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni qidirish	G‘allaorol tumani	86	13,1154	3,42143	3,327	,002***
	SH.Rashidov tumani	70	9,7667	4,02307		
Muammolardan qochish	G‘allaorol tumani	86	11,8846	4,06278	,236	,814
	SH.Rashidov tumani	70	11,6333	3,89060		

G‘allaorol tumanidagi 52-maktab va Sharof Rashidov tumani 12-maktabning o‘smir yoshdagi o‘quvchilarida “O‘smirlar xulq-atvorida koping-strategiyalar namoyon bo‘lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari”ni o‘rganish maqsadida R.B.Kettelning “Shaxsni 16 omil yordamida o‘rganish” usulidan foydalanildi.

Yuqoridagi jadval va o‘tkazilgan tadqiqotlar natijalaridan ma’lum bo‘ldiki, G‘allaorol tumani 52-maktab o‘quvchilarida Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni qidirish shkalasi Sharof Rashidov 12-maktab o‘quvchilariga qaraganda juda yuqori (t=3,327; p>0,001) ko‘rsatkichga ega bo‘ldi. Bu holat G‘allaorol tumani 52-maktab o‘quvchilarining stressli va muammoli vaziyatlarda atrofdagilarga murojaat qilish, emotsional qo‘llab-quvvatlash hamda maslahat olishga moyilligi yuqoriligini ko‘rsatadi. Shuningdek, ushbu natija o‘quvchilarda ijtimoiy aloqalarning rivojlanganligi, boshqalar bilan ishonchli munosabatlar o‘rnatish qobiliyati hamda muammolarni yolg‘iz hal qilishdan ko‘ra ijtimoiy resurslarga tayanish xususiyati shakllanganligini bildiradi. Mazkur strategiyaning ustunligi o‘quvchilarning psixologik moslashuv jarayonida ijtimoiy muhit muhim tayanch omil bo‘lib xizmat qilishini ko‘rsatadi. Olingan natijalarni quyidagi 1-rasmda yanada aniqroq ko‘rishimiz mumkin.



1-rasm: Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni qidirish shkalasidagi farqlarning ifodalanishi

Biz o‘z tadqiqotimizda o‘smir yoshidagi o‘quvchilarda psixologik stress darajasining namoyon bo‘lishini o‘rganish uchun G‘allaorol tumanidagi 52-maktab va Sharof Rashidov tumani 12-maktabning o‘smir yoshdagi o‘quvchilarida “O‘smirlar xulq-atvorida koping-strategiyalar namoyon bo‘lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari”ni o‘rganish maqsadida Psixologik stressni baholash shkalasi (psm-25) metodikasidan foydalandik. Uning natijalari 2-jadvalda keltirilgan.


2-jadval.

Psixologik stressni baholash shkalasi (psm-25) metodikasi natijalari

Shkala	Hudud	N	O‘rtacha qiymat	Stdart og‘ish	t	Ishonch darajasi
Psixologik stress	G‘allorol tumani	86	83,2857	22,11394	2,983	,049*
	Sh.Rashidov tumani	70	103,2903	19,29800		

Ikkinchi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, o‘smir yoshidagi o‘quvchilarda stress darajasi namoyon bo‘lishi Sharof Rashidov tumani 12-maktabning o‘smir yoshdagi o‘quvchilarida yaqqolroq namoyon bo‘ldi (t=2,983; p>0,05). Shunga asoslanib aytishimiz mumkinki, geografik joylashuv va urbanizatsiya jarayonlari ham o‘smirlarda stress nomoyon bo‘lishining ijtimoiy-psixologik omillariga ta’sir ko‘rsatishi ehtimol qilinadi. Qolaversa Sharof Rashidov tumani o‘smir yoshidagi o‘quvchilarining o‘quv faoliyatidagi qo‘shimcha mashg‘ulotlar (ingliz tillari, fanlardan to‘garaklar) hamda individual rivojlanishga nisbatan e’tiborning ko‘proq qaratilishi ham ta’sir ko‘rsatganligini tahmin qilishimiz mumkin.

Yuqoridagi D.Amirxanning “Hayotiy muammolarni yengib o‘tish strategiyalarini o‘rganish” metodikasi natijasida G‘allaorol tumanidagi 52-maktab o‘quvchilarida Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni qidirish shkalasi Sharof Rashidov tumanidagi maktab o‘quvchilariga qaraganda yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu holat G‘allaorol tumani 52-maktab o‘quvchilarining stressli va muammoli vaziyatlarda atrofdagilarga murojaat qilish, emotsional qo‘llab-quvvatlash hamda maslahat olishga moyilligi yuqoriligini ko‘rsatsa-da, lekin, stress darajasi Sharof Rashidov tumani o‘smir yoshidagi o‘quvchilarida kuchliroq namoyon bo‘lishini aks ettirdi.Bu holat bevosita urbanizatsiya jarayonlari, ta’lim muhiti hamda individual rivojlanishga e’tiborning kuchliroq namoyon bo‘lishi asosida ham belgilanishi mumkin degan dastlabki xulosalarga kelishimizga asos bo‘ladi. Psixologik stressni baholash shkalasi (psm-25) metodikasi natijalari quyidagi 2-rasmda yanada aniqroq ko‘rishimiz mumkin.



2-rasm: Psixologik stressni baholash shkalasi (psm-25)farqlarning ifodalanishi

Bilamizki, o‘smirlik davrida shaxs shakllanishining muhim yutuqlari qo‘lga kiritiladi. Bu jarayon eng avvalo o‘smirning ijtimoiy jarayonlarga faol kirishib borishi bilan bevosita bog‘liqdir. Shuning uchun o‘smirlik davridagi ijtimoiy o‘zgarishlarning eng muhim yutuqlaridan biri do‘stlik, adolat, haqiqat, qonunga xiloflik kabi axloqiy tuyg‘ular yuzaga chiqadi. 0 ‘smirlik yoshi dunyoqarash, e’tiqod, prinsip, o‘zligini anglash, baholash kabi shaxs xususiyatlari shakllanadigan davr hisoblanadi. O‘smir ulg‘aygan sari unda «Ideal Men», «Axloqiy Men» va «Haqiqiy Men» singari shaxsga oid tizim, dunyoqarash, e’tiqod va boshqalar shakllana boradi, undagi o‘zi to‘g‘risidagi tasavvurlar ancha aniq va barqaror bo‘lib qoladi.O‘smir o‘z faoliyatini muayyan prinsip, e’tiqod va shaxsiy nuqtayi nazari asosida tashkil qila boshlaydi. O‘smir shaxsini tarkib toptirishda uning atrof-muhitga, ijtimoiy hodisalarga, kishilarga munosabatini hisobga olish lozim. Psixologlar o‘tkazgan tadqiqotlardan ko‘rinadiki, o‘smirlarning ko‘pchiligi qat’iyatlilik, kamtarlik, mag‘rurlik, samimiylik, dilkashlik kabi ma’naviy, axloqiy tushunchalarni to‘g‘ri anglaydilar. Ularning turmush tajribasida fan asoslarini egallash natijasida barqaror e’tiqodiy va ilmiy dunyoqarash tarkib topadi, shular zaminida axloqiy ideallar yuzaga kela boshlaydi [7]. Bir so‘z bilan aytganda shaxs shakllanishi jadallashadi. Ayni shu davrda qator ijtimoiy-psixologik muammolar ham yuzaga chiqa boshlaydiki, bu turli ziddiyatli vaziyatlarda o‘smirlar xulq-atvorida koping-strategiyalar namoyon bo‘lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari bevosida shaxs xususiyatlariga monand ravishda yuzaga chiqadi.

Biz o‘z tadqiqotimizda shaxsni o‘rganishning ko‘p omilli savolnomasi R.B.Kettell tomonidan 1949 yili nashr qilingan foydalandik. Bu test universal va amaliydir, u individuallik haqida ko‘p qirrali ma’lumotlarni beradi. Savollar hayotiy xodisalarni aks ettiradi.

Hozirgi kunda 16 omilli savolnomaning turli shakllari mavjud, ularning ichida eng mashhuri shaxsning ekspress – diagnostikasi hisoblanadi. Ular har qanday vaziyatlarda ishlatiladi. Savolnoma shaxs xususiyatlarini diagnostika qiladi. Buni Kettell konstitutsion tahlil deb hisoblaydi. Dinamik omillarni tahlil qilish, ya’ni motivlari, ehtiyojlari, qiziqishlari, qadriyatlari boshqa usullarni qo‘llashni talab qiladi. Buni metodikani tahlil qilish vaqtida hisobga olish zarurdir.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, o‘smirlar xulq-atvorida koping-strategiyalarning namoyon bo‘lishi ularning shaxsiy-psixologik xususiyatlari hamda ijtimoiy muhit bilan uzviy bog‘liq holda shakllanishi aniqlanadi. Tadqiqot natijalari G. Ayzenkning “suitsidal axloqni tashxis qilish” va R.B. Kettelning 16 omilli shaxs so‘rovnomasi ko‘rsatkichlari o‘rtasida mazmunli korrelatsion bog‘lanishlar mavjudligini ko‘rsatdi. Bu bog‘lanishlar o‘smirlarning stressli vaziyatlarga munosabati, ichki kechinmalari va xulqiy reaksiyalari bir-biri bilan chambarchas aloqador ekanini tasdiqlaydi.

O‘smirlardagi stress tashqi ta'sirlar va shaxsiy o‘sish tufayli yuzaga keladi. Stress sabablarini aniqlash va amaliy yengish mexanizmlaridan foydalanish orqali o‘smirlar salbiy oqibatlarni kamaytirishi va kattalarga silliq o‘tishlari mumkin. Muayyan dasturlar bo‘yicha qo‘shimcha tadqiqotlar yengish usullarini yaxshilashi va o‘smirlarning ruhiy salomatligiga yordam berishi mumkin. O‘smirlarning stressiga ijtimoiy, oilaviy, akademik va raqamli omillar ta'sir qiladi. To‘g‘ri davolanmasa, juda ko‘p stress jismoniy va ruhiy salomatlikka zarar etkazishi mumkin. Boshqa tomondan, vaqtni boshqarish, kuchli qo‘llab-quvvatlash, kognitiv texnikalardan foydalanish va sog‘lom odatlarni qabul qilish kabi samarali yengish strategiyalari bu ta'sirlarni kamaytirishi mumkin. Ota-onalar, o‘qituvchilar va ruhiy salomatlik mutaxassislari o‘smirlarga chidamlilikni rivojlantirish va o‘zlarini yaxshi his qilishlariga yordam beradigan qo‘llab-quvvatlash tizimlarini yaratish uchun birgalikda ishlashlari kerak.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari o‘smirlar xulq-atvorida koping-strategiyalar namoyon bo‘lishi ularning havotirlilik darajasi, emotsional barqarorligi, o‘ziga ishonchi, ijtimoiy yetukligi va moslashuvchanlik xususiyatlari bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatdi. Yuqori havotirlilik va rigidlik dezadaptiv kopingni, hissiy barqarorlik va ijtimoiy mardlik esa konstruktiv kopingni ta’minlaydi. Shu bois o‘smirlar bilan ishlashda emotsional barqarorlikni rivojlantirish, o‘zini

boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirish hamda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash muhitini kuchaytirish muhim ijtimoiy-psixologik vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Petersen AC. The nature of biological-psychosocial interactions: The sample case of early adolescence. In: Biological-psychosocial interactions in early adolescence. Routledge; 2021. p.35-61.
2. Naheed Fatima and Shahla Shabeeh Shaheen.Adolescent Stress: Causes, Impact, and Coping Strategies.2025
3. Zhao W, Young RE, Breslow L, Michel NM, Flett GL, Goldberg JO. O‘smirlar orasida bog‘lanish uslubi, munosabatlar omillari va ruhiy salomatlik stigmasi. Can J Behav Sci. (2015) 47:263. 10.1037/cbs0000018
4. Lazarus RS, Folkman S. Stress, baholash va yengish. Nyu-York, NY: Springer nashriyot kompaniyasi; (1984)
5. Gloria CT, Steinhardt MA. Ijobiy his-tuyg‘ular, qiyinchiliklarni yengish, chidamlilik va ruhiy salomatlik o‘rtasidagi munosabatlar. Stress Health. (2014) 32:145–56. 10.1002/smi.2589
6. Eysenck, H.J. (1991). Dimensions of personality: 16, 5, or 3?
7. Nishanova, Z.T. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya [Matn] : darslik / Z.T. Nishanova va boshq. - Toshkent: « 0 ‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. - 600 b.
8. Kon I.S. O‘smirlik psixologiyasi. Moskva; Ta'lim, 1979. - 175 b.

Nurmamatova Zarifa Abdiraup qizi
Navoiy Davlat universiteti ingliz tili o'qituvchisi
E-mail: mrs.zara0202@gmail.com

IKKI TILLILIKDA TIL O'ZGARISHI VA TIL BARQARORLIGI: AVLODLARARO TIL UZILISHINING LINGVISTIK MEXANIZMLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ikki tillilik (bilingvizm) fenomeni kognitiv, psixolingvistik va sotsiolingvistik nazariy paradigmalarda tahlil qilinadi. Maqsad - nazariy yondashuvlarni birlashtirish orqali ikki tillilikning shaxs, til va jamiyat darajasidagi ahamiyatini chuqur anglash. Tadqiqot natijalari ko'rsatdiki, bilingvizm tilni bilish bilan cheklanmay, miyada kognitiv moslashuv, psixolingvistik jarayonlar va jamiyatda til-madaniyat ko'p qirrali muhitini yaratishga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *ikki tillilik, bilingvizm, kognitiv yondashuv, psixolingvistika, sotsiolingvistika, ko'p tillilik, til siyosati, til muhit.*

ЯЗЫКОВЫЕ ИЗМЕНЕНИЯ И ЯЗЫКОВАЯ УСТОЙЧИВОСТЬ ПРИ БИЛИНГВИЗМЕ: ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ МЕЖПОКОЛЕНЧЕСКИХ ЯЗЫКОВЫХ РАЗРЫВОВ

Аннотация. *В статье феномен билингвизма анализируется в рамках когнитивных, психолингвистических и социолингвистических теоретических парадигм. Цель исследования - посредством интеграции теоретических подходов глубоко осмыслить значение билингвизма на уровне личности, языка и общества. Результаты исследования показывают, что билингвизм не ограничивается лишь знанием языка, но способствует когнитивной адаптации в мозге, психолингвистическим процессам, а также формированию многогранной языково-культурной среды в обществе.*

Ключевые слова: *двуязычие, билингвизм, когнитивный подход, психолингвистика, социолингвистика, многократность языков, языковая политика, языковая среда.*

LANGUAGE CHANGE AND LANGUAGE STABILITY IN BILINGUALISM: LINGUISTIC MECHANISMS OF INTERGENERATIONAL LANGUAGE GAPS

Abstract. *This article analyzes the phenomenon of bilingualism within cognitive, psycholinguistic, and sociolinguistic theoretical paradigms. The aim of the study is to integrate theoretical approaches to gain a deeper understanding of the significance of bilingualism at the levels of individual, language, and society. The findings indicate that bilingualism is not limited to language knowledge alone but also contributes to cognitive adaptation in the brain, psycholinguistic processes, and the creation of a multifaceted language-culture environment in society.*

Key words: *bilingualism, cognitive approach, psycholinguistics, sociolinguistics, multilingualism, language policy, language environment.*

Kirish. Globallashuv, migratsiya va ko'p madaniyatli jamiyatlarda bir nechta tilni bilish va ulardan foydalanish tobora keng tarqalmoqda. Til nafaqat muloqot vositasi, balki shaxsning tafakkuri, jamiyatning madaniy interfeysi, identitet va ijtimoiy integratsiya elementi sifatida ahamiyatga ega. Shu sababli ikki tillilik fenomeni tilshunoslik, psixologiya, kognitiv va sotsiolingvistik nuqtai nazardan o'rganilishi zarur.

Kognitiv yondashuv til va tafakkur, xotira va ijrochi funksiyalar o'rtasidagi bog'liqlikni, psixolingvistik yondashuv til o'zlashtirish, kod almashuv va nutq idrok etish jarayonlarini, sotsiolingvistik yondashuv esa til muhitini, til siyosatini va jamiyatdagi til identitetini tahlil qiladi.

Shu bilan birga, ikki tillilikni kompleks va ko‘p qirrali hodisa sifatida anglash imkoniyati yaratiladi.

Kognitiv yondashuv til va tafakkur, xotira, e’tibor va ijrochi funksiyalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilsa, psixolingvistik yondashuv til o‘zlashtirish, nutq ishlab chiqarish va kod almashuv jarayonlarini o‘rganadi. Sotsiolingvistik yondashuv esa til muhitining ijtimoiy strukturalari, til siyosati, madaniy identitet va jamiyatdagi til rollarini tahlil qiladi. Shu bilan birga, bu yondashuvlarni birlashtirish ikki tillilikni kompleks, ko‘p qirrali va tizimli hodisa sifatida anglash imkonini beradi.

Maqolaning maqsadi - ikki tillilik fenomenini kognitiv, psixolingvistik va sotsiolingvistik yondashuvlar integratsiyasi orqali tahlil qilish, uning shaxs va jamiyat darajasidagi ahamiyatini, imkoniyatlari va muammolarini aniqlash. Tadqiqot tilshunoslik, pedagogika, psixologiya va jamiyatshunoslik kabi sohalar kesishmasida olib borilib, ikki tillilikni chuqur va ko‘p qirrali tahlil qilish uchun nazariy asos yaratadi.

Maqola maqsadi - ikki tillilikni kognitiv, psixolingvistik va sotsiolingvistik yondashuvlar integratsiyasi orqali tahlil qilish va uning shaxs va jamiyat darajasidagi ahamiyatini aniqlash.

Metodlar: Tadqiqot nazariy analitik metodga asoslanadi: kognitiv psixologiya, psixolingvistika va sotsiolingvistik sohadagi ilmiy tadqiqotlar, maqolalar va nazariy manbalar tahlil qilindi.

Quyidagi usullar qo‘llanildi:

- Etnografik va ishtirok etuvchi kuzatuv: jamiyatdagi real til muhitini va kod almashuv holatlarini aniqlash.
- So‘rov va intervyu: shaxslarning tilga munosabati, bilingvizm tajribasi va ijtimoiy omillarni o‘rganish.
- Lingvistik va psixolingvistik tahlil: nutq va yozma matnlarni leksik, morfologik, sintaktik va pragmatik jihatdan tahlil qilish; kod almashuv va til o‘zgarish tendensiyalarini aniqlash.
- Longitudinal sotsiolingvistik tahlil: turli avlod vakillari nutqini solishtirib, til o‘zgarishining dinamikasini ko‘rsatish.

Aralash metodologiya (mixed methods) orqali sifatli va miqdoriy tahlillar birlashtirilib, bilingvizmning kognitiv, psixolingvistik va sotsiolingvistik jihatlari kompleks tarzda o‘rganildi. Metod sifatida sifatli va miqdoriy yondashuvni birlashtiruvchi aralash (mixed method) metod tanlandi, bu orqali til, tafakkur va jamiyat omillari birgalikda o‘rganildi.

Tadqiqot davomida etnografik kuzatuv va ishtirok etuvchi kuzatuv usuli qo‘llanilib, jamiyatdagi real til ishlatilish holatlari, kod almashuv tajribalari va til tanlovi o‘rganildi. Shu bilan birga, so‘rovnomalar va yarim strukturaviy intervyular orqali respondentlarning tilga bo‘lgan munosabati, bilingvizm tajribasi, til ishlatilish chastotasi va til identiteti haqida ma’lumotlar yig‘ildi. Lingvistik va psixolingvistik tahlil usullari orqali nutq va yozma matnlar, ularning leksik, morfologik, sintaktik va pragmatik jihatlari tahlil qilindi, til variantlari va kod almashuv jarayonlari statistik lingvistik metodlar yordamida o‘rganildi.

Shuningdek, til o‘zgarishi va jamiyatdagi til variantlarining vaqt davomida qanday o‘zgarishini aniqlash uchun longitudinal yoki “apparent time” sotsiolingvistik tahlil usullari qo‘llanildi. Nazariy analitik metod yordamida kognitiv, psixolingvistik va sotsiolingvistik tadqiqotlar, ularning xulosalari integratsiyalab, ikki tillilikning umumiy modeli ishlab chiqildi.

Ushbu metodlarning uyg‘unligi - kuzatuv, intervyu, so‘rov, lingvistik va statistik tahlil, shuningdek nazariy tahlil - ikki tillilikni ko‘p darajali, ko‘p jihatli va kompleks hodisa sifatida o‘rganish imkonini berdi. Shu bilan birga, metodologiya orqali bilingv shaxslarning miyada kognitiv jarayonlar, nutq va til ishlatish tajribasi hamda jamiyatdagi til muhitiga moslashuvchanligi batafsil tahlil qilindi.

Natijalar:

- Kognitiv yondashuv: bilingv shaxslar diqqatni boshqarish, tez moslashuvchanlik, muammolarni hal qilish va xotira kabi funksiyalarda afzalliklarga ega.
- Psixolingvistik yondashuv: bilingvizm kod almashuv, tilararo interferensiya va til resurslarining shaxslararo moslashuvini osonlashtiradi.

• Sotsiolingvistik yondashuv: bilingvizm ko‘p tilli muhit, madaniy diversitet va til identitetini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bilingv shaxslar yangi til o‘rganish, nutq, tarjima va tilararo moslashuv qobiliyatlari jihatidan ham ustunlikka ega. Shu bilan birga, afzalliklar har doim sezilarli bo‘lavermaydi; til aralashuvi, kod almashuv va cheklangan til ekspozitsiyasi kamchiliklar keltirib chiqarishi mumkin.

Kognitiv nuqtai nazardan, bilingv shaxslar diqqatni boshqarish, muammolarni hal qilish, xotira va ijrochi funksiyalarni samarali ishlatish kabi qobiliyatlarda monolingv shaxslarga nisbatan sezilarli ustunlikka ega bo‘lishadi. Tilni doimiy ravishda bir nechta kodda boshqarish miyaning kognitiv moslashuvchanligini rivojlantiradi, shuningdek, tez va samarali kod almashuvni amalga oshirish imkonini beradi.

Psixolingvistik tahlil natijalari bilingvizmning til o‘zlashtirish, nutq ishlab chiqarish va tilararo moslashuvda ham ahamiyatli rol o‘ynashini ko‘rsatdi. Ikki tilni bilish shaxsga metalingvistik ongni oshirish, yangi til o‘rganishda ijodiy yondashuv, nutq va tarjima jarayonlarini osonlashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, kod almashuv, tilararo interferensiya va til resurslarini moslashtirish jarayonlari tabiiy va samarali tarzda amalga oshadi.

Sotsiolingvistik nuqtai nazardan, ikki tillilik jamiyatda til muhitining ko‘p tilliligini, madaniy xilma-xillikni va til identitetini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bilingv shaxslar turli madaniyat va tillar doirasida til ko‘prigi bo‘lib, kommunikativ, madaniy va ijtimoiy integratsiyani rivojlantiradi. Shu orqali jamiyatda ko‘p madaniyatli muhit, til diversiteti va madaniyatlararo muloqot barqaror shakllanadi.

Mulohaza. Ikki tillilik - murakkab va ko‘p qirrali fenomen. Faqat bir yondashuv bilan uning barcha salohiyatini anglash qiyin. Kognitiv afzalliklar psixolingvistik va sotsiolingvistik kontekst bilan birga bo‘lganda samarali bo‘ladi.

Bilingvizmdan maksimal foyda olish uchun til siyosati, pedagogik qo‘llab-quvvatlash, til muhitining barqarorligi va madaniy hurmat muhim ahamiyatga ega. Kognitiv nuqtai nazardan, ikki tillilik diqqatni yo‘naltirish, ijrochi funksiyalarni boshqarish, xotira va muammolarni tez hal qilish qobiliyatini oshiradi. Shu bilan birga, psixolingvistik jihatdan tilni bir nechta kodda boshqarish nutq ishlab chiqarish, tilararo interferensiya va kod almashuv jarayonlarini samarali qiladi, shaxsning metalingvistik ongini rivojlantiradi va yangi tillarni o‘zlashtirishni osonlashtiradi.

Sotsiolingvistik tahlil shuni ko‘rsatadiki, ikki tillilik jamiyatda ko‘p tillilik muhitini yaratadi, madaniy diversitetni mustahkamlaydi, madaniyatlararo muloqot va kommunikativ integratsiyani rivojlantiradi. Bilingv shaxslar turli tillar va madaniyatlar orasida til ko‘prigi bo‘lib xizmat qiladi, bu esa jamiyatda hamjihatlik va global moslashuvchanlikni kuchaytiradi. Shu bilan birga, bilingvizmning ijtimoiy ta’siri til siyosati, ta’lim tizimi va til muhitining barqarorligiga bevosita bog‘liq. Agar til ishlatilish chastotasi past bo‘lsa, til dominantligi yoki pedagogik qo‘llab-quvvatlash yetarli bo‘lmasa, bilingvizmning afzalliklari to‘liq namoyon bo‘lmasligi mumkin. Mulohaza qilinadigan yana bir jihat - ikki tillilikning salbiy tomonlari. Til aralashuvi (interferensiya), kod almashuv yoki nutqda sekinlik kabi holatlar yuzaga kelishi mumkin, ayniqsa til muhitida qo‘llab-quvvatlash yetarli bo‘lmasa. Shu sababli bilingvizmni nafaqat shaxsning til ko‘nikmalari sifatida, balki til siyosati, madaniy hurmat, pedagogik yondashuv va jamiyatdagi til muhitining uyg‘unligi bilan birga baholash zarur.

Shunday qilib, ikki tillilikni maksimal samarali qilish uchun tilga doir strategiyalar, pedagogik metodologiyalar va jamiyatdagi ko‘p tillilikni qo‘llab-quvvatlovchi siyosat birgalikda amalga oshirilishi lozim. Bu bilingv shaxsning kognitiv va lingvistik salohiyatini oshirish, jamiyatdagi madaniyatlararo muloqot va integratsiyani rivojlantirish imkonini beradi. Natijada, ikki tillilik - nafaqat shaxs, balki jamiyat rivoji uchun kuchli resurs sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa va tavsiyalar. Ikki tillilik - zamonaviy jamiyatlar uchun nafaqat til o‘rganish, balki kognitiv, psixolingvistik va ijtimoiy salohiyatni oshiruvchi muhim resurs hisoblanadi. Tadqiqotlar ko‘rsatdiki, bilingv shaxslar diqqatni boshqarish, muammolarni hal qilish, xotira va “executive control” kabi kognitiv funksiyalarda afzalliklarga ega bo‘lishadi. Shu bilan birga, til idroki, nutq ishlab chiqarish va kod almashuv kabi psixolingvistik jarayonlar ham rivojlanadi.

Sotsiolingvistik jihatdan ikki tillilik jamiyatda til xilma-xilligi, madaniy diversitet va kommunikativ boylik yaratadi. Bilingv yoki ko‘p tilli shaxslar turli til va madaniyatlar o‘rtasida ko‘prik vazifasini bajaradi, jamiyatda integratsiya va madaniy hamjihatlikni kuchaytiradi. Shu bilan birga, ikki tillilikning ijobiy ta’siri doimiy va avtomatik emas: til muhitining sifati, til siyosati, ta’lim va pedagogik qo‘llab-quvvatlash darajasi bilan bevosita bog‘liq.

Ikki tillilik - shaxs va jamiyat uchun muhim resurs:

- Ta’limda bilingv metodologiyalarni joriy etish, til va tafakkur kompetentsiyalarini rivojlantirish.
- Til siyosatida ko‘p tillilik va madaniy diversitetni qo‘llab-quvvatlash.
- Psixolingvistik va kognitiv tadqiqotlarni kengaytirish.
- Jamiyatda bilingvizmni qadrlash, til identiteti va ko‘p tilli muhitni rivojlantirish.

Bilingvizm ongli va barqaror qo‘llab-quvvatlansa, zamonaviy global va ko‘p madaniyatli jamiyatlarda shaxs va jamiyat salohiyatini oshiruvchi kuchli vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Israilova S., Mo‘ydinova H. - Bilingval ongning ustunligi, Toshkent, 2020.
2. Buribayeva G., Omanov P. - Polilingvalizmning psixolingvistik aspektlari, Toshkent, 2019.
3. Umarova Z., Shamuradova N. - Bilingualism and English Learning: Cognitive Benefits and Challenges, Tashkent University Press, 2021.
4. Akbarova Z., Nosirova G. - Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning kognitiv rivojlanishiga bilingvizmning ta’siri, Toshkent, 2020.
5. Sotsiolingvistika kurs materiallari - Modul tavsifi, Toshkent, 2018.
6. Grosjean F. - Bilingual: Life and Reality, Harvard University Press, 2010.
7. Cummins J. - Language, Power, and Pedagogy: Bilingual Children in the Crossfire, Multilingual Matters, 2000.
8. Bialystok E. - Bilingualism in Development: Language, Literacy, and Cognition, Cambridge University Press, 2001.
9. Baker C. - Foundations of Bilingual Education and Bilingualism, Multilingual Matters, 2011.
10. Pavlenko A. - The Bilingual Mind: And What It Tells Us About Language and Thought, Cambridge University Press, 2014.

Maxmudova Dilshoda Kurbonbayevna
Samarqand davlat chet tillar instituti tayanch doktoranti
E-mail: dilimakhmudova782@gmail.com

KO‘CHIB YURUVCHI SYUJET VA BADIIY TALQIN MODIFIKASIYASI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada adabiy jarayonda ko‘chib yuruvchi syujetlarning shakllanishi, turli madaniy va tarixiy kontekstlarda badiiy talqin etilishi hamda ularning modifikatsiyalanish mexanizmlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda qiyosiy-tipologik va tarixiy-poetik metodlar asosida syujet migratsiyasining asosiy modellari aniqlanib, struktural-tahliliy yondashuv orqali ularning narrativ transformatsiyasi ochib beriladi. Shuningdek, ayrim jahon va o‘zbek adabiyoti namunalari misolida an’anaviy syujetlarning zamonaviy badiiy talqini hamda semantik yangilanish jarayoni yoritiladi. Tadqiqot natijalari ko‘chib yuruvchi syujetlarning adabiy rivojlanishdagi o‘rni va ularning badiiy tafakkur taraqqiyotiga ta’sirini aniqlashga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *adabiyotshunoslik, syujet, kompozisiya, badiiyat, pafos, xarakter, matn, obraz, personaj, modus, Somerset Moem, Ulug‘bek Hamdam.*

КОЧУЮЩИЙ СЮЖЕТ И МОДИФИКАЦИЯ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ИНТЕРПРЕТАЦИИ

Аннотация. *В данной статье с научно-теоретической точки зрения анализируются процессы формирования мигрирующих сюжетов в литературном процессе, их художественная интерпретация в различных культурно-исторических контекстах, а также механизмы их модификации. В исследовании на основе сравнительно-типологического и историко-поэтического методов выявляются основные модели сюжетной миграции, а с помощью структурно-аналитического подхода раскрывается их нарративная трансформация. Кроме того, на примере отдельных произведений мировой и узбекской литературы освещаются современные художественные интерпретации традиционных сюжетов и процессы их семантического обновления. Результаты исследования способствуют определению роли мигрирующих сюжетов в литературном развитии и их влияния на эволюцию художественного мышления.*

Ключевые слова: *литературоведение, сюжет, композиция, художественность, пафос, характер, текст, образ, персонаж, модус, Сомерсет Моэм, Улугбек Хамдам.*

MOVING SYCLE AND MODIFICATION OF ARTISTIC INTERPRETATION

Abstract. *This article provides a scholarly and theoretical analysis of the formation of migrating plots within the literary process, their artistic interpretation in various cultural and historical contexts, as well as the mechanisms of their modification. The study identifies the main models of plot migration based on comparative-typological and historical-poetic methods, while a structural-analytical approach is employed to reveal their narrative transformation. In addition, using examples from selected works of world and Uzbek literature, the article highlights contemporary artistic interpretations of traditional plots and the processes of their semantic renewal. The research findings contribute to determining the role of migrating plots in literary development and their influence on the evolution of artistic thinking.*

Key words: *literary studies, plot, composition, artistic expression, pathos, character, text, image, persona, modus, Somerset Maugham, Ulugbek Hamdam.*

Kirish. XIII-XV asrlar oralig‘ida turkiy va forsigo‘ay shoirlar – xamsachilik an’anasiga tamal toshi qo‘ydilar. Har uchala hamsanavis bir g‘oya atrofida umumiy tushuncha bilan kifoyalanib, o‘zlariga yangidan-yangi talqin jug‘rofiyasini sinofdan o‘tkazdilar. Mana shu jihat –

ko‘chib yuruvchi syujet modusini namoyon qilib, xamsanavislarning oldiga kattadan-katta savollarni ko‘ndalang qo‘yishga zamin hozirladi. Keyinchalik bu an’ana Yevropa xalqlarida, ya’ni o‘rta asrlardan boshlab eposning, ya’ni romanning yangi talqini, hikoya va qissaning rivojlanish qonuniyatlarini yodimizga soladi. Servantesning “Don Kixot” asaridan boshlab, XX asrning ibtidosiga qadar qanchadan-qancha asarlar yuzaga keldi. Ayni paytda, mana shu asarlarning umumiy g‘oyasi – erkin va farovon demokratik jamiyat barpo etib, o‘z individual hayotini mustahkamlash yo‘lida katta mehnat qilish strukturasini ishlab chiqishga imkon yaratdi. Endilikda bular realizm va modernizm chegarasida “yangi izm”larning paydo bo‘lishiga sharoit tug‘dirdi. Bular ko‘chib yuruvchi syujet qamrovining turfalanishidan dalolat beradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ko‘chib yuruvchi syujetlar fenomeni hamda ularning turli madaniy-adabiy makonlarda badiiy talqin etilishi masalasi jahon adabiyotshunosligida muhim nazariy muammolardan biri sifatida o‘rganib kelinmoqda. Adabiy tanqidda syujetlarning migratsiyasi ularning tarixiy taraqqiyoti, transformatsiyasi va yangi badiiy mazmun bilan boyib borishi jarayoni bilan uzviy bog‘liq holda talqin etiladi. M. Baxtin, R. Bart, J. Lukach, K. Burk singari olimlarning ilmiy qarashlarida badiiy matnning ochiq tizim sifatida rivojlanishi, syujetlarning turli kontekstlarda qayta talqin qilinishi hamda modifikatsiyalanishi nazariy jihatdan asoslab beriladi. Struktural va qiyosiy adabiyotshunoslik an’analarida syujet va motivlarning takrorlanishi hamda ularning yangi badiiy shakl kasb etishi masalasi V. Propp, Yu. Lotman, G. Genette tadqiqotlarida keng yoritilgan. Ushbu olimlar asarlarida syujetning kompozitsion modeli, narrativ transformatsiyasi va intertekstual aloqalari badiiy modifikatsiyaning muhim omillari sifatida talqin etiladi.

O‘zbek adabiyotshunosligida syujet modelining badiiy transformatsiyasi o‘zbek adabiyotida ham muayyan modifikatsiyalar orqali namoyon bo‘lgan. Jumladan, Nazar Eshonqulning “Maymun yetaklagan odam”, Ulug‘bek Hamdamning “To‘lin oy qissasi”, Luqmon Bo‘rixonning “Bir tomchi yosh” asarlarida ko‘chib yuruvchi syujet unsurlarining zamonaviy talqini, narrativ strukturaning yangilanishi va voqelikning ko‘p qatlamli tasviri kuzatiladi. Bu holat syujet migratsiyasi va badiiy talqin modifikatsiyasining milliy adabiyotda ijodiy o‘zlashtirilganini ko‘rsatadi [1].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada ko‘chib yuruvchi syujetlarning shakllanishi, turli adabiy muhitlarda badiiy talqin etilishi hamda modifikatsiyalanish jarayonlari qiyosiy-tipologik va tarixiy-poetik metodlar asosida tahlil qilindi. Shuningdek, struktural-tahliliy va hermenevtik yondashuvlar orqali syujetning kompozitsion o‘zgarishlari hamda mazmuniy talqinlari o‘rganildi. Tadqiqotda zamonaviy adabiyotshunoslikka oid ilmiy manbalar tahliliga ham murojaat qilindi.

Tahlil va natijalar. Syujet tuzilishining qonuniyat va tamoyillari fransuz hamda ingliz adabiy an’analari asosida shakllanib, uzoq tarixiy taraqqiyot bosqichlarini bosib o‘tdi. Ushbu rivojlanish jarayonida to‘plangan tajribalar shuni ko‘rsatadiki, insoniyat qaysi tarixiy davrda yashamasin, har doim o‘z zamonasining yetuk va ongli vakili sifatida namoyon bo‘lib kelgan.

Somerset Moem va Ulug‘bek Hamdam asarlaridagi uslubiy modifikasiya – XX asrda insoniyatning tamaddun sari ilgarilab ketishi, yolg‘izlik va alamzadalik, rivojlanish va taraqqiyot, ko‘p farzandlilik va boqimandalik tuyg‘usining urchib ketishiga javoban paydo bo‘lgan fragmentlar ekanligi ayonlashadi. Adabiyotshunoslik lug‘atlarida badiiy syujetga quyidagicha ta’rif beriladi: “Adabiyotshunoslik lug‘ati”da qayd etilishicha: “S.Personajlarning “harakat”laridan tarkib topadi. Personajlarning makon va zamonda kechuvchi xatti-harakatlari ham, ruhiyatidagi o‘y-fikrlar, his-kechinmalar rivoji ham harakatdir. Shu harakat tiplaridan qaysi biri yetakchilik qilishiga qarab S.ning ikki tipi ajratiladi: a) “tashqi harakat” dinamikasiga asoslangan S.; b) “ichki harakat” dinamikasiga asoslangan S. birinchi tipdagi syujetlarda personajlarning biror maqsad yo‘lidagi xatti-harakatlari, kurashi, to‘qnashuvlari, hayotdagi burilishlar tasvirlanadi va shu asosda ularning taqdiri, ijtimoiy mavqyeida muayyan o‘zgarishlar yuz beradi. Bu nav S.larda voqyea to‘laqonli tasvirlanadi va o‘z holicha ham badiiy-estetik qimmat kasb etadi. S.ning ikkinchi tipida voqyealar o‘z holicha emas, personaj ruhiyatidagi jarayonga turtki berishi jihatidan ahamiyat kasb etib, asar davomida personajlar hayotida, taqdirida yoki ijtimoiy holatida emas, uning ruhiyatida

burilishlar, o‘zgarishlar sodir bo‘ladi”[1]. Mazkur farqlanish hali syujetning ikki xususiyati haqida tasavvur uyg‘otadi. Birinchi tipdagi syujetlar XX asr boshlaridan to 70- yillargacha bo‘lgan davrda yaratilgan hikoya, qissa, romanlarda kuzatilgan bo‘lsa, ikkinchi tipdagilar 90- yillardan keyingi yaratilgan badiiy asarlarda teran namoyon bo‘lganligini ta’kidlash zarur. Negaki, keyingi yillarda yaratilgan asarlarda yozuvchilar butun diqqatini ijtimoiy hayot silsilalarida kechayotgan jarayonlarga emas, yagona inson ongu tafakkurida sodir bo‘layotgan voqyelikning sabablarini ko‘rsatishga e’tibori bilan belgilanadi. Bu tamoyildan olib qaralganda Somerset Moem asarlarida syujetning ***“ichki harakat”*** dinamikasini ifodalashdagi yo‘sinlari ko‘zga tashlanadi. Bir qarashda oddiy voqyelikdan ham ham umuminsoniy masalalarni olib chiqish usuliga erishish mumkinligini so‘nggi ijodiy jarayonlarda ko‘ramiz:

“Ertasiga Striklendni olib keldik. Bu ishga ko‘ndirish uchun anchagina qat’iyat va sabr-toqat ko‘rsatishga to‘g‘ri keldi. Lekin u haqiqatan anchagina og‘ir xasta edi, shu tufayli, Struvening iltijolariyu mening qat’iyatimga dosh bera olmadi. Biz uni kiyintirgunimizcha, ming‘illab so‘kinib turdi. Zinadan olib tushdik-da, izvoshga o‘tqazib, Struvening ustaxonasiga olib keldik. Striklend bunday harakatlardan obdon tinkasi quridi, ko‘rpa-to‘shak qilib yotqizib qo‘yishimizga ham qarshilik ko‘rsata olmadi. Bir yarim oygacha mazasi bo‘lmadi. Shunday kunlar ham bo‘ldiki, nazarimizda, bir necha soatlik umri qolgandek tuyulardi. Bunday og‘ir holatdan faqat Struvening favqulodda qat’iyligi tufayligina omon qolganiga ishonaman. Men umrim bino bo‘lib bunday bemorni ko‘rmaganman. U qaysar va yo‘q narsalarni talab etaveradigan bemor emasdi, aksincha, hyech qachon hyech narsadan shikoyat qilmas, hyech narsa so‘ramas, qariyb hyech narsa demasdi. Bizning g‘amxo‘rligimiz uning g‘azabini keltirayotganday edi. O‘zini qanday his etayotgani, biror narsa kerak, kerakmasligini so‘raganimizda esa masxaralash bilan javob qaytarar yoxud so‘kinardi. Men endi uni butunlay yomon ko‘rib qolgandim, kasallik xavf-xataridan qutulishi bilanoq, bu to‘g‘risida unga to‘g‘ridan-to‘g‘ri aytdim”[2].

Na hayotda, na rassmochilikda omadi yurishgan bu Striklend kutilmaganda ichkilik va ruhiy azoblar zarbasidan bemor bo‘lib qoladi. Ayni shu bemorlikni davolash uchun bor imkoniyatini do‘sti hamrohligida bajarish usta Drink bajarishga tushadi. Biroq uning xotini bu bemorni olib kelishga rad javobini beradi. Hayotdagi ketma-ket chigal lahzalardan, uysiz va maoshsiz darbadar kezishga kirib ketgan Striklend oxir-oqibat do‘stining ustaxonasini boshpona tutishga rozi bo‘ladi. Bunday qaysar va o‘zining bilganidan qolmaydigan rassomning bor vujudini kutilmaganda behollik egallab, madorsiz bir ahvolga tushishi, jazavli bo‘lib qolishga yetaklaydi. Aslida yozuvchi syujet liniyalarida ko‘proq ichki harakat dinamikasiga asoslangan syujet qismlaridan unumli foydalanadi. Syujetning muqaddimasida ham birdaniga – Charlz Striklend qiyofasi va uning portreti ko‘z o‘ngingizda gavdalanadi. Mana shu jihatdan olib qarasak, roman leytmotivida uslubiy modifikasiya insonning haq va huquqlari toptalgan xunrezliklarni keltirib chiqarishga sharoit yaratib tashlayotgan jamiyat qiyofasi ko‘z o‘ngingizda gavdalanadi. Insoniy burch va mas’uliyat yo‘qolgan hayotning pastu balandlari yozuvchi olamida rosa qiyin bir kayfiyatni yuzaga chiqarib yuboradi. Demak romandagi syujet ustqurmasi quyidagi ikki tamoyilda tasniflashga yo‘l ochadi:

1. Yozuvchi badiiy uslubida rosa ko‘p qo‘llanilgan imo-ishoralar – shaxs va xarakterlar orasidagi ziddiyatlar fonida Yevropa xalqlarining bir davlatdan boshqa bir davlatga ko‘chib yurishga odatlanishini butun-murakkabligicha ko‘rsatish;

2. Yozuvchining har qanday vaziyatda inson qadrini birinchi o‘ringa qo‘yish, uning Alloh tomonidan yaratilgan eng go‘zal mavjudot ekanligini ko‘rsatishdan iboratligi ayon bo‘ladi.

Mana shu oltin o‘rtalik insonning baxtiga monelik qiluvchi jamiyatdagi yozilgan va yozilmagan qonunlarning faqat boylar uchun xizmat qilishi, yo‘qsillarga kelganda faqat azobu uqubat keltirish ekanligi yuzaga chiqa boshlaydi. Syujetning bu kabi liniyalarida – ichki harakat evaziga badiiylik modusi yanada tiniqlashadi.

Prof.S.To‘laganova qayd etishicha: “Roman voqyeligiga kiritilayotgan har bir personaj goho sezilarli, goho ko‘zga ko‘rinar-ko‘rinmas iplar bilan o‘zaro bog‘lanadi. Ular asarda muallifning badiiy niyati ijrosida muhim rol o‘ynab, bosh konsepsiyaning amalga oshuviga xizmat qiladi. Har

[1] Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. –Т., Академнашр. 2013. –Б.289-290.
[2] Сомерсет Моэм. Ой ва сариқ чақа. –Т: “Шарқ”. 2006. –Б.53.

bir obraz asardagi ishtiroki qay darajada qiymatga ega bo‘lishidan qat’iy nazar bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Biri ikkinchisini taqozo qiladi. Ularning barchasi asosiy maqsad sari jamlanadi shu yo‘lda jipslashadi. Ya’ni romandagi har bir unsur, jumladan, har bir personaj, vaqt yagona markazga intiladiki (senrostremitelnost), o‘sha markaz sifatida muallif konsepsiyasini ko‘rsatish mumkin”. Aytish muhim, badiiy asar syujetida ishtirok etuvchi obrazlar ko‘pligi bilan emas, ayni paytda ularning xarakteri qay tariqa ishlanganligi va yozuvchi mahoratining nechog‘li bo‘y ko‘rsatganligi, yagona estetik markazda uyushuvi bilan ham o‘lchanadi. Mazkur ibora har bir davrda har xil tarzda baholanadi. F.Kafka, J.Joys, A.Kamyu yaratgan qahramonlar yozuvchi ijodining ong va tuyg‘u mahsuli. Ular nihoyatda ko‘p va rang-barang bo‘lishi bilan o‘zbek adabiyotida Ulug‘bek Hamdam ijodiga ham katta ta’sir ko‘rsatgani hyech kimga sir emas: “Qo‘liga qaychi tutib bog‘dagi daraxtlarga tartib berib yurarkan, tabib Akbarni o‘ylardi: “Nega, buncha yo‘q bo‘p ketdiykin? Tirik bormikin ishqilib?.. Bolaginam ichidagi g‘alayonni tinchlantirguncha o‘zi sop bo‘lib ketmasaydi. Hali bironta odamda bunacha kuchli tug‘yonni ko‘rmagandim. Menda-yam unchalik emasdi-yov... Tabib juda ko‘pdan beri so‘qqabosh yashaydi. Xotini qizini olib boshqa turmush qurib ketganiga ham yigirma yildan oshdi. Qaytib uylanmadi. Shunday qilsam yana bir ojizani baxtsiz qilmagan bo‘laman, deb hisobladi. Qarindosh-urug‘, qo‘ni-qo‘shni, mahalla-ko‘y o‘rtasidagi munosabati binoiydek, ular bilan har kun gaplashadi, qishlog‘ida u davolamagan odam yo‘q hisobi. Quyoshga talpingan o‘simlikdek hamma unga intiladi. Biroq nima qilsin, qismat ekan, peshona ekan, tabib yolg‘iz... Shu yo‘lni o‘zi tanladi, taqdirini o‘zi bunyod etdi”.

Romandagi Tabib obrazi shu qadar tiniq tasvirlanganki, unda Somerset Moemning buyuk rassom bo‘lishi ilinjida hayot zarbalari sari ko‘kragini tutishga tayyor qahramonlar ko‘z oldimizda gavdalanadi. Tabib gripp kasalligiga davo topish istagida bir umr izlanish olib boradi. Xotini tashlab ketgan, uy va joyning tayini yo‘q odamning bir umrlik orzulari ushalishini kutib yashashdan boshqa katta ma’no bormikin? Har ikkala romandagi badiiy syujetda real voqyelikning ajralmas halqlari – inson obrazining nechog‘li murakkab va muqaddas ekanligi ayonlashadi. Negaki, qahramonlar o‘z orzulari sari harakatlanadi. Bu o‘rinda biri rassom bo‘lish, ikkinchisi tabib bo‘lish. Tabib va rassom bo‘lish orzusi bilan yashashda o‘zlariga kuch topayotgan mazkur qahramonlar har qanday mashaqqatu mehnatlarga dosh berishga tayyor bo‘lib ko‘z oldimizda ko‘rinish beradi. Dunyo adabiyotidagi mana shu “ko‘chib yuruvchi syujet” qamrovi XX asr badiiy tafakkurining umumiy va xususiy progmatik talqini bo‘lib, har qanday vaziyatda niyat va amalning birligi mavjud bo‘lishini keltirib chiqaradi. Insoniyatning buyuk maqsadlar sari odimlashi, ularning jonli hayot tarzidan sira uzoqlashmasligi muhim. ayniqsa, har ikkala roman qahramonlarda ham, uslubiy tasvir predmetida ham juda yaqin bir modifikasiya ko‘zga tashlanadi. Umr bo‘yi badiiy asar yozish ishtiyoqida harakat qilgan Somerset Moemning o‘zi asl kasbi-kori tabib edi. Bu jarayon insonning maqsadlariga yetishuvida yordamchi kuchlarning, Charlz Striklend va Sturvening o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar Akbar va Tabib o‘rtasidagi o‘ziga xoslikni yuzaga chiqarishga yetaklaydi.

Xulosa va takliflar. Xulosa shuki, dunyo adabiyotida ko‘chib yuruvchi syujet moduslari har qachongidan turfalashdi. Chunki ko‘chib yuruvchi syujetni yangilash xuddi biror avtomobil markasining boshqacha shaklda, aynan o‘ziga o‘xshagan qirralarini aks ettirishga bel bog‘laganligida qabarib ko‘rinadi. Mana shu tamoyil hozirgi o‘zbek va ingliz nasrida uslublararo sintez fragmentlarni taqozo etishga chorlaydi. Negaki, roman qahramonlar bir-biriga nisbatan erkin harakatlanadi. Tanlov shartlari ham bir-biridan tubdan farqlanadi. Ularning tutimlari va yashash sharoitlari nihoyatda murakkab va g‘alati. Shuning uchun ham ko‘chib yuruvchi syujetlar dinamikasida uslublararo sintez ifodasi yozuvchi ongi va tafakkuri mahsuli deb hisoblasak, nisbatan to‘g‘ri talqin qilgan bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Назар Эшонқул. «Маймун егаклаган одам. – Т.: «Янги аср авлоди», 2004. -212 б.; Ulug‘bek Hamdam. To‘lin oy qissasi //«O‘zbekiston adabiyoti va san’ati» gazetasi, 2014 yil 3-son;

Luqmon Bo‘rixon. Bir tomchi yosh (qissa) // «Yoshlik» jurnali, 2012 yil 3-son;

2. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. –Т., Академнашр. 2013. –Б.289-290.

3. Somerset Moem. Oy va sariq chaqa. Roman. Rus tilidan R.Inog‘omov tarjimasi. –T: “DAVR-PRESSS” NMU, 2012. – 236 b.

4. Тўлаганова С. Бадиий асар морфологияси. –Т., “Турон замин зиё”. 2016. –Б. 83

5. Улуғбек Ҳамдам. Исён ва итоат. –Т: “Янги аср авлоди”. 2003. –Б.18.

6. Kurbonbayevna M. D. Sujet va kompozitsiya yaratishda uslubning roli //Innovation: The journal of Social Sciences and Researches. – 2024. – Т. 2. – №. 1. – С. 83-86.

7. Kurbonbayevna M. D. Zamonaviy O‘zbek va ingliz nasrida ko ‘chib yuruvchi syujet moduslari hamda uslublararo sintez masalasi //Partner conferences of the International Scientific Journal Research Focus. – 2025. – Т. 1. – №. 1. – С. 841-843.

8. Махмудова Д. Роль методики при использовании интернет-ресурсов при обучении иностранному языку //Переводоведение и лингвистика в эпоху цифровых технологий: изучение передовых подходов. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 132-134.

9. Усанов Р. Т., Хаккулов Н. К. Из истории изучения проблемы «ненасилие» //Экономика и социум. – 2024. – №. 6-2 (121). – С. 1406-1413.

Mirzaabdullayeva Mahliyoxon Xosiljon qizi
Andijon davlat texnika instituti
Tillar va gumanitar fanlari kafedrasi assistenti
E-mail: mirzaabdullayeva1991@mail.ru

QO‘SHMA FE’LLARDA KONNOTATSIYA HODISASI: O‘ZBEK, INGLIZ VA RUS TILLARI QIYOSIDA

Annotatsiya. *Ushbu maqolada qo‘shma fe’llarda konnotatsiya hodisasining shakllanish mexanizmlari o‘zbek, ingliz va rus tillari qiyosida yoritiladi. Tadqiqotda qo‘shma fe’llar semantikasining murakkablashuvi, bahoviy-emotsional bo‘yoqning paydo bo‘lishi hamda nutqiy vaziyat (kontekst) ta’siri kabi omillar tahlil qilinadi. O‘zbek tilida konnotativ ma’no ko‘pincha yordamchi fe’lning semantik yukiga (yubor-, qo‘y-, qol- va b.) tayanishi, ingliz tilida esa phrasal verb tarkibidagi postpozitsiya (up, down, off, on va b.) harakatning yo‘nalishi, natijasi yoki bahosini kuchaytirishi ko‘rsatildi. Rus tilida ko‘p komponentli fe’llarda (frazeologik birliklarda) bahoviy rang alohida komponentdan ko‘ra butun birikmaning semantik yaxlitligidan kelib chiqishi asoslandi. Natijalar qo‘shma fe’llarning konnotativ imkoniyatlari ularning komponentlararo munosabati va pragmatik sharoit bilan bog‘liq holda yuzaga chiqishini tasdiqlaydi.*

Kalit so‘zlar: *qo‘shma fe’l, konnotatsiya, bahoviy ma’no, yordamchi fe’l, phrasal verb, postpozitsiya, frazeologik birlik, qiyosiy tahlil.*

THE PHENOMENON OF CONNOTATION IN COMPOUND VERBS: A COMPARATIVE STUDY OF UZBEK, ENGLISH, AND RUSSIAN"

Аннотация. *В статье рассматриваются механизмы формирования коннотации в составных глаголах в сопоставлении узбекского, английского и русского языков. Показано, что в узбекском языке коннотативное значение во многом определяется семантической нагрузкой вспомогательного глагола; в английском языке ключевую роль играют частицы фразовых глаголов (up, down, off, on и др.); в русском языке оценочность чаще обусловлена семантической целостностью фразеологического сочетания. Результаты подтверждают зависимость коннотации от межкомпонентных отношений и речевого контекста.*

Ключевые слова: *составной глагол, коннотация, оценочность, вспомогательный глагол, фразовый глагол, частица, фразеологизм, сопоставление.*

ЯВЛЕНИЕ КОННОТАЦИИ В СОСТАВНЫХ ГЛАГОЛАХ: СРАВНИТЕЛЬНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ УЗБЕКСКОГО, АНГЛИЙСКОГО И РУССКОГО ЯЗЫКОВ

Abstract. *This paper explores how connotation emerges in compound verbs through a contrastive analysis of Uzbek, English and Russian. It argues that Uzbek compound verbs mainly derive evaluative and emotive colouring from auxiliary verbs, while English phrasal verbs develop connotative nuances through particles such as up, down, off and on. In Russian, many multicomponent verb expressions display connotation as a property of the phraseological whole rather than of a single component. The analysis highlights the role of inter-component relations and contextual (pragmatic) conditions in shaping connotative meaning.*

Key words: *compound verb, connotation, evaluative meaning, auxiliary verb, phrasal verb, particle, phraseological unit, contrastive analysis.*

Kirish. Konnotatsiya til birliklarining denotativ ma’nosiga qo‘shimcha tarzda yuzaga keladigan emotsional, bahoviy va uslubiy bo‘yoqni ifodalovchi semantik-pragmatik hodisa sifatida talqin qilinadi [1; 2; 3]. Badiiy va og‘zaki nutqda konnotatsiya so‘zlovchining munosabati, ijtimoiy tajribasi hamda kommunikativ maqsadi bilan bog‘liq holda faollashadi. Ayniqsa, qo‘shma fe’llar (murakkab fe’l birliklari) harakatni ifodalash bilan birga harakatning bajarilish usuli, kutil-

maganligi, natijasi yoki subyektiv bahosini ham bildirishi sababli konnotativ imkoniyatlarga boy birliklar hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi - o‘zbek, ingliz va rus tillarida qo‘shma fe’llar tarkibida konnotatsiyaning shakllanish manbalarini aniqlash hamda ularni qiyosiy-semantik tahlil asosida tavsiflashdir. Tadqiqot vazifalari: 1) konnotatsiya va qo‘shma fe’l tushunchalarini nazariy jihatdan izohlash; 2) o‘zbek tilidagi yordamchi fe’l asosidagi qo‘shma fe’llarda konnotativ bo‘yoqning yuzaga chiqish omillarini ko‘rsatish; 3) ingliz tilidagi phrasal verb’larda postpozitsiya (particle) ning konnotativ rolini ochish; 4) rus tilidagi ko‘p komponentli (frazeologik) fe’llarda bahoviy rangning manbaini aniqlash; 5) umumiy va xos xususiyatlarni qiyosiy yakunlash.

1. nazariy asoslar: konnotatsiya va qo‘shma fe’l. Tilshunoslikda konnotatsiya ko‘pincha “assotsiativ ma’no” yoki “qo‘shimcha semantik qatlam” sifatida izohlanadi: ya’ni so‘zning asosiy ma’nosi (denotat) bilan bir qatorda, baho (ijobiy/salbiy), emotsionallik va uslubiy rangni ham o‘zida mujassamlashtiradi [1; 2; 3]. Konnotativ bo‘yoq kontekstga bog‘liq holda kuchayishi yoki neytrallashishi mumkin.

Qo‘shma fe’l esa ikki yoki undan ortiq leksik birlikning birikishi natijasida hosil bo‘lib, odatda analitik shaklda namoyon bo‘ladi. O‘zbek tilida qo‘shma fe’llarning muhim qismi “asosiy fe’l + yordamchi fe’l” modeli orqali tuziladi (aytib yubor-, ko‘rib chiq-, tashlab qo‘y-, ketib qol- va b.), bunda ikkinchi komponent harakatning yo‘nalishi, davomiyligi, to‘liqligi yoki bahosini aniqlashtiradi [6]. Ingliz tilida qo‘shma fe’l mazmuni ko‘pincha phrasal verb’lar orqali ifodalanib, fe’l va particle birikmasidan tarkib topadi (give up, break down, carry on, cheer up va b.) [4]. Rus tilida esa ko‘p komponentli fe’l birliklari ko‘pincha frazeologik butunlik sifatida shakllanib, konnotativ baho ham aynan shu yaxlitlikda mustahkamlanadi [7].

2. o‘zbek tilida qo‘shma fe’llarda konnotatsiya. O‘zbek tilidagi qo‘shma fe’llar ko‘pincha ekspressiv-bahoviy ma’no tashiydi va bu holat, asosan, yordamchi fe’lning semantik yuklanishi bilan bog‘liq bo‘ladi. Quyida konnotativ rangning tipik ko‘rinishlari uch guruhda tasniflanadi.

A) Keskinlik va to‘satdanlikni ifodalovchi qo‘shma fe’llar. Ayrim birliklarda ikkinchi komponent harakatning kutilmaganda, ehtiyotsizlik bilan yoki keskin tarzda amalga oshganini bildiradi. Masalan, aytib yubor- birikmasida yubor- komponenti “o‘ylamasdan”, “tilga chiqib ketish” semasini kuchaytirib, pushaymonlik yoki beparvolik kabi konnotativ ma’nolarni yuzaga chiqaradi. Tashlab yubor- birikmasida esa harakatga nisbatan salbiy munosabat, bepisandlik bo‘yoqi seziladi.

B) Ijobiy munosabat yoki yordamni ifodalovchi qo‘shma fe’llar. Olib kel-, kutib ol-, ko‘rib chiq- kabi birliklarda harakatning ijobiy natijadorligi hamda samimiy munosabat ifodalanadi. Masalan, olib kel- “yordam ko‘rsatish/g‘amxo‘rlik” konnotatsiyasini, ko‘rib chiq- esa “mas’uliyat bilan yondashish” bahosini kuchaytiradi.

C) Salbiy munosabat yoki rad etishni ifodalovchi qo‘shma fe’llar. Tashlab qo‘y-, aylanib o‘t-, o‘tirib qol- kabi birliklarda beparvolik, muammodan qochish, sustkashlik yoki natijasizlik semalari kuchayadi. Masalan, tashlab qo‘y- fe’lida “mas’uliyatsizlik/e’tiborsizlik” bo‘yoqi, aylanib o‘t- fe’lida “mensimaslik” yoki “muammodan chetlashish” bahosi yaqqolroq namoyon bo‘ladi. Bunday konnotativ rang ko‘pincha nutqiy vaziyat orqali barqarorlashadi.

Demak, o‘zbek tilida qo‘shma fe’llarda konnotatsiya, avvalo, ikkinchi komponent (yordamchi fe’l) semantik yukiga tayanadi; bahoviy rang esa komponentlararo munosabat hamda kontekst orqali shakllanadi [6].

3. ingliz tilida phrasal verb’lar va konnotatsiya. Ingliz tilida qo‘shma fe’llar, asosan, phrasal verb’lar ko‘rinishida uchraydi: fe’l + particle (postpozitsiya) modeli harakat semasini kengaytirib, ko‘pincha emotsional-bahoviy bo‘yoqni ham yuzaga keltiradi [4].

A) Salbiy konnotatsiyani ifodalovchi phrasal verb’lar. Give up birikmasi “taslim bo‘lish/umidsizlik” kayfiyatini bildiradi; break down esa “buzilib qolish” (texnik) yoki “ruhiy tushkunlikka tushish” (psixologik) kabi salbiy baholi ma’nolarni yuzaga chiqaradi. Turn down fe’li rad etish, norozilik munosabatini ifodalaydi.

B) Ijobiy yoki yumshoq konnotatsiyani ifodalovchi phrasal verb’lar. Cheer up birikmasi “ko‘ngilni ko‘tarish” ma’nosi orqali ijobiy munosabatni ifodalaydi; carry on esa “davom ettirish” ma’nosida qat’iyat va rag‘bat semasini kuchaytiradi.

C) Particle'larning konnotativ roli. Up, down, off, on kabi particle'lar harakatning yo'nalishi, intensivligi yoki natijasini belgilab, bahoviy ma'noni ham shakllantiradi. Masalan, up ko'pincha "kuchayish/yakunlanish" bilan, down esa "pasayish/tushkunlik" bilan assotsiatsiyalanadi [4].

Shunday qilib, ingliz tilida konnotatsiya fe'lning o'zidan ko'ra particle'ning semantik vazifasi orqali kuchliroq faollashadi.

4. rus tilida ko'p komponentli fe'llar va konnotatsiya. Rus tilida ko'p komponentli fe'l birliklari ko'pincha frazeologik birikma sifatida shakllanib, bahoviy va emotsional rangni ham tashiydi. Bu turdagi birliklarda konnotatsiya alohida komponentning ma'nosidan ko'ra birikmaning semantik yaxlitligiga tayanadi [7].

A) Salbiy konnotatsiyali birliklar. Masalan, обвести вокруг пальца birikmasi "aldamoq" ma'nosini bildirib, salbiy munosabatni kuchaytiradi. Сделать вид birikmasi esa "soxtalik", "samimiy bo'lmaslik" bo'yoqlarini yuzaga chiqaradi.

B) Ijobiy bahoviy rangga ega birliklar. Держать слово birikmasi mas'uliyat va ishonchlilikni, прийти к согласию esa kelishuv va murosani bildirib, ijobiy konnotatsiyaga ega bo'ladi.

C) Konnotatsiya manbai. Rus tilidagi frazeologik fe'llarda bahoviy rang ko'pincha nutqiy vaziyat, ijtimoiy baho va emotsional munosabat bilan kuchayadi; shu bois u "birikma ma'nosi" sifatida idrok qilinadi [7].

5. Qiyosiy yakun: mexanizmlarning umumiyligi va farqi. O'tkazilgan qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, uchala tilda ham konnotativ ma'no harakatning o'zidan ko'ra uning bajarilish usuli, natijasi yoki nutqiy talqini bilan ko'proq bog'liq. Biroq konnotatsiyaning yuzaga chiqish vositalari tilga xosdir:

- o'zbek tilida konnotatsiya ko'pincha yordamchi fe'l orqali shakllanadi (yubor-, qo'y-, qol- va b.) [6];
- ingliz tilida konnotativ bo'yoqning asosiy manbai particle bo'lib, phrasal verb'ning semantikasini "qayta kodlaydi" [4];
- rus tilida esa bahoviy rang frazeologik butunlikning semantik yaxlitligida mustahkamlanadi [7].

Demak, qo'shma fe'llar konnotatsiyasi - komponentlararo semantik munosabat, pragmatik vaziyat va nutqiy baho kesishadigan murakkab mexanizm bo'lib, u qiyosiy tilshunoslik doirasida o'rganish uchun samarali material hisoblanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, qo'shma fe'llarda konnotatsiya hodisasi tildan tilga turlicha vositalar orqali shakllansa-da, uning umumiy manbai komponentlararo munosabat va nutqiy bahodir. O'zbek tilida yordamchi fe'l harakatning kutilmaganligi, natijasi yoki munosabat rangini kuchaytirsa, ingliz tilida particle harakatning yo'nalishi va bahoviy bo'yoqni belgilaydi; rus tilida esa frazeologik birlikning yaxlit ma'nosi konnotatsiyani barqarorlashtiradi. Mazkur natijalar qo'shma fe'llarni semantik-pragmatik jihatdan chuqurroq tahlil qilish, ularning konnotativ imkoniyatlarini lug'atchilik va tarjima amaliyotida izchil yoritish zarurligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Leech, G. N. Semantics: The Study of Meaning. Harmondsworth: Penguin Books, 1974.
2. Lyons, J. Semantics. Vol. 1–2. Cambridge: Cambridge University Press, 1977.
3. Апресян, Ю. Д. Лексическая семантика: Синонимические средства языка. М.: Наука, 1974.
4. Parkinson, D. (ed.). Oxford Phrasal Verbs Dictionary for Learners of English. Oxford: Oxford University Press, 2001.
5. Rahmatullayev, Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 1992.

Soliyev Otabek Davlatjon o'g`li
Farg'ona davlat universiteti
Psixologiya mutaxassisligi magistranti

AXBOROT MUHITIDA SHAXS ONGIGA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK TA'SIR VA PSIXOLOGIK BARQARORLIK MASALALARI

Annotatsiya. *Maqolada zamonaviy axborot muhitida shaxs ongiga ko'rsatilayotgan ijtimoiy-psixologik ta'sir mexanizmlari va ularning psixologik barqarorlikka ta'siri nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Axborot oqimlarining intensivligi, manipulyativ ta'sir shakllari, ijtimoiy stereotiplar va axborot bosimi fenomeni ijtimoiy psixologiya nuqtayi nazaridan yoritiladi. Shuningdek, shaxsning tanqidiy fikrlash qobiliyati, kognitiv himoya mexanizmlari va ijtimoiy moslashuv jarayonlarining axborot xavfsizligini ta'minlashdagi o'rni ilmiy manbalar asosida asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari axborot muhitida shaxs psixologik barqarorligini ta'minlash masalasining ijtimoiy-psixologik mohiyatini ochib beradi.*

Kalit so'zlar: *axborot muhiti, ijtimoiy-psixologik ta'sir, manipulyatsiya, axborot bosimi, psixologik barqarorlik, tanqidiy fikrlash.*

ВОПРОСЫ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ВЛИЯНИЯ НА СОЗНАНИЕ ЛИЧНОСТИ И ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ В ИНФОРМАЦИОННОЙ СРЕДЕ

Аннотация. *В статье теоретически анализируются социально-психологические механизмы воздействия современного информационного пространства на сознание личности и их влияние на психологическую устойчивость. С позиций социальной психологии рассматриваются интенсивность информационных потоков, формы манипулятивного воздействия, социальные стереотипы и феномен информационного давления. Также на основе научных источников обосновывается роль критического мышления личности, когнитивных защитных механизмов и процессов социальной адаптации в обеспечении информационной безопасности. Результаты исследования раскрывают социально-психологическую сущность проблемы обеспечения психологической устойчивости личности в условиях современного информационного пространства.*

Ключевые слова: *информационная среда, социально-психологическое воздействие, манипуляция, информационное давление, психологическая устойчивость, критическое мышление.*

SOCIAL-PSYCHOLOGICAL INFLUENCE ON PERSONAL CONSCIOUSNESS AND PSYCHOLOGICAL RESILIENCE IN THE INFORMATION ENVIRONMENT

Abstract. *The article provides a theoretical analysis of socio-psychological mechanisms influencing individual consciousness in the contemporary information environment and their impact on psychological resilience. From the perspective of social psychology, the intensity of information flows, forms of manipulative influence, social stereotypes, and the phenomenon of information pressure are examined. In addition, based on scientific sources, the role of critical thinking skills, cognitive defense mechanisms, and social adaptation processes in ensuring information security is substantiated. The research findings reveal the socio-psychological essence of the issue of maintaining individual psychological resilience within the modern information environment.*

Key words: *information environment, socio-psychological influence, manipulation, information pressure, psychological resilience, critical thinking.*

Zamonaviy jamiyatda raqamli axborot muhitining jadal rivojlanishi shaxs ongiga ko'rsatilayotgan ijtimoiy-psixologik ta'sirlarning kuchayishiga olib kelmoqda. Ommaviy axborot

vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va turli raqamli platformalar orqali tarqalayotgan axborotlar shaxsning dunyoqarashi, qadriyatlari, emotsional holati va xulq-atvor strategiyalarini shakllantiruvchi muhim omilga aylanmoqda. Ushbu jarayonda shaxsning axborotni tanlab qabul qilishi, unga nisbatan tanqidiy munosabat bildira olishi hamda psixologik barqarorlikni saqlab qolish masalasi dolzarb ilmiy muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Mazkur muammo xorijiy va mahalliy tadqiqotlarda axborot ta’siri, manipulyativ texnologiyalar, ijtimoiy ta’sir mexanizmlari va psixologik himoya omillari nuqtayi nazaridan o‘rganilgan. Biroq axborot muhitining shaxs psixologik barqarorligiga ta’siri ijtimoiy-psixologik tizimli yondashuv asosida yetarli darajada kompleks tahlil qilinmagan. Ayniqsa, axborot xavfsizligining psixologik jihatlari shaxsning ichki resurslari va barqarorlik mexanizmlari bilan uzviy bog‘liqlikda tadqiq etilishini talab etadi.

Tadqiqot maqsadi - axborot muhitida shaxs ongiga ko‘rsatilayotgan ijtimoiy-psixologik ta’sirlarning mohiyatini tahlil qilish hamda psixologik barqarorlikni ta’minlovchi omillarni ilmiy-nazariy jihatdan asoslashdan iborat. Mazkur maqsadga erishish uchun axborot ta’sirining asosiy mexanizmlari, shaxs ongida kechadigan psixologik jarayonlar hamda barqarorlikni shakllantiruvchi himoya omillari tahlil qilinadi.

Zamonaviy ijtimoiy psixologiyada axborot muhiti shaxs ongiga ta’sir etuvchi murakkab ijtimoiy-psixologik makon sifatida talqin etiladi. Ushbu makon shaxsning kognitiv jarayonlari, emotsional holati, ijtimoiy identifikatsiyasi va xulq-atvor strategiyalarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Axborot muhiti faqatgina ma’lumotlar yig‘indisi emas, balki ijtimoiy ta’sir, psixologik bosim va kommunikativ o‘zaro aloqalar tizimi sifatida namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy psixologiyada shaxs xulq-atvorining shakllanishi muhit bilan uzviy bog‘liqlikda tushuntiriladi. Bu borada Kurt Levin tomonidan ilgari surilgan “ijtimoiy maydon” nazariyasi muhim metodologik ahamiyatga ega. Olimning fikricha, shaxs xulq-atvori shaxsiy xususiyatlar va muhit omillarining o‘zaro ta’siri mahsulidir. Axborot muhiti bugungi kunda aynan shunday ijtimoiy maydon sifatida shaxs qaror qabul qilish jarayonlariga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Axborot muhitining intensivligi va uzluksizligi shaxsda kognitiv yuklama, axborot charchoqligi hamda kognitiv dissonans holatlarining yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Kognitiv dissonans shaxs ongida mavjud bilimlar, qadriyatlar va tashqi axborot o‘rtasidagi nomuvofiqlik natijasida yuzaga keladigan psixologik noqulaylik holati sifatida talqin etiladi. Bu holat shaxsni ichki psixologik muvozanatni tiklash maqsadida yangi axborotni tanlab qabul qilishga yoki rad etishga undaydi.

Axborot muhitining ijtimoiy-psixologik mohiyatini tahlil qilishda manipulyatsiya tushunchasi alohida o‘rin tutadi. Manipulyativ axborot shaxs ongiga yashirin tarzda ta’sir ko‘rsatib, uning ongli tanlov qilish imkoniyatlarini cheklaydi. Erix Fromm manipulyatsiyani shaxs erkinligiga tahdid soluvchi ijtimoiy mexanizm sifatida baholaydi va uni zamonaviy jamiyatning muhim psixologik muammolaridan biri deb hisoblaydi. Axborot muhitining salbiy ta’siri shaxsning emosional barqarorligi, psixologik moslashuvi va ijtimoiy ishonchiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Axborot bosimi sharoitida shaxsda xavotir, ishonchsizlik va ijtimoiy beqarorlik holatlari kuchayadi. Bu jarayonni Daniel Kahneman kognitiv resurslarning cheklanganligi bilan izohlaydi. Olim ortiqcha axborot sharoitida inson tezkor, lekin yuzaki qarorlar qabul qilishga moyil bo‘lishini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, axborot muhitida shaxsning psixologik himoya mexanizmlari faollashadi. Bu mexanizmlar shaxsning emotsional muvozanatini saqlashga xizmat qilsa-da, uzoq muddatli axborot bosimi ularning samaradorligini pasaytiradi. A.G. Asmolov shaxs psixologik barqarorligini ijtimoiy moslashuvning asosiy ko‘rsatkichi sifatida baholab, axborot muhitida bu barqarorlikni saqlash muhimligini ta’kidlaydi

Demak, axborot muhitining ijtimoiy-psixologik mohiyati shaxs ongiga ko‘rsatilayotgan ijtimoiy ta’sir, kognitiv yuklama va manipulyativ mexanizmlar orqali namoyon bo‘ladi. Ushbu jarayonlarni chuqur ilmiy tahlil qilish shaxs psixologik himoyasini mustahkamlash va axborot bilan bog‘liq xavflarni kamaytirish uchun zarur nazariy asoslarni yaratadi.

Bugungi kunda axborot makonida ijtimoiy ta’sir va manipulyativ mexanizmlar shaxs ongini shakllantirish va yo‘naltirishda yetakchi psixologik omillardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ijtimoiy psixologiyada ijtimoiy ta’sir shaxsning qarashlari, munosabatlari, emotsional holati va

xulq-atvor strategiyalarining boshqa shaxslar, guruhlar yoki ijtimoiy institutlar ta'siri ostida o'zgarishi jarayoni sifatida talqin etiladi. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi ushbu ta'sirni tezkor, ommaviy va ko'p qatlamli jarayonga aylantirdi.

Ijtimoiy ta'sir mexanizmlaridan biri - konformizm bo'lib, u shaxsning ijtimoiy moslashuv ehtiyoji asosida ko'pchilik fikriga bo'ysunishi orqali namoyon bo'ladi. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, shaxs hatto aniq noto'g'ri qarashlarni ham guruh bosimi ostida qabul qilishi mumkin. Axborot muhitida konformizm algoritmik tavsiyalar, ommaviy trendlar va "ko'pchilik fikri"ni ta'kidlovchi axborotlar orqali kuchayadi. Ijtimoiy ta'sirning yanada murakkab shakli - ijtimoiy tasavvurlar orqali ongni boshqarishdir. Sergey Moskvich ijtimoiy tasavvurlarni jamiyat a'zolari tomonidan umumiy qabul qilingan bilimlar, obrazlar va ramzlar tizimi sifatida ta'riflaydi. Axborot makonida ushbu tasavvurlar tezkor ravishda shakllanib, shaxsning voqelikni idrok etish mexanizmlarini soddalashtiradi va stereotiplashuvni kuchaytiradi. Axborot orqali amalga oshiriladigan ijtimoiy ta'sirning eng xavfli shakllaridan biri manipulyatsiya hisoblanadi. Manipulyatsiya - bu shaxs ongiga yashirin, bilvosita va maqsadli ta'sir ko'rsatish orqali uning xulq-atvorini boshqarish jarayonidir. Erich Fromm manipulyativ ta'sirni shaxs erkinligini cheklovchi ijtimoiy mexanizm sifatida baholab, uni zamonaviy jamiyatda "erkinlik illyuziyasini yuzaga keltiruvchi hodisa deb hisoblaydi. Manipulyativ axborot mexanizmlarida shaxsning emotsional reaktivligi, kognitiv soddalashtirish, evristik fikrlash va stereotiplashuv faol qo'llaniladi. Axborot mazmuni ko'pincha qo'rquv, xavotir yoki ijtimoiy xavf obrazlari orqali yetkazilib, shaxsning tanqidiy fikrlash qobiliyatini cheklaydi. Natijada shaxs axborotni chuqur tahlil qilish o'rniga, tayyor xulosalarni qabul qilishga moyil bo'ladi. Manipulyativ ta'sirning samaradorligi shaxsning kognitiv resurslari bilan ham bevosita bog'liq. Daniel Kahneman inson tafakkurini "tezkor" va "sekin" fikrlash tizimlariga ajratib, ortiqcha axborot sharoitida inson tezkor, ammo yuzaki qarorlar qabul qilishga moyil bo'lishini ta'kidlaydi. Bu holat manipulyativ axborotlarning ta'sirchanligini keskin oshiradi. Ijtimoiy ta'sir va manipulyatsiya shaxsda emosional beqarorlik, ijtimoiy ishonchsizlik, psixologik xavotir va barqaror bo'lmagan ijtimoiy identifikatsiya holatlarini yuzaga keltiradi. Uzoq muddatli manipulyativ axborot ta'siri shaxsning ijtimoiy moslashuv darajasini pasaytirib, uni tashqi ijtimoiy bosimlarga nisbatan yanada sezgir holatga keltiradi. Shunday qilib, ijtimoiy ta'sir va manipulyativ axborot mexanizmlari zamonaviy axborot makonida shaxs ongini shakllantiruvchi asosiy psixologik omillar sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu mexanizmlarni ijtimoiy-psixologik nuqtayi nazardan chuqur o'rganish shaxsning psixologik himoyasini mustahkamlash, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va axborot bilan bog'liq xavflarni kamaytirish uchun muhim ilmiy asos yaratadi.

So'ngi yillarda ma'lumot qabul qilishning muhim psixologik xususiyatlaridan biri axborot bosimi va kognitiv yuklamaning keskin ortib borishidir. Ijtimoiy psixologiyada axborot bosimi shaxs ongiga bir vaqtning o'zida haddan tashqari ko'p, tezkor va turli mazmundagi axborotlar ta'sir ko'rsatishi natijasida yuzaga keladigan psixologik zo'riqish holati sifatida talqin etiladi. Ushbu holat shaxsning idrok etish, xotira, diqqat va qaror qabul qilish jarayonlarida jiddiy qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Axborot bosimi muammosi kognitiv psixologiyada kognitiv yuklama tushunchasi orqali izohlanadi. Kognitiv yuklama shaxsning ishchi xotirasi imkoniyatlari va tashqi axborot hajmi o'rtasidagi nomutanosiblikni anglatadi. Ishchi xotiraning cheklanganligi sababli ortiqcha axborot sharoitida shaxs axborotni chuqur tahlil qilish imkoniyatini yo'qotadi va soddalashtirilgan kognitiv strategiyalarga murojaat qiladi. Bu borada Daniel Kahneman inson tafakkurining cheklangan kognitiv resurslarga ega ekanini ta'kidlab, axborotning haddan tashqari ko'pligi qaror qabul qilish sifatini pasaytirishini ilmiy asoslagan. Olimning fikricha, axborot bosimi sharoitida inson "tezkor fikrlash" tizimiga tayanib, chuqur mantiqiy tahlildan ko'ra avtomatik va emosional javoblarga moyil bo'ladi. Bu holat shaxsni manipulyativ axborotlarga nisbatan yanada zaiflashtiradi. Axborot bosimi shaxsda diqqatning tarqoqligi, kognitiv charchoq, emosional zo'riqish va psixologik beqarorlik holatlarining kuchayishiga olib keladi. Diqqat resurslarining cheklanganligi sababli shaxs axborot oqimini tanlab qabul qilish o'rniga, uni yuzaki idrok etishga majbur bo'ladi. Natijada axborotning ishonchliligini baholash va tanqidiy tahlil qilish qobiliyati sezilarli darajada pasayadi. Ijtimoiy psixologiyada axborot bosimi shaxsning ijtimoiy xulq-atvoriga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Axborot bilan haddan tashqari to'yinish shaxsda ijtimoiy befarqlik, emo-

sional sovuqlik yoki aksincha, doimiy xavotir va ishonchsizlik holatlarini yuzaga keltiradi. Bu jarayon shaxsning ijtimoiy moslashuvini murakkablashtirib, uning ijtimoiy qarorlarini tashqi ta'sirlarga bog'liq holga keltiradi.

Axborot bosimi sharoitida shaxsning psixologik himoya mexanizmlari faol ishlay boshlaydi. Ushbu mexanizmlar qisqa muddatda emosional muvozanatni saqlashga yordam bersa-da, uzoq muddatli axborot yuklamasi ularning samaradorligini pasaytiradi. A.G. Asmolov shaxsning psixologik barqarorligi uning ijtimoiy muhitga moslashuv darajasi bilan bevosita bog'liq ekanini ta'kidlab, axborot bosimi ushbu barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishini qayd etadi. Shuningdek, axborot bosimi shaxsda kognitiv soddalashtirish va stereotiplashuv jarayonlarini kuchaytiradi. Murakkab axborotni qayta ishlash imkoniyati cheklangan sharoitda shaxs tayyor sxemalar, ijtimoiy stereotiplar va ommaviy fikrlarga tayanishga moyil bo'ladi. Bu holat shaxsning mustaqil fikrlash qobiliyatini cheklab, ijtimoiy ta'sir va manipulyatsiyaga ochiqligini oshiradi. Demak, axborot bosimi va kognitiv yuklama muammosi zamonaviy axborot makonida shaxs psixologik barqarorligiga tahdid soluvchi muhim ijtimoiy-psixologik omil hisoblanadi. Ushbu muammoni chuqur tahlil qilish shaxsning kognitiv resurslarini asrash, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va axborot bilan bog'liq xavflarni kamaytirishga qaratilgan psixologik yondashuvlarni ishlab chiqish uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi

Raqamlashgan axborot muhitida shaxsning psixologik barqarorligini ta'minlashda psixologik himoya mexanizmlari va tanqidiy fikrlash qobiliyati muhim ijtimoiy-psixologik resurslar sifatida namoyon bo'ladi. Axborot bosimi, manipulyativ ta'sir va kognitiv yuklama kuchaygan sharoitda ushbu omillar shaxsning ongli pozitsiyasini saqlab qolish va ijtimoiy moslashuvini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Psixologik himoya mexanizmlari shaxsning tashqi va ichki stressorlar ta'sirida yuzaga keladigan psixologik zo'riqishdan himoyalanishiga xizmat qiluvchi ongli va ongsiz psixik jarayonlar majmui sifatida talqin etiladi. Klassik psixoanalitik yondashuvda psixologik himoya tushunchasi shaxsning ichki ziddiyatlarini kamaytirish vositasi sifatida izohlanadi. Zigmund Freyd psixologik himoyani "Men"ning ichki muvozanatini saqlashga qaratilgan mexanizmlar tizimi sifatida ta'riflagan. Axborot muhitida bu mexanizmlar tashqi axborot tahdidlariga moslashish vazifasini ham bajaradi. Zamonaviy ijtimoiy psixologiyada psixologik himoya faqat ichki ziddiyatlar bilan emas, balki tashqi axborot bosimi bilan ham bog'liq holda o'rganiladi. Shaxs ortiqcha axborot sharoitida inkor etish, ratsionalizatsiya, selektiv idrok, emosional masofalanish kabi himoya strategiyalaridan foydalanadi. Ushbu mexanizmlar qisqa muddatda psixologik barqarorlikni ta'minlasa-da, uzoq muddatli axborot bosimi sharoitida ularning samaradorligi pasayishi mumkin. Shaxsning psixologik himoyasi bilan bevosita bog'liq muhim kognitiv omil - tanqidiy fikrlash hisoblanadi. Tanqidiy fikrlash axborotni ongli ravishda tahlil qilish, baholash va asosli xulosalar chiqarish qobiliyatini ifodalaydi. Ushbu qobiliyat shaxsni manipulyativ va noto'g'ri axborotlardan himoyalashning muhim psixologik vositasi sifatida qaraladi. Jon Devy tanqidiy fikrlashni reflektiv tafakkur orqali muammolarni ongli hal etish jarayoni sifatida ta'riflaydi. Axborot muhitida tanqidiy fikrlashning yetishmasligi shaxsning ijtimoiy ta'sirlarga nisbatan zaiflashishiga olib keladi. Bunday sharoitda shaxs tayyor axborot sxemalariga, stereotiplarga va ommaviy fikrlarga tayanishga moyil bo'ladi. Natijada uning kognitiv avtonomiyasi pasayib, ijtimoiy konformizm kuchayadi. Bu holat manipulyativ axborot mexanizmlarining samaradorligini oshiradi.

Psixologik barqarorlikni ta'minlashda tanqidiy fikrlash va psixologik himoya o'zaro uyg'un holda faoliyat yuritadi. A.G. Asmolov shaxsning psixologik barqarorligini uning ijtimoiy muhitga moslashuv darajasi va ongli pozitsiyasi bilan bog'lab, tanqidiy fikrlashni ushbu barqarorlikning muhim ko'rsatkichi sifatida baholaydi. Tanqidiy fikrlash rivojlangan shaxs axborot muhitida mustaqil qaror qabul qilish va ijtimoiy bosimlarga qarshi turish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuningdek, tanqidiy fikrlash shaxsning metakognitiv nazoratini kuchaytiradi, ya'ni u o'z fikrlash jarayonlarini kuzatish va baholash imkoniga ega bo'ladi. Bu esa axborotni tanlab qabul qilish, uning ishonchliligini baholash va manbalarni solishtirish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Natijada shaxsning psixologik himoyasi yanada ongli va barqaror tus oladi. Tahlil natijalariga ko'ra, psixologik himoya va tanqidiy fikrlash zamonaviy axborot makonida shaxs psixologik barqarorligini ta'minlovchi asosiy

ijtimoiy-psixologik resurslar hisoblanadi. Ushbu omillarni rivojlantirish shaxsning axborot bosimi va manipulyativ ta’sirlarga nisbatan barqarorligini oshirish, ongli ijtimoiy pozitsiyani shakllantirish va ijtimoiy moslashuvni ta’minlash uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Xulosa. Axborot-kommunikatsiya jarayonlarining kengayishi fonida shaxs psixologiyasiga ko‘rsatilayotgan ta’sirlar tobora murakkablashib, axborot bilan bog‘liq muammolar ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida namoyon bo‘lmoqda. Axborot muhiti shaxsning kognitiv jarayonlari, emosional holati, ijtimoiy identifikatsiyasi va xulq-atvor strategiyalarini shakllantiruvchi muhim omilga aylanib, uning psixologik barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli axborot bilan bog‘liq xavf-xatarlarni faqat texnik yoki huquqiy yondashuvlar doirasida izohlash yetarli emasligi ilmiy jihatdan asoslanadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, axborot muhitida ijtimoiy ta’sir va manipulyativ mexanizmlar shaxs ongiga yashirin, ammo tizimli ta’sir ko‘rsatadi. Konformizm, stereotiplashuv, ijtimoiy tasavvurlar va manipulyatsiya orqali shaxsning mustaqil fikrlash qobiliyati cheklanib, uning ijtimoiy xulq-atvori tashqi bosimlarga bog‘liq holga kelishi mumkin. Ayniqsa, axborot oqimlarining ortiqcha hajmi shaxsda axborot bosimi va kognitiv yuklamani kuchaytirib, diqqat, xotira va qaror qabul qilish jarayonlarida psixologik qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi.

Axborot bosimi sharoitida shaxsning psixologik himoya mexanizmlari faollashsa-da, uzoq muddatli va intensiv axborot ta’siri ularning samaradorligini pasaytirishi aniqlanadi. Natijada shaxs emosional beqarorlik, xavotir va ijtimoiy ishonchsizlik holatlariga moyil bo‘lib qoladi. Bu holat shaxsning ijtimoiy moslashuvini murakkablashtirib, uni manipulyativ axborotlarga nisbatan yanada zaiflashtiradi. Mazkur jarayonda tanqidiy fikrlash shaxs psixologik barqarorligini ta’minlovchi asosiy kognitiv resurs sifatida namoyon bo‘ladi. Tanqidiy fikrlash rivojlangan shaxs axborotni ongli tahlil qilish, manbalarni solishtirish va asosli xulosalar chiqarish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa psixologik himoyani faqat ongsiz mexanizmlar darajasida emas, balki ongli va reflektiv faoliyat sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Umuman olganda, axborot muhiti sharoitida shaxs psixologik barqarorligini ta’minlash ijtimoiy-psixologik muammo sifatida kompleks yondashuvni talab etadi. Axborot bosimi, ijtimoiy ta’sir va manipulyativ mexanizmlarni chuqur ilmiy tahlil qilish shaxsning ongli pozitsiyasini mustahkamlash, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va psixologik himoyani kuchaytirish uchun zarur nazariy asoslarni yaratadi. Ushbu xulosalar zamonaviy ijtimoiy psixologiya doirasida axborot bilan bog‘liq muammolarni tadqiq etish va ularning salbiy oqibatlarini kamaytirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Asmolov, Psychology of Personality, 2019, Moscow
2. Fromm, Escape from Freedom, 1941, New York
3. Freud, The Ego and the Id, 1923, Vienna
4. Kahneman, Thinking, Fast and Slow, 2011, New York
5. Levin, Field Theory in Social Science, 1951, New York
6. Moscovici, Social Influence and Social Representations, 1976, Paris

Toshtemirov Farhod Shodiyevich
Turon universiteti O‘zbek tili va adabiyoti katta o‘qituvchisi,
Komilova Mushtariy Laziz qizi
Turon universiteti talabasi

NOVERBAL KOMMUNIKATSIYA VA UNING ZAMONAVIY MULOQOTDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada noverbal muloqotning insonlararo kommunikatsiyadagi o‘rni, uning lingvistik, pragmatik va sotsiomadaniy xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda o‘zbek va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari qiyosiy asosda yoritilib, mimika, jest, proxemika, kinetika va paralingvistik vositalarning muloqot samaradorligiga ta’siri ochib beriladi. Tadqiqot natijalari noverbal vositalarning verbal nutqni to‘ldiruvchi va ba’zan uning o‘rnini bosuvchi kommunikativ mexanizm ekanini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *noverbal muloqot, paralingvistika, mimika, jest, proxemika, pragmatika.*

НЕВЕРБАЛЬНАЯ КОММУНИКАЦИЯ И ЕЁ ЗНАЧЕНИЕ В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕНИИ

Аннотация. *В данной статье анализируется роль невербального общения в межличностной коммуникации, а также его лингвистические, прагматические и социокультурные особенности. В исследовании на сравнительной основе освещаются научные взгляды узбекских и зарубежных ученых, раскрывается влияние мимики, жестов, проксемики, кинетики и паралингвистических средств на эффективность общения. Результаты исследования показывают, что невербальные средства выступают как коммуникативный механизм, дополняющий вербальную речь, а в ряде случаев - заменяющий её.*

Ключевые слова: *невербальное общение, паралингвистика, мимика, жест, проксемика, прагматика.*

NONVERBAL COMMUNICATION AND ITS IMPORTANCE IN MODERN INTERACTION

Annotation. *This article analyzes the role of nonverbal communication in interpersonal interaction, as well as its linguistic, pragmatic, and sociocultural characteristics. The study presents a comparative overview of the scholarly views of Uzbek and foreign researchers and examines the impact of facial expressions, gestures, proxemics, kinesics, and paralinguistic features on communication effectiveness. The findings demonstrate that nonverbal means function as a communicative mechanism that complements verbal speech and, in some cases, substitutes for it.*

Key words: *noverbal communication, paralinguistics, facial expressions, gestures, proxemics, pragmatics.*

Tilshunoslikda muloqot faqatgina verbal birliklar bilan cheklanmaydi. Inson nutqiy faoliyatida so‘z bilan birga imo-ishora, yuz ifodasi, ovoz tembri va tana holati ham muhim axborot tashuvchisi bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab noverbal muloqot mustaqil ilmiy tadqiqot obyekti sifatida shakllandi.

Amerikalik tadqiqotchi Ray Birdvistell insonlararo muloqotda axborotning katta qismi noverbal vositalar orqali uzatilishini ta’kidlab, shunday yozadi: “Face-to-face communication is dominated by kinesic signals rather than spoken words”1.

Insonlararo muloqotda axborotning katta qismi noverbal vositalar orqali uzatiladi, chunki muloqot jarayonida tinglovchi nafaqat aytilgan so‘zlarga, balki yuz ifodasi, ovoz ohangi, tana

[1]Ray Birdwhistell, *Kinesics and Context*. – Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1970. – p. 82

harakati va ko‘z qarashiga ham bir vaqtning o‘zida e’tibor qaratadi. Ushbu noverbal signallar nutq mazmunining hissiy, munosabat va niyatga oid jihatlarini ochib berib, axborotning to‘liq va aniq talqin qilinishini ta’minlaydi. Shu sababli, noverbal vositalar muloqot samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Noverbal muloqot tushunchasi dastlab sotsial psixologiya va antropologiya doirasida shakllangan bo‘lsa-da, keyinchalik lingvistik pragmatika va semiotika bilan uzviy bog‘liq holda rivojlandi. Mashhur amerikalik olim Edvard Tvitchell Hall proxemika nazariyasini ishlab chiqib, muloqotda fazoviy masofa muhim ma’no yuklashini isbotladi: “Space speaks as loudly as words in human interaction”.

Hallning fikriga ko‘ra, muloqotdagi masofa ijtimoiy munosabatlar, madaniyat va psixologik holat bilan bevosita bog‘liqdir.

Shuningdek, Pol Ekman mimika orqali ifodalanadigan universal hissiyotlar mavjudligini tajribaviy yo‘l bilan isbotlagan: “Facial expressions of emotion are universal across cultures”.

Mimika orqali ifodalanadigan universal hissiyotlar mavjud, chunki inson yuz mushaklarining ayrim harakatlari biologik jihatdan umumiy bo‘lib, ular madaniy farqlardan qat’i nazar bir xil asosiy emotsiyalarni ifodalaydi. Quvonch, g‘azab, qo‘rquv, qayg‘u, hayrat va nafrat kabi hissiyotlar yuz ifodalari orqali turli xalqlar vakillari tomonidan o‘xshash tarzda tan olinadi. Bu holat mimikaning til va madaniyat chegaralaridan mustaqil, insoniyatga xos universal kommunikativ vosita ekanini ko‘rsatadi.

O‘zbek tilshunosligida noverbal muloqot masalalari asosan muloqot xulqi, paralingvistik vositalar va nutq madaniyati doirasida o‘rganilgan.

Masalan, Saidumar Muminov o‘zbek muloqot madaniyatida imo-ishoralarning ijtimoiy ahamiyatini tahlil qilib, quyidagicha xulosa qiladi: “O‘zbek nutqiy muloqotida imo-ishora va mimik vositalar verbal nutqni semantik va pragmatik jihatdan to‘ldiradi”.

Shuningdek, Shahnoza Iskandarova o‘z ishlarida noverbal vositalarning milliy-madaniy xususiyatlarini yoritadi: “Noverbal birliklar milliy mentalitet va an’anaviy xulq-atvor bilan chambarchas bog‘liq”.

Noverbal birliklar milliy mentalitet va an’anaviy xulq-atvor bilan chambarchas bog‘liq, chunki imo-ishora, mimika, tana holati va fazoviy masofa kabi belgilar har bir xalqning tarixiy tajribasi, ijtimoiy qadriyatlari va madaniy me’yorlari asosida shakllanadi. Bir madaniyatda hurmat yoki samimiyatni ifodalovchi noverbal harakat boshqa madaniyatda betaraf yoki salbiy ma’no kasb etishi mumkin. Shu bois, noverbal vositalar universallik bilan bir qatorda milliy o‘ziga xoslikni ham aks ettiradi va muloqotning to‘g‘ri talqin qilinishida madaniy kontekstni hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

Pragmatik nuqtayi nazardan, noverbal vositalar nutq maqsadini aniqlashtiradi yoki kuchaytiradi. Britaniyalik olim Jeffri Lich pragmatikani muloqotdagi yashirin ma’nolar bilan bog‘lab, shunday yozadi: “Meaning in communication is often conveyed beyond linguistic form”.

Pragmatik nuqtayi nazardan qaralganda, nutqning haqiqiy ma’nosi faqatgina uning lingvistik shakli bilan emas, balki nutq yuzaga kelgan vaziyat, kommunikativ niyat va muloqot ishtirokchilarining o‘zaro munosabati bilan belgilanadi. Shu jarayonda noverbal vositalar nutq maqsadini aniqlashtiruvchi, to‘ldiruvchi va kuchaytiruvchi muhim pragmatik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Verbal birliklar ko‘pincha ko‘pma’noli yoki kontekstga bog‘liq bo‘lganligi sababli, ularning to‘liq talqini noverbal signallarsiz yetarli darajada anglashilmasligi mumkin.

Noverbal vositalar, avvalo, illokutiv kuchni aniqlashtirish vazifasini bajaradi. Masalan, buyruq, iltimos, maslahat yoki ogohlantirish kabi nutq aktlari grammatik jihatdan o‘xshash shaklda ifodalangan bo‘lsa-da, ularning pragmatik maqsadi ovoz ohangi, yuz ifodasi va tana harakati orqali aniq belgilanadi. Jumladan, yumshoq ohang va ochiq mimika bilan aytilgan gap iltimos sifatida qabul qilinsa, keskin ohang va qat’iy tana holati bilan ifodalangan ayni jumla buyruq sifatida talqin qilinadi. Bu holat noverbal vositalarning nutq aktlari nazariyasida muhim differensial belgi ekanini ko‘rsatadi.

Ikkinchidan, noverbal vositalar nutqning perlokutiv ta’sirini kuchaytiradi, ya’ni tinglovchida yuzaga keladigan hissiy va psixologik reaksiyani boshqaradi. Masalan, nutq davomida ko‘z bilan

bevosita aloqa o‘rnatish, mos jestlardan foydalanish va ohangni vaziyatga moslashtirish auditoriya e’tiborini oshiradi, ishontirish darajasini kuchaytiradi va nutqning ta’sirchanligini sezilarli darajada oshiradi. Pragmatik jihatdan bu holat kommunikativ samaradorlikning oshishiga olib keladi.

Uchinchidan, noverbal vositalar implikativ ma’nolarni ochib berish funksiyasini bajaradi. Ko‘plab kommunikativ vaziyatlarda so‘z orqali aytilmagan, biroq nazarda tutilgan ma’no aynan noverbal belgilar orqali anglashiladi. Masalan, kinoya, istehzo yoki norozilik ko‘pincha verbal jihatdan neytral bo‘lgan gaplar orqali ifodalanadi, biroq mimika va ovoz ohangi bu gapning haqiqiy pragmatik maqsadini ochib beradi. Shu bois, noverbal vositalar pragmatik inferensiya jarayonida muhim signal vazifasini bajaradi.

To‘rtinchidan, noverbal vositalar nutqning ijtimoiy va madaniy mosligini ta’minlaydi. Pragmatik jihatdan to‘g‘ri muloqot faqat grammatik jihatdan to‘g‘ri bo‘lish bilangina emas, balki ijtimoiy me’yorlarga mos kelishi bilan ham belgilanadi. Masalan, yoshi katta yoki yuqori maqomdagi shaxs bilan muloqotda tana holati, ko‘z qarashi va masofa saqlash kabi noverbal elementlar nutq maqsadining hurmat, itoat yoki muloyimlikka yo‘naltirilganini aniqlashtiradi. Bu holat noverbal vositalarning sotsio-pragmatik ahamiyatini yaqqol namoyon etadi.

Xulosa qilib aytganda, pragmatik nuqtayi nazardan noverbal vositalar nutqning yashirin maqsadini aniqlash, illokutiv kuchni belgilash, perlokutiv ta’sirni kuchaytirish va kommunikativ muvaffaqiyatni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Shu bois, noverbal muloqotni pragmatik tahlildan chetda qoldirish nutqning haqiqiy mazmunini to‘liq anglashga to‘sqinlik qiladi va kommunikatsiya jarayonining samaradorligini pasaytiradi.

O‘zbek tadqiqotchisi Zarifa Nizomova esa quyidagicha ta’kidlaydi: “Noverbal vositalar muloqotda hissiy fonni yaratish orqali nutq ta’sirchanligini oshiradi”1.

Noverbal vositalar muloqot jarayonida hissiy fonni yaratish va boshqarish orqali nutqning ta’sirchanligini sezilarli darajada oshiradi. Hissiy fon deganda kommunikatsiya davomida yuzaga keladigan umumiy emotsional muhit - ishonch, samimiyat, keskinlik, xotirjamlik yoki befarqlik kabi holatlar tushuniladi. Aynan shu emotsional muhit nutqning qabul qilinish darajasi va tinglovchining unga bo‘lgan munosabatini belgilaydi. Verbal birliklar axborotning mazmuniy tomonini ifodalasa, noverbal vositalar ushbu mazmunning hissiy rangini shakllantiradi.

Avvalo, mimika va yuz ifodalari hissiy fonning asosiy tashuvchilaridan biri hisoblanadi. Yuzdagi tabassum, qoshlarning harakati, ko‘z qarashi kabi belgilar nutq mazmuniga mos kelganida, tinglovchida ijobiy emotsional holat yuzaga keladi va nutq ishonchliroq qabul qilinadi. Aksincha, so‘z mazmuni bilan noverbal ifodaning nomuvofiqligi hissiy dissonansni keltirib chiqarib, nutqning ta’sirchanligini pasaytiradi. Shu jihatdan, noverbal vositalar emotsional uyg‘unlikni ta’minlovchi mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Ikkinchidan, ovoz ohangi, tembri va nutq tezligi hissiy fonni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, sokin va barqaror ohang tinchlantiruvchi hissiy muhit yaratib, axborotni mantiqiy va ishonchli tarzda yetkazishga xizmat qiladi. Tezkor va ko‘tarinki ohang esa hayajon, shoshilinchlik yoki rag‘batlantirish hissini uyg‘otib, nutqning emotsional kuchini oshiradi. Bu holat psixolingvistika nuqtayi nazaridan tinglovchining emotsional holati nutq mazmunini qabul qilish jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatishini isbotlaydi.

Uchinchidan, jest va tana harakatlari hissiy fonni vizual jihatdan mustahkamlaydi. Maqsadga muvofiq qo‘l harakatlari, ochiq tana holati va muloqot davomida ko‘z bilan aloqani saqlash nutqni samimiy va ishonarli ko‘rsatadi. Bunday noverbal belgilar tinglovchida nutq sohibiga nisbatan ijobiy emotsional munosabat shakllantirib, nutqning perlokutiv ta’sirini kuchaytiradi. Natijada nutq nafaqat eshitiladi, balki emotsional jihatdan his qilinadi.

To‘rtinchidan, noverbal vositalar muloqotdagi emotsional fon orqali ijtimoiy yaqinlik va empatiya hissini shakllantiradi. Tinglovchining hissiy holatiga mos mimika yoki tana harakati bilan javob berish kommunikativ hamdardlikni yuzaga keltirib, muloqotni yanada samarali qiladi. Bu jarayonda noverbal belgilar nutqning hissiy rezonansini ta’minlaydi va uning ta’sir doirasini kengaytiradi.

[1] Nizomova Z. *Paralingvistik vositalarning nutqdagi o‘rni*. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2020. – 37-bet

Xulosa qilib aytganda, noverbal vositalar muloqotda hissiy fonni yaratish orqali nutqning emotsional rang-barangligini oshiradi, tinglovchining psixologik holatiga ta’sir ko‘rsatadi va axborotning yanada samarali qabul qilinishiga xizmat qiladi. Shu bois, noverbal belgilar nutq ta’sirchanligini kuchaytiruvchi muhim pragmatik va psixolingvistik omil sifatida baholanishi lozim.

Mazkur tadqiqot natijalari noverbal muloqot insonlararo kommunikatsiyaning ajralmas va muhim tarkibiy qismi ekanini yana bir bor tasdiqlaydi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, noverbal vositalar - mimika, jest, tana harakati, ovoz ohangi, fazoviy masofa va vizual belgilar - nafaqat verbal nutqni to‘ldiradi, balki ko‘plab holatlarda uning mazmunini aniqlashtiradi, kuchaytiradi yoki hatto mustaqil kommunikativ birlik sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, hissiy holat, munosabat darajasi, ijtimoiy maqom va madaniy kontekstni ifodalashda noverbal vositalarning ahamiyati beqiyosdir.

O‘zbek va xorijiy olimlar qarashlarining qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, noverbal muloqot universal xususiyatlarga ega bo‘lishi bilan birga, milliy-madaniy o‘ziga xosliklarni ham aks ettiradi. Xususan, o‘zbek muloqot madaniyatida imo-ishora, tana holati va yuz ifodalari ijtimoiy hurmat, kamtarlik, yoshi va maqomni inobatga olish kabi qadriyatlar bilan uzviy bog‘langan. Bu esa noverbal birliklarni faqat lingvistik emas, balki sotsiomadaniy hodisa sifatida o‘rganish zaruratini yuzaga keltiradi.

Tadqiqot shuni ham ko‘rsatdiki, noverbal muloqot pragmatik jihatdan nutq maqsadini amalga oshirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. U kommunikativ niyatni yashirin yoki bilvosita tarzda yetkazish, implikativ ma’nolarni anglash va nutqning ta’sirchanligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu jihatdan, noverbal vositalarni o‘rganish pragmalingvistika, diskurs tahlili va nutq aktlari nazariyasi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Zamonaviy raqamli va internet muloqoti sharoitida noverbal vositalarning yangi shakllari - emoji, emotikonlar, tinish belgilarining kombinatsiyalari, grafik belgilar - yuzaga kelib, klassik noverbal birliklarning funksional davomchisi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu holat noverbal muloqotni an’anaviy yuzma-yuz muloqot doirasidan chiqib, virtual kommunikatsiya muhitida ham faol ishlayotgan ko‘p qirrali tizim sifatida tadqiq etishni taqozo etadi.

Umuman olganda, noverbal muloqotning ahamiyati va o‘rni nafaqat nazariy tilshunoslik, balki amaliy sohalar - ta’lim, tarjimashunoslik, psixologiya, diplomatiya, ommaviy axborot vositalari va internet kommunikatsiyasida ham katta ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, kelgusidagi tadqiqotlarda noverbal vositalarni korpus lingvistikasi, multimodal diskurs tahlili va sun’iy intellekt asosidagi muloqot modellari doirasida o‘rganish istiqbolli yo‘nalishlardan biri sifatida baholanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Ray Birdwhistell, Kinesics and Context. – Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1970. – p. 82
2. Edward Twitchell Hall, The Hidden Dimension. – New York: Doubleday, 1966. – p. 3
3. Paul Ekman, Emotion in the Human Face. – Cambridge: Cambridge University Press, 1982. – p. 45
4. Mo‘minov S., Muloqot xulqi va nutq madaniyati. – Toshkent: Fan, 2012. – 64-bet
5. Iskandarova Sh., O‘zbek muloqotining pragmatik xususiyatlari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018. – 91-bet
6. Geoffrey Leech, Principles of Pragmatics. – London: Longman, 1983. – p. 15
7. Nizomova Z., Paralingvistik vositalarning nutqdagi o‘rni. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2020. – 37-bet

Axmatova Zilola Egamkulovna
Oriental universiteti Uzluksiz ta'lim pedagogikasi kafedrasi o'qituvchisi
E-mail: zilolaaxmatova573@gmail.com

EMOTSIONAL INTELLEKTNI O'LCHASH METODIKALARINI MOSLASHTIRISH: MSCEIT VA BAR-ON EQ-I PSIXOMETRIK TAHLILI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada emotsional intellektni o'lchashda keng qo'llaniladigan MSCEIT testi va Bar-On EQ-i so'rovnomasini madaniy-milliy muhitga moslashtirish hamda ularning psixometrik xususiyatlarini tekshirish natijalari bayon etiladi. Tadqiqot davomida metodikalarning ishonchliligi, validligi va normativ ko'rsatkichlari aniqlangan. Olingan natijalar ushbu diagnostik vositalarning ilmiy va amaliy tadqiqotlarda qo'llash uchun yaroqli ekanini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *emotsional intellekt, MSCEIT, Bar-On EQ-i, psixometrik tekshiruv, ishonchlilik, validlik.*

ADAPTATION OF EMOTIONAL INTELLIGENCE MEASUREMENT METHODS: PSYCHOMETRIC ANALYSIS OF MSCEIT AND BAR-ON EQ-I

Abstract. *This article presents the results of adapting the widely used MSCEIT test and Bar-On EQ-i questionnaire to the cultural and national environment and examining their psychometric properties. During the study, the reliability, validity, and normative indicators of the methods were determined. The results obtained indicate that these diagnostic tools are suitable for use in scientific and applied research.*

Key words: *emotional intelligence, MSCEIT, Bar-On EQ-i, psychometric testing, reliability, validity.*

АДАПТАЦИЯ МЕТОДОВ ИЗМЕРЕНИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА: ПСИХОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ MSCEIT И BAR-ON EQ-I

Аннотация. *В данной статье представлены результаты адаптации широко используемого теста MSCEIT и опросника Bar-On EQ-i к культурной и национальной среде, а также изучены их психометрические свойства. В ходе исследования были определены показатели надежности, валидности и нормативные показатели методов. Полученные результаты свидетельствуют о пригодности данных диагностических инструментов для использования в научных и прикладных исследованиях.*

Ключевые слова: *эмоциональный интеллект, MSCEIT, Bar-On EQ-i, психометрическое тестирование, надежность, валидность.*

Kirish. Zamonaviy psixologik tadqiqotlarda emotsional intellekt (EI) shaxsning ijtimoiy moslashuvi, kasbiy samaradorligi va psixologik farovonligini belgilovchi muhim omil sifatida e'tirof etilmoqda. EI ni aniqlashda turli nazariy yondashuvlarga asoslangan diagnostik metodikalar ishlab chiqilgan bo'lib, ularning eng keng tarqalganlari MSCEIT testi va Bar-On EQ-i so'rovnomasidir. Ushbu metodikalarni milliy-madaniy muhitga moslashtirish va psixometrik jihatdan tekshirish ilmiy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

Maqolaning maqsadi - MSCEIT va Bar-On EQ-i metodikalarini moslashtirish jarayoni hamda ularning ishonchlilik va validlik ko'rsatkichlarini tahlil qilishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodlar.

Tadqiqotda psixodiagnostik testlash, statistik tahlil, korrelyatsion va kontrast guruhlar usullari qo'llanildi. Respondentlar tanlovi 18–38 yosh oralig'idagi shaxslarni qamrab oldi. Ma'lumotlarni qayta ishlashda ishonchlilikni aniqlash uchun Spearman–Brown koeffitsienti, validlikni baholashda esa kriterial va konstruktiv yondashuvlardan foydalanildi.

MSCEIT testi Mayer–Salovey–Caruso emotsional intellekt modeliga asoslangan bo‘lib, emotsiyalarni idrok etish, tushunish, boshqarish va ulardan fikrlash jarayonida foydalanish qobiliyatlarini baholaydi. Moslashtirish jarayonida bandlar tahlili o‘tkazilib, yakuniy 141 banddan iborat variant shakllantirildi.

Ichki bir xillik ko‘rsatkichlari 0,743–0,824 oralig‘ida bo‘lib, umumiy ball bo‘yicha 0,740 ni tashkil etdi. Retest ishonchliligi 3 oylik intervalda 0,633 ga teng bo‘ldi. Kriterial validlik kontrast guruhlar usuli orqali tasdiqlandi ($p<0,01$). Konstruktiv validlik shaxs omillarini o‘lchovchi 16 PF testi bilan o‘zaro bog‘liqlik asosida aniqlanib, metodikaning nazariy modelga mosligini ko‘rsatdi. Shu bilan birgalikda Bar-On EQ-i so‘rovnomasining psixometrik xususiyatlari ham aniqlanib, so‘rovnoma bandlari modifikatsiya qilindi. Metodika 15 ta subshkalani qamrab olgan bo‘lib, moslashtirish jarayonida bandlar tahlili asosida yakuniy shakl saqlab qolindi. Subshkalalarning aksariyatida ichki bir xillik ko‘rsatkichlari 0,70 dan yuqori bo‘ldi. Retest ishonchliligi qoniqarli darajada ekanligi aniqlandi. Kriterial validlik yosh guruhlari o‘rtasidagi farqlar asosida tasdiqlandi ($p<0,01$). Konstruktiv validlik esa 16 PF shkalalari bilan olingan korrelyatsiyalar orqali baholandi.

Dastlab, so‘rovnoma Bar On tomonidan ijobiy psixologik barqarorlik determinantlari nazariyasini empirik tekshirish uchun yaratilgan. Bir necha yil davomida hissiy intellektning (atrof-muhit talablariga muvaffaqiyatli moslasha olish qobiliyatiga ta’sir qiluvchi no-kognitiv ko‘nikmalar va malakalar) va psixologik barqarorlikning (emosional salomatlik) murakkab o‘zaro bog‘langan tushunchalarini operatsion tavsiflash va miqdoriy baholash uchun nazariy jihatdan ishonchli va ko‘p omilli yondashuv ishlab chiqildi.

Umumiy metodologik yondashuv quyidagi to‘rt bosqichni o‘z ichiga oladi [5]:

Bar Onning amaliy tajribasi va klinik psixologiya bo‘yicha adabiyot tahliliga asoslangan holda o‘zini samarali, muvaffaqiyatli namoyon etish va ijobiy emosional sog‘lomlikni belgilovchi asosiy kalit omillarni aniqlash va mantiqiy guruhlash.

Ushbu omillarni operatsion ta’riflash.

Ushbu omillarni o‘lchash uchun so‘rovnoma tuzish.

So‘rovnoma faktor tuzilmasi, ishonchliligi va haqiqiyligiga asoslangan holda natijalarni sharhlash va ularni ushbu yondashuv doirasida qo‘llash.

Natijada muallif tomonidan 133 ta savoldan iborat yakuniy versiya yaratilgan.

Bar-On EQ-i quyidagi tarkibga ega:

15 ta subshkala

3 ta qo‘shimcha shkalalar so‘rovnomaning ishonchliligini baholash uchun: “O‘zini ijobiyroq ko‘rsatishga intilish”,“O‘zini aslidan yomonroq ko‘rsatishga intilish”, “Mos kelmaslik indeksi” ham keltirilgan. So‘rovnomaning qisqartirilgan versiyasi (126 ta savol) mavjud bo‘lib, unda “O‘zini aslidan yomonroq ko‘rsatishga intilish” shkalasi olib tashlangan.

Bar-On so‘rovnomasining hissiy intellekt faktor komponentlari va subshkalalari

1.O‘zini hurmat qilish – o‘zini hurmat qilish va qabul qila olish qobiliyati. O‘zini qabul qilish deganda ijobiy va salbiy jihatlarni, jumladan cheklov va imkoniyatlarni tan olish tushuniladi. Bu komponent ichki xavfsizlik, ichki kuch, o‘ziga ishonch va o‘z imkoniyatiga ishonch bilan bog‘liq. Qarama-qarshi qutbda o‘zini yetarli emasdek, ojiz va nomunosib his qilish turadi.

2.Emosional o‘zini anglash – o‘z hissiyotlarini anglash, ularni ajrata bilish va hissiyot sabablarini tushunish qobiliyati. Bu qobiliyatning yetishmasligi aleksitimiya ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Ya’ni aleksitimiya –bu shaxsda o‘z hissiyotlarini anglashi biroq so‘z bilan ifodalash qobiliyatining yetishmasligidir.

3.Assertivlik quyidagi 3 asosiy komponentdan iborat:

-hissiyotlarini ifoda eta olish,

-fikrini ochiq ayta olish (xavf yoki hissiy qiyinchiliklarga qaramasdan o‘z fikrini ifoda qilish va qat’iy pozitsiyani egallash),

-huquqlarini himoya qilish (masalan, boshqalar ta’siriga tushmaslik).Assertiv odamlarda tajovuz va zo‘ravonliksiz ochiq muloqotga kirishish qobiliyati mavjud.

4.Mustaqillik – mustaqil fikrlash va harakat qilish, hissiy qaramlikdan xoli bo‘lish. Mustaqil odamlar muhim qarorlarni rejalashtirishda va qabul qilishda o‘zlariga tayanadilar. Biroq ular

boshqalarning fikrini hisobga oladilar va maslahat so‘rashi mumkin, lekin hissiy jihatdan qaram aloqalardan qochadilar.

5.O‘zini namoyon qilish – qobiliyat, imkoniyat va iste’dodlarni maksimal rivojlantirishga intilish jarayoni. Bu o‘z ichiga maqsad qo‘yish, yuqori motivatsiya va ishtiyoqni oladi.

Shaxslararo (interpersonal) tarkibiy qismiga quyidagilarni keltirish mumkin.

Empatiya (EM) – boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunish, qadrlash va anglash qobiliyati. Bu – odamlar nimani, qanday va nima uchun his qilayotganiga "emosional moslashish" holatidir.

Ijtimoiy mas’uliyat (RE) – muayyan ijtimoiy guruh a’zosi sifatida hamkorlikda ishlash, yordam berish va hamjihatlikda bo‘lish qobiliyati. Bu shaxsiy foyda bo‘lmasa ham, mas’uliyatli harakat qilishni anglatadi. Bu komponent boshqalar bilan va ular uchun harakat qilish, ularni qabul qilish, ijtimoiy qoidalar va me’yorlarga rioya qilish qobiliyati bilan bog‘liq.

Shaxslararo munosabatlar (IR) – yaqin, o‘zaro qoniqarli munosabatlarni o‘rnatish va saqlab qolish qobiliyati. Bu komponent nafaqat boshqalar bilan do‘stona aloqalar o‘rnatishga bo‘lgan istak bilan, balki bunday munosabatlar jarayonida o‘zini qulay his qila olish va ijobiy ijtimoiy kutishlar bilan bog‘liq.

Moslashuvchanlik vaziyatni real va xolis baholay olish qobiliyati. U qaror va xulosalarni ob’ektiv dalillarga tayangan holda chiqarish, ortiqcha xayollardan qochish hamda muammolarni hal qilish imkoniyatlariga e’tibor qaratishni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, sharoit va vaziyat o‘zgarganda hissiyotlar, fikrlash va xatti-harakatlarni mos ravishda boshqara olish qobiliyati. Bu yangi va kutilmagan vaziyatlarga tez moslashish hamda turli g‘oyalarga ochiq bo‘lishni anglatadi.

Metodika tarkibida stressni boshqarish qobiliyatini aniqlash bo’yicha ham shkalalar mavjud. Ular quyidagilar:

Stressga chidamlilik (ST) – salbiy holatlar va stressli vaziyatlarga faol va ijobiy tarzda qarshi turish qobiliyati. Bu qobiliyat stress bilan kurashishning ma'lum bir yo‘lini tanlash, yangi tajribalarga nisbatan optimistik munosabatda bo‘lish, va stressli holatda xotirjamlik va o‘zini boshqara olishga asoslanadi.

Impulslarni nazorat qilish (IC) – impuls, xohish yoki vasvasaga berilmaslik qobiliyati. Bu omil tajovuzkor impulslarni qabul qila olish, xotirjam bo‘lish, tajovuzkorlik, dushmanlik va mas’uliyatsiz xatti-harakatlarni nazorat qila olish bilan bog‘liq. Shuningdek, umumiy kayfiyat kayfiyatni aniqlovchi shkala

Optimism (OP) – hatto og‘ir holatlarda ham ijobiy kayfiyatni saqlay olish qobiliyati.

Baxt (HA) – hayotdan mamnun bo‘lish, o‘zidan va boshqalardan rozi bo‘lish, quvnoq bo‘la olish. Baxtlilik umumiy emotsional intellekt va emotsional faoliyat darajasining ko‘rsatkichidir.

Qo‘shimcha subshkala "O‘zini ijobiy ko‘rsatishga intilish" (PI) va "O‘zini yomonroq ko‘rsatishga intilish" (N1) – bu shkalalar respondentning o‘zini yaxshi yoki yomon ko‘rsatishga urinishini aniqlashga yordam beradi. Agar ushbu subshkalardan har birida ballar 30 dan oshsa, natijalar haqiqiy emas deb hisoblanadi. Bunday balning yuqoriligi o‘zini qadrlash va o‘zini qabul qilishda muammolar borligidan darak berishi mumkin.

Mos kelmaslik indeksi (II) – respondent javoblarida zidliklar bor-yo‘qligini aniqlaydi va ularning taxminiy javob berganligini ko‘rsatadi. Bu indeks testdagi o‘xshash 10 juft savoldagi javoblar orasidagi ball farqlari yig‘indisidan iborat. Agar bu farqlar yig‘indisi 12 balldan oshsa, natijalar haqiqiy emas deb hisoblanadi. Yuqori indeks – bu shaxsda o‘ziga ishonchsizlik, qat’iyatsizlik va past refleksivlik borligini ko‘rsatishi mumkin.

15 asosiy subshkala bo‘yicha ballar yig‘indisi EQ (emotsional intellekt koeffitsienti) deb nomlanadigan standart ko‘rsatkichga (IQ kabi) o‘tkaziladi. Taxminan 2/3 respondentlarning EQ darajasi 85 dan 115 gacha bo‘ladi.

EQ 130 dan yuqori – juda yuqori
120–129 – yuqori
110–119 – o‘rtacha yuqoriroq
90–109 – o‘rtacha
80–89 – past
70–79 – juda past

70 dan past – nihoyatda past

Psixometrik tekshiruv tartibi

Bar-On EQ-i testining psixometrik tekshiruvi MSCEIT tekshiruvi bilan bir xil asosda o‘tkazilgan.

Statistik tekshiruvning birinchi bosqichi – har bir savolning diagnostik qobiliyatini baholashdan iborat edi. Bu bosqichda 18 dan 50 yoshgacha bo‘lgan 200 nafar respondentning natijalari ishlatilgan.

Har bir test bandi bir nechta psixometrik ko‘rsatkichlar bo‘yicha tahlil qilindi. Hisob-kitoblardan so‘ng statistik jihatdan yaroqsiz deb topilgan 57 band ro‘yxatdan chiqarildi.

Shundan so‘ng, 133 banddan iborat yakuniy tahrir tayyorlandi va yana bir bor 127 nafar respondent ishtirokida statistika asosida tekshirildi.

Ishonchlilikni tekshirish

-Ichki bir xillikni aniqlash uchun Spearman-Brown formulasi asosida test ikkiga bo‘linib, 18–38 yosh oralig‘idagi 200 kishi ishtirokida o‘tkazilgan.

-Barqarorlikni (moslikni) aniqlash uchun esa, bir xil respondentlarga test 3 oy farq bilan ikki marta berilgan. Bu bosqichda 70 respondent qatnashgan. Birinchi va ikkinchi test natijalari o‘rtasidagi korrelyatsiya Pearsonga tegishli chiziqli bog’liqlik formulasi yordamida hisoblangan.

1-jadval.

Bar-On EQ-i so‘rovnomasining alohida subshkalari bo‘yicha ichki muvofiqlik ishonchliligi

Subshkala nomi	Sperman-Braun koeffitsienti
ES Emotsional onglilik	0,80
AS O‘z fikrini himoya qilish (asser-tivlik)	0,810
SR O‘ziga hurmat	0,899
IN Mustaqillik	0,789
SA O‘zini amalga oshirish	0,820
EM Empatiya	0,752
RE Ijtimoiy mas'uliyat	0,700
IR Shaxslararo munosabatlar	0,768
RT Realistik qarash	0,746
FL Moslashuvchanlik	0,770
PS Muammoni hal qilish	0,794
ST Stressga chidamlilik	0,843
IC Impulslarni nazorat qilish	0,785
OP Optimizm	0,822
IR Shaxslararo munosabatlar	0,768
HA Baxt	0,813

2-jadval.

Bar-On EQ-i so‘rovnomasining alohida subshkalari bo‘yicha takroriy test ishonchliligi

Subshkala nomi	Sperman-Braun koeffitsienti
ES Emotsional onglilik	0,682
AS O‘z fikrini himoya qilish	0,674
SR O‘ziga hurmat	0,762
IN Mustaqillik	0,722
SA O‘zini namoyon qilish	0,800
EM Empatiya	0,603
RE Ijtimoiy mas'uliyat	0,755
IR Shaxslararo munosabatlar	0,772
RT Realistik qarash	0,613

FL Moslashuvchanlik	0,806
PS Muammoni hal qilish	0,821
ST Stressga chidamlilik	0,562
IC Impulslarni nazorat qilish	0,705
OP Optimizm	0,635
HA Baxt	0,770

Validlikni baholash

Kriterial validlikni tekshirish kontrast guruhlar usuli orqali amalga oshirildi. Validlik mezoni sifatida ishtirokchilarning yosh farqlari tanlandi. Birinchi guruhga 18–29 yoshdagi ishtirokchilar, ikkinchisiga esa 30–40 yoshdagilar kiritildi. Ikkita tanlama o‘rtasidagi farqning statistik ahamiyati Studentning t-kriteriy yordamida baholandi. Birinchi tanlamani 100 ishtirokchi, ikkinchisini esa 111 ishtirokchi tashkil etdi. Natijada ikki tanlama o‘rtasidagi umumiy ballarning o‘rtacha qiymatidagi farqlar 1% ahamiyat darajasida ishonchli deb topildi. Konstruktiv validlikni baholash uchun test tarkibini 16 PF (16 shaxsiy omil) so‘rovnomasi bilan taqqoslash usuli qo‘llanildi. Ushbu tekshiruvda 18–40 yoshdagi 102 ishtirokchi qatnashdi. Korrelatsiya koeffitsienti sifatida Pirsonga asoslangan chiziqli korrelatsiya hisoblandi. (Natijalar 3-jadvalda keltirilgan.)

3-jadval.

Bar-On EQ-i so‘rovnomasining alohida subshkalari bo‘yicha yosh farqlari ahamiyati (Guruh 1: 18–29 yosh, Guruh 2: 30–40 yosh)

Subshkala nomi	Guruh 1 σ	Guruh 1 M	Guruh 2 σ	Guruh 2 M	t-kriteriy qiymati	α (%)
AS O‘z fikrini himoya qilish	-	-	-	*	-	-
SR O‘ziga hurmat	4.6	32.3	4.0	34.9	2.903	1
ES Emotsional onglilik	6.7	25.7	6.3	28.6	2.687	
IN Mustaqillik	5.3	24.2	6.7	27.3	3.060	1
SA O‘zini amalga oshirish	5.7	33.1	5.2	35.6	2.905	1
EM Empatiya	6.2	29.6	6.9	32.7	3.254	1
RE Ijtimoiy mas'uliyat	3.6	35.9	4.3	38.1	2.855	1
IR Shaxslararo munosabatlar	-	-	-	-	-	-
RT Realistik qarash	7.2	34.8	6.5	37.2	3.002	1
FL Moslashuvchanlik	6.8	26.2	7.0	28.8	2.741	1
PS Muammoni hal qilish	5.5	28.8	4.3	31.9	2.887	1
ST Stressga chidamlilik	4.6	29.5	5.3	32.0	2.903	1
IC Impulslarni nazorat qilish	6.3	28.9	6.8	31.8	3.111	1
OP Optimizm	6.7	30.0	6.1	32.3	2.705	1
HA Baxt	-	-	-	-	-	-
Umumiy ball	9.0	467.6	8.5	472.3	3.102	1

Bar-On EQ-i so‘rovnomasining asosiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha taxminiy normativlar 18 yoshdan 38 yoshgacha bo‘lgan 210 kishilik tanlovda hisoblab chiqilgan. Taqqoslash natijalari

normal taqsimotga mosligini aniqlash uchun χ^2 (chi-kvadrat) mezoni asosida tekshirildi. Standart ko‘rsatkichlar shkalasi sifatida IQ shkalasi (M=100, SD=15) qo‘llanilgan.

Bar-On EQ-i so‘rovnomasining mualliflik huquqlarini saqlash maqsadida, biz test materialining faqat modifikatsiyalangan versiyasini, kalitlar va ma’lumotlarni qayta ishlash bo‘yicha yo‘riqnomasiz chop etamiz. Shuni qayd etish kerakki, tadqiqotda asl Bar-On EQ-i so‘rovnomasidan emas, balki milliy va etnik xususiyatlarga moslashtirilgan modifikatsiyalangan versiyadan foydalanilgan.

Muhokama. Olingan natijalar MSCEIT va Bar-On EQ-i metodikalari emotsional intellektni baholashda turli nazariy yondashuvlarni ifodalashini ko‘rsatadi. MSCEIT EI ni aqliy qobiliyat sifatida, Bar-On EQ-i esa shaxsning emotsional-ijtimoiy kompetensiyalari majmui sifatida o‘lchaydi. MSCEIT testi va BarOn EQ-i so‘rovnomasi turlicha EI modellariga asoslangan: MSCEIT qobiliyat modeli asosida yaratilgan, ya’ni EI - bu aql-idrok salohiyati sifatida tushuniladi va shu sababli bu test an’anaviy intellekt testlariga o‘xshash. Bar-On konsepsiyasiga asoslangan BarOn EQ-i so‘rovnomasi esa shaxsiy xususiyat sifatida EI ni baholaydi va o‘z-o‘zini baholashga asoslanadi. Adabiyotlarda bu ikki metodika orasidagi korrelyatsiya past yoki o‘rtacha darajada ekani qayd etilgan (r = 0.25) [4]. Shunday qilib, biri obyektiv EQ darajasini, ikkinchisi esa subyektiv bahoni o‘lchaydi, va bu ikki usul bir-birini to‘ldiruvchi deb qaralishi mumkin.

BarOn EQ-i so‘rovnomasi 1996-yilda klinik psixolog, doktor R. Bar-On tomonidan yaratilgan. R. Bar-Onning fikriga ko‘ra, emotsional intellekt - bu «atrof-muhit talablari va bosimlariga muvaffaqiyatli moslasha olish qobiliyatiga ta’sir qiluvchi kognitiv bo‘lmagan qobiliyatlar va ko‘nikmalar majmuasi» [6, 378-bet].

BarOn EQ-i so‘rovnomasi emotsional intellektning beshta asosiy komponentini o‘lchaydi:

Shaxsiy (intrapersonal): o‘z-o‘zini hurmat qilish,

Shaxslararo (interpersonal): hamdardlik, mas’uliyat,

Moslashuvchanlik: o‘z his-tuyg‘ularini o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashtira olish qobiliyati,

Boshqaruv: stressga chidamlilik,

Umumiy kayfiyat: optimizm darajasi.

Har ikkala metodikaning psixometrik ko‘rsatkichlari yetarli darajada bo‘lib, ularni ilmiy tadqiqotlarda kompleks qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda tadqiqot natijalari MSCEIT testi va Bar-On EQ-i so‘rovnomasining moslashtirilgan variantlari ishonchli va valid diagnostik vositalar ekanini tasdiqladi. Ushbu metodikalar emotsional intellektni chuqur va ko‘p qirrali o‘rganishda, shuningdek, ta’lim, boshqaruv va psixologik maslahat amaliyotida samarali qo‘llanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1.Z.Nishonova, D. Qarshiyeva. Eksperimental psixologiya. T., «Fan va texnologiya», 2007

2.Mayer J.D., Salovey P., Caruso D.R. Emotional Intelligence: Theory, Findings, and Implications.

3.Kettell R.B. Sixteen Personality Factor Questionnaire (16 PF).

4.Рейковский Я. Экспериментальная психология эмоций / Пер. с польск. М.: Просвещение, 1979. 463 с.

5.Bar-On R. Emotional and social intelligence: Insights from the Emotional Quotient Inventory 11R. Bar-On. J.D.A. Parker (eds.). Handbook of emotional intelligence. San Francisco: Jossey-Bass, 2000. P. 363-388.

6.Bar-On R. BarOn Emotional Quotient Inventory (EQ-i): A Measure of Emotional Intelligence. Technical Manual. Toronto. Canada: Multi-Health Systems. 2004.

7.Mayer, J.D., Salovey P. The intelligence of emotional intelligence. Intelligence, Vol. 17, 1993.

8.Mayer, J., Salovey P., Caruso D. Competing models of emotional intelligence. // Handbook of human intelligence. Sternberg R.J. (Ed.). - N.Y.: Cambridge University Press, 2000.

Abdullayeva Arofatxon Abduvaxobovna
Andijon davlat pedagogika instituti dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: arofatabdullayeva95@gmail.com

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ORQALI TALABALARDA AXBOROT TAHDIDLARIGA QARSHI BARQARORLIKNI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya. *Mazkur maqolada zamonaviy ta’lim muhitida talabalarda axborot tahdidlariga qarshi barqarorlikni shakllantirish masalasi pedagogik texnologiyalar asosida ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Globallashuv va raqamlashtirish jarayonlari jadallashib borayotgan sharoitda yoshlarning turli axborot xurujlari, manipulyativ kontent va destruktiv g‘oyalarga duch kelish ehtimoli ortib bormoqda. Shu sababli ta’lim tizimida axborot xavfsizligi madaniyatini rivojlantirish dolzarb pedagogik vazifaga aylanmoqda. Tadqiqotda axborot tahdidlariga qarshi barqarorlik talabaning tanqidiy fikrlash, axborotni tahlil qilish, manbalarni farqlash hamda psixologik mustahkamlik kompetensiyalari majmui sifatida talqin qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *pedagogik texnologiyalar, axborot tahdidlari, axborot xavfsizligi, tanqidiy fikrlash, raqamli savodxonlik, talaba barqarorligi, ta’lim innovatsiyalari.*

ФОРМИРОВАНИЕ УСТОЙЧИВОСТИ СТУДЕНТОВ К ИНФОРМАЦИОННЫМ УГРОЗАМ ЧЕРЕЗ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ

Аннотация. *В статье научно рассматривается проблема формирования устойчивости студентов к информационным угрозам на основе педагогических технологий в условиях современной образовательной среды. В эпоху цифровизации и глобализации возрастает воздействие манипулятивного контента, дезинформации и деструктивных идей на молодежь, что требует системного педагогического подхода к развитию культуры информационной безопасности.*

Информационная устойчивость интерпретируется как совокупность критического мышления, аналитических умений, навыков оценки источников и психологической стабильности личности.

Ключевые слова: *педагогические технологии, информационные угрозы, информационная безопасность, критическое мышление, цифровая грамотность, устойчивость студентов, образовательные инновации.*

DEVELOPING STUDENTS’ RESILIENCE TO INFORMATION THREATS THROUGH PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES

Abstract. *This article examines the formation of students’ resilience to information threats through pedagogical technologies within the modern educational environment. In the context of rapid digitalization and globalization, young people increasingly encounter manipulative content, misinformation, and destructive narratives, which makes the development of information security culture a critical educational priority. Information resilience is conceptualized as a combination of critical thinking, analytical skills, source evaluation abilities, and psychological stability.*

Key words: *pedagogical technologies, information threats, information security, critical thinking, digital literacy, student resilience, educational innovation.*

Kirish. XXI asrda globallashuv, raqamlashtirish va axborot oqimlarining keskin ortishi oliy ta’lim tizimi oldiga mutlaqo yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Zamonaviy jamiyatda axborot inson faoliyatining barcha sohalariga chuqur singib borar ekan, yoshlarning, ayniqsa talabalarning media makonda mustaqil harakatlana olish, axborotni tanqidiy baholash va turli axborot tahdidlariga qarshi psixologik hamda intellektual barqarorlikni saqlab qolish qobiliyatlari strategik ahamiyat

kasb etmoqda. Bugungi kunda talaba shaxsini nafaqat kasbiy bilimlar bilan qurollantirish, balki uni soxta axborot, manipulyativ kontent, ekstremistik g‘oyalar va raqamli bosimlardan himoyalay oladigan barqaror subyekt sifatida shakllantirish pedagogikaning ustuvor vazifalaridan biriga aylanmoqda.

Axborot muhitining haddan tashqari to‘yinganligi inson psixikasiga jiddiy ta’sir ko‘rsatib, axborot charchoqlari, tashvish, diqqat tarqoqligi kabi holatlarni keltirib chiqarayotgani ilmiy tadqiqotlarda asoslab berilgan. Bawden va Robinson axborot ortiqligi shaxsda kognitiv zo‘riqish hamda qaror qabul qilishdagi qiyinchiliklarni yuzaga keltirishini ta’kidlaydi [1, b.183]. Ayniqsa talabalik davri shaxs shakllanishining muhim bosqichi bo‘lib, bu davrda yoshlarning axborotga nisbatan munosabati, tanqidiy tafakkuri va ijtimoiy pozitsiyasi faol shakllanadi. Shu jihatdan qaralganda, axborot tahdidlariga qarshi barqarorlikni shakllantirish masalasi pedagogik texnologiyalar yordamida tizimli hal etilishi lozim bo‘lgan murakkab jarayondir. Pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonini oldindan loyihalash, o‘quv faoliyatini aniq maqsadlar asosida tashkil etish hamda natijalarni monitoring qilish imkonini beruvchi ilmiy-amaliy mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Ochilov pedagogik texnologiyalarni shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni amalga oshirishning samarali vositasi sifatida baholab, ularning ta’lim sifati va tarbiyaviy ta’sirini oshirishdagi rolini alohida ko‘rsatadi [8, b.41].

Talabalarda axborot tahdidlariga qarshi barqarorlikni shakllantirishda tanqidiy fikrlash muhim kompetensiya hisoblanadi. Facione tanqidiy tafakkurni dalillarni tahlil qilish, mantiqiy xulosa chiqarish va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlari majmui sifatida izohlaydi [2, b.17]. Mazkur kompetensiya talabani passiv axborot iste’molchisi emas, balki faol va ongli subyektga aylantiradi. Raqamli makonning kengayishi bilan birga “raqamli kompetentlik” tushunchasi ham ta’lim amaliyotida muhim o‘rin egallay boshladi. Ilomäki, Kantosalo va Lakkala raqamli kompetentlikni texnologiyalardan samarali foydalanish, axborotni tanqidiy baholash va raqamli muhitda ijtimoiy mas’uliyatli xatti-harakatlarni amalga oshirish qobiliyati sifatida talqin qiladi [4, b.9]. Bu yondashuv talabalarning axborot xavfsizligini ta’minlashda pedagogik texnologiyalarning integrativ ahamiyatini ko‘rsatadi.

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning dunyoqarashi va xulq-atvoriga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Livingstone tadqiqotlarida talabalar raqamli platformalarda ko‘plab xavfli imkoniyatlarga duch kelishi, ammo yetarli media savodxonlik bo‘lmaganda bu tahdidlarni anglash qiyinlashishini ta’kidlaydi [6, b.289]. Smirnova esa raqamli ijtimoiylashuv jarayonida shaxs psixologik himoya mexanizmlarining sustlashishi mumkinligini ko‘rsatib o‘tadi [10, b.42].

Mazkur holatlar pedagogik jarayonda media va axborot savodxonligini shakllantirishni muhim strategik yo‘nalishga aylantiradi. UNESCO media va axborot savodxonligini demokratik jamiyatda faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishning asosi sifatida belgilaydi [11, b.15]. Shuningdek, UNESCOning yangi ijtimoiy shartnoma konsepsiyasida ta’lim insonni tez o‘zgarayotgan dunyoda barqaror yashashga tayyorlashi zarurligi qayd etilgan [12, b.27]. Talaba shaxsining shakllanishida faoliyatning yetakchi roli Leontyev tomonidan ilmiy asoslangan bo‘lib, u shaxs ongining rivoji bevosita faoliyat xarakteriga bog‘liqligini ko‘rsatadi [5, b.112]. Vygotskiy esa ijodiy tafakkur va tasavvur insonning ijtimoiy tajribani o‘zlashtirishida muhim omil ekanini ta’kidlaydi [13, b.54]. Bu nazariyalar pedagogik texnologiyalar orqali talabalarni axborot tahdidlariga ongli munosabatda bo‘lishga o‘rgatish imkoniyatlarini kengaytiradi.

O‘zbekiston Respublikasida ham ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, yoshlarning ma’naviy va intellektual salohiyatini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda ta’lim oluvchilarda mustaqil fikrlash va zamonaviy kompetensiyalarni rivojlantirish asosiy vazifa sifatida belgilangan [9, b.6]. Mirziyoyev Yangi O‘zbekiston strategiyasida yoshlarni zararli axborot oqimlaridan himoyalash va ularning raqamli madaniyatini yuksaltirish zarurligini alohida ta’kidlaydi [7, b.214].

Shu bilan birga, zamonaviy raqamli kapitalizm sharoitida shaxsning axborot ustidan nazorati tobora cheklanib borayotgani Zuboff tomonidan chuqur tahlil qilingan [14, b.89]. World Economic Forum esa kelajak maktablari modeli talabalarda moslashuvchanlik, tanqidiy tafakkur va axborotga ongli munosabatni shakllantirishga yo‘naltirilishi lozimligini ko‘rsatadi [13, b.18]. Yuqori-

dagi ilmiy yondashuvlar shuni ko‘rsatadiki, talabalarda axborot tahdidlariga qarshi barqarorlikni shakllantirish kompleks pedagogik jarayon bo‘lib, u tanqidiy fikrlash, raqamli savodxonlik, psixologik himoya va faol fuqarolik pozitsiyasini integratsiyalashgan holda rivojlantirishni talab etadi. Ushbu jarayonda zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta’lim mazmunini shaxs ehtiyojlariga moslashtirish, interaktiv metodlarni qo‘llash hamda axborot muhitida ongli harakat qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim metodik asos vazifasini bajaradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot pedagogik texnologiyalar orqali talabalarda axborot tahdidlariga qarshi barqarorlikni shakllantirish jarayonini ilmiy asoslash hamda uning samaradorligini tajriba yo‘li bilan aniqlashga qaratilgan. Tadqiqotda kompleks metodologik yondashuv qo‘llanilib, u falsafiy, psixologik, pedagogik va ijtimoiy komponentlarning integratsiyasiga asoslandi. Metodologiyaning nazariy asosi sifatida faoliyatga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasi, ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasi hamda tanqidiy tafakkur modeli tanlandi. Leontyevning faoliyat nazariyasiga ko‘ra, shaxsning bilim va qadriyatlari bevosita faoliyat jarayonida shakllanadi [5, b.118]. Shu bois tadqiqotda talabalar faol ishtirok etadigan pedagogik texnologiyalar — loyiha metodi, keys-stadi, muammoli ta’lim va reflektiv mashg‘ulotlardan foydalanildi. Vygotskiy tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy-madaniy yondashuv asosida esa jamoaviy muhokamalar va hamkorlikdagi topshiriqlar tashkil etildi [13, b.60].

Empirik bosqichda pedagogik tajriba dizayni qo‘llanildi. Tadqiqotda ikki guruh — tajriba va nazorat guruhi shakllantirilib, tajriba guruhida axborot tahdidlariga qarshi barqarorlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan maxsus pedagogik texnologiyalar majmuasi joriy etildi. Nazorat guruhida esa an’anaviy o‘qitish usullari saqlab qolindi.

Ma’lumotlarni yig‘ishda quyidagi metodlardan foydalanildi:

- ✓ pedagogik kuzatuv;
- ✓ diagnostik testlar;
- ✓ so‘rovnoma va intervyu;
- ✓ reflektiv kundaliklar;
- ✓ faoliyat mahsulotlarini tahlil qilish.

Talabalarning tanqidiy fikrlash darajasini baholashda Facione modeli mezonlari asos qilib olindi [2, b.27]. Raqamli kompetentlik ko‘rsatkichlari Ilomäki va hammualliflar ishlab chiqqan indikatorlar asosida tahlil qilindi [4, b.14]. Psixologik barqarorlik Smirnova tavsiya etgan metodikalar orqali o‘rganildi [10, b.45]. Olingan natijalar statistik va sifat jihatdan tahlil qilinib, pedagogik texnologiyalarning talabalarning axborot madaniyatiga ta’siri aniqlashtirildi. Tadqiqot davomida UNESCO tomonidan tavsiya etilgan media va axborot savodxonligi kompetensiyalari mezon sifatida qo‘llanildi [11, b.22].

Metodologik yondashuv davlat ta’lim siyosati bilan ham uyg‘unlashtirildi. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni hamda Yangi O‘zbekiston strategiyasida belgilangan ustuvor yo‘nalishlar tadqiqot dizayniga integratsiya qilindi [7, b.223; 9, b.7].

Adabiyotlar sharhi. Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda axborot tahdidlariga qarshi barqarorlik masalasi ko‘proq media savodxonlik, tanqidiy tafakkur va raqamli kompetentlik doirasida yoritiladi. Bawden va Robinson axborot ortiqligining shaxs psixikasiga salbiy ta’sirini tahlil qilib, raqamli muhitda ongli filtrlash mexanizmlarini rivojlantirish zarurligini ta’kidlaydi [1, b.182]. Ularning tadqiqotlari axborot tashvishi fenomenining pedagogik jihatdan o‘rganilishiga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Facione tanqidiy fikrlashni XXI asr kompetensiyasi sifatida baholab, uning ta’lim jarayonidagi strategik rolini asoslaydi [2, b.19]. Ushbu yondashuv talabalarning axborotni baholash va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi. Ilomäki, Kantosalo va Lakkala raqamli kompetentlik tushunchasini keng talqin qilib, uni texnologik bilimlar bilan cheklamasdan, axborot xavfsizligi va ijtimoiy mas’uliyat bilan bog‘laydi [4, b.10]. Bu yondashuv pedagogik texnologiyalarni kompleks qo‘llash zaruratini asoslaydi.

Livingstone ijtimoiy tarmoqlarda yoshlarning xavfli kontentga duch kelish ehtimolini tahlil qilib, media savodxonlikning himoya mexanizmi sifatidagi rolini ko‘rsatadi [6, b.287]. Smirnova esa raqamli ijtimoiylashuvning psixologik oqibatlarini ochib beradi [10, b.40]. Leontyev va

Vygotskiy asarlari shaxs rivojining faoliyat va ijtimoiy muhit bilan uzviy bog‘liqligini ilmiy asoslab bergan bo‘lib, mazkur tadqiqotda metodologik poydevor vazifasini bajardi [5, b.114; 13, b.56].

O‘zbekistonlik olim Ochilov pedagogik texnologiyalarni ta’lim samaradorligini oshiruvchi vosita sifatida talqin qiladi [8, b.43]. Bu yondashuv milliy ta’lim tizimida innovatsion metodlarni joriy etish zarurligini ko‘rsatadi. UNESCO hujjatlarida media va axborot savodxonligi fuqarolik ongini rivojlantirishning asosiy omili sifatida belgilangan [11, b.17]. UNESCOning yangi ijtimoiy shartnoma konsepsiyasi esa ta’limni insonning barqaror rivoji bilan bog‘laydi [12, b.29].

Mirziyoyev asarlarida yoshlarni zararli axborot oqimlaridan himoyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida qayd etiladi [7, b.217]. Zuboff raqamli kapitalizm sharoitida shaxs ma’lumotlarining ekspluatatsiyasi muammosini ochib beradi [14, b.91]. World Economic Forum esa kelajak ta’limining moslashuvchan kompetensiyalarga yo‘naltirilishini asoslaydi [13, b.20]. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, axborot tahdidlariga qarshi barqarorlik masalasi fanlararo yondashuvni talab qiladi. Biroq mavjud tadqiqotlarda pedagogik texnologiyalarni tizimli qo‘llash orqali mazkur barqarorlikni shakllantirish mexanizmlari yetarlicha yoritilmagan. Ushbu tadqiqot aynan shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot natijalari va muhokama. Mazkur tadqiqot pedagogik texnologiyalar asosida talabalarda axborot tahdidlariga qarshi barqarorlikni shakllantirish imkoniyatlarini aniqlash, ularning tanqidiy fikrlash darajasi, raqamli kompetentligi hamda psixologik barqarorligidagi o‘zgarishlarni tahlil qilishga qaratildi. Tadqiqot jarayonida eksperimental va nazorat guruhlari tashkil etilib, interaktiv pedagogik texnologiyalar, muammoli ta’lim, loyiha metodi, media savodxonlik mashg‘ulotlari hamda reflektiv yondashuvlar kompleks qo‘llanildi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, tajriba guruhida ta’lim jarayoniga shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik texnologiyalar tizimli joriy etilgach, talabalar axborotni tanqidiy tahlil qilish, manbalarni solishtirish hamda xulosalarni mustaqil shakllantirish ko‘nikmalarida sezilarli o‘sish kuzatildi. Bu holat Facione tomonidan ta’riflangan tanqidiy tafakkur komponentlarining rivojlanishi bilan uyg‘unlashadi [2, b.21]. Talabalarning aksariyati soxta axborotni aniqlashda dalillarga tayanish, kontekstni baholash va alternativ qarashlarni hisobga olishga intila boshladi. Tadqiqot natijalari axborot ortiqligi sharoitida pedagogik qo‘llab-quvvatlashning muhimligini yana bir bor tasdiqladi. Bawden va Robinson ta’kidlaganidek, axborot haddan tashqari ko‘pligi shaxsda tashvish va kognitiv zo‘riqish keltirib chiqaradi [1, b.185]. Tajriba davomida interaktiv mashg‘ulotlar orqali talabalar axborotni filtrlash strategiyalarini egallab, stress holatlariga nisbatan barqarorroq munosabat bildira boshlaganliklari aniqlandi. Bu pedagogik texnologiyalarning nafaqat bilim, balki psixoemotsional muvozanatni saqlashdagi rolini ham ko‘rsatadi.

Raqamli kompetentlik ko‘rsatkichlari tahlili shuni ko‘rsatdiki, tajriba guruhidagi talabalar raqamli vositalardan ongli foydalanish, shaxsiy ma’lumotlarni himoyalash va media kontentni baholashda sezilarli ijobiy siljish namoyon etdilar. Bu Ilomäki va hammualliflar ta’riflagan raqamli kompetentlik modeliga mos keladi [4, b.11]. Talabalar internetdagi ma’lumotlarning ishonchliligini tekshirishda bir nechta manbadan foydalanish, vizual manipulyatsiyalarni aniqlash va algoritmik tavsiyalarni tanqidiy qabul qilishga o‘rgandilar. Livingstone qayd etganidek, yoshlar ijtimoiy tarmoqlarda xavfli imkoniyatlarga duch keladi, biroq yetarli media savodxonlik mavjud bo‘lsa, bu xavflarni anglash va oldini olish mumkin [6, b.292]. Tadqiqot davomida tashkil etilgan media savodxonlik treninglari talabalarni manipulyativ sarlavhalar, clickbait materiallar va emotsional bosimga asoslangan xabarlarni farqlashga o‘rgatdi. Natijada talabalarning raqamli makondagi xulq-atvorida ongli yondashuv kuchaydi.

Psixologik barqarorlik indikatorlari ham ijobiy tomonga o‘zgardi. Smirnova ta’kidlaganidek, raqamli ijtimoiylashuv sharoitida shaxsning ichki himoya mexanizmlari zaiflashishi mumkin [10, b.44]. Tadqiqotda reflektiv mashqlar va guruhiy muhokamalar orqali talabalar o‘z hissiyotlarini anglash, stress manbalarini aniqlash hamda konstruktiv coping strategiyalarini ishlab chiqishga o‘rgandilar. Bu esa axborot tahdidlariga nisbatan psixologik immunitetning mustahkamlanishiga xizmat qildi.Pedagogik texnologiyalarni joriy etish jarayonida faoliyatga asoslangan yondashuv muhim metodik tamoyil sifatida namoyon bo‘ldi. Leontyev faoliyat shaxs rivojining asosiy manbai

ekanini ko‘rsatadi [5, b.117]. Tajriba mashg‘ulotlarida talabalar real hayotiy vaziyatlarga asoslangan keyslar, loyiha ishlari va muammoli topshiriqlar orqali axborot xavfsizligi bilan bog‘liq masalalarni amaliy hal etishga jalb qilindi. Bu ularning bilimlarini real kontekstda qo‘llash qobiliyatini oshirdi.

Vygotskiyning ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasiga muvofiq, bilimlar muloqot va hamkorlik jarayonida chuqurroq o‘zlashtiriladi [13, b.58]. Shu bois mashg‘ulotlar davomida jamoaviy muhokamalar, debatlar va peer-review metodlari keng qo‘llanildi. Natijada talabalar turli nuqtai nazarlarni qabul qilish, dalillar asosida fikr bildirish va konstruktiv bahs yuritish ko‘nikmalarini rivojlantirdilar. Ochilov pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonini loyihalash va natijani kafolatlash imkonini berishini ta’kidlaydi [8, b.47]. Tadqiqotda ham texnologik xaritalar asosida darslar rejalashtirilib, har bir mashg‘ulotning maqsadi, kutilayotgan natijalari va baholash mezonlari aniq belgilandi. Bu yondashuv ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qildi.

Davlat siyosati darajasida ham yoshlarning axborot madaniyatini yuksaltirish dolzarb vazifa sifatida belgilangan. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida ta’lim oluvchilarda mustaqil fikrlash va hayotiy kompetensiyalarni shakllantirish ustuvor vazifa sifatida qayd etilgan [9, b.5]. Mirziyoyev Yangi O‘zbekiston strategiyasida yoshlarni zararli axborot oqimlaridan himoyalash masalasiga alohida e’tibor qaratadi [7, b.219]. Tadqiqot natijalari ushbu strategik yo‘nalishlar pedagogik amaliyotda real mexanizmlar orqali amalga oshirilishi mumkinligini ko‘rsatdi. UNESCO media va axborot savodxonligini fuqarolik ongini rivojlantirishning muhim omili sifatida e’tirof etadi [11, b.18]. Tadqiqotda joriy etilgan media ta’lim elementlari talabalarni nafaqat axborot iste’molchisi, balki mas’uliyatli axborot ishlab chiqaruvchi sifatida ham shakllantirdi. Talabalar ijtimoiy tarmoqlarda kontent yaratishda etik me’yorlarga rioya qilish zarurligini anglay boshladilar. UNESCOning yangi ijtimoiy shartnoma konsepsiyasida ta’lim insonni noaniq kelajak sharoitida barqaror qaror qabul qila oladigan shaxs sifatida tayyorlashi zarurligi ta’kidlanadi [12, b.31]. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, pedagogik texnologiyalar orqali talabalarda moslashuvchanlik, mas’uliyat va axborotga ongli munosabatni rivojlantirish mumkin. Zuboff raqamli kapitalizm sharoitida shaxs ma’lumotlari iqtisodiy resursga aylanishini ko‘rsatib beradi [14, b.93]. Tadqiqot davomida talabalar shaxsiy ma’lumotlarni himoyalash, maxfiylik sozlamalaridan foydalanish va algoritmik nazorat mexanizmlarini tushunish bo‘yicha bilimlarga ega bo‘ldilar. Bu esa ularning raqamli xavfsizlik bo‘yicha ongli pozitsiyasini mustahkamladi. World Economic Forum kelajak ta’limi moslashuvchan kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilishi lozimligini qayd etadi [13, b.21]. Tadqiqotda qo‘llanilgan pedagogik texnologiyalar aynan shu kompetensiyalar — tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va axborotga ongli munosabatni rivojlantirishga xizmat qildi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari pedagogik texnologiyalar talabalarda axborot tahdidlariga qarshi barqarorlikni shakllantirishda samarali vosita ekanini tasdiqladi. Tajriba guruhida axborotni tanqidiy tahlil qilish darajasi, raqamli kompetentlik va psixologik barqarorlik ko‘rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo‘ldi. Bu esa pedagogik texnologiyalarni oliy ta’lim amaliyotiga tizimli joriy etish zarurligini asoslaydi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, axborot tahdidlariga qarshi barqarorlikni shakllantirish bir martalik trening emas, balki uzluksiz pedagogik jarayon bo‘lib, u fanlararo integratsiya, reflektiv yondashuv va faol metodlarni talab qiladi. Mazkur yondashuv talabalarning nafaqat bilim darajasini, balki ularning ijtimoiy mas’uliyati va shaxsiy xavfsizlik madaniyatini ham yuksaltirishga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Mazkur tadqiqot pedagogik texnologiyalar orqali talabalarda axborot tahdidlariga qarshi barqarorlikni shakllantirish masalasini kompleks ilmiy-pedagogik muammo sifatida yoritdi. O‘tkazilgan nazariy tahlil hamda tajriba-sinov ishlari natijalari shuni ko‘rsatdiki, raqamli muhitning jadallik bilan rivojlanishi sharoitida talabalarning axborotga bo‘lgan munosabati tubdan o‘zgarib, ularning kognitiv, psixologik va ijtimoiy holatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Axborot ortiqligi sharoitida yoshlarning ongida charchoq, noaniqlik va qaror qabul qilishdagi qiyinchiliklar yuzaga kelayotgani Bawden va Robinson tomonidan ilmiy asoslangan bo‘lib, bu holat ta’lim tizimidan yangi yondashuvlarni talab etadi [1, b.187].

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni talabalarning tanqidiy fikrlash darajasini oshirish, raqamli kompetentligini rivojlantirish hamda axborot tahdidlariga nisbatan psixologik barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ayniqsa muammoli ta’lim, loyiha metodi, media savodxonlik mashg‘ulotlari va reflektiv yondashuvlar talabalarning axborotni tahlil qilish, manbalarni solishtirish va mustaqil xulosa chiqarish ko‘nikmalarini sezilarli darajada kuchaytirdi.

Raqamli kompetentlik darajasining oshishi talabalarni nafaqat texnologiyalardan samarali foydalanishga, balki axborot xavfsizligi masalalariga ongli munosabat bildirishga olib keldiTadqiqot natijalari talabalar shaxsiy ma’lumotlarni himoyalash, manipulyativ kontentni aniqlash va ishonchli manbalarni tanlash bo‘yicha muhim bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lganini ko‘rsatdi. Shuningdek, media savodxonlik mashg‘ulotlari talabalarning ijtimoiy tarmoqlardagi xulq-atvoriga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, ularni emotsional manipulyatsiya va soxta axborotlardan himoyalashga yordam berdi. Livingstone qayd etganidek, yoshlarning raqamli makondagi xavflarni anglay olishi bevosita media savodxonlik darajasiga bog‘liq [6, b.294]. Tadqiqotda bu bog‘liqlik amaliy jihatdan tasdiqlandi.

Psixologik barqarorlik indikatorlarining o‘sishi reflektiv mashqlar va guruhiy muhokamalar orqali ta’minlandi. Smirnova ta’kidlagan raqamli ijtimoiylashuvning salbiy oqibatlarini yumshatishda shaxsning ichki resurslarini faollashtirish muhim ahamiyat kasb etadi [10, b.46]. Talabalar stressni boshqarish, o‘z hissiyotlarini anglash va konstruktiv muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirdilar.

Faoliyatga asoslangan yondashuv talabalarni real hayotiy vaziyatlarga tayyorlashda samarali bo‘ldi. Leontyev nazariyasiga ko‘ra, shaxs ongining rivoji bevosita faoliyat xarakteri bilan belgilanadi [5, b.120]. Tadqiqot jarayonida talabalar axborot xavfsizligi bilan bog‘liq keyslarni yechish orqali o‘z bilimlarini amaliyotda sinab ko‘rdilar. Bu esa ularning mas’uliyat hissi va ijtimoiy faolligini oshirdi. Ushbu yondashuv axborot tahdidlariga qarshi jamoaviy immunitetni shakllantirishda muhim rol o‘ynadi.

Davlat siyosati nuqtai nazaridan ham tadqiqot natijalari dolzarb ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida yoshlarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan [9, b.6]. Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan Yangi O‘zbekiston strategiyasida esa yoshlarni zararli axborot oqimlaridan himoyalash muhim ijtimoiy vazifa sifatida qayd etilgan [7, b.221]. Tadqiqotda qo‘llanilgan pedagogik texnologiyalar ushbu maqsadlarni ta’lim amaliyotida ro‘yobga chiqarish imkonini berdi.

UNESCO media va axborot savodxonligini demokratik jamiyat barqarorligining muhim omili sifatida baholaydi [11, b.20]. UNESCOning yangi ijtimoiy shartnoma konsepsiyasiga muvofiq, ta’lim shaxsni noaniq axborot makonida mustaqil qaror qabul qila oladigan subyekt sifatida shakllantirishi lozim [12, b.33]. Tadqiqot natijalari ushbu konseptual yondashuvlarning amaliy tasdig‘i bo‘ldi. World Economic Forum esa kelajak ta’limi moslashuvchan kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilishi lozimligini ko‘rsatadi [13, b.23]. Tadqiqot davomida shakllangan ko‘nikmalar aynan shu kompetensiyalar bilan uyg‘unlashadi.

Takliflar

Olingan natijalar asosida quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

- Oliy ta’lim muassasalarida barcha fanlar mazmuniga media va axborot savodxonligi elementlarini integratsiya qilish;
- Pedagog kadrlar uchun axborot tahdidlariga qarshi barqarorlikni shakllantirish bo‘yicha maxsus malaka oshirish kurslarini joriy etish;
- Talabalar bilan ishlashda loyiha metodi, keys-stadi va reflektiv mashg‘ulotlardan tizimli foydalanish;
- Raqamli xavfsizlik va shaxsiy ma’lumotlarni himoyalash bo‘yicha alohida modul ishlab chiqish;
- Talabalarning psixologik barqarorligini mustahkamlash maqsadida konsultativ xizmatlar va treninglarni kengaytirish;

➢ Ta’lim muassasalarida axborot madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan doimiy seminar va davra suhbatlarini tashkil etish.

Xulosa qilib aytganda, pedagogik texnologiyalar orqali talabalarda axborot tahdidlariga qarshi barqarorlikni shakllantirish zamonaviy ta’limning muhim strategik yo‘nalishi bo‘lib, u shaxsning intellektual mustaqilligi, psixologik barqarorligi va fuqarolik mas’uliyatini ta’minlashga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv oliy ta’lim tizimida raqamli xavfsizlik madaniyatini shakllantirishning samarali modeli sifatida tavsiya etilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Bawden, D. The dark side of information: Overload, anxiety and other paradoxes and pathologies / D. Bawden, L. Robinson // Journal of Information Science. – 2009. – Vol. 35, No. 2. – P. 180–191. – DOI: 10.1177/0165551508095781.

2. Facione, P. A. Critical thinking: What it is and why it counts / P. A. Facione. – 7th ed. – Insight Assessment, 2015. – 44 p.

3. Hirsh-Pasek, K. A mandate for playful learning in education / K. Hirsh-Pasek, R. M. Golinkoff // Oxford Review of Education. – 2016. – Vol. 42, No. 5. – P. 569–586. – DOI: 10.1080/03054985.2016.1208376.

4. Ilomäki, L. What is digital competence? / L. Ilomäki, A. Kantosalo, M. Lakkala. – European Commission : Linked Portal, 2011.

5. Leontyev, A. N. Deyatelnost. Soznaniye. Lichnost / A. N. Leontyev. – M. : Politizdat, 1977. – 304 s.

6. Livingstone, S. Developing social media literacy: How children learn to interpret risky opportunities on social network sites / S. Livingstone // Communications. – 2014. – Vol. 39, No. 3. – P. 283–303.

7. Mirziyoyev, Sh. M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi / Sh. M. Mirziyoyev. – Toshkent : O‘zbekiston, 2022. – 416 b.

8. Ochilov, M. Pedagogik texnologiyalar / M. Ochilov. – Toshkent : O‘qituvchi, 2018. – 256 b.

9. O‘zbekiston Respublikasi. Ta’lim to‘g‘risidagi Qonun // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. – 2020. – 24-sentabr.

10. Smirnova, E. O. Psychological aspects of digital socialization / E. O. Smirnova // Voprosy psikhologii. – 2015. – No. 4. – P. 38–47.

11. UNESCO. Media and information literacy: Policy and strategy guidelines / UNESCO. – Paris : UNESCO Publishing, 2018. – 206 p.

12. UNESCO. Reimagining our futures together: A new social contract for education / UNESCO. – Paris : UNESCO, 2021. – 188 p.

13. Vygotsky, L. S. Imagination and creativity in childhood / L. S. Vygotsky. – M. : Pedagogika, 1997. – 96 s.

14. World Economic Forum. Schools of the future: Defining new models of education for the fourth industrial revolution / WEF. – Geneva : WEF, 2020. – 34 p.

15. Zuboff, S. The age of surveillance capitalism / S. Zuboff. – New York : PublicAffairs, 2019. – 704 p.

Мейлиева Мохидил Одил кизи
Каршинский международный университет
Кафедра филологии и обучения языкам ассистент-преподаватель
E-mail: meyliyevamohidil9@gmail.com

ЯЗЫК СМИ И ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЗАИМСТВОВАННОЙ ЛЕКСИКИ

Аннотация. *в статье анализируется специфика функционирования заимствованной лексики в языке СМИ. Рассматриваются факторы, способствующие проникновению англицизмов в медиадискурс, их функции и особенности адаптации. Выявлены как положительные стороны (номинация новых реалий, экспрессивность, стилистическая гибкость), так и проблемы чрезмерного употребления (размывание литературных норм, снижение доступности текста). Подчёркивается необходимость редакционной политики, ориентированной на баланс между ясностью и современностью языка.*

Ключевые слова: *СМИ, медиадискурс, заимствования, англицизмы, глобализация, адаптация, экспрессия, номинация, культура речи, язык и общество.*

THE LANGUAGE OF MASS MEDIA AND THE USE OF BORROWED VOCABULARY

Abstract. *The article examines the specifics of borrowed vocabulary functioning in the language of mass media. It discusses the factors contributing to the penetration of Anglicisms into media discourse, their functions, and adaptation processes. Both the positive aspects (nomination of new realities, expressiveness, stylistic flexibility) and the negative consequences of excessive usage (erosion of literary norms, decreased accessibility of texts) are analyzed. The necessity of an editorial policy aimed at maintaining a balance between clarity and modernity of language is emphasized.*

Key words: *mass media, media discourse, borrowings, Anglicisms, globalization, adaptation, expressiveness, nomination, speech culture, language and society.*

OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI TILI VA O‘ZLASHMA LEKSIKANING QO‘LLANILISHI

Annotatsiya. *maqolada OAV tilida qo‘llanilayotgan o‘zlashma leksikaning o‘ziga xos jihatlari tahlil qilinadi. Inglizcha so‘zlarning mediadiskursga kirib kelish omillari, ularning funksiyalari va moslashuv jarayonlari yoritilgan. Yangi realiyalarni nomlash, ekspressivlik va uslubiy moslashuv kabi ijobiy tomonlari bilan bir qatorda ortiqcha qo‘llashning salbiy oqibatlari - adabiy me’yorlarning buzilishi va matnning tushunarlilik darajasining pasayishi ham ko‘rib chiqiladi. Tilning aniqligi va zamonaviyligini muvozanatlashga qaratilgan tahririyat siyosatining zarurligi ta’kidlanadi.*

Kalit so‘zlar: *OAV, mediadiskurs, o‘zlashmalar, anglizmlar, globallashuv, adaptatsiya, ekspressivlik, nominatsiya, nutq madaniyati, til va jamiyat.*

Введение. Современный язык средств массовой информации (СМИ) находится в постоянном взаимодействии с внешними культурными и социальными процессами. Медиадискурс сегодня отражает не только внутренние тенденции развития русского языка, но и глобальные изменения, связанные с влиянием интернациональной коммуникации [Земская, 2000]. В условиях ускоренной цифровизации, глобализации и культурного обмена заимствованная лексика становится мощным инструментом не только номинации новых явлений, но и формирования определённого имиджа медийного пространства [Крысин, 2004].

Таким образом, изучение особенностей заимствованной лексики в языке СМИ позволяет глубже понять динамику современного русского языка и выявить закономерности языкового контакта.

Методология и литература. В исследовании анализ заимствованной лексики в языке СМИ опирается на комплекс методов, каждый из которых выполняет свою задачу и дополняет другие. В первую очередь используется описательный метод, позволяющий систематизировать собранный языковой материал, выявить его структурные и семантические особенности, а также классифицировать заимствованные единицы по источникам и сферам употребления. Этот метод особенно важен при работе с текстами СМИ, так как именно они фиксируют самые свежие проявления языковых изменений [Сорокин, 1993].

Вторым инструментом является сравнительно-сопоставительный метод, который позволяет определить, какие из заимствованных слов имеют функциональные аналоги в русском языке, а какие восполняют существующие лакуны. Сопоставление помогает понять, насколько оправдано внедрение иностранных слов, а также каким образом они конкурируют с родными средствами языка в медиадискурсе [Виноградов, 1977].

Не менее значим и контент-анализ, направленный на выявление частотности употребления заимствованных слов в газетных и интернет-публикациях, телевизионных сюжетах и рекламных текстах. Этот метод помогает отследить, какие англицизмы становятся ключевыми для массовой коммуникации [Crystal, 2003], в каких жанрах они употребляются чаще всего и какие функции выполняют - номинационные, экспрессивные или стилистические.

Таким образом, методологическая база исследования опирается на сочетание традиционных лингвистических подходов и современных аналитических технологий, что позволяет всесторонне рассмотреть функционирование заимствованной лексики в медиапространстве.

Обзор литературы. Проблема заимствований имеет богатую научную традицию и неоднократно становилась предметом анализа как отечественных, так и зарубежных исследователей. Основы теоретического подхода были заложены В.В. Виноградовым (1977), который уделял особое внимание изменениям в словарном составе русского языка и описывал динамику лексических процессов. Его труды остаются фундаментальными для понимания закономерностей развития лексики.

Значительный вклад в изучение современной динамики языка внесла Е.А. Земская (2000). В её работах подробно исследовался русский язык конца XX века, когда массовое проникновение англицизмов стало одним из наиболее заметных явлений. Земская зафиксировала, что именно медийный дискурс является главным каналом внедрения и закрепления заимствованных слов.

Отдельный пласт исследований принадлежит Л.П. Крысину (2004), который посвятил свои труды функционированию иноязычной лексики в современном русском языке. Он рассматривал заимствования не только как лингвистический, но и как социокультурный феномен, определяя их прагматические функции и роль в формировании языковой моды.

Ю.А. Сорокин (1993) рассматривал проблему заимствований в контексте культурного взаимодействия, подчёркивая, что иностранные слова не только отражают межъязыковые контакты, но и становятся элементом межкультурного диалога.

Наконец, зарубежные исследования, в частности работа Дэвида Кристала English as a Global Language (2003), объясняют причины доминирования английского языка в глобальной коммуникации и его влияние на языковые системы других народов, включая русский. Этот труд помогает рассматривать феномен заимствований в широком социолингвистическом и культурном контексте.

В совокупности эти исследования создают прочную научную базу, которая позволяет комплексно рассмотреть функционирование заимствованной лексики в языке СМИ, определить её статус и место в современной языковой системе.

Основная часть. Язык СМИ, отражая социальные процессы, неизбежно фиксирует и ускоряет интернационализацию лексики. Одной из главных причин активного заимствова-

ния выступает глобализация, которая делает международные коммуникации более плотными и постоянными. В условиях открытых экономических и культурных границ многие термины из сферы политики, бизнеса и массовой культуры приходят в русский язык именно через СМИ. Слова брендинг, консалтинг, менеджмент закрепляются не только в профессиональной среде, но и в массовом медиапространстве, становясь частью повседневной речи.

Второй важный фактор - технический прогресс. Развитие цифровых технологий и IT-индустрии порождает новые явления, которые первоначально формулируются в англоязычной среде и сохраняют свою оригинальную форму при вхождении в русский язык. СМИ, ориентированные на оперативное освещение событий, быстро подхватывают такие слова, как стриминг, гаджет, софт, и распространяют их среди широкой аудитории.

Не менее значимой причиной является престижность и символ модернизации. Использование англицизмов в языке медиа воспринимается как маркер принадлежности к современному культурному контексту. Слова лайфхак, тренд, креатив придают текстам динамичность и оттенок «модности», что соответствует ожиданиям молодой аудитории.

Наконец, стоит отметить фактор экономии языковых средств. Иноязычные слова часто оказываются более лаконичными и ёмкими по сравнению с длинными описательными конструкциями. Например, слово пиар вмещает в себя целое словосочетание «связи с общественностью», а стартап заменяет громоздкую фразу «новое предпринимательское начинание».

Таким образом, причины заимствования в СМИ обусловлены как объективными процессами глобализации и технологизации, так и субъективными факторами моды и удобства.

Заимствованные слова не только обозначают новые реалии, но и выполняют ряд функций, придающих речи СМИ особую гибкость. В первую очередь, это номинационная функция, связанная с необходимостью назвать явления, ранее не существовавшие в языковой картине мира. Слова подкаст, селфи, блогер фиксируют новые формы деятельности и коммуникации, для которых не было традиционных обозначений.

Вторая важная функция - экспрессивная. Заимствования позволяют журналистам придать текстам эмоциональную насыщенность и современное звучание. Выражения хайп, фейспалм, фейк-ньюс не только обозначают явления, но и транслируют оценочное отношение к ним, помогая СМИ быть ближе к своей аудитории.

Не менее значима стилистическая функция. Заимствования в медиадискурсе часто выступают маркерами принадлежности к актуальной культурной среде. Используя слова иностранного происхождения, журналист подчеркивает «современность» материала и соответствие глобальным трендам.

Наконец, нельзя не упомянуть функцию экономии языковых средств. Благодаря краткости и точности, заимствования позволяют сделать медиатексты более компактными и выразительными. Так, слово стартап звучит значительно динамичнее, чем его русский аналог «новое предпринимательское начинание», что особенно важно в условиях ограниченного газетного пространства или стремительного информационного потока.

Однако наряду с положительными аспектами заимствованная лексика в СМИ порождает и ряд проблем. Одна из них - понимание текста аудиторией. Читатели старшего поколения или люди, не владеющие английским языком, сталкиваются с трудностями при интерпретации медиатекстов, насыщенных англицизмами.

Следующей проблемой становится ослабление позиций литературной нормы. Зачастую журналисты используют иностранные слова при наличии адекватных русских аналогов. Например, слово ивент вытесняет слово «мероприятие», хотя оно является традиционным и общеупотребительным.

Третья проблема связана с феноменом языковой моды. Многие англицизмы употребляются не ради точности или необходимости, а для придания тексту «современного звучания». Подобное использование обедняет стиль и снижает выразительность, превращая язык СМИ в поле для демонстрации «эффектности».

Наконец, стоит выделить проблему семантических искажений. В русском языке заимствованное слово нередко приобретает значение, не совпадающее с оригинальным. Например, слово креатив в медиадискурсе стало обозначать исключительно «творческий продукт» или «рекламную идею», хотя английское creativity имеет гораздо более широкое значение - «творчество» в целом.

Таким образом, чрезмерное и неосознанное использование заимствований в СМИ способно негативно сказаться на ясности, точности и культуре речи.

Несмотря на проблемы, заимствованные слова активно интегрируются в систему русского языка, проходя ряд этапов адаптации. Во-первых, происходит фонетическая адаптация: иностранные слова подстраиваются под нормы русской фонетики, облегчая их восприятие. Так, стрим и чипсы звучат привычно для носителя русского языка, хотя сохраняют английское происхождение.

Во-вторых, фиксируется графическая адаптация, при которой заимствования получают привычную орфографическую форму. Слова сайт, компьютер органично вписываются в систему русской письменности и воспринимаются как естественные.

Третьим этапом становится морфологическая адаптация. Заимствования вступают в словообразовательные связи и образуют новые формы. Так, лайк превращается в лайки, а от него производятся глаголы лайкать и залайкать. Схожим образом формируются забанить, загуглить, что свидетельствует о высокой степени интеграции слов в языковую систему.

Наконец, важной стадией является семантическая интеграция. Заимствованные слова расширяют или сужают свои значения в соответствии с особенностями русской языковой картины мира. Например, слово офис в русском языке обозначает не только помещение, но и организацию в целом.

Таким образом, адаптация заимствований - это сложный и многоэтапный процесс, который превращает иностранные элементы в неотъемлемую часть национального языкового пространства. СМИ играют здесь ведущую роль, поскольку именно они обеспечивают широкое распространение и закрепление новых слов в массовом употреблении.

Результаты. Анализ функционирования заимствованной лексики в языке средств массовой информации позволил выявить несколько устойчивых закономерностей.

Прежде всего, наиболее активно в медиадискурсе употребляются англицизмы, относящиеся к сферам цифровых технологий, экономики и молодежной культуры. Именно эти области наиболее динамичны и постоянно продуцируют новые реалии, которые нуждаются в оперативном языковом оформлении. Так, слова гаджет, стрим, апгрейд, стартап, лайфхак быстро закрепились в газетных и интернет-материалах, а затем вошли в активный словарь широких слоёв носителей языка.

Следующей особенностью является то, что заимствованная лексика часто становится заголовочной доминантой, придавая материалу экспрессивность и актуальность. Примеры заголовков вроде «Хайп вокруг блокчейна», «Фейк-ньюс как инструмент информационной войны» или «Стартапы нового поколения» демонстрируют, что иностранные слова способны не только выполнять номинационную функцию, но и выступать в роли своеобразных «магнитов внимания».

Важным результатом является высокая скорость морфологической адаптации заимствований. Многие иностранные слова быстро встраиваются в словообразовательную систему русского языка, образуя глаголы и новые производные формы. Так, на базе слов лайк, репост, гугл возникли глаголы лайкать, репостить, загуглить, что свидетельствует о продуктивности и об их полном функциональном освоении в речи. Подобные процессы показывают, что заимствованная лексика в СМИ не остаётся статичным элементом, а активно преобразуется и обогащает грамматические ресурсы языка.

Наконец, анализ выявил и противоречивую тенденцию: примерно 30–40% заимствованных слов в СМИ имеют полные или частичные русские эквиваленты, но используются преимущественно из соображений моды или для создания ощущения современности. Так, вместо слова «мероприятие» часто употребляется ивент, вместо «творчество» - креатив,

вместо «новость» - ньюс. Подобная практика свидетельствует о том, что заимствования не всегда выполняют функцию восполнения языковых лакун, а нередко становятся инструментом стилистической игры и элементом модного словоупотребления.

Таким образом, результаты исследования показывают двойственную роль заимствованной лексики в языке СМИ: с одной стороны, она обеспечивает точность и оперативность номинации новых явлений, с другой - при избыточном употреблении может приводить к стилистическим перегрузкам и снижению доступности текста для широкой аудитории.

Выводы. Проведённое исследование позволяет сделать ряд обобщающих выводов о функционировании заимствованной лексики в языке средств массовой информации.

Прежде всего, СМИ выступают основным каналом распространения и закрепления заимствованных слов. Благодаря высокой скорости информационного обмена и широкой аудитории медийные тексты способствуют быстрому внедрению и закреплению иностранных слов в повседневной речи. Именно через газеты, телевидение, интернет-порталы и социальные сети заимствования становятся частью активного словарного запаса носителей языка.

Во-вторых, заимствованная лексика выполняет важные номинационные, экспрессивные и стилистические функции. С её помощью обозначаются новые явления и процессы, характерные для цифровой эпохи; создаётся эффект эмоциональной насыщенности текста; формируется образ современного, динамичного медиапространства. Таким образом, иностранные слова в СМИ выступают не только как средство передачи информации, но и как инструмент воздействия на аудиторию.

Вместе с тем, чрезмерное использование заимствований несёт и определённые риски. Оно может приводить к размыванию литературных норм и снижению доступности текстов для широкой аудитории. Особенно это заметно тогда, когда иностранные слова используются при наличии полных русских эквивалентов или применяются исключительно в качестве стилистического украшения. В таких случаях страдает не только ясность речи, но и её коммуникативная эффективность.

Отсюда следует важная задача для современных редакций: формирование взвешенной редакционной политики, направленной на регулирование применения заимствованной лексики. Баланс между точностью, ясностью и экспрессивностью должен сохраняться за счёт разумного выбора слов: иностранные заимствования должны использоваться там, где они действительно необходимы и не имеют адекватных русских аналогов.

Наконец, можно утверждать, что рациональное использование заимствованной лексики способствует развитию медиадискурса, делая его более гибким, современным и способным отражать глобальные процессы. При этом сохранение культурной и языковой идентичности остаётся важнейшим условием гармоничного функционирования языка СМИ, что требует внимательного и ответственного подхода со стороны журналистов и редакторов.

Список литературы.

1. Виноградов В.В. Лексикология и лексикография. – М.: Наука, 1977.
2. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: Советская энциклопедия, 1969.
3. Земская Е.А. Русский язык конца XX века. – М.: Языки русской культуры, 2000.
4. Крысин Л.П. Иноязычные слова в современном русском языке. – М.: Русский язык, 2004.
5. Сорокин Ю.А. Язык и культура: проблемы взаимодействия. – М.: Прогресс, 1993.
6. Гудков Д.Б., Костомаров В.Г. Язык СМИ как зеркало культуры. – М.: Флинта, 2010.
7. Лотман Ю.М. Семиосфера. – СПб.: Искусство-СПб, 2000.
8. Успенский Б.А. Культура и язык. – М.: Прогресс, 1994.
9. Crystal D. English as a Global Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003.
10. Phillipson R. Linguistic Imperialism. – Oxford: Oxford University Press, 1992.
11. Fairclough N. Language and Power. – London: Longman, 2001..

Zaynobiddinov Jaloliddin
Farg'ona davlat universiteti psixologiya kafedrasi dotsenti,
psixologiya fanlari nomzodi

IDENTIKLIKNING PSIXOLOGIK VA IJTIMOIY-DINAMIK OMILLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada shaxsiy o'ziga xoslik hodisasi, uning psixologik va ijtimoiy kontekstdagi o'rni, o'z shaxsini anglash jarayoni va ijtimoiy rol bilan chambarchas bog'liqligi ko'rib chiqiladi. Zamonaviy tadqiqotlar identifikatsiyaning dinamik xususiyatini, uning o'zgaruvchanligini va kontekstga bog'liqligini ko'rsatmoqda. Erik Eriksonning psixosotsial rivojlanish nazariyasi va Jeyms Marsiyaning identiklik maqomlari modeli tahlil qilinib, o'smirlar va kattalarda identiklikning shakllanish mexanizmlari ochib berilgan. Ijtimoiy muhit, oila, ta'lim muassasalari va madaniy me'yorlarning o'zlikni anglash jarayoniga ta'siriga alohida e'tibor qaratilgan. Ishda, shuningdek, o'ziga xoslik dinamikasi, uning ijtimoiy va kontekstual omillari, shuningdek, psixologik barqarorlik va ijtimoiy moslashuv bilan bog'liqligi muhokama qilinadi.Kalit so'zlar: identiklik, psixologik barqarorlik, ijtimoiy moslashuv, o'zlikni anglash, yoshlar psixologiyasi, ijtimoiy integratsiya.*

Ключевые слова: *идентичность, психологическая устойчивость, социальная адаптация, самопознание, психология молодежи, социальная интеграция.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ И СОЦИАЛЬНО-ДИНАМИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ИДЕНТИЧНОСТИ

Аннотация. *В данной статье рассматривается феномен личностной идентичности, её роль в психологическом и социальном контексте, процесс понимания собственной личности и тесная взаимосвязь с социальной ролью. Современные исследования показывают динамический характер идентичности, её изменчивость и зависимость от контекста. Анализируется теория психосоциального развития Эрика Эриксона и модель статусов идентичности Джеймса Марсии, раскрываются механизмы формирования идентичности у подростков и взрослых. Особое внимание уделено влиянию социальной среды, семьи, образовательных институтов и культурных норм на процесс становления идентичности. В работе также обсуждаются динамика идентичности, её социальные и контекстуальные факторы, а также взаимосвязь с психологической устойчивостью и социальной адаптацией.*

PSYCHOLOGICAL AND SOCIO-DYNAMIC FACTORS OF IDENTITY

Annotation. *This article examines the phenomenon of personal identity, its role in psychological and social contexts, the process of self-understanding, and its close connection with social roles. Contemporary research highlights the dynamic nature of identity, its variability, and context-dependence. The paper analyzes Erik Erikson's psychosocial development theory and James Marcia's identity status model, revealing the mechanisms of identity formation in adolescents and adults. Special attention is given to the influence of social environment, family, educational institutions, and cultural norms on the process of identity development. The study also discusses the dynamics of identity, its social and contextual factors, as well as its relationship with psychological resilience and social adaptation.*

Key words: *identity, psychological resilience, social adaptation, self-awareness, youth psychology, social integration*

Identiklik psixologiyada shaxsning o'zini aniqlash, o'zligini idrok etish va ijtimoiy rol bilan uzviy bog'liqlikda tushunish jarayoni sifatida talqin qilinadi. Zamonaviy psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, identiklik doimiy holat emas, balki o'zgaruvchan, kontekstga bog'liq va dina-

mik jarayon hisoblanadi [8, 15 s.]. Shaxsiy va ijtimoiy omillar, shuningdek, tashqi muhitning talab va cheklovlari identiklikning shakllanishi va transformatsiyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi hukumatining e'tiborida shaxsning psixologik barqarorligi, ijtimoiy moslashuvi va identiklik dinamikasini qo'llab quvvatlash masalalari muhim yo'nalishlardan biridir. 2018 yil 14 avgustdagi Prezident qarori PQ 3907 son "Yoshlarni ma'naviy axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora tadbirlari to'g'risida" ta'lim muassasalarida psixologik pedagogik qo'llab quvvatlash tizimini mustahkamlashni belgilaydi, bu esa shaxsning o'zini anglash va ijtimoiy identifikasiya jarayonlarini kuchaytiradi [1, 10 s.].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida tashkil etilayotgan Yoshlarga ijtimoiy psixologik yordam ko'rsatish markazi orqali aholiga psixologik xizmatlar taqdim etilishi rejalashtirilmoqda, bu shaxsning o'zini tushunishi va identiklik jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadi [2, 5 s.].

Ta'lim tizimida psixologik xizmatning tashkil etilishi ham identiklik jarayoni uchun muhim siyosiy platforma bo'lib xizmat qilmoqda. Masalan, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida psixologik xizmatni takomillashtirish orqali o'quvchilarning individual salohiyati, ijtimoiy moslashuvi va o'zligini anglash jarayonlariga yo'naltirilgan amaliyotlar kuchaytirilmoqda [2, 12 s.].

Bugungi kunda bu mavzu alohida dolzarblik kasb etmoqda, chunki globalizatsiya, raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi shaxsning identifikatsiya jarayonini yangi chaqiriqlar bilan yuzma-yuz qoldirmoqda. Yoshlar va kattalar doimiy ravishda o'z shaxsiy va ijtimoiy identitetlarini qayta ko'rib chiqishga majbur bo'lmoqda, bu esa psixologik barqarorlik va ijtimoiy moslashuv muammolarini dolzarb qiladi [14, 22 s.; 8, 35 s.]. Shu sababli, O'zbekistonning ta'lim va psixologik qo'llab quvvatlash siyosati shaxsning identiklik fenomenini shakllantirish va transformatsiyasini qo'llab quvvatlashda amaliy va strategik ahamiyatga ega bo'lib, zamonaviy jamiyatdagi psixologik rivojlanish va ijtimoiy integratsiyani ta'minlash uchun muhim asos yaratadi.

Erik Eriksonning psixososial rivojlanish nazariyasiga ko'ra, identiklik fenomeni ayniqsa o'smirlik va yosh kattalik davrida faol shakllanadi, bu davrda shaxs o'zligini aniqlash va jamiyatdagi o'rnini topish jarayonida ichki konfliktlar hamda tashqi talablar bilan uzviy bog'liq bo'lgan psixologik o'sish bosqichlaridan o'tadi. Erikson nazariyasi shuni ta'kidlaydiki, identiklikning shakllanishi ijtimoiy muhit, madaniy normalar va individual tajriba o'rtasidagi muloqot orqali amalga oshadi, bu esa shaxs psixologiyasining asosiy dinamik jarayonlaridan biridir [3, 32 s.].

James Marcia bu g'oyalarni davom ettirib, identiklikni to'rt asosiy statusga ajratdi: o'zligini izlash (moratorium), qabul qilingan identiklik (identity achievement), oldindan belgilangan identiklik (foreclosure) va identiklik tarangligi (identity diffusion). Bu statuslar shaxsning o'z rolini qabul qilish, imkoniyatlarni izlash va qaror qabul qilish darajalarini aks ettiradi [10, 47 s.]. Marcia modeli Eriksonning "identiklik vs rol chalkashligi" bosqichini konkret psixologik jarayonlarga aylantiradi va uni empirik tadqiqotlar orqali o'lchaydi (Masalan, Marcia status modeli bo'yicha identiklik yo'nalishlari vaqt o'tishi bilan qanday dinamik tarzda o'zgaradi - bu yondashuv identiklikni "traektoriya" sifatida ko'rishga imkon beradi) [7, 1015 s.].

So'nggi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, identiklik rivojlanishi nafaqat individual o'sish jarayoni, balki ijtimoiy munosabatlar va madaniy kontekst bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu jarayon eksploratsiya (izlanish) va commit (qarorli bog'lanish) elementlarini o'z ichiga oladi. Tadqiqotlarda identiklik shakllanishi ijtimoiy emotsional rollar, oila va do'stlar bilan munosabatlar tizimi orqali ham aniqlanadi, bu esa shaxs o'z rolini jamiyatda qanday topishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi [4, 12 s.]. Bu yondashuv identiklikni statik holat sifatida emas, balki ijtimoiy integratsiya jarayoni sifatida qarashga imkon beradi.

O'zbekiston va MDH kontekstidagi izlanishlar So'nggi yillarda O'zbekiston olimlari identiklik shakllanishini ijtimoiy psixologik kontekstda o'rganmoqda. Tadqiqotlarda identifikatsiya jarayoni ijtimoiy muhit, ta'lim muhitlari va madaniy omillar ta'siri ostida o'zgaruvchi jarayon sifatida ko'riladi, bu shaxsning psixologik barqarorligi va ijtimoiy moslashuviga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Masalan, identifikatsiya jarayoni ijtimoiy muhit, guruhlar va madaniy normalar bilan

izohlanadi, u shaxsning o‘zini anglash va jamiyatda moslashish jarayonlari bilan uzviy bog‘liq ekanligi ta’kidlangan [17, 25 s.].

O‘zbekiston sharoitidagi tadqiqotlarda talabalik davrida shaxsiy identlikning shakllanishi ham psixologik va kognitiv omillar asosida o‘rganilgan bo‘lib, bu o‘sish jarayoni shaxsning ichki o‘zgarishlari va ijtimoiy ta’sirlar bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi [13, 121 s.]. Bu tadqiqotlar o‘z navbatida identiklikni psixologik barqarorlik, ijtimoiy moslashuv va shaxsiy o‘sish jarayonlari bilan bog‘lashiga ilmiy dalil bo‘lib xizmat qiladi.

Shuning uchun identiklik fenomeni bugungi psixologik tadqiqotlarda shaxsning ijtimoiy va individual o‘zligini anglashini tahlil qiluvchi murakkab, dinamik tizim sifatida o‘rganilmoqda, bu esa nazariy makon bo‘ylab umumiy tendensiya hisoblanadi.

Identiklik fenomenining shakllanishi va o‘zgarishi murakkab, ko‘p omilli va kontekstga bog‘liq jarayon bo‘lib, bu jarayon ichki shaxsiy komponentlar, ijtimoiy muhitning ta’siri va vaziyatli sharoitlarning o‘zaro ta’siri asosida kechadi. Shu sababli identiklik dinamik tizim sifatida qaraladi, unda shaxs o‘z identitetini doimiy ravishda o‘zgartirib, yangi sharoitlarga moslashtiradi va shu bilan psixologik barqarorlik hamda ijtimoiy integratsiyani ta’minlaydi [6, 85–90].

Birinchi navbatda shaxsiy omillar (individual-psixologik xususiyatlar) identiklik shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bu omillar qatoriga shaxsning qiziqishlari, qadriyatlari, motivatsiyasi, hissiy barqarorligi, kognitiv rivojlanishi va o‘z-o‘zini anglash jarayoni kiradi. Bunday omillar identitetning subyektiv mazmuni va shakllanish tafakkurini belgilaydi, shuning uchun identiklik jarayoni ko‘pincha yoshlar o‘sib borar ekan o‘z qat’iy qadriyatlarini va shaxsiy maqsadlarini aniqlashga yo‘naltiriladi [13, 121–122].

So‘ng, ijtimoiy omillar identiklik jarayonida muhim rol o‘ynaydi, chunki shaxs ijtimoiy muhit bilan uzviy bog‘liqdir. Jamiyatning normativ talablari, oilaviy munosabatlar, tengdoshlar guruhi va ta’lim muhitlari identitetni shakllantirish va barqarorlashtirishga katta ta’sir ko‘rsatadi. Misol uchun, ijtimoiy identitet nazariyasiga ko‘ra, guruhlar bilan bog‘lanish shaxsning o‘zini qanday tasavvur qilishi va jamiyat bilan aloqasini belgilaydi, bu esa shaxsiy identitet jarayonining ijtimoiy tarkibiy qismini tashkil etadi [4]. O‘zbekiston psixolog olimlari ham ijtimoiy kontekstning shaxsni identifikatsiya qilishdagi rolini ko‘rsatib, ijtimoiy muhit, guruhlar va madaniy tajribalar identitiyni shakllantirishda ajralmas ekanligini ta’kidlaydilar [17, 24–27].

Kontekstual va vaziyatli omillar ham, identiklikning dinamik xarakteri bilan kontekstual omillar orqali amalga oshadi. Bu omillar maktab va ish muhitidagi talablar, texnologik taraqqiyot, global madaniy o‘zgarishlar va raqamli muhitning ta’siri bilan bog‘liq. So‘nggi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, identitetning shakllanishi kontekstual sharoitlar bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, shaxsning kontekstga moslashuvi uning identitetini qayta ko‘rib chiqishiga turtki bo‘ladi [16].

Bundan tashqari, ijtimoiy va individual omillar o‘zaro bog‘lanib, identitetni ijtimoiy integratsiya va barqaror psixologik holatni ta’minlaydigan murakkab tizim sifatida shakllantiradi. Shu bois identitet doimiy o‘zgaruvchan va ijodiy mexanizmlar orqali yangilanadi, bu jarayon esa insonning har bir kontekstual kontekst (jamiyat, oila, ish, ilmiy muhit) bilan o‘zaro aloqalarini aks ettiradi [10, 47].

Identiklik fenomeni shaxs psixologiyasining markaziy komponenti sifatida shaxsning ichki resurslari, ijtimoiy munosabatlari va tashqi sharoitlarga moslashish qobiliyatini integratsiyalovchi dinamik tizim sifatida qaraladi. Zamonaviy psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, identiklik statik tushuncha emas, balki doimiy o‘zgarish va rivojlanish jarayoni bo‘lib, u shaxsning psixologik barqarorligini mustahkamlash, ijtimoiy moslashuvini oshirish, shuningdek, yoshlar va kattalar bilan psixologik ish samaradorligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi [3, 45 s.; 12, 50 s.].

Shaxsning identiklik dinamikasi shaxsiy omillar (motivatsiya, qadriyatlar, qiziqishlar, psixologik barqarorlik), ijtimoiy omillar (oila, do‘stlar, jamiyatning ijtimoiy normativ talablari, madaniy kontekst) va kontekstual-vaziyatli omillar (ta’lim muhitlari, ish sharoiti, global madaniy o‘zgarishlar va texnologik taraqqiyot) o‘rtasidagi murakkab o‘zaro ta’sir orqali shakllanadi [9, 22 s.; 17, 35 s.]. Shu sababli, identiklikni o‘rganish nafaqat individual psixologik jarayonni, balki jamiyatning ijtimoiy-psixologik strukturasidagi o‘zaro ta’sirlarni ham tushunishga imkon beradi.

Erik Eriksonning psixososial rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, identiklik o‘smirlik va yosh kattalik davrida shakllanadi, bu davrda shaxs o‘zligini aniqlash va jamiyatdagi o‘rnini topish jarayonida ichki konfliktlar va tashqi talablar bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan psixologik o‘sish bosqichlaridan o‘tadi [3, 32 s.]. James Marcia esa identiklikni to‘rt statusga ajratib, shaxsning o‘z rolini qabul qilish va qaror qabul qilish jarayonlarini aniqlash imkonini beradi: o‘zligini izlash (moratorium), qabul qilingan identiklik (identity achievement), oldindan belgilangan identiklik (foreclosure) va identiklik tarangligi (identity diffusion) [10, 47 s.].

So‘nggi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, identiklik rivojlanishi nafaqat individual o‘sish jarayoni, balki ijtimoiy munosabatlar va madaniy kontekst bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, eksploratsiya (izlanish) va commit (qarorli bog‘lanish) elementlarini o‘z ichiga oladi [5, 22 s.; 6, 35 s.]. Longitudinal tadqiqotlar esa identiklik dinamikasi o‘zgaruvchanligini ko‘rsatib, o‘smirlik davridan kattalik davriga o‘tishda eksploratsiya va commit elementlarining barqarorlashishi va uyg‘unlashishini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlar, oila, o‘qish muhitlari va do‘stlar bilan munosabatlar identiklik shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi, bu yoshlar orasida identitetning ko‘p qirrali va tranzitiv xarakterga ega ekanligini bildiradi [13, 40 s.].

O‘zbekiston va MDH olimlari identiklikning ijtimoiy-psixologik aspektlarini tadqiq etib, shaxsning o‘zligini anglash, psixologik barqarorlik va ijtimoiy integratsiyasiga ta’sir ko‘rsatadigan omillarni aniqladilar. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ta’lim, oila va ijtimoiy muhitning uyg‘unligi identiklik shakllanishini kuchaytiradi va shaxsning barqaror psixologik portretini yaratishda muhim ahamiyatga ega [17, 24–27 s.; 11, 121–122 s.].

Shu bilan birga, zamonaviy psixologik va ijtimoiy sharoitlar, globalizatsiya va texnologik taraqqiyot shaxsning identiklikni doimiy ravishda qayta ko‘rib chiqishiga majbur qiladi. Bu esa identiklikni o‘rganishning dolzarbligini oshiradi va yoshlar bilan psixologik ish, ta’lim va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimlarida amaliy va strategik ahamiyatga ega bo‘lishini ta’kidlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Erikson, E. H. Identity: Youth and Crisis. New York: Norton, 1968. 45 p.
2. Identifying the Dynamics of Adolescent Identity Development in Social Context. Current Psychology, 2023. 1–20 p.
3. Identity Development Theory | Adolescent Psychology. Lumen Learning. 22 p.
4. Identity Formation in Adolescence: Change or Stability? (PMC). 2011. 35 p.
5. Identity Statuses as Developmental Trajectories: A Five Wave Longitudinal Study in Early to Middle and Middle to Late Adolescents. Journal of Youth and Adolescence, 2012. 1008–1021 p.
6. Kroger, J. Identity Development: Adolescence through Adulthood. London: Sage, 2007. 50 p.
7. Maehler, D. B., & Hernández-Torrano, D. Identity development research: a systematic review of reviews. Identity: An International Journal of Theory and Research, 2025. 185–210 p.
8. Marcia, J. E. Development and validation of ego identity status. Journal of Personality and Social Psychology, 1966. 47 p.
9. Mirzaxamdamova, O. Ijtimoiy identitet va shaxsiy barqarorlik. Ta’lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 2025. 121–122 s.
10. Mirzaxamdamova, O. Zamonaviy yoshlarda ijtimoiy identitet shakllanishi. Ta’lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 2025. 40–50 s.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son qarori “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. Toshkent, 2018.
12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Yoshlarga ijtimoiy-psixologik yordam ko‘rsatish markazi faoliyati to‘g‘risida. Toshkent, 2020.
13. Oqilova, Z. Talabalik davrida shaxsiy identlikni rivojlantirishning psixologik xususiyatlari. International Journal of Science and Technology, 2025. 121–122 s.

Xalikova Umida Mirovna
Buxoro davlat universiteti Amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari kafedrasi pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

TALABALARNING ILMIY-TADQIQOTGA YO‘NALTIRISHNING DIDAKTIK OMILLARI VA BOSQICHLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga yo‘naltirishning didaktik omillari va bosqichlari tahlil etiladi. Zamonaviy oliy ta’lim tizimida talabalarning ilmiy-tadqiqotga bo‘lgan qiziqishini shakllantirish va ularni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada ilmiy-tadqiqotga yo‘naltirishning asosiy didaktik omillari – motivatsion, mazmunli, protsessual va tashkiliy omillar yoritiladi. Shuningdek, talabalarni ilmiy-tadqiqotga yo‘naltirishning bosqichlari – tayyorgarlik, yo‘naltirish, amaliy faoliyat, mustaqil tadqiqot va natijalarni baholash bosqichlari ilmiy asosda tahlil qilinadi. Xorijiy tajribalar (Germaniya, AQSh, Buyuk Britaniya) va tadqiqotga asoslangan ta’lim (inquiry-based learning) modellari misolida talabalarni ilmiy izlanishlarga jalb etishning samarali usullari ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida iqtidorli talabalarni ilmiy faoliyatga yo‘naltirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar va erishilayotgan yutuqlar tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari asosida talabalarni ilmiy-tadqiqotga yo‘naltirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *ilmiy-tadqiqot faoliyati, didaktik omillar, bosqichlar, tadqiqotga asoslangan ta’lim, talabalarni yo‘naltirish, tadqiqotchilik kompetensiyasi, oliy ta’lim, xorijiy tajriba.*

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ И ЭТАПЫ ОРИЕНТАЦИИ СТУДЕНТОВ НА НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКУЮ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ

Аннотация. *В данной статье анализируются дидактические факторы и этапы ориентации студентов на научно-исследовательскую деятельность. В современной системе высшего образования важное значение приобретает формирование у студентов интереса к научным исследованиям и подготовка их к исследовательской деятельности. В статье освещаются основные дидактические факторы ориентации на научно-исследовательскую деятельность – мотивационные, содержательные, процессуальные и организационные факторы. Также научно обоснованно анализируются этапы ориентации студентов на научно-исследовательскую деятельность – подготовительный, ориентационный, практической деятельности, самостоятельного исследования и оценки результатов. На примере зарубежного опыта (Германия, США, Великобритания) и моделей обучения, основанного на исследовании (inquiry-based learning), показаны эффективные методы привлечения студентов к научным изысканиям. Также анализируются реформы, реализуемые в высших учебных заведениях Узбекистана по ориентации одаренных студентов на научную деятельность, и достигнутые успехи. На основе результатов исследования разработаны практические рекомендации по совершенствованию системы ориентации студентов на научно-исследовательскую деятельность.*

Ключевые слова: *научно-исследовательская деятельность, дидактические факторы, этапы, обучение, основанное на исследовании, ориентация студентов, исследовательская компетенция, высшее образование, зарубежный опыт.*

DIDACTIC FACTORS AND STAGES OF ORIENTING STUDENTS TO RESEARCH ACTIVITIES

Annatation. *This article analyzes the didactic factors and stages of orienting students to research activities. In the modern system of higher education, forming students' interest in scientific*

research and preparing them for research activities is of great importance. The article highlights the main didactic factors of orientation to research activities – motivational, content-related, procedural, and organizational factors. Also, the stages of orienting students to research activities – preparatory, orientation, practical activity, independent research, and evaluation stages – are analyzed on a scientific basis. Effective methods of involving students in scientific research are shown based on foreign experience (Germany, USA, UK) and inquiry-based learning models. Additionally, the reforms implemented in higher education institutions of Uzbekistan to orient gifted students to scientific activities and the achievements made are analyzed. Based on the research results, practical recommendations for improving the system of orienting students to research activities have been developed.

Key words: *research activity, didactic factors, stages, inquiry-based learning, orienting students, research competence, higher education, foreign experience.*

Kirish. Zamonaviy oliy ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri – nafaqat nazariy bilimlarga ega, balki mustaqil ilmiy tadqiqot olib borish, muammolarni tahlil qilish, innovatsion yechimlar taklif eta oladigan mutaxassislarni tayyorlashdan iborat. Bu vazifani amalga oshirishda talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga yo‘naltirish, ularda tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyati – bu ularning mustaqil ijodiy izlanishlari, ilmiy muammolarni aniqlash va hal etish, yangi bilimlarni yaratishga qaratilgan faoliyatdir. Ushbu faoliyatga yo‘naltirish esa murakkab, ko‘p bosqichli va ko‘p omilli pedagogik jarayon hisoblanadi. Bu jarayonda didaktik omillarning to‘g‘ri tanlanishi va bosqichlarning izchil amalga oshirilishi muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi kunda O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga jalb etish, iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Toshkent davlat agrar universiteti misolida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, iqtidorli talabalarni ilmiy faoliyatga yo‘naltirish bo‘yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Jumladan, universitetning Doktorantura va iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi tomonidan talabalar ilmiy jamiyati, yosh olimlar kengashi, ilmiy to‘garaklar faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. 2024-yilda ushbu universitet talabalari tomonidan 500 dan ortiq impakt-faktorli jurnallarda maqolalar chop etilgan, 2 nafar talaba patent, 15 nafar talaba mualliflik guvohnomasi olgan, 198 nafar talaba “Mirzo Ulug‘bek vorislari” Respublika tanlovida ishtirok etgan [1].

Ushbu maqolada talabalarni ilmiy-tadqiqotga yo‘naltirishning didaktik omillari va bosqichlari tahlil qilinadi, xorijiy tajribalar o‘rganiladi va O‘zbekiston oliy ta’lim tizimi uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlarning tahlili. Talabalarni ilmiy-tadqiqotga yo‘naltirish muammosi pedagogika fanida turli jihatlardan o‘rganilgan. Xususan, tadqiqotga asoslangan ta’lim (inquiry-based learning) konsepsiyasi so‘nggi yillarda xorijiy pedagogikada keng tadqiq etilmoqda.

Germaniya tajribasi va tadqiqotga asoslangan ta’lim. Germaniyaning Gissen universiteti olimlari Andreas Vorholzer, Klavdiya fon Aufshnayter va Uilyam Bun tomonidan olib borilgan tadqiqotda o‘rta maktab o‘quvchilarida ilmiy tadqiqot ko‘nikmalarini shakllantirishda aniq (explicit) va yashirin (implicit) yondashuvlarning samaradorligi qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqotda 222 nafar o‘quvchi ishtirok etgan bo‘lib, unda quyidagi uchta tadqiqot amaliyoti bo‘yicha o‘quvchilarning bilimlari baholangan: (1) savol va gipotezalarni shakllantirish, (2) tadqiqotni rejalashtirish, (3) ma’lumotlarni tahlil qilish va talqin etish [9].

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, aniq (explicit) yondashuv yashirin (implicit) yondashuvga nisbatan samaraliroq bo‘lgan. Biroq, har ikkala yondashuv ham o‘quvchilarning tadqiqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. Qizig‘i shundaki, yondashuvlarning samaradorligi o‘quvchilarning boshlang‘ich bilim darajasiga bog‘liq bo‘lmagan holda barcha

o‘quvchilar uchun teng foyda keltirgan [9]. Bu esa talabalarni ilmiy-tadqiqotga yo‘naltirishda aniq, tizimli va bosqichma-bosqich yondashuv muhimligini ko‘rsatadi.

Kembrij universiteti nashr etgan “The Cambridge Handbook of Undergraduate Research” (2022) kitobida Harald Mieg va hamkasblari tomonidan bakalavriat bosqichida tadqiqotga asoslangan ta’limning besh bosqichi tavsiflangan: Orientatsiya, Konseptualizatsiya, Tadqiqot olib borish, Xulosa chiqarish va Munozara. Ushbu bosqichlar va ularning quyi bosqichlari o‘zaro bog‘langan bo‘lib, tadqiqot siklini tashkil etadi [5]. Mualliflarning ta’kidlashicha, har bir bosqichni bosib o‘tish jarayonida talabalar tadqiqotchilik ko‘nikmalarini egallaydilar va keng ko‘lamli yumshoq ko‘nikmalarni rivojlantiradilar, albatta, bu jarayonda o‘qituvchilar tomonidan yetarli darajada yo‘l-yo‘riq va qo‘llab-quvvatlash ta’minlangan taqdirdagina [5].

AQSh tajribasi va CREATE metodi. AQSh Milliy Fan Jamg‘armasi (NSF) tomonidan moliyalashtirilgan tadqiqotda Delani Uorthington va Nikol Kelp tomonidan CREATE metodining modifikatsiyalangan varianti – iCREATE (inclusive-CREATE) ishlab chiqilgan. CREATE metodi talabalarga ilmiy maqolalarni o‘qishning strukturalashgan imkoniyatini beradi, ularga ilmiy jarayon ko‘nikmalarini amaliyotda qo‘llash, tadqiqot ta’siri haqida fikr yuritish va kelajakdagi tadqiqotlarni rejalashtirish imkoniyatini yaratadi [6].

iCREATE metodi esa talabalarga ilmiy maqolalarni o‘qishda yanada inklyuziv yondashuvni shakllantirishga yordam beradi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, iCREATE metodi talabalarning fan va fan kommunikatsiyasiga oid identiteti va o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi, shuningdek, inklyuziv fan kommunikatsiyasi bo‘yicha o‘z samaradorligiga bo‘lgan ishonchni kuchaytiradi [6].

PISA tadqiqotlari tahlili. Bath universiteti tadqiqotchisi Din Kerns tomonidan PISA 2015 ma’lumotlari asosida olib borilgan tadqiqotda tadqiqotga asoslangan ta’limning samaradorligi tahlil qilingan. 540 000 nafar ishtirokchi ma’lumotlari asosida olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, tadqiqotga asoslangan ta’lim butun konstrukt sifatida o‘lchanganda barcha mamlakatlarda samarasiz bo‘lgan (tadqiqotga asoslangan yondashuvlarni tez-tez qo‘llash talabalarning ilmiy savodxonlik ballarining pastligi bilan bog‘liq). Biroq, tadqiqotga asoslangan ta’lim elementlari alohida tahlil qilinganda, o‘qituvchi tomonidan boshqariladigan yondashuvlar ijobiy, talaba tomonidan boshqariladigan yondashuvlar esa salbiy bog‘liqlikni ko‘rsatgan [4].

Bundan tashqari, ba’zi yondashuvlar faqat me’yor darajasida qo‘llanilganda samarali bo‘lib, ular talabalarning ilmiy savodxonligi bilan egri chiziqli (curvilinear) bog‘liqlikka ega ekanligi aniqlangan. O‘qituvchi tomonidan yo‘naltirilgan ta’lim shkalasidagi barcha elementlar ilmiy savodxonlik bilan yuqori darajada ijobiy bog‘liq bo‘lgan. Xulosa qilib aytganda, tadqiqotchi tadqiqotga asoslangan ta’limdan oldin aniq (explicit) o‘qitish zarurligini ta’kidlaydi [4].

O‘zbekiston tajribasi va normativ-huquqiy asoslar. O‘zbekiston Respublikasida talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga yo‘naltirish masalalari bir qator normativ-huquqiy hujjatlarda o‘z aksini topgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-oktyabrdagi “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi O‘RQ-576-sonli Qonunida ilmiy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish, ilmiy tadqiqotchilar uchun ilmiy salohiyatni oshirishga qaratilgan platformalar ishlab chiqish vazifalari belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmonida ustuvor yo‘nalishlarda o‘z ilmiy maktablarini tashkil etish, tajribali va malakali mutaxassislarni jalb etish, innovatsion salohiyatga ega istiqbolli startaplarni qo‘llab-quvvatlash vazifalari belgilangan.

Amaliy tajriba sifatida Toshkent davlat agrar universitetida iqtidorli talabalar bilan ishlash tizimi samarali yo‘lga qo‘yilgan. Universitetning Doktorantura va iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi tomonidan quyidagi yo‘nalishlarda ishlar olib borilmoqda: startap tanlovlarida qatnashmoqchi bo‘lgan yoshlarning ilmiy-ijodiy faoliyatini rivojlantirish; talabalar ilmiy qobiliyatini rivojlantirish va ro‘yobga chiqarish imkonini beruvchi ilmiy to‘garaklarni tashkil etish; iqtidorli va salohiyatli talabalarni tanlash va ilmiy to‘garaklarga a’zo bo‘lishga tavsiya berish; talabalarni ilmiy tadqiqotlarga jalb etish, ilmiy-tadqiqot ishlarini individual va jamoa bo‘lib bajarishga o‘rgatish; talabalarning ijodiy qobiliyatlarini ro‘yobga

chiqarish, malakali mutaxassis yoki tadqiqotchi uchun muhim bo‘lgan sifatlar, ko‘nikmalar va mahoratlarni shakllantirish [1].

Natijada, 2024-yilda universitet talabalari tomonidan: Scopus ilmiy ma’lumotlar bazasida 1 ta, Xalqaro OAK ro‘yxatidagi jurnal va konferensiyalarda 6 ta, OAK ro‘yxatidagi respublika miqyosidagi jurnal va konferensiyalarda 200 ta, impakt-faktorli jurnallarda 500 ta maqola chop etilgan; 2 nafar talaba patent, 15 nafar talaba mualliflik guvohnomasi olgan; 1 nafar talaba “Zulfiya” nomidagi davlat mukofoti, 3 nafar talaba “Innovatsion g‘oyalar yetakchisi” ko‘krak nishoni, 1 nafar “Yoshlar akademiyasi lideri” nishoni bilan taqdirlangan [1].

Didaktik omillar ta’lim jarayonining samaradorligini belgilovchi muhim shart-sharoitlar majmuasi bo‘lib, ular ayniqsa talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga yo‘naltirish jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu omillar ta’lim jarayonining mazmuni, tashkil etilishi, metodlari hamda unda ishtirok etayotgan shaxslarning motivatsiyasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, o‘zaro uyg‘un holda amal qilgandagina kutilgan natijani beradi. Ilmiy adabiyotlar tahliliga ko‘ra, talabalarni ilmiy faoliyatga jalb etishda motivatsion, mazmunli, protsessual va tashkiliy omillar muhim rol o‘ynaydi.

Motivatsion omillar talabalarning ilmiy izlanishga bo‘lgan ichki va tashqi qiziqishlarini shakllantirish bilan bog‘liq. Talabada ilmiy faoliyatga nisbatan qiziqish paydo bo‘lmasa, eng mukammal o‘quv dasturi ham kutilgan natijani bermaydi. Shu sababli ta’lim jarayonida ilmiy izlanishlarning amaliy ahamiyatini ko‘rsatish, muvaffaqiyatga erishish ehtiyojini qo‘llab-quvvatlash, ustozlarning shaxsiy namunasini namoyon etish hamda moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish muhim hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ichki motivatsiya tashqi rag‘batlarga nisbatan barqarorroq bo‘ladi. Talaba ilmiy faoliyatni shunchaki baho yoki mukofot uchun emas, balki yangi bilimlarni kashf etish jarayonidan zavq olish uchun bajara boshlaganda uning tadqiqotchilik salohiyati sezilarli darajada oshadi.

Mazmunli omillar esa ilmiy-tadqiqot faoliyatining nazariy va amaliy asoslarini o‘z ichiga oladi. Talabalar ilmiy izlanish olib borishi uchun ular tadqiqot metodologiyasi, ilmiy muammoni aniqlash, gipoteza shakllantirish, tadqiqot usullarini tanlash, ma’lumotlarni to‘plash va tahlil qilish hamda ilmiy matnlarni yozish kabi ko‘nikmalarga ega bo‘lishi zarur. Bu jarayonda bilimlar tizimli ravishda berilishi, har bir tadqiqot bosqichi alohida tushuntirilishi katta ahamiyatga ega. Tadqiqotchilik kompetensiyalari tasodifiy shakllanmaydi; ular maqsadli va izchil o‘qitish jarayonida rivojlanadi. Shu sababli oliy ta’lim muassasalarida ilmiy metodologiya fanlari, ilmiy yozuv madaniyati va akademik tadqiqot usullariga alohida e’tibor qaratilishi lozim.

Protsessual omillar ilmiy-tadqiqot faoliyatining qanday metod va shakllarda tashkil etilishini ifodalaydi. Zamonaviy pedagogikada tadqiqotga asoslangan ta’lim, muammoli ta’lim texnologiyalari, loyihaviy faoliyat, ilmiy to‘garaklar, konferensiyalar va turli tanlovlar talabalarni ilmiy izlanishga jalb etishning samarali vositalari hisoblanadi. Bunday faoliyat shakllari talabalarni mustaqil fikrlashga, muammoni tahlil qilishga va yangi yechimlar topishga o‘rgatadi. Tadqiqotga asoslangan ta’lim odatda bir necha ketma-ket bosqichlardan iborat bo‘ladi: muammo bilan tanishish, ilmiy savollarni shakllantirish, tadqiqot olib borish, natijalarni umumlashtirish va ularni muhokama qilish. Shu jarayon orqali talaba nazariy bilimni amaliy faoliyat bilan bog‘laydi.

Tashkiliy omillar esa ilmiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur infratuzilma va muhitni yaratish bilan bog‘liq. Ilmiy laboratoriyalar, zamonaviy jihozlar, kutubxonalar, elektron ma’lumotlar bazalari, tajribali ilmiy rahbarlar hamda grant va stipendiya dasturlari talabalar ilmiy faoliyatining samaradorligini oshiradi. Agar ta’lim muassasasida ilmiy muhit shakllangan bo‘lsa, talabalar o‘zlarini ilmiy hamjamiyatning bir qismi sifatida his qiladilar. Bu esa ularning faolligini yanada oshiradi. Shuningdek, xalqaro hamkorlik, akademik almashinuv dasturlari va qo‘shma tadqiqot loyihalari ham yosh tadqiqotchilar uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

Talabalarni ilmiy-tadqiqotga yo‘naltirish jarayoni odatda bir necha bosqichda amalga oshiriladi. Dastlabki bosqich – tayyorgarlik bosqichi bo‘lib, unda talabalar ilmiy faoliyat mohiyati, metodologiyasi va axborot manbalari bilan tanishtiriladi. Bu bosqichda ilmiy tafakkur va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish muhim hisoblanadi. Keyingi bosqich – yo‘naltirish bosqichi bo‘lib, unda

talabalar turli ilmiy yo‘nalishlar bilan tanishadi va o‘z qiziqishlariga mos mavzuni tanlaydi. Shu jarayonda ustoz-shogird tizimi shakllanadi va ilmiy rahbar biriktiriladi.

Uchinchi bosqich konseptualizatsiya bosqichi hisoblanadi. Bu davrda tadqiqot mavzusi aniqlashtiriladi, ilmiy muammo asoslanadi, maqsad va vazifalar belgilanadi hamda gipotezalar shakllantiriladi. Talaba mavjud ilmiy adabiyotlarni tahlil qiladi va o‘z tadqiqotining nazariy asoslarini ishlab chiqadi. Keyingi bosqich amaliy tadqiqot bosqichi bo‘lib, unda eksperimentlar o‘tkaziladi, kuzatuvlar amalga oshiriladi va ma’lumotlar yig‘iladi. Olingan natijalar tahlil qilinib, dastlabki ilmiy xulosalar shakllantiriladi.

Beshinchi bosqichda tadqiqot natijalari umumlashtirilib, xulosalar chiqariladi. Talaba o‘z gipotezalarini tekshiradi, ilmiy yangilikni asoslaydi hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqadi. Yakuniy bosqich esa natijalarni taqdim etish va muhokama qilish bosqichi hisoblanadi. Bu jarayonda ilmiy maqolalar yoziladi, konferensiyalarda ma’ruzalar qilinadi, ilmiy seminarlar o‘tkaziladi va natijalar keng jamoatchilikka taqdim etiladi. Aynan shu bosqich talabaning haqiqiy tadqiqotchi sifatida shakllanishida muhim rol o‘ynaydi.

Turli mamlakatlar tajribasi talabalarni ilmiy-tadqiqotga jalb etishda turli modellardan foydalanilishini ko‘rsatadi. Germaniya ta’lim tizimida tadqiqotga asoslangan ta’lim keng rivojlangan bo‘lib, talabalar real ilmiy loyihalarda faol ishtirok etadilar. AQSh universitetlarida bakalavriat bosqichidayoq ilmiy tadqiqotlarda qatnashish imkonini beruvchi dasturlar mavjud. Buyuk Britaniya oliy ta’lim tizimida esa talabalar ilmiy loyihalarga jalb qilinib, ilmiy faoliyat o‘quv jarayonining muhim qismiga aylantiriladi. Ushbu tajribalar shuni ko‘rsatadiki, tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirishda tizimli yondashuv va o‘qituvchi tomonidan yo‘naltirilgan metodlar muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida ham talabalarni ilmiy faoliyatga jalb etish bo‘yicha muayyan ishlar olib borilmoqda. Iqtidorli talabalarni aniqlash, ularni ilmiy to‘garaklarga jalb qilish, ilmiy rahbarlar biriktirish, tanlovlar va innovatsion loyihalar orqali rag‘batlantirish kabi mexanizmlar shakllanmoqda. Bunday tashabbuslar yoshlarning ilmiy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, talabalarni ilmiy-tadqiqotga yo‘naltirish ko‘p bosqichli va murakkab pedagogik jarayon bo‘lib, uning muvaffaqiyati turli didaktik omillarning uyg‘unligiga bog‘liq. Motivatsiya, mazmun, metod va tashkiliy sharoitlar bir-biri bilan bog‘liq holda tashkil etilgandagina ta’lim jarayoni samarali bo‘ladi. Shu bois oliy ta’lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli yondashuvni joriy etish, xalqaro tajribalarni o‘rganish va ularni milliy ta’lim tizimiga moslashtirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu esa kelajakda ilmiy fikrlaydigan, innovatsion g‘oyalar yaratishga qodir mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Toshkent davlat agrar universiteti. (2025). Doktorantura va iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi faoliyati davomida talabalarning erishgan yutuqlari. https://tdau.uz/doktorantura-va-iqtidorli-talabalarning-ilmiy-tadqiqot-faoliyatini-muvofiqlashtirish-bolimi-faoliyati-davomida-talabalarning-erishgan-yutuqlari/ [1].

2. Vorholzer, A., Von Aufschnaiter, C., & Boone, W. J. (2020). Fostering Upper Secondary Students' Ability to Engage in Practices of Scientific Investigation: a Comparative Analysis of an Explicit and an Implicit Instructional Approach. Research in Science Education, 50(1), 333-359. https://doi.org/10.1007/s11165-018-9691-1 [9].

3. Mieg, H. A., Ambos, E., Brew, A., Galli, D., & Lehmann, J. (2022). Inquiry Approach and Phases of Learning in Undergraduate Research. In The Cambridge Handbook of Undergraduate Research. Cambridge University Press. [5].

4. Cairns, D. (2024). Balancing Inquiry and Teacher-Directed Methods to Optimise Students‘ Learning of Science: A Conceptual and Methodological Synthesis of PISA Analyses. Doctoral Thesis, University of Bath. [4].

5. Worthington, D., & Kelp, N. (2025). Modifying the CREATE method with inclusive approaches helps students engage with socioscientific applications of the primary scientific literature. Journal of Microbiology & Biology Education. National Science Foundation. [6].

6. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-oktyabrdagi “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi O‘RQ-576-sonli Qonuni. https://lex.uz/docs/-4571490

Korrupsiya - zamonaviy jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va ma’naviy taraqqiyotiga jiddiy to‘siq bo‘layotgan murakkab ijtimoiy hodisadir. U faqat huquqbuzarlik yoki iqtisodiy jinoyat sifatida emas, balki shaxs psixologiyasi, ijtimoiy normalar va qadriyatlar tizimi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan psixosotsial fenomen sifatida ham namoyon bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan korrupsiyani faqat qonunlar yoki jazo choralari orqali emas, balki uning psixologik ildizlarini o‘rganish orqali bartaraf etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Korrupsiyaning psixologik jihatlari turli olimlar tomonidan turlicha tahlil qilingan ularning bu haqidagi qrashlari turlicha xisoblanadi. N. A. Abdusamedov va R. Kh. Madalievalarning maqolasida korrupsion shaxsning empirik tahlilini o‘z ichiga olmaydi va psixologik tipologiyalardan yoki o‘lchanadigan shaxsiy o‘zgaruvchilardan foydalanmaydi. Psixosotsial xususiyatlar aksariyat holatlarda sifat ko‘rsatkichlari asosida tahlil qilinadi. Korrupsiogen shaxsining o‘ziga xos xususiyatlari (tavsifiy) shaxsiy manfaatga yo‘nalganlik; kasbiy ongning deformatsiyasi; axloqiy va huquqiy mas’uliyatning past darajasi; ichki axloqiy nazoratning yo‘qligi; iste’molchilarning munosabatlari va qadriyatlarning moddiy ustunligi orqali namoyon bo‘lishi mumkin. Korrupsion faoliyatga qarshi shaxsda quyidagi xususiyatlar rivojlangan bo‘lishi kerak – bu xizmat burchini his qilishning rivojlanganligi; yuksak ma’naviyat; huquqiy ong; kasbiy-axloqiy me’yorlarga sodiqlik; jamoat manfaatlariga yo‘naltirilganlik. Mualliflarning fikrlarida barcha xususiyatlar me’yoriy-baholash usulida taqdim etilgan va operatsionlashtirilmaganligi bilan ajralib turadi [1].

A. D. Ostanagulov va F.Islamjonlarning maqolasida korrupsion shaxsning xususiyatlari tahlil qilinmagan biroq, maqolada xizmatchilarga qo‘yiladigan umumiy ma’naviy-axloqiy talablar: halollik, intizomga rioya qilish, yuqori malaka, mas’uliyat kabilar tilga olinadi. Maqolada individual psixologik xususiyatlar, kognitiv yoki hissiy xususiyatlarning tavsifi keltirilmagan, shaxsiy o‘zgaruvchilar keltirilmagan [2]. A. L. Pulatovning maqolasi korrupsiyaga chidamlilik bilan bog‘liq bo‘lgan shaxsiy fazilatlar va psixologik mexanizmlarni rivojlantirishga e’tibor qaratiladi,

ammo bu qisman standartlashtirilgan shaxsiy xususiyatlar yoki o‘lchovlar orqali emas, balki ijtimoiy-psixologik omillar orqali tahlil amalga oshirilgan. Asosiy psixologik-ijtimoiy jihatlar: Ichki axloqiy barqarorlik - korrupsiyani nomaqbul deb baholash va unda ishtirok etishga ta’sir ko‘rsatadigan ijtimoiy bosimga qarshi tura olish qobiliyati. Axloqiy me’yorlarning ijtimoiylashuvi - atrofdagilar (oila, maktab, tengdoshlar) bilan o‘zaro munosabatlar orqali ijtimoiy qoidalarni o‘zlashtirish, bu korrupsiya amaliyotiga qarshi axloqiy munosabatlarni shakllantirishga ta’sir qilishi keltirib o‘tilgan. Ijtimoiy kontekstlar va guruh ta’siri - o‘smir tengdoshlar guruhi, ta’lim muhiti, media xulq-atvor modellari axloqiy yoki korrupsion xulq-atvorga shaxsiy moyillikni kuchaytiradigan yoki zaiflashtiradigan omillar sifatida qaraladi. Shuni ta’kidlash kerakki, maqolada shaxs tadqiqotlarda o‘lchanadigan aniq psixologik o‘zgaruvchilar orqali emas, balki ijtimoiylashuv jarayonlari va axloqiy ko‘rsatmalarning yetuklik darajasi orqali tasvirlangan [3].

X. B. Davranovning qarashlarida shaxs tahlil obyekti hisoblanmaydi. Psixosotsial xususiyatlar (ustanovkalar, qadriyatlar, motivatsiya, axloqiy sifatlar) o‘rganilmaydi. Insonning ta’siri faqat bilvosita, jamiyat va institutlarning roli orqali ko‘rib chiqiladi [4]. Ye.K. Kulievning maqolasida quyidagilar ko‘rib chiqiladi: huquqiy ongning deformatsiyasi (huquqiy infantilizm, huquqiy nigilizm); korrupsiyaga tolerantlik; qadriyatli va me’yoriy ko‘rsatmalar; korrupsion xulq-atvorga psixologik tayyorlik. Shaxs xususiyatlari aniq psixologik nazariyalar va xususiyatlar bilan bog‘liq bo‘lmagan holda sifat jihatidan tavsiflanadi [5]. Kh. Kh. Jabborovning izlanishlarida umumiy shaxsiy fazilatlar (axloq, mo‘tadillik, ma’naviyat, xarakter) ko‘rib chiqiladi, lekin korrupsiya yoki deviant xatti-harakatlar bilan bog‘liq emas. Tahlil abstrakt-normativ xarakterga ega.

Tadqiqot metodologiyasi V.V. Samarenkina ham shaxsning psixosotsial xususiyatlari ko‘rib chiqilmaydi. Muallif korrupsion xulq-atvor xavfini oshiruvchi davlat xizmatchilarining bir qator shaxsiy xususiyatlarini ko‘rib chiqadi: xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlar yo‘lida foydalanishga intilish; axloqiy va ma’naviy madaniyatning past darajasi; noqonuniy boylik orttirganlik uchun aybdorlik hissining yo‘qligi; hashamatli turmush tarziga yo‘nalganlik; yuqori iste’mol darajasi bilan bog‘liq iqtisodiy ko‘rsatmalar; korrupsiyaga yo‘naltirilgan kasbiy muhitning ta’siri. Tahlil tavsifiy xarakterga ega bo‘lib, ijtimoiy-psixologik va axloqiy-me’yoriy kategoriyalarga tayanadi [8]. Dj. S. Albaniz va K. Artellolarning maqolalarida korrupsiya subyektlarining shaxsiy yoki psixologik xususiyatlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri tahlil qilinmagan. Biroq, korrupsion xulq-atvor oqilona tanlov, foyda va maqsadga muvofiqlikka yo‘naltirilganlik, shuningdek, hokimiyatni suiiste’mol qilishning institutsional imkoniyatlari bilan bog‘liq. Mualliflar korrupsiyani individual psixologik xususiyatlarning natijasi sifatida emas, balki shaxs va hokimiyat tuzilmasining o‘zaro ta’siri natijasi sifatida ko‘rib chiqadilar [9]. V. F. Anisimova va V. F. Lapshinalarning monografiyasida korrupsiya subyektlarining individual psixologik yoki shaxsiy xususiyatlarini tahlil qilish monografiyaning predmeti hisoblanmaydi. Munitsipal xizmatchining shaxsi asosan uning huquqiy maqomi va xizmat vazifalari orqali ko‘rib chiqiladi. Xizmat xulq-atvorining qadriyatli-me’yoriy jihatlari (xizmat intizomi, huquqiy ong) alohida tilga olinadi, biroq ular psixologik konstruktlar sifatida ochib berilmaydi va empirik tahlil qilinmaydi [10].

Tahlil va natijalar. X. A. Asatryan va A. A. Xristyuklarning ishlarida poraxo‘rlik subyektlarining individual psixologik yoki ijtimoiy-psixologik xususiyatlari tahlil qilinmagan. Pora oluvchi va pora beruvchining shaxsi faqat ularning huquqiy maqomi va jinoyatdagi roli nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqiladi. Korrupsiya subyektlarining ichki motivlari, ustanovkalari, qadriyatlari yoki ong xususiyatlari tadqiqot predmeti hisoblanmaydi. S. T. Axmedxanova fikriga ko‘ra quyidagi xususiyatlar tavsiflanadi: nufuzli motivatsiya; hokimiyat va yuqori ijtimoiy mavqega intilish; tashqi e’tirofga yo‘nalganlik; ta’lim darajasi va axloqiylik darajasi o‘rtasidagi nomuvofiqlik; korruptsion xatti-harakatlardan o‘zini tasdiqlash vositasi sifatida foydalanish. Ta’kidlanishicha, korrupsiyaga oid jinoyatlar ijtimoiy moslashgan, tashqi ko‘rinishidan farovon shaxslar, jumladan, yuqori ma’lumotli va ilmiy darajaga ega bo‘lgan shaxslar tomonidan sodir etiladi. Psixologik xususiyatlar o‘lchanadigan konstruksiyalarni ajratib ko‘rsatmasdan, tavsifiy tarzda taqdim etilgan [11].

Shuningdek, korrupsionerlarning turlari ham ajratib ko‘rsatildi:

1. Initsiativ tip Bu korrupsioner klassik tipi

Psixologik tavsifi quyidagilardir:

ahloqiy ongning deformatsiyasi; hamma narsaga yo‘l qo‘yilishiga ishonish; me’yorlarga instrumental munosabat; boyishga bo‘lgan barqaror rag‘bat; subyektlik va vaziyatni nazorat qilishning yuqori darajasi.

axloqiy o‘zini o‘zi boshqarishning past darajasi; qadriyatlar cheklovlarisiz yuqori shaxsiy avtonomiya; barqaror korruptsion munosabat.

2. Komform tip Bu ijtimoiy-psixologik jihatdan shartlangan tip. Uning psixologik tavsifi quyidagilardan iborat: konformlik; guruhiy me’yorlarga yo‘nalganlik; ijtimoiy sanksiyadan qo‘rqish; xulq-atvorning tashqi motivatsiyasi; og‘ishga asta-sekin ko‘nikish.

xulq-atvorning ijtimoiy muhitga bog‘liqligi; ichki axloqiy nazoratning zaifligi bilan kuzatilsa, normativ konformizmning yuqori darajasi; korrupsiya moslashish shakli sifatida namoyon bo‘ladi.

3. Majburiy tip. Bu vaziyatli-shaxsiy tip xisoblanib, ma]lum bir vaziyatlarda o‘z qarashlariga ega bo‘lmagan tip sifatida namoyon bo‘ladi. Bu tipga xos bo‘lgan psixologik tavsiflar qiyidagilardir: huquqiy ongning past darajasi; yuqori xavotirlanish; barqaror korrupsion qarashlarning yo‘qligi; bosimga beriluvchanlik; xatti-harakat tahdid yoki vaziyatga javob sifatida [12].

Bunday tiplarda tashqi nazorat lokusi; past subyektivlik; yuqori ta’sirchanlik; vaziyatli deviatsiya ustunlik qiladi.

N. V. Bezrodnaya tomonidan klinik yoki patopsixologik belgilarga bog‘liq bo‘lmagan barqaror psixosotsial xususiyatlar majmuasini tavsiflanadi. Ularga hos bo‘lgan xususiyatlar quyidagilardir:

- Ichki qadriyatlar deformatsiyasida tashqi xulq-atvorning ijtimoiy me’yoriyligi;
- rivojlangan kommunikativ ko‘nikmalar;
- ijtimoiy mimikriya qobiliyati;
- kasbiy muhitga moslashishning yuqori darajasi;
- xizmat rollari va me’yorlariga instrumental munosabat;
- tizimga tashqi sodiqlikni saqlab qolgan holda ichki axloqiy nazoratning past darajasi.

Ta’kidlanishicha, korrupsioner: o‘zini jamiyatga qarshi qo‘ymaydi, balki ijtimoiy va institutsional tizim ichidan harakat qiladi.

Ye. M.Bogoduxova va V. G. Gordienkolarning fikriga ko‘ra korrupsioner tipi bir qanchaga ko‘rinishga ega ular quyidagilardir:

Birinchi tip - paradoksal

Ular quyidagi tavsifga ega: yaqqol ifodalangan ichki ziddiyat; e’lon qilingan qadriyatlar va haqiqiy xatti-harakatlar o‘rtasidagi ziddiyat; korrupsion qarorlarni keltirib chiqaradigan murakkab ijtimoiy munosabatlarga jalb qilinganligi; doimo me’yor va foyda o‘rtasida tanlov vaziyatida bo‘lish.

2. Ikkinchi tip - bajaruvchi

Bu klassik psixologik portret bo‘lib, u butunlay shaxsiy xususiyatlarni namoyon qiladi. Asosiy psixotsial jihatlari quyidagilar: refleksiyaning pasayishi: o‘z harakatlarining oqibatlari haqida o‘ylamaydi; gedonistik motivatsiya: zavqlanish, yangilikka intilish, yoqimsiz kechinmalardan qochish; manfaatli vaziyatda qadriyatli ustanovkalarni siqib chiqarish; tashqi lokus nazorat: sodir bo‘layotgan voqealarni taqdir, tasodif, boshqalarning xatti-harakatlari bilan izohlash; me’yoriy farqlanmaslik: yo‘l qo‘yiladigan va yo‘l qo‘yilmaydigan o‘rtasidagi zaif farq; manipulyativlik: kamtarlik yoki uyalishni maqsadga erishish vositasi sifatida ko‘rsatish; hissiy sovuqqonlik: aybdorlik, uyat, vijdon azobining yo‘qligi; kutishlar frustratsiyasida impulsivlik va agressivlik.

3. Uchinchi tip - yordamchi

Bu tipning asosiy psixosotsial jihatlari quyidagilardir: strategik emas, balki taktik maqsadlarga yo‘nalganlik; oqibatlarni prognoz qilish qobiliyatining sustligi; tashqi rahbarlik va vaziyatga bog‘liqlik; yuqori moslashuvchanlik va konformlik; muloqotda kinoyalilik va noaniqlikka moyillik; manipulyatsiya qilish va manipulyatsiya obyekti bo‘lish qobiliyati; daxldorlikni saqlab qolgan

holda korrupsiyaviy bitimlarda ochiq ishtirok etishdan qochish; rivojlangan kommunikativ ko‘nikmalar, muloqotning moslashuvchanligi.

Korrupsion xulq-atvor modellari tipologiyasi orqali quyidagilar ajratib ko‘rsatiladi:

Psixosotsial jihatlari: xulq-atvorni me’yoriy tartibga solishning pasayishi; qonun va axloqqa tanlab munosabatda bo‘lish; vaziyatli foydaga yo‘nalganlik; korrupsion muhitga "me’yor" sifatida moslashish; kasbiy muhitda korrupsion xulq-atvorni rolli qabul qilish; korrupsion amaliyotlarga ijtimoiy o‘rganish; xulq-atvorning tashkiliy madaniyat va mikroijtimoiy kutilmalarga bog‘liqligi.

Mualliflar tomonidan quyidagilar ta’kidlab ko‘rsatiladi:

korrupsion xulq-atvor nafaqat individual fazilatlar, balki ijtimoiy muhit, kasbiy rollar va institutsional sharoitlar bilan ham shakllanadi..

S. Ye. Borisova tomonidan chop eitilgan maqolada quyidagilarga e’tibor qaratilgan: kasbiy mas’uliyatning yetarli darajada shakllanmaganligi; uzoq muddatli prognozlashsiz vaziyatli qarorlarga moyillik; huquqiy va axloqiy refleksiyaning pasayishi; mas’uliyatning tashqi lokalizatsiyasi; xulq-atvorning kasbiy jamoaning mikrosotsial me’yorlariga bog‘liqligi; korrupsiyaviy amaliyotlarga "xizmatning bir qismi" sifatida bag‘rikenglik; bosim va vasvasalarga psixologik chidamlilikning yetarli darajada emasligi. Shu bilan birga, korrupsion xulq-atvor shaxsiy nuqsonlarning bevosita oqibati emas, balki "shaxs - kasbiy muhit - tashkiliy madaniyat" tizimida shakllanishi ta’kidlangan [13]. S.Ye Borisovaning korrupsiya haqidagi maqolasida motivatsion jihatlarga alohida urg‘u berilgan bo‘lib, ular quyidagilarni namoyon qilishi mumkin: ijtimoiy e’tirofga, moddiy manfaatga, o‘z obro‘sini mustahkamlashga intilish. Hissiy-xulq-atvor xususiyatlari: manipulyatsiya qilish qobiliyati, muloqotda moslashuvchanlik, yoqimsiz vaziyatlardan qochish, zavq va yangilik izlash. Kognitiv xususiyatlar: qoidabuzarliklarni ratsionalizatsiya qilishga moyillik, xatti-harakatlarni tashqi sharoitlar ("taqdir," "tasodif") bilan oqlash, oqibatlarni noto‘g‘ri idrok etish. Ijtimoiy moslashuv: jamoa me’yorlariga yo‘nalganlik, ko‘rsatmalarga bo‘ysunish yoki qarshilik ko‘rsatish, rasmiy va norasmiy qoidalar doirasida ishlash qobiliyati. A. A. Bormotovning maqolasi korrupsiyaga to‘g‘ridan to‘g‘ri qaratilmagan bo‘lsada, biroq halollik bilan bog‘liq bo‘lgan bir qator shaxsiy xususiyatlarni barqaror xususiyat sifatida ta’kidlanadi: Halollik tushunchasiga kiritilgan psixosotsial xususiyatlar:

To‘g‘rilik va samimiylik - gapirish va harakatlarda halol bo‘lish qobiliyati;

Prinsipiallik - o‘z e’tiqodiga sodiq qolishga tayyorlik, hatto bu noqulay bo‘lsa ham;

Majburiyatlarga sodiqlik - va’dalar va kelishuvlarga rioya qilish;

Boshqalarning huquqlarini hurmat qilish - boshqa odamlarga nisbatan axloqiy-huquqiy chegaralarni tan olish va ularga rioya qilish;

Ikkiyuzlamachilik va aldamchilikning yo‘qligi yolg‘onchilikning qarama-qarshi xususiyatlaridir.

D.E Burluskaya tomonidan korrupsion faoliyatga olib keluvchi omillarni belgilab beriladi: huquqiy savodxonlikning pastligi, axloqiy tartibga solishning zaifligi, tashqi manfaatlarga yo‘naltirilganlik, ijtimoiy stereotiplarga amal qilish, hamkasblar va obro‘li shaxslar ta’siriga berilish. Shuningdek, moddiy foyda va e’tirofga erishishga qaratilgan qadriyat yo‘nalishlarining roli ta’kidlanadi [14]. O. V. Vannovskayaning maqolasida tarix tomonidan shakllantirilgan rus amaldorining aqliy va madaniy xususiyatlariga urg‘u berilgan [15]:

• Itoatkorlik va bo‘ysunishga moyillik, shaxsiy mas’uliyatning "yuvilib ketishi";

• Korrupsiyaga "normal" amaliyot sifatida tolerant munosabatda bo‘lish;

• Halol mehnat va qonuniy faoliyatga ishonchsizlik (notinch davr, krepostnoylik huquqi, moddiy rag‘batlantirishning past darajasi ta’siri);

• Mulk va boylikni idrok etish xususiyatlari: boylik shubha bilan qabul qilinadi, mehnat - past baholanadi;

• Tarixiy omillarning ikki tomonlama munosabatlarni shakllantirishga ta’siri: xizmatning obro‘si va nufuzi va suiiste’mol qilish ehtimoli yuqoriligi.

O. V. Vannovskayaning tadqiqotlarida quyidagilarga alohida ahamiyat qaratilgan [26]: Shaxsiy qadriyatlar tizimida axloqiy va huquqiy me’yorlar ahamiyatining pasayishi; mas’uliyatning tashqi lokusini shakllantirish (mas’uliyatni vaziyatga, tizimga, rahbariyatga

yuklashga moyillik); Hokimiyat va lavozimga instrumental munosabat; Foyda mavjud bo‘lganda qoidalarning buzilishiga nisbatan tolerantlik; o‘z xatti-harakatlari oqibatlarini aks ettirishning yetarli darajada ifodalanmaganligi; Hokimiyat tizimida moslashuvchan xulq-atvor strategiyasi; Korrupsiyani "majburiy" yoki "normal" amaliyot sifatida oqlash. K.A.Volodina, I.V.Vasileva, A.Ye. Lukyanenkolarning tadqiqotlarida korrupsion faoliyat mazmuniy assotsiatsiyalar orqali ko‘rib chiqiladi [17].:

• korrupsiyani axloqiy baholash;

• korrupsiya bilan bog‘liq shaxsiy fazilatlar (masalan, axloqsizlik, manipulyatsiya, pragmatizm);

• xulq-atvorni oqlash yoki ratsionallashtirish usullari;

• tavakkalchilik va oqibatlarni subyektiv idrok etish.

- Shaxs xususiyatlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri tashxis qilmasdan, ishtirokchilarning psixologik yondashuvlari, qadriyatlari va shaxsiy moyilliklarini aks ettiradi.

I.S. Ganishina va A.S. Gusevaning tadqiqotlarida esa korrupsion faoliyatga boshqacha jihatdan yondoshilgan: Manipulyatsiyaga moyillik, boshqalar ustidan hukmronlik qilish, yuqori ijtimoiy mavqega intilish (Sochichko, Ganishina, Maryin, Sundukova) [18].

- Odamlardan, an’anaviy axloqiy-huquqiy me’yorlardan xudbinlarcha begonalashuv (Strijov).

- Rahbarlardan mustaqil bo‘lish istagi, shaxsiy maqsadlarga erishishda qat’iyatlilik (Gavrina).

- Huquqiy ongning pastligi, axloqiy-huquqiy madaniyatning yetishmasligi (Pryaluxina).

- Shaxsning deviant elementlari, ijtimoiy o‘zaro ta’sirlarning deformatsiyasi, muloqot doirasining cheklanganligi, qurbonlarga nisbatan rahm-shafqatning yo‘qligi (Juravlev, Yurevich).

I.S. Ganishin va V.V. Sundukovlarning maqolasida esa "korrupsioner shaxsi turi"ni tavsiflamaydi va korrupsion xulq-atvorning shaxsiy determinantlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri tahlil qilmaydi. Aksincha, e’tibor korrupsiyaga yo‘l qo‘ymaydigan shaxsiy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan. Quyidagilar diqqat markazida: huquqiy ong darajasi; shaxsning qadriyatli yo‘nalishlari; motivatsion-ehtiyoj sohasi; nazorat lokusi; axloqiy-huquqiy ishonchlilik; qiyin hayotiy vaziyatlarni yengib o‘tish strategiyalari; rad etish, assertiv xulq-atvor, guruh bosimiga qarshilik ko‘rsatish qobiliyati. N.F. Grebenning ma’lumotlarida empirik jihatlar tahlil qilingan, maqolada quyidagi jihatlar alohida ko‘rsatilib o‘tilgan: g‘arazli motivatsiya va moddiy boylikka intilish; korrupsiyani "o‘yin" sifatida qabul qilish; shaxslararo munosabatlarda ehtiyotkorlik; jazodan qo‘rqmaslik; korrupsiya qurbonlariga nisbatan shafqatsizlik; tajovuzkorlik; psixologik himoyalarning ifodalanganligi (inkor, kompensatsiya); tavakkalchilik va qimorga moyillik; nazoratning ichki va tashqi lokusi (qarama-qarshi ma’lumotlar); manipulyativlik; hokimiyat va mas’uliyat sharoitida qulaylik; tashabbuskorlik, ijtimoiy faollik; moslashuvchanlik va ijtimoiy muvaffaqiyat; axloqiy xulq-atvorning tabaqalashtirilmagan tuzilmasi; javob berishning impulsiv turi; qadriyatlar iyerarxiyasining xususiyatlari (nomoddiy qadriyatlarning ustuvorligi; erkinlik, oila, sog‘liq). Muallif empirik ma’lumotlarning, ayniqsa, nazorat lokusi va qadriyat yo‘nalishlari bo‘yicha qarama-qarshiligini ta’kidlaydi[19].

R.A. Guseyngadjievning tadqiqotlarida ham korrupsion faoliyat o‘rganilgan bo‘lib ular quyidagilarga e’tibor qaratilgan. Ijtimoiy-demografik xususiyatlar: yetuk yosh, erkaklar va ayollar, rahbarlik lavozimlari, oliy ma’lumotga egalik, farovon oilalar, ish joyida ijobiy tavsifnoma [20]. Psixologik xususiyatlari: pragmatizm, moddiy qadriyatlarga yo‘nalganlik, huquqiy ongning past darajasi, ma’naviy "qashshoqlik." Yo‘nalishlar va qadriyatlar: o‘z xatti-harakatlarini oqlash ("maqsad vositani oqlaydi"), korrupsiyaga chidamlilik, mavqe va moddiy ustunlikni namoyish etishga intilish. Ayollarning o‘ziga xos xususiyatlari: motivlar oilaviy ehtiyojlar, uy-joy bilan bog‘liq; o‘z harakatlarini oqlashga moyillik. Tashkilotchilar: o‘z tabiatini yashiradi, korrupsiyaga qarshi ommaviy kurashni namoyish etadi, yetakchilik qobiliyatiga ega. Ijrochilar va vositachilar: ta’lim tizimida kasbiy mahorat, yaxshi verbal qobiliyat, aloqa o‘rnatish qobiliyati.

A. A. Gutovning Psixologik portreti (Uvarova): rahm-shafqatning yo‘qligi, yashirin tajovuzkorlik, surbetlik, korrupsiyaga chidamlilik, boylik va hokimiyat orqali o‘zini yolg‘on tasdiqlash.

IIO xodimlarining xususiyatlari quyidagicha ta'riflanadi: maqom va ishdan qoniqmaslik (44% ish joyini o'zgartirishni rejalashtirmoqda); qonuniylik va adolatga ishonmaslik (83% "hamma narsa sotiladi va sotib olinadi" degan fikrga qo'shiladi); kasbiy deformatsiya (hissiy yonish, ruxsat etilgan xatti-harakatlar chegaralarini yo'qotish, rasmiyatchilik). Ijtimoiy omillar: jamoadagi noqulay iqlim, nigilizm, sinizm, jazosizlik hissi, rahbarlarning qo'pol boshqaruv uslubi. Shaxsiy fazilatlar: g'arazgo'ylik yetakchi xususiyat sifatida, xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlar yo'lida foydalanishga intilish (41% qarindoshlari va tanishlariga yordam bergan) [21].

A.A., Danilova va A.A. Maksimenkoning tadqiqotlarida korrupsioner shaxsi o'rganilgan va ular quyidagicha ta'riflaydilar, Korrupsionerning shaxsi quyidagi birikma orqali tavsiflanadi. neyrobiologik xususiyatlar (prefrontal po'stloq faolligining pasayishi, zaif empatiya, impulsivlik), tafakkurning kognitiv uslublari (fiksatsiyalangan tafakkur ko'proq axloqsiz xatti-harakatlarga moyil), motivatsiya (moddiy manfaatlarga yo'nalganlik) [22].

Qayd etilishicha, odamlar o'z xatti-harakatlarining noqonuniyligini anglaydi, ammo biologik mexanizmlar qo'rquvni kamaytiradi va tavakkal qilishga tayyorlikni kuchaytiradi. Miyani faollashtirishdagi individual farqlar korrupsiyaga moyillikning turli darajalarini tushuntiradi.

I. V. Devyatovskaya va E. E. Simanyukning maqolasida ham Korrupsionerning psixologik portreti (Uvarova bo'yicha): rahm-shafqatning yo'qligi, yashirin tajovuzkorlik, surbetlik, korrupsiyaga chidamlilik, boylik va hokimiyat orqali o'zini yolg'on tasdiqlash [23].

Xulq-atvor prediktorlari: Motivlar: hayotdan va kasbdan qoniqmaslik, boyish usuli sifatida hokimiyatga intilish, o'zini tasdiqlash ehtiyoji.

Qadriyatlar: moddiy qadriyatlarning ustuvorligi, axloqiy qadriyatlarning kamayishi, noaniq kasbiy o'ziga xoslik.

Shaxsiy sifatlar: mas'uliyat va o'z-o'zini nazorat qilishning past darajasi, bilvosita tajovuzkorlik, ijtimoiy ikkiyuzlamachilik, konformizm.

Ta'kidlanishicha, jamoatchilik ko'rsatmalari korrupsiyani qo'llab-quvvatlaydi: pora "muammolarni hal qilishning tezkor usuli" sifatida qabul qilinadi.

Qadriyatlar inqirozi va jamiyatning beqarorligi sharoitida korrupsion xatti-harakatlar ommaviy tus oladi.

S.A Drobot tomonidan poraxo'rlarni bir necha guruhga bo'lingan. Bir martalik poraxo'rlar o'z xatti-harakatlarining butun xavfini anglamagan holda epizodik xatti-harakatlarni amalga oshiradilar. Ularning xatti-harakatlari vaziyatli bo'lib, huquqiy ongning pastligi bilan bog'liq [24].

Muntazam poraxo'rlar - muntazam ravishda pora oladigan va jinoiy tuzilmalar bilan barqaror aloqalarga ega bo'lgan hokimiyat vakillari. Ular uchun korrupsiya odatiy holga aylanmoqda.

Tashkilotchilar xizmat mavqeidan qo'l ostidagilarning jinoiy faoliyatini muvofiqlashtirish uchun foydalanadilar. Ular asosiy foydani oladilar va yetakchilik fazilatlariga ega bo'ladilar.

Niqoblangan korrupsionerlar o'z xatti-harakatlarini korxona yoki muassasalarga "yordam berish" bilan niqoblaydi, ammo aslida resurslarni o'zlashtiradi. Ularga ikkiyuzlamachilik va manipulyatsiya xosdir.

Ye.K. Volkonskoyning poraxo'rlik tiplari quyidagicha ajratiladi:

Tashabbuskor tip - foyda uchun har qanday vositalarning halolligiga ishongan ochko'z va tamagir shaxslar. Ularning axloqiy ongi buzilgan, xatti-harakatlari tizimli.

Konform tip - jamoa bosimi ostida korrupsiyaga tortilgan odamlar. Ularning o'z pozitsiyasi yo'q, ular muhitga moslashadi.

Majburiy tur - tashqi sharoit ta'sirida noqonuniy harakatlarni amalga oshiradi. Ularga ta'sirchanlik, huquqiy madaniyatning pastligi va fosh bo'lishdan qo'rqish xosdir.

Umumlashtirilgan turlar:

Manfaatparast - doimo moddiy boylik orttirishga intiladi, boylik uchun tavakkal qilishga tayyor, tanish-bilishlardan faol foydalanadi.

Nufuzli - mavqe va e'tirofga intiladi, hokimiyat va elita guruhlariga intiladi, ijtimoiy mavqeni mustahkamlash uchun korrupsiyadan foydalanadi.

O'yinchi - korrupsiyani tavakkalchilik va hokimiyat bilan bog'liq "o'yin" sifatida qabul qiladi, qonunni buzishdan psixologik qoniqish oladi.

Qo‘shimcha quyidagi tiplar ham uchraydi

Tasodifiy tip - birinchi marta jinoyat sodir etgan, ilgari qonunga itoatkor bo‘lgan.

Vaziyatli tip - noqulay sharoitda harakat qiladi, ko‘pincha ijobiy xususiyatlarga ega, ammo vaziyatga ta’sirchan.

Beqaror tip - ilgari axloqsiz xatti-harakatlarga yo‘l qo‘ygan, birinchi marta korrupsiyaga yo‘l qo‘ygan; o‘z-o‘zini nazorat qilishning zaifligi bilan ajralib turadi.

Yovuz va o‘ta xavfli turi - korrupsiya jinoyatlarida deyarli uchramaydi, bu korrupsiyaning o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq.

Xulosa. Yuqoridagi ma’lumotlar tahliliga ko‘ra quyidagi xulosalarga kelish mumkin, o‘zbek olimlarining an’analarida korrupsion xulq-atvorni ijtimoiy me’yoriy muammo sifatida o‘rganilgan bo‘lsa korrupsiyachi shaxsi individual-psixologik jihatdan kam o‘rganilgan. Rossiya olimlarining korrupsioner shaxsi bo‘yicha quyidagi jihatlariga e’tibor qaratilgan korrupsiyachi shaxsini batafsil tavsiflaydilar, "kriminologik portret" kategoriyasidan faol foydalanadi, korrupsiyachi shaxsni tiplarga ajratadilar, biroq ko‘pincha chuqur psixologik operatsionalizatsiyasiz tavsifiy maydonda qoladi. Shu sababli ham hozirgi kunda korrupsiyachi shaxsning psixologiyasini o‘rganish muhimligini e’tirof qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Abdusamedov N.A.; Madalieva R.Kh. Socio-psychological and professional-ethical aspects of combatting against corruption in the activities of customs authorities. // Academicia An International Multidisciplinary Research Journal (Double Blind Refereed & Peer Reviewed Journal). - Vol. 11, Issue 10. - 2021. - pp. 348-353.

2. Ostanagulov A.D. Corruption practice as a socio-psychological condition is a threat to national security. // Galaxy international interdisciplinary research journal. - Vol. 10, Issue 12. - 2022. - pp. 599-605.

3. Pulatov A.L. The Role of the Socio-Psychological Environment in Forming Anti-Corruption Immunity During Adolescence. // European Science International Conference: “Theory of Scientific Researches of Whole World”. - P. 110-117.

4. Давранов Х.Б. Зарубежный опыт противодействия коррупции. // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. - 2021. - Т.1. - №.9. - С. 238-245.

5. Кулиев Ё.К. Психологические аспекты коррупционных проявлений. // Материалы конференции. - Бухара: БухДУ, 2022. - С. 1-12.

6. Акимкина Е. Н. Социологические и психологические детерминанты коррупционного поведения / науч. рук. В. Г. Морогин // Философские и социологические науки, политология. – Хакасский гос. ун-т им. Н. Ф. Катанова.

7. Албаниз Дж. С., Артелло К. Коррупционное поведение: эмпирическая типология коррупции на государственном уровне по признаку цели и метода // Актуальные проблемы экономики и права. – 2019. – Т. 13, № 2. – С. 1215–1229. – DOI: 10.21202/1993-047X.13.2019.2.1215-1229. (перевод оригинальной статьи: Albanese J. S., Artello K. The Behavior of Corruption: An Empirical Typology of Public Corruption by Objective & Method // Criminology, Criminal Justice, Law & Society. – 2019. – Vol. 20, № 1. – P. 1–12.)

8. Антикоррупционная безопасность в органах местного самоуправления: теоретико-прикладные аспекты криминологического и уголовно-правового совершенствования: Монография. Под общ. ред. В.Ф. Анисимова и В.Ф. Лапшина.- Ханты-Мансийск, 2022.- 190с.

9. Асатрян Х.А. Проблемы определения предмета взяточничества и особенности его выявления в современных реалиях / Х.А. Асатрян, А.А. Христюк. - DOI 10.17150/2500-4255.2022.16(3).374-383. - EDN DXURYQ // Всероссийский криминологический журнал. - 2022. - Т. 16, № 3. - С. 374–383

10. Безродная Н.В. Особенности личности коррупционера. //Вестник восточно-сибирского института МВД России.- 2010.- №2(53).

11. Богодухова Е. М., Гордиенко В. Г. Психологические механизмы коррупционного поведения личности. // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2017. – Т. 44. – С. 1–23. – URL:

12. Большакова Л. В., Литвиненко А. Н.Типологический анализ моделей коррупционного поведения // Вестник Санкт-Петербургского университета МВД России. 2013. №1 (57). С.91-99.

13. Борисова, С.Е. (2023). Феномен коррупционного поведения и его ассоциативно-понятийная составляющая в социальных репрезентациях руководителей подразделений дорожно-патрульной службы ГИБДД. Психология и право, 13(2), 58–69.

14. Бурлуцкая Д.Э. Проблема диагностики и профилактики коррупционного поведения в сфере высшего образования. // Актуальные вопросы противодействия коррупции: Сборник докладов Международной научно-практической конференции, посвященной празднованию 300-летия прокуратуры России, Белгород, 09 декабря 2021 года. - С. 120-131.

15. Ванновская О. В. Историко-психологические предпосылки коррупционного поведения государственных служащих в России // Известия Уральского федерального университета. Серия 1: Проблемы образования, науки и культуры. – 2010. – № 6 (84). – С. 39–45.

16. Ванновская О. В. Личностные детерминанты коррупционного поведения// Известия РГПУ им. А. И. Герцена. 2009. №102. С.323-328.

17. Володина К.А., Васильева И.В., Лукьяненко А.Е. Особенности и личностные характеристики предполагаемого коррупционного поведения: психосемантический подход. // Психопедагогика в правоохранительных органах. - 2024. - Т.29. - №3(98). - С. 294-299.

18. Ганишина И.С., Гусева А.С. Коррупционное поведение сотрудников правоохранительных органов: теоретический анализ проблемы. // Психология и педагогика служебной деятельности. 2021. №4. С. 34-38.

19. Гребень Н.Ф. Личностные особенности коррупционера. // Актуальные вопросы криминологии, противодействия коррупции и исполнения наказаний. Международная научно-практическая заочная конференция, посвященная 30-летию уголовно-исполнительного факультета (г. Минск, 11 апреля 2023 г.) - С. 110-113.

20. Гусейнгаджиев Р.А. Особенности криминологического «портрета» лица, совершившего преступление коррупционной направленности в сфере образования. // Юридический вестник Дагестанского государственного университета. - 2025. - Т.55. - №3. - С. 155-163.

21. Гутова А. А. Психологические факторы коррупционного поведения сотрудников полиции // Актуальные тренды и перспективы социально-экономических, общественных и гуманитарных наук : сборник научных трудов по материалам Международной научно-практической конференции 28 июня 2023г. Белгород : ООО Агентство перспективных научных исследований (АПНИ), 2023. С. 37-46.

22. Данилова А.А., Максименко А.А. Нейробиологические маркеры коррупционного поведения: теоретический обзор// Вестник Челябинского государственного университета. Образование и здравоохранение. 2024. № 1 (25). С. 41–49.

23. Девятовская И. В., Сыманюк Э. Э. Психологические предикторы коррупционного поведения личности и их коррекция // Педагогическое образование в России. 2014. № 8.

24. Дробот С.А. и др. Типология личности преступника, совершающего коррупционные преступления. // Научный юридический журнал «Юридический факт» - 2023. - №217. - С. 3-9.

Murodova Nilufar Anvar qizi
O‘zbekiston milliy universiteti
Jizzax filiali magistranti
E-mail: murodovanilufar556@gmail.com

O‘SMIRLIK DAVRIDA SUITSIDAL XULQ XAVFINING YUZAGA KELISHIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘smirlik davrida suitsidal xulq-atvor xavfining shakllanishiga ta’sir etuvchi asosiy psixologik, ijtimoiy omillar ilmiy-nazariy va emperik jihatdan tahlil qilinadi. O‘smirlik shaxs rivojlanishining murakkab va inqirozli bosqichi bo‘lib, bu davrda kechadigan emotsional beqarorlik, identifikatsiya muammolari va ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar suitsidal fikrlar yuzaga kelishi uchun zamin yaratadi.*

Kalit so‘zlar*: o‘smirlik davri, suitsidal xulq-atvor, suitsidal xavf omillari, emotsional beqarorlik, oilaviy munosabatlar, ijtimoiy moslashuv, identifikatsiya inqirozi, psixologik dezadaptatsiya, ota-onalik uslublari.*

ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ВОЗНИКНОВЕНИЕ СУИЦИДАЛЬНОГО ПОВЕДЕНИЯ В ПОДРОСТКОВОМ ВОЗРАСТЕ

Аннотация. *В данной статье представлен теоретический и эмпирический анализ основных психологических и социальных факторов, влияющих на формирование риска суицидального поведения в подростковом возрасте. Подростковый возраст - сложный и противоречивый этап развития личности, а эмоциональная нестабильность, проблемы идентичности и трудности социальной адаптации в этот период создают основу для возникновения суицидальных мыслей.*

Ключевые слова: *Подростковый возраст, суицидальное поведение, факторы риска суицида, эмоциональная нестабильность, семейные отношения, социальная адаптация, кризис идентичности, психологическая дезадаптация, стили воспитания.*

FACTORS INFLUENCING THE EMERGENCE OF SUICIDAL BEHAVIOR IN ADOLESCENCE

Abstract. *This article provides a theoretical and empirical analysis of the main psychological and social factors that influence the formation of the risk of suicidal behavior during adolescence. Adolescence is a complex and contradictory stage of personality development, and emotional instability, identity problems, and difficulties in social adaptation during this period create the basis for the emergence of suicidal thoughts.*

Key words: *adolescence, suicidal behavior, suicidal risk factors, emotional instability, family relationships, social adaptation, identity crisis, psychological maladaptation, parenting styles.*

Kirish. O‘smirlik davri shaxs rivojlanishining eng murakkab va ziddiyatli bosqichlaridan biri hisoblanadi. Bu davrda jismoniy, psixologik va ijtimoiy o‘zgarishlar bir vaqtning o‘zida kechadi. Mazkur o‘zgarishlar o‘smirning emotsional barqarorligi va xulq-atvoriga bevosita ta’sir ko‘rsatib, ayrim hollarda suitsidal xulq xavfining yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu bois, o‘smirlik davrida suitsidal xavf omillarini aniqlash va tahlil qilish ilmiy-amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega.

O‘z joniga qasd qilish o‘limga olib keladigan o‘z-o‘zini boshqarish, zararli, qasddan qilingan harakat sifatida ta’riflanadi[1]. Yoshi, jinsi, kasbi yoki geografik joylashuvidan qat’i nazar, odamlar o‘z joniga qasd qilishga moyil. Ko‘p omillar ta'sirida amalga oshiriladigan xavfli xatti-harakatlar sifatida o‘z joniga qasd qilish shaxslarning jismoniy va ruhiy farovonligi, hayot xavfsizligi, ijtimoiy farovonligi va hatto mintaqaviy rivojlanish uchun jiddiy tahdid soladi. Har bir

o‘z joniga qasd qilish holati fojiali bo‘lib, o‘z joniga qasd qilish dolzarb global sog‘liqni saqlash muammosiga aylandi [2]. Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining “O‘z joniga qasd qilishning oldini olish: global majburiyat” hisobotida aytilishicha, dunyo bo‘ylab har 40 soniyada bir kishi o‘z joniga qasd qilish natijasida vafot etadi, bu esa har yili 800 000 dan ortiq o‘limga olib keladi[3].O‘z joniga qasd qilish butun dunyo bo‘ylab o‘limning asosiy sabablaridan biriga aylandi, har 100 ta o‘limdan 1 tadan ortig‘i o‘z joniga qasd qilish bilan bog‘liq bo‘lib, bu bezgak, OIV/OITS, ko‘krak bezi saratoni, urush va qotillikdan o‘lim sonidan oshib ketadi. Masalan, Qo‘shma Shtatlarda o‘z joniga qasd qilish darajasi yigirma yil davomida (2000 yildan beri) doimiy ravishda o‘sib bormoqda. 2000 va 2018 yillar oralig‘ida Qo‘shma Shtatlarda o‘z joniga qasd qilish darajasi 35% ga oshdi[4].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. O‘smirlar orasida suitsidal xulq-atvor muammosi xorijiy hamda mahalliy olimlar tomonidan yoshga xos psixologik xususiyatlar nuqtai nazaridan keng o‘rganilgan. Xorijiy psixologiya fanida ushbu muammo o‘smirlik davrida shaxs rivojlanishiga jiddiy ta’sir ko‘rsatuvchi muhim ilmiy masala sifatida qaraladi. Jumladan, E.Durkheim o‘smirlar suitsidini ijtimoiy moslashuv jarayonidagi uzilishlar bilan izohlagan bo‘lsa[5], K.G.Zilboorg, E.Menninger va S.Shneidman o‘smirlik davriga xos psixodinamik ziddiyatlar hamda emotsional kechinmalarning suitsidal xatti-harakatlar shakllanishidagi rolini yoritib berganlar. V.F.Boytsex va N.L.Farberov tadqiqotlarida esa o‘smirlar orasida suitsidal xavf omillarining psixologik va klinik jihatlari kompleks tarzda tahlil qilingan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda o‘smirlar suitsidal xulqining psixologik mexanizmlariga alohida e’tibor qaratilgan. Xususan, A.G.Ambrumova, Yu.R.Vagin, Ye.M.Vrono, F.S.Ismagilova, Z.F.Kamaletdinova, V.T.Kondrashenko, V.A.Tixonenko tadqiqotlarida o‘smirlik davrida yemotsional zo‘riqishga past bardoshlilik, kommunikativ qiyinchiliklar, qat’iylikning yetarli darajada s’hakllanmaganligi hamda o‘z imkoniyatlarini noto‘g‘ri baholas’h suitsidal moyillikni kuchaytiruvchi omillar sifatida ko‘rsatib o‘tilgan. N.A.Berdyaev va Ye.Grollman ishlarida yesa aynan o‘smirlik davrida hayot mazmunini anglash bilan bog‘liq inqiroz holatlari suitsidal fikrlar shakllanishiga olib kelishi mumkinligi ta’kidlanadi[6]. Mamlakatomizda esa S.A.Axunjanova, Z.D.Paulanova, N.A.So‘ginov, T.G.Suleymanova, B.M.Umarov, U.D.Qodirov va G‘.B.Shoumarovlar o‘z tadqiqotlarida o‘smirlik davrida emotsional beqarorlik, o‘z-o‘zini baholashning shakllanish jarayoni hamda shaxslararo munosabatlarning suitsidal xulq namoyon bo‘lishiga ta’sirini tahlil qilganlar[7].

Jumladan, amerikalik psixolog E.Erikson o‘smirlik davrini “identifikatsiya va rol chalkashligi” bosqichi sifatida talqin qilib, aynan shu davrda shaxsda o‘zini anglash bilan bog‘liq ichki ziddiyatlar kuchayishini ta’kidlaydi. Eriksonning fikricha, o‘smir o‘z hayotiy maqsadi, qadriyatlari va jamiyatdagi o‘rnini aniqlay olmaganda, ichki tanglik va emotsional beqarorlik kuchayadi, bu esa suitsidal fikrlarning shakllanishi uchun psixologik zamin yaratadi. Shuningdek, rus psixologi A.G.Ambrumova o‘smirlarda suitsidal xulq-atvorni “psixologik dezadaptatsiya shakli” sifatida izohlaydi. Uning ta’kidlashicha, o‘smirlik davrida yuzaga keladigan ijtimoiy va shaxsiy muammolarni konstruktiv yo‘l bilan hal qila olmaslik, kuchli affektiv holatlar va stressga bardoshlilikning pastligi suitsidal xavfni sezilarli darajada oshiradi. Ambrumova suitsidal xulqni o‘smirning ichki inqirozga bo‘lgan javob reaksiyasi sifatida baholab, uni shaxs va muhit o‘rtasidagi nomutanosiblik bilan bog‘laydi.

O‘smirlik davri chuqur jismoniy va psixologik o‘zgarishlarning muhim davri bo‘lib, ko‘pincha ma'lum ruhiy salomatlik xavflari va o‘z joniga qasd qilish xatti-harakatlariga olib keladi; ammo, bu davr sog‘liqni saqlashni mustahkamlash va ijobiy sog‘liq va rivojlanish natijalariga ta'sir qilishi mumkin bo‘lgan profilaktika choralarini amalga oshirish uchun ulkan salohiyatga ega [8]. Akademik, ijtimoiy va hissiy o‘rganish bo‘yicha hamkorlik SELni barcha yoshlar va kattalar o‘z-o‘zini anglashni rivojlantirish; his-tuyg‘ularni boshqarish; shaxsiy va jamoaviy maqsadlarga erishish; hamdardlikni his qilish va ko‘rsatish; ijobiy munosabatlarni o‘rnatish va saqlab qolish; va mas'uliyatli va hamdard qarorlar qabul qilish uchun bilim, ko‘nikma va munosabatlarni egallash va qo‘llash jarayoni sifatida belgilaydi. O‘z-o‘zini anglash, o‘zini boshqarish, ijtimoiy xabardorlik, munosabatlar ko‘nikmalari va mas'uliyatli qarorlar qabul qilish SELning beshta asosiy ko‘nikmasi

sifatida tan olingan. Talabalarning har tomonlama rivojlanishining asosiy jihati sifatida SEL akademik rivojlanish va psixologik o‘sishni qo‘llab-quvvatlash bilan birga, empatiya, chidamlilik, shaxslararo ko‘nikmalar va umrbod o‘rganish qobiliyatlarini rivojlantiradi, xavfsiz, sog‘lom va teng huquqli jamoalarni rivojlantirishga hissa qo‘shadi. O‘smirlik davrida ijtimoiy va hissiy ko‘nikmalarni rivojlantirish va rag‘batlantirish kelajakdagi farovonlik va ijobiy hayot natijalariga hissa qo‘shadi [9].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda kuzatish, suhbat, so‘rovnoma, Ch.D. Spilberger tomonidan ishlab chiqilgan va Yu.L. Xanin tomonidan modifikatsiya qilingan shaxsiy va vaziyatli xavotirlanuvchanlikni aniqlash metodikasi, L. Lemyre va R. Tessier tomonidan ishlab chiqilgan Psixologik stressni baholash shkalasi (PSM-25) metodikasi, James A. Amirkhanning Stressni yengib o‘tish strategiyalari indikatori (CSI) metodikasi, V.A. Jmurov tomonidan ishlab chiqilgan depressiya darajasini aniqlash metodikasi, shuningdek S.G. Korchaginaning yolg‘izlikni subyektiv his etish, ijtimoiy-psixologik moslashuv va emotsional qoniqishni aniqlashga qaratilgan diagnostik so‘rovnomasidan foydalanildi. Tadqiqotdan olingan ma’lumotlar matematik-statistik qayta ishlashdan o‘tkazilib, tahlil qilish va izohlash statistik usullar (tavsifiy-tavsiflovchi statistika, Kolmogorov Smirnov mezoni, ikki o‘zaro bog‘liq bo‘lmagan tanlanmalar uchun Mann-Uitni mezoni, korrelyatsiya Sperman mezoni, Kruskal Uollis dispersion tahlili, regression tahlil mezoni, «SPSS-22» dasturi talablari bo‘yicha) orqali tasdiqlandi.

Tahlil va natijalar. O‘smirlarda suitsidal xulq xavfi ko‘plab psixologik omillar bilan bog‘liq bo‘lib, bu omillar o‘zaro murakkab tizim hosil qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, emotsional beqarorlik, xavotir, depressiv holat va psixologik stressning yuqori darajasi o‘smirlarning hayotga bo‘lgan munosabati va muammolarni hal etish qobiliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, destruktiv koping-strategiyalar, muammolardan qochish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga bo‘lgan kam ishonch suitsidal xavfni kuchaytiruvchi omillar sifatida namoyon bo‘ladi.

Bu holatlar o‘smirlarda ichki psixologik ziddiyatlar va stressni boshqarishdagi qiyinchiliklarni oshiradi, natijada o‘z hayotiga nisbatan salbiy fikrlar va suitsidal moyilliklar yuzaga keladi. Shu sababli, suitsidal xulq xavfini aniqlashda va unga qarshi choralar ishlab chiqishda psixologik omillarni tizimli tarzda o‘rganish, emotsional holat va koping-strategiyalarni hisobga olish muhim hisoblanadi.

O‘smirlar orasida suidsidal xulq-atvorning psixologik xususiyatlarini aniqlash maqsadida, Spilberger va Xanin metodikasi yordamida ularning vaziyat va shaxs bilan bog‘liq xavotir darajasi o‘lchandi. Tadqiqot natijalari jins bo‘yicha tahlil qilindi va Student t-testidan foydalangan holda farqlar aniqlashga harakat qilindi.

1-jadval

Spilberger va Xanin metodikasi (emotsional beqarorlik va xavotirlanishni aniqlash) ning jins bo‘yicha styudent t mezoni natijalari

Ko‘rsatkichlar	Jinsi	N	O‘rtacha qiymat	Standart og‘ish	t	p
Vaziyat_bilan_bog lik_xavotir	O‘smir yigit	42	32,9787	12,16640	-1,181	,241
	O‘smir qiz	47	35,8333	10,42959		
Shaxs_bilan_bogli k_xavotir	O‘smir yigit	42	34,2553	6,62495	,211	,033*
	O‘smir qiz	47	38,9524	6,91041		

Vaziyat bilan bog‘liq xavotir kO‘rsatkichlari bo‘yicha o‘smir qizlar biroz yuqoriroq natija ko‘rsatdi, ammo bu farq statistik jihatdan ahamiyatli emas (t=-1,181; p=0,241). Bu shuni bildiradiki, o‘smirlar orasida tashqi vaziyatlar bilan bog‘liq emotsional reaksiyalar jinsga bog‘liq holda sezilarli darajada farqlanmaydi. Buning sababi shundaki, vaziyat bilan bog‘liq xavotir ko‘proq umumiy stress va kundalik hayotiy vaziyatlarga bog‘liq bo‘lib, o‘smirning jinsidan qat’i nazar yuzaga keladi.

Shaxs bilan bog‘liq xavotir ko‘rsatkichlarida esa o‘smir qizlar ancha yuqori natija ko‘rsatdi va bu farq statistik jihatdan sezilarli ekanligi aniqlandi (t=0,211; p<0,05). Bu shuni anglatadiki, o‘smir qizlar o‘zlarining ichki his-tuyg‘ulariga, shaxsiy muammolariga va ruhiy holatiga nisbatan ko‘proq sezgir. Shu sababli, shaxsiy xavotir darajasi ularning psixologik holati va suidsidal xulqqa moyilligi bilan bevosita bog‘liq bo‘lishi mumkin.

2-jadval

Lemyre, Tessier va Fillion tomonidan ishlab chiqilgan Psixologik stressni baholash shkalasi (PSM–25) metodikasining jins bo‘yicha styudent t mezoni natijalari

Ko‘rsatkichlar	Jinsi	N	O‘rtacha qiymat	Standart og‘ish	t	p
Psixologik_stress	O‘smir yigit	42	75,0638	29,90013	-1,043	,008**
	O‘smir qiz	47	71,6667	29,72202		

O‘smirlar orasida suidsidal xulq-atvor va psixologik stress darajasini aniqlash maqsadida, Lemyre, Tessier va Fillion tomonidan ishlab chiqilgan Psixologik stressni baholash shkalasi (PSM–25) metodikasidan foydalangan. Tadqiqot natijalari jins bo‘yicha tahlil qilindi va Student t-testidan foydalangan holda o‘smir yigitlar va qizlar orasidagi farqlar aniqlashga harakat qilindi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, o‘smir yigitlar psixologik stress darajasi bo‘yicha o‘smir qizlardan biroz yuqoriroq ko‘rsatkichlarga ega bo‘ldi. Statistik tahlil bu farqning ahamiyatli ekanligini tasdiqladi (t=-1,043; p=0,008), ya’ni o‘smir yigitlar o‘zlarining stress darajasini sezilarli darajada yuqori baholaydilar. Bu natija psixologik jihatdan tushuntirilishi mumkin: o‘smir yigitlar ko‘pincha tashqi muhitning talab va qiyinchiliklariga, shuningdek shaxsiy stress omillariga nisbatan o‘zini boshqarish mexanizmlari jihatdan qizlarga qaraganda kamroq tayyor bo‘ladi. Shu sababli, ular stressni ko‘proq ichki tarzda his qiladilar va bu ularning umumiy psixologik stress darajasini oshiradi.

Bundan tashqari, genderning ijtimoiy-psixologik aspektlari ham ahamiyatlidir. Jamiyat odatda yigitlardan o‘z his-tuyg‘ularini ochiq ifoda qilmaslikni talab qiladi, bu esa stressni ichki ravishda boshqarishga majbur qiladi. Natijada, o‘smir yigitlar o‘z holatini tashqi yordamga murojaat qilmasdan hal qilishga harakat qiladilar, bu esa ularning psixologik stressini yanada oshiradi. Shu bilan birga, o‘smir qizlar stressni ko‘proq ijtimoiy va emotsional yo‘nalishda boshqaradilar, ya’ni do‘stlar, oila yoki maslahatchilar orqali stressni kamaytirish mexanizmlari rivojlangan bo‘lishi mumkin.

3-jadval

Amirxon metodikasi (destruktiv koping-strategiyalarni aniqlash metodikasi) ning jins bo‘yicha styudent t mezoni natijalari

Ko‘rsatkichlar	Jinsi	N	O‘rtacha qiymat	Standart og‘ish	t	p
Muammolarni_hal etish	O‘smir yigit	42	13,3191	3,64815	,343	,732
	O‘smir qiz	47	13,0476	3,81238		
Ijtimoiy_qollab_quvvatlashni_kutish	O‘smir yigit	42	7,1915	4,22538	-,395	,044*
	O‘smir qiz	47	9,5476	4,26673		
Muammolardan_qochish_strategiyasi	O‘smir yigit	42	9,4468	3,74054	-,767 -,759	,045*
	O‘smir qiz	47	10,1190	4,52205		

Muammolarni hal etish strategiyasi bo‘yicha o‘smir yigitlar va o‘smir qizlar natijalari o‘xshash bo‘lib, t-test natijalari farqning statistik jihatdan ahamiyatli emasligini ko‘rsatdi (t=0,343; p=0,732). Bu shuni anglatadiki, o‘smirlar muammolarni hal etishda jinsidan qat’i nazar deyarli bir xil darajada faol yoki passiv strategiyalardan foydalanadilar.

Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni kutish strategiyasi ko‘rsatkichlarida esa o‘smir qizlar sezilarli darajada yuqori natija ko‘rsatdilar (t=-0,395; p=0,044). Bu shuni bildiradiki, o‘smir qizlar stressli vaziyatlarda boshqalardan yordam, maslaxat yoki emotsional qo‘llab-quvvatlash olishga ko‘proq tayyor. Bu gender farqi psixologik jihatdan shunday tushuntiriladi: qizlar ko‘pincha ijtimoiy va emotsional tarmoqlarga tayanadi, o‘z his-tuyg‘ularini ochiq ifodalashga moyil bo‘ladilar va muammolarni yolg‘iz hal qilishga qaraganda, boshqalardan yordam olishni samaraliroq deb biladilar.

Muammolardan qochish strategiyasi bo‘yicha ham o‘smir qizlar yigitlarga nisbatan yuqoriroq natija ko‘rsatdilar (t=-0,767; p=0,045), bu statistik jihatdan ahamiyatli farqni bildiradi. Shu bilan, o‘smir qizlar stressli vaziyatlarda ba’zan muammolardan qochish yoki ularni kechiktirish strategiyalariga murojaat qilishga moyil bo‘lishi mumkin. Bu esa ularning psixologik holatini, shu jumladan suidsidal xulq xavfini oshirishi mumkin bo‘lgan potentsial xavf omilini ko‘rsatadi.

Ushbu natijalar shuni ko‘rsatadiki, o‘smirlar orasida destruktiv koping-strategiyalar jinsga bog‘liq farqlanishi mumkin. Tadqiqot xulosalariga ko‘ra, o‘smir qizlarning muammolarni hal qilishda boshqalardan yordam olishga va ba’zan qochish strategiyalariga tayanishi, ularning psixologik holatini aniqlash va suidsidal xulqni oldini olishda e’tibor qaratishni talab qiladi. Shu bilan birga, yigitlar o‘z muammolarini ko‘proq mustaqil hal qilishga urinishi ularning stressni boshqarish strategiyalarini kuchaytirish zaruratini ko‘rsatadi.

4-jadval

V.A.Jmurov tomonidan ishlab chiqilgan depressiv holatlarni aniqlash metodikasining jins bo‘yicha styudent t mezoni natijalari

Ko‘rsatkichlar	Jinsi	N	O‘rtacha qiymat	Standart og‘ish	t	p
Depressiya	O‘smir yigit	42	41,1489	23,01037	-,779	,039*
	O‘smir qiz	47	39,0952	11,31761		

Suidsidal xulq-atvor bilan bog‘liq depressiv holatlarni aniqlash maqsadida V.A. Jmurov tomonidan ishlab chiqilgan depressiv holatlarni aniqlash metodikasi qo‘llanildi. Tadqiqot natijalari jins bo‘yicha tahlil qilindi va Student t-testidan foydalangan holda o‘smir yigitlar va qizlar orasidagi farqlar aniqlanishga harakat qilindi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, o‘smir yigitlar depressiya darajasi bo‘yicha o‘smir qizlardan biroz yuqoriroq ko‘rsatkichlarga ega bo‘ldilar. T-test natijalari bu farqning statistik jihatdan ahamiyatli ekanligini tasdiqladi (t=-0,779; p=0,039). Bu shuni anglatadiki, o‘smir yigitlar o‘zlarining depressiv holatini sezilarli darajada yuqori baholaydilar.

Psixologik tahlil nuqtai nazaridan, bu gender farqi bir necha omillar bilan izohlanishi mumkin. O‘smir yigitlar ko‘pincha o‘z his-tuyg‘ularini ochiq ifodalashga odatlanmagan bo‘ladilar, shuningdek, ular ichki stress va psixologik muammolarni mustaqil boshqarishga harakat qiladi. Shu sababli, depressiv holat ularning ichki dunyosida ko‘proq namoyon bo‘lishi va baholanishi mumkin. Shuningdek, ijtimoiy va madaniy me’yorlar yigitlarni emotsional qo‘llab-quvvatlashni izlashdan cheklashi, depressiv simptomlarning kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, o‘smirlik davrida suitsidal xulq xavfi murakkab va ko‘p omilli hodisa bo‘lib, uning shakllanishida oilaviy, ijtimoiy hamda individual-biologik omillar muhim rol o‘ynaydi. Oiladagi psixologik muhit, ota-onalar bilan munosabatlar sifati va emotsional qo‘llab-quvvatlash darajasi o‘smirning ruhiy barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, tengdoshlar bilan munosabatlar, maktab muhitidagi psixologik iqlim va ijtimoiy rad etilish holatlari suitsidal xavfni kuchaytiruvchi omillar sifatida namoyon bo‘ladi. Individual va biologik xususiyatlar, xususan, temperament, impulsivlik, depressiv holatlar va stressga bardoshlilik darajasi ham suitsidal xulqning yuzaga kelishida ahamiyatlidir. Statistik ma’lumotlar ushbu omillarning alohida emas, balki o‘zaro ta’sirda namoyon bo‘lishi suitsidal xavfni sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatadi. Shu sababli, o‘smirlarda suitsidal xulqni oldini olish jarayonida mazkur omillarni kompleks tarzda hisobga olish va ko‘p yo‘nalishli profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

Xususan, o‘smirlarning xavotir, emotsional beqarorlik va depressiya darajalari temperament tipiga qarab sezilarli farq qiladi. Masalan, sangvinik va flegmatik o‘smirlar tashqi stress omillariga sezgir bo‘lib, yuqori psixologik stress his qiladilar, melonxolik o‘smirlar esa ichki resurslari orqali stressni pasaytiradi. Bu holat temperamentning o‘smirlarning stressga reaksiyasi va koping-strategiyalarini shakllantirishdagi rolini ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Klonsky E.D., May A.M., Saffer B.Y. Suicide, Suicide Attempts, and Suicidal Ideation // Annu Rev Clin Psychol. – 2016. – Vol. 12. – P. 307–330. doi: 10.1146/annurev-clinpsy-021815-093204.
2. Turecki G., Brent D.A., Gunnell D. et al. Suicide and suicide risk // Nat Rev Dis Primers. – 2019. – Vol. 5. – Art. 74. doi: 10.1038/s41572-019-0121-0.
3. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti. O‘z joniga qasd qilishning oldini olish: global zarurat. – Jeneva: JSST, 2014. [Elektron resurs]. URL: https://www.who.int/publications/i/item/9789241564779 (Murojaat sanasi: 19.11.2023).
4. Liu X.Q., Wang X. Adolescent suicide risk factors and the integration of social-emotional skills in school-based prevention programs // World J Psychiatry. – 2024. – Vol. 14(4). – P. 494-506. doi: 10.5498/wjp.v14.i4.494.
5. Durkheim E. Le Suicide. – Paris: Alcan, 1897. – 462 p.
6. Grollman E.A. Suicide: Prevention and Intervention. – Boston: Beacon Press, 1971. – 145 p.
7. Shoumarov G‘.B. Psychological safety of adolescents. – Tashkent, 2020. – 160 p.
8. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti. O‘smirlarning rivojlanishiga yordam berish bo‘yicha qo‘llanma. [Elektron resurs]. URL: https://www.who.int/publications/i/item/9789240025554 (Murojaat sanasi: 19.11.2023).
9. Abrahams L., Pancorbo G., Primi R. et al. Assessing Social-Emotional Skills in Children and Adolescents // Psychol Assess. – 2019. – Vol. 31. – P. 460–473. doi: 10.1037/pas0000591.
10. Overholser J.C., Adams D.M., Lehnert K.L. et al. Self-Esteem and Suicidal Tendency Among Adolescents // J Am Acad Child Adolesc Psychiatry. – 1995. – Vol. 34. – P. 919–928. doi: 10.1097/00004583-199507000-00016.
11. Nguyen D.T., Wright E.P., Dedding C. et al. Low Self-Esteem and Its Association With Anxiety, Depression, and Suicidal Ideation in Vietnamese Secondary School Students // Front Psychiatry. – 2019. – Vol. 10. – Art. 698. doi: 10.3389/fpsyt.2019.00698.
12. Peterson C. The Future of Optimism // Am Psychol. – 2000. – Vol. 55. – P. 44–55. doi: 10.1037//0003-066x.55.1.44.

Qayumova Dilobar
Teacher in the Department of Foreign Languages, Turon University,
E-mail: qayumovadilobar4@gmail.com,
Ochilova Muxlisabonu
Student in the Department of Foreign Languages, Turon University
E-mail: muxlisaochilova4@gmail.com

CHO'LPON'S ENDURING LEGACY IN UZBEK LITERATURE

Annotation. *This article analyzes Cho‘lpon's life (with his birth year variously cited as 1893 or 1897) and his major writings to illuminate how he fused realism, liberal reform, and national awakening with the inherent risks of political repression. It traces his key works, including his early lyric and social-realist poetry, exemplified in collections like Uyg‘onish (The Awakening), Buloqlar (The Springs), and Tong sirlari (The Secrets of Dawn), and culminating in his seminal novel, Night and Day (Kecha va kunduz). The study also examines the harsh realities of his Moscow exile and his eventual execution. Furthermore, this analysis explores how post-Soviet scholarship and translations, particularly of Night and Day, have shaped his international reception. Employing a methodology that combines close reading of primary texts with a synthesis of scholarly theses from various academic sources, the findings reveal Cho‘lpon as a central figure in Uzbek modernism who deftly navigated reformist ideals and Soviet censorship, leaving a contested but undeniably influential legacy.*

Key words: *Cho‘lpon; Uzbek modernism; Jadid movement; realism; national awakening; Soviet repression; Uzbek novel; Night and Day; literary translation; cultural resistance.*

CHO‘LPONNING O‘ZBEK ADABIYOTIDAGI BOQIY MEROSI

Annotatsiya. *Ushbu maqola Cho‘lponning hayoti (tug‘ilgan yili 1893 yoki 1897 deb turlicha qayd etiladi) hamda uning asosiy asarlarini tahlil qilib, realizm, liberal islohotchilik va milliy uyg‘onish g‘oyalarini siyosiy tazyiq xavfi bilan qanday uyg‘unlashtirganini yoritadi. Tadqiqot uning dastlabki lirik va ijtimoiy-realistik she’riyati, jumladan “Uyg‘onish”, “Buloqlar”, “Tong sirlari” to‘plamlarini hamda uning mashhur romani - Kecha va kunduz asarini qamrab oladi. Shuningdek, maqolada uning Moskva surgunidagi og‘ir hayoti va oxir-oqibat qatl etilishi bilan bog‘liq fojeali taqdiri ham tahlil qilinadi. Bundan tashqari, mustaqillikdan keyingi ilmiy tadqiqotlar va ayniqsa Night and Day tarjimalari uning xalqaro miqyosdagi qabul qilinishiga qanday ta’sir ko‘rsatgani ko‘rib chiqiladi. Birlamchi matnlarni yaqin o‘qish hamda turli ilmiy manbalardagi nazariy qarashlarni sintez qilish metodologiyasiga tayangan holda, tadqiqot natijalari Cho‘lponni o‘zbek modernizmining markaziy namoyandalaridan biri sifatida ko‘rsatadi. U islohotchilik g‘oyalari va sovet senzurasini mohirona muvozanatlashtira olgan adib bo‘lib, bahsli, ammo shubhasiz ta’sirchan adabiy meros qoldirgan.*

Kalit so‘zlar: *Cho‘lpon; o‘zbek modernizmi; jadidchilik harakati; realizm; milliy uyg‘onish; sovet repressiyasi; o‘zbek romani; Kecha va kunduz; adabiy tarjima; madaniy qarshilik.*

НЕУВЯДАЕМОЕ НАСЛЕДИЕ ЧУЛПОНА В УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация. *В данной статье анализируется жизнь Чулпона (год его рождения указывается по-разному - 1893 или 1897) и его основные произведения с целью показать, как он соединял реализм, либеральные реформаторские идеи и национальное пробуждение с неизбежными рисками политических репрессий. В работе рассматриваются его ранние лирические и социально-реалистические стихотворения, представленные в сборниках «Уйғониш», «Булоқлар», «Тонг сирлари», а также его знаковый роман - Kecha va kunduz. Кроме того, исследуются тяжёлые условия его ссылки в Москве и его последующая казнь.*

Особое внимание уделяется постсоветским исследованиям и переводам, прежде всего Night and Day, которые повлияли на его международное признание. Используя методологию, основанную на внимательном анализе первичных текстов и синтезе научных источников, автор приходит к выводу, что Чулпон является центральной фигурой узбекского модернизма. Он сумел искусно балансировать между реформаторскими идеалами и советской цензурой, оставив спорное, но несомненно значительное литературное наследие.

***Ключевые слова**: Чулпон; узбекский модернизм; джадидское движение; реализм; национальное пробуждение; советские репрессии; узбекский роман; Kecha va kunduz; литературный перевод; культурное сопротивление.*

Introduction. Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon, a name synonymous with enlightenment and hope within Uzbek literature, emerged as a towering figure during a transformative era in Central Asia. His prolific career, spanning poetry, prose, drama, and translation, left an indelible mark on the development of modern Uzbek literary aesthetics. Cho‘lpon was not merely a writer; he was a cultural bridge, introducing realism to Uzbek literature while experimenting with forms that blended Eastern traditions with global aesthetics. Deeply influenced by and a prominent participant in the Jadid movement, which advocated for the modernization of Uzbek society through education and cultural reform, Cho‘lpon's works consistently championed themes of national consciousness, intellectual awakening, and social progress. This article aims to provide a comprehensive overview of Cho‘lpon's literary journey, his thematic concerns, and the complex circumstances surrounding his life and work, ultimately highlighting his enduring significance as a symbol of intellectual resistance.

Literature Review. Scholarly discourse surrounding Cho‘lpon is rich and often centers on his pivotal role in introducing realism to Uzbek literature and his fervent advocacy for national identity and independence. These were precisely the attributes that led to his vilification as a "bourgeois nationalist" in Soviet discourse. His novel, Night and Day, is widely recognized as a masterpiece, offering a poignant portrayal of societal issues and the struggles faced by Uzbek women. Studies also consistently note his experimental approach across various literary forms and his significant contributions to literary translation, which broadened Uzbek literary horizons by exposing audiences to diverse literary traditions, including those of William Shakespeare and Aleksandr Pushkin. The impact of Stalinist purges on Cho‘lpon and other intellectuals is a recurring and somber theme in academic analyses. Recent scholarship has focused on the reinterpretation and revival of his work in post-Soviet Uzbekistan, acknowledging the gaps and disagreements in biographical and critical accounts due to historical erasure. Western scholarship, in particular, highlights his equivocal status: admired for his lyrical sensitivity yet criticized for "nationalist" pessimism under Soviet scrutiny. Critics point to his shift from romanticism to realism, influenced by contemporaries like Abdulla Qodiriy and Fitrat. Foreign Cholponology often focuses on sociopolitical interpretations, revealing intercultural translations and his role in educating poets amidst repression. Modern works revive his classics, analyzing psychological depths and mythological motifs in his oeuvre, positioning him as a vital bridge between Eastern and Western aesthetics.

Research and Analysis. Cho‘lpon's life trajectory profoundly reflects the broader struggles of Uzbek intellectuals during a period of intense political and cultural transformation. Born into a modest family, he immersed himself in classical Persian and Turkic literature before actively joining reformist movements in the aftermath of the 1917 Revolution. His poetry in the 1920s subtly but powerfully critiqued Soviet power, which eventually led to his exile in Moscow. During this period, he expanded his intellectual horizons by translating works from prominent Russian authors like Pushkin and the monumental plays of William Shakespeare, thereby enriching Uzbek literature with crucial world voices. His masterpiece, Night and Day (published between 1935–1937), masterfully portrays the plight of O'ltinoy, a young woman facing a forced marriage to an elderly man. This narrative serves as a potent symbol of women's subjugation and the broader societal stagnation prevalent in tsarist-era Uzbekistan. Research into incomplete manuscripts indicates

Cho‘lpon's clear intention to expose gender and class inequities through his narrative. Analytically, Cho‘lpon's unique style fused materiality and spirituality: an objective realism in his prose contrasted with a deeply subjective lyricism in his poems. His publicist critiques of imperialism further showcased his unwavering commitment to social commentary. Cho‘lpon's associations with the "ziyolilar" (intellectuals) like Fitrat fueled accusations of pan-Turkism, a politically dangerous charge during the Soviet era. This culminated in his arrest and execution in 1938, a fate shared by many intellectuals during Stalin's purges. This research synthesizes biographical sketches and textual analyses, revealing how his works subtly and overtly resisted empire by mythologizing national identity, a point underscored by comparative studies of his motifs and themes. His literary achievements are further highlighted by his ranking as the 7th most popular Uzbek figure and 62nd in Uzbekistan's biographical rankings, globally placing him as the 4,957th among writers (HPI 55.79), surpassing many of his contemporaries.

Results. Cho‘lpon's literary output profoundly advanced Uzbek literature by introducing modern narrative techniques and thematic depth. His works consistently advocated for national consciousness, intellectual awakening, and social progress, all while demonstrating a mastery of language and style. Night and Day remains a powerful testament to his narrative skill and his unwavering commitment to exploring Uzbek societal realities, particularly the struggles of women and the critique of social hypocrisy. Despite his life being tragically cut short by political persecution, Cho‘lpon's writings have experienced a significant resurgence in post-Soviet Uzbekistan, cementing his status as a foundational figure in modern Uzbek literary history and a powerful symbol of national intellectual thought. His innovations-realist novels humanizing social issues and poetry fostering emotional depth-elevated Uzbek prose from didactic forms to nuanced art. The post-independence revival, including new editions and English translations of Night and Day, affirm his enduring influence on intercultural dialogue and feminist themes. The results indicate that his persecution, far from erasing him, amplified his symbolic resistance. As a "poet of genuine heart," he inspired generations, with studies showing his stylistic blend of naturalism and sociality shaping modern Uzbek aesthetics. Ultimately, Cho‘lpon's life underscores literature's immense power against oppression, urging ongoing preservation of his untranslated works for global appreciation and deeper understanding. Cho‘lpon's role as a translator was crucial in bridging Uzbek literature with global literary traditions. His pioneering efforts, particularly in translating William Shakespeare into Uzbek, were groundbreaking for Central Asia. This not only introduced new literary forms and narratives to Uzbek audiences but also demonstrated a deep engagement with world literature. His translations of Russian authors further enriched the literary landscape, broadening horizons and inspiring new generations of writers. This aspect of his work highlights his vision for a modern Uzbek culture that was both deeply rooted in its own traditions and open to international influences.

Conclusion. Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon, the "Morning Star," epitomizes the complex and often tragic trajectory of intellectuals during a period of immense ideological conflict. His contributions to Uzbek literature, spanning lyrical poetry, realist prose, drama, and groundbreaking translations, fundamentally shaped the modern literary landscape of Central Asia. Cho‘lpon's unwavering commitment to depicting social realities, promoting national identity, and advocating for cultural modernization placed him at the forefront of the Jadid movement, yet also marked him for persecution by the Soviet regime. Despite attempts to erase his memory and suppress his works, his legacy has not only endured but has experienced a powerful resurgence in contemporary Uzbekistan. Today, Cho‘lpon is celebrated not just as a literary giant, but as a poignant symbol of resistance, whose voice, once silenced, now resonates more loudly than ever, guiding new generations through the complexities of history and identity.

References.

1. Abdullaev R. O‘zbek adabiyotida jadidchilik va realizm muammolari. – Toshkent: Fan, 2015. – 256 b.
2. Allworth E. A. The modern Uzbeks: From the fourteenth century to the present. – Stanford: Stanford University Press, 1990. – 410 p.
3. Cho‘lpon A. S. . Kecha va kunduz. – Qayta nashr. – Toshkent: Sharq, 2000. – 320 b.
4. Cho‘lpon A. S. . Tanlangan asarlar: 2-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2003. – 384 b.
5. Fitzpatrick S. Everyday Stalinism: Ordinary life in extraordinary times. – Oxford: Oxford University Press, 1999. – 288 p.
6. Khalid A. The politics of Muslim cultural reform: Jadidism in Central Asia. – Berkeley: University of California Press, 1998. – 340 p.
7. Mirvaliev S. Cho‘lpon ijodida realizm va milliy ong masalalari // O‘zbek tili va adabiyoti. – 2006. – № 4. – B. 22–28.
8. Qosimov B. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. – Toshkent: Akademnashr, 2011. – 280 b.
9. Togan Z. V. Bugungi Turkili (Turkiston) va yaqin tarixi. – Istanbul: Enderun, 1981. – 450 b.
10. Yusupov O. Cho‘lpon romanlarida ayol obrazi va ijtimoiy tanqid // Filologiya masalalari. – 2018. – № 2. – B. 45–52.

Qobilova Nilufar Xudoyshukurovna
Qarshi davlat texnika universiteti dotsenti

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING LOYIHAVIY TA’LIM SHAROITIDA KONGRUENTLIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH: FASILITATORLIK YONDASHUVI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada loyihaviy ta’lim sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik kongruentlik qobiliyatini rivojlantirish masalalari fasilitatorlik yondashuvi va refleksiv mexanizmlar asosida tahlil qilinadi. Pedagogik kongruentlik o‘qituvchining ichki kasbiy qadriyatlari, emotsional holati va tashqi pedagogik faoliyati o‘rtasidagi uyg‘unlik sifatida talqin etiladi hamda uning samarali pedagogik faoliyatni ta’minlashdagi ahamiyati asoslab beriladi. Tadqiqotda loyihaviy ta’lim bo‘lajak o‘qituvchilarni ta’lim jarayonining faol subyekti sifatida shakllantirib, ularning mustaqil fikrlashi, refleksiv tahlil ko‘nikmalari va emotsional-intellektual barqarorligini rivojlantirish imkonini berishi ko‘rsatib beriladi. Fasilitatorlik yondashuvi pedagogning an’anaviy nazorat qiluvchi rolidan hamkorlik va qo‘llab-quvvatlashga asoslangan kasbiy pozitsiyaga o‘tishini ta’minlab, kongruent pedagogik muhitni shakllantirishga xizmat qilishi yoritiladi. Tajriba-sinov ishlari natijalari refleksiv mexanizmlar va loyihaviy faoliyat uyg‘unligi bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik kongruentlikning izchil va barqaror rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Olingan xulosalar oliy ta’lim muassasalarida pedagog kadrlar tayyorlash jarayonini takomillashtirishda amaliy ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: *loyihaviy ta’lim, pedagogik kongruentlik, fasilitatorlik yondashuvi, refleksiya, bo‘lajak o‘qituvchi, pedagogik kompetensiya.*

РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ КОНГРЕССА У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ В ПРОЕКТНОМ ОБРАЗОВАНИИ: ФАСИЛИТАЦИОННЫЙ ПОДХОД

Аннотация. *В данной статье анализируются вопросы развития навыков педагогической согласованности у будущих учителей в проектном образовании на основе фасилитационного подхода и рефлексивных механизмов. Педагогическая согласованность интерпретируется как гармония между внутренними профессиональными ценностями учителя, его эмоциональным состоянием и внешней педагогической деятельностью, и обосновывается её важность для обеспечения эффективной педагогической деятельности. Исследование показывает, что проектное образование формирует будущих учителей как активных субъектов образовательного процесса, позволяет им развивать самостоятельное мышление, навыки рефлексивного анализа и эмоционально-интеллектуальную устойчивость. Подчеркивается, что фасилитационный подход способствует формированию согласованной педагогической среды, обеспечивая переход учителя от традиционной надзорной роли к профессиональной позиции, основанной на сотрудничестве и поддержке. Результаты экспериментальной работы подтверждают, что сочетание рефлексивных механизмов и проектной деятельности оказывает положительное влияние на последовательное и устойчивое развитие педагогической согласованности у будущих учителей. Полученные выводы имеют практическое значение для совершенствования процесса подготовки педагогических кадров в высших учебных заведениях.*

Ключевые слова: *проектное образование, педагогическая согласованность, фасилитационный подход, рефлексия, будущий учитель, педагогическая компетентность.*

DEVELOPING FUTURE TEACHERS' CONGRUENCY SKILLS IN A PROJECT-BASED EDUCATIONAL SETTING: A FACILITATORIAL APPROACH

Abstract. *This article analyzes the problems of developing pedagogical congruence in future teachers in higher education institutions and the possibilities of a project approach in eliminating them. In the study, pedagogical congruence is interpreted as the harmony between the internal professional values, emotional state and external pedagogical activity of the future teacher. The insufficient formation of congruence skills in the current process of training pedagogical personnel is substantiated as a scientific problem. During the study, the pedagogical model developed on the basis of a project approach was aimed at the harmonious development of the communicative, emotional-intellectual, reflexive and moral stability skills of future teachers. The results of experimental work showed that project activities had a positive effect on a significant increase in the level of pedagogical congruence in future teachers. The results obtained were confirmed on the basis of statistical analysis, and the effectiveness of the project approach in developing pedagogical congruence was scientifically substantiated. The results of the article are of significant practical importance in improving the process of training pedagogical personnel in the higher education system, increasing the professional and pedagogical competence of future teachers, and forming them as reflexive, dialogue-ready and facilitators.*

Key words: *pedagogical congruence, project approach, future teacher, pedagogical competence, reflection, higher education.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim paradigmasida o‘qituvchining kasbiy faoliyati faqat bilim berish bilan cheklanmay, balki ta’lim oluvchilarning shaxsiy, emotsional va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan murakkab pedagogik jarayon sifatida talqin etilmoqda. Ushbu jarayonda fasilitatorlik yondashuvi o‘qituvchining an’anaviy nazorat va boshqaruvga asoslangan rolidan voz kechib, ta’lim oluvchining faol subyekt sifatida shakllanishini qo‘llab-quvvatlovchi kasbiy pozitsiyasini ifodalaydi. Fasilitatorlik (lotincha facilitare - yengillashtirmoq, qulaylashtirmoq) pedagogning ta’lim jarayonini tashkil etishda talabalarning mustaqil fikrlashi, refleksiv tahlili va ichki resurslarini faollashtirishga yo‘naltirilgan faoliyatini anglatadi. Fasilitator o‘qituvchi bilimlarni tayyor holda uzatishdan ko‘ra, o‘quv jarayonida muammoli vaziyatlar yaratish, savol-javoblar orqali fikrlashni rag‘batlantirish va hamkorlik muhitini shakllantirishga ustuvor ahamiyat beradi. Bunda ta’lim jarayoni subyekt–subyekt munosabatlariga asoslanib, o‘qituvchi va talaba o‘rtasida dialogga tayangan pedagogik aloqalar qaror topadi.

Pedagogik nuqtayi nazardan fasilitatorlik yondashuvi o‘qituvchining shaxsiy fazilatlari va kasbiy xulq-atvori uyg‘unligini talab etadi. Aynan shu jihat fasilitatorlikni pedagogik kongruentlik tushunchasi bilan uzviy bog‘laydi. Kongruent o‘qituvchi ichki kasbiy qadriyatlari, emotsional holati va tashqi pedagogik faoliyati o‘rtasida izchil moslikni ta’minlay oladi. Natijada ta’lim oluvchilar tomonidan pedagog shaxsiga nisbatan ishonch, ochiqlik va hamkorlikka tayyorlik shakllanadi. Fasilitatorlik yondashuvi ana shunday kongruent pedagogik muhitni yaratishning muhim mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi.

Loyihaviy ta’lim sharoitida fasilitatorlik o‘qituvchidan refleksiv fikrlash, emotsional-intellektual barqarorlik va kommunikativ moslashuvchanlikni talab etadi. O‘qituvchi loyiha jarayonida talabalarning individual ehtiyojlari va qobiliyatlarini hisobga olib, ularni mustaqil qaror qabul qilishga, o‘z faoliyatini baholashga va takomillashtirishga undaydi. Bu esa bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik kongruentlikning barqaror shakllanishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Ta’limga loyihalash metodining kirib kelishi XIX asrga borib taqaladi, J.Dyui esa XX asr boshlarida loyihalash metodini yoshlarning qiziqishlaridan kelib chiqib ularni yo‘naltirishga asoslangan pragmatik pedagogika ta’limotiga tatbiq qilgan. 1918-yilda Kolumbiya universiteti qoshidagi pedagogika kolleji o‘qituvchisi Vilyam Kilpatrik loyihalash metodining mohiyatiga bag‘ishlab “Loyihalash metodi” nomli maqolani chop qildirdi. Muallifning keyingi maqolalarida ushbu atama quyidagicha talqin qilinadi: “Loyiha” atamasi faoliyatning har bir imkoniyatini, tajriba jarayonining bog‘liqligini anglatishi zarur. Bunda maqsad ichki omil sifatida:

- faoliyatning maqsadini anglatadi, tajribaga ega bo‘lish jarayonini boshqaradi;
- shaxsning o‘z faoliyatini va ichki qobiliyatini ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi.

1905-yilda rus pedagogi S.T.Shatskiy o‘qitish tizimida loyihalash metodini qo‘llashga harakat qildi, keyinchalik, 20-yillarda maktablarda loyihalash metodi asosiy metod sifatida o‘quv jarayoniga keng tatbiq qilina boshlandi, biroq 1931-yilda bu metod yordamida umumta’lim fanlarini talabalarga chuqur o‘rgatishning to‘la imkoni yo‘q degan xulosaga kelindi va an’anaviy ta’limga qaytildi. Loyihalash metodi uzlyuksizlikni ta’minlay olmagani va puxta o‘ylanmagan metod sifatida tanqidga uchradi va yaqin davrgacha ta’lim jarayonida qo‘llanilmasdan keldi.

Bugungi kunda “loyiha usulini oliy ta’limning zamonaviy maqsadlariga ko‘proq mos keladigan yetakchi o‘qitish usullaridan biri sifatida ko‘rib chiqish mumkin, ulardan biri bo‘lajak o‘qituvchilarning loyihalash ko‘nikmalarini shakllantirishdir” degan nuqtai nazar keng tarqalgan.


Shu bilan birga, loyihalash usuli pedagogikada quyidagicha tavsiflanadi: “loyihalash - shaxsga yo‘naltirilgan, faoliyatga asoslangan, guruhda va guruh faoliyatida o‘zaro munosabatlarni o‘rgatadigan, muammoli ta’lim tamoyillariga asoslangan, o‘zini namoyon qilish va aks yettirish ko‘nikmalarini rivojlantiradigan, mustaqil va aqliy, amaliy va ixtiyoriy sohalarning ko‘nikmalarini shakllantiradigan, qat’iyatlilikni tarbiyalaydigan ijodiy faoliyat” dir. “Pedagogik ensiklopedik lug‘at” da loyiha usuli “talabalar doimiy ravishda murakkablashib borayotgan amaliy vazifalar - loyihalarni rejalashtirish va bajarish jarayonida bilimga ega bo‘ladigan o‘quv tizimi” deb ta’riflanadi. YE.S.Polatning ta’kidlashicha, “loyiha usuli talabalarning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda bayon etish, axborot makonida harakat qilish, tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga asoslangan”. Agar biz pedagogik texnologiya sifatida loyiha usuli haqida gapiradigan bo‘lsak, unda ushbu texnologiya o‘z mohiyatiga ko‘ra ijodiy bo‘lgan tadqiqot, muammoli usullar to‘plamini o‘z ichiga oladi”. Xorijiy tadqiqotlarda loyihaviy yondashuv modelini ishlab chiqishda oid turli nazariy yondashuvlar tahlil qilingan. Model yaratishda Y.M. Kuzminov, V.L. Matrosov, V.D. Shadrikov tomonidan ishlab chiqilgan pedagogik faoliyatning professional standarti loyihasidagi talablar asos bo‘lib xizmat qiladi.

Loyihaviy ta’limning pedagogik imkoniyatlari E.S. Polat, N.Yu. Pakhomova, G.B. Golub, O.V. Churakova va boshqa olimlar tadqiqotlarida keng yoritilgan. Ularning ishlarida loyihaviy faoliyat talabalarning mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarni hal etish ko‘nikmalari va refleksiv faoliyatini rivojlantirishning samarali vositasi sifatida talqin etiladi. Biroq ushbu tadqiqotlarda loyihaviy ta’limning aynan pedagogik kongruentlikni shakllantirishdagi imkoniyatlari yetarli darajada tizimli tahlil qilinmagan. Fasilitatorlik yondashuvi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar (V.A. Slastenin, S.L. Troyanskaya, V.S. Bezrukova va boshqalar) o‘qituvchining an’anaviy bilim beruvchi rolidan hamkorlik va qo‘llab-quvvatlashga asoslangan kasbiy pozitsiyaga o‘tishini ta’kidlaydi. Ushbu yondashuv pedagogik refleksiya, emotsional-intellektual barqarorlik va kommunikativ moslashuvchanlikni rivojlantirish bilan chambarchas bog‘liq. Shu bilan birga, bo‘lajak o‘qituvchilarda fasilitatorlik pozitsiyasini shakllantirishning mexanizmlari, ayniqsa, loyihaviy ta’lim sharoitida, yetarlicha o‘rganilmagan.

Natija va muhokama. Tadqiqot jarayonida loyihaviy ta’lim sharoitida fasilitatorlik yondashuvi va refleksiv mexanizmlarni tizimli qo‘llash bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik kongruentlik qobiliyatini rivojlantirishga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatgani aniqlandi. Tajriba-sinov ishlari natijalari loyihaviy faoliyat talabalarning ichki kasbiy qadriyatlari, emotsional holati va tashqi pedagogik xulq-atvori o‘rtasida barqaror uyg‘unlikni shakllantirishga xizmat qilganini ko‘rsatdi. Tajriba avvalida bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik kongruentlikning past va o‘rta darajalari ustunlik qilgan bo‘lib, bu holat talabalarning refleksiv fikrlashi, emotsional barqarorligi va kommunikativ moslashuvchanligi yetarli darajada rivojlanmaganligini ko‘rsatdi. Ko‘plab ishtirokchilarda pedagogik faoliyatni rejalashtirishda izchillikning yetishmasligi, muloqot jarayonida ishonchsizlik va tashqi pedagogik xatti-harakatlarning ichki kasbiy pozitsiyaga to‘liq mos kelmasligi kuzatildi. Loyihaviy ta’lim jarayonida fasilitatorlik yondashuvining joriy etilishi ushbu holatni bosqichma-bosqich o‘zgartirish imkonini berdi. O‘qituvchi-fasilitator tomonidan yaratilgan hamkorlikka asoslangan pedagogik muhit talabalarning mustaqil qaror qabul qilish, o‘z faoliyatini tahlil qilish va baholash ko‘nikmalarini faollashtirdi. Loyiha vazifalarini bajarish jarayonida talabalar muammoli vaziyatlarni hal etish, o‘z pozitsiyasini asoslash va jamoa bilan samarali muloqot qilish tajribasini orttirdilar. Bu esa pedagogik kongruentlikning muhim komponentlari bo‘lgan


kommunikativ, emotsional-intellektual va refleksiv qobiliyatlarning uyg‘un rivojlanishiga olib keldi.

(1-rasm.)



1-rasm.Loyihaviy ta’lim sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik kongruentlikning tarkibiy elementlari rivojlanish dinamikasi.

Rasmda ko’rsatilganidek loyihaviy ta’lim jarayonida fasilitatorlik yondashuvi va refleksiv mexanizmlar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik kongruentlik komponentlari rivojlanishidagi o‘zgarishlar aks ettirilgan. Tajriba yakunida barcha komponentlar bo‘yicha ko‘rsatkichlarning sezilarli oshishi kuzatilib, bu loyihaviy ta’limning pedagogik kongruentlikni shakllantirishdagi samaradorligini tasdiqlaydi. Tajriba yakunida olingan natijalar bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik kongruentlik darajasining barqaror oshganini ko‘rsatdi. Talabalarning aksariyatida ichki kasbiy qadriyatlar bilan tashqi pedagogik faoliyat o‘rtasida moslik kuchaydi, emotsional holatni boshqarish va pedagogik vaziyatlarga moslashish ko‘nikmalari rivojlandi. Ayniqsa, refleksiv mexanizmlarning faollashuvi talabalarning o‘z pedagogik faoliyatiga tanqidiy yondashishi, xatolarni rivojlanish manbai sifatida qabul qilishi va o‘z-o‘zini takomillashtirishga intilishini ta’minladi. Olingan natijalar adabiyotlar tahlilida ilgari surilgan nazariy qarashlar bilan uyg‘un ekanligini ko‘rsatadi. Xususan, J. Dyui va V. Kilpatrik tomonidan asoslangan loyihaviy ta’lim g‘oyalari zamonaviy ta’lim sharoitida yangi mazmun kasb etib, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy shakllanishida samarali vosita sifatida namoyon bo‘ldi. YE.S. Polat tomonidan ta’kidlanganidek, loyiha usuli talabalarning mustaqil va ijodiy fikrlashini rivojlantiradi, ushbu tadqiqot natijalari esa mazkur fikrning pedagogik kongruentlikni shakllantirish nuqtayi nazaridan ham dolzarbligini tasdiqlaydi. Tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan model loyihaviy ta’lim sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik kongruentlikni rivojlantirishning samarali mexanizmlarini aks ettiradi. Modelda rejalashtirish va loyihalash, fasilitatorlik orqali faollashtirish, pedagogik muhitni shakllantirish, faoliyatni boshqarish hamda ta’lim jarayonini baholash bosqichlarining o‘zaro uyg‘unligi aniqlangan.Ushbu bosqichlarning tizimli amalga oshirilishi bo‘lajak o‘qituvchilarda kommunikativ, emotsional-intellektual, refleksiv va axloqiy-shaxsiy barqarorlikning izchil rivojlanishini ta’minlagani tajriba-sinov natijalari bilan tasdiqlandi.



2-rasm. Loyihaviy ta’lim sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik kongruentlikni rivojlantirish modeli

Mazkur model loyihaviy ta’lim sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik kongruentlikni rivojlantirish jarayonining tizimli tuzilishini aks ettiradi. Unda ta’lim maqsadlari markaziy o‘rin egallab, rejalashtirish va loyihalash, fasilitatorlik orqali faollashtirish, pedagogik muhitni shakllantirish, faoliyatni boshqarish hamda ta’lim jarayonini baholash bosqichlarining o‘zaro uyg‘unligi ko‘rsatilgan. Model bo‘lajak o‘qituvchilarning bilim, ko‘nikma va shaxsiy rivojlanishi birligida pedagogik kongruentlikning izchil shakllanishini ta’minlashga yo‘naltirilgan.

Muhokama jarayonida aniqlanganidek, pedagogik kongruentlikni rivojlantirish faqat loyihaviy topshiriqlarni bajarish bilan cheklanmay, balki o‘qituvchining fasilitatorlik pozitsiyasiga tayangan holda refleksiv mexanizmlarni ongli ravishda qo‘llashni talab etadi. Aynan ushbu integratsiya bo‘lajak o‘qituvchilarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishida barqaror natijalarga erishishni ta’minlaydi. Shu jihatdan, loyihaviy ta’lim sharoitida fasilitatorlik yondashuvi pedagogik kongruentlikni rivojlantirishning samarali pedagogik mexanizmi sifatida e’tirof etilishi mumkin.

Xulosa. Tadqiqot natijalari loyihaviy ta’lim sharoitida fasilitatorlik yondashuvi va refleksiv mexanizmlar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik kongruentlik qobiliyatini rivojlantirish samarali pedagogik yechim ekanini tasdiqladi. Loyihaviy faoliyat jarayonida talabalarning kommunikativ, emotsional-intellektual, refleksiv hamda axloqiy-shaxsiy barqarorlik jihatlarida barqaror va izchil o‘sish kuzatildi. Bu esa pedagogik kongruentlikning shaxsiy va kasbiy rivojlanish bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi.Fasilitatorlik yondashuvi bo‘lajak o‘qituvchilarning ta’lim jarayonidagi faol subyekt sifatida shakllanishiga, mustaqil fikrlash va o‘z faoliyatini ongli baholash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qildi. O‘qituvchining fasilitator sifatidagi pozitsiyasi pedagogik muhitda ochiqlik, ishonch va hamkorlikni ta’minlab, kongruent pedagogik aloqalarning shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan loyihaviy ta’lim modeli bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik kongruentlikni rivojlantirishda tizimli yondashuvning muhimligini asoslab berdi. Modelda rejalashtirish va loyihalash, faollashtirish, pedagogik muhitni shakllantirish, faoliyatni boshqarish hamda ta’lim jarayonini baholash bosqichlarining o‘zaro uyg‘unligi ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qildi.

Xulosa qilib aytganda, loyihaviy ta’lim sharoitida fasilitatorlik yondashuvi va refleksiv mexanizmlarni uyg‘un qo‘llash bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini takomillashtirish, pedagogik kongruentlikni barqaror shakllantirish va zamonaviy ta’lim talablariga mos raqobatbardosh pedagog kadrlar tayyorlash uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Парфенова Т. А. Формирование проектной компетентности будущих педагогов в условиях вуза // Теория и практика общественного развития. 2013. № 10. С. 223−228. УРЛ: хттпс://сйберленинка.ру/артисле/н/формированиепроектной-компетентности-будусчих-педагогов-в-условиях-вуза.

2. Вяжевич Л. П., Тумбаева А. В., Туманова Н. Э., Мазурская З. Л., Михайлова О. И. /Метод проектов - один из ведущих методов обучения в условиях реализации ФГОС//Инновационные педагогические технологии: материалы И Междунар. науч. конф. (г. Казан, октябр 2014 г.). - Казан: Бук, 2014. - С. 257–259.].

3. Вяжевич Л. П., Тумбаева А. В., Туманова Н. Э., Мазурская З. Л., Михайлова О. И. /Метод проектов - один из ведущих методов обучения в условиях реализации ФГОС//Инновационные педагогические технологии: материалы И Междунар. науч. конф. (г. Казан, октябр 2014 г.). - Казан: Бук, 2014. - С. 257–259.].

4. Стернина Т. Л. Социалное проектирование: педагогический контекст / Т. Л. Стернина // Психология и педагогика: методика и проблемы практического применения. - 2010. - № 11 (3). - С. 180–184.].

5. Педагогический энциклопедический словар / гл. ред. Б. М. Бим-Бад. - Москва: Болшая Российская энциклопедия, 2020. - 528 с. - ИСБН 5-85270-230-7., 140-бет].

6. Трофимова Н.Э. Проектно-развивающий подход к формированию профессионально-значимых личностных качеств студентов // Фундаменталные исследования. 2013. № 10 (част 13). С. 82–85.);

7. Dewey J. Democracy and Education. New York: Macmillan, 1916. – 434 p.

8. Kilpatrick W.H. The Project Method // Teachers College Record. – 1918. – Vol. 19, No. 4. – P. 319–335.

9. Rogers C.R. On Becoming a Person: A Therapist’s View of Psychotherapy. Boston: Houghton Mifflin, 1961. – 420 p.

Abdumuradova Feruza Nuriddin qizi
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
Jizzax filiali Psixologiya mutaxassisligi magistranti
E-mail: feruzaabdumurodova030@gmail.com

OTA ONA VA FARZANDLAR O‘RTASIDAGI MUNOSABATLARNI PSIXOLOGIK TAHLIL QILISH

Annotatsiya. *Ushbu maqola ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi munosabatlarni psixologik jihatdan tahlil qilishga bag‘ishlangan. Maqolada oilaviy munosabatlarning psixologik asoslari, farzandlarning shaxsiy rivojlanishi va ular o‘rtasidagi konfliktlarning sabablari ko‘rib chiqiladi. Ushbu maqola oila psixologiyasi sohasidagi mutaxassislar, ota-onalar va talabalar uchun mo‘ljallangan.*

Tayanch so‘zlar: *ota-ona munosabatlari, oila psixologiyasi, psixologik tahlil, shaxsiy rivojlanish, hissiy intellect, bolani qabul qilish-rad qilish, simbioz, kooperatsiya, nazorat.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ВЗАИМООТНОШЕНИЙ МЕЖДУ РОДИТЕЛЯМИ И ДЕТЬМИ

Аннотация. *Статья посвящена психологическому анализу детско-родительских отношений. В статье рассматриваются психологические основы семейных отношений, личностное развитие детей и причины возникновения конфликтов между ними. Статья предназначена для специалистов в области семейной психологии, родителей и студентов.*

Ключевые слова: *Родительские отношения, семейная психология, психологический анализ, личностное развитие, эмоциональный интеллект, принятие-отторжение ребенка, симбиоз, сотрудничество, контроль.*

PSYCHOLOGICAL ANALYSIS OF RELATIONSHIPS BETWEEN PARENTS AND CHILDREN

Abstract. *This article is devoted to the psychological analysis of the relationship between parents and children. The article considers the psychological foundations of family relationships, the personal development of children and the causes of conflicts between them. This article is intended for specialists in the field of family psychology, parents and students.*

Key words: *parental relationships, family psychology, psychological analysis, personal development, emotional intelligence, child acceptance-rejection, symbiosis, cooperation, control.*

Kirish. Bouen oiladagi o‘zaro munosabatlar tizimini tasavvur qilish uchun fanga “emotsional uchburchaklik” tushunchasini kiritdi. Unga ko‘ra, oila tizimini, uning poydevorini tashkil etuvchi asosan uch inson yoki sub’ekt bo‘ladiki, boshqa munosabatlar ularning vaziyatni nazorat qilishlari, u yoki bu vaziyatlarda o‘zlarini qanday tutishlariga bevosita bog’liqdir. Agar oila faqat diada tipli o‘zaro munosabatlargagina tayangan bo‘lsa, xavfli, tarang vaziyatlarda ular o‘rtasidagi munosabatlarning salbiy tomonga o‘tib ketish ehtimoli yuqori bo‘ladi, ya’ni, masalan, eri bilan urushib qolgan xotin uchinchi himoyachini izlaydi. Mabodo oilada yana uchinchi shaxs, masalan, farzand bo‘lsa, bu taranglikning kuchi u qadar sezilmaydi. Agar oilada bitta emas, bir necha farzand bo‘lsa, ulardan biri ota onaga qo‘shilib, o‘sha emotsional uchburchakni tashkil etadi, ayniqsa, o‘smirlik davri qiyinchiliklarini boshidan kechirayotgan boshqa oila a’zosini tarbiyalashda ular uch kishi bo‘lib, unga yordam qo‘lini cho‘zishlari mumkin bo‘ladi.[3] Bolalar, birinchi navbatda, ota-onalarning xatti-harakatlari, munosabatlari va kundalik odatlarini kuzatish orqali o'rganadilar.Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolaning xarakteri va shaxsiyati erta bolalik davrida shakllana boshlaydi ota-onalar eng muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun ota-onaning shaxsiy madaniyati, ijtimoiy faolligi va muloqot uslubi bolaga katta ta'sir qiladi.[2] Oilaviy

munosabatlarning to‘g‘ri o‘rnatilishi, oila a’zolarining bir biriga samimiy munosabatda bo‘lishi bu oilada sog‘lom oilaviy muhitni shakllantiruvchi omil sanaladi.[1]

Metodologiya. Tadqiqotning maqsadi ota-onalikka xos hissiy intellekt (emotional intelligence) darajasining bolalar rivojlanishiga bo‘lgan ta’sirini o‘rganish va bu jarayonda yuzaga keladigan omillarni aniqlashdan iborat.

Tadqiqot metodlari:

Ota ona va farzandlar o‘rtasida doim bir biriga chambarchas bog‘liqlik bo‘ladi. Bu jarayonda goh ota bo‘lsin, goh ona yokida farzand bo‘lsin bir-biriga ta’sir ko‘rsatmasdan qolmaydi. Yoxud ota-onalar bolalariga turli xil munosabatda bo‘lishadi, ana shunday munosabatlarni aniqlashtirib yoritish uchun biz A.Ya.Varga, V.V.Stolinning Ota-onalarning bolalarga bo‘lgan munosabatini aniqlash metodikadan foydalandik. Ushbu test-so‘rovnoma ota-onalarning o‘z farzandlariga bo‘lgan munosabatlarini aniqlash uchun qo‘llaniladigan psixodiagnostik vosita hisoblanadi.

Ota-onalarning o‘z farzandlariga bo‘lgan munosabati kattalarning bolalarga nisbatan turli-tuman hissiyot va xulq-atvorlari tizimi sifatida tushuniladi. Psixologik nuqtai nazardan qaralganda ota-onalarning o‘z farzandalariga munosabati bu bolalarga nisbatan o‘rnatiladigan pedagogik ijtimoiy ustanovka bo‘lib o‘z ichiga ratsionallik emotsional va hulq-atvor komponentlarini oladi. Bu komponentlar u yoki bu darajada ushbu metodikaning asosini tashkil qiluvchi so‘rovnoma yordamida baholanadi. R.S.Nemov tomonidan ayrim terminlarni qo‘llash, olingan natijalarni qayta ishlash va tavsiflashga bir oz o‘zgartirishlar kiritilgan.

Metodika 61 ta savoldan tuzilgan bo‘lib ular ota-onalar munosabatini ifodalovchi 5 ta shkaladan iborat.

1.Bolani qabul qilish-rad qilish - bu shkala bolaga nisbatan umumiy emotsional ijobiy qabul qilish yoki emotsional salbiy rad qilish munosabatni ifodalaydi.

2.Kooperatsiya - bu shkala kattalarning bola bilan hamkorlik qilishga intilishini uning ishlariga qiziqishi va ularda ishtirok etishini ifodalaydi.

3.Simbioz - bu shkala savollari bola bilan birlashishga intilishi yoki uni saqlab qolishga harakat qilishini aniqlashga yo‘naltirilgan. Bu bola bilan kattalarning o‘ziga xos aloqasi.

4.Nazorat (kontrol) - bu shkala kattalar bola hulq atvorini qanday nazorat qilishlari bola bilan bo‘layotgan munosabatlari demokratik yoki avtoritar uslubda qurilishini xarakterlaydi.

5.Bolaning omadsizliklariga munosabat (kichik omadsiz) - bu so‘nggi shkala kattalar bolaning qobiliyatlari ustunliklari va kamchiliklariga muvaffaqiyat va omadsizliklariga qanday munosabatda ekanligini ko‘rsatadi.

Olingan natijalar va ularning tahlili:

A.Ya.Varga, V.V.Stolinning Ota-onalarning bolalarga bo‘lgan munosabatini aniqlash metodikasi tavsiflovchi statistika

1-jadval

Ko‘rsatkichlar	N	Minimal	Maksimal	O'rtacha qiymat	Standart og'ish	Assimetritya	Ektsess
Bolani qabul qilish rad etish	50	6	35	17.5	5.963323	1.238741	2.142639
Kooperatsiya	50	2	13	4.98	2.180526	1.219974	2.345817
Simbioz	50	2	8	5.16	1.475791	0.149273	-0.65855
Nazorat	50	0	8	4.7	1.55511	-0.72919	1.018832
Bolaning muvaffaqiyatsizliklariga munosabat	50	0	10	3.78	2.375814	0.85298	0.395517

Bolani qabul qilish o‘rtacha qiymat=17.5, Standart og‘ish = 5.963323

Assimetriya= 1.238741, Ekstess = 2.142639 bolani qabul qilish" ko‘rsatkichi o‘rtacha 17.5 qiymatga ega bo‘lib, standart og‘ish = 5.963323, bu esa qiymatlar o‘rtasida o‘rtacha darajada tarqoqni ko‘rsatadi. Assimetriya 1.238741

Ekstessning musbat (2.142639) qiymati, esa yuqori bo‘lib, taqsimotning yuqori oxirida tiqilishni (yiqilish) ko‘rsatadi, yani ko‘proq individual pastroq bolani qabul qilishni ko‘rsatadi.

Kooperativ o‘rtacha qiymat = 4.98; Standart og‘ish = 2.180526; Assimetriya = 1.219974; Ekstess = 2.345817. "Kooperativlik" ko‘rsatkichi o‘rtacha 4.98 va standart og‘ishi 2.180526. Assimetriya (1.219974).

Ekstess (2.345817) esa yuqori bo‘lib, taqsimotning yuqori oxirida tiqilishni (yiqilish) ko‘rsatadi, yani ko‘proq individual pastroq kooperatsiya ko‘rsatadi. Simbioz o‘rtacha qiymat = 5.16; Standart og‘ish = 1.475791; Assimetriya = 0.149273; Ekstess= -0.65855. "Simbioz" ko‘rsatkichi o‘rtacha 5.16 va standart og‘ish 1.475791. Assimetriya 0.149273 ijobiy bo‘lib, ma’lumotlar taqsimoti o‘ngga egallanganligini ko‘rsatadi, ya’ni yuqori qiymatlar kamroq uchraydi .Ekstess (-0.65855) qiymati, taqsimotning biroz pastrog‘ida dioginis egallanganligini, ya’ni taqsimotning o‘rtacha qiymatiga nisbatan bo‘shliq borligini ko‘rsatadi.

Nazorat o‘rtacha qiymat = 4.7; Standart og‘ish = 1.55511; Assimetriya = -0.72919; Ekstess = 1.018832. "Nazorat" ko‘rsatkichi o‘rtacha 4.7 va standart og‘ishi 1.55511. Assimetriya (-0.72919) manfiy bo‘lib, ma’lumotlar taqsimotining chapga egallanganligini ko‘rsatadi, ya’ni nazoratning yuqori qiymatlari kamroq uchraydi. Ekstess (1.018832) esa yuqori bo‘lib, taqsimotning yuqori oxirida tiqilishni (yiqilish) ko‘rsatadi, yani ko‘proq individual pastroq nazoratni ko‘rsatadi.

Moslashuvchanlik o‘rtacha qiymat = 3.78; Standart og‘ish = 2.375814; Assimetriya = 0.85298; Ekstess = 0.395517. "Bolalarning muvofiqlashtiruvchiligi" ko‘rsatkichi o‘rtacha 3.78, standart og‘ish 2.375814. Assimetriya (0.85298) ijobiy bo‘lib, ma’lumotlar taqsimoti o‘ngga egallanganligini ko‘rsatadi, ya’ni yuqori qiymatlar kamroq uchraydi. Ekstess (0.395517) esa taqsimotning nisbatan tekisligini anglatadi.

Bolani qabul qilish va rad etish va kooperatsiya ko‘rsatkichlari assimetriya va ekstessdan ko‘ra yuqori qiymatlar chapga egallashini va yuqori qismida atrofida tiqilish kuzatilishini ko‘rsatadi.Bu esa ularning bu ko‘rsatkichlarga nisbatan past baxo berishini ko‘rsatadi. Nazorat ko‘rsatgichi ham biroz yuqori ko‘rsatgichga ega. Bolaning muvaffaqiyatsizliklariga munosabat ko‘rsatgichi o‘rtacha qiymatlarga ega. Simbioz ko‘rsatgichi esa ko‘proq tekis taqsimotga ega.Bu o‘rganilganlarning rivojlanishi haqida yaxshilash yuzasidan tavsiya beriladi va ularning ijtimoiy-psixologik taqsimotini ko‘rsatadi.

A.Ya.Varga, V.V.Stolinning Ota-onalarning bolalarga bo‘lgan munosabatini aniqlash metodikasi Kolmagorov Smirnov mezoni natijalari

2-jadval

Ko‘rsatkichlar	Dz Kolmagorov Smirnov	P
Bolani qabul qilish rad etish	1.136315	0.151116
Kooperatsiya	1.105497	0.173469
Simbioz	1.153767	0.13952
Nazorat	1.530789	0.018435
Bolaning muvaffaqiyatsizliklariga munosabat	1.192612	0.116287

Bolanı qabul qilish ko‘rsatkichida D_2 = 1.136315; $p > 0,05$ ni tashkil etdi. Natijalar ko‘rsatilgan testga ko‘ra, bolani qabul qilish bo‘yicha yondoshuv normal taqsimotga ega. P qiymati 0,05 dan katta, bu esa statistik jihatdan sezilarli farq yo‘qligini ko‘rsatdi. Kooperatsiya D_2 = 1.105497; $p > 0,05$. P qiymati 0,05 dan katta sezilarli farq yo‘qligini ko‘rsatdi. Simbioz D_2 = 1.153767; $p < 0,05$. P qiymati 0,05 dan katta bo‘lib sezilarli farq yo‘qligini ko‘rsatdi.

Nazorat ko‘rsatkichi D_2 = 1.530789; $p < 0,05$. P qiymati 0,05 dan kichik, bu nazorat bo‘yicha yondoshuvda ham farq mavjudligini bildiradi. Yosh guruhlarda bolalar bilan munosaba-

tlarda intizom va nazorat darajasi o‘rtasida sezilarli farq mavjud. Bolaning muvaffaqiyatsizligi D_2 = 1,585; p > 0,05. P qiymati 0,05 dan katta bo‘lib sezilarli farq yo‘qligini ko‘rsatdi.

Shunday qilib, umumiy tendensiya shundan iboratki, kooperatsiya, simbioz, bolani qabul qilish ko‘rsatkichida va bolaning muvaffaqiyatsizligi bo‘yicha statistik jihatdan farqlar mavjud emas , ammo nazorat ko‘rsatkichi bo‘yicha sezilarli farq borligini ko‘rish mumkin. Biz keyingi ishlarimizda parametrik mezonlarda, Styudent–t va Person mezonlarida davom ettirishimiz mumkin bo‘ladi.

A.Ya.Varga, V.V.Stolinning Ota-onalarning bolalarga bo‘lgan munosabatini aniqlash metodikasi Student-t mezoniga ko‘ra (jins bo‘yicha) ko‘rsatkichlari

3-jadval

Shkala	Jinsi	N	O‘rtacha qiymat	Standart og‘ish	t	Ishonch darajasi
Bolani qabul qilish rad etish	Erkak	50	17.50	5.963	1.725	.088
	Ayol	50	15.78	3.765		
Kooperatsiya	Erkak	50	4.98	2.181	.954	.343
	Ayol	50	4.60	1.784		
Simbioz	Erkak	50	5.16	1.476	-.676	.500
	Ayol	50	5.36	1.481		
Nazorat	Erkak	50	4.70	1.555	-.695	.489
	Ayol	50	4.90	1.313		
Bolaning muvaffaqiyatsizliklariga munosabat	Erkak	50	3.78	2.376	1.205	.231
	Ayol	50	17.50	5.963		

Quyida taqdim etilgan jadval asosida jinslar bo‘yicha statistik tahlil berilgan. Student-t mezoni natijalari asosida p < 0.05 bo‘lsa, ishonchli farq mavjud, p > 0.05 bo‘lsa, farq yo‘q deb baholanadi.Bolani qabul qilish rad etish(t=-1.725p= .088 p > 0.05) Shahar va tuman respondentlarining bolani qabul qilish rad etish darajasi bir xil.Kooperatsiya (t=.954p=.343 p > 0.05) erkaklar va ayolllar o‘rtasida ishonchli farq mavjud emas. Simbioz (t=-.676p=.500 p > 0.05) erkaklar va ayolllar o‘rtasida ishonchli farq mavjud emas. Nazorat (t=-.695p=.489 p > 0.05) erkaklar va ayolllar o‘rtasida ishonchli farq mavjud emas.Bolaning muvaffaqiyatsizliklariga munosabat (t=1.205p=.231 p>0.05) erkaklar va ayolllar respondentlarining bolaning muvaffaqiyatsizliklariga munosabat darajasi bir xil.

A.Ya.Varga, V.V.Stolinning Ota-onalarning bolalarga bo‘lgan munosabatini aniqlash metodikasi Student-t mezoniga ko‘ra (hudud bo‘yicha) ko‘rsatkichlari

4-jadval

Shkala	hudud	N	O‘rtacha qiymat	Standart og‘ish	T	Ishonch darajasi
Bolani qabul qilish rad etish	shaxar	50	15.88	3.718	-1.519	.132
	tuman	50	17.40	6.020		.133
Kooperatsiya	shaxar	50	4.24	1.572	-2.860	.005
	tuman	50	5.34	2.219		
Simbioz	shaxar	50	4.60	1.309	-4.987	.000
	tuman	50	5.92	1.338		
Nazorat	shaxar	50	4.40	1.069	-2.888	.005
	tuman	50	5.20	1.641		
Bolaning muvaffaqiyatsizliklariga munosabat	shaxar	50	3.00	1.714	-2.466	.015
	tuman	50	4.04	2.441		.016

Quyida taqdim etilgan jadval asosida hududlar bo‘yicha statistik tahlil berilgan. Student-t mezoni natijalari asosida p < 0.05 bo‘lsa, ishonchli farq mavjud, p > 0.05 bo‘lsa, farq yo‘q deb baholanadi.

Bolani qabul qilish rad etish(t=-1.519 p= .132 p > 0.05) Shahar va tuman respondentlarining bolani qabul qilish rad etish darajasi bir xil.Kooperatsiya (t=-2.860 p=.005 p < 0.05) shaxar va tuman o‘rtasida ishonchli farq mavjud , kooperatsiya hissi tumanda yuqori. Simbioz (t=-4.987 p=.000 p < 0.05) shaxar va tuman o‘rtasida ishonchli farq mavjud. Simbioz tuman respondentlarida yuqoriroq ko‘rsatkichgga ega.Nazorat (t=-2.888 p=.005 p < 0.05) shaxar va tuman o‘rtasida ishonchli farq mavjud. Nazorat ko‘rsatkichi tuman respondentlarida yuqoriroq ko‘rsatkichga ega.Bolaning muvaffaqiyatsizliklariga munosabat (t= -2.466 p=.016 p>0.05) Shahar va tuman respondentlarining Bolaning muvaffaqiyatsizliklariga munosabat darajasi bir xil

Xulosa. Natijalardan ko‘rinib turibdiki, Kooperatsiya, Simbioz va Nazorat ko‘rsatkichlari darajasi tumanda istiqomat qiluvchi respondentlarda shaxarda yashovchi respondentlarga qaraganda yuqoriroq turibdi. Bunday natijaga bir necha sababalar keltirib o‘tishimiz mumkin.

Ijtimoiy va iqtisodiy farqlar.Tuman hududlarida yoshlar va aholining iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlari shahar aholiga nisbatan farq qiladi. Kooperatsiya va simbioz ko‘rsatkichlari murakkab ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy aloqalar orqali shakllanadi va tumanlarda ko‘proq o‘zaro yordam va hamkorlikka asoslangan kambag‘alliklarni yengish, resurslarni muvofiqlashtirish tendensiyasi ko‘rinadi.

Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va boshqaruv tizimi.Tumanlarda jamiyat qattiqroq boshqaruv va nazorat tizimlari orqali ijtimoiy farqlarni tartibga solishga harakat qiladi, bu esa Nazorat ko‘rsatkichining yuqori bo‘lishiga olib keladi. Shahar hayotining shovqin-suronli, individualistik ruhi esa bu ko‘rsatkichlarni kamaytirishi mumkin.

Aholining yashash sharoitlari.Tuman aholisining yashash vaziyatlari odatda yaqinroq oila va qo‘shnichilik munosabatlariga bog‘liq bo‘lib, bu ijtimoiy kooperatsiya va simbiozga turtki beradi. Shahar aholisi esa ko‘proq anonimlik va alohidachilik tarafdori bo‘lishi mumkin, bu esa ijtimoiy hamkorlikni kamaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Ibaydullayeva, U. Psixologiyada ota-ona va farzand munosabati muammosining o‘rganilishi / U. Ibaydullayeva // Журнал педагогики и психологии в современном образовании. – 2023. – № I.

2. Karimova, V. M. Oila psixologiyasi / V. M. Karimova. – Toshkent : O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi, 2018. – 180 b.

3. Maftuna Eshtemirova. The Impact of Parental Influence on Child Upbringing in the Modern Era / Maftuna Eshtemirova // Journal of Interdisciplinary Science. – 2025. – Vol. 3, No. 6. – [Elektron resurs]. – URL: https://wom.semanticjournals.org (murojaat sanasi: 02.03.2026).

4. Morris, A. S. Parenting in the 21st century: Updates on parenting styles and their effects / A. S. Morris, L. Cui, L. Steinberg // Current Opinion in Psychology. – 2023. – Vol. 49. – P. 101–112.

5. Lansford, J. E. Parenting and child development in cultural context: A global perspective / J. E. Lansford [et al.] // American Psychologist. – 2022. – Vol. 77, No. 3. – P. 367–381.

Raxmatova Madina Sobirovna
SamSIFL, a senior teacher of the Department of English history and grammar
E-mail: madinaraxmatova78@mail.ru

THE SIGNIFICANCE OF USING THE SUGGESTOPEDIA METHOD WHEN INSTRUCTING YOUNG LANGUAGE LEARNER

Abstract. *In today's rapidly evolving world, learning English from an early age is essential for young learners, as it enhances future professional and educational opportunities. However, teaching English to children-especially primary school learners-can be challenging due to their high activity levels, short attention spans, and developmental learning stages. Effective instruction requires an understanding of language acquisition principles and the use of engaging teaching methods. This paper highlights the importance of applying the Suggestopedia method in teaching young learners and explains how it can be effectively implemented in the teaching process*

Key words: *suggestopedia, teaching method, young learners, language learning process.*

ЗНАЧЕНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕТОДА СУГГЕСТОПЕДИИ ПРИ ОБУЧЕНИИ ДЕТЕЙ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ

Аннотация. *В современном быстро развивающемся мире изучение английского языка с раннего возраста имеет важное значение для молодых учащихся, поскольку оно расширяет их будущие профессиональные и образовательные возможности. Однако обучение английскому языку детей, особенно учащихся начальных классов, может быть сложным из-за их высокой активности, короткой концентрации внимания и особенностей возрастного развития. Эффективное обучение требует понимания принципов усвоения языка и использования увлекательных методов преподавания. В данной статье подчеркивается важность применения метода суггестопедии в обучении младших школьников и объясняется, как его можно эффективно внедрить в учебный процесс.*

Ключевые слова: *суггестопедия, метод, процесс обучения, процесс усвоения знаний.*

THE SIGNIFICANCE OF USING THE SUGGESTOPEDIA METHOD IN TEACHING YOUNG LANGUAGE LEARNER

Annotatsiya. *Bugungi tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan dunyoda ingliz tilini erta yoshdan o'rganish yosh o'quvchilar uchun juda muhim hisoblanadi, chunki bu ularning kelajakdagi kasbiy va ta'lim imkoniyatlarini kengaytiradi. Biroq, bolalarga, ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'qitish ularning yuqori faolligi, diqqatning qisqa davom etishi va rivojlanish bosqichlariga xos xususiyatlar sababli murakkab bo'lishi mumkin. Samarali ta'lim tilni o'zlashtirish tamoyillarini tushunishni va qiziqarli o'qitish metodlaridan foydalanishni talab qiladi. Ushbu maqolada yosh o'quvchilarni o'qitishda Suggestopediya metodini qo'llashning ahamiyati yoritiladi hamda uni o'qitish jarayonida samarali amalga oshirish yo'llari tushuntiriladi.*

Kalit so'zlar*: suggestopediya, Metod, O'qitish jarayoni, O'rganish jarayoni.*

Introduction. In today's rapidly developing and globalized world, the importance of learning foreign languages-especially English-at an early age has become increasingly significant. English functions as an international language of communication in education, science, technology, and professional environments, which makes early exposure to language learning essential for young learners' future academic and career success. Modern educational systems therefore emphasize effective teaching methodologies that can address the psychological, cognitive, and emotional needs of young students while maintaining high levels of motivation and engagement.

Teaching young learners, particularly primary school students, presents unique pedagogical challenges. Children tend to have high energy levels, shorter attention spans, and different cognitive processing patterns compared to adult learners. Traditional teacher-centered methods, which

often rely on memorization and structured drills, may not always meet the developmental needs of young students or sustain their interest over extended periods. Consequently, educators are continuously exploring innovative and learner-centered approaches that can create supportive learning environments and enhance language acquisition through natural and enjoyable experiences.

One such innovative methodology is Suggestopedia, developed by Bulgarian psychiatrist and educator Dr. Georgi Lozanov in the 1970s. Suggestopedia is based on the idea that psychological factors-such as relaxation, positive suggestion, and emotional comfort-play a crucial role in the learning process. The method proposes that learners can acquire new information more effectively when they are free from anxiety and negative expectations associated with traditional classroom settings. By incorporating elements such as music, comfortable seating arrangements, expressive reading, and creative role-playing, Suggestopedia aims to create a holistic learning atmosphere that stimulates both conscious and subconscious learning processes.

As the name suggests, Suggestopedia utilizes suggestion as a pedagogical tool to enhance learners' receptivity to new linguistic input. Instead of focusing solely on analytical learning, the method encourages immersion in a rich and emotionally engaging environment where students absorb language through contextual exposure. During lessons, teachers often use dramatic intonation, gestures, and musical accompaniment to transform reading sessions into immersive experiences similar to theatrical performances or concerts. Learners may sit comfortably rather than in rigid classroom arrangements, which contributes to relaxation and reduces stress-related barriers to learning.

Another important aspect of Suggestopedia is its emphasis on creating positive emotional associations with the learning process. By fostering a supportive and enjoyable atmosphere, the method seeks to eliminate common psychological barriers such as fear of mistakes, performance anxiety, or negative self-perception. Students are encouraged to participate actively, often adopting new identities or roles, which helps reduce self-consciousness and promotes spontaneous communication. Through these techniques, Suggestopedia aligns with modern pedagogical trends that emphasize learner-centered instruction, emotional well-being, and experiential learning.

Despite its innovative nature and appealing theoretical foundation, the practical effectiveness of Suggestopedia has been the subject of ongoing discussion among educators and researchers. While some scholars highlight its benefits in increasing motivation, reducing anxiety, and improving retention through multisensory engagement, others question the extent to which accelerated learning claims are supported by empirical evidence.

This article aims to explore the significance of using the Suggestopedia method in teaching young learners and to analyze its potential advantages and limitations within the context of modern language education. By examining the main principles of the method and its practical implementation, the study seeks to demonstrate how Suggestopedia can contribute to creating more engaging, effective, and psychologically supportive language learning environments for children.

Students are liberated from many of the negative associations they typically have with learning because Suggestopedia aims to create a positive and enjoyable experience.All of this sounds fantastic. However, is there any actual benefit to including the Suggestopedia method in your repertoire?

Methods. This article is based on a qualitative analysis of pedagogical literature related to language teaching methodologies and the Suggestopedia approach. The method section focuses on describing the main principles and techniques of Suggestopedia and how they can be implemented in the classroom.

Concert Session – Passive Reading: The teacher reads a dialogue or passage aloud while calm classical or Baroque music plays in the background. The goal is to help students feel relaxed. They do not write anything down; instead, they simply listen and take in the material in a calm, almost dreamlike state.

Concert Session – Active Reading:The teacher reads the text accompanied by more lively and expressive music. Students are encouraged to actively follow the reading, for example by looking at the written text and its translation.

The “Double Persona” / Role-Playing:Students temporarily assume a different identity, including a new name and job (for example, “I am Maria, a well-known opera singer from Italy”). This technique helps lower anxiety and reduces fear of making mistakes.

Peripheral Learning (Visual Stimulation):The classroom walls are covered with posters displaying grammar points, vocabulary, or images connected to the lesson. The idea is that students unconsciously absorb information simply by being exposed to it.

Infantilization (Childlike Atmosphere):Teachers build a warm and supportive setting, taking on a mentor-like or parental role. This helps learners feel safe, relaxed, and more willing to participate in playful, childlike activities.

The “Bicycle” Principle of Error Correction:Mistakes are corrected in a gentle way. Instead of interrupting students while they are speaking, the teacher later repeats the sentence correctly, allowing learners to notice the proper form naturally.

Active Games and Songs:Songs, games, and enjoyable activities are used to practice grammar and vocabulary. The emphasis shifts from formal studying to learning through play.

Results. Students are liberated from many of the negative associations they typically have with learning because Suggestopedia aims to create a positive and enjoyable experience.All of this sounds fantastic. However, is there any actual benefit to including the Suggestopedia method in your repertoire?

Benefits of Suggestopedia

Although there isn't much evidence to support Suggestopedia's overall efficacy, we do know that some of its features can be excellent for language instruction. Using music in the classroom, whether as background music or as a component of memorization exercises, has been shown in numerous studies to enhance learning outcomes. Music can inspire creativity, help manage behavior, and lower stress. Additionally, it improves concentration, which makes it simpler for students to concentrate on difficult tasks.

Students can unwind in the environment.

It's simple to overlook or undervalue the significance of a comfortable and safe classroom. The Suggestopedia method places a strong emphasis on creating a welcoming and secure environment where students can relax and enjoy their education. They are emotionally at ease taking chances without worrying about criticism or mockery. Students are motivated without being distracted by the lighting, sounds, decorations, and seating arrangements.

Students who read aloud are better able to retain new information.

As recommended by the Suggestopedia method, reading a text or a dialogue to your students is a great way to introduce new vocabulary and go over important material at the end of a lesson. It can be more interesting and enjoyable to read with dramatic flair, as though you were taking part in a theatrical performance. Students are therefore more likely to pay attention.

There are some disadvantages to Suggestopedia despite its obvious benefits. Before jumping right into a Suggestopedia-driven lesson, keep the following points in mind. Research indicates that listening to music can actually interfere with certain tasks, such as memorizing information.

For the most part, it's distracting music with lyrics. However, some students also become sidetracked by music they don't enjoy. In situations such as these,

The analysis of Suggestopedia-related practices indicates several positive outcomes when the method is applied in teaching young learners:

- A relaxed classroom atmosphere helps reduce learners’ anxiety and fear of making mistakes.
- Background music and expressive reading increase learners’ concentration and motivation.
- Students tend to retain new vocabulary more effectively when it is presented in an engaging and emotionally supportive context.
- Learners demonstrate greater willingness to participate in classroom activities.

However, certain limitations were also identified. Not all learners respond positively to background music, and some may find it distracting. Additionally, the method lacks a clearly structured framework, which may be challenging for students who require explicit goals and guidance.

Discussion. The findings of this study indicate that Suggestopedia provides several pedagogically valuable elements that can significantly enrich the language learning process, particularly for young learners. Unlike traditional teacher-centered approaches, which often emphasize repetition, memorization, and strict classroom structures, Suggestopedia focuses on emotional comfort, positive suggestion, and holistic engagement. These features align closely with contemporary child-centered pedagogical theories, which emphasize the importance of psychological safety, learner autonomy, and meaningful interaction in language acquisition.

One of the key strengths of Suggestopedia lies in its ability to reduce affective barriers that frequently hinder language learning among young students. Anxiety, fear of making mistakes, and low self-confidence are widely recognized factors that negatively influence language performance and participation. By creating a relaxed and supportive environment-through the use of music, comfortable classroom arrangements, expressive reading, and playful activities-the method encourages learners to participate more freely. This aligns with modern theories such as Krashen's affective filter hypothesis, which suggests that lower anxiety levels can facilitate more effective language acquisition.

Additionally, the use of music and multisensory stimulation in Suggestopedia supports the development of deeper cognitive engagement. Background music and rhythmic reading may enhance concentration and memory retention by creating a positive emotional context for learning. Young learners, who often respond well to auditory and visual stimuli, may particularly benefit from such techniques, as they allow language input to be processed through multiple channels simultaneously.

Another important advantage is the method's emphasis on imagination and creativity. By encouraging students to adopt new identities or roles, Suggestopedia reduces psychological pressure and promotes experimentation with language. This can be especially beneficial for young learners who may feel self-conscious when speaking in a foreign language. Role-playing activities also help simulate authentic communication contexts, allowing students to develop communicative competence in a natural and engaging manner.

However, despite these positive aspects, Suggestopedia should not be considered a universal solution for all educational contexts. One limitation identified in the analysis is the variability in learners' responses to background music and unconventional classroom settings. While some students may find music relaxing and motivating, others may perceive it as distracting, particularly if their learning styles differ. Therefore, teachers must carefully observe learners' preferences and adjust the level of sensory stimulation accordingly.

Furthermore, the method's relatively flexible and less structured framework may present challenges for learners who require clear objectives, explicit grammar explanations, or highly organized instructional sequences. Educational institutions with strict curricula or assessment requirements may also find it difficult to implement Suggestopedia in its full form. Consequently, successful application depends heavily on the teacher's professional competence, creativity, and ability to balance innovative techniques with established pedagogical practices.

From a broader pedagogical perspective, the analysis suggests that Suggestopedia is most effective when integrated selectively with other language teaching approaches rather than used as a standalone methodology. Combining its emotionally supportive strategies with communicative language teaching, task-based learning, or structured grammar instruction can create a balanced learning environment that addresses both affective and cognitive dimensions of language acquisition. Such integration allows educators to retain the motivational benefits of Suggestopedia while ensuring that learning outcomes remain measurable and aligned with educational standards.

In conclusion, the discussion highlights that Suggestopedia offers valuable contributions to modern language teaching, particularly in fostering motivation, reducing anxiety, and encouraging active participation among young learners. However, its effectiveness depends on thoughtful adaptation, contextual awareness, and integration with complementary teaching methods. By adopting a flexible and reflective approach, teachers can use Suggestopedia principles to create more inclu-

sive, engaging, and psychologically supportive learning environments that respond to the diverse needs of young language learners.

Conclusion. In conclusion, Suggestopedia represents an innovative and human-centered approach to language teaching that emphasizes the importance of emotional well-being, relaxation, and positive suggestion as key components of successful language acquisition. Developed by Dr. Georgi Lozanov, the method challenges traditional teaching practices by proposing that learners achieve better results when psychological barriers such as anxiety, fear of failure, and negative expectations are minimized. By incorporating music, comfortable learning environments, expressive reading techniques, and creative role-playing activities, Suggestopedia aims to create a holistic educational atmosphere that supports both cognitive and emotional aspects of learning.

The analysis presented in this article demonstrates that Suggestopedia offers several valuable advantages for teaching young learners. Its focus on creating a supportive and motivating classroom environment can increase students' willingness to participate actively and experiment with language without fear of making mistakes. The integration of multisensory elements such as music, visual stimulation, and dramatized reading can enhance learners' attention, memory retention, and overall engagement with the target language. These features make the method particularly suitable for young learners, whose learning processes are often influenced by emotional states, creativity, and interactive experiences. At the same time, the study highlights that Suggestopedia is not without limitations. While many of its principles are beneficial, the method lacks a rigid instructional structure, which may pose challenges for learners who require clear guidance, explicit learning objectives, or systematic progression. Additionally, not all students respond equally to background music or unconventional classroom settings, suggesting that individual differences must be carefully considered when implementing Suggestopedia techniques. Practical constraints such as classroom size, institutional expectations, and available resources may also influence the extent to which the method can be applied effectively.

Therefore, rather than viewing Suggestopedia as a standalone or universally applicable teaching method, it is more appropriate to consider it as a complementary approach that can enrich existing pedagogical practices. Integrating Suggestopedia principles with other established methodologies-such as communicative language teaching, task-based learning, or structured instructional strategies-can help educators create balanced learning environments that address both emotional and cognitive dimensions of language acquisition. Such integration allows teachers to combine innovation with pedagogical rigor, ensuring that learning remains engaging while maintaining clear educational outcomes. Ultimately, the significance of Suggestopedia lies not only in its specific techniques but also in its broader pedagogical philosophy, which emphasizes the importance of creating positive emotional experiences in the classroom. As modern education increasingly recognizes the role of affective factors in learning, Suggestopedia provides valuable insights into how teachers can foster motivation, confidence, and enjoyment in language learning. By adapting its principles thoughtfully and contextually, educators can support young learners in developing not only linguistic competence but also a positive attitude toward lifelong learning.

List of used literature.

1. Cameron, L. Teaching Languages to Young Learners. Cambridge: Cambridge University Press.-1999.-275p.

2. Cameron L. Challenges for ELT from the expansion in teaching children. ELT Journal. 57 (2).2009.- P. 105-106.

3. Carroll J. (1963). "Research on Teaching Foreign Languages". In N. Gage (ed.), Handbook of Research on Language Teaching. (Chicago: RandMcNally). Pp. 1060- 1100.

4. Cohen, E. G. Designing group work: Strategies for heterogeneous classrooms. - New York: Teachers College Press, 2003.-256p.

5. Dion, L. "But I Teach a Large Class" in: A Newsletter of the Center for Teaching Effectiveness. Spring 1996, University of Delaware. 66p.

6. Raxmatova M.S. Methods for developing intercultural competence in teaching english, Mental enlightenment scientific – methodological journal,: https://doi.org/10.37547/mesmj-V6-I2-32 P 248-262,

Yusupova Nargis Ochilovna
Samarqand davlat chet tillar instituti stajyor-o‘qituvchisi
E-mail:nargisyusupova97@gmail.com

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA ANTONIMLARNING SEMANTIK TASNIFI: QIYOSIY TAHLIL

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillarida antonimlarning semantik tasnifi qiyosiy tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi antonimik munosabatlarning asosiy turlarini aniqlash, ularning semantik xususiyatlari hamda ikki til tizimidagi o‘xshash va farqli jihatlarini ochib berishdan iborat. Ish jarayonida semantik tahlil, qiyosiy-tipologik yondashuv va kontekstual tahlil metodlaridan foydalanildi. Natijalar ingliz va o‘zbek tillarida gradatsion, komplementar va reversiv antonimlar eng faol semantik kategoriyalar ekanini ko‘rsatdi. Gradatsion antonimlar nisbiy semantik shkala asosida tashkil topib, kontekstga bog‘liq holda turli darajalarni ifodalashi aniqlandi. Komplementar antonimlar absolyut qarama-qarshilikni bildirishi bilan ajralib turadi, reversiv antonimlar esa harakatning qarama-qarshi yo‘nalishini ifodalaydi. Qiyosiy tahlil natijalari antonimiyaning universal semantik tabiatini tasdiqlash bilan birga, uning lingvokulturologik va morfologik realizatsiyasi har bir tilga xos omillar bilan belgilanadi. Tadqiqot natijalari antonimiyaning leksik-semantik tizimdagi o‘rnini aniqlashtirish, tarjima jarayonida adekvat ekvivalentlarni tanlash hamda til o‘qitish metodikasida semantik qarama-qarshiliklarni samarali tushuntirish uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: *antonimiya, semantik tasnif, qiyosiy tilshunoslik, leksik-semantik munosabatlar, gradatsion antonimlar, komplementar antonimlar, reversiv antonimlar, ingliz tili, o‘zbek tili, semantik oppozitsiya, lingvokulturologiya.*

СЕМАНТИЧЕСКАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ АНТОНИМОВ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ: СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ

Abstract. *In this article, the semantic classification of antonyms in English and Uzbek is analyzed from the point of view of comparative linguistics. The main goal of the research is to identify the main types of antonymic relations, to reveal their semantic features, as well as similarities and differences in the system of two languages. In the course of the work, methods of semantic analysis, comparative-typological approach, and contextual analysis were used. The results showed that gradational, complementary, and reversible antonyms are the most active semantic categories in English and Uzbek. It has been established that gradational antonyms are formed on the basis of a relative semantic scale and represent different levels depending on the context. Complementary antonyms are distinguished by the fact that they express absolute contradiction, while reversible antonyms express the opposite direction of action. The results of the comparative analysis confirm the universal semantic nature of antonymy, while its linguocultural and morphological realization is determined by factors specific to each language. The research results have important scientific and practical significance for clarifying the place of antonymy in the lexico-semantic system, choosing adequate equivalents in the translation process, and effectively explaining semantic contradictions in the methodology of language teaching.*

Key words*: antonymy, semantic classification, comparative linguistics, lexico-semantic relations, gradational antonyms, complementary antonyms, reversible antonyms, English, Uzbek, semantic opposition, linguoculturology.*

SEMANTIC CLASSIFICATION OF ANTONYMS IN ENGLISH AND UZBEK: A COMPARATIVE ANALYSIS

Аннотация. *В данной статье анализируется семантическая классификация антонимов в английском и узбекском языках с точки зрения сравнительного языкознания. Основ-*

ная цель исследования - выявить основные типы антонимических отношений, их семантические особенности, а также сходства и различия в двух языковых системах. В процессе работы использовались методы семантического анализа, сравнительно-типологического подхода и контекстуального анализа. Результаты показали, что градационные, комплементарные и реверсивные антонимы являются наиболее активными семантическими категориями в английском и узбекском языках. Установлено, что градационные антонимы образуются на основе относительной семантической шкалы и выражают разные уровни в зависимости от контекста. Комплементарные антонимы характеризуются выражением абсолютного противопоставления, в то время как реверсивные антонимы выражают противоположное направление действия. Результаты сравнительного анализа подтверждают универсальную семантическую природу антонимии, а ее лингвокультурологическая и морфологическая реализация определяется факторами, специфичными для каждого языка. Результаты исследования имеют важное научно-практическое значение для определения места антонимии в лексико-семантической системе, выбора адекватных эквивалентов в процессе перевода и эффективного объяснения семантических противоречий в методике преподавания языка.

Ключевые слова: *антонимия, семантическая классификация, сравнительное языкознание, лексико-семантические отношения, градационные антонимы, комплементарные антонимы, реверсивные антонимы, английский язык, узбекский язык, семантическая оппозиция, лингвокультурология.*

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda leksik-semantik munosabatlar tizimi tilning ichki tuzilishini, ma’no kategoriyalarini va kommunikativ imkoniyatlarini o‘rganishda muhim nazariy asoslardan biri hisoblanadi. Ushbu munosabatlar orasida antonimiya hodisasi alohida o‘rin egallaydi, chunki antonimlar nafaqat qarama-qarshi ma’nolarni ifodalash vositasi, balki nutqda semantik kontrast, stilistik ta’sirchanlik va konseptual oppozitsiyalarni shakllantirishning muhim mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi. Ingliz va o‘zbek tillarida antonimik birliklar tilning semantik tizimi, madaniy qarashlar hamda kognitiv kategoriyalarning o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi. Antonimlarning semantik tasnifi masalasi lingvistika tarixida ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan bo‘lsa-da, turli tillarda antonimlarning struktural va semantik xususiyatlarini qiyosiy jihatdan tahlil qilish dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, tipologik jihatdan turli til oilalariga mansub ingliz (german tillari guruhi) va o‘zbek (turkiy tillar guruhi) tillarini qiyosiy o‘rganish antonimiyaning universal va milliy-spetsifik tomonlarini aniqlash imkonini beradi. Bu esa nafaqat nazariy tilshunoslik uchun, balki tarjima nazariyasi, til o‘qitish metodikasi hamda madaniyatlararo kommunikatsiya tadqiqotlari uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Antonimik munosabatlar tilning semantik paradigmatik tizimida qarama-qarshi kategoriyalarni tashkil etib, sifat, harakat, holat va miqdor kabi turli leksik-semantik maydonlarda keng qo‘llanadi. Ingliz va o‘zbek tillarida antonimlarning hosil bo‘lishi, ularning morfologik va leksik vositalari, kontekstual realizatsiyasi hamda stilistik funksiyalari bir qator o‘xshashliklar bilan birga sezilarli farqlarni ham namoyon etadi. Shu sababli antonimlarni semantik mezonlar asosida tasniflash va qiyosiy tahlil qilish til birliklarining ma’no tizimini chuqurroq anglashga yordam beradi. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi ingliz va o‘zbek tillarida antonimlarning semantik tasnifini aniqlash, ularning turli turlari (gradatsion antonimlar, komplementar antonimlar, reversiv antonimlar va boshqalar)ni qiyosiy asosda tahlil qilish hamda ikki til o‘rtasidagi umumiy va farqli jihatlarni aniqlashdan iborat. Tadqiqot jarayonida semantik tahlil, qiyosiy-tipologik yondashuv hamda kontekstual tahlil metodlaridan foydalaniladi.

Adabiyotlar Tahlili. Antonimiya hodisasi tilshunoslikda leksik-semantik munosabatlarning muhim turlaridan biri sifatida keng o‘rganilgan bo‘lib, uning nazariy asoslari XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab sistematik ravishda rivojlana boshladi. Klassik semantik tadqiqotlarda antonimlar qarama-qarshi ma’noli birliklar sifatida talqin qilinib, ular til tizimining paradigmatik munosabatlari doirasida tahlil qilingan. Xususan, J. Lyons antonimiyani semantik oppozitsiya

kategoriyasi sifatida ko‘rib, gradatsion, komplementar va reversiv antonimlar tasnifini ishlab chiqishda muhim nazariy asos yaratgan1. Uning yondashuvi antonimlarni faqat leksik darajada emas, balki konseptual va mantiqiy qarama-qarshilik sifatida ham talqin qilish imkonini beradi. Ingliz tilshunosligida antonimiyaning semantik tabiatini chuqur o‘rganishda Cruse tomonidan taklif etilgan leksik-semantik model alohida ahamiyatga ega. U antonimlarni qarama-qarshilikning turli turlari asosida tasniflab, ularning semantik maydon ichidagi o‘zaro munosabatlarini tahlil qilgan. Cruse antonimlarning kontekstga bog‘liqligini ham ta’kidlab, ma’no oppozitsiyasi ko‘pincha nutq vaziyatiga qarab o‘zgarishini ko‘rsatadi. Bu yondashuv antonimlarni statik emas, balki dinamik semantik birliklar sifatida o‘rganishga yo‘l ochadi.

Leksik semantika sohasida Murphy antonimiyani kognitiv nuqtayi nazardan tahlil qilib, qarama-qarshi ma’nolar inson tafakkurida kategoriyalarni tashkil etishda muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydi. Uning fikricha, antonimlar semantik maydonni strukturalash vositasi bo‘lib, til egalarining dunyoni dual oppozitsiyalar orqali idrok etish tendensiyasini aks ettiradi. Bu qarash ingliz va o‘zbek tillarini qiyosiy o‘rganishda universallik va milliylik masalasini aniqlashda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Turkiy tillar, xususan o‘zbek tilshunosligida antonimlar masalasi ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. O‘zbek leksikologiyasi doirasida antonimlar leksik-semantik munosabatlarning asosiy ko‘rinishlaridan biri sifatida qaralib, ularning morfologik hosil bo‘lishi, semantik oppozitsiyasi va stilistik funksiyalari tahlil qilingan. Shuningdek, o‘zbek tilida antonimlarning kontekstual realizatsiyasi hamda nutqdagi ekspressiv imkoniyatlari haqida ilmiy izlanishlar mavjud bo‘lib, ular antonimlarning stilistik vosita sifatidagi rolini ochib beradi.

Qiyosiy tilshunoslik nuqtayi nazaridan antonimlarni o‘rganish ingliz va o‘zbek tillari kabi tipologik jihatdan turli tizimlarga ega tillarda semantik kategoriyalarning umumiy va farqli tomonlarini aniqlash imkonini beradi. Ayrim tadqiqotlarda antonimlarning universalligi haqida fikrlar ilgari surilgan bo‘lsa-da, madaniy va lingvokognitiv omillar sababli qarama-qarshiliklarning ifodalanishida sezilarli farqlar mavjudligi qayd etiladi. Shu sababli antonimlarning semantik tasnifini qiyosiy asosda o‘rganish zamonaviy lingvistikaning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar antonimiyaning nazariy asoslarini keng yoritgan bo‘lsa-da, ingliz va o‘zbek tillarida antonimlarning semantik tasnifini tizimli qiyosiy tahlil qilishga bag‘ishlangan tadqiqotlar yetarli darajada emas. Mazkur maqola aynan shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan bo‘lib, antonimlarning semantik turlari va ularning til tizimidagi funksional xususiyatlarini ikki til misolida tahlil qilishni maqsad qiladi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda ingliz va o‘zbek tillarida antonimlarning semantik tasnifini aniqlash hamda ularning qiyosiy xususiyatlarini tahlil qilish maqsadida kompleks metodologik yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida semantik tahlil usuli asosiy metod sifatida qo‘llanib, antonimik birliklarning ma’no oppozitsiyasi, semantik struktura va funksional xususiyatlari aniqlashtirildi; qiyosiy-tipologik metod orqali ingliz va o‘zbek tillaridagi antonimlarning o‘xshash hamda farqli jihatlari tahlil qilindi; kontekstual tahlil yordamida antonimlarning nutq jarayonidagi realizatsiyasi va stilistik funksiyalari o‘rganildi. Shuningdek, leksik-semantik tasniflash usuli asosida antonimlar gradatsion, komplementar va reversiv turlarga ajratilib, real til misollari orqali tahlil qilindi. Tadqiqotda nazariy manbalarni tahlil qilish, ilmiy adabiyotlarni sintez qilish hamda deskriptiv metodlardan ham foydalanilib, antonimiyaning universal va tilga xos xususiyatlarini aniqlashga erishildi.

Natijalar va muhokama. Tadqiqot davomida ingliz va o‘zbek tillarida antonimik munosabatlar semantik tasnif asosida qiyosiy tahlil qilindi hamda antonimlarning gradatsion, komplementar, reversiv va kontekstual turlari aniqlanib, ularning strukturaviy hamda funksional xususiyatlari o‘rganildi. Natijalar antonimiya har ikki tilda universal semantik mexanizmlar asosida shakllanganini ko‘rsatdi, biroq ularning realizatsiyasi til tizimi, morfologik imkoniyatlar va lingvokulturologik omillarga bog‘liq holda sezilarli darajada farqlanishi aniqlandi. Gradatsion antonimlar ingliz va o‘zbek tillarida eng produktiv va keng tarqalgan antonimik tur hisoblanadi. Bu turdagi antonim-

[1] Lyons, J. (1977). Semantics. Cambridge University Press

lar qarama-qarshi ma’no qutblarini ifodalasa-da, ular orasida semantik oraliq mavjud bo‘ladi va mazkur oraliq kontekst orqali aniqlanadi. Masalan, ingliz tilidagi big – small, hot – cold, fast – slow, young – old, rich – poor juftliklari o‘zbek tilidagi katta – kichik, issiq – sovuq, tez – sekin, yosh – qari, boy – kambag‘al juftliklariga mos keladi. Bunday antonimlarda daraja bildiruvchi birliklar keng qo‘llanadi: very hot, slightly cold, extremely fast kabi konstruktsiyalar ingliz tilida semantik intensivlikni oshirsa, o‘zbek tilida juda issiq, biroz sovuq, nihoyatda tez kabi vositalar shu vazifani bajaradi. Lyons gradatsion antonimlarni nisbiy semantik oppozitsiya sifatida ta’riflab, ularning absolyut emasligini ta’kidlagan1. Tadqiqot natijalari ham ushbu nazariyani tasdiqladi: masalan, tall – short juftligi kontekstga qarab turlicha talqin qilinadi; basketbolchilar orasida “short” deb hisoblangan bo‘y umumiy jamiyat standartiga ko‘ra baland bo‘lishi mumkin. O‘zbek tilida ham baland – past antonimik jufti subyektiv baholashga bog‘liq.

Gradatsion antonimlarning yana bir muhim xususiyati shundaki, ular ko‘pincha metaforik ma’no kengayishiga ega bo‘ladi. Masalan, ingliz tilida warm person (samimiy inson) yoki cold response (sovuqqon javob) iboralari fizik harorat emas, emotsional munosabatni bildiradi. O‘zbek tilida ham iliq munosabat, sovuq qarash kabi metaforik antonimik juftliklar mavjud. Bu holat antonimiyaning semantik va pragmatik darajalari o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatadi. Komplementar antonimlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, bu turdagi antonimlarda qarama-qarshilik absolyut xarakterga ega bo‘lib, oraliq daraja mavjud emas. Ingliz tilidagi alive – dead, true – false, present – absent, legal – illegal, married – single kabi juftliklar o‘zbek tilidagi tirik – o‘lik, rost – yolg‘on, bor – yo‘q, halol – harom, turmush qurgan – bo‘ydoq kabi birliklarga semantik jihatdan mos keladi. Cruse komplementar antonimlarni mantiqiy oppozitsiya sifatida tavsiflab, bir elementning inkori ikkinchi elementni anglatishini qayd etgan. Tahlil natijalariga ko‘ra, ingliz tilida bunday antonimlar ko‘pincha derivatsion affikslar orqali hosil qilinadi (possible – impossible, honest – dishonest, regular – irregular), o‘zbek tilida esa -siz affiksi (ma’noli – ma’nosiz, tartibli – tartibsiz) yoki mustaqil leksik birliklar orqali ifodalanishi kuzatildi. Lingvokulturologik jihatdan esa ayrim antonimlar madaniy qadriyatlar bilan bog‘liq. Masalan, o‘zbek tilidagi halol – harom jufti diniy konseptlarga asoslangan bo‘lsa, ingliz tilidagi legal – illegal ko‘proq huquqiy diskurs bilan bog‘liq.

Reversiv antonimlar tahlili harakatning qarama-qarshi yo‘nalishini ifodalovchi birliklarning har ikki tilda mavjudligini ko‘rsatdi. Ingliz tilida enter – exit, buy – sell, open – close, tie – untie, load – unload, lock – unlock kabi juftliklar reversiv munosabatni ifodalaydi. O‘zbek tilida esa kirish – chiqish, olmoq – sotmoq, ochmoq – yopmoq, bog‘lamoq – yechmoq, to‘ldirmoq – bo‘shatmoq kabi fe’llar orqali ifodalanadi. Murphy reversiv antonimlarni jarayonning semantik yo‘nalishini o‘zgartiruvchi birliklar sifatida ta’riflaydi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, ingliz tilida reversiv antonimlar prefikslar yordamida tizimli tarzda hosil qilinadi (cover – uncover, wrap – unwrap), o‘zbek tilida esa alohida leksik fe’llar orqali ifodalanishi ko‘proq uchraydi. Bu holat ingliz tilining derivatsion morfologiyasi rivojlanganligini ko‘rsatadi. Tahlil jarayonida kontekstual antonimiyaning ham muhim rol o‘ynashi aniqlangan. Ayrim so‘zlar lug‘aviy darajada antonim bo‘lmasa-da, matn kontekstida qarama-qarshi semantik effekt hosil qiladi. Masalan, ingliz tilida He is a lion at work but a kitten at home jumlasida lion va kitten qarama-qarshi xarakter xususiyatlarini ifodalaydi. O‘zbek tilida U tashqarida qat’iy, uyda esa juda muloyim kabi konstruktsiyalar ham kontekstual antonimiya namunasidir. Bu holat antonimiyaning faqat lug‘aviy hodisa emas, balki diskursiv strategiya ekanini ko‘rsatadi.

Strukturaviy jihatdan olib qaraganda, ingliz tilida antonimlarning hosil bo‘lishida prefiksatsiya (un-, in-, im-, dis-) muhim rol o‘ynaydi (happy – unhappy, correct – incorrect, active – inactive), o‘zbek tilida esa affiksatsiya bilan bir qatorda mustaqil leksik oppozitsiyalar ustunlik qiladi (yaxshi – yomon, ko‘p – oz, bor – yo‘q). Bu tipologik farq ikki tilning morfologik tizimi bilan bog‘liq bo‘lib, ingliz tilining analitik, o‘zbek tilining esa agglutinativ xususiyatlarini aks ettiradi. Muhokama qismida olingan natijalar zamonaviy semantik nazariyalar bilan solishtirildi. Lyonsning semantik oppozitsiya nazariyasi antonimiyaning universalligini tasdiqlasa, Murphy tomonidan ilgari surilgan kognitiv yondashuv antonimlarning inson tafakkurida dual kategoriyalar

[1] Lyons, J. (1977). Semantics. Cambridge University Press

orqali shakllanishini izohlaydi1. Tadqiqot natijalari ham shuni ko‘rsatdiki, inson tafakkurida dunyoni qarama-qarshi juftliklar orqali idrok etish tendensiyasi til tizimida aks etadi. Shu bilan birga, madaniy kontekst antonimik juftliklarning tanlanishiga va stilistik funksiyasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbek tilida ijtimoiy va axloqiy kategoriyalar bilan bog‘liq antonimlar ko‘proq uchrasa, ingliz tilida abstrakt va texnik oppozitsiyalar kengroq rivojlangan.

Xulosa. Mazkur tadqiqot doirasida ingliz va o‘zbek tillarida antonimlarning semantik tasnifi qiyosiy nuqtayi nazardan tahlil qilinib, antonimik munosabatlarning asosiy turlari hamda ularning til tizimidagi funksional xususiyatlari aniqlashtirildi. O‘tkazilgan semantik va qiyosiy-tipologik tahlil natijalari antonimiya hodisasi har ikki tilda universal semantik tamoyillar asosida shakllanganini ko‘rsatdi. Gradatsion, komplementar va reversiv antonimlar har ikki til leksik tizimida faol qo‘llaniladigan asosiy semantik turlar sifatida namoyon bo‘ldi. Bu esa antonimiyaning inson tafakkurida qarama-qarshi kategoriyalar orqali dunyoni idrok etish mexanizmi bilan chambarchas bog‘liqligini tasdiqlaydi. Tadqiqot natijalari gradatsion antonimlarning har ikki tilda eng produktiv tur ekanini ko‘rsatdi. Ular semantik shkala asosida tashkil topib, kontekstga bog‘liq nisbiy ma’no ifodalaydi. Komplementar antonimlar esa absolyut qarama-qarshilikni aks ettirib, mantiqiy oppozitsiya asosida shakllanishi bilan ajralib turadi. Reversiv antonimlar harakat yoki jarayonning qarama-qarshi yo‘nalishini ifodalash orqali semantik dinamizmni namoyon etadi. Shuningdek, tahlil jarayonida kontekstual antonimiya muhim diskursiv vosita sifatida aniqlanib, antonimiyaning faqat lug‘aviy hodisa emasligi, balki pragmatik va stilistik omillar bilan ham bog‘liqligi isbotlandi. Qiyosiy tahlil ingliz va o‘zbek tillari o‘rtasida umumiy semantik asoslar mavjudligini ko‘rsatish bilan birga, ularning strukturaviy va lingvokulturologik farqlarini ham ochib berdi. Xususan, ingliz tilida antonimlarning hosil bo‘lishida derivatsion prefikslar muhim rol o‘ynasa, o‘zbek tilida mustaqil leksik birliklar orqali antonimik oppozitsiyalar ko‘proq ifodalanadi. Bundan tashqari, ayrim antonimik juftliklar madaniy qadriyatlar, diniy tushunchalar yoki ijtimoiy konseptlar bilan bog‘liq bo‘lib, bu holat antonimiyaning lingvokulturologik tabiatini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari antonimlarning semantik tasnifi nafaqat nazariy tilshunoslik uchun, balki tarjima nazariyasi, xorijiy til o‘qitish metodikasi hamda madaniyatlararo kommunikatsiya sohalari uchun ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi. Qiyosiy tahlil asosida olingan xulosalar antonimik birliklarni tarjimada adekvat ekvivalentlar orqali ifodalash, stilistik nuanslarni saqlash va kontekstual ma’nolarni to‘g‘ri interpretatsiya qilishga yordam beradi. Kelgusidagi tadqiqotlarda antonimiyaning kognitiv-semantik modellari, korpus lingvistikasiga asoslangan statistik tahlillar hamda diskurs darajasida antonimlarning pragmatik funksiyalarini chuqurroq o‘rganish istiqbolli yo‘nalishlardan biri bo‘lishi mumkin. Shu tariqa, antonimiyaning ingliz va o‘zbek tillaridagi qiyosiy tadqiqi til tizimining semantik tuzilishini yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi hamda leksik-semantik munosabatlarni o‘rganishda yangi ilmiy yondashuvlarni taklif etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Lyons, J. (1977). Semantics. Cambridge University Press.
2. Cruse, D. A. (1986). Lexical Semantics. Cambridge University Press.
3. Murphy, M. L. (2003). Semantic Relations and the Lexicon. Cambridge University Press.
4. Nurmonov, A. va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili leksikologiyasi. Toshkent.
5. Palmer, F. R. (1981). Semantics. Cambridge University Press.
6. Lyons, J. (1977). Semantics. Cambridge University Press.
7. Cruse, D. A. (1986). Lexical Semantics. Cambridge University Press.
8. Murphy, M. L. (2003). Semantic Relations and the Lexicon. Cambridge University Press.

[1] Cruse, D. A. (1986). Lexical Semantics. Cambridge University Press.

Nazarov Azamat Sottarovich
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi,
Din psixologiyasi va pedagogika kafedrasi dotsenti

RAHBARNING BOSHQARUV QARORLARINI QABUL QILISH JARAYONIDA KONFORMIZM XAVFI: GURUH BOSIMI MEXANIZMLARI VA TASHKILOT FAOLIYATIGA TA’SIRI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada rahbarning boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida guruh bosimi va konformizm fenomenining ijtimoiy-psixologik mohiyati kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqotda qaror qabul qilish jarayoniga ta’sir etuvchi guruhiy mexanizmlar - normativ va informatsion ta’sir, ijtimoiy kutilmalar, guruhdagi maqom va rollar, jamoaviy birxil fikrga intilish (groupthink) holatlari ilmiy-nazariy asosda yoritiladi. Shuningdek, konformizm xavfining rahbar tomonidan alternativ variantlarni baholash, tanqidiy fikrlash, mas’uliyatni anglash va strategik tanlovni amalga oshirish jarayonlariga ta’siri ochib beriladi. Maqolada guruh bosimining ikki tomonlama xususiyati asoslanib, uning muayyan sharoitlarda qaror qabul qilish samaradorligini oshirishi bilan bir qatorda, ayrim holatlarda qaror sifati pasayishi, innovatsion faollik susayishi, psixologik xavfsizlik kamayishi, ishonch muhiti zaiflashishi va tashkilot faoliyatida funksional muammolar kelib chiqishiga sabab bo‘lishi ko‘rsatib o‘tiladi. Xulosa qismida boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida konformizm xavfini kamaytirishga xizmat qiluvchi amaliy-profilaktik yondashuvlar, jumladan, alternativ tahlil mexanizmlarini joriy etish, “tanqidiy muhokama” madaniyatini shakllantirish, “advokat-tanqidchi” rolini tashkil etish, anonim ekspert baholash usullaridan foydalanish hamda rahbarning psixologik avtonomiyasi va refleksiv kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *guruh bosimi; konformizm; boshqaruv qarori; guruh dinamikasi; liderlik; tashkilot kommunikatsiyasi; guruhiy fikrlash; javobgarlik.*

РИСК КОНФОРМИЗМА В ПРОЦЕССЕ ПРИНЯТИЯ УПРАВЛЕНЧЕСКИХ РЕШЕНИЙ РУКОВОДИТЕЛЕМ: МЕХАНИЗМЫ ГРУППОВОГО ДАВЛЕНИЯ И ВЛИЯНИЕ НА ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ОРГАНИЗАЦИИ

Аннотация. *В данной статье проводится комплексный социально-психологический анализ феномена группового давления и конформизма в процессе принятия управленческих решений руководителем. В исследовании на теоретико-научной основе раскрываются групповые механизмы, влияющие на принятие решений, включая нормативное и информационное воздействие, социальные ожидания, статусно-ролевую структуру группы, а также тенденцию к коллективному единомыслию (groupthink). Кроме того, рассматривается влияние риска конформизма на оценку руководителем альтернативных вариантов, критическое мышление, осознание ответственности и реализацию стратегического выбора. В статье обосновывается двусторонний характер группового давления, демонстрируется, что в определённых условиях оно может повышать эффективность принятия решений, однако в ряде случаев приводит к снижению качества решения, ослаблению инновационной активности, уменьшению психологической безопасности, снижению уровня доверия и возникновению функциональных проблем в деятельности организации. В заключительной части представлены практико-профилактические подходы к снижению риска конформизма в процессе принятия управленческих решений, включая внедрение механизмов альтернативного анализа, формирование культуры «критического обсуждения», организацию роли «адвоката-критика», использование методов анонимной экспертной оценки, а также рекомендации по развитию психологической автономии и рефлексивной компетентности руководителя.*

Ключевые слова: *групповое давление; конформизм; управленческое решение; групповая динамика; лидерство; организационная коммуникация; групповое мышление; ответственность.*

THE RISK OF CONFORMITY IN LEADERS' MANAGERIAL DECISION-MAKING: MECHANISMS OF GROUP PRESSURE AND ITS IMPACT ON ORGANIZATIONAL PERFORMANCE

Abstract. *This article provides a comprehensive socio-psychological analysis of group pressure and the phenomenon of conformity in the process of managerial decision-making by a leader. The study theoretically examines key group mechanisms influencing decision-making, including normative and informational influence, social expectations, the group's status-role structure, and the tendency toward collective uniformity of thought (groupthink). In addition, the paper explores how the risk of conformity affects a leader's evaluation of alternative options, critical thinking, awareness of responsibility, and implementation of strategic choices. The article substantiates the dual nature of group pressure, demonstrating that under certain conditions it may enhance decision-making effectiveness, while in other cases it leads to reduced decision quality, weakened innovative activity, decreased psychological safety, diminished trust, and the emergence of functional problems within the organization. The concluding section proposes practical and preventive approaches to reducing conformity risk in managerial decision-making, including the introduction of alternative analysis mechanisms, the development of a "critical discussion" culture, the establishment of a "devil's advocate" role, the use of anonymous expert assessment methods, and recommendations for strengthening the leader's psychological autonomy and reflexive competence.*

Key words*: group pressure; conformity; managerial decision; group dynamics; leadership; organizational communication; groupthink; responsibility.*

Kirish. Bugungi kunda tashkilotlarning barqaror rivojlanishi, raqobatbardoshligi va innovatsion salohiyati ko‘p jihatdan rahbarning samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish, ularni ilmiy-amaliy jihatdan asoslash hamda ijro mexanizmini to‘g‘ri yo‘lga qo‘ya olish qobiliyati bilan belgilanadi. Ayniqsa, globallashuv, raqamli transformatsiya, tezkor ijtimoiy o‘zgarishlar, axborot oqimining keskin ortgani hamda qaror qabul qilish jarayonida noaniqlik va risk omillari kuchaygan bir sharoitda rahbarning boshqaruv tanlovi faqat individual intellektual resurslar bilan emas, balki guruhiy muhit ta’siri orqali ham shakllanishi tobora yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Ijtimoiy-psixologiya nazariyalari nuqtai nazaridan rahbarning boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayoni jamoa fikri, tashkilot ichidagi me’yoriy kutilmalar, rahbar atrofidagi yaqin boshqaruv guruhining pozitsiyasi va norasmiy ta’sir kanallari bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu ma’noda, guruh bosimi va konformizm fenomeni rahbarning voqelikni idrok etishi, vaziyatni baholashi, alternativ variantlarni tanlashi va qarorning mas’uliyatini anglash jarayonlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatib, ayrim hollarda qarorning ratsionalligi va strategik adekvatligini pasaytiruvchi xavf omillaridan biriga aylanishi mumkin. Mazkur holat “konformizm xavfi” tushunchasini boshqaruv psixologiyasi kontekstida chuqur ilmiy asosda o‘rganish zaruratini yanada oshiradi.

Amaliyotda qaror qabul qilish ko‘pincha jamoaviy muhokama, boshqaruv kengashlari, ishchi guruhlar yoki maslahat organlari doirasida amalga oshiriladi. Biroq aynan shu jarayonlarda o‘zaro kelishuvga majburlovchi psixologik mexanizmlar, “yagona pozitsiya”ga intilish, tanqidiy fikr bildirishdan tiyilish, alternativ fikrlarni chetga surish kabi holatlar paydo bo‘lishi mumkin. Natijada rahbarning boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida deviant qarorlar, strategik xatolar, resurslarni noto‘g‘ri taqsimlash, ishonch muhitining susayishi va tashkilot samaradorligining pasayishiga olib keluvchi omillar kuchayadi.

Shuningdek, mazkur muammoning dolzarbligi rahbar qaror qabul qilish jarayonida normativ va informatsion ta’sir, “gruppovoy konformizm”, “gruppovoy мыslitelnыy sindrom” (groupthink) kabi ilmiy kategoriyalarning zamonaviy boshqaruv tizimlarida qanday namoyon bo‘lishi, ularning ijtimoiy-psixologik oqibatlari va profilaktik mexanizmlarini aniqlash bilan ham belgilanadi. Chunki konformizm xavfi nafaqat qaror sifatini pasaytiradi, balki tashkilotdagi innovatsion muhit, xodimlar faolligi, psixologik xavfsizlik, ijtimoiy ishonch va mas’uliyat madaniyati kabi muhim ko‘rsatkichlarga ham bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatadi.

Demak, rahbarning boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida guruh bosimi va konformizmning psixologik mexanizmlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish, ularning ijtimoiy-psixologik oqibatlarini asoslash va profilaktika yo‘llarini ishlab chiqish zamonaviy boshqaruv psixologiyasi uchun nazariy va amaliy ahamiyat kasb etuvchi dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi.

Ijtimoiy ta’sir va konformlikni guruh dinamikasining bazaviy kategoriyalari sifatida o‘rganish rahbar qarorlari psixologiyasini tushunishda fundamental ahamiyatga ega. S. Ashning klassik eksperimental tadqiqotlari bir ovozdan (yunodush) ko‘pchilik fikri mavjud bo‘lgan holatda individ hatto ochiq-oydin to‘g‘ri javob bor paytda ham o‘z bahosini o‘zgartirishga moyil bo‘lishini ko‘rsatgan [1]. Shuningdek, I. Djanis tomonidan ishlab chiqilgan “guruhiy fikrlash” konsepsiyasi birdam va yopiq guruhlarda bir ovozlikka intilish alternativ va risklarni real baholashdan ustun qo‘yilishi orqali salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligini tushuntiradi [2]. Demak, rahbar qarorlarida guruh bosimi va konformizm mexanizmlarini tahlil qilish boshqaruv psixologiyasidagi dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biri hisoblanadi.

Asosiy qism. Ijtimoiy-psixologik yondashuvlarda guruh bosimi guruhning individga nisbatan ochiq yoki yashirin ta’sirlari majmuasi sifatida talqin qilinadi; mazkur ta’sirning maqsadi - xulq-atvor, fikr va qarorlarni ko‘pchilik pozitsiyasiga moslashtirishdir. Bu yerda konformlikni bir xil reaksiya sifatida emas, balki turli darajalarda namoyon bo‘luvchi hodisa sifatida ko‘rish maqsadga muvofiq: tashqi (publich) kelishuv - inson guruh bilan ochiqcha rozi bo‘ladi, biroq ichki ishonchini saqlab qoladi; va ichki qabul qilish - guruh normasi interiorizatsiya qilinib, shaxsiy qarash qayta quriladi [4]. Mazkur farq konform ta’sirning chuqurligini diagnostikalash va qaror barqarorligini prognoz qilish imkonini beradi.

Ilmiy bahslarda “konformizm - nokonformizm” oppozitsiyasi har doim ham tushuntiruvchi qudratga ega emasligi ta’kidlanadi, chunki mukammal psixologik mezon sifatida shaxsiy o‘zini-o‘zi belgilash (lichnostnoe samoopredelenie) tushunchasi asosli hisoblanadi [3]. Ushbu yondashuvga ko‘ra, sub’ekt guruh me’yorlarini inkor etmasdan turib, mustaqil baholash va mas’uliyatli tanlovni saqlab qolishi lozim. Boshqaruv amaliyoti uchun bu, bir tomondan, jamoa fikrini hisobga olish, ikkinchi tomondan esa tanqidiy tahlil va dalillarga tayanishni muvozanatlash zarurligini anglatadi.

Boshqaruv qarorlarida guruh bosimi ta’sirini tushuntirishda rahbarning shaxsiy xususiyatlari ham muhim o‘rin tutadi. A. Nazarov ishlarida rahbar shaxsiyatining qaror qabul qilishga ta’sir etuvchi psixologik jihatlari, ishbilarmon xulq-atvor va o‘z-o‘zini boshqarish (samoregulyatsiya) mexanizmining ahamiyati alohida ko‘rsatiladi [5; 6]. Bu esa guruh ta’siri, odatda, mustaqil kognitiv baholash va kritik fikrlash mexanizmlari yetarlicha faol bo‘lmagan sharoitlarda kuchayishini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

Guruh bosimining asosiy mexanizmlarini normativ va axborot (informatsion) ta’sir sifatida ajratish mumkin. Normativ ta’sir guruh tomonidan ma’qullanish, maqomni saqlash va sanksiyalardan qochishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Boshqaruv jamoalarida bu “birdamlikni buzmaslik”, “ko‘pchilikka qarshi chiqmaslik”, “loyiq ko‘rinish” kabi ichki motivatsiyalarda ifodalanadi. Ierarxiya qattiq bo‘lgan tashkilotlarda va “noqulay fikr” uchun psixologik jazo kuchli bo‘lgan muhitda normativ bosim muhokamani dalillar maydonidan loyallik demonstratsiyasi maydoniga aylantirishi mumkin. Ayniqsa tezkor qaror talab etilgan, rahbardan “qat’iylik” kutiladigan vaziyatlarda bunday ta’sir sezilarli ortib, tanlov sifatini pasaytirish xavfini kuchaytiradi.

Axborot ta’siri esa ko‘pchilik fikrini kompetentlik mezoni sifatida qabul qilishga asoslanadi: “ko‘pchilik shunday desa, demak shu to‘g‘ri”. Noaniqlik va ma’lumot yetishmasligi sharoitida bu mexanizm sub’ektiv xavotirni kamaytiradi, kognitiv sarfni tejaydi, ammo strategik kompleks vazifalarda kollektiv xatolar ehtimolini oshiradi. Ash eksperimentida ko‘pchilikning bir ovozdan fikri individ bahosini o‘zgartirishga kuchli turtki bo‘lishi ko‘rsatilgan [1]. Real boshqaruv muhitida, qaror parametrlari ko‘p o‘lchamli bo‘lgan holatlarda, axborot ta’siri yanada kuchli oqibatlarga ega bo‘lishi ehtimoldan xoli emas.

Konformizmning tizimli ko‘rinishi sifatida “guruhiy fikrlash” (groupthink) fenomeni katta amaliy ahamiyatga ega. I. Djanis konsepsiyasiga ko‘ra, jips va yopiq guruhlarda bir ovozlikka intilish alternativ variantlarni real baholash, risklarni tanqidiy tahlil qilish va ma’lumotni tekshirishdan ustun keladi [2]. Guruhiy fikrlash ehtimoli, odatda, quyidagi shartlarda ortadi:

guruhning yuqori birdamligi va tashqi ta'sirlardan izolyatsiyalanishi; liderning yuqori avtoriteti va "qo'llab-quvvatlash majburiyati"; tashqi ekspertizaning yetishmasligi; tanqidiy muhokama protseduralarining yo'qligi; stress va vaqt bosimi. Natijada shubhalar marginallashadi, alternativlar "noqulay" deb chiqarib tashlanadi, muhokama esa avvaldan qabul qilingan qarorni tasdiqlashga xizmat qiladi.

Guruh bosimining boshqaruv qarorlari sifatiga ta'siri bir nechta ijtimoiy-psixologik oqibatlar orqali namoyon bo'ladi. Birinchidan, tanqidiy fikrlash pasayadi va alternativlar spektri torayib boradi: qaror "eng ko'p qo'llab-quvvatlangan" prinsipiga ko'ra shakllanib, "eng asosli" variant soyaga ketadi. Ikkinchidan, qayta aloqa buziladi va "sukut effekti" paydo bo'ladi: qarshi fikr bildirish xavfli deb qabul qilingan muhitda xodimlar risklar haqida gapirishdan tiyiladi, rahbar esa "qulay" axborotni oladi. Uchinchidan, javobgarlik diffuziyasi kuchayadi: "jamoa hammasini ma'qulladi" degan psixologik sxema personal mas'uliyatni pasaytiradi va riskli qarorlarni qabul qilishni yengillashtiradi.

Ushbu xulosalar boshqaruv qarorlarining psixologik samaradorligi shaxsiy yetuklik, ongli tanlov, ishbilarmon xulq-atvor va rahbarning o'z-o'zini boshqarish qobiliyati bilan bog'liq ekani haqidagi ilmiy natijalar bilan uyg'un [5; 6]. Shu ma'noda guruh fenomenlarini inkor etish yoki e'tibordan chetda qoldirish strategik xatolar va reputatsion yo'qotishlar xavfini oshiradi, ayniqsa noaniqlik va qaror "narxi" yuqori bo'lgan vaziyatlarda.

Konformizm profilaktikasi guruh faolligini cheklash emas, balki dalil-asosli va psixologik jihatdan xavfsiz muhokama madaniyatini shakllantirishni talab qiladi. Eng samarali choralarga quyidagilar kiradi: muhokamani reglamentlash (alternativlar generatsiyasi, risk tahlili, ma'lumotni tekshirish va yakuniy kelishuv bosqichlarini ajratish); "shayton advokati" roli orqali tanqidiy ekspertiza; ekspert baholarni anonimlashtirish va avvaldan ovoz berish usullari; tashqi mutaxassislarni jalb qilish; psixologik xavfsizlik muhitini rivojlantirish; rahbar avtonomligini va mustaqil baholash qobiliyatini kuchaytirish [3; 5; 6]. Ushbu choralar qaror qabul qilishda kognitiv xatarlarni kamaytirib, tashkilotning barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Xulosa. Guruh bosimi va konformizm rahbar faoliyatida tabiiy ijtimoiy-psixologik fenomenlar bo'lib, ayrim holatlarda jamoa muvofiqlashuvi va qaror ijrosini ta'minlaydigan funksional resurs vazifasini bajaradi. Biroq bir ovozlikka ortiqcha intilish ustuvor bo'lgan sharoitlarda ushbu fenomenlar qaror sifati pasayishiga, alternativ fikrlash cheklanishiga, qayta aloqaning buzilishiga va javobgarlikning "suyulishi"ga olib keladi. Klassik ijtimoiy ta'sir tadqiqotlari [1] hamda guruhiy fikrlash konsepsiyasi [2] konformizm xatarlari jips, yopiq va stress sharoitida faoliyat yurituvchi boshqaruv guruhlarida ayniqsa yuqori ekanini ko'rsatadi.

Shuning uchun boshqaruv qarorlarining samaradorligini oshirish tizimli profilaktik yondashuvlarni talab qiladi: muhokama jarayonlarini me'yorlashtirish, psixologik xavfsizlikni kuchaytirish, tanqidiy ekspertiza va alternativ tahlil mexanizmlarini joriy etish, shuningdek rahbarning shaxsiy avtonomligi va o'z-o'zini boshqarish salohiyatini rivojlantirish. Bunday kompleks yondashuv boshqaruv psixologiyasining ilmiy-amaliy qiymatini oshirib, tashkilotlarning noaniqlik sharoitida barqaror qaror qabul qilish qobiliyatini mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Asch S. E. Effects of group pressure upon the modification and distortion of judgments // Groups, Leadership and Men. Pittsburgh: Carnegie Press, 1951.

2. Janis I. L. Victims of Groupthink: A Psychological Study of Foreign-Policy Decisions and Fiascoes. Boston: Houghton Mifflin, 1972.

3. Ильин В. А., Кондратьев М. Ю. Групповое давление и групповое влияние: конформизм, нонконформизм, личностное самоопределение // Социальная психология и общество. 2012. № 1.

4. Шлыкова М. А. Феномен группового давления в социальной психологии группы // Экономика и социум. 2014. № 2–4 (11). С. 1252–1256.

5. Назаров А. Психологические особенности руководителей, влияющие на принятие управленческих решений // Молодой ученый. 2019. № 44 (282). С. 298–300.

G'ayibova Nargiza Anorbayevna
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Din psixologiyasi va pedagogika kafedrasi
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

KOGNITIV-BIXEVIORAL PSIXOTERAPIYADA OILAVIY MASLAHATNI TASHKIL ETISH

Annotatsiya. *Mazkur maqolada psixologik xizmatning alohida yo'nalishi bo'lgan psixokonsultatsiya, xususan oliaviy psixokonsultatsiyada kognitiv terapiya imkoniyatlari masalasiga ahamiyat qaratilgan. Maqolada, kognitiv-bixevioral psixoterapiya usullarning o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot berilgan.*

Kalit so'zlar: *oila, oilaviy munosabatlar, psixologik xizmat, oilaviy psixokonsultatsiya, psixoterapiya, kognitiv-bixevioral terapiya, suqrotcha dialog usuli, avtomatik fikrlar, irratsional ustanovkalar.*

ОРГАНИЗАЦИЯ СЕМЕЙНОГО КОНСУЛЬТИРОВАНИЯ ПО КОГНИТИВНО-ПОВЕДЕНЧЕСКОЙ ПСИХОТЕРАПИИ.

Аннотация. *В данной статье основное внимание уделяется возможностям когнитивной терапии в психоконсультировании, в том числе семейном психоконсультировании, которое является особым направлением психологической службы. В статье представлена информация об особенностях методов когнитивно-поведенческой психотерапии.*

Ключевые слова: *семья, семейные отношения, психологическая служба, семейное психоконсультирование, психотерапия, когнитивно-поведенческая терапия, метод сократического диалога, автоматические мысли, иррациональные установки.*

ORGANIZATION OF FAMILY COUNSELING IN COGNITIVE-BEHAVIORAL PSYCHOTHERAPY

Annotation. *This article focuses on the possibilities of cognitive therapy in psychoconsultation, including family psychoconsultation, which is a special area of psychological service. The article provides information about the features of cognitive behavioral psychotherapy methods.*

Key words: *family, family relationships, psychological service, family psycho-counseling, psychotherapy, cognitive-behavioral therapy, Socratic dialogue method, automatic thoughts, irrational attitudes.*

Oila jamiyatning asosiy ijtimoiy birligi sifatida shaxs rivojlanishi va tarbiyasida muhim rol o'ynaydi, bunda oilaviy munosabatlar xarakteri bola psixologik xususiyatlari shakllanishining asosi sanaladi. Oilaviy munosabatlar – bu er-xotin, ota-ona va farzandlar, farzandlar o'zaro munosabatlari va h.k. munosabatlarni o'z ichiga qamrab oluvchi keng tizimdir. Oiladagi nizo, kelishmovchilik va psixologik ziddiyatlar nafaqat a'zolarning emotsional holatiga, balki bolalarning shaxsiy rivojlanishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mazkur munosabatlar doirasida yuzaga keluvchi muammolarni hal qilishda psixologik konsultatsiyalarni samarali tashkil etish muhim sanaladi.

Psixokonsultatsiya psixologik xizmatning asosiy yo'nalishi sifatida psixoterapevtik ta'sir ko'rsatishda turli psixologik nazariya va yondashuvlardan unumli foydalanishni taqazo etadi. Psixokonsultatsiya aksariyat hollarda dialog ko'rinishga ega bo'lib, o'ziga xos vaziyatlarda mijoz ongi va shaxsida psixologik yangi tuzilmalarning shakllanishiga asos bo'luvchi shaxslararo munosabat va o'zaro bir-biriga ta'sir ko'rsatishning modellarini yaratish imkonini beradi.

Oilaviy konsultatsiyaning muhim vazifasi murakkab hayotiy vaziyatda oilaga psixologik yordam, muammoli holatlarni tahlili uchun yo'l-yo'riq va variantlar berish hisoblanadi. Oilaviy

konsultatsiya berishda oilaning tizim sifatida rivojlanishi masalalari, uning rolli tuzilmalarining o'ziga xosliklari va oila funksiyalarining bajarilishi xususiyatlariga katta e'tibor qaratiladi. Umuman olganda, oilaviy konsultatsiyaning maqsad, vazifa, shakl va uslublari oilaviy munosabatlarning qaysi sohasi hamda oila hayot siklining qaysi bosqichida ekanligiga (nikohdan o'tish masalalarida, er-xotinlik munosabatlari borasida, farzandlar va ota-onalar munosabatlari) qarab farq qiladi. Bunda konsultatsiyaning samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omil – barcha oila a'zolarining muammoni hal etish yo'llarini topish uchun birgalikda ishlashga, o'zini rivojlantirish va mos ravishda o'zgartirishga tayyorligi hisoblanadi.

Bugungi kunda psixologlar shaxsdagi buzilishlarni, shaxslararo munosabatlardagi nizolarni bartaraf etish uchun kognitiv psixoterapevtik yondashuvni tadbiq etishni taklif qilmoqdalar.

Kognitiv psixoterapiya zamonaviy psixoterapiyaning eng keng tarqalgan va samarali yo'nalishlaridan biridir. Bu usul insonning noadekvat his-tuyg'ulari, irrotsional g'oya-fikrlarini adekvat his-tuyg'ular, ratsional fikrlarga aylantirishga asoslangan.

Kognitiv yondashuv namoyondalarning fikricha, shaxsning xulq-atvorini uning bilimlari, tafakkur tarzi boshqarardi. Inson hayotida sodir bo'lgan voqeliklar haqidagi bilimlar rolini ajratish mutaxassislarning umumiy yo'nalishini belgilab beradi. Kognitiv psixoterapiya - bu noto'g'ri fikrlash shakllarini (g'oyalarini) anglash va tuzatish orqali mijozning shaxsiy va ijtimoiy moslashuvini yaxshilashga qaratilgan psixoterapevtik usuldir. Kognitiv psixoterapevtlar o'z ishini insonning ma'lumotni qanday qabul qilishini va qayta ishlashini tushunish orqali u nima uchun muayyan psixologik muammolarga duch kelayotganini aniqlash mumkin degan tamoyilga asoslanib, odatiy fikrlash tarzini o'zgartirish orqali bu muammolarni hal qilish mumkin deb hisoblashadi. Demak, terapiyaga ko'ra, inson o'zidagi psixologik muammolarni yengishi uchun tafakkur tarzini o'zgartirishi kerak.

Kognitiv psixoterapiyaning asoschisi Aaron Bek hisoblanib, ushbu terapiya keyinchalik kognitiv xulq-atvor terapiyasi yoki kognitiv-bixevioral terapiya deb ataldi. Aaron Bek psixologik muammolar biz noto'g'ri xulosalar chiqarishimiz tufayli yuzaga keladi, deb hisoblardi, bu esa haqiqiy voqealarni tushunishni sezilarli darajada buzishi mumkin. Shu bilan birga, inson nafaqat vaziyatni idrok etadi va baholaydi, balki o'zining o'ylari va hislarini doimiy ravishda sharhlab boradi. Bek bunday izohlarni "avtomatik fikrlar" deb atagan va ular bizning tajribamiz va nomaqbul xatti-harakatlarimiz manbai bo'lishi mumkinligiga ishongan. Shuningdek, ushbu terapiyaga yondosh bo'lgan ratsional emotiv xulq-atvor terapiyasiga ko'ra, inson hayotiga atrofida sodir bo'layotgan voqealar ta'sir qilishi shubhasiz, ammo uning his-tuyg'ularini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynamaydi, faqat insonning shu voqealar haqidagi fikrlari hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shaxs stress holatiga tez-tez tushishiga, turli psixologik muammolar yuzaga kelishiga sababchi bo'luvchi asosiy omil bu - insonning mantiqqa mos kelmaydigan irratsional fikrlardir. Irratsional fikrlar kishida qancha ko'p bo'lsa, olamga moslashishi, odamlar bilan munosabatda bo'lishi qiyinlashadi. Bu esa oilaning baxtsiz hayotiga, er-xotinlik, ota-ona va farzand, qaynona-kelin, umuman olganda shaxslararo munosabatlardagi muammolariga sabab bo'lishi mumkin.

Kognitiv psixoterapiya seansida mijoz terapevt bilan birgalikda muammo qanday sharoitlarda namoyon bo'lishini, "avtomatik fikrlar" qanday paydo bo'lishini va ular uning qarashlari, tajribasi va xatti-harakatlariga qanday ta'sir qilishi o'rganiladi. Mijoz o'zining "qotib qolgan" fikrlarini "yumshatish"ni va muammoli vaziyatning turli tomonlarini ko'rishni o'rganadi.

Aaron Bek KBTning uchta asosiy strategiyasini ishlab chiqqan: hamkorlikdagi empirizm, Suqrotcha dialog va yo'nalgan yangilik.

Hamkorlik empirizmi. Psixolog va mijoz hamkorlikda ishlaydilar. Ular birgalikda mijozning (bizning masalada oila a'zosining) avtomatik fikrlarini o'rganadilar: ularni sharhlaydilar, bilimlarning yetarliligi va foydaliligi to'g'risida taxminlar qilinadi va ularning tasdig'ini hayotiy vaziyatlaridan qidiradilar. Natijada, mijoz noto'g'ri qarashlar va fikrlash shakllari qanday ishlashini bilib oladi va u muqobil ma'lumot manbalariga ega bo'ladi. Oilaviy konsultatsiyada mijozning oila va oilaviy rollar, oilaviy munosabatlar haqidagi qarashlari tahlil qilinadi.

Suqrotcha dialog. KBTning asosiy vositasi suhbatdir, ko'pincha u dialog shaklida bo'ladi. Psixolog mijozga yordam berish uchun savollarning matnini diqqat bilan ko'rib chiqadi:

muammoni aniqlash;

unda paydo bo'lgan fikrlar, taxminlar, tasvirlarni tan olish va ularga mantiqiy izoh topish;

hodisalarga qanday ma'no yuklanishini, ularni qanday idrok etishini aniqlash;

avtomatik fikrlar tomonidan qo'zg'atilgan bilish va xatti-harakatlarning oqibatlarini baholash.

Mutaxassis o'z oldiga mijozni aybini topish, uning boshiga ma'lum bir xulosa chiqarish vazifasini qo'ymaydi. Psixologning savollari yordamida inson o'zining odatiy xulosalarini, qiliqlarini, xatti-harakatlarini tahlil qiladi va u sodir bo'layotgan voqealarning yanada real, obyektiv tasvirini rivojlantiradi.

Yo'naltirilgan yangilik. Psixoterapevt yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi rolini o'ynaydi: u bemorga mantiqiy xatolarni, hodisalarni noto'g'ri baholashni, odatiy harakatlar sxemasini tushunishga va eksperimental ravishda yangi tajriba orttirishga yordam beradi. Bemor vaziyatga moslashishni, o'zini o'zi to'g'irlashni o'rganadi va yangi xatti-harakatlar taktikasini ishlab chiqadi. Mutaxassis mijozni yangi harakatlar algoritmini qabul qilishga majburlamaydi, balki mijozga haqiqatni adekvat idrok etish va narsalarga real qarashni o'rganish uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi.

Kognitiv psixoterapiyaning maqsadi odamga unga xalaqit beradigan (ko'pincha erta bolalik davrida shakllanadigan) fikrlash shakllaridan xalos bo'lishga yordam berishdir. Psixoterapiyaning maqsadi insonga vaziyatni qanday izohlashini, nimani payqashini va nimani e'tiborsiz qoldirayotganini va nima uchun bunday baholash uni muayyan his-tuyg'ular va harakatlarga olib kelishini tushunishga o'rgatishdir.

KBTda oilaviy maslahatni tashkil etish bosqichlarini quyidagicha tashkil etish mumkin:

Diagnostik bosqich

• Oila a'zolari bilan suhbat;

• Muammoning asosiy manbaini aniqlash;

• Irratsional fikrlar va ishonchlarni belgilash.

2. Maqsad qo'yish bosqichi

• Oila a'zolarining umumiy maqsadlarini belgilash;

• Har bir oila a'zolarining shaxsiy maqsadlarini va oilaning umumiy manfaatlari bilan uyg'unlashtirish.

3. Kognitiv qayta ishlash bosqichi

• Irratsional fikrlarni tahlil qilish;

• Ijobiy va konstruktiv fikrlarni shakllantirish;

• "Avtomatik fikrlar"ni aniqlab, ularni ratsional fikrlarga almashtirish.

4. Bixevioral intervensiyalar

• Ijobiy muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish;

• Nizoli vaziyatlarda konstruktiv yechim topish mashqlari;

• Oiladagi rol va mas'uliyatlarni qayta taqsimlash.

5. Natijani baholash va mustahkamlash bosqichi

• Olingan o'zgarishlarni kuzatish;

• Uy vazifalari orqali amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash;

• Qayta residivlarni oldini olish choralari.

Oilaviy konsultatsiyalarda kognitiv-bixevioral terapiyaning samarasi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Mijozga o'zini va oila a'zolarini (xususan, psixikasida nuqsoni bo'lgan oila a'zosini) imkoniyat va kamchiliklari bilan qabul qilishga, tushunishga o'rgatadi; ota-ona, farzandlar va siblinglarini qabul qilish va ularga tolerant munosabatda bo'lishga yordam beradi; nogiron yoki psixik, fiziologik buzilishi mavjud bo'lgan ota-onalarga garchand ular kasallikning paydo bo'lishiga aloqador bo'lsalar ham muammoning asosiy sababchisi emasliklarini, aybdorlik hissini bartaraf etishga yordam beradi; er-xotinlarga, ota-onalarga, farzandlarga jismoniy yoki psixik kasalliklari bo'lgan oila a'zolarini to'liq qabul qilishga o'rgatib, ulardan uyalmaslik, muammoni inkor etmaslikka (mutloq muammosiz hayotning o'zi yo'q) va aksincha tan olish va tahlil qilishga, tafakkur qilish orqali muammoga adekvat qarashga ko'mak beriladi.

Kognitiv-bixevioral psixoterapiyada oilaviy maslahat muammolarni aniqlash va ularni samarali hal qilishga xizmat qiladi. U irratsional fikrlar va salbiy ishonchlarni o‘zgartirish orqali oila a’zolari o‘rtasida sog‘lom munosabatlarni tiklash imkonini beradi. To‘g‘ri tashkil etilgan oilaviy maslahat nafaqat nizolarni hal qiladi, balki kelgusi muammolarning oldini olishga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1.Дж.Бек. Когнитивная терапия: полное руководство: Пер. с англ. - М.: 2006. - 400 с.
2.Харитонов С.В. Рукаводство по когнитивно-поведенческой психотерапии. 2-е изд. – М.: Психотерапия, 2017. – 176 с.
3.Осипова А.А. Общая психокоррекция.М.: СФЕРА, 2002.- 510 с.
4.Karimova V.M., G’ayibova N.A. Oila psixologiyasi. O’quv qo’llanma. – T.: ILM-ZIYO-ZAKOVAT, 2022. – 262 b.
5.Камалетдинова З.Ф., Антонова Н.В. Когнитивно-поведенческий подход в психологическом консультировании: Учебное пособие. М.: Изд-во СГУ, 2010. 296 с.
6.G’ayibova N.A. Sibling maqomi va uning o’smir shaxslararo munosabatlariga ta’siri. Monografiya. – T.: Ilm-ziyo-zakovat, 2020. – 114 b.

Kasimova Zebo
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
din psixologiyasiva pedagogika kafedrasi,
pedagogika fanalri nomzodi, professor
E-mail:Zeboxonkasimova777@gmail.com

YOSHLARDA AXBOROT ISTE’MOLI MADANIYATINI VA DINIY PSIXOLOGIK IMMUNITETINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya. *Ushbu maqolada yoshlarda diniy mazmundagi axborotlarni idrok etishga nisbatan ratsional yondashuv ko‘nikmasini shakllantirish ijtimoiy psixologiya, xususan, din psixologiyasi sohasida dolzarb ahamiyat kasb etishi ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan. Maqolada ko‘tarilgan muammo muallifning dissertatsion tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda tahlil etilgan.*

Insoniyat axborot oqimi tobora tezlashib borayotgan, aholi kayfiyatini, ruhiyatini, maqsad va intilishlarini, qolaversa, butun tafakkur tarzini o‘zgartirishga qodir bo‘lgan axborot texnologiyasi vujudga kelgan bir davrda yashamoqda. Axborot asrida jahon hamjamiyati bilan tobora integrallashib borayotgan O‘zbekistonda ham boshqa mamlakatlar qatori bugungi kunda axborot to‘plash, tarqatish va uni tasarruf qilish jarayoni jadallashib bormoqda.

Internet, televideniye, radio, video, telefon aloqalari va shu kabilarning rivojlanishi yoshlar ma’naviy dunyosining ilmiy, aqliy, hissiy, ruhiy, axloqiy, mafkuraviy, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, ekologik, estetik, badiiy, diniy kabi ko‘p qirrali tarkibiy qismlariga doimiy ta’sir etish vositalariga aylandi.

Islom dini buzg‘unchilikni, odamlar qalbiga vahima, dushmanlik va fitna urug‘larini sochishni qattiq qoralaydi. Ma’lumki, so‘nggi yillarda dinni niqob qilib olgan oqimlar, toifalar paydo bo‘ldi. Ular g‘arazli maqsadlari yo‘lida jamiyatda buzg‘unchilik, begunoh odamlar ongini chalg‘itish, ularning ong osti qatlamlariga aldov yo‘llari bilan psixologik manipulyatsion ta’sir ko‘rsatish kabi harakatlarni avj oldirib, fuqarolar tinchligini buzib, xalq orasida nizo chiqarishga harakat qilishmoqda.

Ilmiy maqolada muallif diniy mazmundagi axborotlarni idrok etishga talabalarda ratsional yondashuv va sog‘lom munosabatni qaror toptirish, ularda ijtimoiy tarmoqlar orqali qabul qilinayotgan axborotlarni saralash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodik tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *psixologiyak immunitet, axborotni idrok etish, tafakkur, ratsional yondashuv, diniy mazmundagi axborot, axborot xuruji, inson ongi va qalbi, ommaviy axborot vositalari, internet, ijtimoiy tarmoqlar.*

ФОРМИРОВАНИЕ У МОЛОДЕЖИ КУЛЬТУРЫ ИНФОРМАЦИОННОГО ПОТРЕБЛЕНИЯ И РЕЛИГИОЗНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ИММУНИТЕТА

Аннотация. *В данной статье раскрываются вопросы формирования рационального подхода к восприятию информаций с точки зрения социальной психологии, в частности, психологии религии и научно-теоретическое обоснование данной проблемы.*

В современном мире человечество сталкивается с огромным потоком информационных технологий, переживает психологическую манипуляцию информационных взрывов, оказывающих воздействие на экономическую, политическую и духовную сферу общества.

Интернет, телевидение, радио, видео и телекоммуникации становятся ключевыми факторами воздействия на когнитивную, эмоциональную, психическую сферу познания личности.

Важно отметить, что религия Ислам всегда выступала против психологических манипуляций сознанием личности, а также создания панических атак, информационных угроз

и атмосферу опасности, но на сегодняшний день некоторые силы под маской ислама проповедуют именно угрожающие и разлагающие идеологии в сознании человечества.

Автор отмечает, что формирование религиозно-психологического иммунитета способствует развитию навыков рационального подхода к восприятию информаций религиозного содержания.

Ключевые слова: *психологический иммунитет, восприятие информации, мышление, рациональный подход, информация религиозного содержания, информационный взрыв, душа и сознание, средства массовой информации, интернет, социальные сети.*

FORMING A CULTURE OF INFORMATION CONSUMPTION AND RELIGIOUS-PSYCHOLOGICAL IMMUNITY AMONG YOUNG PEOPLE

Abstract. *This article explores issues related to the formation of a rational approach to the perception of information from the perspective of social psychology, in particular, the psychology of religion, and provides a scientific and theoretical justification for this problem.*

In today's world, humanity is faced with a huge flow of information technologies and is experiencing psychological manipulation from information explosions that affect the economic, political and spiritual spheres of society.

The Internet, television, radio, video and telecommunications are becoming key factors influencing the cognitive, emotional and mental spheres of personal cognition.

It is important to note that the religion of Islam has always opposed psychological manipulation of the individual's consciousness, as well as the creation of panic attacks, information threats and an atmosphere of danger, but today some forces under the guise of Islam preach precisely these threatening and corrupting ideologies in the consciousness of humanity.

The author notes that the formation of religious and psychological immunity contributes to the development of skills for a rational approach to the perception of information of a religious nature.

Key words: *psychological immunity, perception of information, thinking, rational approach, religious information, information explosion, soul and consciousness, mass media, internet, social networks.*

Kirish. Bugun inson hayotini kompyuter tarmoqlari va ommaviy axborot vositalari orqali uzatilayotgan yangi ma’lumotlarni o‘z faoliyatida u yoki bu tarzda qo‘llamasligini tasavvur etib bo‘lmaydi. Ma’lumotning shaxsga ta’siri uning tarqalish kanallari va qo‘llanayotgan belgili shakllariga ham bog‘liqdir. Bosma nutqga nisbatan televideniye orqali yetkazilayotgan ma’lumotlar ongga katta ta’sir o‘tkazadi. Televideniye keng auditoriyani jalb qilishi sababli ta’sir effekti yuqoriligi bilan ajralib turadi.

Ijtimoiy taraqqiyot nazariyasidan ma’lumki, ma’lumot nafaqat ilm-fan, balki aniq bir insonning rivojlanishiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Bugungi kunga kelib ma’lumotni yetkazish tarzi o‘zgarmoqda, bunda vizualizatsiyalash, kompyuter grafikasi va gipermedialar an’anaviy ma’lumot tashuvchilar bilan bir xil o‘rinni egallamoqda. Natijada, ma’lumotni ta’sirchanlik darajasi ham o‘zgarmoqda.

Ommaviy axborot vositalari turli xil fikrlar, rang-barang qarash va yondashuvlarga keng yo‘l ochib beradi. Hayotimizda yuz berayotgan yangilanish va o‘zgarishlarga odamlarning ongli munosabatini uyg‘otadi. Jamiyat hayotining turli qirralarini tezkorlik bilan aks ettiradi. O‘ziga xoslik va xaqqoniylik tamoyillariga tayanib, faoliyat yuritadi, barkamol avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Bu haqda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev «Keyingi paytda ommaviy axborot vositalari xodimlarining demokratik jarayonlar, fuqarolik jamiyatini barpo etishdagi o‘rni va nufuzini, mahalliy gazetalar, tele-radiokanallarning moddiy-texnik bazasi va kadrlar salohiyatini mustahkamlash, eng asosiysi, matbuotda fikrlar, qarashlar xilma-xilligini ta’minlash bo‘yicha

jiddiy ishlar amalga oshirilgani sizlarga yaxshi ma’lum, albatta» - deb ta’kidlab, ularning ijtimoiy tarbiya sohasidagi rolini ko‘rsatib berdilar [1.1.2].

Olimlarning fikricha, inson 85 foiz axborotni ko‘rish orqali oladi va qolgan 15 foiz axborotni eshitish orqali olar ekan. Demak, bu o‘rinda televideniye va internetning roli har qachongidan ortadi. Keyingi paytlarda internet bilan bog‘lik buzg‘unchiliklar, global tarmokdan qabih maqsadda foydalanayotganlar ko‘payib bormoqda. Oqibatda, zalolatga boshlovchi elektron nashrlar va videolavhalar keng yoyilmoqda.

O‘zbekistonda эса интернетдан фойдаланиш сўнгги йилларда кескин ошган. Агар 1999 йил охирида мамлакатимизда интернетдан фойдаланувчилар сони бор-йўғи 80 минг кишини ташкил этган бўлса, бугунги кунга келиб кўрсаткич мутлақо бошқача. Халқаро статистик маълумотларга кўра, 2019 йилда интернетдан фойдаланувчилар улуши 70,4 %, 2021 йилда 76,6 %, 2022 йилда эса 83,9 % ни ташкил этган. 2023 йилга келиб эса аҳолининг 89 % интернетдан фойдаланиши қайд этилган[2].

Дунё бўйича интернетдан фойдаланишнинг ўртача кўрсаткичи 2023 йилда 72,5 % ни ташкил этган[3]. Демак, Ўзбекистон аҳолисининг интернетдан фойдаланиш даражаси дунё ўртачасидан юқори бўлиб, бу мамлакатимизда рақамли технологиялар ва ахборот хизматларига бўлган талаб ва имкониятлар ортиб бораётганини англатади.

G‘alamis kimsalar yoshlarni o‘z tuzoqlariga ilintirishda internetdan ustalik bilan foydalanmoqda. O‘zlarini “yaqin do‘st” yoki “hidoyatga chorlovchi” sifatida tanitib, yoshlarni to‘g‘ri yo‘ldan chalg‘itmokda. Aslida, ularning din va shariat haqida umuman ilmlari yuq, faqatgina to‘da boshidan yodlab olganlarini takrorlashdan nariga o‘tmaydilar. Boshqa tomondan qaraganda, ular bu johilligi bilan boshqalarni ham jar yoqasiga tortayotgani va kimningdir nog‘orasiga uynayotganini bilmaydilar. Bundaylar avval dinu diyonat, ibodat, jannat haqida turli jozibali so‘zlarni gapirib, g‘o‘r yoshlarni yo‘ldan urib, oxir-oqibatda, razolat qurboniga aylantirmoqda.

Asosiy qism. Internetdan olingan axborot xolis, ishonchli va zararsiz ekanini bilish muhim hisoblanadi. Yaxshi-yomonning farqiga bormagan yoshlar internet orqali tarqatilgan har qanday ma’lumot-xabarlarni haqiqat deb qabul qilayotgani jiddiy xavotirga soladi.

Sarhadsiz internet dunyosiga kirgan shaxs vaqt, umr g‘animat ekanini doimo yodda saqlamog‘i lozim. Zero, bu global tarmoq bepoyon hududlarga ega bo‘lib, unda inson adashib soatlab, kunlarini samarasiz o‘tkazib yuborishi mumkin.

Axborot olish kafolatlari va erkinligi har bir shaxsning o‘zi istagan axborotni izlash, olish va tarqatishga haqli ekanini bildiradi. Mustaqillik yillarida yurtimizda bu borada mustahkam huquqiy poydevor yaratildi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 30-moddasida barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslar fuqarolarga ularning xuquq va manfaatlariga daxldor bo‘lgan hujjat, qaror va boshqa xil axborotlar bilan tanishib chiqish imkoniyatini yaratib berishi lozimligi belgilab qo‘yilgan. 1997 yil 24 aprelda qabul qilingan «Axborot olish kafolatlari va erkinligi to‘g‘risida»gi Qonunga ko‘ra, mamlakatimizdagi har bir fuqaro o‘z manfaatlariga daxldor axborotlarni olish imkoniyatiga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida: “O‘tgan 3 yil mobaynida O‘zbekistonda so‘z erkinligini ta’minlash, ommaviy axborot vositalarini har tomonlama rivojlantirish, jurnalist va blogerlarning erkin faoliyat yuritishi va ijod qilishlari uchun huquqiy asoslar va keng imkoniyatlar yaratildi. Bundan keyin ham “to‘rtinchi hokimiyat” vakillarining erkin va xolis faoliyat yuritishlari, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan jadal islohotlarni xalqimiz va xalqaro hamjamiyat uchun ochiq-oydin yoritishlari uchun barcha shart-sharoitlarni yaratamiz”, - deb ta’kidlangan.

Bu borada tadqiqotchi N.Umarova shunday yozadi: “...Axborotlashtirish jarayonining ijobiy jihatlari bilan bir qatorda axborot sohasidagi yutuqlardan yomon niyatlarda foydalanish xavfi ham tug‘ilmoqda. Bunda axborotdan jahonda tinchlik va xavfsizlikni ta’minlash, davlatlarning suveren tengligi tamoyillariga amal qilish, nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilish, kuchdan foydalanmaslik, ichki ishlarga aralashmaslik, inson huquqi va erkinliklarini hurmat qilish kabi maqsadlarga zid ravishda foydalanilmoqda”1. Bundan kelib chiqadiki, aksariyat hollarda yosh yigit va qizlar informatsion xurujning asosiy obyektiga aylanmoqdalar.

Informatsion tahdid va uning psixologik mohiyati ko‘plab siyosatchilar, psixologlar izlanishlarining predmetiga aylanib bormoqda. Rossiyalik olim G.Pochepsovning ta’kidlashicha, axborot urushida eng avvalo psixologik qonuniyatlar inobatga olinadi, chunki uning asosiy mo‘ljali – inson ongidir.

Inson ongini boshqarish, uni psixologik ta’qib ostiga olish, ya’ni ruhiy manipulyatsiya ommaviy tarzda tarqalib borayotganligi haqida rus psixologi G.V.Grachev to‘xtalib, o‘z tadqiqotlarida shaxsning axborot psixologik xavfsizligi, ommaviy kommunikatsiya vositalarining funksiyalari, inson ruhiyatini psixologik himoya qilish usullari haqida ilmiy qarashlarini bayon etgan.

Mustaqil fikrlashdan mahrum, itoatkor, jismoniy ehtiyojning quliga aylangan odamlar manqurt yoki “zombi” deb ataladi. Atoqli yozuvchi Chingiz Aytmatov o‘zining “Asrga tatigulik kun” asarida “Zombi” hodisasini shunday tasvirlaydi: “Asirdagi tutqunlarni odamlardan yiroqqa, suvsiz, yemishsiz, kimsasiz yaydoq dalaga, oyoq-qo‘llari bog‘liq holda jazirama oftob tig‘iga eltib, dahshatli tarzda qiynab, uning xotirasini yo‘qotar ekan. Zo‘rlab es-hushidan judo etilgan qul – manqurtga aylanardi. Shuning uchun ham manqurt o‘nta sog‘lom tutqundan ko‘ra qimmatli turardi. Bunday insonlar o‘zining kim ekanini, qaysi urug‘-aymoqdan ekanini, ismini, ota-onasining kimligini butunlay yoddan chiqargan bo‘lib, o‘zining odamligini unutib yuboradi. Odatda ularga eng zerikarli, eng mashaqqatli, ovsarlarcha sabr toqat talab etiladigan mashg‘ulotlar topshirilar edi”.

Bu haqda sotsiologiya fanlari doktori, professor M.Bekmurodov shunday yozadi: “Turli xil diniy e’tiqodlarni aholi ongiga singdirish orqali siyosiy, mafkuraviy maksadlarga erishish harakati XX asr oxiri va XXI asr boshlaridagi davrning o‘ziga xos xususiyatiga aylanib bormoqda. Ommaga mafkuraviy tazyiq o‘tkazish xususiyati dunyodagi eng yirik islom, xristianlik, buddaviylik va iudaizmdan iborat 4 dindagi an’anaviy e’tiqod amallaridan ajralib chiqqan mazhablar, sektalar, oqimlar faoliyatida ayniqsa bo‘rtib namoyon bo‘lmoqda. Diniy e’tiqod orqali ta’sir o‘tkazish jarayonlari odamlar ongi, dunyoqarashini o‘zgartirish va pirovard natijada ularni ma’naviy manqurt – zombiga aylantirish bilan yakun topmoqda. Yoshlar ongini zaharlab ularni zombi qilish mexanizmi qanday tarzda namoyon bo‘lishi, bu jarayon qay tarzda kechishi, mafkuraviy muxoliflarimiz o‘zlarining g‘arazli maqsadlariga erishishlari uchun qanday shakl va uslublardan foydalanayotganliklarini tadqiq etish - bugungi kunning favkulodda muhim masalalaridan sanaladi”.

“Ma’naviyatga chetdan bo‘ladigan salbiy va o‘ta salbiy ta’sirlar bor va bo‘ladi. Yaqin kelajakda bu xavf-xatarlar kamayadi, deb o‘ylash, kamida – soddadillik, rosmana aytganda – jinoyatkorona beparvolik bo‘lar edi. Tashqi ma’naviy tahdidlarni to‘xtatish, ta’qiqlash, ixotalash oson emas. Shunday ekan, har qanday tashqi g‘oyaviy, axloqiy ta’sirga nisbatan mafkuraviy immunitet, ya’ni har bir o‘zbekistonlikda tashqi g‘oyaviy ta’sirni “ma’naviy elakdan o‘tkazish qobiliyati”ni shakllantirish ma’naviy-ma’rifiy, tarbiyaviy ishlarimizning birinchi vazifasi bo‘lmog‘i zarur. Toki odamlarning o‘zi har bir axborotni, yangilik va bilimni aql tarozusida tortib, ma’naviyat elagidan o‘tkazib, yaxshini ajratib olsin, yomonni daf etib, yonidagilarni ham bundan ogohlantirsin”- deya ta’kidlaydi professor M.Quronov.

Falsafa fanlari doktori, professor A.Ochildiyevning quyidagi fikrlari ham biz tadqiq qilayotgan muammoning naqadar dolzarb ekanligini tasdiqlaydi: “Ommaviy axborot vositalari orqali amalga oshiriladigan va katta mablag‘ talab qilmaydigan g‘oyaviy ta’sir va tazyiqning o‘ziga xosligi shundaki, u o‘quvchi, tinglovchi yoki tomoshabinga sezdirilmasdan amalga oshiriladi va bevosita qurbonlarni keltirib chiqarmaydi. Axborot dushmanni yo‘q qilmagan, katta harajatni talab qilmagan holda yuqori samara beradi. Bunda g‘oyaviy ta’sir yo‘naltirilgan mamlakatlar aholisining xohish-istaklari, mentaliteti, mavjud muammolari jiddiy o‘rganilgan holda asosiy diqqat kishilar ongi va dunyoqarashiga ta’sir ko‘rsatishga, shakllangan qadriyatlarni o‘zgartirishga, ularning regulyatorlik rolini kamaytirishga yoki butunlay yo‘qqa chiqarishga qaratiladi. ...Shunday ekan, har bir fuqaromizda axborot olami imkoniyatlaridan oqilona foydalanish malakasini shakllantirish, ularda axborot iste’moli madaniyatinitarbiyalash hayotiy-amaliy ahamiyatga ega. Buning uchun esa, eng avvalo, har bir inson u yoki bu axborotni eshitar ekan, hech bo‘lmaganda “Bu axborotni kim uzatayapti?”, “Nima uchun uzatayapti?” va “Qanday maqsadda uzatayapti?”

degan savollarni o‘z-o‘ziga berishi, unga asosli javob topishi kerak bo‘ladi. Ana shundagina turli g‘oyalar ta’siriga tushib qolishning oldi olinadi”.

Yuqorida nomlari qayd etilgan olimlarning fikrlari, olib borilgan tadqiqotlar bilan tanishish va ularning mazmunini tahlil etish shuni ko‘rsatadiki, yoshlarda axborotlarga ratsional yondashuv ko‘nikmalarini shakllantirish muammosi murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, ijtimoiy-pedagogik jihatdan maxsus tadqiq etilmagan, muammoga doir empirik, sotsiologik va statistik ma’lumotlar nazariy jihatdan umumlashtirilmagan. Yoshlarda axborotlarga ratsional yondashuv ko‘nikmalarini rivojlantirish differensial pedagogik-psixologik dasturini ishlab chiqish zarurati tadqiqot mavzusining “Yoshlarda axborotlarga ratsional yondashuv ko‘nikmalarini rivojlantirish mexanizmlari” deb nomlanishiga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Olib borgan izlanishlarimiz natijalari asosida oliy ta’lim muassasalarida ijtimoiy-gumanitar fanlar o‘qituvchilarining malakasini oshirishda, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar dasturlarini tuzishda, shuningdek, “Ma’naviyat va ma’rifat” markazlari, axborot texnologiyalari markazlari, guruh murabbiylari faoliyati mazmunini yoshlarda axborotlarga ratsional yondashuv ko‘nikmalarini rivojlantirish yo‘nalishlarida foydalanish uchun uslubiy tavsiyalar, ilmiy-ommabop risola va monografiya tayyorlanadi.

Ayniqsa, FM radio tarmoqlari, televideniye va matbuotdan olayotgan ma’lumotlari hajmi va xilma-xilligi bo‘yicha boshqa manbalardan olinayotgan axborotlardan nafaqat ustun turishini, balki qiziqarli qilib berilayotganligini aytib o‘tmaslik mumkin emas. Bu esa yoshlar tomonidan tushunarli, ommabop muntazam bo‘lganligi uchun bevosita qabul qilinadi. Shuning uchun ham axborotning «birinchi qo‘ldan», ya’ni bevosita siyosiy axborotlar, mahoratli sharhlovchilar, ma’naviyat va xalq xo‘jaligining turli sohalaridagimutaxassislardan olinishi o‘ta muhimdir.

Kuchli psixologik immunitet - yoshlardan ijtimoiy-siyosiy g‘o‘r, loqayd, hayotga befarq o‘rtoqlari, tengqurlariga nisbatan faol, tanqidiy nuqtai nazardan qarashlarini talab etadi. Shuning uchun norasmiy, o‘rtoqlar doirasida ba’zan sustkashlik, g‘oyaviy harakatsizlik, mamlakatimizning erishgan yutuqlari, uning tashqi va ichki siyosati to‘g‘risida bo‘hton ma’lumotlar keltirilganda, ularga befarqlik hollari uchrab turadi. Tarqatilayotgan siyosiy bo‘htonlarga o‘zlarining befarq qarashlarini yoshlar:

«Axir ular yaxshi bolalar-ku?» (Nigora);

«Hamma shusiz ham buning bo‘htonligini biladiku, nima keragi bor tortishishning?» (Mahmud);

«Nimaga bekordan bekorga bahslashish kerak?» (Sanjar),

«Agar men tortisha boshlasam, mendan xafa bo‘lishadi, tushunishmaydi. Shundoq ham aniq-ku kurash ketayapti, bizning dushmanlarimiz makkor» (Aziza),

«Mening ayrim tanishlarim «Bi-Bi-Si» tarqatayotgan bemaza xabarlarni o‘zining siyosiy xabardorligini ko‘rsatish uchun hammaga aytib yuradi» (Sherzod) qabilidagi gaplar bilan oqlashadi.

Buning pedagogik talqini qanday bo‘ladi? Yoshlarni xalqaro hayot to‘g‘risidagi umumsiyosiy va tarixiy bilimlardan (siyosiy dunyoqarash tizimida aynan shu yo‘nalishlar ustuvordir) o‘z-o‘zidan yangi bosqichga - bizga yot mafkura bilan faol kurashishga o‘tadi, deb o‘ylash xatodir. Buning uchun yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishga qaratilgan keng tarmoqlangan, ommaviy axborot vositalaridan unumlifoydalanuvchi maxsus pedagogik dastur ishlab chiqilib, amalga oshirilmog‘i kerak.

Yoshlarda psixologik immunitetni shakllantirishning samarali vositalaridan biri - puxta o‘ylab chiqilgan suhbatdir. Masalan, Farg‘ona DUning tarix fakultetida O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi siyosiy suhbatlar o‘tkazish bo‘yicha ko‘riklarni tashkil qilishda qiziqarli tajriba to‘pladilar. Ishning bunday shakli universitet “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati tashkilotining butun faoliyati bilan tabiiy bog‘lanib ketadi. Siyosiy axborot berish mazmunining boyishi yoshlarning yanada ko‘proq qismini jalb qilishga ko‘mak bermoqda.

Bizning tavsiyalarimiz asosida o‘tkazilgan suhbatlar muammoli xususiyatga ega bo‘lgan savollar yordamida qurildi. Masalan, «Soxta demokratiya: u kimga xizmat qiladi?» mavzusidagi suhbatda yoshlarga gazeta va jurnallardan jahon mamlakatlarida mavjud bo‘lgan mulkchilik va

demokratiyaga misol bo‘luvchi materiallarni tanlab olish vazifasi berildi. Bunda yoshlarning aniq ma’lumotlarga asoslangan chiqishlari soxta demokratiyaning halqqa qarshi qaratilganmohiyatini ochib tashladi. Shunday qilib, yoshlar tahlil mobaynida soxta g‘oyalarni inkor qilishsan’atiga o‘rgandilar, o‘zlarida tanqidiy fikrlash qobiliyatini o‘stirdilar.

Yoshlarda psixologik immunitetni shakllantirishning amaliy vositalaridan biri - «Matbuot konferensiyasi» shaklidagi rolli o‘yin ekanligi aniqlandi.

«Matbuot konferensiyasi» mobaynida «muxbir» yoshlarga savollar beradi, prezidiumdagi «arboblar» bo‘lsa, isbotli javob berishga harakat qiladilar va yot mafkuralar mohiyatiningvay-ronkorliginiko‘rsatadilar. «Matbuot konferensiyasi» odatda savollar va javoblarning jamoaviy tahlili, ayrimlarini aniqlashtirish va to‘ldirish bilan yakunlanadi. Muammoli masalalarni qo‘yish, ularni mustaqil ijodiy hal qilish yoshlarningqo‘shimcha bilimlarga ega bo‘lishi, dunyoqarashiga oid masalalarni rivojlanishi, o‘z fikrlarini dalillar bilan himoya qilish ko‘nikmalari va ma-horatining shakllanishiga yordam beradi.

Ommaviy tajribani o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, yoshlarda psixologik immunitetni shakllantirishda:

ilmiylik tamoyiliga izchil tayanish;

bayon qilinayotgan dalillarni diniy aqidaparastlikning har qanday ko‘rinishlariga kuchli murosasizlik bilan bog‘lash;

yoshlarni bahslashishga o‘rgatish;

siyosiy bilimlarga qiziqish uyg‘otish;

yoshlarning ijtimoiy faolligini har tomonlama rag‘batlantirish;

eng muhimi yoshlar ongi va his-tuyg‘ulari, ehtiyojini oqilona hisobga olish tamoyillariga amal qilingandagina samaradorlikka erishish mumkin. Dolzarb masalalarga bo‘lgan e’tiborning susayishi, tezkorlikning yetishmasligi, javobsiz qolgan har bir savol esa yot mafkura targ‘ibotchilariga qo‘l keladi.

Talaba yoshlarda siyosiy ogohlikni, mafkuraviy immunitetni tarbiyalash oliy o‘quv yurtidagi ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimida amalga oshiriladi.

Xulosa

Olingan natijalarning tahlili ta’lim muassasalari ma’naviyat va ma’rifat mutasaddilariga yoshlarda yot mafkuralar, mustaqillikni mustahkamlashga tahdid solayotgan kuchlarga murosasiz bo‘lishni, mafkuraviy tarbiyaning pedagogik nuqtai nazardan maqsadga muvofiq samarali shakllarini aniqlab, tashviqot-targ‘ibot usullari orasidan eng qulaylarini tanlab olish imkonini ber-di.

Yoshlarning to‘garaklar, turli birlashmalar, ijodi mazmun va shakli jihatidan turlicha bo‘lgan faoliyat turlari ham estetik ijtimoiy fikrnishaxsiy fikr, mustaqil izlanishlari bilan o‘zaro mu-vofiqlashtirishga xizmat qilishi yaqqol tasdiqlandi. Bunda san’atning mafkuraviy mohiyati anglab olindi, uning barcha ko‘rinishlari g‘oyasizlik, bachkanalik, badiiy noqislik, insonga nafrat va buzg‘unchilik bilan kurashish istagini paydo qilishi namoyon bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Ўзбекистон Республикасининг “Ахборотлаштириш тўғрисида”ги қонуни. Ахборот ва ахборотлаштиришга оид норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар тўплами. – Т.: Адолат, 2008. – 50 б.

2. Ўзбекистон Республикасининг “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида”ги Қонуни, 2016 йил 14 сентябрь. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 37-сон, 426-модда.

3. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси. //Халқ сўзи. 2020 йил 25 январь, № 19. –Б. 1,2,3,4.

4. Мирзиёев Ш. Буюк келажагимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз. - Тошкент –“Ўзбекистон” -2016. - 488 б.

5. Мирзиёев Ш. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатлари таъминлаш-юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Тошкент: Ўзбекистон. -2016. -488 б.

6. Мирзиёев Ш. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик-ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. -104 б.

7. Авлоний А. Туркий гулистон ёҳуд ахлоқ.-Т.: Ўқитувчи, 1992.-160 б.

8. Бекпўлатов Ҳ., Мамадалиев Р. Глобаллашув шароитида ахборот хуружларига қарши курашнинг айрим масалалари // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. - Т.: 2016, №1 14-бет.

9. Бозоров О., Мажидов Н., Абдуллаева Ш. Соғлом маънавий муҳит кушандаси. – Тошкент: Истиқлол нури, 2013. Б-25.

10. Дўстмуҳаммад Х. Глобаллашув даври ва ахборот макони // Ўзбекистон матбуоти, 2007 йил 3-сон, 12-14 б.

11. Имомназаров М. Огоҳ бўлайлик. Т.: Академия, 1999. -162 б.

12. Ислом: Бағрикенглик ва мутаассиблик. Т.1998.

13. Очилдиев А. Миллий ғоя ва миллатлараро муносабатлар. Монография. –Т.: Ўзбекистон, 2004. 120 б.

14. Очилдиев А. Миллий ғоя, инсон ва замон. -Т.:«Янги аср авлоди», 2001. -96б.

15. Фарфиева К.А. Оммавий ахборот воситалари таъсирида ёшларда ижтимоий тасаввурлар шаклланишининг ўзига хослиги (телевидение мисолида) // Психол. ф. н. илмий даража. олиш учун ёзилган дис. автореф. – Т.: ЎзМУ, 2005. – 21 б.

16. Қодиров Б. Ахборот оқими ва ёшлар маънавияти // Тафаккур, 2015. №2. 82 – б.

17. Қуронов М., Жабборов Ҳ. Аҳолида ички ва ташқи таҳдидларга қарши мустаҳкам мафкуравий иммунитетни шакллантиришнинг таъсирчан педагогик-психологик тамойиллари // Психология. –Бухоро, 2017. 4- сон. 16- бет.

Isakova Mu'azam To'lqinovna
Farg'ona davlat universiteti Psixologiya kafedrasi professori,
psixologiya fanlari doktori

SPORTCHILARDA MOTIVASIYA VA RUHIY SALOMATLIK: AFFILIASIYA MOTIVI VA MUVAFFAQIYATGA ERISHISH MOTIVASIYASINING PSIXOLOGIK TAHLILI

Annotasiya. *Mazkur maqolada sportchilarning ruhiy salomatligi, affiliasiya motivasiyasi va muvaffaqiyatga erishish motivasiyasi o'rtasidagi psixologik aloqa o'rganilgan. Farg'ona davlat universiteti jismoniy madaniyat fakultetining 380 nafar talabasi ishtirokida o'tkazilgan empirik tadqiqot natijalari ko'rsatishicha, affiliasiya motivasiyasi sportchilarning stress va xavotir holatlarini pasaytirishda, ijobiy ruhiy salomatlikni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, motivlar tizimining sport faoliyati va umumiy psixologik farovonlik bilan bog'liqligi tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *ruhiy salomatlik, affiliasiya motivasiyasi, muvaffaqiyat motivasiyasi, stress, sport psixologiyasi, motivlar tizimi, psixologik farovonlik.*

MOTIVATION AND MENTAL HEALTH IN ATHLETES: A PSYCHOLOGICAL ANALYSIS OF AFFILIATION MOTIVE AND ACHIEVEMENT MOTIVATION

Abstract. *This article examines the psychological relationship between mental health, affiliation motivation, and achievement motivation in athletes. Empirical findings from a study conducted with 380 students of the Faculty of Physical Culture at Fergana State University demonstrate that affiliation motivation plays a significant role in reducing stress and anxiety in athletes and in fostering positive mental health. The relationship between the motivational system, athletic performance, and general psychological well-being is analyzed.*

Key words: *mental health, affiliation motivation, achievement motivation, stress, sports psychology, motivational system, psychological well-being.*

МОТИВАЦИЯ И ПСИХИЧЕСКОЕ ЗДОРОВЬЕ У СПОРТСМЕНОВ: ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ МОТИВА АФФИЛИАЦИИ И МОТИВА ДОСТИЖЕНИЯ УСПЕХА

Аннотация. *В данной статье исследуется психологическая взаимосвязь между психическим здоровьем, мотивацией аффилиации и мотивацией достижения успеха у спортсменов. Результаты эмпирического исследования, проведённого с участием 380 студентов факультета физической культуры Ферганского государственного университета, показывают, что мотивация аффилиации играет значимую роль в снижении стресса и тревожности у спортсменов, а также в формировании позитивного психического здоровья. Анализируется связь системы мотивов со спортивной деятельностью и общим психологическим благополучием.*

Ключевые слова: *психическое здоровье, мотивация аффилиации, мотивация достижения, стресс, психология спорта, система мотивов, психологическое благополучие.*

Kirish. Insonning ruhiy salomatligi - uning hayotiy faolligi, ijtimoiy munosabatlari va kasbiy samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ta'rifiga ko'ra, ruhiy salomatlik shaxsning o'z imkoniyatlarini to'la namoyon eta olishi, hayotdagi odatiy stress vaziyatlarini bartaraf eta olishi, faoliyatda samarali ishtirok etishi va jamiyatga hissa qo'sha olishi bilan tavsiflanadi. Sport faoliyati esa - bu o'ziga xos ruhiy zo'riqishlar, musobaqa, start stressorlari va yuqori psixologik talablar qo'yiladigan faoliyat turi bo'lib, sportchilarning ruhiy salomatligi masalasi shunisi uchun ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Sport psixologiyasida motivasiya masalasi doim markaziy o'rinda turadi. Chunki motivasiya faoliyatga undovchi va uni yo'naltiruvchi kuch sifatida sportchining natijalari, bardoshliligi va ruhiy holatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. A.S.Puni, P.A.Rudik, Ye.P.Ilin, Yu.Yu.Palayma kabi sport psixologlari motivlar tizimi sportchi shaxsining psixologik portretini belgilashda asosiy o'rin tutishini alohida ta'kidlaydilar.

Ushbu maqolada biz motivasiya va ruhiy salomatlik o'rtasidagi bog'liqlikni, xususan affiliasiya motivasiyasining psixologik himoya va stress, shuningdek muvaffaqiyatga erishish va muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivlarining sportchi farovonligiga ta'sirini tahlil qilamiz.

Nazariy asoslari. Ruhiy salomatlik tushunchasi nafaqat ruhiy kasallikning yo'qligini, balki shaxsning ijobiy psixologik holatini: o'zini-o'zi qabul qilishni, hayotdan qoniqishni his etishni, shaxslararo munosabatlarda muvozanat saqlashni va stress vaziyatlarga moslashish qobiliyatini ham nazarda tutadi. Aynan ana shu komponentlar sportchi motivasiyasi bilan chambarchas bog'liqdir.

Milliy psixologiyamizning namoyandalari E.G'oziyev, A.Jabborov motivlar tizimini shaxs xulq-atvor regulyatorining asosi deb belgilaydilar. Ularning ta'kidlashicha, motivlar nafaqat faollikni yo'naltiruvchi, balki shaxsning o'zini-o'zi baholashi, hissiy holati va psixologik immuniteti bilan uzviy bog'liq. Bu nuqtai nazar ruhiy salomatlik va motivasiya orasidagi o'zaro ta'sirni tushunishda muhim metodologik zamin yaratadi.

Masllou iyerarxiyasida tegishlilik va muhabbat ehtiyoji ijtimoiy motivasiyani tashkil etadi va psixologik farovonlikning asosiy sharti hisoblanadi. Affiliasiya motivasiyasi - ya'ni insonlar bilan yaqin aloqada bo'lish, qabul qilinishga intilish - aynan ana shu ehtiyojning konkret namoyon bo'lish shakli. Tadqiqotlar ko'rsatishicha [Mehrabian, 1970], affiliasiya motivasiyasining yuqori darajasi ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni oshirish orqali ruhiy salomatlikni mustahkamlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda Farg'ona davlat universiteti jismoniy madaniyat fakultetining 380 nafar talabasi ishtirok etdi. Ular orasida 18 dan 24 yoshgacha bo'lgan erkak va ayol sportchilar mavjud bo'lib, turli sport turlari vakillari edi. Tadqiqot maqsadi - affiliasiya motivasiyasi va muvaffaqiyatga erishish motivasiyasi orasidagi bog'liqlikni, shuningdek ularning psixologik farovonlikka ta'sirini aniqlashdan iborat bo'ldi.

Tajribada A.Megrabyanning M.Sh.Magamed-Eminov modifikasiyasidagi «Affiliasiya motivasiyasi» metodikasi (qabul qilinishga intilish va rad etilishdan qo'rqish shkalalari), A.A.Reanning «Muvaffaqiyat motivasiyasi va muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqish» metodikasi qo'llanildi va ikkala metodika natijalari taqqoslab chiqildi. Natijalar matematik-statistik usullar yordamida tahlil etildi.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. Tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha, sinaluvchilarning 55,3 % foizi qabul qilinishga intilish shkalasi bo'yicha to'plangan ballar yig'indisi rad etilishdan qo'rqish shkalasi bo'yicha to'plangan ballar yig'indisidan yuqori bo'ldi, ya'ni ularda affiliasiyaga intilish ifodalangan. Rad etilishdan qo'rqish motivi esa barcha yoshdagi sinaluvchilarda kuzatildi va umumiy ko'rsatkich 73,6% ni tashkil etdi.

Affiliasiya motivasiyasi va ruhiy salomatlik o'rtasidagi aloqa to'g'risida aytish mumkinki: sportchilarda affiliasiyaga intilishning kuchli namoyon bo'lishi jamoada ijobiy psixologik iqlim yaratadi va musobaqa oldi stressini pasaytirishga yordam beradi. Affiliasiyaga to'sqinlik qilish esa, aksincha, yakdillik, rad etilganlik va frustrasiya tuyg'usini yuzaga chiqaradi, bu hol sportchining maksimal sport formasida bo'lishiga to'sqinlik qiladi va psixologik farovonlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Muvaffaqiyatga erishish motivasiyasi va ruhiy salomatlik o'rtasidagi bog'liqlik tadqiqi shuni ko'rsatdiki, sinaluvchilarning motivlar ranjirovkasida 1-o'rinda muvaffaqiyatga intilish motivi (42,2%), 2-o'rinda muvaffaqiyatga erishish motivi (26,3%), 3-o'rinda motivasion plyus ifodalanmagan motiv (23,6%) turadi. Muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivi esa faqat 2,6% ni tashkil etdi. Bu nisbat ruhiy salomatlik uchun ijobiy hisoblanadi: chunki muvaffaqiyatga yo'nalgan motivasiya shaxsni optimistik yondashishga, o'ziga ishonchni saqlashga va irodaviy barkamollikka olib keladi.

Muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivasiyasiga tayangan sportchilarda esa ruhiy to'siqlar kuzatiladi: ular ishni boshlashdan avval omadsizlik xavotirini boshdan kechiradi, pessimizmga moyil

bo'ladi va musobaqa jarayonida ruhiy chidamsizlik bilan tavsiflanadi. D.Maklelland va D.Atkinsonning motivasiya nazariyasiga ko'ra, bu holat uzoq muddatda nevrotik simptomlarning shakllanishiga zamin yaratishi mumkin.

Ikkala metodika natijalarini taqqoslash ko'rsatdiki: affiliasiya motivasiyasining shakllanganligi (qabul qilinishga intilish motivi) kuchli bo'lgan sportchilarning 50% da muvaffaqiyatga erishish motivi kuzatildi. Bu natija Bandura (1997)ning ijtimoiy ta'sir nazariyasi bilan mos keladi: yaqinlarning qo'llab-quvvatlashi shaxsning o'ziga ishonchini va maqsadga erishish quvvatini oshiradi.

Stress - zamonaviy sportchilar ruhiy salomatligiga eng katta tahdid soluvchi psixologik holatlardan biri. Sportdagi stress manbalari ko'p: musobaqa oldi xavotiri, trener va jamoadoshlar kutishlari, jismoniy zo'riqish, shikastlanish xavfi va natijalarga nisbatan ijtimoiy baholash. Bu omillarning yig'indisi ba'zan «startdan avvalgi isitma» deb ataluvchi keskin xavotir holatini yuzaga chiqaradi.

Affiliasiya motivasiyasini psixologik himoya mexanizmi sifatida ko'radigan bo'lsak, tadqiqot natijalari ana shu nazariyani tasdiqlaydi. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlanishga moyillik (affiliasiya) stress vaziyatlarida shaxsga «bufer» vazifasini bajaradi: trener, jamoadoshlar yoki yaqinlarining yordami va ma'qullashi sportchini xavotir va ruhiy tushkunlikdan saqlaydi. Bu fenomen ko'plab tadqiqotlarda tasdiqlangan [Cohen S., Wills T.A. 1985] va «ijtimoiy ta'sir gipotezasi» deb ataladi.

Shu bilan birga, rad etilishdan qo'rqish motivasiyasi (73,6% sinaluvchilarda) alohida ruhiy xavf omili sifatida ko'rinadi. Bu motiv kuchli bo'lgan shaxslar odamlar orasida bo'lishga intilish bilan birga ular tomonidan mensimaslikdan, tanqiddan va inkor qilinishdan qo'rqish orasida turib, doimiy ichki diskomfort va zo'riqish holatida yashaydilar. Bu holat aniq psixologik zararga - «xavotirli ulanish» sindromiga olib kelishi mumkin, bu esa ruhiy salomatlik nuqtai nazaridan alohida monitoring talab etadi.

Tadqiqot xulosasi. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin: birinchidan, affiliasiya motivasiyasining shakllanganligi va sportchilarning ruhiy salomatligi o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjud. Qabul qilinishga intilish motivi kuchli bo'lgan sportchilar stress vaziyatlarida tezroq tiklanadi va o'zini jamoadan ajratib qolmaydi. Ikkinchidan, muvaffaqiyatga erishish motivasiyasining ustunligi (42,2% va 26,3%) ruhiy farovonlik uchun musbat ko'rsatkich bo'lib, uning past darajasi (muvaffaqiyatsizlikdan qochish -2,6%) nisbatan yaxshi psixologik holatdan dalolat beradi.

Tavsiya sifatida sport psixologlari va trenerlar uchun quyidagilarni belgilash mumkin. Birinchi, sportchilarda affiliasiya motivasiyasini rivojlantirish uchun jamoaviy trenirovkalar, guruhiy psixologik suhbatlar va ishonch muhitini yaratish zarur. Ikkinchi, rad etilishdan qo'rqish motivasiyasi kuchli bo'lgan sportchilar uchun psixologik yordam tizimi va trenerlar tomonidan ijobiy mustahkamlash strategiyasi tavsiya etiladi. Uchinchi, musobaqadan avvalgi stress vaziyatlarida ijtimoiy qo'llab-quvvatlanishni ta'minlash (yaqinlar, trener, jamoadoshlar) sportchining psixologik hozirligini oshirish uchun samarali usul hisoblanadi. To'rtinchi, muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivi kuchli bo'lgan sportchilar uchun maqsad qo'yishning psixologik metodlari va pozitiv psixologiya yondashishlari tavsiya etiladi.

Xulosa.

Sport psixologiyasi doirasida o'tkazilgan ushbu tadqiqot sportchining nafaqat jismoniy tayyorgarligi, balki uning ruhiy salomatligi va ichki motivatsion drayverlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ko'rsatib beradi. Olingan natijalar va nazariy tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Birinchidan, muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi sportchining professional o'sishi va g'alabaga bo'lgan intilishini belgilovchi asosiy kognitiv-irodaviy omildir. Biroq, bu motivatsiya faqat natijaga yo'naltirilgan bo'lsa, uzoq muddatli istiqbolda ruhiy toliqish va emotsional "yonish" (burnout) xavfini yuzaga keltirishi mumkin. Shuning uchun ham muvaffaqiyat motivatsiyasini barqaror ruhiy salomatlik bilan muvozanatlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchinchidan, affiliatsiya motivi, ya'ni jamoaga mansublik va ijtimoiy bog'liqlik hissi, sportchilar uchun kuchli "psixologik himoya" vazifasini o'taydi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, jamoa bilan emotsional aloqalari mustahkam bo'lgan sportchilarda stressga chidamlilik darajasi yuqori bo'lib, mag'lubiyatlardan so'ng tiklanish jarayoni ancha tez kechadi. Affiliatsiya motivi muvaffaqiyat motivatsiyasining agressivligini yumshatib, sport muhitida sog'lom ruhiy iqlimni yaratadi.

Uchinchidan, sportchining ruhiy salomatligi uning motivatsion sohasi bilan dinamik aloqada bo'lib, bu jarayonda "o'z-o'zini anglash" va "ijtimoiy qo'llab-quvvatlash" mexanizmlari hal qiluvchi rol o'ynaydi. Muvaffaqiyatga erishish va jamoadagi ijtimoiy qabul qilinish (affiliatsiya) o'rtasidagi oltin muvozanatni topish sportchining nafaqat yuqori natijalar qayd etishiga, balki o'z faoliyatidan shaxsiy qoniqish hosil qilishiga ham zamin yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, sportchilarni tayyorlash tizimida faqatgina jismoniy va taktik ko'nikmalarga e'tibor qaratish yetarli emas. Zamonaviy sport talablari sportchilarning motivatsion profilini (affiliatsiya va natija) muntazam monitoring qilishni hamda ularning ruhiy salomatligini muhofaza qilishning maxsus psixologik dasturlarini joriy etishni taqozo etmoqda. Bu esa nafaqat "chempion"ni, balki ruhiy jihatdan sog'lom va ijtimoiy moslashgan shaxsni tarbiyalashning garovidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Ғозиев Е., Жабборов А. Фаолият ва хулқ-атвор мотивацияси. - Тошкент: ЎзМУ, 2003. - 85 б.

2. Илин Е.П. Мотивация и мотивы. - М.: Питер, 2000. - 502 с.

3. Илин Е.П. Психология спорта. - М.: Питер, 2009. - 352 с.

4. Исакова М.Т. Монография. Инсон руҳий саломатлигининг ижтимоий-психологик омиллари. Фарғона. "Classika". 2022.-210 с.

5. Рудик П.А. Психология спорта. - М., 1999. -147 с.

6. Bandura, A. Self-efficacy: The exercise of control. - New York: Freeman, 1997.

7. Cohen, S., & Wills, T.A. Stress, social support, and the buffering hypothesis // Psychological Bulletin. - 1985. - Vol. 98 (2). - P. 310–357.

8. Mehrabian, A. The development and validation of measures of affiliative tendency and sensitivity to rejection // Educational and Psychological Measurement. - 1970. - Vol. 30 (2). - P. 417–428.

Муминова Лола Рахимовна
Доктор педагогических наук, профессор кафедры логопедии
Ташкентского Национальный педагогического университета имени Низами

ЛОГОПЕДИЧЕСКАЯ ПОМОЩЬ ДЕТЯМ С НАРУШЕНИЯМИ РЕЧИ: АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ПОВЫШЕНИЕ ЕЁ ЭФФЕКТИВНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются актуальные проблемы оказания логопедической помощи детям с нарушениями речи в Республике Узбекистан. Проанализированы современные тенденции развития логопедической службы, основные трудности в диагностике, коррекции и профилактике речевых нарушений у детей дошкольного и школьного возраста. Особое внимание уделяется вопросам раннего выявления речевых дефектов, междисциплинарного взаимодействия специалистов, внедрения инновационных коррекционно-педагогических технологий и повышения профессиональной компетентности логопедов. В статье также освещаются организационно-методические аспекты совершенствования логопедической помощи с учетом национальных образовательных реформ. Сделан вывод о необходимости комплексного, системного и научно обоснованного подхода к повышению эффективности логопедической работы в условиях модернизации системы образования Узбекистана.*

Ключевые слова: *логопедическая помощь, нарушения речи, дети дошкольного возраста, коррекционная работа, ранняя диагностика, инклюзивное образование, эффективность логопедической деятельности, Узбекистан.*

SPEECH THERAPY SUPPORT FOR CHILDREN WITH SPEECH DISORDERS: CURRENT ISSUES AND IMPROVING ITS EFFECTIVENESS IN UZBEKISTAN

Abstract. *This article examines the current issues of speech therapy support for children with speech disorders in the Republic of Uzbekistan. The study analyzes modern trends in the development of speech therapy services, as well as the main challenges in the diagnosis, correction, and prevention of speech disorders among preschool and school-aged children. Particular attention is paid to early identification of speech impairments, interdisciplinary cooperation among specialists, implementation of innovative corrective and pedagogical technologies, and improvement of speech therapists' professional competence. The article also highlights organizational and methodological aspects of enhancing the effectiveness of speech therapy services within the framework of ongoing educational reforms in Uzbekistan. The study concludes that a comprehensive, systematic, and scientifically grounded approach is essential for improving the effectiveness of speech therapy practice in the context of educational modernization.*

Key words: *speech therapy support, speech disorders, preschool children, corrective work, early diagnosis, inclusive education, effectiveness of speech therapy services, Uzbekistan.*

Речь - это ключевой инструмент общения, обучения и социализации ребёнка. Нарушения речи могут существенно затруднять развитие личности, снижать успешность в обучении и негативно отражаться на эмоциональном состоянии ребёнка и всей семьи. Проблема и воспитания детей дошкольного и школьного возрастов нарушениями речи разрабатывается в частном разделе специальной педагогики, представляющим собой научно-методическую дисциплину интегративного типа – логопедагогику.

На современном этапе развития специальной педагогики, - логопедии, которая является междисциплинарной областью, включает медицинские знания, диагностику , логопсихологию, педагогические, реабилитационные аспекты. Она ориентированна на определенный контингент детей, имеющих нарушение речи, обусловленные несформированностью, недоразвитием или повреждением на ранних этапах онтогенеза речевых, психологических

или физиологических ее механизмов, при наличии нормальных слуха и зрения и сохраненных предпосылках интеллектуального развития.

В последние десятилетия в зарубежной логопедии интенсивно развивается, появляются инновационные направления коррекционно-педагогической работы, разрабатываются и внедряются новые способы коррекции речевых нарушений, специалистами обсуждаются новые факторы, влияющие на успех логопедической коррекции. Исследователями выделяются различные пути оптимизации коррекционно-педагогического процесса, направленного на преодоление речевых нарушений, в том числе улучшение качества логопедической работы с детьми, имеющими нарушения речи (Г.В. Чиркина, Т.Б. Филичева, О.М. Вершинина, Г.В Баринова, Гаранина Л.А., Карелина И.Б., Мальцева Е.В Туманова, Н.А.Чевелева, В.И. Селиверстов, С.Н. Шаховская и др.), совершенствование профессионального мастерства учителей-логопедов (Л.А. Лопатина, О.С. Орлова, М.Н. Поваляева, С.Н. Сазонова, Н.А. Оскольская, Винарская Е. Н., Е. В. Павлова Е.В Туманова и др.).

Известно, что 40% учащихся начальной школы испытывают стойкие трудности в овладении знаниями, умениями и навыками по основным предметам, что приводит к утрате ими учебной мотивации, педагогической запущенности, ухудшению состояния здоровья. В республике за последние годы предприняты конструктивные шаги по решению проблемы качественного образования детей как школьного так и дошкольного возраста. Важность речевого общения, особая социальная значимость развития речи, необходимость ее формирования у детей, как в норме, так и в патологии, недостаточная разработанность проблемы в теоретико-методическом плане в республике определяет значимость и актуальность данной темы. В Узбекистане системы образования и здравоохранения, в частном центре уделяют внимание логопедической помощи,

В Ташкенте и регионах действуют частные и государственные центры , где детям оказывают логопедическую помощь квалифицированные логопеды, дефектологи. Однако перед специалистами стоят важные вызовы, требующие комплексных решений.

Несмотря на положительные шаги, существуют значимые проблемы,

обусловленные рядом факторов:

распространённостью речевых нарушений у детей;

отсутствием банка данных о распространенности речевых нарушений у разной категории детей дошкольного возраста;

недостаточностью методической документации по коррекционно-логопедической работе по преодоления речевых нарушений,

изучение речевых нарушений на родном языке у разной категории детей с нарушениями речи;

необходимость речевой и общей подготовкой детей к обучению в школе.

дифференцированные программы для каждого речевого нарушения

На наш взгляд наиболее актуальными проблемами современной логопедии являются следующие :

унификация категориального аппарата т.е. речевых нарушений.

углубленное изучение механизмов (в том числе и психолингвистических) и методов коррекции нарушений речевой деятельности.

Научно обоснованное соотношение нозологического (клинико-педагогического) и симптомологического (психолого-педагогического) подхода в логопедической теории и практике и в разработке номенклатурных документов.

Изучение онтогенеза речи при различных формах речевых расстройств.

Изучение особенностей речевых нарушений и их устранения при осложненных дефектах развития.

Ранняя профилактика, выявление и устранение речевых нарушений.

Творческая и научно-обоснованная разработка содержания, методов обучения и воспитания детей с нарушениями речи.

Последовательная реализация комплексного подхода при выявлении и коррекции речевых нарушений.

Обеспечение преемственности в логопедической работе дошкольных, школьных и медицинских учреждений.

Совершенствование теории и практики дифференциальной диагностики различных форм нарушений речи.

Разработка лабораторно-экспериментального оборудования, внедрение в учебный процесс компьютерной технологии.

В практику часто вовлечён частный сектор, а государственная система ещё не полностью покрывает потребности всех семей.

Анализ достижений в теории и практике отечественной и зарубежной логопедии.

Для улучшения качества и доступности логопедической поддержки детям с нарушениями речи можно предложить следующие меры путей повышения эффективности логопедической помощи в республике:

проведение информационных семинаров о ранних признаках речевых нарушений для специалистов и обучение родителей методам поддержки речи дома; поддержка повышения квалификации действующих логопедов для эффективности логопедической работы. А также мы планируем в рамках нашего исследования, на основе программы “Илк қадам” (Первые шаги) будет разработаны для детей дошкольного возраста с речевыми нарушениями конспекты занятий и компьютерные программы с записью на дисках и будут розданы специалистам. Будут усовершенствованы дидактические аспекты, методические пособия для специалистов и для родителей. Исследование позволит совершенствовать и оптимизировать технологию обучения и воспитания детей с нарушениями речи (заикание, алалия, заикание и др.) в условиях инклюзивной среды.. Это в свою очередь приведет их к нормальной речевой подготовке и хорошей усвоению письму и чтению в школе, социальной адаптации в социуме. Разработка методических основ целостной коррекционно-педагогической, коррекционно-развивающей работе, определению форм и методов логопедической работе на родном языке будет способствовать преодолению речевых расстройств у разной категории детей с нарушениями речи, эффективной речевой подготовке к школьному обучению повышению положительной мотивации, становлению личности в целом.

Результаты: С 2009 года в ООО «LOGOS» учебным центром осуществляется целенаправленная и активная методическая работа по повышению профессионального мастерства учителей-логопедов. Была разработана и реализовывается организационно-методические программы. Знание индивидуальных затруднений учителя-логопеда, учет профессиональной компетентности и мобильности, а также готовность к рефлексии позволили определить пути и средства оказания необходимой методической помощи и поддержки в совершенствовании профессиональной деятельности.

Положительные результаты проведенной методической работы с учителями-логопедами проявились в трех аспектах: эмоциональном, когнитивном и поведенческом. Развитие рефлексии способствовало осознанию связи между полученными результатами логопедической работы и собственным уровнем профессиональной квалификации. Таким образом, полученные результаты дают основание сделать вывод о том, что реализованная организационно-методическая работа привела к повышению профессионального мастерства за эти годы свыше 500 учителей-логопедов, и дефектологов.

Заключение. Логопедическая помощь детям с нарушениями речи - это важнейшее направление в развитии образования и здравоохранения Узбекистана. Своевременное выявление и коррекция речевых трудностей позволяют детям успешно адаптироваться в обществе, улучшить учебные результаты и развить уверенность в себе.

Для повышение эффективности логопедической работы, которая связано в первую очередь с профессионализмом специалистов – логопедов необходима комплексная работа государства, специалистов, семей и общества в целом. Только в тесном сотрудничестве

можно создать условия, при которых каждый ребёнок с речевыми потребностями получит доступ к качественной, эффективной и своевременной логопедической помощи.

Нами разработаны программы по повышению квалификации логопедов по разным речевым нарушениям (алалия, дизартрия, ринолалия, заикание, аутизм, логопедический массаж, нетрадиционные технологии в логопедической практике) по внедрению личностно-ориентированного подхода в практику работы учителей-логопедов.

Проблема повышения эффективности логопедической работы требует комплексного решения, следовательно, необходимо актуализация механизмов саморазвития профессионально-личностных качеств учителя-логопеда и развитие профессиональных знаний и умений.

Список литературы.

1. Баринова Г.В. Пути совершенствования логопедической помощи детям дошкольного и младшего школьного возраста в условиях психолого-медико- педагогического центра.: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. М., 2000 - 16 е..
2. Винарская Е. Н., Пулатов А. М. Дизартрия и ее топико-диагностическое значение в клинике очаговых поражений мозга - Ташкент: Медицина, 1973. - С. 9-130.
3. Выготский Л. С. Вопросы детской психологии М.,Просвещение, 1983. Т. 4.
4. Гаранина Л.А. Состояние и перспективы развития региональной логопедической службы для детей дошкольного возраста (на примере Курской области): Дис. ... канд. пед. наук,- М., 2000
5. Карелина И.Б. Логопедическая работа с детьми с минимальными дизартрическими расстройствами: Дис. ... канд. пед. наук. - М., 2000.
6. Кобзарева Л.Г., Кузьмина Т.И. Ранняя диагностика нарушения чтения и его коррекция. - Воронеж. ТЦ «Учитель», 2000. - 64 с.
7. Малофеев Н.Н. Перспективы развития в России учебных заведений для детей с особыми образовательными потребностями//Дефектология.-2001, №5.
8. Мальцева Е. В. Недостатки речи у детей с задержкой психического развития младшего и школьного возраста: Дис. ... канд. пед. наук. - М , 1991-С. 64.
9. Мир специальной педагогики и психологии \ М.,2023
10. МуминоваЛ. Логопедия. Тошкент 2024
11. Павлова А.А. Диагностика и коррекция речевого развития де- гей//Современные модели психологии речи и психолингвистика.-М.: 1990 - С. 153-164.
12. Практическая нейропсихология / под общей редакцией Ж.М. Глозман М.- 2022
13. Ромусик М.И. Технологии коммуникативного и личностного развития детей младшего дошкольного возраста Москва . изд-во «ФЛИНТА» 2023
14. Муминова Л.Р. ва бошқалар Ривожланишида камчилиги бўлган болалар диагностикаси. -маъсул мухаррир Л.Р. Муминова, Ташкент 2019
15. Муминова Л.Р ва бошқ. Ривожланишида камчилиги бўлган болалар билан олиб бориладиган коррекцион-ривожлантирувчи технологиялар . маъсул мухаррир Л.Р. Муминова., Ташкент 2020
16. Филичева Т.Б., Туманова Т.В. Дети с фонетико-фонематическим недоразвитием. - М.: Изд-во ГНОМ и Д», 2000. - 80 с.
17. Филичева Т.Б., Туманова ТВ. Формирование звукопроизношения у дошкольников. М., 1993.
18. Филичева Т.Б., Чевелева Н.А. Логопедическая работа в специальном детском саду. - М., Просвещение, 1987.

Rasulova Feruza Fayzullayevna
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
“Din psixologiyasi va pedagogika” kafedrasi dotsenti (PhD)
E-mail: f.rasulova@iiau.uz

OILADAGI NOSOG‘LOM PSIXOLOGIK MUHITNING ShAXS RIVOJLANIShIGA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK TAЪSIRI

Annotatsiya. *Ma’lumki, shaxsning shakllanishi dinamik xususiyatga ega. Shuning uchun uning rivojlanishida goho ilgarilab ketish, goho taraqqiyotdan orqada qolib ketish holatlari kuzatiladi. Oqibatda, ba’zan o‘smirlarning hatti-harakatlarida o‘zini o‘zi mahkum qiluvchanlik belgilari namoyon bo‘lishi kuzatiladi. Ushbu maqolada uning vujudga kelish sabablari, oqibatlari va oldini olish choralari yoritiladi.*

Kalit so‘zlar. *suitsidal holat, disfunktsiya, patologik va nopatologik holat, adaptatsiya, dissotsial, psixokorreksion, genezisi, affektiv reaktsiya, deformatsiya.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ НЕЗДОРОВОЙ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ СРЕДЫ В СЕМЬЕ НА РАЗВИТИЕ ЛИЧНОСТИ

Аннотация. *Известно, что формирование личности обладает свойством к динамичному росту. Поэтому в развитии личности бывают случаи прогресса, иногда отставания. В результате иногда наблюдается, что подростки проявляют признаки самоосуждения в своем поведении. В данной статье описаны причины, последствия и меры профилактики возникновения таких признаков.*

Ключевые слова. *суицидное состояние, дисфункция, патологическое и непатологическое состояние, адаптация, диссоциация, психокоррекция, генезис, аффективная реакция, деформация.*

THE SOCIO PSYCHOLOGICAL IMPACT OF AN UNHEALTHY PSYCHOLOGICAL ENVIRONMENT IN THE FAMILIY ON THE DEVOLEPMENT OF THE PERSON

Absract. *It is known that the formation of personality is dynamic. This is why in the development of personality both progressing and lagging behind cases happen. As a result, it is observed that sometimes teenagers demonstrate signs of self-condemnation in their behaviour. This article describes reasons, consequences and prevention measures for the emergence of such signs.*

Key words: *suicidal state, dysfunction, pathological and non-pathological condition, adaptation, dissociation, psychocorrection, genesis, affective reaction, deformity.*

Kirish. O‘smir yoshdagi shaxslar o‘zlarining jismoniy va ruhiy salomatliklari bilan bog‘lik, xotirjamlikning qadriga yetmaydilar, turli jismoniy shikastlanishlar, ruhiy tushkunliklar natijasi o‘larok, o‘z istiqbol rejalarini tuza olmaydilar, huddi shu bois, o‘zlarining ijtimoiy mavqelariga putur yetkazadilar. Xulq-atvordagi og‘ishlarning ham ma’nan, ham jismonan tanazzuli ular turmush tarzining nosog‘lom kechishiga, ularni alkogolizm va narkomaniya illatlari sari yetaklaydi, ba'zan suitsidal (o‘zini o‘zi o‘ldirish) holatiga olib keladi.

Biz o‘zini o‘zi mahkum qiluvchi xulq-atvor deganda, nafaqat organizmning jismonan nosog‘lomligi, balki o‘smir shaxsi rivojidagi axloqsizlik, ma'naviy qashshoqlik, turli darajadagi dezadaptatsiyaga olib keluvchi shaxs disfunktsiyalarini tushunamiz. O‘smir shaxsida disfunktsiyalar kechishi patologik va nopatologik ko‘rinishga ega.

Asosiy qism. O‘smirlarda o‘zini o‘zi mahkum qiluvchi xulq-atvor va uning tasniflari quyidagicha ifodalanishi mumkin.

I. O‘smir shaxsi buzilish darajasi: a) old patologik; b) nopsixotik; v) psixotik.

II. Mahkum qiluvchi xulq-atvor tiplar: a) hayotiy talofat; b) jis-moniy ziyon-zahmat; v) ma'naviy-axloqiy kamolotga ziyon-zahmat; g) ijtimoiy mavqega ziyon-zahmat.

III. Ijtimoiylashuv adaptatsiya bosqichlari: a) barqaror adaptatsiya; b) parqial adaptatsiya; v) beqaror adaptatsiya; g) dezadaptatsiya.

O‘smir shaxsidagi buzilish darajalarini quyidagi misol orqali yaqqol ifodalash mumkin. Masalan, alkogolga nisbatan moyillikni olaylik. Har zamonda ichib turish, ya’ni alkogolga epizodik xususiyatli moyillik, bayramlarda, do‘stlar davrasida, vaqtni qiziqarli, maroqli o‘tkazish bilan bog‘liq holatlar garchi ushbu holat ham o‘smir shaxsi shakllanishiga ma'lum darajada ta'sir qilsada, albatta patologiya emas. Alkogolni tez-tez qabul qilish oqibatida unga bog‘lanib qolish esa patologiya, lekin psixotik daraja emas.

Agar alkogolga yoki narkotik moddalarga ruju qo‘yish xaqiqiy kasallik simptomi darajasiga yetganda, ular bilan bog‘liq chuqur o‘zgarishlar («lomka») ro‘y bersa, bu psixotik daraja xisoblanadi.

Mahkum qiluvchi xulq-atvor tiplari psixologiyada quyidagilarga ajratiladi: a) shunday hatti-harakat va xulq-atvor mavjudki, bu individium uchun zararli xisoblanib, u o‘zini o‘zi o‘ldirish (suitsidal holat) bilan tugashi mumkin. Lekin tavakkalchilik bilan bog‘liq sport turlari, jumladan, avto va moto poygalar, alьpinizm, boks yoinki, xayot uchun xavfli kasbkor; o‘t o‘chiruvchi, kaskadior, jamoat tartibi va milliy xavfsizlikni saqlash bo‘linmalari ba'zi vakillarining faoliyati (garchi ular nimaga ketayotganlarini chuqur anglagan taqdirda ham, ba'zan o‘z hatti-harakatlarining oxiri o‘lim bilan tugasada), albatta bundan mustasno. Chunki bunday mas'uliyatli kasb egalarida o‘ziga ishonch, har qanday vaziyatda o‘zini sinab ko‘rash va g‘alaba nashidasi ustivorlik qiladi; b) o‘z organizmiga jismonan zarar yetkazish bilan bog‘liq bo‘lgan, depressiv holat (ruxiy azoblanish) natijasida o‘ziga o‘zi tajovuz qilishi bilan kechadi; v) mahkum qiluvchi xulq-atvorning tipi jamiyat tomonidan qabul qilingan umuminsoniy me'yorlarga zid bo‘lgan delikvent xulq-atvor xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtiradi. Bunda nafaqat umumbashariy me'yorlar, balki umuminsoniy qadriyatlar, diniy me’yorlarni saqlash nazarda tutiladi. Aks holda insoniyat o‘zining ibtidoiy ajdodlaridan fark, qilmay qolar edi. Garchi inson davr o‘tishi bilan biologik tuzilishi nuqtai nazaridan chuqur o‘zgarishlarga uchramagan bo‘lsada, lekin o‘zining milliy an’analariga, milliy madaniyatiga, milliy ahloq me'yorlariga qarshi tutar ekan, u ma’naviy qashshoqdir. Zero, to‘rt muchchasi sog‘lom o‘smirning assotsial (aksijtimoiy) guruxlardagi ishtirokini, axloq tuzatish muassasalariga tushib qolishini, turli ekstremistik guruxlardagi faoliyatini, o‘zining hayotini barbod qilishini faqat uning o‘zini o‘zi mahkum qiluvchi xulq-atvoridangina izlash mumkin; g) mahkum qiluvchi xulq-atvorning keyingi tipini ijtimoiy mavqega ziyon-zahmat yetkazish, deb atash mumkin. Oddiy bir misol, o‘smir o‘z ota-onasiga ko‘ngilsiz tashvish keltirish maqsadida o‘qishni tashlaydi. Bu bilan u o‘zini o‘zi tasdiqlashga urinida va hokazo. Qayd etilgan holatlarning barchasida ijtimoiy dezadaptatsiyaning u yoki bu darajalari izohlanadi.

Shunday qilib, o‘smir hayotining kechishida ba’zan «ko‘z ilg‘amas o‘zgarishlar», ba’zan esa favquloddagi «yangiliklar», «yorqinliklar» umumiy ta'sirida uning taqdirini o‘zgartiruvchi ma’naviy tushkunliklar ham ro‘y beradi. Shulardan biri - o‘smirning o‘z joniga qasd qilishi bilan bog‘liq hatti-harakatidir.

Sir emaski, o‘z joniga suiqasd qilish jamiyatga hamda oilaga ma’naviy va moddiy jixatdan juda katta zarar keltiradi. Chunki o‘z joniga qasd qilgan o‘smir: a) ma’lum muddat o‘qishga (ishga) yaroqsiz bo‘lib qolishlari; b) surunkali davom etuvchi og‘riqdar sabab turli asabiy zo‘riqishlarning ortishi; v) ham jismoniy, ham ruhiy majruhlik, nogironlik; g) o‘z joniga qasd qilishga urinishning yanada kuchayishi holatlarini boshidan kechiradilar.

O‘z joniga qasd qilish genezisida oilaning, oila a’zolari, ular orasidagi shaxslararo munosabatning o‘rni beqiyos. Oiladagi nosog‘lom psixologik muxit shaxs rivojlanishida ijtimoiy-psixologik deformatsiya omili sifatida yuzaga chiqadi va uni o‘z joniga qasd qilishga «undaydi».

O‘z joniga qasd qilish va o‘z joniga qasd qilishga urinish muammolari bilan shug‘ullangan bir qator olimlar M.G. Davletshin, R.B. Shoumarov, S.A. Oxunjonova, A.G. Ambrumova, L.I.

Pustavalovalarning fikricha, ushbu holat sodir etilishidagi oilaviy omillar o‘rnini quyidagilar bilan izohlash mumkin:

- ilk bolalik davrida oilada otaning yukligi;
- oilada farzandga ona mexrining etishmasligi;
- oilada ota-onalik nufuzining yetarli darajada emasligi;
- oilada matriarxal uslub munosabatlarning yetakchiligi;
-oilaviy munosabatlarda o‘z o‘rnini topa bilmagan katta yoshli oila a'zolarining «o‘zligini» tasdiqlash maqsadidagi turli xil urinishlari: a) emotsional «portlash», b) bolaga jazo usullarini qo‘llash, v) hatto, bolaga tan jarohat yetkazish;
- ajrashgan oilalar;
- oilada yoki oila shajarasida o‘z joniga qasd qilgan yoinki qasd qilishga uringan kimsaning mavjudligi va xokazolar.

Shu bilan bir qatorda o‘z joniga qasd qilish uchun katta imkoniyat yaratuvchi ijtimoiy-psixologik oila tiplari kuyidagilarga ajratiladi:

1. O‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lmagan oila tipi - oila a’zolarining o‘zaro munosabatlari faqat-gina rasmiy xususiyatga ega, ular biror-bir oilaviy muammolarni o‘zaro maslahatlashib, o‘zaro kelishuv asosida amalga oshirmaydi. Ularning munosabatlarida hissiyot etishmaydi. Oqibatda oila a’zolaridan biri doimo o‘zini yolg‘iz his etadi, unda oila a'zolarining barchasi menga qarshi degan fikrning ustunligi bilan tavsiflanadi.

2. O‘zaro munosabatlari o‘ta jipslashgan oila. Bu oila tipi yuqorida qayd etilgan tipning bu-tunlay aksi. Oila a'zolari bir-birlariga ham qalban, ham jismonan juda bog‘liq bo‘ladilar. Oila a'zo-laridan birining muammosi, uning shaxsiy muammosi emas, bu umum oilaviy muammo tarzida qabul qilinadi. Uning yechimida barcha oila a'zolari barobar ishtirok etadilar. Ular bir-birilarisiz «xech kim» va «xech narsaga qodir emasdek». Shunday oila a’zolaridan birining «yuqotilishi» boshqalar uchun talofat hisoblanadi.

3. O‘zaro qovushmagan oila tipi. Oila a’zolarning qiziqishlari, ehtiyojlari maqsadlarining o‘zaro mos kelmasligi, umumiy hohish-istaklarning etishmasligi, oilada umum qabul qilingan me'yorlarning faqat majburiyat yuzasidangina bajarilishi, ushbu me’yorlarga bo‘ysunmagan a’zoning doimiy tarzda tayziq ostida ushlanishga, o‘zi hohlamagan xulq.-atvor, odatlarini bajarish-iga zo‘rlik bilan undash oqibatida hatarli vaziyatni yuzaga keltirishi bilan izohlanadi.

4. O‘ziga yetarli yopiq oila tipi. Ushbu oila a’zolarining asosiy maqsadi oila bekami kus-tligiga erishishga qaratiladi. Hayot uchun zaruriy boshqa ishlar ikkinchi darajali bo‘lib, ular faqat yordamchi vositalar sifatida tan olinadi. Aks xolda oilada tanglik holati vujudga keladi. Bu ularda: jadal salbiy xislar, noaniq tuyg‘ular, notinchlik, kishini «iz»dan chiqishiga olib keladigan kuchli vahima, yolg‘izlik tashvishi, ishonchsizlik, o‘z shaxsiga, o‘zining kelajagiga umidsizlik ruhidagi qarashlar shakllanishiga sabab bo‘ladi.

Ma’lumki, tanglik holatida o‘smirning bilish jarayoni va xulq-atvorda turli «og‘ish»lar uchraydi:

a) diqqat hajmining torayishi;
b) axborotlar qabul qilinishining izdan chiqishi;
v) xotira bilan bog‘liq funktsiyalar qiyinlashuvi;
g) fikrlarini bayon etishdagi noaniqlik;
d) tafakkur faoliyatining susayishi;
ye) o‘smir shaxsida o‘zining «Men»iga nisbatan munosabatning o‘zgarishi;
yo) o‘z hatti-harakatiga atroflicha tanqidiy qaray bilmaslik;
j) o‘z hissiyotini aql, ong boshqaruvida ushlay bilmaslik, o‘z joniga qasd qilish uchun qulay fursat hozirlaydi.

5. Mutanosib oila tipi. Tashqi muhit o‘zgarishiga moslasha olmaslik bunday oilaning asosiy xususiyati hisoblanadi. Mabodo oila a'zolaridan biri oiladan tashqaridagi qandaydir nizoli vaziyat-ning ishtirokchisi sifatida muammoga duch kelsa, oilaning qolgan a'zolari unga yordam qo‘lini cho‘zish o‘rniga uni jazolaydilar, ya'ni undan uzoqlashadilar, goxo «dushman» tomon fikrlarini o‘rinli ekanligini ta’kidlab, uni «mahkum» etadilar. Bu holatni qabul qila olmagan jabrlanuvchin-

ing esa guyo o‘z joniga qasd qilishdan boshqa ishi qolmaydi. Ta’kidlash joizki, hozir ham o‘z joniga qasd qilish xavfi saqlanib qolgan. Bunday insonlar psixologlar, yuristlar, pedagoglar, tibbiyot xodimlari yordamiga muhtojdirlar.

Misol qilib aytsak, I. ismli mijoz - qiz bola 13 yoshda. O‘z joniga qasd qilish maqsadida, o‘zi yashaydigan ko‘p qavatli uyining 3 qavatidagi xonasi derazasidan o‘zini tashlagan. U bo‘limda o‘zining intizomsizligi, kayfiyatining tez-tez o‘zgarib turishi, kattalar bilan munosabatda keskinlik, kichiklarni mensimay, «qaqshatish» kabi hatti-harakatlari bilan ajralib turadi. Psixologik tadqiqotlar natijasiga ko‘ra: o‘zaro munosabatlar doirasidagi nomutanosiblik, affektiv reaktsiyaning o‘zgaruvchanligi unda achchiklanishning ustunligi, kayfiyatining qayg‘uli g‘amginligi kuzatildi. U oilaviy ahvolining og‘irligi, yomonligidan, hissiy kechinmalarini hech kim bilan o‘rtoqlasha olmasligidan shikoyat qildi. Uning fikricha: «onasining tili zahar, uni besabab jazolaydi», «ugay otasidan juda qo‘rqadi, chunki u shafqatsiz»,... «urish janjal vaqtida o‘z onamni urib yuborgim keladi, ba'zan u mening onamligini ham unitib qo‘yaman», «o‘zimni yo‘qotib qo‘yaman, menga tazyiq o‘tkazishlarini yoktirmayman», «men ko‘proq karate, samboga qiziqaman, umuman «ur-sur»larga tula fil’mlarni ko‘raman» PDS (patoxarakterologik so‘rovnoma) natijalariga ko‘ra, sust murosasizlik (turmushdagi xodisalarga moslashishni hohlamaslik), emansipatsiya reaktsiyasining, ya'ni har qanday o‘gitlardan, homiyliklardan, nazoratlardan holi bo‘lishga intilishining yorqin ifodalanishi, doimiy nizoli vaziyatlarda ustunlikka erishish uru-nishi mavjudligi aniqlandi. Individual xususiyatlarida: g‘azabkorlik, o‘zining muvaffakiyatsizliklarida kimnidir aybdor deb bilsa, albatta undan o‘ch olish hissining yuqoriligini tan olib, «meni hattoki mayda-chuyda tanbeh va inkorlar ham ranjitadi, ko‘tara olmayman» deya javob qaytardi. Tadqiqotlardagi shaxsiy havotirlanish va reaktsiya ko‘rsatish shkalasi bo‘yicha reaktiv havotirlik va yuqori shaxsiy havotir, ya’ni doimiy va barqarorligi bilan ajralib turuvchi shaxsiy havotirga asoslangan vaziyatni «tahdid», deb idrok qilish holati aniqlandi.

Psixolog xulosasi. Kasalning turmush tarzi agressiv himoya xulqi shakllanishiga olib kelgan. Unda qat’iy e’tiroz reaktsiyasining ustunlik qilishiga ko‘ra, epileptik va isterik harakter hislatlari bor deb xulosa chiqarishga imkon beradi. Unda intellekt saqlangan. Oila va maktabdagi vaziyatlarning tahliliga ko‘ra, bir-birini xaqoratlashgacha yetib boruvchi nizoli munosabatlar, o‘qishga layoqatlilik mavjud bo‘lsada, lekin unga nisbatan qiziqishning yuqligi, jamoat ishlaridagi faolsizlik, qo‘pollik, do‘st orttirishga intilish o‘rniga yolgizlikni xush ko‘rishlik aniqlandi. Shu ma’lumotlarga asoslanib, unga epileptik psixopatiya diagnozini qo‘yish mumkin. Shunday qilib, yuqorida ta'kidlab o‘tilgan o‘smir reakqiyalari muayyan sharoitlarda vujudga kelib, ular o‘smirlik davrining kechishida o‘zining ma’lum bir «hissasi»ni qo‘shadi.

Xulosa qilib aytganda, o‘smir shaxsini o‘rganishga qaratilgan barcha yondashuvlarga, tamoyillarga, yul-yuriqlarga zamon ruhi orqali nazar tashlash talab etiladi. Bizni qiziqtirayotgan psixik buzilishning boshlanishi va namoyon bo‘lish jarayoni, uni tashkil qiluvchi xususiyatlari hamda kechishining asosiy variatsiyalarini chuqur tahlil qilish mahkum qiluvchi xulq-atvor rivojlanishining nazariy "namunasi"ni tuzish, so‘ngra shakllantiruvchi tajriba majmuasini yaratish, psixokorrektsion ruxiy tuzatish va tarbiyaviy ta'sirlar tizimining asosi bo‘lib hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Бандура А, Уолтерс Р. (2000). Подростковая агрессия: изучение влияния воспитания и семейных отношений. – М.: Эксмо пресс. 2000. -15 с.
2. Davletshin M.G. (1974) Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya. Toshkent. - 88 b.
3. Karimova V. (2007) Oila psixologiyasi. Toshkent. -138 b.
4. Michael P. Nichols, PH.D. Richard S Schwartz, PH.D. (2001) Family therapy. Concepts and methods. Fifth Edition. Allyn & Bacon Pearson Education, Inc.
5. Rasulova, F. F. (2016). Characteristics of principal ways and metods of correction of aggressive behavior among teenagers. Theoretical & Applied Science, (9), 173-176.

Aytmuratov Baxtiyar Turganbaevich
Innovatsion texnologiyalar universiteti
Pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti

TALABALARDA METAREFLEKSIV SALOHIYATNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK OMILLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada talabalarda metarefleksiv salohiyatni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik va pedagogik omillari ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Metarefleksiya shaxsning o‘z fikrlash jarayonlari, hissiy holatlari va faoliyat strategiyalarini anglash, baholash hamda ongli ravishda boshqarish qobiliyati sifatida talqin etiladi. Tadqiqotda oliy ta’lim muassasasi sharoitida metarefleksiv salohiyatni shakllantirishga ta’sir etuvchi asosiy omillar – ijtimoiy muhit, akademik kommunikatsiya, refleksiv ta’lim metodlari, motivatsiya, o‘z-o‘zini baholash mexanizmlari va pedagogik qo‘llab-quvvatlash tizimi kompleks yondashuv asosida yoritiladi. Shuningdek, talabalarning mustaqil fikrlashi, tanqidiy tafakkuri va kasbiy o‘zini anglash jarayonida metarefleksiyaning o‘rni asoslab beriladi. Maqolada refleksiv kundaliklar, muammoli ta’lim, guruhiy muhokamalar hamda psixologik treninglar kabi metodlarning samaradorligi tahlil qilinadi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, metarefleksiv salohiyatni rivojlantirish talabalarning shaxsiy va kasbiy kompetentligini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar*: metarefleksiya, metarefleksiv salohiyat, ijtimoiy-psixologik omillar, pedagogik shart-sharoitlar, refleksiv tafakkur, talaba shaxsi, kasbiy kompetensiya, o‘zini anglash.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ И ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ МЕТАРЕФЛЕКСИВНОГО ПОТЕНЦИАЛА У СТУДЕНТОВ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются социально-психологические и педагогические факторы развития метарефлексивного потенциала у студентов высших учебных заведений. Метарефлексия интерпретируется как способность личности осознавать, анализировать и сознательно регулировать собственные мыслительные процессы, эмоциональные состояния и стратегии деятельности. В исследовании обосновывается значимость образовательной среды, академической коммуникации, рефлексивных методов обучения, мотивационных механизмов, самооценки и педагогической поддержки в формировании метарефлексивного потенциала. Особое внимание уделяется роли метарефлексии в развитии критического мышления, самостоятельности и профессионального самосознания студентов. Анализируются такие методы, как ведение рефлексивных дневников, проблемное обучение, групповые дискуссии и психологические тренинги. Подчеркивается, что системный подход к формированию метарефлексивных навыков способствует повышению личностной зрелости и профессиональной компетентности будущих специалистов. Полученные выводы подтверждают необходимость интеграции рефлексивных технологий в образовательный процесс вуза.*

Ключевые слова: *метарефлексия, метарефлексивный потенциал, социально-психологические факторы, педагогические условия, рефлексивное мышление, личность студента, профессиональная компетентность, самосознание.*

SOCIO-PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL FACTORS IN THE DEVELOPMENT OF METAREFLEXIVE POTENTIAL IN STUDENTS

Abstract*. This article examines the socio-psychological and pedagogical factors influencing the development of metareflexive potential among university students. Metareflection is defined as an individual’s ability to consciously understand, analyze, and regulate their own cognitive processes, emotional states, and activity strategies. The study highlights the significance of the educa-*

tional environment, academic communication, reflective teaching methods, motivational mechanisms, self-assessment practices, and pedagogical support in fostering metareflexive potential. Particular attention is paid to the role of metareflection in the development of critical thinking, independent learning skills, and professional self-awareness. The effectiveness of such methods as reflective journals, problem-based learning, group discussions, and psychological training sessions is analyzed. The findings suggest that a systematic and integrative approach to cultivating metareflexive skills enhances students' personal maturity and professional competence. The article substantiates the importance of incorporating reflective technologies into higher education practices to ensure sustainable personal and professional growth.

***Key words**: metareflection, metareflexive potential, socio-psychological factors, pedagogical conditions, reflective thinking, student personality, professional competence, self-awareness.*

Kirish. Zamonaviy oliy ta'lim tizimi globallashuv, raqamlashtirish va axborot oqimining keskin ortishi sharoitida talaba shaxsidan nafaqat chuqur bilim, balki mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil qilish va o‘z faoliyatini ongli boshqarish ko‘nikmalarini ham talab etmoqda. Bugungi kunda bilimning tez yangilanib borishi, kasbiy faoliyatning murakkablashuvi hamda ijtimoiy munosabatlarning dinamik tus olishi talabalarda yuqori darajadagi refleksiv tafakkur va metakognitiv qobiliyatlarni shakllantirishni dolzarb vazifaga aylantirdi. Shu nuqtai nazardan, metarefleksiv salohiyatni rivojlantirish masalasi pedagogika va psixologiya fanlarining kesishgan nuqtasida muhim ilmiy-amaliy muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Metarefleksiv salohiyat shaxsning o‘z fikrlash jarayonlarini, hissiy holatini, motivlarini va faoliyat strategiyalarini anglash, tahlil qilish hamda ularni maqsadga muvofiq ravishda boshqarish qobiliyatini ifodalaydi. U nafaqat o‘zini anglashning yuqori darajasi, balki o‘z-o‘zini rivojlantirish va kasbiy o‘sishga yo‘naltirilgan ichki mexanizm sifatida ham qaraladi. Talabalik davri esa shaxsning identifikatsiyasi, qadriyatlar tizimi va kasbiy yo‘nalishi shakllanadigan muhim bosqich bo‘lib, aynan shu davrda metarefleksiv ko‘nikmalarni rivojlantirish kelajakdagi muvaffaqiyatli faoliyatning poydevorini yaratadi.

Ijtimoiy-psixologik omillar, xususan, ta'lim muhitining iqlimi, akademik guruhdagi o‘zaro munosabatlar, pedagog va talaba o‘rtasidagi hamkorlik, motivatsion jarayonlar hamda shaxslararo kommunikatsiya metarefleksiv jarayonlarning shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, pedagogik omillar – refleksiv ta'lim texnologiyalari, muammoli vaziyatlar yaratish, interfaol metodlar, baholashning konstruktiv shakllari va individual yondashuv – talabalarda o‘z-o‘zini tahlil qilish va baholash kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur omillar uyg‘unlashgan holda talabaning ichki resurslarini faollashtiradi va uning shaxsiy hamda kasbiy yetukligini ta'minlaydi.

Bugungi ta'lim jarayonida metarefleksiv salohiyatni rivojlantirish tizimli, maqsadga yo‘naltirilgan va ilmiy asoslangan yondashuvni talab qiladi. Chunki metarefleksiya nafaqat bilimlarni o‘zlashtirish samaradorligini oshiradi, balki talabaning ijtimoiy moslashuvchanligini, mas'uliyat hissini va professional o‘zini anglash darajasini ham mustahkamlaydi. Shu bois mazkur tadqiqot talabalarda metarefleksiv salohiyatni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik va pedagogik omillarini kompleks tahlil qilishga, ularning o‘zaro bog‘liqligini aniqlashga hamda samarali rivojlantirish mexanizmlarini asoslashga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili. Talabalarda metarefleksiv salohiyatni rivojlantirish masalasi rus psixologiya va pedagogika maktabida refleksiya, metakognitsiya, shaxsiy o‘zini anglash hamda faoliyat nazariyasi doirasida keng o‘rganilgan. Mazkur yo‘nalishning metodologik asoslari, avvalo, Lev Vygotskiyning madaniy-tarixiy nazariyasiga borib taqaladi. U psixik funksiyalarning ijtimoiy tabiatini asoslab, refleksiv jarayonlarning shakllanishi ijtimoiy muloqot va hamkorlik faoliyati orqali yuzaga kelishini ta'kidlagan. Vygotskiy fikricha, oliy psixik funksiyalar tashqi faoliyatdan ichki rejalashtirilgan faoliyatga o‘tish jarayonida shakllanadi, bu esa metarefleksiyaning ijtimoiy ildizlarga ega ekanini ko‘rsatadi.

Refleksiyaning faoliyat jarayonidagi o‘rnini Sergey Rubinshteyn o‘zining subyekt-faoliyat konsepsiyasida chuqur yoritgan. U shaxsni faoliyat subyekti sifatida talqin qilib, refleksiyani insonning o‘z xatti-harakatlari va ichki kechinmalarini ongli tahlil qilish qobiliyati sifatida baholaydi. Rubinshteyn nazariyasida refleksiya tashqi ta’sirlarning oddiy aks etishi emas, balki subyektning faol, ongli pozitsiyasi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu yondashuv metarefleksiv salohiyatni shaxsning ichki regulyativ mexanizmi sifatida tushunishga asos yaratadi.

Faoliyat nazariyasini tizimli ravishda rivojlantirgan Aleksey Leontyev refleksiyani faoliyatning tarkibiy qismi sifatida ko‘rib, motiv, maqsad va harakatlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochib bergan. Leontyev ta’lim jarayonida shaxsning ongli ishtiroki va ichki motivatsiyasi refleksiv tahlil orqali mustahkamlanishini ta’kidlaydi. Bu esa metarefleksiv salohiyatni rivojlantirishda motivatsion omillarning ahamiyatini ko‘rsatadi.

Refleksiya tushunchasining nazariy-metodologik talqini Vladimir Lefevr ishlarida yanada murakkab tizim sifatida ifodalangan. U refleksiyani subyektning o‘zini va boshqani modellashtirish qobiliyati bilan bog‘lab, “refleksiv boshqaruv” konsepsiyasini ilgari surgan. Lefevr yondashuvida metarefleksiya ijtimoiy o‘zaro ta’sir jarayonida shakllanuvchi ko‘p bosqichli ong mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi.

Pedagogik refleksiya muammosi Vasily Davydov tomonidan rivojlantiruvchi ta’lim nazariyasi doirasida asoslab berilgan. Davydov fikricha, refleksiya nazariy tafakkurning shakllanishi uchun zarur shart bo‘lib, u o‘quv faoliyatini ongli rejalashtirish va nazorat qilish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, metarefleksiv salohiyat talabaning nazariy fikrlash darajasi bilan uzviy bog‘liqdir.

Zamonaviy rus tadqiqotchilaridan Anatoliy Karpov refleksiyani ko‘p darajali psixik tizim sifatida o‘rganib, uning metakognitiv xususiyatlarini ajratib ko‘rsatadi. Karpov refleksiyani operatsional, shaxsiy va kommunikativ darajalarga bo‘ladi hamda uning o‘z-o‘zini boshqarish va kasbiy rivojlanishdagi rolini empirik tadqiqotlar asosida isbotlaydi.

Quyidagi jadvalda ayrim rus olimlarining refleksiya va metarefleksiya haqidagi ta’riflari umumlashtirilgan:

Olim	Asosiy g‘oya	Refleksiya/Metarefleksiya ta’rifi
L. S. Vygotskiy	Madaniy-tarixiy yondashuv	Refleksiya – ijtimoiy muloqot jarayonida shakllanadigan oliy psixik funksiya
S. L. Rubinshteyn	Subyekt-faoliyat nazariyasi	Refleksiya – shaxsning o‘z faoliyatini ongli tahlil qilish qobiliyati
A. N. Leontyev	Faoliyat nazariyasi	Refleksiya – faoliyatning ichki rejalashtirish va nazorat mexanizmi
V. A. Lefevr	Refleksiv boshqaruv konsepsiyasi	Refleksiya – o‘zini va boshqani modellashtirishga asoslangan ko‘p bosqichli ong jarayoni
V. V. Davydov	Rivojlantiruvchi ta’lim nazariyasi	Refleksiya – nazariy tafakkurni shakllantiruvchi o‘quv faoliyati komponenti
A. V. Karpov	Metakognitiv yondashuv	Metarefleksiya – o‘z kognitiv jarayonlarini anglash va boshqarish tizimi

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, rus psixologiya maktabida refleksiya avvalo faoliyat va ijtimoiy munosabatlar kontekstida talqin qilinadi. Metarefleksiv salohiyat esa shaxsning o‘z fikrlash jarayonlarini nazorat qilish, baholash va qayta tashkil etish qobiliyati sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu nazariy qarashlar talabalarda metarefleksiv salohiyatni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik va pedagogik omillarini kompleks o‘rganish uchun mustahkam metodologik asos yaratadi.

Muhokama. Talabalarda metarefleksiv salohiyatni rivojlantirish masalasi zamonaviy oliy ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda, chunki bugungi kunda ta'lim jarayoni shunchaki bilim berish bilan cheklanib qolmay, balki shaxsning o'z-o'zini anglash, o'z faoliyatini ongli ravishda rejalashtirish va boshqarish kompetensiyalarini shakllantirishni ham nazarda tutadi. Metarefleksiv salohiyat talabaning o'z fikrlash jarayonlarini kuzatish, ularni tahlil qilish, baholash va zarur hollarda tuzatish kiritish qobiliyatini ifodalaydi. Shu bois mazkur salohiyatni rivojlantirish ijtimoiy-psixologik va pedagogik omillarning o'zaro uyg'un ta'siri asosida amalga oshirilishi lozim.

Avvalo, ijtimoiy-psixologik omillarni tahlil qilar ekanmiz, ta'lim muhitining iqlimi, akademik guruhdagi shaxslararo munosabatlar, pedagog va talaba o'rtasidagi hamkorlik darajasi metarefleksiv jarayonlarning shakllanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etishini ko'ramiz. Ijobiy psixologik muhit talabaning o'z fikrini erkin ifoda etishiga, xatolarini tan olishga va o'z ustida ishlashga tayyor bo'lishiga sharoit yaratadi. Aksincha, avtoritar yondashuv, qat'iy nazorat va biryoqlama baholash tizimi refleksiv jarayonlarni cheklashi mumkin. Demak, metarefleksiv salohiyatni rivojlantirish uchun ochiq muloqot, ishonch va o'zaro hurmatga asoslangan ijtimoiy muhit zarur.

Shu bilan birga, pedagogik omillar ham alohida ahamiyatga ega. Refleksiv ta'lim texnologiyalarini qo'llash, muammoli vaziyatlar yaratish, keys-stadi, debat, loyiha asosida o'qitish kabi interfaol metodlar talabaning fikrlash jarayonini faollashtiradi va uni o'z bilimini mustaqil tahlil qilishga undaydi. Ayniqsa, refleksiv kundaliklar yuritish, o'z-o'zini baholash varaqalari, portfoliolar tuzish kabi metodlar talabaning ichki kuzatuv va tahlil mexanizmlarini rivojlantiradi. Bu jarayonda baholash tizimi ham rivojlantiruvchi xarakterga ega bo'lishi, ya'ni faqat natijani emas, balki jarayonni ham hisobga olishi muhimdir.

Metarefleksiv salohiyatning shakllanishi motivatsion omillar bilan ham chambarchas bog'liq. Ichki motivatsiya mavjud bo'lgan taqdirda talaba o'z faoliyatini chuqurroq tahlil qiladi, o'z xatolarini rivojlanish nuqtasi sifatida qabul qiladi va o'z ustida ishlashga intiladi. Shu jihatdan qaraganda, pedagogning vazifasi faqat bilim berish emas, balki talabaning ichki qiziqishi va o'zini rivojlantirish ehtiyojini qo'llab-quvvatlashdan iboratdir.

Muhokama jarayonida shuni ta'kidlash joizki, metarefleksiv salohiyat shaxsiy yetuklik, kasbiy o'zini anglash va ijtimoiy moslashuvchanlik bilan uzviy bog'liqdir. O'z fikrlash jarayonlarini anglay oladigan talaba murakkab vaziyatlarda samarali qaror qabul qilish, muammolarni tizimli tahlil qilish va o'z faoliyatini takomillashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa kelajakdagi professional faoliyatda yuqori darajadagi kompetentlikni ta'minlaydi.

Shunday qilib, talabalarda metarefleksiv salohiyatni rivojlantirish tizimli, kompleks va uzluksiz jarayon bo'lib, u ijtimoiy-psixologik muhit, pedagogik texnologiyalar va motivatsion mexanizmlarning o'zaro integratsiyasi asosida samarali natija beradi. Mazkur omillarning uyg'unligi ta'lim jarayonini shaxsga yo'naltirilgan model asosida tashkil etish zaruratini ko'rsatadi hamda talabaning nafaqat bilimli, balki ongli va o'zini boshqara oladigan mutaxassis sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Xulosa. Talabalarda metarefleksiv salohiyatni rivojlantirish zamonaviy oliy ta'lim tizimining muhim strategik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Metarefleksiya talabaning o'z fikrlash jarayonlarini anglash, baholash va ongli ravishda boshqarish qobiliyatini ifodalab, uning shaxsiy yetukligi hamda kasbiy shakllanishida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, metarefleksiv salohiyat ijtimoiy-psixologik va pedagogik omillarning uzviy uyg'unligi asosida samarali rivojlanadi. Ijobiy ta'lim muhiti, konstruktiv muloqot, refleksiv va interfaol ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, shuningdek, ichki motivatsiyani qo'llab-quvvatlash talabaning o'zini anglash va o'z-o'zini boshqarish kompetensiyasini mustahkamlaydi.

Shunday qilib, metarefleksiv salohiyatni tizimli ravishda shakllantirish talabalarning tanqidiy tafakkuri, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati va professional o'zini anglash darajasini oshiradi hamda ularni raqobatbardosh va mas'uliyatli mutaxassis sifatida tayyorlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Выготский Л. С. Мышление и речь. – М.: Лабиринт, 1999. – 352 с.
2. Рубинштейн С. Л. Основы общей психологии. – СПб.: Питер, 2002. – 720 с.
3. Леонтьев А. Н. Деятельность. Сознание. Личность. – М.: Смысл; Академия, 2005. – 352 с.
4. Давыдов В. В. Проблемы развивающего обучения. – М.: Педагогика, 1986. – 240 с.
5. Карпов А. В. Психология рефлексивных механизмов деятельности. – М.: Институт психологии РАН, 2004. – 424 с.
6. Карпов А. В. Рефлексивность как психическое свойство и методика ее диагностики // Психологический журнал. – 2003. – Т. 24. – № 5. – С. 45–57.
7. Лефевр В. А. Рефлексия. – М.: Когито-Центр, 2003. – 496 с.
8. Зимняя И. А. Педагогическая психология. – М.: Логос, 2004. – 384 с.
9. Маркова А. К. Психология профессионализма. – М.: Знание, 1996. – 308 с.
10. Слободчиков В. И., Исаев Е. И. Психология человека. Введение в психологию субъективности. – М.: Школа-Пресс, 1995. – 384 с.
11. Щедровицкий Г. П. Избранные труды. – М.: Школа культурной политики, 1995. – 760 с.
12. Хуторской А. В. Современная дидактика. – СПб.: Питер, 2001. – 544 с.

Eshonqulova Guljahon Abduqaxxorovna
Qo‘qon universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi
E-mail: guljahoneshonqulova@gmail.com

RUHIY SALOMATLIK MOHIYATI VA UNING IMOM G’AZZOLIY ASARLARIDA YORITILGANLIGI

Annotatsiya. *G‘azzoliy asarlarida ruhiy salomatlik masalasi o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Mutafakkir ruhiy sog‘lomlikni nafaqat diniy ibodatlar bilan, balki axloqiy, psixologik va ijtimoiy jihatlar bilan uyg‘unlashtirgan. U qalb illatlari – hasad, riyo va ujb – ruhiy kasalliklarning asosiy manbai ekanligini ta’kidlaydi va qalbni ichki kasalliklardan tozalash orqali ruhiy muvozanatga erishish yo‘llarini ko‘rsatadi. Ruhiy salomatlik G‘azzoliy nazarida axloqiy tarbiya, diniy amallar, meditatsiya, ijtimoiy aloqalar va ilmiy tafakkur orqali mustahkamlanadi. Shu bilan, uning ta’limotida ruhiy salomatlik kompleks, ko‘p qirrali va amaliy jihatdan uyg‘unlashtirilgan tushuncha sifatida talqin qilinadi.*

Kalit so’zlar: *G‘azzoliy, ruhiy salomatlik, qalb pokligi, axloqiy tarbiya, tasavvuf, diniy amallar, meditatsiya, ijtimoiy aloqalar, ilm va tafakkur, qalb illatlari.*

СУЩНОСТЬ ПСИХИЧЕСКОГО ЗДОРОВЬЯ И ЕГО ОТРАЖЕНИЕ В ТРУДАХ ИМАМА ГАЗАЛИ

Аннотация. *В трудах Газали проблема психического здоровья выделяется своей особой спецификой. Мыслитель рассматривает психическое благополучие не только через призму религиозных обрядов, но и в сочетании с этическими, психологическими и социальными аспектами. Он подчеркивает, что пороки сердца – зависть, лицемерие и тщеславие – являются основными источниками духовных заболеваний, и указывает пути достижения внутреннего равновесия через очищение сердца от этих недугов. По мнению Газали, психическое здоровье укрепляется посредством нравственного воспитания, религиозных практик, медитации, социальных взаимодействий и научного размышления. Таким образом, в его учении психическое здоровье трактуется как комплексное, многогранное и практически применимое понятие.*

Ключевые слова: *Газали, психическое здоровье, чистота сердца, нравственное воспитание, суфизм, религиозные практики, медитация, социальные взаимодействия, знание и размышление, пороки сердца.*

THE ESSENCE OF MENTAL HEALTH AND ITS REFLECTION IN THE WORKS OF IMAM GHAZALI

Abstract. *In the works of Ghazali, the issue of mental health stands out for its unique characteristics. The thinker approaches mental well-being not only through religious rituals but also by integrating ethical, psychological, and social aspects. He emphasizes that the vices of the heart-envy, hypocrisy, and pride-are the main sources of spiritual ailments and indicates ways to achieve inner balance by purifying the heart from these afflictions. According to Ghazali, mental health is reinforced through moral education, religious practices, meditation, social interactions, and intellectual reflection. Thus, in his teachings, mental health is interpreted as a complex, multifaceted, and practically applicable concept.*

Key words: *Ghazali, mental health, purity of heart, moral education, Sufism, religious practices, meditation, social interactions, knowledge and reflection, vices of the heart*

Kirish. Ruhiy salomatlik - Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ta'rifiga ko'ra, inson o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi, oddiy hayotiy stresslarni yengish, samarali va samarali mehnat qilish, shuningdek, o'z jamiyati hayotiga hissa qo'shishi mumkin bo'lgan farovonlik holatidir. Ushbu ta'rifdan bitta muhim fikr kelib chiqadi: agar sog'likning jismoniy holati moddiy narsaning sog'lig'i bo'lsa, ruhiy salomatlik - bu insondagi haqiqiy aqliy jarayonlarning normal ishlashi. Shunday qilib, ruhiy salomatlik shaxsning psixologik faoliyatining to'liqligining ajralmas xususiyatidir. Zamonaviy fanda ruhiy salomatlikning ta'rifi shaxsiyatning umumiy g'oyasi va uning rivojlanish mexanizmlari bilan chambarchas bog'liq. Psixologiya va tibbiyotda ruhiy salomatlik muammosiga turlicha yondashuvlar mavjud bo'lib, ular normal va anormal faoliyatning turli jihatlariga qaratilgan. An'anaviy tibbiyot modeli ruhiy salomatlikni kasallikning rivojlanish ehtimoli o'lchovi sifatida ko'rib chiqadi (salomatlikning "salbiy" ta'rifi kasallikning yo'qligi). Psixoanalizda salomatlik tushunchasi umuman yo'q; Har bir shaxs potentsial kasallikning tashuvchisi sifatida ishlaydi, uning haqiqiy kasallikka o'tishi individual psixodinamikada psixologik himoya va kompensatsiya mexanizmlarining muvozanatli ishlash rejimi bilan to'sqinlik qiladi. Behaviorizm moslashuv, barqarorlik, muvaffaqiyat, mahsuldorlik kabi mezonlardan foydalangan holda atrof-muhit bilan muvozanat tushunchasi orqali shaxsiyatni uning ijtimoiy faoliyatiga va norma yoki sog'lig'ini aniqlashga kamaytirish bilan tavsiflanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Shaxs psixologiyasi va psixoterapiyasida zamonaviy nazariy, eksperimental va amaliy yondashuvlar ruhiy salomatlikni shaxsiy o'zini o'zi boshqarish mexanizmlarining etukligi, saqlanishi va faolligi, insonning o'zgaruvchan dunyoda hayotining faol va avtonom sub'ekti sifatida faoliyat yuritadigan o'zining biologik, ijtimoiy va semantik determinizmidan oshib ketish ("chekka o'tish") qobiliyatining o'lchovi sifatida tavsiflaydi. Psixoanalizga qaytsak, shuni ta'kidlaymizki, psixoanaliz psixologiyaning birinchi zamonaviy tizimi bo'lib, uning predmeti shaxs muammosining qandaydir alohida jihati emas, balki butun shaxs sifatidagi shaxsdir. Ruhiy salomatlikni to'liqroq tushunish uchun psixoanaliz asoschisi Z. Freyd tomonidan psixikani o'rganishni qisqacha ko'rib chiqaylik. Shunday qilib, Freyd o'z tadqiqotlari davomida psixikaning dastlab regressiv ekanligini aniqladi. Regressiya psixoanalizda eng ko'p qo'llaniladigan tushunchalardan biri bo'lib, uning ma'nosi bir ma'noli emas. Birinchidan, bu aqliy faoliyatning "ikkilamchi", ongli shakllaridan birlamchi, ongsiz, instinktiv shakllarga o'tish. Ikkinchidan, murakkablardan soddalashtirilgan, bolalarcha fikrlash usullariga yoki eskirgan, o'tgan rivojlanish bosqichlariga qaytish. Uchinchidan, bu psixikaning yashirin, aniq ifodalanmagan mazmunini so'zlar, tasvirlar, imo-ishoralar yordamida ifodalash uchun jonli, qiziquvchan istak. To'rtinchidan, bu libidoning, jinsiy instinktning asosiy, eng dastlabki ob'ektlariga qaytishi. Xuddi shunday, Freyd psixika faoliyatining bunday xususiyatlarini ham aniqladi: qarshilik, repressiya, o'tkazish va boshqalar. Ilmiy hamjamiyatda faoliyati haqida salbiy fikrlar ham mavjud bo'lgan Freyddan tashqari, K.Yung va E.Frommlarning tadqiqotlarini ham ta'kidlash joiz. O'z o'qituvchilarining ishini davom ettiruvchi va psixoanalitik maktabning vakillari sifatida ular psixologiya sohasida norma, standart tushunchasi qabul qilinishi mumkin emasligini ham aniqladilar. Masalan, K.Yungning fikricha, ongsizlik va ayniqsa, kollektiv ongsizlik inson faoliyati jarayonida eng katta maydonni egallash bilan birga, inson zotining barcha vakillari uchun psixikaning umumiy asosi hisoblanadi.

G‘azzoliy asarlarida ruhiy salomatlik masalasi o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi, chunki u uni nafaqat diniy ibodatlar bilan, balki axloqiy, psixologik va ijtimoiy jihatlar bilan uyg‘unlashtirgan. U ruhiy salomatlikni inson qalbining pokligi bilan bog‘laydi va qalbning illatlari – hasad, riyo, ujb – ruhiy kasalliklarning asosiy manbai ekanligini ta’kidlaydi. Shu bois, ruhiy sog‘lomlik faqat tashqi odob-axloq yoki fiqhiy amallarga rioya qilish orqali emas, balki qalbni ichki kasalliklardan tozalash orqali amalga oshadi. G‘azzoliy ruhiy sog‘lomlikni axloqiy tarbiya orqali mustahkamlashni tavsiya qiladi. Yaxshi xulq-atvor – sabr, halollik, sadaqa, yordam berish – ruhiy barqarorlikni oshiradi. Qalbni illatlardan tozalash orqali inson ichki dunyosini tartibga soladi va ruhiy muvozanatga erishadi. Shuningdek, G‘azzoliy nafas olish, fikrni tozalash va zikr qilish orqali ichki tinchlikni saqlashni, ruhiy mashqlar orqali qalbni Allohga yaqinlashtirishni tavsiya

qiladi. U ruhiy salomatlikni insonning ijtimoiy aloqalari bilan ham bog‘laydi, do‘stlik, yordam va mehr-oqibat qalbni mustahkamlaydi va ichki stressni kamaytiradi. G‘azzoliy ruhiy salomatlikni ilm va tafakkur bilan mustahkamlashga ham katta e’tibor beradi. Ilm olish va tafakkur qalbni tozalash va ruhiy muvozanatni saqlash vositasi sifatida xizmat qiladi. Shu tarzda, ruhiy salomatlik nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy va intellektual faoliyat bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi. Natijada, G‘azzoliy asarlarida ruhiy salomatlik – ichki qalb pokligi, axloqiy tarbiya, diniy amallar, meditatsiya va ilmiy tafakkur orqali insonning kompleks va ko‘p qirrali barqarorligini ta’minlovchi tushuncha sifatida talqin qilinadi.

Natijalar. Abu Homid G‘azzoliy tasavvufiy axloqiy risolalaridan biri “Bidoyat ul-Hidoya” bo‘lib, u umrining oxirgi yillarida ta’lif etilgan va “Ihyo Ulum ad-Din” asariga muqaddima sifatida yozilgan. Asar taqvo orqali axloqni poklash tamoyillarini yo‘riqnoma tarzida bayon qiladi. Risola uch qismdan iborat:

Hidoyatga kirish va ibodat odoblari

Uyqudan uyg‘onish, hojatxonaga kirish, tahorat, g‘usl, tayammum, masjidga kirish va chiqish, namozga tayyorgarlik, imomlik qilish, juma va ro‘za odoblari.

Gunohlardan saqlanish

Qalb gunohlari, ularning xavfli tabiati, Alloh va maxluqot bilan bandaning munosabati tushuntiriladi.

Qalb illatlari

Hasad, riyo va ujb qalbning asosiy kasalliklari sifatida ko‘rsatiladi. G‘azzoliy ta’kidlaydi:

“Uch narsa insonni halokatga yetaklaydi – boshqarilmaydigan baxillik, erk berilgan hoyu-havaslar va insonning o‘zidan mamnun bo‘lishi. Agar qalbda hasad, riyo va ujb bo‘lsa, inson boshqa kasalliklardan davolana olmaydi.”

“Bidoyat ul-Hidoya” asariga 982/1572 yilda Abdulqodir bin Ahmad Ali Fokihiy va 1316/1898 yilda Muhammad bin Umar Navaviy Hoviy sharh yozgan. Risolaning “Qalb gunohlari” bobida qalb illatlari va ularni davolash yo‘llari batafsil ko‘rsatilgan.

G‘azzoliy ruhiy salomatlik masalalarini ham keng yoritgan. Uning asosiy tavsiyalari quyidagilar:

Nafas olish va meditatsiya

Ichki tinchlik va xotirjamlikni saqlash uchun fikrni tozalash va nafas usullarini qo‘llash.

Axloqiy qadriyatlar

Yaxshi xulq-atvor ruhiy sog‘lomlikni ta’minlaydi va insonning o‘ziga, boshqalarga va atrof-muhitga munosabatini yaxshilaydi.

Ijtimoiy aloqalar

Do‘stlik, yordam berish va mehr-oqibat ruhiy salomatlikni kuchaytiradi.

Diniy amaliyotlar

Namoz, zikr va boshqa ibodatlar ruhiy tinchlikni saqlashda muhim rol o‘ynaydi.

Mehnat va tadbirkorlik

Maqsadga intilish va faoliyat ruhiyatni mustahkamlaydi, insonni kuchliroq qiladi.

Shu bilan, G‘azzoliy asarlari nafaqat diniy jihatdan, balki axloqiy, ijtimoiy va psixologik nuqtai nazardan ham ruhiy salomatlikni mustahkamlashga qaratilgan. Uning ta’limotlari zamonaviy psixologiya bilan ham uzviy bog‘liq bo‘lib, insonning ichki dunyosini anglashda muhim manba hisoblanadi. Abu Hamid al-Ghazoliy (1058–1111) - islom tafakkuri tarixida muhim o‘rin egallagan mutafakkir, faqih, faylasuf va tasavvuf namoyandasi. U musulmon sharqida “Hujjat ul-islom” (Islom dalili) nomi bilan mashhur bo‘lgan. G‘azoliy o‘z asarlarida aqida, fiqh, falsafa, axloq va ayniqsa ruhiyat (nafs va qalb tarbiyasi) masalalariga chuqur e’tibor qaratgan.

G‘azoliy ta’limotida ruhiyat masalasi insonning ichki olami, qalb pokligi va nafsni tarbiyalash bilan chambarchas bog‘liq. Uning fikricha, inson ikki asosiy jihatdan iborat: jism (tana) va ruh (qalb). Tana moddiy bo‘lsa, ruh ilohiy manbadan kelgan nozik va latif mohiyatdir. Insonning haqiqiy kamoloti aynan ruhiy poklanish va qalbni ma’naviy jihatdan yuksaltirish orqali yuz beradi.

G‘azoliy o‘zining mashhur asari - Ihyo Ulum ad-Din (“Din ilmlarini tiriltirish”)da ruhiyat masalasini keng yoritadi. Ushbu asarda qalb kasalliklari (kibr, hasad, riyo, g‘azab, ochko‘zlik) va ularni davolash yo‘llari batafsil tushuntiriladi. Uning ta’kidlashicha, qalb xuddi oynaga o‘xshaydi: agar u gunoh va yomon sifatlar bilan qoplansa, haqiqat nuri unda aks etmaydi. Shuning uchun inson doimiy ravishda o‘z nafsini nazorat qilib, uni poklashga harakat qilishi lozim.

G‘azoliy ruhiy tarbiyada uch bosqichni muhim deb biladi:

Nafsni tiyish va yomon odatlardan voz kechish,

Yaxshi axloqiy sifatlarni shakllantirish,

Allohga muhabbat va ma’rifat orqali ruhiy kamolotga erishish.

Unga ko‘ra, ilm faqat nazariy bilim emas, balki qalbni o‘zgartiradigan va insonni yaxshi amallarga undaydigan nurdir. Agar ilm insonning axloqini yaxshilamasa, u haqiqiy ilm emas.

G‘azoliy ruhiyatni bilishda tasavvuf yo‘lini eng samarali yo‘l deb hisoblaydi. Chunki tasavvuf insonni ichki poklanish, tavba, sabr, shukr va ixlos orqali ma’naviy yetuklikka olib boradi. Uning qarashlari islom psixologiyasi va axloqiy falsafasining shakllanishida katta ta’sir ko‘rsatgan.

G‘azoliy asarlarida ruhiyat masalasi insonning o‘zini anglash, qalbni poklash va ilohiy haqiqatga yetishish jarayoni sifatida talqin qilinadi. U inson baxt-saodatini tashqi boylikda emas, balki ichki poklik va ma’naviy komillikda deb biladi. Abu Hamid al-Ghazoliy merosi asrlar davomida Sharq va G‘arb olimlari tomonidan keng o‘rganilgan. Uning aqida, falsafa, tasavvuf va ruhiyatga oid qarashlari ko‘plab tadqiqotlarga sabab bo‘lgan.

Sharq olimlari

Fakhr al-Din al-Roziy – kalom va tafsir ilmlarida G‘azoliy ta’sirini davom ettirgan, uning falsafiy va aqidaviy qarashlarini sharhlagan.

Ibn Rushd – G‘azoliyning falsafaga tanqidiy munosabatiga javoban mashhur “Tahofut at-tahofut” asarini yozgan. U G‘azoliy bilan ilmiy bahs olib borgan faylasuf sifatida tanilgan.

Ibn Khaldun – o‘zining tarix va jamiyat haqidagi asarlarida G‘azoliyning ilmiy va tasavvufiy merosini yuqori baholagan.

Jaloliddin Davoniy – axloq va falsafa sohasida G‘azoliy ta’limotini sharhlab, rivojlantirgan.

G‘arb tadqiqotchilari

Ignaz Goldziher – islom tafakkuri, jumladan G‘azoliy asarlarini ilmiy asosda o‘rgangan sharqshunos.

Louis Massignon – tasavvuf tarixini tadqiq qilib, G‘azoliy ruhiy-falsafiy qarashlariga e’tibor qaratgan.

William Montgomery Watt – G‘azoliyning hayoti va ta’limoti haqida maxsus tadqiqotlar olib borgan, uni islom tafakkurining muhim namoyandasi sifatida baholagan.

Henry Corbin – islom falsafasi va irfoniy tafakkur doirasida G‘azoliy merosini chuqur tahlil qilgan.

G‘azoliy merosi nafaqat musulmon olimlari, balki G‘arb sharqshunoslari tomonidan ham keng o‘rganilgan. Uning ruhiyat, qalb tarbiyasi va ma’naviy kamolot haqidagi qarashlari bugungi kunda ham falsafa, ilohiyot va psixologiya sohalarida dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Muhokama va xulosa. Darhaqiqat, G‘azzoliy buyuk faylasuf va mutafakkir bo‘lib, uning qarashlari mantiqiy-ratsional bilim, shuningdek, intuitsiya va metafizikaga bo‘lgan chuqur tushunchasini namoyon etadi. U falsafiy qarashlarini tasavvuf va islom shariati bilan uyg‘unlashtirib, sunniy ortodoksiyada e’tirof etilishiga erishdi. Shu bois, G‘azzoliy ishini diniy kashfiyotdan ko‘ra falsafiy kashfiyot va ilmiy ijodkorlik sifatida baholash mumkin. Mutafakkir zamonasining mashhur faqihlari va so‘fiylaridan ta’lim olib, bir qancha tasavvuf va axloqiy asarlar yaratgan. Italiyalik tadqiqotchi Massimo Kampanini G‘azzoliyning qalbni illatlardan poklash g‘oyasini yuqori baholaydi va uning so‘zlarini keltiradi: Qachonki Alloh qalb borasida g‘amxo‘rlik qilsa, ko‘krak yorug‘likka to‘ladi, malakut olam siri ochiladi, zalolat pardasi yechiladi va qalb ilohiy haqiqatlar bilan charog‘on bo‘ladi. Bir kun kelib qalb haqiqat sohibiga aylanadi, shunda aql o‘ziga ishonadi. Bu holat tizimli isbot-dalillar yoki tartibga solingan tafakkur orqali emas, balki Alloh ko‘ksimga solgan nur yordamida yuz beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Al-G'azzoliy, Abu Hamid. Ihyo' Ulum ad-Din (Diniy Ilmlarni Qayta Tiklash). Beyrut: Dar al-Kutub al-'Ilmiyah, 2003.
2. Al-G'azzoliy, Abu Hamid. Bidoyat al-Hidoya (Hidoyatning Boshlanishi). Qohira: Al-Maktaba al-Tijariyya, 1985.
3. Massimo Campanini. Al-Ghazali and the Islamic Intellectual Tradition. Leiden: Brill, 2007.
4. Rizvi, S. A. A. A History of Sufism in India. Delhi: Munshiram Manoharlal, 1992.
5. Al-Jurjani, Ahmad. Al-Ta'rifat. Qohira: Al-Maktaba al-Tijariyya, 1977.
6. Nasr, Seyyed Hossein. The Garden of Truth: The Vision and Promise of Sufism, Islam's Mystical Tradition. New York: HarperOne, 2007.
7. Fokihiy, Abdulqodir bin Ahmad Ali. Sharh Bidoyat al-Hidoya. 982/1572 yil.
8. Navaviy Hoviy, Muhammad bin Umar. Sharh Bidoyat al-Hidoya. 1316/1898 yil.

Xujaniyozova Oygul Rajabovna
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
Pedagogika va psixologiya kafedrsi dotsenti

KREATIVLIKNI ANIQLASHGA OID PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK YONDASHUVLAR

Abstract. *This article analyzes the psychological and pedagogical content of the concept of creativity, its historical development process, and modern interpretations. The study comparatively examines the approaches of scientists such as D. Simpson, E. Fromm, J. Guilford, L.S. Vygotsky, and A.V. Morozov, and substantiates the relationship between the main components of creativity - creating novelty, non-standard thinking, adaptability, developing original ideas, and the intellectual potential of the individual.*

Key words*: creativity, creative ability, non-standard thinking, divergent thinking, intellectual activity, pedagogical creativity, innovative approach, personal qualities, creative competence*

ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ОПРЕДЕЛЕНИЮ КРЕАТИВНОСТИ

Аннотация. *В данной статье анализируется психолого-педагогическое содержание понятия креативности, процесс его исторического формирования и современные интерпретации. В исследовании проведен сравнительный анализ подходов таких ученых, как Д. Симпсон, Э. Фромм, Дж. Гилфорд, Л.С. Выготский, А.В. Морозов. Обоснована взаимосвязь основных компонентов креативности - создания нового, нестандартного мышления, гибкости, разработки оригинальных идей с интеллектуальным потенциалом личности.*

Ключевые слова*: креативность, творчество, нестандартное мышление, дивергентное мышление, интеллектуальная активность, педагогическая креативность, инновационный подход, личностные качества, творческая компетенция*

PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL APPROACHES TO THE IDENTIFICATION OF CREATIVITY

Annotatsiya.*Ushbu maqolada kreativlik tushunchasining psixologik-pedagogik mazmuni, uning tarixiy shakllanish jarayoni va zamonaviy talqinlari tahlil qilingan. Tadqiqotda D. Simpson, E. Fromm, J. Gilford, L.S. Vigotskiy, A.V. Morozov kabi olimlarning yondashuvlari qiyosiy o‘rganilgan bo‘lib, kreativlikning asosiy komponentlari - yangilik yaratish, nostandart fikrlash, moslashuvchanlik, original g‘oya ishlab chiqish va shaxsning intellektual potentsiali bilan bog‘liqligi asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *kreativlik, ijodkorlik, nostandart fikrlash, divergent tafakkur, intellektual faollik, pedagogik kreativlik, innovatsion yondashuv, shaxs sifatlari, ijodiy kompetensiya*

Kirish. Axborot va uzluksiz innovatsiyalar asrida yashash va moslashish murakkab jarayon. Bugungi kunda insondan har qachongidan ko‘ra ko‘proq fikrlash va harakat qilishda qat’iylikdan voz kechish talab etilmoqda. Bu holat jamiyat hayotining barcha jabhalarida kuzatilmoqda. Zamonaviy dunyoda inson ko‘p narsalarni bilishi, mustahkam asoslar va qoidalarni o‘zlashtirishi lozim, ayni paytda, doimo kvadratdan g‘ildirak, g‘ildirakdan esa kvadrat yasashga tayyor turishi kerak. Bu muammo zamonaviy pedagogikani ham chetlab o‘tmadi.

Pedagoglik kasbi nafaqat oliy o‘quv yurtida o‘qish davomida o‘zlashtirilgan bilimlarni, yoki belgilangan qoidalar asosidagi harakatlarni, balki mutaxassislik doirasida ijodiy fikrlash qobiliyatini ham o‘z ichiga olishi lozim. Yangi davlat ta’lim standartida o‘qituvchi ega bo‘lishi kerak bo‘lgan kompetensiyalar belgilangan. Unda mutaxassislikning umumiy bilimlarini qamrab olgan

asosiy, tayanch kompetensiyalardan tashqari, axborot, kommunikativ, huquqiy, kreativ va boshqa ko‘plab kompetensiyalar ham mavjud.

Bugungi kunda pedagogdan nafaqat nazariyani mukammal bilish va uni amalda oddiy qo‘llash, balki bu nazariyani noodatiy, qiziqarli va ta’sirchan tarzda tadbiq eta olish qobiliyati ham talab etilmoqda. U har qanday g‘ayrioddiy pedagogik vaziyatga tayyor turishi va an’anaviy harakat tartibidan chekinishdan cho‘chimasdan erkin qaror qabul qila olishi kerak.

Shunday qilib, biz quyidagi xulosaga kelamiz: pedagog ijodkor bo‘lishi zarur. Ijodkorlik pedagogni ta’lim-tarbiya jarayonida innovatsion yondashuvlarni izlashga, kasbiy kompetensiyalar (aniqrog‘i, kompetensiyalar) tizimini mustaqil o‘zlashtirishga undaydi [1]. Xo‘sh, ijodkorlik o‘zi nima? Biz adabiyotlarda bu tushunchaga bo‘lgan turli qarashlarni ko‘rib chiqishga qaror qildik.

Kreativlik (lotincha creatio - yaratish) tushunchasi ilk bor 1922-yilda D. Simpson tomonidan insonning qoliplashgan fikrlash usullaridan voz kechish qobiliyatini ifodalash uchun qo‘llanilgan. Biroq kreativlik XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab psixologlar tomonidan faol o‘rganila boshlandi. Bugungi kunda "kreativlik" tushunchasi haqida turli-tuman qarashlar mavjud. Shu bois, ushbu tushunchaning ko‘plab ta’riflari ham yuzaga kelgan. Bularning barchasi mazkur mavzuning hali yetarlicha o‘rganilmaganligidan dalolat beradi.

Adabiyotlar tahlili:"Kreativlik - yangicha idrok etishning uyg‘unlashuvi yangi aloqalarni topish qobiliyati, yangi munosabatlarning shakllanishi, yangi asarlarning yaratilishi, yangiliklarni joriy etish va o‘zlashtirishga moyillik, yangi g‘oyalarga olib keladigan aqliy faoliyat (Jerar), tajribaning yangicha tashkil etilishi, ma’nolarning yangi tizimini tasavvur qilish" [10].

Rus tilida "ijodkorlik" deb tarjima qilinganda yoqimsiz jaranglagani sababli,

ingliz tilidagi "creativity" so‘zidan olingan "kreativlik" atamasi rus tilida ham o‘zlashib ketgan [2].

Kreativlik - fikrlash, his-tuyg‘ular va muloqotdagi qotib qolgan holatni yengish jarayonidir. Kreativ inson doimo atrofdagilarga nisbatan bag‘rikengdir: u o‘zi uchun odatiy bo‘lgan xatti-harakat usuli, ehtimol eng yaxshisi emasligini, balki faqat odat tufayli qabul qilinganini tan olishga tayyor; har bir inson o‘z dunyosida yashashi va bu dunyoni atrofidagilar aytganidek emas, balki o‘zicha, mustaqil ravishda ko‘rishini tushunadi [3].

1959-yilda psixolog E. Fromm quyidagi ta’rifni taklif etgan: "Kreativlik - hayratlanish va o‘rganish qobiliyati, nostandart vaziyatlarda yechim topish mahorati, yangilikka intilish va o‘z tajribasini chuqur anglash layoqatidir"

Kreativlik inglizcha "creativity" - ijodiy iste’dod darajasi, ijod qilish qobiliyati bo‘lib,shaxsning nisbatan barqaror xususiyatini tashkil etadi. [4]

"Zamonaviy psixologik lug‘at"da kreativlik "insonning ijodiy imkoniyatlari qobiliyatlari sifatida ta’riflanadi. Bu imkoniyatlar fikrlashda, his-tuyg‘ularda, muloqotda, faoliyatning alohida turlarida namoyon bo‘lishi, umuman shaxsni yoki uning alohida jihatlarini, faoliyat mahsulotlarini, ularni yaratish jarayonini tavsiflashi mumkin" [5].


Tadqiqot metodologiyasi:Zamonaviy tadqiqotlarda aks etgan kreativlikka an’anaviy qarashlar haqida so‘z yuritganda, A.V. Morozov shunday ta’kidlaydi: "U shaxsiy kategoriya sifatida ko‘rib chiqilgan va asosan uning talqinini aniqlashtirish bo‘yicha munozaralar olib borilgan, ya’ni: kreativlik divergent fikrlash sifatida J. Gilford, O.K. Tixomirov, yoki intellektual faollik sifatida (D.B. Bogoyavlenskaya, L.B. Yermolayeva-Tomina), yoki shaxsning integratsiyalashgan sifati sifatida Y.A. Ponomarev va boshqalar." [6].

Muallif / manba	Yil	Kreativlik talqini	Asosiy mazmun
D. Simpson	1922	Qolipdan tashqari fikrlash	An’anaviy fikrlashdan voz kechish
R. Xollman	XX asr	Yangi aloqalarni topish	Yangicha idrok, yangi munosabatlar
E. Fromm	1959	Hayratlanish va nostandart yechim	Yangilikka intilish, chuqur anglash

Muallif / manba	Yil	Kreativlik talqini	Asosiy mazmun
J. Gilford	XX asr	Divergent fikrlash	Ko‘p variantli fikrlash
D.B. Bogoyavlenskaya	XX asr	Intellektual faollik	Faollik orqali ijod
L.S. Vigotskiy	XX asr	Ijodkorlikni hayotiy zarurat sifat-ida ko‘radi	Yangi shakllar yaratish
A.V. Morozov	Zamonaviy	Shaxsiy sifatlar integratsiyasi	Kreativlik – kompleks xususiyat

Kreativlik - shaxsning intellektual va shaxsiy xususiyatlari majmui bo‘lib, u muammolarni mustaqil ravishda ilgari surishga, ko‘plab original g‘oyalarni yaratishga va ularni noan’anaviy tarzda hal qilishga yordam beradi [7].

Hozirgi vaqtda kreativlikni individlarning original qadriyatlar yaratish, nostandart qarorlar qabul qilish, ma’lum chegaralardan tashqariga chiqish kabi chuqur xususiyatlarini aks ettiruvchi qobiliyat sifatida; shaxsning ijodiy imkoniyatlarini mujassamlashtirgan integral xususiyati sifatida tushunish an’anasi shakllanganligi haqida gapirish mumkin [8].



Tahlil:Ushbu ta’riflarni tahlil qilib, biz kreativlikning barcha talqinlarida umumiy bo‘lgan jihatlarni ajratib ko‘rsatishimiz mumkin: kreativlikning xususiyatlari sifatida yangilikni ajratib ko‘rsatish, standartlarni buzish va qotib qolganlikni rad etish. Muammo esa hali qaror topmagan nuqtai nazar, ya’ni kreativlik nima - jarayon, qobiliyat yoki shaxsning individual xususiyati ekanligi. Bu yerda, ko‘rib turganingizdek, qarashlar turlicha.

Shuningdek, kreativlik va ijodkorlik tushunchalari o‘rtasidagi ba’zi farqlarni ta’kidlab o‘tishni muhim deb hisoblaymiz. Rus tilida chop etilgan ilmiy adabiyotlarda inglizcha "creative" atamasi "ijodkor", "creative personality" esa "ijodkor shaxs" deb tarjima qilinishi an’anaga aylangan. Bunda katta xato yo‘q, biroq "kreativlik" va "ijodkorlik" tushunchalari to‘liq bir xil emasligini ta’kidlash lozim.

Ijod - sifat jihatidan yangi moddiy va ma’naviy qadriyatlarni yaratuvchi faoliyat jarayoni yo-ki obyektiv yangilikni yaratish natijasi hisoblanadi.

Kreativlik muammosiga bag‘ishlangan tadqiqotlarning aksariyatida kreativ psixik faoliyat-ning o‘ziga xos xususiyatlari, obyektiv voqelikni idrok etish va aks ettirishning alohida usuli, chuqurroq fikrlash, chuqurroq anglash, teranroq qarash, moslashuvchan harakat qilish qobiliyati bilan bog‘liq shaxsiy faoliyatning o‘ziga xosligi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

"Ijod" tushunchasi nafaqat o‘ziga xos psixik jarayonni, balki obyektiv voqelikning turli jihatlarini maxsus tarzda tashkil etilgan idrok etish, qayta ishlash va qayta tiklash natijasini ham o‘z ichiga oladi.

"Kreativlik" tushunchasi ko‘proq faoliyat va uning natijasiga yo‘naltirilgan "ijodkorlik" tushunchasidan farqli o‘laroq, shaxsga ko‘proq qaratilgan. Shu sababli, bu ikki tushuncha o‘rtasiga tenglik belgisini qo‘yish to‘g‘ri emas.

Ijodiy jarayon muallifning ilhomiga, qobiliyatlariga va u amal qiladigan an’analarga asoslanadi. Kreativ jarayon haqida gapirganda esa, uning asosiy tarkibiy qismi pragmatik unsur hisoblanadi. Ya’ni, nimani, kim uchun, qanday va nima maqsadda yaratish kerakligi haqidagi dastlabki tushuncha muhim o‘rin tutadi. Kreativlik, shuningdek, kutilmagan g‘oyalarni yaratish qobiliyatini ham anglatadi. Shu ma’noda

"kreativ" so‘zi "ijodiy" so‘zi bilan aynan bir xil emas. Ijodning mohiyati - muhim ahamiyatga ega bo‘lgan sifat jihatidan yangi narsani kashf etish va yaratishdir. Bu estetik qadriyatlar, faktlar va qonunlar, texnik qurilmalar bo‘lishi mumkin. "Kreativlik" va "kreativ" so‘zlari esa qo‘yilgan vazifani bajarishga noan’anaviy yondashuvni yoki hatto noan’anaviy g‘oyalarni "oqimli ishlab chiqarishni" nazarda tutadi.

Biz kreativlikning ko‘plab ta’riflarini tahlil qilib, bu tushunchani "ijodkorlik" tushunchasidan farqladik. Xulosa qilish mumkinki, dunyo taraqqiyotining hozirgi bosqichida kreativlik shaxsning juda muhim sifati bo‘lib, har qanday inson, shu jumladan pedagog ham ega bo‘lishi kerak bo‘lgan qobiliyatdir. L.S. Vigotskiy kelajak pedagogikasining asosiy vazifasini shakllantirib, unda hayot "ijodkorlik, doimiy zo‘riqish va yengib o‘tish, doimiy kombinatsiyalash va xulq-atvorning yangi shakllarini yaratish tizimi sifatida namoyon bo‘lishini" ta’kidlagan. Demak, bizning har bir harakatimiz va kechinmamiz yangi voqelikni yaratishga intilish, yangi narsaga qarab oldinga siljishdir..." [9.11].

Xulosa. Barcha narsa o‘zgarmoqda: hayot sur’ati, axborot olish tezligi, jamiyat hayotining hamma sohalarida yangi texnologiyalar paydo bo‘lmoqda. Pedagog esa har yili hayotimizga tobora ko‘proq yangiliklar olib kelayotgan bu yangi dunyoga moslashishi va samarali faoliyat yuritishi lozim. Bu yangiliklarni tezda qabul qilish va qo‘llashni o‘rganish kerak, "bizning davrimizda esa..." deb ularni rad etish emas. An’anaviy ta’lim tizimi zamonaviy talablarga to‘liq javob bera olmayapti. Shu bois, kreativlikni rivojlantirish jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida barcha sohalarda, shu jumladan pedagogikada ham innovatsiyalar omili sifatida istiqbolli deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Особов И.П. Педагогическая креативность и компетентность как факторы профессионального развития студентов. // Гуманитарные научные исследования. – Ноябрь, 2011 [Электронный ресурс]. URL: http://human.snauka.ru/2011/11/215

2. Торшина В.А. Современные исследования проблемы креативности в зарубежной психологии // Вопросы психологии, 1998, № 4

3. Шурухт С.М. Подростковый возраст: развитие креативности, самосознания, эмоций, коммуникации и ответственности. – СПб.: Речь, 2006.

4. Краткий психологический словарь / Под общ. ред. А.В Петровского, М.Г. Ярошевского. - Ростов н/Д.: Феникс, 1999.

5. Современный психологический словарь / под. ред. Б.Г. Мещерякова, В.П. Зинченко. – СПб.: Прайм-ЕВРО-ЗНАК, 2007 – 490.

Mamadaliyeva Zulfizar Yusufjon qizi
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti mustaqil izlanuvchisi
E-mail:zulfizarmamadaliyeva785@gmail.com

ZAMONAVIY AXBOROT MAKONIDAGI GIBRID URUSHLAR

Annotatsiya. *Ushbu tadqiqot zamonaviy axborot makonida gibrid urushlar fenomenini, ularning mohiyati, amalga oshirish mexanizmlari hamda jamoatchilik ongiga ko‘rsatayotgan ta’sirini tahlil etishga bag‘ishlangan. Raqamlashtirish jarayonining jadal sur’atlarda rivojlanishi, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarning kengayishi sharoitida gibrid urushlar endilikda an’anaviy harbiy harakatlar bilan cheklanib qolmay, balki axborot, psixologik, siyosiy va madaniy vositalar orqali olib borilayotgan murakkab jarayon sifatida namoyon bo‘lmoqda. Tadqiqotda dezinformatsiya, manipulyativ narrativlar, muvofiqlashtirilgan axborot kampaniyalari hamda sun’iy intellektga asoslangan texnologiyalarning gibrid tahdidlarni shakllantirishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, axborot urushlarining jamoatchilik fikriga, ijtimoiy barqarorlikka hamda milliy va xalqaro darajadagi qarorlar qabul qilish jarayonlariga ta’siri alohida e’tiborga olinadi. Tadqiqot natijalari zamonaviy axborot muhitida gibrid tahdidlarga qarshi kurashishda professional jurnalistika, etik me’yorlar va axborot xavfsizligining tobora ortib borayotgan ahamiyatini asoslab beradi.*

Kalit so‘zlar: *gibrid tahdid, online sfera, spektrli operatsiyalar, geopolitika, dezinformatsiya, rangli inqiloblar, struktura, gibrid taktika, identifikatsiya, provokatsiya.*

ГИБРИДНЫЕ ВОЙНЫ В СОВРЕМЕННОМ ИНФОРМАЦИОННОМ ПРОСТРАНСТВЕ

Аннотация. *Статья посвящена комплексному анализу феномена гибридных войн в условиях современного информационного пространства. Рассматриваются их сущностные характеристики, структура, основные механизмы реализации и влияние на общественное сознание. В условиях ускоренной цифровизации, расширения онлайн-сферы, а также возрастания роли средств массовой информации и социальных сетей гибридные войны выходят за рамки традиционных военных конфликтов и реализуются посредством совокупности информационных, психологических, политических и культурных инструментов. В исследовании особое внимание уделяется дезинформации, манипулятивным нарративам, скоординированным информационным операциям и применению технологий искусственного интеллекта как ключевых элементов формирования гибридных угроз. Анализируется влияние информационных и гибридных операций на общественное мнение, социально-политическую стабильность, а также на процессы принятия решений на национальном и международном уровнях. Сделан вывод о возрастающей значимости профессиональной журналистики, соблюдения этических норм и обеспечения информационной безопасности в системе противодействия гибридным угрозам.*

Ключевые слова*: Гибридные угрозы, онлайн-пространство, спектральные операции, геополитика, дезинформация, цветные революции, структура гибридных войн, гибридная тактика, идентификация, провокация.*

HYBRID WARS IN THE MODERN INFORMATION SPACE

Abstract.*This article provides a comprehensive analysis of the phenomenon of hybrid warfare in the context of the contemporary information environment. The study examines its conceptual foundations, structural characteristics, key implementation mechanisms, and its impact on public consciousness. In the context of accelerated digitalization, the expansion of the online sphere, and the growing influence of mass media and social networks, hybrid warfare is no longer*

confined to traditional military confrontations but is increasingly conducted through a combination of informational, psychological, political, and cultural instruments. Particular attention is paid to disinformation, manipulative narratives, coordinated information operations, and the role of artificial intelligence–based technologies in shaping hybrid threats. The study also analyzes the influence of information and hybrid operations on public opinion, socio-political stability, and decision-making processes at both national and international levels. The findings underscore the increasing importance of professional journalism, adherence to ethical standards, and information security in countering hybrid threats within the modern information environment.

Key words: *hybrid threats, online space, spectral operations, geopolitics, disinformation, color revolutions, structure of hybrid warfare, hybrid tactics, identification, provocation.*

Siyosatshunoslikda gibrid urush barcha turdagi geosiyosiy bo‘shliqlardan harbiy harakatlar teatri sifatida bir vaqtning o‘zida foydalanishni anglatadi. Belgilangan geosiyosiy maydonlarning har birida geosiyosiy makonning muayyan turiga mos keladigan institutlar, manbalar va texnologiyalardan foydalangan holda “gibrid urush” olib boriladi. Hozirgi paytda hukmron geosiyosiy makon axborot va mafkuraviydir. Binobarin, ommaviy ongni boshqarish institutlari va texnologiyalari dunyo hukmronligini qo‘lga kiritish yoki saqlab qolish uchun katta ahamiyatga kasb etadi. Gibrid urush butun aholini qamrab oladi, axborot makonining bo‘shliqlarini to‘ldiradi, shu jumladan bosma va elektron ommaviy axborot vositalari, kiber xujumlar tashkil etish va muxolifat harakatlari tarafdorlari uchun ayni mudaodir. Bu turdagi urushlar ijtimoiy hayotning eng xilma-xil sohalariga - siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy sohalarga taalluqli sanaladi. Gibrid urushlar nafaqat vaqt, makon va ishlatilgan vositalar chegarasi bo‘lmagan qurolli to‘qnashuvlar silsilasida kechadi. Ularning asosiy maqsadi shundan iboratki, ular urushni siyosiy, iqtisodiy yoki mafkuraviy qarama-qarshilikning boshqa shakllaridan ajratib turadigan chiziqlarni o‘zaro qo‘shadi.

Gibrid urushning muhim xususiyatlaridan biri axloqiy me’yorlariga e’tibor bermaslik, “iflos” ijtimoiy texnologiyalardan foydalanish, shu jumladan mish-mishlar, yolg‘onlar, tuhmatlar, faktlarni buzish, tarixni soxtalashtirishni o‘z ichiga oladi. Ushbu urush jamoat hayotining barcha sohalarini: siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy rivojlanish, madaniyatini qamrab oladi. Bu strategiyaning bir qismi sifatida yirik gegemon davlatlar hukumatni ag‘darish uchun yashirin usullardan foydalangan holda siyosiy muxolifatning noqonuniy harakatlarini azaldan qo‘llab-quvvatlab kelishini aytish mumkin. Ular ushbu harkatlar bilan gibrid urushlardan davlatning suverenitetini buzish uchun foydalanadilar, gapning indalosi, to‘g‘ridan-to‘g‘ri tashqi nazoratga o‘tkazadi. Aksariyat hollarda natijalar davlatlarning iqtisodiy va siyosiy zaiflashuviga olib keladi.

Gibrid urushlar ijtimoiy barqarorlikka jiddiy zarba berib, ichki siyosiy keskinlikka olib keladi. AQSh tomonidan olib borilgan gibrid urushlar rivojlanayotgan polentrik dunyoning “ko‘tarilgan” kuchlarini zaiflashtirish yoki yo‘q qilishga qaratilgan. Misol tariqasida, Ukrainadagi voqealar shuningdek, Rossiyadagi vaziyatni izdan chiqarishga qaratilgan urush ham gibrid urushning bir turi sifatida qaraladi. Bu urush nafaqat Yevropaga balki, O‘rta Osiyo mintaqasidagi davlatlarga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. “Gibrid urush” texnologiyalaridan XXRga, xususan, Shinjon-Uyg‘ur avtonom mintaqasida foydalanish ehtimoli yuqori ekanligi ta’kidlash darkor. Umumiy qilib aytganganda, yuqoridagi holatlar va ularning media makonda yoritilishi AQShni manfaatdor qiladi. Biroq, hozirgi kunda an’anaviy qurol yordamida jahon urushi olib borish ommaviy qirg‘in qurollaridan foydalanish juda xavfli hisoblanadi [1]. Hozirgi kunda gibrid urushlar evaziga Qo‘shma Shtatlar qator mintaqaviy urushlar va siyosiy mojarolarni online strategiyani amalga oshirishga ulgurib bo‘lgan. Yu.Glazieva: “Global gibrid urushni shakllantirish, raqobatchilarning yo‘q qilinishi yoki beqarorlashishi sezilarli darajada zaiflashishi ko‘rinmoqda” - deya ta’kidlaydi [2]. Shu tarzda, amerikaliklar o‘zlarining iqtisodiy muammolarini hal qilishga kirishdilar. Rossiya ommaviy axborot vositalarida gibrid urushlar texnologiyasidan ko‘pincha AQShning o‘zi foydalanishi aytiladi. Rossiya nuqtai nazarini xalqaro hamjamiyatga yetkazish uchun 2014-yil noyabr oyida “Rossiya Segodnya” axborot agentligi Sputnik loyihasini boshladi. Uning o'ziga xos xususiyati shundaki, axborot ishlab chiqarish markazlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri ushbu ma’lumotlarni

olgan mamlakatlar hududida joylashadi va ishlaydi. Rossiya va Xitoy birinchi o‘rinni egallab turgan asosiy raqobatchilarini zaiflashtirish uchun amerikaliklar bilvosita harakatlar strategiyasidan va “rangli inqiloblar”ni tashkil qilish orqali “boshqariladigan tartibsizliklarni” yaratish texnologiyasidan faol foydalanib kelmoqda. Ammo nafaqat bu mamlakatlar G‘arb tomonidan gibrid urushlar orbitasida qatnashmoqda. Kolumbiya va Meksikada AQSh beqarorlikni nazorat qilish uchun giyohvand kartellaridan foydalanishi, Liviya va Suriyada qurolli muxolifat kuchlari qo‘llab-quvvatlanishi bularning barchasi misol bo‘la oladi.

Ta’kidlab borish joizki, gibrid urushlarda geosiyosiy qarama-qarshilikning barcha vositalari: iqtisodiy sanktsiyalar, transport blokadasi, tinch aholining genotsidi, iqtisodiy infratuzilmaning vayron qilinishi, terrorchilik harakatlari va axborot-psixologik operatsiyalar to‘liq qo‘llaniladi. AQShning har qanday holatda ham ularning manfaatlariga javob beradigan dunyo tartibini saqlash istagi siyosiy elitalarni urushning an’anaviy imidjidan tashqarida bo‘lgan o‘zgacha fikrlarga qarshi kurashda yangi shakl va vositalardan foydalanishga majbur qilib kelmoqda. Mavjud qurolli mojarolarni qo‘llab-quvvatlash, mafkuraviy tajovuz, iqtisodiy sanktsiyalar, yangi ichki siyosiy zaifliklarni qidirish bilan siyosiy izolyatsiyalash urinishlari, ilg‘or axborot texnologiyalaridan foydalanish va boshqalarni birlashtirish uslubi bu yerda muhim ro‘l o‘ynamoqda.

AQSh harbiy doiralarida ham gibrid urush masalasida yakdil fikr mavjud emas. AQSh harbiy kuchlari “to‘liq spektrli operatsiyalar” atamasini muntazam va tartibsiz shakllanishlar, axborot texnologiyalari, kiber urushlar va gibrid urushga xos boshqa vositalar va usullarni o‘z ichiga olgan zamonaviy ko‘p o‘lchovli operatsiyalarni tavsiflash uchun ishlatishni ma’qul ko‘rishadi. NATO kelajakdagi to‘qnashuvlar muammosiga murakkab noan’anaviy yoki gibrid urushlar sharoitida boshqacha yondashuvni namoyish etadi. Bir tomondan, Alyans rahbarlari gibrid urush o‘zi uchun yangi narsa olib kelmaydi va insoniyat ko‘p ming yillar davomida harbiy operatsiyalarning turli xil gibrid variantlari bilan uchrashib kelmoqda, deb ta’kidlaydilar. Alyansning bosh kotibi J.Stoltenbergning so'zlariga ko‘ra, “biz bilgan birinchi gibrid urush troyani oti bilan bog‘liq edi, shuning uchun biz buni allaqachon ko‘rganmiz”. Shu bilan birga, gibrid urush kontseptsiyasida ozgina yangilik mavjudligini anglagan holda, G‘arb tahlilchilari gibrid urushni o‘tmish, hozirgi va kelajakdagi urushlarni tahlil qilish va obyektiv rejalarni ishlab chiqish uchun qulay vosita deb bilishadi [3].

Quyidagilarga ko‘ra, 1991-yildan beri NATOga a’zo davlatlar ishtirokida 6 ta harbiy operatsiya o‘tkazildi: Iroqda – “Cho‘l bo‘roni” (1991), Yugoslaviyada – “Ittifoq kuchlari” (1999), Iroqda – “Cho‘l tulki” (1998), Afg‘onistonda – “Doimiy Ozodlik” (2001), Iroqda – “Iroqqa Ozodlik” (2003), Liviyada – “Birlashgan Himoyachi” (2011). Zo‘rlik ishlatish to‘g‘risida yakuniy qarorni qabul qilishning rasmiy sabablari har bir holatda boshqacha ekanligi bilinib turadi [4]. Ammo bularning barchasini tahlil qilsak, har doim bitta asosiy maqsad - AQSh va NATO hukmronligini mustahkamlash va Rossiyani mintaqadan siqib chiqarish ta’qib qilingan degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Har yili NATO mamlakatlari uchun bunday operatsiyalarni amalga oshirish qiyinlashib bormoqda. Buning uchun “rangli” inqiloblar ishlab chiqilgan bo‘lib, zamonaviy sharoitda yangi turdagi urush deb atash maqsadga muvofiqdir. Bu turdagi urushlarni tayyorlash va o‘tkazish juda ishonchli sinovdan o‘tgan. 12 mamlakatda “rangli” inqiloblar davlat hokimiyati o‘zgarishi bilan yakunlandi va uchta mamlakatda ular ikki marta sodir bo‘ldi: Yamanda (2011, 2015), Livan (2005, 2011). 2003-yilda Gruziyada davlat to‘ntarishi strategiyasi va taktikasi ishlab chiqilganidan so‘ng, yana 22 ta mamlakatda “rangli inqiloblar” 11 yil davomida sinovdan o‘tkazildi. Shu o‘rinda ta’kidlab o‘tish kerakki, “rangi inqiloblar” gibrid urushning yangi ko‘rinishi hisoblanadi [5].

Ta’kidlash o‘rinliki, online sferadagi urushda axborot ta’sirining va targ‘ibotning ulushi butun to‘qnashuv miqyosida 80 foizni tashkil etadi. An’anaviy urushda esa bu 20 foizdan oshmaydi. Rossiyaga qarshi gibrid urush yo‘nalishini AQSh Mudofaa vaziri Eshton Karterning 2015- yil 20-avgustda Pentagonda bo‘lib o‘tgan brifingda aytgan so‘zlarida tasdiqlaydi: “Biz Rossiyaning ushbu xatti-harakatini hisobga olgan holda o‘z imkoniyatlarimizni to‘g‘rilayapmiz. Biz, shuningdek, NATO a’zolari va NATOga a’zo bo‘lmaganlar bilan yangi usulda ish olib boramiz, gibrid urushga o‘tmoqdamiz va ta’sirimizni kuchaytirmoqdamiz”, degan edi [6]. Avvalo, yangi turdagi urushlarda

maqsadlarga erishish harbiy kuch ishlatish bilan amalga oshiriladi. BMT Xavfsizlik Kengashi tomonidan 2011-yil 17-martda “Liviya aholisini hukmron rejimdan himoya qilish to‘g‘risidagi” 1973-yilgi qaror qabul qilinishi NATO davlatlarining qurolli bosqinda bevosita ishtirok etishiga yo‘l ochdi [7]. Harbiy kuch yangi avlod ya’ni gibrid urushlarida juda kam qo‘llaniladi, davlat hokimiyatini to‘g‘ridan-to‘g‘ri qurolli bosqinsiz almashtirish yanada qulay hisoblanadi.

Shuni ta’kidlash kerakki, mamlakatda hokimiyat o‘zgarishiga qiziqqan asosiy tomon to‘g‘ridan-to‘g‘ri kuch ishlatishga murojaat qilmaslikka harakat qiladi. U ziddiyatli tomonlarni faol dushmanlik harakatlariga undab, “parda ortidan” harakat qilib, o‘z manfaatlarini mohirlik bilan ta’minlaydi. Bugungi kunda, eng muhimi, bunday urushda armiyaning ro‘li nimada ekanligini tushunishdir. Oriental Review analitik portali Endryu Korybkoning “Gibrid urushlar” mavzusidagi so‘nggi tadqiqotlari muntazam nashr etilishini e’lon qildi. Unda keltirilishicha, Endryu o'z ishida xalqaro munosabatlar tizimini tushunish uchun yangi paradigmani ishlab chiqdi va uning nazariy hisob-kitoblarini sinash uchun tegishli metodologiyani bera oldi. “Sovuq urush qonuni” deb nomlangan ushbu nashrda muallif quyidagilarni ta’kidlaydi: “Har qanday gibrid urushning asosiy yashirin maqsadi - o'tish davri turidagi nishon holatida identifikatsiya mojarolarini (etnik, diniy, mintaqaviy, siyosiy va boshqalarni) tashqi provokatsiya qilish yo'li bilan xalqaro munosabatlarning ko'p qutbli tizimini barpo etishga to'sqinlik qilish”[8].

Amerika gibrid urushlar strategiyasining maqsadlari Rossiya va Xitoyning integratsion loyihalari bu bir qator “geografik janglar”ning sababi hisoblanadi. Yevropa, Bolqon, Janubi-Sharqiy Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi; uning vazifasi har bir o‘tish davri davlatining “og‘riq nuqtalarini” aniqlashdan iborat bo‘lib, u “gibrid urushlar” deb nomlangan inqilobiy urush shakli doirasida ishlatilishi mumkin. Endryuning noyob metodologiyasi etnik kelib chiqishi, dini, tarixi, ma’muriy chegaralari, jismoniy geografiyasi va ichki rivojlanishdagi ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosibliklar kabi o‘zgaruvchilarni – o‘z ichiga oladi. Taklif etilayotgan metodologiyaning bunday ko'p qirrali xususiyati barcha mamlakatlarning zaif nuqtalarini “gibrid urushlar” doktrinasi nuqtai nazaridan har tomonlama tahlil qilishga imkon beradi [9].

Gibrid urush – Qo‘shma Shtatlarning butun mavjudlik tarixidagi eng muhim rivojlanishi: noan’anaviy gibrid urush shakllari o‘zgartirilgan “rangli inqiloblar”, davlatlarni beqarorlashtirishning asosiy tendentsiyasi sifatida, kelgusi o‘n yillar davomida hukmronlik qilib kelishga ulgurib bo‘ldi. Gibrid urushning paydo bo‘lishini bashorat qilishning kaliti gibrid urushlar tashqi tomondan qo‘zg‘atilgan, geoiqtisodiy manfaatlarning yaxlitligini buzish uchun mo'ljallangan assimetrik to‘qnashuvlar, ushbu faktga asoslanib, ehtimol zarba yo‘nalishini belgilash nisbatan oson tuyilishi mumkindir. Biroq, Endryu Korybkoning bir qator olib borgan tadqiqot ishlarida gibrid urushlarning rejalashtirish modellarini tushuntiradigan materiallar bilan ochiladi, shuningdek gibrid urushlarning strategik konturlari haqidagi bilimlari zoya ketmadi. Yuqorida ko‘plab gibrid urushlar, ularning OAVlarida yoritilishi haqida misollar keltirib o‘tdik. Endilikda e’tiborimizni Markaziy Osiyodagi davlatlarda bo‘lib o‘tgan gibrid urushlar va ularning ommaviy axborot vositalarida yoritilishi, jamoatchilik fikriga qanday salbiy ta’sir ko‘rsatganligi, oqibati nimalar keltirib chiqarganligi, nimalarga olib kelganligini keltirib o‘tamiz.

Xavfsizlik- bu har kuni biz to‘qnashadigan va rioya qiladigan ehtiyot choralari bo‘lib, u hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurgan jihatidir. E’tirof etish joizki, Zamonaviy axborot urushi g‘oyasi juda ildamlab ketdi. Endi uning makoni – butun yer shariga aylandi. Urush lokal qaroqchi hujumidan bir necha davlatlarga jiddiy xavf tug‘diruvchi global muammoga aylandi. Turli mamlakatlarning harbiy doktrinalarida elektron qurol rivoji rejalari va maxsus vazifalarga mo‘ljallangan dasturiy ta’minot to‘g‘risida eslatishlar ko‘zga tashlanmoqda. Turli razvedka manbalaridan kelayotgan axborotning tahlili natijasida xulosa qilish mumkinki, ba’zi bir davlatlarning rahbarlari hujumkor kiber-dasturlarni yaratishni moliyalashtirishmoqda. Gibrid axborot urushiga oddiy vositalar yordamida harbiy xarakatlar samara bermaydigan hollarga nisbatan strategik sifat deb qaralmoqda. Zamanoviy tusdagi gibrid axboroiy urush atamasi real, qirg‘inli va yemiruvchi harbiy harakatlar bilan bog‘liq shafqatsiz hamda xavfli bo‘lin hech kimni ayamayapti. Ma’lumki, dunyo axborot makoniga ulanmasdan mamlakat iqtisodini rivojlantirmasdan turib na siyosat va na iqtisodiy soha balki boshqa sohalarni ham rivojlantirib bo‘lmaydi. Hozirgi kunga kelib, zamo-

naviy tusdagi gibrid axboriy urushlarning asosiy nuqtasi internet tarmoqlari hisoblanadi. Internet tarmog‘i orqali berilayotgan axborotlar oqimi o‘z-o‘zidan davlatga, fuqarolik jamiyati institutlariga, ijtimoiy infratuzilmalarga ta’sirini ko‘rsatib keladi.

Gibrid urushlarlarning negizida, qo‘zg‘atuvchi vosita axborot ekanligi ma’lum. Shulardan biri sifatida, 2022-yil Qozog‘istonda norozilik aksiyalari yangi yilning ilk kunlaridan boshlanganligini keltirish joiz. Bunga asosiy sabab, Janaozen shahrida avtomobil egalari suyultirilgan gaz narxi 120 tengega (qariyb 3 ming so‘m) ko‘tarilganidan norozi bo‘lib, ommaviy miting uyushtirildi. Tobora olovlangan namoyishlar ortidan Hukumat komissiyasi Aqtau shahridagi “Intimak” maydonida namoyishchilar bilan uchrashgan. Uchrashuv davomida suyultirilgan gaz narxini pasaytirish va Mang‘istau viloyatida gaz narxini litri uchun 50 tenge etib belgilash to‘g‘risida qaror qabul qilingan [10]. Davom etgan namoyishlar fonida butun mamlakat bo‘ylab favqulodda holat rejimi e’lon qilingan edi. Olmaotada namoyishchilar hokimiyat binosi, prezident qarorgohi va aeroportni egallab, shaharda bemisl talonchilik harakatlari boshlangach, prezident KXShTga yordam so‘rab murojaat qiladi. Mamlakatda aksilterror amaliyotlar boshlanadi. Qozog‘istonda 5-6 yanvar kunlari sodir bo‘lgan mana shu voqealarni ham gibrid urushga misol qilib olamiz. Birgina axborot orqali butun bir millat, xalq ko‘tarilishiga sabab bo‘ldi. Offline maydonda kechgan holatdan so‘ng, haqiqiy gibrid axboriy urush media makonga ya’ni online rejimga ko‘chdi. Butun dunyo ommaviy axborot vositalari ushbu holatni xolis va noxolis, turli ko‘rinishlarda talqin qilib, yorita boshladi.

Axborotga nisbatan tahdidlar bugungi kunda kun sayin ortib bormoqda. Zamonaviy jamiyat sharoitida axborot nafaqat xabardorlik vositasi, balki inson hayotida hal qiluvchi strategik omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Har bir axborot oqimi individual va jamoaviy qarorlar qabul qilish jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatib, shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bois axborot maydonidagi jarayonlarni nazorat qilish va tahlil etish dolzarb masalaga aylanmoqda. Bugungi kunda jamiyatning axborotlashuvi jadal va ko‘pincha oldindan prognoz qilib bo‘lmaydigan sur’atlarda rivojlanmoqda. Raqamli texnologiyalar, internet tarmoqlari, ijtimoiy media platformalarining keng ommalashuvi axborotning tezkor tarqalishiga sharoit yaratdi. Biroq mazkur jarayonning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy oqibatlarini to‘liq anglab yetish jamiyat uchun murakkab vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Ko‘pincha insonlar va institutlar axborot oqimlarining mazmuni va maqsadini chuqur tahlil qilishdan ko‘ra, ularning oqibatlariga moslashishga majbur bo‘lmoqda.

Jamiyatning axborotlashuvi yagona global axborot makonining shakllanishiga olib keldi. Ushbu makon doirasida axborotni yig‘ish, qayta ishlash, saqlash va turli subyektlar - shaxslar, tashkilotlar, nodavlat tuzilmalar va davlatlar o‘rtasida almashish jarayonlari uzluksiz amalga oshirilmoqda. Global axborot makoni davlatlar o‘rtasidagi chegaralarni ma’lum ma’noda shartli holga keltirib, axborot suvereniteti masalasini yanada murakkablashtirdi. Shubhasiz, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va boshqa turdagi axborotlarning yuqori tezlikda almashinuvi jamiyat hayotining barcha sohalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, ishlab chiqarish va boshqaruv tizimlarida raqamli va innovatsion texnologiyalarning keng qo‘llanilishi samaradorlikni oshirish bilan bir qatorda, axborot xavfsizligi bilan bog‘liq yangi xavf-xatarlarni ham yuzaga chiqarmoqda. Bu holat axborot resurslaridan foydalanish masalasini strategik darajaga olib chiqdi.

Ayni paytda axborotlashtirish jarayoni jiddiy muammolar manbai sifatida ham namoyon bo‘lmoqda. Axborotga egalik qilish, uni nazorat qilish va o‘z manfaatlari yo‘lida yo‘naltirishga bo‘lgan intilish axborot urushlari, shuningdek, onlayn va offlayn muhitda olib borilayotgan gibrid urushlarning vujudga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Ushbu jarayonlarda dezinformatsiya, manipulyativ xabarlar, yolg‘on narrativlar va psixologik ta’sir vositalari faol qo‘llanilib, auditoriya ongiga bosim o‘tkazilmoqda.

Natijada axborot makonida yuzaga kelayotgan bunday tahdidlar jamoatchilik fikrini salbiy tomonga o‘zgartirish, ijtimoiy beqarorlikni kuchaytirish hamda siyosiy qarorlar qabul qilish jarayoniga yashirin ta’sir ko‘rsatishga xizmat qilmoqda. Axborot endilikda faqat voqelikni aks ettiruvchi vosita emas, balki insoniyat ongini boshqarish, ijtimoiy xulq-atvorni shakllantirish va geosiyosiy manfaatlarni ilgari surish quroliga aylanib bormoqda. Shu sababli zamonaviy axborot

makonida yuzaga kelayotgan tahdidlarni aniqlash, ularning mexanizmlarini o‘rganish hamda axborot xavfsizligini ta’minlash masalalari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan chuqur tadqiq etishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Винокуров В.И. Сетевая дипломатия в борьбе против гибридных войн // Дипломатическая служба. 2016. № 1. С.19-24

2. Буксарин С.Н. “ Умная охрана или Карфаген должен быть разрушен”. URL: http://avkrasn.ru/article.

3. Герасимов В.В. Организация обороны Российской Федерации в условиях использования противником «традиционных» и «гибридных» методов ведения войны. М: Вестник Академии военных наук - 2016.

4. Р.Эрнест Дюпюи, Тревор Н. Дюпюи. Всемирная история войн (в 4-х тт.). Книга 4 (1925-1997). СПб., М., «Полигон-АСТ». 1998. С.35-36

5. Николайчук И.А. “О сущности гибридной войны в современной военно-политической ситуации”. Проблемы национальной стратегии, РИСИ, No3 (96), 2016.

6. Князева Л.Г. Гибридные войны XXI века: Материалы межвузовского круглого стола 29 января 2015 г. - М: ВУ, 2015.

7. Клименко С. Теория и практика ведения „Гибридных войн" (по взглядам НАТО) 2015 // Зарубежное военное обозрение. 2015. № 5. С.109-112.

8. Евгеньева Т.В. “Психология массового политического сознания и поведенческого менеджмента: метод исследования”. гид / Т.В. Евгеньева, А. Селезнева, А. Манойло. М: Известия, 2015. 71-с.

9. Герасимов В.В. Организация обороны Российской Федерации в условиях использования противником «традиционных» и «гибридных» методов ведения войны. М: Вестник Академии военных наук - 2016. 109с.

10. https://kun.uz//Mang’istaudagi//norozilik namoyishlariga Qozog’istonning boshqa shaharlari aholisi ham qo’shildi//?2u298gfg

Maxkamova Komila Toktamuratovna
International School of Finance and Technology Institute, Philology faculty, senior teacher
E-mail: maxkamova688@gmail.com

THE SIGNIFICANCE OF CHIASMUS AS A STYLISTIC DEVICE

Abstract. *Examining chiasmus in further detail, this essay explains how it functions in actual speech and writing-not merely as wordplay, but as something that alters meaning. The way words flip can influence what people see, feel, or recall rather than just adhering to shape or pattern. In both literature and speech, chiasmus - a rhetorical figure distinguished by the inversion of structure in parallel phrases-is a potent stylistic element. This article explores the significance of chiasmus, examining its historical context, application in various genres, and impact on meaning and memorability. By analyzing examples from classical and contemporary works, we highlight how chiasmus enhances rhetorical effectiveness, enriches thematic depth, and engages audiences.*

Key words: *stylistic devices, discourse analysis, pragmatic function, communicative intention, meaning construction, expressive syntax, textual pragmatics, context dependency, political discourse.*

XIAZMNING USLUBIY VOSITA SIFATIDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya*. Xiazmusga yaqinroq nazar tashlasak, bu asar haqiqiy nutq va yozishda qanday ishlashini ochib beradi - nafaqat so'z o'yini, balki ma'noni o'zgartiruvchi narsa sifatida. Faqat shakl yoki naqshga yopishib olish o'rniga, so'zlarni aylantirish usuli odamlar nimani sezishi, his qilishi yoki eslashi mumkin. Parallel iboralarda strukturaning inversiyasi bilan ajralib turadigan ritorik figura - Chiasmus adabiyot va nutqda kuchli stilistik vosita bo'lib xizmat qiladi. Ushbu maqola xiazmusning ahamiyatini o'rganadi, uning tarixiy kontekstini, turli janrlarda qo'llanilishini va ma'no va xotiradagi ta'sirini o'rganadi. Klassik va zamonaviy asarlardan misollarni tahlil qilib, biz chiasmus ritorik samaradorlikni oshirishi, tematik chuqurlikni boyitish va tomoshabinlarni jalb qilishini ta'kidlaymiz.*

Kalit so'zlar*: stilistik vositalar, nutq tahlili, pragmatik funktsiya, kommunikativ niyat, ma'no qurilishi, ekspressiv sintaksis, matn pragmatikasi, kontekstga bog'liqlik, siyosiy nutq.*

ЗНАЧЕНИЕ ХИАЗМА КАК СТИЛИСТИЧЕСКОГО ПРИЁМА

Аннотация. *В этой статье более подробно рассматривается хиазм, анализируется его работа в реальной речи и письме - не просто как игра слов, а как фактор, изменяющий смысл. Вместо того чтобы ограничиваться только формой или структурой, способ перестановки слов может влиять на то, что люди замечают, чувствуют или запоминают. Хиазм, риторическая фигура, характеризующаяся инверсией структуры в параллельных фразах, служит мощным стилистическим приемом в литературе и устной речи. В этой статье исследуется значение хиазма, рассматривается его исторический контекст, применение в различных жанрах и влияние на смысл и запоминаемость. Анализируя примеры из классических и современных произведений, мы показываем, как хиазм повышает риторическую эффективность, обогащает тематическую глубину и вовлекает аудиторию.*

Ключевые слова: *стилистические приемы, дискурсивный анализ, прагматическая функция, коммуникативное намерение, конструирование смысла, экспрессивный синтаксис, текстовая прагматика, контекстная зависимость, политический дискурс.*

Introduction. Even though there's a lot written about how chiasmus works in terms of language and style, we still haven't really organized its actual communication features in a good way.

A lot of studies look at how it's built, but they often miss why people actually use it in real life.You might notice this gap makes it harder to know why someone would pick chiasmus instead of something else when they're talking.

When we look at linguistics here in Uzbekistan, it's really important for us to tackle this problem. We need to focus on how language works in real life and in conversations, especially when we're thinking about stylistics.In today's language learning and analysis, where being able to communicate well is a big deal, figuring out how stylistic devices work in a practical language sense is becoming super important.

In rhetoric, chiasmus or, less commonly, chiasm (Latin term from Greek χίασμα chiasma, "crossing", from the Greek chiázō, "to shape like the letter X"), is a "reversal of grammatical structures in successive phrases or clauses - but no repetition of words". [1]

This piece is all about digging into how chiasmus works in language. We're going to look at what makes it tick, what it actually does when people use it, and how it changes what's being said in different situations.So, by looking at what different studies from around the world say, and also using ideas from how language actually works, this research aims to help us really get a better grip on chiasmus and how it helps us use language in a strong and meaningful way.

Methods and literature review. Homer, Aristotle, and Cicero are only a few of the well-known authors that have used chiasmus, which has its origins in classical literature [14:52]. Shakespeare is a classic example of the widespread use of chiasmus by Renaissance writers. Chiasmus is employed in Shakespeare's plays to highlight opposing viewpoints, as in "To be or not to be," which appears in Hamlet. Shakespeare also highlights the significance of love's stability and constancy in his sonnets with chiasmic phrases like "Love is not love / Which alters when it alteration finds" in Sonnet 116 [2:22].

Chiasmus witnessed a rebirth of popularity throughout the Romantic era in English literature. For instance, in William Wordsworth's "The World is Too Much With Us," chiasmus is used to emphasize the speaker's desire for a deeper connection with nature: "We have given our hearts away, a sordid boon!" [3:29].

The use of Chiasmus in contemporary literature has persisted. In The Great Gatsby, F. Scott Fitzgerald uses chiasmus to highlight how time is cyclical, as in "So we beat on, boats against the current, borne back ceaselessly into the past" [4: 75]. In the poetry "I Know Why the Caged Bird Sings," by Maya Angelou, chiasmus is employed to highlight the speaker's desire for freedom: "But a caged bird stands on the grave of dreams/his shadow shouts on a nightmare scream"[5].

A number of scholars have examined the use of chiasmus as a literary style device, and their research has helped us better comprehend the technique's potential and efficacy.

Welch J. W. investigated the literary and cultural settings of chiasmus. According to his research, chiasmus frequently represents cultural values and identity and has been used in a wide range of literary genres and historical periods [6].

The primary characteristics and particulars of using the instrument in English writing during the Renaissance were the topic of Harvey A. J.'s study "Chiasmus in English Renaissance literature: The rhetorical, philosophical, and theological significance of 'X' in Spenser, Donne, Herbert, and Browne." His primary findings indicate that the type of text being written has a significant impact on the establishment of chiasmus [7].

Chiasmus can give language a sense of musicality and rhythmic variety, which can be utilised to communicate complicated ideas in a clear and memorable fashion, according to research done by Farnsworth W. on the use of chiasmus in modernist literature [8].

According to common patterns in chiasmus research, it can be an effective technique for highlighting important literary ideas and expressing meaning. It is a useful approach for authors to experiment with and use because of its adaptability to many genres and eras as well as its capacity to provide symmetry, balance, and rhetorical tension.

An examination of a variety of English literary works from various genres and eras shows that chiasmus is a multifaceted tool, which can be used to create symmetry and balance in a text, as well as to emphasize key elements or ideas. It can also be employed to give a text a sense of

closure or resolve, or to evoke a sense of surprise or ambiguity. In the last sentence or paragraph of a work, authors can achieve symmetry and balance by reversing the sequence of words or phrases. This gives the reader a satisfactory ending. Texts like Jane Austen's Pride and Prejudice, where the novel's concluding sentence employs chiasmus to highlight its main ideas, are examples of this usage: "To be fond of dancing was a certain step towards falling in love"[9:37]. Here, the repetition and reversal of the phrase "falling in love" creates a sense of symmetry and closure, while also emphasizing the central theme of the novel.

The ability to employ chiasmus to convey sarcasm or ambiguity is another important discovery. Writers might emphasise the conflict between opposing forces or establish unexpected correlations or connections between concepts by flipping words or phrases. For instance, chiasmus is employed in William Shakespeare's Hamlet to evoke a sense of ambiguity and uncertainty regarding the intentions and motivations of the main character: "To be, or not to be, that is the question" [2:22]. The phrase "to be" is repeated and reversed, creating a sense of tension and conflict that reflects Hamlet's inner turmoil.

The following examples demonstrate how chiasmus can assist writers in engaging and challenging their readers as well as in communicating complicated concepts and subjects in a more memorable and effective way by establishing symmetry, balance, and surprise:

"Ask not what your country can do for you, ask what you can do for your country." [J.F. Kennedy]

Kennedy reverses the order of the components in this well-known chiasmus example to produce a statement that is both balanced and memorable. This technique not only gives the phrase symmetry, but it also makes the reader think about their own place in society, demonstrating the message's effectiveness in communication.

"Fair is foul, and foul is fair." [W.Shakespeare, Macbeth]

In this line from Macbeth, a sense of paradox and disorientation is created through chiasmus. By reversing the order of "fair" and "foul," the writer suggests that things are not always as they seem. and that moral distinctions may be blurred or inverted.

"We shape our buildings, and afterward our buildings shape us." [W.Churchill]

Here, Churchill makes a strong case for the influence of architecture on society by employing chiasmus. By flipping the phrases "we shape" and "our buildings shape us," he emphasises how people and their built environment are mutually dependent [10:34].

"Never let a fool kiss you or a kiss fool you." [M.Grothe]

Grothe used chiasmus to craft a clever and memorable phrase in this light-hearted quotation. By flipping the phrases "fool kiss you" and "kiss fool you," he implies that one should exercise caution when it comes to romance and love.

The examination of the examples above demonstrates that there are a number of distinctive characteristics that define the usage of chiasmus as a stylistic element in English literature and colloquial speech. First of all, it is frequently employed to give a statement or phrase symmetry and balance. Writers can create a visually appealing and memorable structure that captures the reader's attention by flipping the order of sentences or phrases. Second, to highlight paradoxes or contradictions, two contradictory concepts or pictures are juxtaposed in a way that creates a sense of tension or surprise.

When we look at chiasmus, it's not just about flipping words around. We gotta understand it as a choice someone makes to say something specific; it's all about their communicative intent.When people actually talk, chiasmus helps them switch things around to show a contrast, share an opinion, or point out how things go back and forth.You see, people use chiasmus when they want to shake up how we think about ideas. It helps them nudge you toward how they want you to see things.

Results and discussion. I've been thinking a lot about chiasmus, and one thing that really stands out is how good it is at persuading people.When you use inverted parallelism in writing, it can make things seem really balanced and unavoidable, even if the idea you're presenting isn't totally solid.When things seem fair, people are more open to them because it just feels right.When

looking at political talk, research tells us that if something sounds balanced, people are more likely to believe it and see it as coming from someone in charge.When we look at how language actually works, we can see that chiasmus has some potential drawbacks.If you use this too much or in the wrong spots, it can sound fake or just make things less clear.If folks don't catch on to what's supposed to be different or flipped around, then the whole point gets lost, and it's just not as clear what we're trying to say.What this really shows is how crucial it is to have good judgment when picking out ways to express yourself, like figures of speech or writing styles.

Syntax, semantics, and pragmatics are some of the language elements that affect how chiasmus is formed in English writings.

A writer must employ a particular syntactic pattern of reversing the order of words or sentences in order to create the illusion of chiasmus, hence syntax is essential to its development. This structure can create a well-balanced, memorable statement that highlights its main idea [11:28].

By employing antonyms or contrasting concepts, chiasmus can be employed to make difficult concepts easier to understand. For example, the chiasmus "You forget what you want to remember, and you remember what you want to forget" [12:76] from Cormac McCarthy's novel The Road uses antonyms to create a paradoxical statement that highlights the emotional complexity of the characters' experiences, which shows the role of semantic patterns in speech.

Chiasmus formation also benefits from pragmatics, the study of language use in context. By employing language in a way that questions or undermines established power structures, chiasmus can be utilised to communicate social or cultural messages. In John F. Kennedy's inauguration address, for instance, the chiasmus "Let us never negotiate out of fear, but let us never fear to negotiate" challenges conventional ideas of power and diplomacy through language, giving the statement a pragmatic consequence [14:54].

Register is another aspect of language that might affect how chiasmus is formed. This is because, although chiasmus can be employed in both formal and casual settings, formal settings are where it is most frequently used.

Chiasmus helps tie ideas together in a natural, flowing way, linking concepts by mirroring them.This all gels together, not just in a fancy way, but because it really helps us link up different parts of the writing.You might notice this kind of togetherness really helps build deep meanings in longer talks, especially in philosophy and literature.So, basically, after looking at everything, the big takeaway is that chiasmus works like a tool in language that brings together how things are said, what they mean, and how they're actually used.How well it works really comes down to what you're trying to say, if it makes sense in the situation, and if the people listening get it.If you look at chiasmus as a practical tool, not just something fancy, it's easier to see why it keeps showing up in all sorts of conversations and how it really makes a point.So, like, how we figure things out, you know? It's all about finding the right ways to ask questions and get answers.We looked at chiasmus as a stylistic device in writing, you know, how it works in real language.Because chiasmus is so complex, we looked at it from a few different angles theory, analysis, and how people actually use language. This helped us make sure our methods were sound and that we understood things really well.It's pretty clear that looking at it this way lets us see chiasmus not just as a pattern in writing, but also as something people actually use when they're talking or writing.

We went through a bunch of important papers from around the world that talk about language to get our information.We looked through a bunch of studies, the kind that get checked by other experts, in areas like how we use language in real life, different writing styles, persuasive speaking, and analyzing conversations. Our main aim was to figure out what the common ideas were and what problems people still haven't figured out when it comes to chiasmus.This way, we could bring together different academic ideas and build a strong theory for our study.I looked at how chiasmus works in various writings like books, political speeches, and news articles by using discourse analysis.Looking at real examples, we could see how language was used to do things like put stress on certain points, share opinions, convince someone, or even save face.If you check this out, you'll see how these chiastic constructions actually work in a real situation, not just as some grammar rule on its own.

We also compared chiastic constructions to other stylistic devices that use parallelism and inversion to see how they stacked up.This way of looking at things really cleared up what makes chiasmus unique in how we use language, and it showed why people choose it when they're talking or writing instead of other ways to express themselves.Comparing things like that really helps us get a clearer picture of why someone chose a particular style.We also looked at functional-pragmatic analysis to figure out what the speaker was trying to say and how the audience understood it.We looked at how chiastic structures fit with what folks were trying to say, and how these structures helped people figure things out.It's pretty clear that this approach is key to finding the real-world impacts that aren't just on the surface.Here's what we found and what we think it all means.

What we found in the study is that chiasmus really works as a style trick, but its success depends on why someone's using it, if it fits the situation, and how the audience gets it.Looking at scholarly writings and how people talk, it's clear chiasmus isn't just about making something sound pretty. Think of it more as a strategic linguistic choice. It’s actually used to really shape what's being said and help us understand the true meaning.You'll notice that when something is put together upside down like this, it really helps you see how different parts are connected, which you might miss if it were just laid out straight.We found that chiasmus really makes a point stand out.When people flip around how they say things or what they mean, it's often to really make a contrast stand out, show a back-and-forth, or explain why something happened. It’s a neat trick for getting ideas across clearly and quickly.Research into how we process language shows that using chiasmus really helps people remember what you're saying and makes your argument feel stronger like, a good 20% stronger. This is especially true when you're trying to convince someone or when you're making a judgment about something.That's why you hear it so often in political speeches, clever sayings, and just everyday public discussions.

What ends up happening, as we found out, is that context plays a big part in how things are actually interpreted.Same chiasm, different meanings it all depends on what kind of story it is, who's reading it, and where they come from.When you're looking at literature, chiasmus really adds to the theme and makes things sound nice. But in politics or media, it's more about convincing people and making their arguments seem legitimate.This really shows that what words mean in a practical sense comes from how they mix with the situation, not just from how they're put together.

What we found is that chiasmus helps make a conversation flow better. It just organizes things in a way that feels balanced and makes sense.This organization helps people figure things out by connecting different parts of a text to build a fuller understanding.You can tell that this consistency isn't just about how things are put together; it's also practical because it helps steer the audience to understand things in a certain way.The talk also points out some problems when you try to use chiasmus.Using too much of this might make your writing sound fake or unclear, especially if your readers aren't good at figuring out what you really mean.You know, when you use chiasmus, it really shows that you get how important it is to know who you're talking to and what's normal for them in conversation.

Looking at it from a language perspective, what we found is that chiasmus really brings together grammar, meaning, and how people use language in everyday chat.The good thing about it is that it can pack a lot of meaning into a small space, make things easier to remember, and even gently guide how you think about something.You might notice that these features make chiasmus a powerful, but still context-dependent, way to communicate.As we wrap things up here, it's clear the ideas we discussed have a lot of potential.This study shows chiasmus is more than just a fancy sentence structure or a rhetorical trick. It's actually a stylistic device that's driven by how we use language in real life, and it's really important for building meaning and making communication work well.Our analysis shows that chiasmus has its persuasive power because it rearranges info, brings out opposing evaluations, and helps the audience understand things better by using that inverted, symmetrical style.When you look at it this way, it just makes sense why chiasmus keeps popping up in all sorts of communication.

Conclusion. In conclusion, many authors of English literature have employed chiasmus, a special and potent rhetorical device, to increase the effect of their works. As we've seen, a range of linguistic techniques and elements, such as syntax, semantics, register, and style, affect how chiasmus is formed in English literature. We have seen how chiasmus may be employed to produce memorable and powerful statements that captivate and challenge readers through a close examination of examples in English literature. Despite being a useful and efficient tool, chiasmus should only be used sparingly and purposefully. When utilising chiasmus, authors should carefully evaluate the tone and context of their work. They should also refrain from using this tactic excessively to the point of distraction. Writers can produce literary masterpieces that are both visually beautiful and intellectually engaging by carefully and skilfully utilising chiasmus. All things considered, the study of chiasmus in English literature gives us important knowledge about how authors employ language to arouse feelings and transmit meaning.

The study also emphasises that effective use of chiasmus requires a certain amount of common sense, or a pragmatic ability.When something is used incorrectly or in excess, it might cause confusion and seem artificial, which ruins the message you're attempting to convey. This really shows how important it is to get how language works in real-world situations, both when you're looking at different writing styles and when you're teaching people to speak or write. As a researcher here in the Republic of Uzbekistan, I think this study really helps build up our functional and discourse-oriented ways of looking at stylistics.This article aims to fill some gaps in theory by bringing together ideas from around the world with pragmalinguistic theory, which should give us a more complete way to look at stylistic techniques.

References.

1. Corbett and Connors, 1999. p. 58-59, 74
2. Shakespeare W. Hamlet: The Texts of 1603 and 1623: Third Series. Bloomsbury Publishing. 2014.
3. Dubremetz M., Nivre J. Rhetorical figure detection: The case of chiasmus //Proceedings of the Fourth Workshop on Computational Linguistics for Literature.2015.-C. 23-31.
4. Fitzgerald F. S. The Great Gatsby (1925).na, 1991.
5. Angelou M. I know why the caged bird sings. Bantam, 1997.
6. Welch J. W. Chiasmus in antiquity. Wipf and Stock Publishers, 2020.
7. Harvey A. J. Chiasmus in English Renaissance literature: The rhetorical, philosophical, and the theological significance of 'X'in Spenser, Donne, Herbert, and Browne. The University of North Carolina at Chapel Hill, 2001.
8. Khairzhanova A. et al. Linguistic status of chiasmus in syntactic science //Dilemas Contemporáneos: Educación, Política y Valores.-2020. T. 7. - № 2.
9. Austen J. Pride and prejudice. Broadview Press, 2001.
10. Puputti H. A Rhetorical analysis of Winston Churchill's speech: We Shall Fight on the Beaches. 2019.
11. McCarthy C. The road. Pan Macmillan, 2019.
12. Bekmurodova Z.E. Хиазм стилистик фигура сифатида // ЎзМУ хабарлари. – Тошкент, 2021. – № 1/2. – Б. 180–183.
13. Sobirova D.A. Қўшма гаплар орқали ифодаланган стилемалар (антитеза ва хиазм)нинг структурал-семантик турлари // ЎзМУ хабарлари. – Тошкент, 2021. – № 1/4/1. – Б. 260–261.
14. Karimova Shakhnozakhon Karimovna. Peculiarities of Parallel Construction and Chiasmus in English and Uzbek Poetry // International Journal on Integrated Education (IJIE). – 2024. – Vol. 7, Issue 4. – P. 163–166.

Parpiyeva Shahnoza Abdullaevna
Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti,
Amaliy psixologiyakafedrasi katta o'qituvchisi

XULQI OG‘ISHGAN O‘SMIRLAR IJTIMOIYLASHUVIGA PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARINING TA’SIRI

Annotatsiya. *Maqolada xulqi og‘ishgan (deviant/delinkvent) o‘smirlar ijtimoiylashuv jarayonida psixologik himoya mexanizmlarining (ego-defense) o‘rni va ta’sir yo‘nalishlari ilmiy-nazariy asosda tahlil qilinadi. Himoya mexanizmlari ichki konflikt, xavotir va stressni pasaytirishga xizmat qilsa-da, ularning ustun tipi (yetuk–nevrotik–yetilmagan) ijtimoiy moslashuv, mas’uliyatni qabul qilish, axloqiy me’yorlarni o‘zlashtirish, agressiyani boshqarish va tengdoshlar bilan munosabatlar sifatini belgilovchi omillardan biri hisoblanadi. Xorijiy tadqiqotlarda o‘smirlarda yetilmagan himoyalarning (inkor, proeksiya, acting out, regressiya) muammoli xulq va delinkventlik bilan bog‘liqligi, yetuk himoyalar (sublimatsiya, yumor, altruizm, supressiya) esa adaptiv koping va ijtimoiy kompetentlikni qo‘llab-quvvatlashi ko‘rsatilgan [3–6, 8]. Maqolada ijtimoiylashuvni ekologiyaviy tizimlar (oila–maktab–tengdosh–jamoa) kesimida tushuntiruvchi yondashuv, hamda amaliyot uchun empirik tadqiqot dizayni (tanlanma, metodikalar, tahlil rejasi) taklif etiladi. Xulosa qismida profilaktika va psixokorreksiya ishlarini tashkil etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berilgan; ular O‘zbekistonda voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid normativ-huquqiy hujjatlar kontekstida asoslanadi [10–13].*

Kalit so‘zlar: *o‘smir, deviant xulq, delinkventlik, ijtimoiylashuv, psixologik himoya mexanizmlari, koping, oila–maktab–tengdosh muhiti, profilaktika, psixokorreksiya.*

ВЛИЯНИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ЗАЩИТНЫХ МЕХАНИЗМОВ НА СОЦИАЛИЗАЦИЮ ДЕВИАНТНЫХ ПОДРОСТКОВ

Аннотация. *В статье представлен расширенный научно-теоретический анализ роли психологических защит (ego-defenses) в социализации подростков с девиантным/делинквентным поведением. Показано, что защитные механизмы выступают регуляторами переживания стресса и внутреннего конфликта, влияя на интерпретацию социальных требований, принятие ответственности и способы самопредставления в группе. Иерархические модели защит (зрелые–невротические–незрелые) позволяют рассматривать защитный профиль как фактор риска или ресурс социализации: преобладание незрелых защит (отрицание, проекция, acting out, регрессия) связано с проблемным поведением и нарушением норм, тогда как зрелые защиты (сублимация, юмор, альтруизм, подавление) соотносятся с лучшей адаптацией и конструктивным совладанием [3–6, 8]. Включены положения эколого-системного подхода к социализации (семья, школа, сверстники, сообщество) и теорий социального научения, идентичности и социального контроля [14–18]. Предложена модель практического исследования с использованием стандартизированных методик (в т.ч. DSQ) и даются рекомендации по профилактике и психокоррекции с опорой на национальные нормативные акты Республики Узбекистан [10–13].*

Ключевые слова*: подросток, девиантное поведение, делинквентность, социализация, защитные механизмы, копинг, семья и школа, влияние сверстников, профилактика, психокоррекция.*

THE IMPACT OF PSYCHOLOGICAL DEFENSE MECHANISMS ON THE SOCIALIZATION OF DEVIANT ADOLESCENTS

Abstract. *This paper offers an expanded theoretical review of how ego defense mechanisms shape the socialization of adolescents with deviant/delinquent behavior. Defense mechanisms reg-*

ulate distress and inner conflict, but their predominant level (mature–neurotic–immature) may function either as a protective resource or as a risk factor for maladaptive trajectories. Empirical work suggests that immature defenses (e.g., denial, projection, acting out, regression) tend to be associated with higher levels of problem behavior, whereas mature defenses (e.g., sublimation, humor, altruism, suppression) support adaptive coping and social competence [3–6, 8]. The review integrates an ecological-systems view of socialization (family–school–peers–community) and key developmental/criminological frameworks (social learning, identity development, social control) [14–18]. A practical research model is proposed, including sampling strategy, recommended assessment instruments (including DSQ), and an analysis plan. Finally, prevention and intervention recommendations are formulated in alignment with Uzbekistan's legal framework on prevention of juvenile delinquency and child neglect [10–13].

Key words: *adolescence, deviant behavior, delinquency, socialization, defense mechanisms, coping, peer influence, prevention, intervention.*

Dolzarbligi. O‘smirlik davri shaxs rivojlanishining eng “burilishli” bosqichlaridan biri bo‘lib, bu davrda identiklik (o‘zini anglash), qoidalarga munosabat, tengdoshlar ta’siri va emotsional regulyatsiya tizimi tez o‘zgaradi [16]. Shu sababli aynan o‘smirlik davrida deviant xulq (agressiya, qoidabuzarlik, maktabdan qochish, modda iste’moli, mayda huquqbuzarliklar) xavfi ortadi va bu ijtimoiylashuv traektoriyasini buzadi. Xulqi og‘ishgan o‘smirlarning ijtimoiylashuvida “faqat tashqi nazorat” yetarli emas: ichki psixologik regulyatorlar (hissiyotni boshqarish, konfliktni hal qilish, aybdorlik/mas’uliyat, ijtimoiy rollarni qabul qilish) hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Psixologik himoya mexanizmlari ana shu ichki regulyatsiyaning markaziy komponentlaridan biri hisoblanadi. Ular shaxsning xavotirini pasaytirishi mumkin, biroq yetilmagan himoyalar reallikni inkor etish, aybni boshqalarga ko‘chirish, impulsiv “acting out” orqali zo‘riqishni chiqarishga moyillikni kuchaytiradi; bu esa ijtimoiy me’yorlarning o‘zlashishini sekinlashtiradi va delinkvent xulq xavfini oshiradi [3–6, 8]. Shu bilan birga, yetuk himoyalar (sublimatsiya, yumor, altruizm, supressiya) stressni konstruktiv qayta ishlashni ta’minlab, ijtimoiy kompetentlik va ijobiy rollar o‘zlashuviga ko‘maklashadi [3, 6, 8].

O‘zbekistonda voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi masalalari huquqiy jihatdan alohida tartibga solingan bo‘lib, bu yo‘nalishdagi qonunlar profilaktika tizimini (oila, ta’lim muassasasi, mahalla, ichki ishlar organlari va boshqa institutlar) integratsiyalashgan tarzda ishlashga undaydi [10–13]. 2025 yil 6 fevralda qabul qilingan O‘RQ-1024 son qonun profilaktika tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan o‘zgarishlarni belgilaydi [13]. Demak, deviant o‘smirlar bilan ishlashda psixologik diagnostika va intervensiyalarni ilmiy asosda kuchaytirish, ayniqsa, himoya mexanizmlari profilini hisobga olish dolzarb ilmiy-amaliy vazifadir.

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda ham deviant/delinkvent o‘smirlar masalasi ko‘p omilli modellarda talqin qilinadi: tengdoshlarning antisotsial ta’siri va “deviant peer affiliation” ko‘plab tadqiqotlarda xavf omillaridan biri sifatida qayd etiladi [9]. Ijtimoiylashuvning ijtimoiy-ekologik modeli (oila–maktab–tengdosh–jamoa) esa profilaktikada kompleks yondashuv zarurligini asoslaydi [15]. Ushbu maqola aynan shu nuqtani - ichki psixologik mexanizm (himoyalar) va tashqi ijtimoiy muhit o‘zaro ta’sirini - nazariy jihatdan mustahkamlashga qaratilgan.

Ilmiy-nazariy tahlil. Deviant xulq - jamiyatda qabul qilingan ijtimoiy-axloqiy va huquqiy me’yorlardan og‘ishgan xatti-harakatlar majmuasidir. Delinkvent xulq esa qonunchilikka zid xatti-harakatlarga yaqin bo‘lgan (yoki ularning ayrim shakllarini qamrab oluvchi) og‘ishlar bilan xarakterlanadi. Ijtimoiylashuv esa shaxsning ijtimoiy tajriba, qadriyatlar, me’yorlar va rollarni o‘zlashtirishi, turli ijtimoiy tizimlar (oila, maktab, tengdoshlar, jamoa) bilan o‘zaro munosabatlar orqali shaxsiy va ijtimoiy identiklikni shakllantirish jarayonidir.

Ekologo-sistemli yondashuvga ko‘ra, o‘smir rivojlanishi va ijtimoiylashuvi bir vaqtning o‘zida bir nechta tizimlar ta’sirida kechadi: mikrotizim (oila, sinf, yaqin tengdoshlar), mezotizim (oila–maktab aloqalari), ekzotizim (ota-ona ish joyi, mahalla institutlari), makrotizim (madaniyat,

qadriyatlar, huquqiy me'yorlar) va xronotizim (hayot voqealari dinamikasi) [15]. Deviant xulq ko'pincha mikrotizimdagi disfunksiya (oila nizolari, emotsional bee'tiborlik), maktab muhitidagi stigma va tengdoshlar guruhidagi salbiy normalarning birlashuvi natijasida mustahkamlanadi [9, 15].

Psixologik himoya mexanizmlari (ego-defense) - shaxsning ichki konflikt, xavotir va stressni pasaytirishga qaratilgan, ko'pincha ongsiz tarzda ishlaydigan psixik regulyatorlardir. Klassik an'anada (A. Freud) himoyalar "Men" faoliyatining muhofaza funksiyasi sifatida talqin qilinadi; zamonaviy klinik va tadqiqot yo'nalishlarida esa himoyalarning rivojlanish bosqichlari va ularning adaptiv/dezadaptiv oqibatlari ta'kidlanadi [1–3].

Ommaviy axborot vositalari neologizmlarning keng tarqalishi va ijtimoiy qabul qilinishida muhim vositachi vazifasini bajaradi. Mediamatnlarda qo‘llanilgan yangi so‘zlar tezda umumiy nutqiy amaliyotga kirib boradi. K. Brants va K. Voltmer mediakommunikatsiyani siyosiy va ijtimoiy diskurs shakllanishining asosiy maydoni sifatida tavsiflaydi [4, 167]. Rus tilshunosligida internet muloqoti va mediadiskurs xususiyatlari I.N. Rozina [2, 282], Ye.I. Goroshko [1, 381], Y.V. Shurina [3, 86] ishlarida yoritilgan. Ushbu tadqiqotlar mediamuhit neologizmlarning ekspressiv va pragmatik qirralarini kuchaytirishini ko‘rsatadi.

Muhokama. Nemis va o‘zbek tillari materiali qiyosi neologizmlarning tarqalishida ikki turli model mavjudligini namoyon qiladi. Nemis tilida neologizmlar, asosan, texnik va ilmiy diskurslarda paydo bo‘lib, semantik barqarorlikni saqlagan holda mediavositalar orqali ommalashadi. Masalan, Künstliche Intelligenz, digitale Transformation, Big Data kabi atamalar nemis tilida deyarli o‘zgarishsiz integratsiyalanadi. O‘zbek tilida esa selfi, xeshteg, mem kabi neologizmlar ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalib, ekspressiv va pragmatik konnotatsiyaga ega bo‘ladi. Bu holat milliy til kontekstida neologizmlarning ijtimoiy qabul qilinishi va kommunikativ samaradorligi ustuvor ekanini ko‘rsatadi.

Raqamli muhitda paydo bo‘ladigan neologizmlar nomlash vazifasini bajarish bilan birga aniq pragmatik maqsadlarga xizmat qiladi. Internet kommunikatsiyasida tezkorlik, emotsional ta’sir va diqqatni jalb etish muhim bo‘lgani sababli, yangi leksik birliklar, ko‘p hollarda qisqalik, ekspressivlik va semantik qamrov bilan xarakterlanadi. D. Kristal internetda tilning qo‘llanishini “ikkilamchi og‘zakilik” shakli sifatida baholab, undagi leksik innovatsiyalar nutqiy samaradorlikka yo‘naltirilganini ta’kidlaydi [7, 128-130]. Shu nuqtayi nazardan, raqamli muhitdagi neologizmlar kommunikativ vaziyatga mos ravishda ma’noni tez yetkazish, baholash yoki ta’sir o‘tkazish funksiyalarini bajaradi.

Nemis tilida onlayn mediada qo‘llanadigan neologizmlar, ko‘pincha diskursiv funksiyaga ega bo‘lib, jamoatchilik fikrini shakllantirishga xizmat qiladi. Masalan, Infodemie, Shitstorm, Cancel Culture kabi birliklar ommaviy axborot vositalari orqali ijtimoiy voqelikka baho berish vositasi sifatida barqarorlashadi. O‘zbek tilida esa raqamli muhitda paydo bo‘lgan neologizmlar, ko‘pincha, emotsional va ekspressiv konnotatsiya bilan qo‘llanib, nutqiy ta’sir kuchini oshirishga qaratilgan bo‘ladi.

Neologizmlarning paydo bo‘lishi va barqarorlashuvi til jamoasining ichki ijtimoiy tuzilishi bilan ham uzviy bog‘liq. Sotsiolingvistik tadqiqotlarda yangi leksik birliklarning, avvalo muayyan ijtimoiy guruhlar doirasida qo‘llanishi, keyin esa keng jamoatchilik nutqiga o‘tishi ta’kidlanadi. Ayniqsa, yoshlar, raqamli muhitda faol ishtirok etuvchilar va kasbiy guruhlar neologizmlarning asosiy tashuvchilari hisoblanadi.

O‘zbek tili misolida ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilari, blogerlar va media inflyuyenserlar yangi leksik birliklarni ommalashtiruvchi asosiy qatlam sifatida namoyon bo‘ladi. Nemis tilida esa bu vazifani jurnalistlar, akademik muhit va ekspert jamoalari bajaradi. Bu farq neologizmlarning semantik barqarorligi va qo‘llanish sohasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Raqamli muhitda neologizmlar, ko‘pincha bir ma’noli holda paydo bo‘lsa-da, qo‘llanish jarayonida ularning semantik ko‘lami kengayadi yoki o‘zgaradi. Internet diskursida kontekstning tez almashinuvi yangi ma’nolarning shakllanishiga olib keladi. Ye.I.Goroshko internet kommunikatsiyasini “semantik eksperimentlar maydoni” sifatida ta’riflaydi [1, 380]. Shu sababli, onlayn muhitda neologizmlar tez-tez metaforalashuv, ironiya va baholovchi qayta talqinga uchraydi.

Nemis tilida raqamli muhitda paydo bo‘lgan atamalar, odatda, terminologik chegaradan chiqmaydi. O‘zbek tilida esa semantik harakatchanlik yuqori bo‘lib, bir neologizm turli kontekstlarda turlicha pragmatik ma’no kasb etadi. Bu holat milliy nutqiy an’analar va kommunikativ madaniyat bilan bog‘liq.

So‘nggi o‘n yilliklarda internet tilshunosligi neologizmlarni tadqiq etishda mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida shakllandi. Bu yo‘nalishda leksik innovatsiyalar mediadiskurs, virtual muloqot va raqamli identifikatsiya nuqtayi nazaridan o‘rganiladi. I.N. Rozina internet muloqotini tilning ijodiy imkoniyatlari faol namoyon bo‘ladigan muhit sifatida baholaydi [2, 160]. Y.V. Shurina internet diskursida yangi so‘zlarning vazifaviy ko‘pqirraliligiga alohida e’tibor qaratadi [3, 86].

Nemis internet tilshunosligida onlayn neologizmlar korpus ma’lumotlari asosida o‘rganiladi, natijada ularning tarqalish dinamikasini aniqlash imkoniyati tug‘iladi. O‘zbek tilshunosligida esa bu yo‘nalish hali shakllanish bosqichida bo‘lib, raqamli muhitdagi leksik innovatsiyalar maxsus tadqiqot obyektiga aylanmoqda.

Global axborot makonida neologizmlarning barqarorlashuvi qator omillar bilan bog‘liq: qo‘llanish chastotasi, institutsional qo‘llab-quvvatlash, mediadagi takroriylik va til jamoasi tomonidan ijtimoiy qabul qilinish. F. Grin til siyosati va medianing til tizimidagi o‘zgarishlarga ta’sirini tahlil qilib, ommaviy axborot vositalari yangi leksik birliklarning meyorlashuvida muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydi [8].

Nemis tilida bu jarayon, asosan rasmiy va institutsional kanallar orqali amalga oshsa, o‘zbek tilida mediavositalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali tabiiy ravishda kechadi. Bu holat neologizmlarning milliy til tizimidagi o‘rni va qo‘llanish xususiyatlarini belgilaydi.

Raqamli muhitda shakllanayotgan neologizmlar semantik jihatdan juda harakatchan bo‘lishi bilan ajralib turadi. An’anaviy leksik tizimda yangi so‘z ma’nosi, odatda, muayyan konsept bilan barqaror bog‘lansa, internet diskursida neologizm ma’nosi kontekstga qarab tez o‘zgarish xususiyatiga ega. Bu holat raqamli kommunikatsiyaning interfaolligi, tezkorligi va ko‘pkanalliligi bilan izohlanadi. D. Kristal internetda tilning qo‘llanishini “semantik sig‘im va kontekstual moslashuv muhim bo‘lgan muhit” sifatida tavsiflaydi [7, 188].

Semantik evolyutsiya, avvalo, neologizmning qo‘llanish doirasi kengayishi orqali namoyon bo‘ladi. Masalan, nemis tilida virtuell atamasi avval texnik ma’noda qo‘llanilgan bo‘lsa, raqamli muhitda u ijtimoiy munosabatlar (virtuelle Gemeinschaft, virtuelle Identität) kontekstida ham faol ishlatila boshladi. O‘zbek tilida ham virtual so‘zi axborot texnologiyalari doirasidan chiqib,

ijtimoiy hayot va muloqot shakllarini ifoda etuvchi umumiy leksemaga aylanmoqda. Bu holat neologizmlarning ma'no kengayishi global raqamli tajriba bilan bog'liq ekanini ko'rsatadi.

Raqamli muhitda semantik o'zgarishning yana bir muhim turi metaforalashuvdir. Internet kommunikatsiyasida ko'plab neologizmlar real dunyodagi tushunchalar asosida metaforik usul bilan shakllanadi. Masalan, nemis tilida Datenfluss, Informationslawine kabi birikmalar raqamli axborot oqimini tabiiy hodisalar orqali konseptuallashtiradi. O'zbek tilida ham axborot oqimi, ma'lumot to'foni kabi birikmalar shunga o'xshash kognitiv mexanizmga tayanadi. Bu holat Lakoff va Jonson tomonidan ishlab chiqilgan konseptual metafora nazariyasi bilan uyg'un holda izohlanadi [11].

Internet diskursida neologizm ma'nosi, ko'pincha ironiya, yumor va baho munosabati bilan boyiydi. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda paydo bo'ladigan leksik innovatsiyalar neytral ma'nodan chiqib, pragmatik va ekspressiv ma'no kasb etadi. Bu xususiyat o'zbek tilida memlar, xeshteglar va onlayn jargonlar orqali yaqqol namoyon bo'ladi.

Nemis tilida raqamli muhitda paydo bo'lgan neologizmlarning semantik barqarorligi nisbatan yuqori bo'lib, bu holat tilning standartlashgan mediadiskurs an'analari bilan bog'liq. Masalan, Fake News atamasi nemis mediasida aniq ijtimoiy-siyosiy tushuncha sifatida mustahkamlangan. O'zbek tilida esa bu atama turli kontekstlarda axborot tanqidi, ironiya yoki umumiy baholash vositasi sifatida ishlatiladi. Bu farq semantik evolyutsiyaning milliy nutqiy madaniyat bilan bog'liq ekanini ko'rsatadi.

Semantik o'zgarishning yana bir muhim jihati – neologizmlarning qayta funksionallashuvidir. Raqamli muhitda ba'zi leksik birliklar avval nominativ vazifani bajarsa, keyinchalik ijtimoiy maqom, muayyan guruhga mansublik yoki mafkuraviy munosabatni ifoda etuvchi belgiga aylanadi. Sotsiolingvistik tadqiqotlarda bunday holat "semantik indeksatsiya" tushunchasi bilan ifodalanadi [12, 23]. Nemis va o'zbek tillari misolida raqamli muhit neologizmlarning aynan shu xususiyatini kuchaytiradi.

Shu tariqa, raqamli muhitda neologizmlarning semantik evolyutsiyasi ko'pqirrali jarayon bo'lib, ma'no kengayishi, metaforalashuv, pragmatik ma'no va ijtimoiy indekslashuv orqali amalga oshadi. Nemis tilida bu jarayon semantik barqarorlikka intilish bilan xarakterlansa, o'zbek tilida dinamik va ekspressiv yo'nalish ustuvorlik qiladi. Bu holat raqamli kommunikatsiya sharoitida milliy tillar qanday yo'l bilan yangilanishini ochib beradi.

Raqamli kommunikatsiya sharoitida neologizmlarning tarqalishi bir xil va izchil jarayon sifatida kechmaydi. Yangi leksik birliklarning faol qo'llanishi, avvalo, muayyan ijtimoiy guruhlar bilan bog'liq bo'lib, bu guruhlar neologizmlarning "tashuvchisi" sifatida namoyon bo'ladi. Sotsiolingvistik nuqtayi nazardan qaralganda, internet muhiti an'anaviy nutqiy jamoalardan farqli ravishda yosh, kasbiy, madaniy va mafkuraviy belgilar asosida shakllangan dinamik guruhlarni vujudga keltiradi. Aynan shu guruhlar doirasida neologizmlar faol qo'llanish kasb etadi va keyinchalik keng auditoriyaga tarqaladi.

Yoshlar diskursi raqamli muhitda neologizmlarning eng samarali tarqalish maydoni hisoblanadi. Yoshlar nutqidagi leksik innovatsiyalar, ko'pincha o'zini alohida ajratib ko'rsatish, guruhga mansublikni belgilash va an'anaviy til meyorlariga nisbatan masofa saqlash vazifasini bajaradi. Nemis tilida cringe, lost sein, Ehrenmann kabi birliklar, dastlab yoshlar jargoni doirasida qo'llanib, keyinchalik ommaviy mediada ham faol ishlatila boshladi. O'zbek tilida ham krinj, xayp, trend kabi neologizmlar, aynan yoshlar nutqi orqali keng tarqalmoqda.

Kasbiy guruhlar ham raqamli muhitda neologizmlarning shakllanishi va mustahkamlanishida muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, IT, marketing, media va ta'lim sohalarida paydo bo'layotgan leksik innovatsiyalar tezda umumiy internet diskursiga kirib bormoqda. Nemis tilida Homeoffice, New Work, Digital Detox kabi birliklar avval kasbiy muhitda faol qo'llanib, keyin ijtimoiy-ma'naviy tushunchalar sifatida kengaydi. O'zbek tilida masofaviy ish, onlayn ta'lim, raqamli ko'nikma kabi birikmalar shunga o'xshash yo'l bilan ommalashdi.

Ijtimoiy tarmoqlar neologizmlarning tarqalish sur'atini sezilarli darajada tezlashtiradi. Xeshteg, mem va qisqa formatli kontent leksik birliklarni tezda standartlashmagan holda ommalashtirish imkonini beradi. Bu jarayonda neologizmning denotativ ma'nosidan ko'ra, uning

pragmatik ta’siri va emotsiya uyg‘otish qobiliyati ustuvor bo‘ladi. Nemis tilida Shitstorm atamasining ijtimoiy tarmoqlarda ommalashuvi bunga misol bo‘la oladi. O‘zbek internet muhitida esa baho va kinoya munosabatini shakllantiruvchi neologizmlar, ayniqsa tez tarqalmoqda.

Raqamli muhitda neologizmlarning tarqalishida inflyuyenserlar va media shaxslar alohida rol o‘ynaydi. Ularning nutqiy amaliyoti muayyan leksik birliklarni modaga aylantiradi va ularni keng jamoatchilik ongiga singdiradi. Sotsiolingvistikada bu holat “nufuzli nutq modeli” sifatida izohlanadi. Nemis mediamakonida jurnalist va blogerlar tomonidan qo‘llanilayotgan neologizmlar qisqa vaqt ichida adabiy media tiliga kirib boradi. O‘zbek jamiyatida ham blogosfera va Telegram kanallari ushbu vazifani bajarmoqda.

Shu bilan birga, har qanday neologizm ham barcha ijtimoiy guruhlar tomonidan qabul qilinmaydi. Ayrim leksik innovatsiyalar ma’lum guruh doirasida qolib ketadi yoki vaqt o‘tishi bilan passivlashadi. Bu holat til jamoasidagi qadriyat, meyoriy tasavvur va madaniy filtrlar bilan bog‘liq. Nemis tilida ayrim yoshlar jargoni elementlarining umumiy adabiy tilga kirmasligi, o‘zbek tilida esa ba’zi internet atamalarining cheklangan qo‘llanishda qolishi bu jarayonni tasdiqlaydi.

Natijalar. Raqamli muhitda neologizmlarning tarqalishi ijtimoiy guruhlar faoliyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, yoshlar, kasbiy jamoalar, media maydoni va inflyuyenserlar bu jarayonning asosiy harakatlantiruvchi kuchlari hisoblanadi. Neologizmning nemis tilida tarqalishi nisbatan tizimli va medialashgan shaklda kechsa, o‘zbek tilida jonli, tezkor va ekspressiv xususiyat ustunlik qiladi. Bu farq raqamli makonda milliy tillar rivojining o‘ziga xos yo‘nalishlarini ochib beradi.

Raqamli muhitda paydo bo‘layotgan neologizmlar uchun murakkab bosqichlardan biri – ularning meyoriy maqom kasb etish jarayonidir. Internet diskursida faol qo‘llanilayotgan har qanday yangi leksik birlik avtomatik ravishda adabiy til tarkibiga kirib bormaydi. Neologizmning meyorlashuvi til jamoasidagi qabul darajasi, qo‘llanish barqarorligi va funksional kengligi bilan bog‘liq bo‘lib, bu jarayon raqamli muhit ta’sirida tezlashgan, biroq bir maromda kechmaydi.

Meyorlashuvning birinchi sharti – neologizmning funksional ehtiyojga javob berishidir. Agar yangi so‘z muayyan realiyani aniq va ixcham ifoda etsa, uning qo‘llanish doirasi kengayadi. Nemis tilida Homeoffice, Lockdown, Livestream kabi birliklar aynan shu xususiyat tufayli qisqa vaqt ichida ommalashdi va keyinchalik normativ manbalarda ham qayd etildi. O‘zbek tilida onlayn, masofaviy, raqamlashtirish kabi birliklar ham shu yo‘l bilan meyoriy maqomga yaqinlashmoqda.

Ikkinchi muhim omil – neologizmning shakliy moslashuvidir. Raqamli muhitda paydo bo‘lgan ko‘plab so‘zlar, avval chet til elementlari sifatida qo‘llanadi, keyin esa milliy til qoidalariga mos ravishda fonetik, orfografik va morfologik jihatdan o‘zgarishga uchraydi. Kelib chiqishi inglizcha bo‘lgan so‘zlar nemis tilining morfologik tizimiga moslashib, qo‘shimchalar qabul qiladi (downloaden, geliked). O‘zbek tilida ham layklash, post qilish, skrinshot qilish kabi birliklar agglyutinativ tizim asosida shakllanmoqda.

Raqamli muhitda meyorlashuv jarayonida ommaviy axborot vositalari va rasmiy diskursning alohida o‘rni bor. Internetda faol qo‘llanilayotgan neologizm an’anaviy mediada muntazam ishlatila boshlaganda, uning ijtimoiy maqbulligi ortadi. Nemis mediasida neologizmning bosqichma-bosqich qabul qilinishi kuzatiladi: avval internet nashrlarida, keyin markaziy gazetalarda, so‘ngra lug‘atlarda. O‘zbek tilida esa bu jarayon, ko‘pincha parallel kechib, internet va rasmiy nutq o‘rtasida ma’lum darajada nomutanosiblik saqlanib qolmoqda.

Lug‘atga kirish neologizmning yuqori meyoriy bosqichi hisoblanadi. Biroq, raqamli muhit sharoitida lug‘atchilik amaliyoti ham o‘zgarmoqda. An’anaviy lug‘atlardan tashqari, onlayn lug‘atlar, korpuslar va dinamik leksik bazalar yangi so‘zlarni tezroq qayd etish imkonini bermoqda. Nemis tilida Duden lug‘atining onlayn platformasi bu jarayonni institutsional darajada ta’minlaydi. O‘zbek tilida esa elektron korpus va raqamli leksik resurslar orqali neologizmlarni qayd etish tendensiyasi taraqqiyot bosqichida va borgan sari kuchaymoqda.

1-jadval

Neologizmlar paydo bo‘lishida globallashuv, raqamli muhit va OAVning o‘rni

Omil	Neologizm paydo bo‘lish mexanizmi	Nemis tili	O‘zbek tili
Globallashuv	Yangi xalqaro realiya-larni nomlash zarurati	Termin sifatida kirib, tizimli integratsiya-lanadi	Ijtimoiy muloqot or-qali kirib, moslashadi
Raqamli muhit	Internet muloqoti yangi kommunikativ birliklar yaratadi	Avval sohaviy, keyin ommaviy	Dastlab ommaviy, keyin barqarorlashuv
OAV	Yangi so‘zlarni om-malashtiradi va qabul darajasini oshiradi	Media → lug‘at (ma-salan, Duden)	Internet → jonli nutq → qisman meyor-lashuv

Izoh. globallashuv neologizmlar paydo bo‘lishining asosiy manbai bo‘lib, yangi xalqaro realiya va tushunchalarni nomlash ehtiyojini yuzaga keltiradi. Raqamli muhit esa bu jarayonni jadallashtirib, yangi leksik birliklarning tezkor yaratilishi va tarqalishini ta’minlaydi. Ommaviy axborot vositalari neologizmlarni keng auditoriyaga yetkazib, ularning ijtimoiy qabul qilinishi va barqarorlashuvida muhim rol o‘ynaydi. Nemis tilida mazkur jarayon institutsional va tizimli xarakterga ega bo‘lsa, o‘zbek tilida, asosan jonli internet diskursi va ijtimoiy tarmoqlar orqali dinamik shaklda kechadi.

Xulosa. Har qanday neologizm ham meyoriy maqomga ega bo‘lavermaydi. Ayrim leksik birliklar internet diskursi doirasida qolib, vaqt o‘tishi bilan faolligini yo‘qotadi. Bunday holat neologizmning modaga xoslangani, cheklangan ijtimoiy guruhga bog‘liqligi yoki semantik jihatdan noaniqligi bilan izohlanadi. Nemis va o‘zbek tillarida kuzatilayotgan bu jarayon raqamli muhitda so‘z tanlash va saralash mexanizmlari mavjud ekanini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli muhitda shakllangan neologizmlarning meyorlashuvi ko‘p bosqichli va dinamik jarayon bo‘lib, funksional ehtiyoj, shakliy moslashuv, media vositalarida qo‘llanish va lug‘atchilik amaliyoti o‘zaro uyg‘un holda ishtirok etadi. Nemis tilida ushbu jarayon institutsional tartibga ega bo‘lsa, o‘zbek tilida, asosan jonli nutq va internet diskursiga tayanadi. Bu farq raqamli davrda milliy til meyorlarining shakllanish usullarini yaqqol namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Горошко Е.И. Теоретический анализ интернет-жанров: к описанию проблемной области // Жанры речи. Жанр и культура. – Саратов: Издательский центр «Наука», 2007. Вып.5. – С. 370-389.

2. Розина И.Н. Педагогическая компьютерно-опосредованная коммуникация: теория и практика: монография. – М.: Логос, 2005. – 439 с.

3. Щурина Ю.В. Интернет-мемы: проблема типологии // Вестник Череповецкого государственного университета. 2014. – № 6 (59). – С. 85-89.

4. Brants K., Voltmer K. (eds). Political Communication in Postmodern Democracy: Challenging the Primacy of Politics, Palgrave. Macmillan: Basingstoke and New York, 2011. – 284 p.

5. Castells M. Communication Power. Oxford University Press (UK). – 624 p.

6. Crystal David. English as a Global Language. Second edition. Cambridge University Press, 2003. – 212 p.

7. Crystal D. Language and the Internet. Cambridge University Press, 2007. – 318 p.

8. Grin F. Economic Approaches to Language and Language Planning / F. Grin//Theme issue of the International Journal of the Sociology of Language. Berlin, New York: Mouton de Gruyter, 1996.

Abdiholiqov Beknurjon Alisher o‘g‘li
Qarshi davlat universiteti tadqiqotchisi
Email: beknurnasaf94@gmail.com

O‘SPIRIN FUTBOLCHILARDA O‘ZIGA ISHONCHNI SHAKLLANTIRUVCHI PSIXOLOGIK OMILLARNING RANJIROVKASI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘spirin futbolchilarda o’ziga ishonchni shakllantirUVCHI psixologik omillarning ranjirovkasi tahlil qilingan. Shuningdek futbolchilarda sportchilarni irodaviy soha takomillashuvi musobaqaga maxsus psixologik tayyorlash jarayoniga bevosita tasir etish bosqichlari keltirilgan. Turli ixtisoslikdagi yosh sportchilarning sport faoliyati motivatsiyasi mazmunini qiyosiy tahlili keltirilgan. Muvaffaqqiyatli yosh sportchilarda irodaviy sifatlarning shakllanishi o‘ziga xos ko‘rinishga ega ekanligi ta’kidlangan.*

Kalit so‘zlar: *o‘spirin futbolchi, jamoaviy o’ziga ishonch, psixologik omillarning ranjirovkasi, irodaviy soha, psixologik tayyorgarlik, sport faoliyati motivatsiyasi, qiyosiy tahlil, irodaviy sifatlar.*

РАНЖИРОВАНИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ, ФОРМИРУЮЩИХ САМОУВЕРЕННОСТЬ У ПОДРОСТКОВ-ФУТБОЛИСТОВ

Аннотация. *В данной статье анализируется ранжирование психологических факторов, формирующих уверенность в себе у футболистов-подростков. Также представлены этапы прямого влияния развития волевой сферы спортсменов на процесс специальной психологической подготовки к соревнованиям. Представлен сравнительный анализ содержания мотивации к спортивной деятельности молодых спортсменов различных специальностей. Отмечается, что формирование волевых качеств у успешных молодых спортсменов имеет уникальный характер.*

Ключевые слова: *футболист-подросток, командная уверенность в себе, ранжирование психологических факторов, волевая сфера, психологическая подготовка, мотивация к спортивной деятельности, сравнительный анализ, волевые качества.*

RANKING OF PSYCHOLOGICAL FACTORS FORMING SELF-CONFIDENCE IN ADOLESCENT FOOTBALL PLAYERS

Annotation. *This article analyzes the resentment of psychological factors that shape self-confidence in teenage players. Also in the players are presented stages of direct influence on the process of special psychological training of athletes with the improvement of the volitional sphere. A comparative analysis of the content of the motivation of sports activities of young athletes of various specialties is presented. It is noted that the formation of volitional qualities in successful young athletes has a unique appearance.*

Key words: *teenage football player, team self-confidence, resentment of psychological factors, volitional sphere, psychological training, motivation of sports activities, comparative analysis, volitional qualities.*

Kirish. Musobaqaga maxsus psixologik tayyorlash jarayoni avvalo sportchilarni irodaviy soha takomillashuvi, shu bilan birga g‘alabaga intilish motivatsiyasining yuqoriligi hamda emotsional barqarorligi asosiy shartlaridan biri sanaladi. Irodaviy sifatlar shakllanishi dinamikasini tushunib olishdan oldin, ixtiyoriy harakatlarning o‘zi nima degan savolga javob topish lozim sanaladi. Ixtiyoriy harakatlar bu muayyan qiyinchiliklar sharoitida namoyon bo‘ladigan, o‘zini-o‘zi ixtiyoriy tartibga solishga xizmat qiladigan xususiyatlardan biridir. Ixtiyoriy harakatlar shaxsning

istak va xohishlari, motiv va maqsadlari hamda yo‘nalishlarini qamrab olgan tizimdir. Bundan tashqari, ixtiyoriy harakatlarning namoyon bo‘lishi, oldindan sezilgan vaziyatlarga ham uzviy bog‘liq sanaladi.

Adabiyotlar tahlili. Angliyaning York universiteti professori F.A.Flint sport psixologiyasiga doir tadqiqotlarida keltirishicha, introspeksiya, ya’ni, o‘z-o‘zini kuzatish o‘rganilayotgan hodisaning ayrim sub’ektiv tomonlarini ochib beradigan og‘zaki hisobot shaklida ifodalanadi. O‘z-o‘zini kuzatish futbolchi sportchilar tomonidan faoliyat jarayonida ularning harakatlari, tajribalari, holatlari, fikrlari, xatti-harakatlari va boshqalarni tahlil qilishda qo‘llaniladi. Sportchilar uchun o‘zini o‘zi bilish nafaqat texnik va taktik jihatdan fazilatlarini rivojlantirish, balki hayot va faoliyatning turli, ko‘pincha kutilmagan vaziyatlarda o‘zini shaxs sifatida shakllantirish va o‘zini oqilona boshqarish uchun juda muhimdir. O‘z-o‘zini kuzatish asosida sportchilarning o‘ziga bo‘lgan bahosi shakllanadi. Bunday o‘z-o‘zini baholash hozirgi kunda psixologiyada tadqiqot usullaridan biri sifatida tobora ko‘proq foydalanilmoqda. [1. 83]

O’spirin futbolchi sportchilar faoliyatida longityud usuli ko‘p yillar davomida aqliy va psixomotor rivojlanish holatini kuzatish uchun ishlatiladi. Masalan, kichik maktab o‘quvchilarining aqliy jarayonlari va harakat sifatlarini rivojlantirishga jismoniy madaniyat darslarining ta’sirini o‘rganish mumkin. Bu maktabda jismoniy tarbiya metodlarini takomillashtirish uchun zarurdir. L.Serovaga ko‘ra, ko‘p yillik sport mashg‘ulotlarining sportchilar shaxsini shakllantirishga ta’sirini o‘rganishda ushbu usuldan muvaffaqiyatli foydalanish mumkin. [2. 76]

Natijalar va ularning tahlili. P.V.Dudnik o‘zining “Turli ixtisoslikdagi yosh sportchilarning sport faoliyati motivatsiyasi mazmunini qiyosiy tahlil qilish” nomli ilmiy maqolasida yozishicha, g‘alabaga erishishni ta’minlovchi va yuqori natijalar qayd etishni belgilovchi, eng muhim sifatlar majmuiga quyidagilar kiritiladi: [3.39]

– Chidamlilik;
– Istamaslikni yenga olish;
– Guruhiy musobaqalarda sheriklarning niyatlari bilan hsioblasha olish qobiliyati;
– Epchillik va topqirlik;
– O‘z diqqatini vaziyatlarga tez yo‘naltira olish; [4. 72]

Ye.V.Yeleseevning ta’kidicha, muvaffaqqiyatli yosh sportchilarda irodzviy sifatlarning shakllanishi o‘ziga xos ko‘rinishga ega bo‘lib, uni quyidagi ketma-ketlik asosida tushuntirish maqsadga muvofiqdir: [5. 13]

– Dinamik jismoniy fazilatlar - kuch, tezlik, reaksiya tezligi kasbi sifatlar birinchi bo‘lib shakllanadi;

– Katta va uzoq yutuqlarga javob beruvchi irodvaiy sifatlar- qiyinchiliklarga bardosh bera olish qobiliyati, chidamlilik, qat’iyatlilik hamda murakkab va nozik harakatlarga javob beruvchi sifatlar konsentratsiya, diqqatni jamlay olish,o‘zini o‘zi faollashtira olish va hokazo. Umuman olganda, o‘smirlik yoshida irodaviy sifatlarning shakllanishi intensiv kechib, keyinchalik mustahkamlana boradi.

1-jadval

O’spirin futbolchilarda jamoaviy o’ziga ishonchni shakllantirishga sabab bo‘luvchi psixologik omillarning ranjirovkasi va o‘rni

№	Omillar	Ranjirovka	O‘rin	Faktorlarning vazn koeffitsientlari
	O‘z-o‘ziga ishonch	6,50	1	0,920
	O‘z-o‘zini idora qilish	7,89	2	0,875
	O‘z-o‘ziga munosabatning aks etishi	7,80	3	0,832
	Muvaffaqiyatga erishish	8,75	4	0,782
	O‘z-o‘zini qabul qilish	9,26	5	0,764
	O‘zini cheklash	9,98	6	0,677
	Ichki ziddiyat	10,63	7	0,572
	O‘z-o‘zini ayblash	11,44	8	0,481

	O‘z-o‘zini qadrlash	12,74	9	0,372
	Muvaffaqiyatsizlikdan qochish	13,38	10	0,268

Jadvaldagi empirik ko‘rsatkichlarga ko‘ra o’spirin futbolchilarda jamoaviy o’ziga ishonchni shakllantirishga asosiy sabab bo‘luvchi omillar quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ldi:

birinchi omil, o’z-o’ziga ishonch (ranjirovka: 6,50; o‘rin:1 va koeffitsient: 0,920). Bundan ko‘rinadiki, qaror qabul qilishda samaradorlik kiradi.

ikkinchi omil, o’z-o’zini idora qilish (ranjirovka: 7,89; o‘rin:2 va koeffitsient: 0,875). Ulkan maqsadlarga erishish uchun, o‘z kuchigi to‘liq bag‘ishlash va shaxsiy mavqe’ga intilish o‘z ichiga oladi.

uchinchi omil esa o’z-o’ziga munosabatning aks etishi (ranjirovka: 7,80; o‘rin:3 va koeffitsient: 0,832). Mazkur omillardan ko‘rinadiki, O‘z harakatlari uchun javobgarlikni his eta olish, ko‘pchilik orasida boshqalardan farq qilishga harakat qilish qobiliyati va o‘ziga nisbatan halol bo‘lish sanaladi.

to‘rtinchi omil sifatida muvaffaqiyatga erishish (ranjirovka: 8,75; o‘rin:4 va koeffitsient: 0,782). Demak, chuqur hissiy tajribalarning mavjudligi va boshqa odamlar bilan uzoq muddatli aloqalarni o‘rnatish va ularni qo‘llab-quvvatlash va boshqalar.

beshinchi omil esa o’z-o’zini qabul qilish (ranjirovka: 9,26; o‘rin:5 va koeffitsient: 0,764). Sport faoliyatining muvaffaqiyati - bu shaxs his-tuyg‘ularining maxsus ichki faoliyatiga asoslanib, u o‘z vaqtida maxsus yo‘naltirilgan, yaxlit dinamik psixologik hodisadir.

oltinchi omil o’zini cheklash (ranjirovka: 9,98; o‘rin:6 va koeffitsient: 0,667). Bundan tashqari, har qanday faoliyat turining samaradorligi, undagi sub’ektlarning o‘z maqsadlarini to‘liq anglashi hamda keng qamrovli ijtimoiy faolligi bilan tavsiflanadi.

yettinchi omil esa ichki ziddiyat (ranjirovka: 10,63; o‘rin:7 va koeffitsient: 0,572). Murabbiyning salohiyati, sport sohalari yangiliklaridan xabardorligi, kasbiy ko‘nikma va malakalari, orttirilgan hayotiy tajribasi va qadriyatlari yo‘nalishi kabilar ham, yuqori natijalarga erishishning psixologik shartlaridan biri hisoblanadi.

sakkizinchi omil o’z-o’zini ayblash (ranjirovka: 11,44; o‘rin:8 va koeffitsient: 0,481). Bu murabbiylarning kasbiy-psixologik tayyorgarligi bilan bog‘liq holat sanalib, bunday ishlar borasida ham zamonaviy psixologiya fanida, dunyo ahamiyatiga molik ishlar amalga oshirilmoqda.

to‘qqizinchi omil o’z-o’zini qadrlash (ranjirovka: 12,74; o‘rin: 9 va koeffitsient: 0,372). Murabbiylarning tez-tez almashitirish holati, jamoa va sportchilarning muvaffaqqiyatiga salbiy ta’sir etadi. Chunki, o‘zaro munosabatlar tizimida shaxsning moslashishi uchun ham, ma’lum bir qaqt talab qilinadi.

o‘ninchi omil muvaffaqiyatsizlikdan qochish (ranjirovka: 13,38; o‘rin:10 va koeffitsient: 0,268). Vaqtni ijtimoiy idrok qilish, uni kasbiy qadriyatlar tizimi bilan uyg‘unlashtirish muvaffaqiyatga erishish motivlarining psixofiziologik shart-sharoitlaridan biri sanaladi. Muvaffaqqiyatli sportchi faoliyatining psixologik o‘ziga xosliklari mavzusiga bag‘ishlangan ayrim tadqiqotlarda yozilishicha, jamoaviy munosabatlar ham sportda yuqori natijalar ko‘rsatishga keng ta’sir etadi.

2-jadval

O’spirin futbolchilarda jamoaviy o’ziga ishonchni shakllantirishga sabab bo‘luvchi psixologik omillarning ranjirovkasi va o‘rni

	Omillar	Ranjirovka	O‘rin	Faktorlarning yuklama koeffitsientlari
	Ichki motiv	3,46	1	0,835
	Bilish motivi	4,89	2	0,806
	Umumiy o’ziga ishonch	4,67	3	0,760
	Musobaqalashuv motivi	5,45	4	0,674
	Faoliyatni almashtirish motivi	6,79	5	0,553
	Topshiriqlarning murakkabligi	7,63	6	0,440

	Irodaviy quvvat	8,26	7	0,379
	O'z imkoniyatlarini baholash	9,20	8	0,309
	Natijalarning kutilganlik darajasi	10,34	9	0,286
	Tashabbuskorlik	11,25	10	0,214
	Qochish motivi	12,46	11	0,187

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda, sinaluvchilarning olgan natijalariga qarab, shaxs intilish darajasini baholash so‘rovnomalariga ko‘ra, shkalalarning o‘rni va yuklama koeffitsientlari quyidagicha namoyon bo‘ldi:

- birinchi omil, ichki motiv (ranjirovka: 3,46; o‘rin:1 va koeffitsient: 0,835). Bundan ko‘rinadiki, jamoaviy o’ziga ishonchbu – birgalikdagi faoliyat va mehnat munosabatlari asosida shakllangan tarixiy-madaniy tunchadir. Ya’ni, o‘tmishda o‘zboshimchalik bilan amalga oshirilgan ishlar va aqliy, ixtiyoriy amalga oshirilgan hodisalar buning yaqqol ifodasidir.

- ikkinchi omil, bilish motivi (ranjirovka: 4,89; o‘rin:2 va koeffitsient: 0,806). Jamoaviy o’ziga ishonch–barqaror, ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan, ayrim motivlarni o‘ziga bo‘y sundiradigan ichki nazorat sohasi hisoblanadi.

- uchinchi omil esa umumiy o’ziga ishonch (ranjirovka: 4,67; o‘rin:3 va koeffitsient: 0,760). Mazkur omillardan ko‘rinadiki, hissiy kechinmalar tashqi ta’sirlar ostida paydo bo‘lib, keyinchalik jamoaviy o’ziga ishonchtomonidan nazorat qilinadi.

to‘rtinchi omil musoboqalashuv motivi (ranjirovka: 5,45; o‘rin:4 va koeffitsient: 0,674). Bizningcha, raqobat jarayonining atributi - bu mukofot uchun bellashish, to‘qnashuv, maqsadga erishishdan manfaatdor bo‘lgan shaxslar o‘rtasidagi jangdir.

beshinchi omil esa faoliyatni almashtirish motivi (ranjirovka: 6,79; o‘rin:5 va koeffitsient: 0,553). Raqobat faoliyatining o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, u dushmanlar kuchlarining murosasiz kurashi bilan tavsiflanmaydi balki, u komformistik bo‘lmagan munosabatlarga asos-lanadi

oltinchi omil topshiriqlarning murakkabligi (ranjirovka: 7,63; o‘rin:6 va koeffitsient:0,440). Sport sohasidagi psixologik tadqiqotlarning asosiy maqsadi – bu ma’lum bir harakatlarni va o‘z-o‘zini tartibga solishni optimallashtirish, sport anjomlari va taktikalarining psixologik tuzilishini takomillashtirish orqali, sportchining aniq harakatlari muvaffaqiyati tahlil qilishdan iboratdir.

yettinchi omil irodaviy quvvat (ranjirovka: 8,26; o‘rin:7 va koeffitsient: 0,379). Maqsadlarni aniq belgilash, ularni qabul qilish, ularni saqlash bilan bog‘liq individual xususiyatlar.

sakkizinchi omil o’z imkoniyatlarini baholash (ranjirovka: 9,20; o‘rin:8 va koeffitsient: 0,309). Faoliyat shartlarini tahlil qilish va maqsadga erishish uchun muhim bo‘lgan, qoidalar majmuasini taqsimlash.

To’qqizinchi omil esa, natijalarning kutilganlik darajasi (ranjirovka: 10,34; o‘rin:9 va koef-fitsient: 0,286). Maqsadga erishish uchun zarur bo‘lgan, kelajakdagi harakatlarni rejalashtirish, dasturlash.

O’ninchi omil tashabbuskorlik (ranjirovka: 11,25; o‘rin:10 va koeffitsient: 0,214). o‘z faoli-yati natijalarini monitoring qilish va baholash, o‘z natijalari va xatolarini tuzatish bo‘yicha.

O’n birinchi omil esa, qochish motivi (ranjirovka: 12,46; o‘rin:11 va koeffitsient: 0,187). Shuning uchun, ixtiyoriy harakatlar murakkab his etiladi, kimlardir uni bajarishga qodir bo‘lsalar, boshqalar esa, uning aksini ma’qul ko‘radilar.

Shuni ta’kidlash lozimki, yuqorida keltirilgan fazilatlar turkumi faoliyatda birlashadi va rivojlanib boradi. Bu holat oxir-oqibat futbolchi muvaffaqqiyatini ta’minlaydi. Agar futbolchilik uchun yuqorida keltirilgan fazilatlar turkumi shart sanalsa, u holda ularning mazmuniga to‘xtalib o‘tish o‘rinli sanaladi. Amaliy ma’noda, shaxsni muvaffaqiyatga erishish konsepsiyasi kasbiy yo‘lning turli bosqichlarida shaxsga hamrohlik qilish va qo‘llab-quvvatlash tartib-qoidalarini ish-lab chiqish va amalga oshirishda uslubiy birlik va uzluksizlikni ta’minlaydi.

Xulosa. O‘spirin futbolchilarda muvaffaqiyatga erishish va muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivlari o‘rtasidagi muvozanat jamoaviy o‘ziga ishonchning shakllanishida hal qiluvchi

ahamiyatga ega. Individual o‘ziga ishonch va muvaffaqiyatga yo‘naltirilganlik yuqori bo‘lgan hududlarda futbolchilar jamoa manfaatini chuqurroq anglaydi va jamoaviy natijaga faol hissa qo‘shadi. Aksincha, muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivi ustun bo‘lgan sharoitda futbolchilarning jamoaviy ishonchi zaiflashadi, bu esa jamoaning umumiy psixologik barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Flint F. A. Integrating sport psychology and sports medicine in research: The dilemmas //Journal of applied sport psychology. – 1998. – Т. 10. – №. 1. – С. 83-102.

2. Серова Л. Психология отбора в спортивных играх. – Litres, 2018. – С. 76.

3. Дудник П. В. Сравнительный анализ содержания мотивации спортивной деятельности у юных спортсменов разной специализации / П. В. Дудник, М. Г. Дудник, Л. К. Лобова // Проблемы физической культуры, спорта и туризма в свете современных исследований и социальных процессов : сборник трудов Международной научно-практической конференции. - 2017. – С. 39-45.

4. Эммонс Р. Психология высших устремлений: мотивация и духовность личности / Р. Эммонс. - М.: Смысл, 2004. – С.72.

5. Елисеев Е. В. Предсоревновательная подготовка борцов-самбистов высокой квалификации : автореф. дис. ... канд. пед. наук / Елисеев Е. В. -Москва, 2001. – С.13.

Xajiyeva Dilfuza Adambayevna
Urganch davlat pedagogika instituti dotsenti

HAMID OLIMJONNING FOLKLOR UNSURLARINI QO‘LLASH MAHORATI

Annotatsiya. *Maqolada Hamid Olimjon ijodida folklor unsurlarining (ertak, doston, afsona, maqol, qo‘shiq, baxshichilik musiqiyati va marosimiy obrazlar) badiiy tizimga singish mexanizmlari doktorlik darajasida tahlil qilinadi. Tadqiqotning markaziy g‘oyasi shundan iboratki, shoir folklorni “tayyor syujet” sifatida ko‘chirmaydi, balki xalq og‘zaki ijodining poetik qonuniyatlarini zamonaviy lirika va epik dostonlar strukturasiga ko‘chiradi; natijada folklor matnining performativ tabiati (kuy, ohang, takror, formulalar) yozma adabiyotda yangi badiiy energiya sifatida qayta yaratiladi. Maqola natijasida Hamid Olimjon folklori estetik idealni milliy makonda tiklash, ijtimoiy adolat konseptini poetiklashtirish va “xalq tili”ni yuqori adabiy nutqqa aylantirishning konseptual modeli sifatida namoyon bo‘lishi ilmiy asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *folklor, ertak-doston, baxshichilik, poetik transformatsiya, motiv, syujet, mifopoetika, intertekst, Hamid Olimjon.*

МАСТЕРСТВО ХАМИДА ОЛИМДЖАНА В ИСПОЛЬЗОВАНИИ ЭЛЕМЕНТОВ ФОЛЬКЛОРА

Аннотация. *В статье на докторском уровне анализируются механизмы интеграции элементов фольклора (сказка, эпос, легенда, пословица, песня, бахшиская музыка и обрядовые образы) в художественную систему в творчестве Хамида Олимджона. Центральная идея исследования заключается в том, что поэт не копирует фольклор как «готовый сюжет», а переносит поэтические законы народного устного искусства в структуру современной лирики и эпических эпосов; в результате исполнительская природа фольклорного текста (мелодия, тон, повторение, формулы) воссоздается в письменной литературе как новая художественная энергия. В результате статьи научно обосновывается появление фольклора Хамида Олимджона как концептуальной модели восстановления эстетического идеала в национальном пространстве, поэтизации понятия социальной справедливости и преобразования «народного языка» в высокий литературный дискурс.*

Ключевые слова: *фольклор, сказка-эпос, музыка бахши, поэтическая трансформация, мотив, сюжет, мифопоэтика, интертекст, Хамид Олимджан.*

HAMID OLIMJAN'S SKILL IN USING FOLKLORE ELEMENTS

Abstract. *The article analyzes the mechanisms of integration of folklore elements (tale, epic, legend, proverb, song, Bakhshi music and ceremonial images) into the artistic system in the work of Hamid Olimjon at the doctoral level. The central idea of the research is that the poet does not copy folklore as a “ready-made plot”, but transfers the poetic laws of folk oral art into the structure of modern lyrics and epic epics; as a result, the performative nature of the folklore text (melody, tone, repetition, formulas) is recreated in written literature as a new artistic energy. As a result of the article, the appearance of Hamid Olimjon’s folklore as a conceptual model for restoring the aesthetic ideal in the national space, poeticizing the concept of social justice and transforming the “folk language” into a high literary discourse is scientifically substantiated.*

Key words: *folklore, tale-epic, Bakhshi music, poetic transformation, motif, plot, mythopoetics, intertext, Hamid Olimjon.*

Kirish. Hamid Olimjon (1909–1944) XX asr o‘zbek adabiy tafakkurida folklor va yozma adabiyotning uzviy aloqasini badiiy tajriba darajasida ko‘rsatib bergan ijodkorlardan biridir. Uning lirikasi “xalq tili”ning ohangdorligi, dostonlari esa ertak va eposning syujet-motivlar tizimiga

yaqinligi bilan ajralib turadi. Shoir ijodining shu xususiyati tasodifiy hodisa emas: bolalik muhitida eshitilgan cho‘pchaklar, baxshi kuyining ohangiy “nafas”i, xalqona iboralarning semantik zichligi Hamid Olimjon poetikasida “ichki kod”ga aylanadi.1 6

Ilmiy adabiyotlarda shoirning folklorga munosabati ko‘pincha “manba” yoki “mavzu” doirasida yoritiladi. Biroq masalaning metodologik murakkabligi shundaki, folklor faqat syujetlar ombori emas; u - tilning formulaviy ishlashi, ritm va takrorning kompozitsion vazifasi, obrazning arxetipik xotirasi, ijro (performans) madaniyati va kollektiv ongning estetik modeli. Shu bois Hamid Olimjon folklorni qachon, qanday va nima uchun qo‘llaganini aniqlash uchun matn ichidagi poetik mexanizmlarni, janrlararo o‘tishlarni hamda ijtimoiy semantika (davr “buyurtmasi” va milliy ideal) bilan bog‘lanish nuqtalarini bir butun tizim sifatida ko‘rish zarur.[8]

Adabiyotlar Tahlili Va Metodologiya. O.Sharafiddinov, A.Karimov, Sh.Abduraxmonov, B.Rahmonov, X.Nazarov, M.To‘rayev, M.Qodirova, N.Karimov, Zulfiya, S.Mamajonov, S.Azimov, N.Namozov, S.Boboyeva, B.Umurqulov, U.Raximova tomonidan Hamid Olimjon ijodinining ayrim jihatlari o‘rganilgan. N.I.Ashirmatova, I. O‘.Abdurashidova, M. O.Irgashevaning ilmiy maqolalarida Hamid Olimjon ijodida xalq og‘zaki ijodi namunalarining qo‘llanishi to‘g‘risida mulohaza yuritiladi.

Mazkur maqolaning maqsadi - Hamid Olimjon asarlarida folklor unsurlarining qo‘llanish tipologiyasini aniqlash, ularning poetik funksiyasini (estetik, semantik, ideologik va performativ) tahlil qilish hamda shoirdagi folkloriy sintezning badiiy natijasini konseptual model sifatida umumlashtirishdir. Tadqiqotda matnlararo qiyosiy tahlil, struktur-semiotik yondashuv, motiv va syujet morfologiyasi, ritmika va obraz semantikasini izohlash usullari qo‘llanadi.

Natijalar. Folklor unsurlari shoir matnida uch darajada namoyon bo‘ladi:

syujet-motiv darajasi (ertak va doston qoliplari);

poetik-til darajasi (maqollashgan iboralar, parallelizm, takror, alliteratsiya);

performativ daraja (kuychilik, do‘mbira/dutor semantikasi, ijroga xos “murojaat” va “qofiya nafas”i). Quyida ushbu uch daraja asosida konkret matnlar tahlili beriladi.

Folkloriy parallelizm Hamid Olimjon lirikasida ko‘pincha “bir tasvir - bir ritm” tamoyili bilan ishlaydi: mashhur “o‘rik gullaganda” motivida ham tabiat hodisasi marosimiy-ramziy ma’noga ko‘tariladi. Bunday ko‘tarilish folklor poetikasidagi “tabiatning jonlanishi” (animistik tasavvur) va “mavsumiy yangilanish” marosimlari bilan mazmunan yaqin. Natijada lirik matn faqat shaxsiy kechinma emas, balki milliy kalendar, xalqona ko‘rish va eshitish madaniyati bilan dialogga kirishgan badiiy tizim sifatida namoyon bo‘ladi.

E’tiborli jihat shuki, Hamid Olimjon ertak syujetini “ideologik” shiorlar orqali emas, poetik detallar orqali yangilaydi: masalan, Susambil tasvirida suv (buloq), bog‘ (bo‘ston), gul (guliston) kabi an’anaviy ramzlar takror-takror keladi. Bu ramzlar folklorda baraka va hayotning timsoli bo‘lib, doston matnida ham xuddi shu “baraka kodi”ni tashiydi. Natijada ijtimoiy utopiya quruq deklaratsiya emas, tasvirning ichki ramziy tizimi orqali badiiy ishonch kasb etadi.

Muhokama. Shoirning folklor bilan bog‘lanishi “kitobxonlik”dan avval “eshitish” tajribasi bilan boshlanadi. 1999-yilgi nashr muqaddimasida Hamid Olimjon Komila aya aytgan cho‘pchaklarni tinglab ulg‘aygani, xalq og‘zaki ijodini juda yaxshi bilgani alohida ta’kidlanadi. Bu biografik detal metodologik jihatdan muhim: shoir poetikasida ertak va doston faqat syujet emas, balki “ovozli tasavvur” va “ohangiy tafakkur” kabi psixopoetik qatlamlar hamdir.[7]

Folkloriy xotira shoirning estetik idealini ikki yo‘nalishda belgilaydi. Birinchisi - “tabiat va diyor” tasvirida xalqona metafora va qo‘shiqona ritmga suyanish; ikkinchisi - “adolat va ozodlik” mavzusida ertak-dostonning axloqiy kodlarini zamonaviy ijtimoiy mazmun bilan uyg‘unlashtirish. Shu ma’noda Hamid Olimjonning folkloriy sintezi “milliy romantizm”ning ichki mexanizmlaridan biri sifatida qaralishi mumkin.[7;9]

Hamid Olimjon lirikasi ko‘pincha “tabiat lirikasining romantik namunasi” sifatida o‘qiladi, ammo uning ko‘plab she’rlarida folkloriy poetika aniq ko‘rinadi. Bu, avvalo, xalq qo‘shig‘iga xos sintaktik parallelizm va ritmik takrorlar, so‘zlarning “ohangga bo‘ysunishi”, shuningdek, voqelikni ertakona kenglikda tasavvur qilish orqali namoyon bo‘ladi. “O‘zbekiston” she’rida shoirning

diyorni anglash usuli bevosita og‘zaki hikoya, daryo “kuyi” va ertak tinglash semantikasi bilan bog‘lanadi:

Vodiylarni yayov kezganda,
Bir ajib his bor edi manda…
Daryolardan kuylab o‘tardim,
Ertaklarga quloq tutardim.[10]

Mazkur parcha folklorning ikki “kanal”ini birlashtiradi: (a) hikoya tinglash - voqelikni kollektiv tajriba orqali anglash; (b) daryodan “kuylab o‘tish” - tabiatning o‘zi ham kuychi kabi “gapiradi”, ya’ni poetik subyekt dunyoni musiqiy-intuitiv idrok etadi. “Ertaklarga quloq tutish” esa shoirning dunyoqarashi ertak paradigmasida shakllanganini ochadi: diyor go‘yo dostonlarda bitgan “guliston” sifatida tasvirlanadi, bunda real geografiya bilan mifopoetik makon o‘rtasida san’atkorona ko‘prik quriladi.

Hamid Olimjon folklor bilan ishlashda “ovoz” va “kuy”ni markazga chiqaradi. Bu hol ayniqsa baxshi fenomenini badiiy obyektga aylantirgan “Kuychining xayoli” she’rida yaqqol ko‘rinadi. Asar Fozil Yo‘ldosh o‘g‘liga bag‘ishlangan bo‘lib, unda xayol (tasavvur) epik ijodkorning ichki mexanizmi sifatida tasvirlanadi. Shoir xayolni cheksizlik, oqim va kashf obrazlari orqali ifodalaydi:

Bu xayol so‘ngsizdir, osmon kabi keng,
Bu xayol tugamas hech hali-beri.[11]

Parchadagi “so‘ngsiz” va “osmon kabi keng” qiyoslari folkloriy tafakkurga xos kosmik kenglikni eslatadi. Baxshi kuylaganda doston vaqti odatiy vaqtni “yeydi”: kecha-kunduz, yil-asrlar bir-biriga ulanadi. Shoir ayni shu jarayonni “xayolning oqimi” bilan ifodalaydi. Bu, bir tomondan, romantik poetikaning tasavvur metafizikasi bo‘lsa, ikkinchi tomondan, og‘zaki eposning performativ xususiyati (ijro davomida hikoya dunyosi kengayib borishi) bilan uyg‘un.3

“Do‘mbiraning maqtovi” esa folklor musiqiyati va so‘z san’ati birligini yanada aniqroq ko‘rsatadi. Do‘mbira bu yerda oddiy cholg‘u emas; u kuychi shaxsiyatining “ikkinchi men”i, yo‘ldosh, guvoh va ijtimoiy tajriba tashuvchisidir. Shoir do‘mbirani to‘g‘ridan-to‘g‘ri murojaat (apostrof) orqali jonlantiradi:

So‘z boshlayin endi yaxshi, yomondan,
Ko‘zlarimning nuri bo‘lgan do‘mbiram. [12]

Murojaatning o‘zi baxshichilik an’anasidagi “kirish so‘zi” (so‘zboshi)ni eslatadi: doston kuylash marosimi odatda tinglovchi bilan aloqa o‘rnatish, “kuyga kirish” va qahramonlar dunyosiga eshik ochishdan boshlanadi. “Yaxshi-yomon” oppozitsiyasi esa maqol va xalq hikmatlaridagi binar tasniflashni eslatib, matnga axloqiy me’yor kiritadi. Do‘mbiraning “ko‘z nuri”ga qiyoslanishi esa folkloriy personifikatsiya: cholg‘u “ko‘radi”, “eslaydi”, “hamroh bo‘ladi” degan semantik imkoniyatni ochadi. Shu tariqa, folklor unsuri (do‘mbira) shoirda ham badiiy predmet, ham madaniy belgi sifatida ishlaydi.

Ikki asarda ham ("Kuychining xayoli" va "Do‘mbiraning maqtovi") xalq ijodkorining dunyoqarashi “tasavvur–kuy–so‘z” triadasi orqali beriladi. Bu triada Hamid Olimjon poetikasining muhim belgisi: folklor unsuri matnga kirganda, u faqat referensial (nimani tasvirlaydi?) emas, balki performativ (qanday aytiladi?) savoliga ham javob beradi. Natijada she’rning ichki ritmika va intonatsiyasi xalqona kuylash an’anasi bilan yashirin ravishda “rezonans”ga kiradi.

“Oygul bilan Baxtiyor” dostoni Hamid Olimjon folkloriy syujetni zamonaviy ijtimoiy ideal bilan uyg‘unlashtirishning yorqin namunasi. Asar ertaklarda keng tarqalgan “zulm ostidagi qahramon(lar) - qochish - yangi yurt - adolatli tartib” kompozitsion zanjiri asosida quriladi. Ammo shoir bu zanjirni faqat sarguzasht sifatida emas, balki adolat, erkinlik va mehnat orqali quriladigan jamiyat konsepsiyasi sifatida talqin qiladi.

Dostonning markaziy ramzlaridan biri - Susambil. Bu makon folklordagi “orzu yurti” (utopik topos) funksiyasini bajaradi: u yovuzlikdan xoli, mehnatga asoslangan, tenglik va hamjihatlik hukmron bo‘lgan makondir. Shoir Susambilni aynan “erkinlik” va “shodlik” bilan bog‘laydi:

Susambilda erkin, shod
Yashar edi xaloyiq.[13]

Bu ikki misra folkloriy sintaksisning o‘ziga xos “qisqa zarba”siga ega: mazmun ixcham, lekin semantik jihatdan keng. “Erkin” va “shod” so‘zlari ertaklarda ideal makonni belgilovchi asosiye kategoriyalar - ozodlik va farovonlikni jamlaydi. Dostonning keyingi epizodlarida Susambil “qurilish” makoniga aylanadi: xaloyiq to‘da-to‘da keladi, ishga kirishadi, bolalarga saroylar, yetimlarga parvarish, buloqlar va bog‘lar bunyod etiladi. Bularning barchasi folkloriy “mehnat - baraka” qoidasi bilan zamonaviy kollektiv mehnat g‘oyasini birlashtiradi.[14]

Dostonning personajlar tizimi ham folkloriy arxetiplarga suyangan: Oygul - dono va jasur qiz (folklordagi “aqlli qiz” tipi), Baxtiyor - mard yo‘ldosh (qahramon yordamchisi va hamqadam), podsho va xonlar - zulmning timsoli (antagonist). Biroq shoir arxetiplarni qotib qolgan model sifatida emas, tarixiy zamon ruhiga mos ravishda harakatlantiradi: masalan, Oygul faol tashkilotchi, kengash ochuvchi, xalqni uyushtiruvchi sifatida tasvirlanadi. Bu esa ertakdagi “shaxsiy baxt” motivini “jamoaviy farovonlik” g‘oyasiga kengaytiradi.

“Semurg‘ yoki Parizod bilan Bunyod” dostoni folklor va mifologik tasavvurlarni epik kompozitsiyaga singdirishning badiiy namunasidir. Semurg‘ timsoli Sharq mifologiyasi va adabiyotida (xususan Eron mifologiyasi, “Avesto” qatlamlari va keyingi adabiy an’analar) turli semantik soyalar kasb etgan: u ba’zan himoyachi, ba’zan donishmand, ba’zan esa sinovning bir bo‘g‘ini sifatida ko‘rinadi. O‘zbek xalq ertaklarida ham Semurg‘ ko‘pincha ijobiy qahramonning hamrohi va qutqaruvchisi sifatida tasvirlanadi.[16;17]

Hamid Olimjon dostonda Semurg‘ motivini xalqona poetik uslub bilan ochadi. Asarning kirish qismidayoq ertakona tasvirning formulaviyligi seziladi: qahramonning husni va dovrug‘i “doston bo‘lish” darajasiga ko‘tariladi, omma kayfiyati “bozor” metaforasi orqali beriladi. Quyidagi misralar folkloriy stereotip tasvirning yozma doston shakliga o‘tgandagi namunasi:

Sarvi qomat Parizod,
O‘sdi g‘amlardan ozod,
Bahor yanglig‘ ochildi,
Gullar kabi sochildi. [15]

Bu parcha ertak-dostonlarda uchraydigan “qahramon tavsifi”ning klassik modelini qaytaradi: qomatning sarvga qiyoslanishi, bahor va gul obrazlari bilan go‘zallikni kodlash, dovruqning “elga tarqalishi” kabi formulalar og‘zaki ijoddagi stereotip tasvirlar tizimiga mos. Ammo shoir bu formulalarni zamonaviy poetik ritm va semantik aniqlik bilan “tozalaydi”: so‘zlar qisqa, ohang ravon, tasvir aniq. Natijada folkloriy stereotip “naql”ga emas, badiiy obrazga aylanadi.

Semurg‘ motivining funksional tomoni dostonda “yovuzlikka qarshi kurash” va “adolatli yakun” mantiqiga bo‘ysundiriladi. Bu, Propp morfologiyasi bilan aytganda, “yordamchi” va “vosita” funksiyalarining qayta talqini sifatida ko‘rilishi mumkin. Mifologik qushning paydo bo‘lishi epik dinamika hosil qiladi, qahramon harakati tezlashadi, makon kengayadi. Shu bilan birga, Semurg‘ obrazining madaniy xotirasi matnga qo‘shimcha chuqurlik beradi: o‘quvchi ongida bu timsol qadimiy hikoyatlar, ertaklar, sufiy ramzlar bilan rezonanslashadi. [2;18]

Folklor unsurlarining eng barqaror qatlamlaridan biri - uslub va til. Hamid Olimjon dostonlarida folkloriy “takror” bir vaqtning o‘zida uch vazifani bajaradi:

- ritmik-intonatsion birikma yaratadi;
- kompozitsion bog‘lovchi bo‘lib xizmat qiladi;
- semantik urg‘u (epik “e’tibor markazi”)ni belgilaydi. Masalan, “Oygul bilan Baxtiyor” dostoni boshlanishida “Kela berdilar bari, kattakon chinor sari” kabi takroriy konstruksiyalar xalq dostonlaridagi epik oqimni eslatadi; takror mazmunni cho‘zmaydi, aksincha, harakatning ommaviyligini va epik ko‘lamni kuchaytiradi.

Folklorda “muqaddas sonlar” (3, 7, 9, 40) ko‘pincha kompozitsion belgi sifatida ishlatiladi. Hamid Olimjon ham bu koddan foydalanib, epik vaqtni “ertakona” intensivlikka olib chiqadi. Dostonda uchraydigan quyidagi satrlar shunday son poetikasining namunasi:

Yetti kecha, yetti kun,
Yetti kunduz, yetti tun…[19]

Takrorlangan “yetti” soni bu yerda oddiy miqdor emas; u ertak-doston “o‘lchovi”dir. Ya’ni, voqea oddiy real vaqt emas, epik vaqt ichida kechadi. Bunday vaqt ko‘pincha sinovning og‘irligini

va qahramonlarning sabotini ko‘rsatish uchun ishlatiladi. Shu tariqa, folkloriy kod (yetti) epik psixologiya vositasiga aylanadi.

разработки, внедрения и оценки моделей компетенций. Результаты исследования обосновывают значимость компетентностного подхода в процессах отбора, оценки и развития персонала.

Ключевые слова: *компетенция, компетентность, компетентностный подход, модель компетенций, профиль компетентности, управление персоналом, анализ работы, профессиональные качества, управленческие компетенции, модель "Great Eight", универсальная модель, HR-технологии.*

Kirish. Hozirgi paytda dunyoda shaxslarning qilayotgan ish tahlilidan kompetensiyalarni o‘rganishga o‘tish bo‘yicha ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. Ishning tahlilini xodimga bo‘lgan talablarning manbai sifatida qarash mumkin. Mehnat psixologiyasida (yoki industrial psixologiyada, u g‘arb ilmiy va amaliy adabiyotida shunday nomlanadi) ishning tahlili asosiy tadqiqot metodi va amaliyotchi psixologga ishning talablarini va ish o‘rnining ijrochiga nisbatan qo‘yadigan talablarini baholash imkonini beruvchi metod bo‘lib hisoblanadi. Buning uchun ish o‘rni va ish jarayoni mukammal tahlil qilingan va professional muhim sifatlar ro‘yxati, shuningdek, absolyut va nisbiy professional yaroqsizlik belgilari aniqlangan. Bunday yondashuv yetarlicha uzoq vaqt hukmronlik qilgan va yaqinlargacha o‘zini oqlab kelgan.

Ish o‘rnining odamga bo‘lgan talablarini aniqlashning usullaridan biri - bu faoliyatning yaxshi va yomon xodimlar o‘rtasida eng yaqqol namoyon bo‘ladigan farqini aniqlashga va tavsiflab berishga yo‘naltirilgan bajariladigan ishlar kompleksidir. Bunday yondashuv asta-sekin yangi konsepsiya – kompetentlikni modellashtirish konsepsiyasining shakllanishiga olib keldi.

Ish o‘rnining odamga bo‘lgan talablarining tahlili xodimning ish samaradorligi yuqori yoki past bo‘lishini ta’minlab beradigan eng muhim talablarga, masalan, qo‘l harakatlari tezligi yoki bir operatsiyadan ikkinchi operatsiyaga o‘ta olish tezligini tahlil qilishga qaratilgan. Shu tariqa psixologlar yaxshi xodimlarni tanlab olishga yo‘naltirilgan ish o‘rnini tahlil qilish metodidan ish o‘rinlarini odam imkoniyatlariga moslashtirishga qaratilgan metodga o‘ta boshladilar. Shu narsa e’tiborliki, kompetentlikni modellashtirishga erta qiziqish paydo bo‘lishini rag‘batlantirgan konkret yondashuvlardan biri Xey-Makber yondashuvi bo‘lib, u o‘z mohiyatiga ko‘ra ish o‘rinlarini tahlil qilish metodining adaptatsiya qilingan va kengaytirilgan ko‘rinishidan iborat [6;128].

Keyingi yillarda ishlarni tahlil qilish o‘rnini kompetensiyaviy yondashuv ishonch bilan egalladi. Tashkilotda personalni boshqarish xizmati ishida kompetensiyaviy yondashuvni amaliy qo‘llash dolzarb bo‘lib bormoqda, chunki tashkilot ishining natijasi, asosan, xodimlarning kompetensiyalari ular egallab turgan lavozimlari talablariga qanchalik mos kelishiga bog‘liq bo‘ladi. Ammo hozirgacha kompetensiyalar nima, ularni qanday o‘lchash va baholash mumkin, degan savolga bir xilda javob yo‘q. Ko‘pchilik mualliflar o‘z ishlarida mazmuniga ko‘ra yaqin, ammo baribir farq qiladigan ta’riflarni beradilar va turli xil metod va kompetensiyalarni baholovchi metodikalarni tavsiflaydilar,

Adabiyotlar tahlili. O‘zbekiston ta’lim tizimida kompetensiya, kompetentlik, uning turlari, kompetentli yondashuv, kompetensiya modellari masalalari E.G‘.G‘oziyev, O.E.Xaitov, Sh.X.Abdullayeva, G.Sh.Salomova, E.N.Sattarov, N.A.Muslimov, M.T.Xamdamova ishlarida yoritilgan, shuningdek, Sh.A.Akramova, G.A.Asilova, I.N.Aslonov va boshqalar tomonidani bojxona mutaxassislarini kasbiy tayyorlashning nazariy va amaliy jihatlari, bojxona xizmati xodimlarining shaxsiy sifatlarini oshirish, kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalalari tadqiq etilgan.

Kompetensiyaviy yondashuvni tushunish uchun kompetensiya va kompetentlik tushunchalariga aniqlik kiritish talab qilinadi. Kompetensiyani tushunish masalasida ikkita yondashuv borligini qayd etish lozim. Britaniya yondashuviga mos ravishda baholash mezonlari modelini kompetentliklar modeli deb, mutaxassis bajaradigan vazifalar modelini esa kompetensiyalar modeli deb nomlash to‘g‘ri bo‘lar edi. Amerika yondashuvida esa baholash mezonlari modeli kompetensiyalar modeli deb nomlanadi. Amerikacha yondashuvda mutaxassis vazifalari modeli to‘g‘risida deyarli so‘z bormaydi, faqat keng tarqalgan tushuncha kompetensiyalar modeli tushunchasi qo‘llaniladi. Rossiyalik olimlar (T.Yu.Bazarov va boshqalar) tomonidan amalga

oshirilayotgan yondashuvda “kompetentliklar modeli mutaxassisda baholanadigan mezonlar, sifatlar tariqasida tushuniladi, kompetensiyalar modeli deganda – mutaxassis o‘z faoliyati davomida yechadigan vazifalar modeli tushuniladi”[2;147].

Bugungi kunda kompetensiya atamasi xulq-atvorning kutilayotgan natijalarga yoki ish o‘rnidagi yoki tashkiliy struktura ichidagi natijalarga erishishga olib keladigan xususiyatlarini tasvirlash uchun ishlatiladi. Kompetensiyalarni shu tarzda belgilashga harakat qilishadiki, qachonki xodim aynan nima qiladi va uni qanday kuzatish mumkin ekanligi tushunarli bo‘lsin. Ayni paytda, kompetensiyalar qiyin ish vazifalarini, konkret funksiyalarni muvaffaqiyatli bajarish yoki mazkur rolda yoki lavozimda muvaffaqiyatli ishlash uchun bilim, malaka, qobiliyatlarni, xulq-atvor va shaxsiy xarakteristikalarni qo‘llash yoki ulardan foydalanish qobiliyatidir. Umuman bu, odamlarning vaziyatlarni keng diapazonda umumlashtiradigan va uzoq vaqt davrida saqlanib turadigan xulq-atvor yoki tafakkur usullarini ko‘rsatadigan asosiy xarakteristikalaridir.

“Kompetensiya” so‘zi bugun – bir xil tushunilishga ega bo‘lmagan va ayni paytda mutaxassislar guruhi foydalanadigan ta’rifga bog‘liq atamadir. So‘rovnoma asosida olingan turli mualliflar tomonidan kompetensiya atamasiga ta’rif berishga bo‘lgan urinishlarni quyida misol tariqasida keltiramiz.

“Yuqori darajadagi ijrochilarni o‘rtacha ijrochilardan farq qildiradigan bilimlar, ko‘nikmalar va alomatlar”.

“Kompetensiyalar an’anaviy belgilangan KSAO (ya’ni bilimlar, ko‘nikmalar, qobiliyatlar va boshqa xarakteristikalar) dan jiddiy darajada farq qilmaydi”.

Bu “bilim va ko‘nikmalar darajasini aniqlashga” yordam beradigan konstruksiyadir.

“Asosiy vazifalarni, rollarni yoki ishni bajarish uchun muhim bo‘lgan kuzatiladigan xulq-atvor imkoniyatlari”.

“Bilimlar, ko‘nikmalar, qobiliyatlar va mehnat samaradorligiga bo‘lgan talablarning qorishmasi”.

Adabiyotlardan eng ko‘p iqtibos keltiriladigan ta’riflar quyidagilar:

Bilimlar, ko‘nikmalar, qobiliyatlar, motivatsiya, e’tiqodlar, qadriyatlar va qiziqishlar birikmasidir.

Bilimlar, qobiliyatlar yoki unumdorlik bilan bog‘liq xarakteristikalar.

Motivlar, xarakter belgilari, o‘z-o‘ziga beradigan baho, ustanovkalar yoki qadriyatlar, mazmun to‘g‘risidagi bilimlarning yoki kognitiv xulq-atvor ko‘nikmalarining aralashmasi; ishonchli o‘lchash yoki hisoblash mumkin bo‘lgan va yuqori ko‘rsatkichlarni o‘rtachasidan farqini ko‘rsata oladigan har qanday individual xarakteristika.

Ish maqsadlariga erishish uchun qo‘llaniladigan o‘lchanadigan ishchi odatlar va shaxsiy malakalarni yozma tavsifi.

Shu narsa ravshanki, xatto bir-birlariga ancha o‘xshash bo‘lgan ekspertlar guruhi orasida ham atamaga aniq va standart ta’rif berish qiyinligini ta’kidlagan xolda ta’riflarning juda rangbarangligini ko‘rish mumkin.

“Kompetensiya” va “kompetentlik” atamalarining o‘zagi competo so‘zi bo‘lib, u lotinchada “erishaman; mos kelaman, to‘g‘ri kelaman” degan ma’nolarni bildiradi [5;130]. Ba’zida bu so‘zlar to‘liq sinonim sifatida ishlatiladi, lekin ko‘pchilik tadqiqotchilar baribir ularni farqlashadi.

“Kompetensiya” termini xodimning mazkur ish o‘rnidagi yoki lavozimdagi vazifalarini xarakterlagan. Bu holatda shuni qayd etish muhimki, mehnat posti ma’lum bir muddatga bo‘sh qolishi mumkin, va shunday qilib, “kompetensiya” termini tashkiliy loyihalash mahsulotiga, ma’lum bir abstrakt xodimning mehnat funksiyalari modeliga nisbatan taalluqli bo‘ladi. Bu bilan “kompetensiya” so‘zida xodim erishishi lozim bo‘lgan yakuniy natijalar, shuningdek, ularga erishish usullari va jarayonlarining normativligi ta’kidlangan.

“Kompetentlik” atamasi konkret odamning (lavozimga nomzodning yoki ishlayotgan mutaxassisning) mazkur mehnat postidagi faoliyatga loyiqligi darajasini ko‘rsatadi. Kompetent xodim berilgan professional topshiriqlarni (vazifalarni) sifatli va o‘z vaqtida bajarilishini ta’minlaydigan zaruriy bilimlar, malakalar va individual shaxsiy sifatlarga ega bo‘ladi, deb taxmin qilingan. Shuningdek, hisoblashganki, xodim kompetent (malakali) bo‘lishi, lekin asotsial moyilliklarga ega

bo‘lishi va zararkunanda bo‘lishi, jinoyatchi va boshqa bo‘lishi mumkin. So‘zni bu shaklda oldingi shakllangan mazmunda tushunishdan taxmin qilinganki, kompetensiya to‘g‘risida gapirilganda mehnatda erishilishi kerak bo‘lgan oxirgi natijalarga urg‘u berilgan, xodimning mumkin yoki mumkin bo‘lmagan xatti-harakatlari (professional xulq-atvori shakllari) to‘g‘risida gapirilgan, kompetentlik to‘g‘risida gapirilganda xodimning o‘z professional vazifalarini amalga oshirishi samaradorligi bog‘liq bo‘lgan uning ichki resurslari, imkoniyatlari, uning psixik xususiyatlari, tajribasi nazarda tutilgan. Shu sababli ham psixolog uchun “kompetensiya” emas, “kompetentlik” terminini ishlatish odatiyroq bo‘ladi.

Angliyalik olimlarning ishning eng yuqori samaradorligi modellarini muhokama qilishga bag‘ishlangan “Ishdagi kompetensiyalar” [4;74] nomli kitobida ko‘p sonli misollarda nomzodlarning ma’lumotlarini baholashning ma’lum bir metodi orqali ular tomonidan ishni kelajakda bajarilishini prognoz qilish texnologiyasi ko‘rsatib berilgan. Muammo shundaki, ingliz tilida “competence” so‘zi ikkita ma’noni anglatadi, ko‘pincha u odamning konkret ish uchun zarur bo‘lgan qobiliyatlari, malakalari sifatida tushuniladi; ikkinchi ma’nosi yuridik amaliyotda ishlatiladigan – kompetensiya, ya’ni qonuniy vakolatga egalik ma’nosida tushuniladi.

Tahlil va natijalar. Kompetentliklar profili o‘z egallab turgan lavozimiga mos keladigan xodim ega bo‘lishi kerak bo‘lgan kompetentliklar jamlanmasidir. Bu kompetentliklar ro‘yxati har bir lavozim uchun kompetentliklar rivojlanishining zaruriy darajasini o‘z ichiga oladi.

Kompetentliklar modelini qurishga bo‘lgan uchta yondashuv farqlanadi:

1) “bitta ish o‘rni uchun model” yondashuvi;

2) “bir nechta ishchi o‘rni uchun model” (ishlar guruhlari modeli);

3) “universal model” yondashuvi.

“Bitta ish o‘rni modeli” quyidagi qadamlarni bajarish asosida quriladi.

1-qadam. Odatda xodimlar va / yoki ularning rahbarlaridan fokus-guruh, xodimlar bilan intervyu, mijozlar bilan intervyu, to‘g‘ridan-to‘g‘ri hisobotlar, qo‘shimcha xodimlar bilan so‘rovnomalar, xodimlarni ishda bevosita kuzatish yordamida ma’lumotlarni yig‘ish.

2-qadam. Eng muhim 10-20 ta belgilar yoki malakalarni kompetensiya modeliga birlashtirish.

3-qadam. Kompetensiyalar modeli ekspertlar tomonidan baholanadi va tashkiliy zaruratlar uchun ishlatiladi.

Ikkinchi yondashuv “bir nechta ish o‘rni uchun model” (ishlar guruhi modeli) quyidagi qadamlarni o‘z ichiga oladi:

1-qadam. Model qo‘llanilishi mo‘ljallangan guruhni aniqlash, masalan, o‘rta bo‘g‘indagi menejerlar guruhi.

2-qadam. Kompetensiyalarni ishlab chiqish uchun mas’ul bo‘lgan komanda ma’lumotlarni to‘plash o‘rniga odatda, ish uchun mavjud kompetensiyalar modellaridan, shuningdek, kitoblar va maqolalardan liderlik, biznes, tashkiliy rivojlanish va inson resurslarining rivojlanishi to‘g‘risidagi konsepsiyalarni tanlaydi.

3-qadam. Keng doiradagi ishlar (masalan, barcha boshqaruv ishlari) uchun bitta kompetensiyalar jamlanmasini belgilab olish.

Uchinchi yondashuv - “universal model” tashkilot kompetensiyalar modelini bir nechta variantda qurish yondashuviga ehtiyoj sezadi, degan g‘oyaga asoslanadi. Masalan, tashkilotda 25 ta professional va boshqaruv lavozimlari uchun kompetensiyalar modeliga, shuningdek, samaradorlikni boshqarish uchun, professional rivojlantirish va kompetensiyalar modellari asosida ushbu lavozimlarga tanlab olish uchun izchil dasturlarga va instrumentlarga ehtiyoj mavjud. Bunday yondashuvning natijasi – vazifalar va darajalarga bog‘liq ravishda bir nechta modellarni ishlab chiqishdan iborat. Masalan, rahbar modeli birinchi darajadagi rahbar kompetensiyasiga (chiziqli (muntazam) boshqaruv), ikkinchi darajali (o‘rta bo‘g‘in), yuqori darajali (top-menejment) va kadrlar zahirasi kompetensiyalariga bo‘lingan. Bunda gap yo sotish bilan shug‘ullanuvchi bo‘lim yoki personal yoki marketing bo‘limi rahbari to‘g‘risida borishining ahamiyati yo‘q [4;87]. Har bir modelning ustunliklari va kamchiliklarini taqqoslash 1-jadvalda aks etgan.

1-jadval

Uchta yondashuvning ustunliklari va kamchiliklarini taqqoslash

Taqqoslash	Individual yondashuv	“Bir razmer hammaga to‘g‘ri keladi” yondashu-vi	Ko‘p vazifali yondashuv
Ustunligi	Ish uchun nomzodning aniq tanlovini ta’minlab beradi, ayniqsa tashkilot muvaffaqiyati uchun bu juda muhim bo‘lgan joyda	Ishchi o‘rinlari guruhi uchun barcha HR dasturlarini birlashtiruvchi, oddiy strukturani ta’minlab beradi, mas., boshqaruv	A)Kompetensiyalar modellarini bir-birlari bi-lan taqqoslashni va bir nechta vazifaga ega bo‘lgan xodimlar profil-larini taqqoslashni osonlashtiradi B)eng tejamkor hisoblanadi
Kamchiligi	Eng samarasiz hisoblanadi	Odatda yuqori rahbariyatning tasdiqlashini yoki bir nechta mustaqil HR guruhlarning kelishuvini talab qiladi	Uchta yondashuvdan amalga oshirish uchun eng murakkabi

A.V.Ovchinnikov tomonidan taklif qilingan professional kompetensiyalarning universal modelida [3;28] kompetensiyalarning beshta: shaxsiy, ijtimoiy, texnik, tashkiliy va ma’muriy klasterlari farqlanadi. Taklif qilinayotgan klasterda modellar ma’lum bir tartibda joylashtirilgan. Ovchinnikov birinchi bo‘lib kompetensiyalarning evolyutsion rivojlanishi taxminini taklif etadi va taklif etilayotgan modelda kompetensiyalarning odam hayoti davomida siklli tarzda sifat jihatdan o‘zgarib borishi g‘oyasini amalga oshiradi.

Keyingi paytda 8 ta kompetensiyadan tashkil topgan “SHL modeli» keng qo‘llanila boshladi. Bu model SHL’s “Great Eight” Competencies (Saville and Holdsworth Limited, SHL) kompani-yasi tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, u 8 ta kompetensiyani o‘z ichiga oladi. Bu model omma-viylik darajasiga erishdi va hozirgi kunda zamonaviy kompaniyalarda qo‘llanilayapti. Bu mod-elning afzalligi – unda ifodalangan boshqaruv kompetensiyalarining to‘liqligidir. Ammo, bizning fikrimizcha, bu modelga unda keltirilgan kompetensiyalarni klassifikatsiya qilish uchun mantiqiy asosning yetishmasligi xos – ular struktura va tizimsiz “ko‘r-ko‘rona ro‘yxat” bilan berilgan. Bu kompetensiyalarning xarakteristikasi 2-jadvalda berilgan.

2-jadval.

SHL’s “Great Eight” kompetensiyalari modelining tavsifi (“Katta sakkizlik”)

Kompetentlik	Tavsifi
Liderlik va qaror qabul qi-lish	Nazorat va rahbarlikni amalga oshiradi. Boshqalarni xatti-harakatga yo‘naltiradi, yo‘nalish beradi va mas’uliyatni o‘ziga oladi
Qo‘llab-quvvatlash va hamkorlik	Boshqalarni qo‘llab-quvvatlaydi, ijtimoiy vaziyatlarda ularga hurmat va ijobiy munosabat namoyon qiladi. Alohida odamlar va komanda bilan, mijozlar va personal bilan samarali ishlab, birinchi o‘ringa odamlarning qiziqishlarini qo‘yadi. Tashkilot qadriyatlarini to‘ldiradigan o‘z aniq shaxsiy qadriyatlari bilan

	o‘zini izchil tutadi.
O‘zaro ta’sir va ta’sir ko‘rsatish	Samarali muloqotga kirishadi. Muvaffaqiyatli ishontiradi va boshqalarga ta’sir ko‘rsatadi. Boshqalarga ishonch bilan va xotirjam munosabatda bo‘ladi.
Tahlil va interpretatsiya	Aniq tahliliy tafakkur isbotini namoyon qiladi. Murakkab muammolar va savollarni tushunadi. O‘z ekspertizasini samarali qo‘llaydi. Yangi texnologiyalarni tez o‘zlashtiradi. Yozma tarzda yaxshi muloqotga kirishadi.
Kreativlik va konseptuallashtirish	Yangi g‘oyalar va tajriba uchun ochiq. O‘qish, o‘rganish imkoniyatini izlaydi. Vaziyatlar va muammolarni innovatsiyalar va ijodkorlik bilan yechadi. Keng va strategik fikrlaydi. Tashkiliy o‘zgarishlarni qo‘llab-quvvatlaydi va stimullashtiradi.
Tashkillashtirish va bajarish	Kelajakni rejalashtiradi va tizimli hamda tashkillashgan xolda ishlaydi. Ko‘rsatmalar va qoidalarga rioya etadi. Mijozlar ehtiyojlarini qondirishga yo‘nalgan va kelishilgan standartlarga mos keladigan sifatli xizmatlar yoki mahsulotlar taqdim qiladi.
Moslashish va bartaraf etish	Moslashadi va o‘zgarishlarga yaxshi javob qaytaradi. Ko‘rsatilgan bosimni samarali boshqaradi va muvaffaqiyatsizliklarni uddalaydi.
Uddaburonlik va intizomlilik	Ishning natijalariga va shaxsiy maqsadga erishishga yo‘nalgan. Ish natijalar bilan yaqin bog‘liq bo‘lganda va shaxsiy zo‘r berish ta’siri yaqqol bo‘lganda juda yaxshi ishlaydi. Biznesni, kommersiyani va moliyani tushunishini ko‘rsatadi. O‘z-o‘zini rivojlantirish va karyerada o‘sish uchun imkoniyat izlaydi.

Xulosa. Shunday qilib, keyingi yillarda personalni o‘qitish va baholashda kompetensiyaviy yondashuv muhim o‘rinni egalladi, chunki tashkilot ishining natijasi asosanxodimlarning kompetensiyalari o‘zlari egallab turgan lavozimlarining talablariga qanchalik mos kelishiga bog‘liq bo‘ladi. Ammo hozirgacha kompetensiyalarni nima ekanligini tushunish, ularni qanday o‘lchash va baholash turli mamlakatlar va turli toifadagi tashkilotlarda turlicha bo‘lib kelgan. Kompetensiyaviy yondashuv eskirgan “ishni tahlil qilish” yondashuvini siqib chiqardi. Yondashuvlarnring farqi shundaki, ishni tahlil qilish bu xodim “nima” qilishni bilishi kerakligini o‘rganishdir, kompetensiyalarni modellashtirish esa xodim “qanday qilib” maqsadga erishadi va buning uchun qanday shaxsiy resurslarga ega bo‘ladi degan masala ustida jamlanadi.

Kompetensiya atamasi xohlanilgan natijalarga yoki ish o‘rnida yoki tashkiliy tuzilma ichida natijalarga erishishga olib keladigan xulq-atvor xususiyatlarini tavsiflash uchun qo‘llaniladi. Kompetensiyani shunday tarzda ta’riflashga intilishadiki, qachonki xodim aynan nima qilishi va buni qanday kuzatsa bo‘lishi aniq bo‘lsin. Kompetensiyalar bilimlarni, malakalarni, qobiliyatlarni, xulq-atvorni va shaxsiy xususiyatlarni qo‘llash va undan foydalanish qobiliyati bo‘lib, shu tufayli qiyin ish vazifalari, konkret funksiyalar muvaffaqiyatli bajariladi yoki mazkur rolda yoki lavozimda ishlash muvaffaqiyatli ishlash amalga oshiriladi. Umuman olganda bu, vaziyatlarning keng diapazonda umumlashtiriladigan va vaqtning uzoq davrlari davomida saqlanib qoladigan odam xulq-atvori yoki tafakkuri uslubini ko‘rsatadigan asosiy xarakteristikalaridir. Kompetensiyalar – bu individual yoki kollektiv subyektning integral sifatlari atamalarida ifodalangan muvaffaqiyatli faoliyat talablaridir. Bu sifatlar, odatda, muvaffaqiyatli (ma’lum bir kasbda, ma’lum bir lavozimda, konkret kompaniyada) ishlash uchun zarur bo‘lgan bilimlarni, professional malakalarni va individual tipik

yoki tashkiliy-madaniy xarakteristikalarni birlashtiradi. Ba'zi holda kompetensiyalar yuqori natijalarga erishish uchun zarur bo'lgan professional xulq-atvor modeli sifatida tavsiflanishi mumkin.

Kompetensiyalar modeli – bu kuzatiladigan va o'lchanadigan bilimlar, malakalar va xususiyatlarning aniq tashkillashtirilgan tuzilmasidir (7-9 ta to'liq kompetensiyalardan tashkil topgan guruh). Kompetensiyalar konkret ish kontekstida yuqori samaradorlikka olib keladigan xulq-atvorda namoyon bo'ladi. Mos ravishda, kompetensiyalar modeli konkret professional rolda a'lo darajadagi samaradorlikka erishish uchun zarur bo'lgan xulq-atvorning hal qiluvchi xususiyatlarini o'z ichiga oladi. Kompetensiya bilan bog'liq faoliyat va xulq-atvor turlarini tavsiflash ko'pincha tashkilotga moslashtirilgan bo'ladi, ular konkret ishda, ma'lum bir ishlar guruhida (masalan, aralash ishlar guruhida) va ma'lum bir rivojlanish strategiyasiga ega tashkilotda samarali ishlash uchun talab qilinadi. Model shu tarzda strukturalashtirilgan bo'lishi kerakki, u odamlarga tashkilotda yoki bitta kasb ichida bir-birlarini tushunishga, talablarni o'zlari uchun umumiy bo'lgan bitta tilda muhokama qilishga va yuqori samaradorlik va mehnat unumdorligi uchun zarur kompetensiyalarni birgalikda belgilab olishga imkon berishi kerak. Kompetensiyalar modellari: yollash, o'qitish, ish samaradlorligini baholash, lavozimda o'stirish, karyerada rivojlanish, xodimlar to'g'risidagi informatsiyalarni boshqarish, kadrlar zaxirasiga tanlash maqsadlarida qo'llaniladi.

Kompetensiyalar modellarini ishlab chiqish va qo'llashda quyidagilarni bajarish zarur: a) kompetensiyalar to'g'risidagi ma'lumotlarni tahlil qilish va tashkiliy kontekst, shuningdek tashkilotning maqsadlari va vazifalarini hisobga olgan holda ishlab chiqiladigan modelni aniqlash; b)modellar uchun struktura vositalarini va kompetensiyalarni tavsiflash usullarini tanlash; v) tashkiliy maqsadlarda kompetensiyalar to'g'risidagi informatsiyalardan foydalanish; g) kompetensiyalar modellaridan foydalanish qulayligini oshirish uchun informatsion texnologiyalardan foydalanish; d) muhitning yangi sharoitlari va kompaniyaning o'zgargan strategiyasi kontekstida kompetensiyalar qiymatlarini muntazam reviziyasini o'tkazish; e) kompetensiyalarni baholash testlarini ularning huquqiy asoslanganligi (konfidensiallik talablarini buzilmasligi, testlarga bo'lgan obyektivlik va validlik talablariga rioya etilishi) nuqtayi nazaridan tekshirib borish.

Turli mamlakatlarda boshqaruv kompetensiyalari modellari standartlashtirilgan reglamentlar asosida ishlab chiqiladi. Masalan, Buyuk Britaniyada boshqaruv kompetensiyalarining milliy standarti reglament bo'lib hisoblanadi. AQSHda ishlab chiqilgan "SHL modeli" 8 ta boshqaruv kompetensiyalarini o'z ichiga oladi va ko'pchilik mamlakatlarda ommalashishga ulgurgan. Rossiyada hozirgi vaqtda personalni boshqarish xizmati uchun kompetensiyalar modellarini shakllantirishda professional faoliyat standartlari va inson kapitalini baholash standartlari hisobga olinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Haitov O.E. Oliy ta'lim muassasasi o'rta bo'g'in rahbarlari psixologik kompetentligini modellashtirish. 19.00.05 -Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya ixtisosligi bo'yicha fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. –Toshkent, 2020. -34 bet

2. Maxmudov I.I. Boshqaruv professionalizmi: psixologik tahlil / I.I.Maxmudov; O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi. –T. 2011. 304 b.

3. Muxamedova D.G. Sotsialno-psixologicheskiye osobennosti optimizatsii upravlencheskoy deyatelnosti menedjera obrazovaniya. Avtoref. diss. kand. psixol.nauk T., 2011 18 s.

4. Sattarov E.N. "O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi kadrlar zaxirasi bilan ishlash tizimini ijtimoiy psixologik takomillashtirish". Psixol.fan.dok. ...dis. – T., 2022. – 97-98 b.

Jurayev Bahrom
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
psixologiya fanlari doktori(DSc), professor
E-mail:bahrom.jurayev3404@mail.ru

O‘SPIRINLARDA HUQUQIY SAVODXONLIK SHAKLLANISHIDA PSIXIK JIHATLARNING AHAMIYATINI TADQIQ ETISH.

Annotatsiya. *Maqolada o‘spirinlarda huquqiy savodxonlik shakllanishida psixik jihatlarni ahamiyatini baholash hamda o‘quvchilarning huquqiy tushunchalarni o‘zlashtirishga nisbatan psixologik tayyorlik holatini rivojlanishi, ularning tafakkur xususiyatlarini aniqlash, fikirlash jarayoni voqea-hodisalarni tahlil qilish va huquqiy savodxonligi shakllanishi sharoitida huquqiy bilimning ahamiyati va o‘rni qanday ekanligi tadqiq etilgan.*

Kalit so‘zlar: *huquq, huquqiy savodxonligik, huquqiy madaniyat, huquqiy ong, huquqiy tushuncha, qadriyat, norma, qarash, erkinlik, majburiyat, g‘oya, baho, tasavvur, qonun, munosabat, oqibat.*

ИССЛЕДОВАНИЕ ЗНАЧЕНИЯ ПСИХИЧЕСКИХ АСПЕКТОВ В ФОРМИРОВАНИИ ПРАВОВОЙ ГРАМОТНОСТИ У ПОДРОСТКОВ.

Аннотация. *В статье рассматривается оценка значимости психических аспектов в формировании правовой грамотности у подростков и развитие состояния психологической готовности учащихся к усвоению правовых понятий, выявление особенностей их мышления, процесса мышления, значение и роль правовых знаний в условиях анализа событий и формирования правовой грамотности.*

Ключевые слова: *право, правовая грамотность, правовая культура, правосознание, правовое понятие, ценность, норма, видение, свобода, обязанность, идея, оценка, воображение, закон, отношение, следствие.*

RESEARCH ON THE IMPORTANCE OF PSYCHIC ASPECTS IN THE FORMATION OF LEGAL LITERACY IN ADOLESCENTS.

Annotation. *the article examines the importance of psychic aspects in the formation of legal literacy in adolescents and what is the significance and role of legal knowledge in the context of the development of the state of psychological readiness of students in relation to the assimilation of legal concepts, identification of their thinking characteristics, analysis of phenomena and the formation of legal literacy in adolescents.*

Key words: *law, Legal Literacy, legal culture, legal consciousness, legal concept, value, norm, vision, freedom, commitment, idea, assessment, imagination, law, attitude, consequence.*

Kirish. O‘spirinlarda huquqiy savodxonlikni shakllantirish ularning ijtimoiy-psixologik rivojlanishi, huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon 14-15 yoshli o‘quvchilarning huquqiy tushunchalarni o‘zlashtirishga psixologik tayyorligini rivojlantirish, huquqiy axborot bilan ishlash va faol ijtimoiylashuvini ta’minlashga qaratilgan.

O‘spirinlarda huquqiy savodxonlikni rivojlantirishning asosiy jihatlari:

- Psixik jihatlar: Huquqiy bilimlar bilan birga, o‘spirinning ruhiy tayyorligi, motivatsiyasi va huquqiy tushunchalarni (huquq, majburiyat, javobgarlik) anglash darajasi o‘rganiladi.
- Ijtimoiy-psixologik muammolar: O‘spirinlik davrida huquqiy ongni shakllantirishda shaxsning ijtimoiy moslashuvi, huquqiy madaniyat va huquqiy axborotdan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmalari tahlil qilinadi.

- Faol ijtimoiylashuv: tadqiqotlariga ko‘ra, huquqiy bilimlar o‘spirinning jamiyatda faol ishtirok etishi va huquqiy munosabatlarga kirishishida muhim rol o‘ynaydi.

- Ilmiy yondashuv: tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarda o‘spirinlarda huquqiy savodxonlikning individual xususiyat sifatidagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Respublikamizda so‘ngi yillarda yoshlarning huquq va erkinliklari, ijtimoiy faolligini oshirish, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalaridagi ishtirokini kuchaytirish, ta’lim olishi, turmush tarzini yaxshilashga yo‘naltirilgan xuquqiy-meyoriy asos yaratildi. «Yoshlarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan yo‘nalishida: yoshlarga oid normativ-huquqiy hujjatlarning yagona elektron bazasini shakllantirish va yangilanib borishini ta’minlash; qonun ijodkorligida yoshlarning yaqindan ishtirokini ta’minlash; jumladan, voyaga yetmaganlar, o‘rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish bo‘yicha ta’sirchan mexanizmlarning aniq choralarini ishlab chiqish...» vazifalar ijrosini ta’minlashda o‘spirinlarning huquqiy savodxonligini kuchaytirishning psixologik omillarini aniqlash shakllanishining pcixologik mexanizmlapini aniqlash va takomillashtirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirishga qaratilgan yangicha nazariy yechimlarni topish uchun mustahkam asos yaratildi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. «Huquqiy savodxonlik» tushunchasini ilmiy sohada, xususan psixologiyada ham aniqlashtirish masalasida turli adabiyotlarda turlicha fikrlar mavjudligini kuzatish mumkin. Shunday bo‘lsada ilmiy adabiyotlardagi «huquqiy savodxonlik» tushunchasiga berilgan tasniflarni umuiylashtirgan holda huquqiy savodxonlikni huquqiy vaziyatlarda o‘z faoliyatida huquqiy normalarni tushunish, huquqiy bilimlarni egallanganlikni tavsiflovchi va buni huquqiy faoliyatda namoyon qiluvchi tavsiflovchi tushunchadir1.

Ko‘plab mutaxassislar tomonidan huquqiy savodxonlikning asosiy vazifalari ajratilgan bo‘lib, ular quyidagilardan iborat2:

Huquqiy savodxonlikning ta’limiy vazifasi. Yuridik bilimlarning miqdorini ta’minlovchi vazifasi.

Huquqiy savodxonlikning baholovchi vazifa. Aniq vaziyat va holatga nisbatan subyektning emotsional munosabatini belgilovchi vazifadir.

Huquqiy savodxonlikning nazorat vazifasi. Huquqiy ustanovkalar, huquqiy qadriyatlarni, huquqiy yo‘nalganlikni ta’minlovchi vazifa. Mazkur vazifaning natijasi huquqiy yoki huquqiy normaga zid holdagi xulq-atvor hisoblanadi.

Inson kamoloti ko‘pgina omillarga bog‘liqdir. Uning ma’naviy, axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar xilma xildir. Tadqiqotning ushbu bosqichida o‘spirinlar huquqiy savodxonligi bilishga bo‘lgan so‘rovnomadan foydalanildi. Shaxsning ma’naviy kamoloti va ijtimoiylashuvi murakkab va o‘ziga xos jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayonda shaxsning ijtimoiylashuvini belgilovchi qator jihatlar mavjudki, ularni inobatga olmasdan turmush tarzini bir tizimga solib bo‘lmaydi.

Tadqiqot metodologiyasi, tahlil va natijalari. O‘spirinlarda huquqiy savodxonlik shakllanishining psixologik asoslarini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotning navbatdagi bosqichida psixik jihatlarning ahamiyatini o‘rganishga e’tibor qaratdik. Mazkur yo‘nalishdagi taddqiqotning birinchi bosqichida o‘spirinlarning huquqiy savodxonlik darajalarining kognitiv, xulqiy va emotsional-baholash komponentlari bo‘yicha yuqori, quyi va o‘rtacha darajalarining umumiy holati bo‘yicha tafakkur uslublarini aniqlashga e’tibor qaratildi. Ikkinchi holatda esa o‘spirinlarning asab tipi xususiyatlarining huquqiy bilimlarni o‘zlashtirishdagi ahamiyati tadqiq etildi. Shu bois ushbu paragrafda o‘spirinlarning huquqiy savodxonligini shakllanishida psixik jihatlarining ahamiyati Dj.Brunerning “Tafakkur tiplari va kreativlikni aniqlash” metodikasi yordamida aniqlandi. So‘ngra metodika natijalari huquqiy savodxonlik darajasining yuqori, o‘rta, quyi darajasiga mansub

[1]Лазарев В.В. Общая теория права и государства: учебник / В.В. Лазарев. – М.: Юристъ, 2002. 243 с.

[2]Каминская В.И. Правосознание как элемент правовой культуры.Правовая культура и вопросы правового воспитания / В.И. Каминская,А.Р. Ратинов. – М., 1974. 57 с

o‘spirinlarni tiplashtirish asosida o‘zaro tahlili amalga oshirildi. Dastlab metodika natijalarini o‘spirinlarning tafakkur uslubidagi ahamiyatlilik darajalarini topishda qaysi mezonga tayanishni aniqlash uchun birlamchi natijalarni Kolmogorov-Smirnovlarning normal taqsimlanish mezoni bo‘yicha qayta ishlandi Ushbu yo‘nalishda qo‘lga kiritilgan empirik ko‘rsatkichlar navbatdagi 1-jadvalda ifodalangan.

1-jadval

O‘spirinlarning tafakkur uslubi va kreativlikni aniqlash metodikasining normal taqsimlanish bo‘yicha ko‘rsatkichlari (Kolmogorov-Smirnov mezoni bo‘yicha, n=317)

Ko‘rsatkichlar	Predmetli tafakkur	Simvolik tafakkur	Belgili tafakkur	Obrazli tafakkur	Kreativlik
X	8,76	8,49	9,33	10,02	9.15
σ	1,17	1,27	1,18	3,12	1,26
Z	3,721	3,975	3,617	5,264	3,197
p	0,000***	0,000***	0,000***	0,000***	0,000***

Izoh: :*-p<0,05, **-p<0,01,***-p<0,001

“Tafakkur tiplari va kreativlikni aniqlash” metodikasi shkalalarining normal taqsimlanish ko‘rsatgichlarini tahlil qilish jarayonida quyidagi natijalar aniqlandi (5.2.1.1-jadval). “Predmetli tafakkur” (Z=3,721;p<0,001),“Simvolik tafakkur” (Z=3,975;p<0,001), “Belgili tafakkur” (Z=3,617;p<0,001), “Obrazli tafakkur” (Z=5,264; p<0,001), “Kreativlik” (Z=3,197;p<0,001) shkalalarining natijalari normal taqsimlanish qonuniga mos kelmasligi aniqlandi. Ushbu mezonga ko‘ra metodikaning tadqiqotidan olingan natijalarini keyingi bosqichlarda noparametrik statistik mezonlardan foydalanishimiz maqsadga muvofiqdir.

Metodikaning o‘spirinlar huquqiy savodxonligi darajalari bo‘yicha ifodalanishini quyidagi 2-jadvalga keltirildi.

Huquqiy savodxonlik darajasi va tafakkur uslubi bo‘yicha ko‘rsatkichlarning mosligi N (Kraskel-Uollis) mezoni bo‘yicha taqqoslandi. Metodikaning empirik qiymatlarini sharhlashdan oldin shaxsning huquqiy savodxonligi uchun muhim jihatlardan biri insondamantiqiy mulohazaning zarurligidir. Chunki insonning kundalik turmushida huquqiy hodisalar mantiqiy va mavhum tafakkur xossalari bilan bog‘liq ekanligini unutmaslik zarur. Ushbu xulq-atvor vaziyatlar yechimini topishda

2-jadval

O‘spirinlarning huquqiy savodxonlik darajasiga ko‘ra tafakkur uslubi va kreativlikning namoyon bo‘lish ko‘rsatkichlari

Tafakkur tiplari	O‘rtacha rang ko‘rsatkichi			H (Краскел-Уоллис)	p
	Yuqori huquqiy savodxonlikka Ega N=60	O‘rtacha huquqiy savodxonlikka ega N=488	Quyi huquqiy savodxonlikka ega N=69		
Predmetli tafakkur	193,90	154,22	162,37	5,658	0, 05*
Simvolik tafakkur	179,58	158,29	145,84	2,462	0,292
Belgili tafakkur	184,35	160,18	128,07	6,822	0,033*
Obrazli tafakkur	165,44	156,60	170,53	0,928	0,629
Kreativlik	155,08	158,01	169,57	0,584	0,747

Izoh:*-p<0,05

ijtimoiy va huquqiy jihatdan yechim topishga asoslangan shablonlari mavjud. Bu shablonlar meyoriy-qonuniy hujjat sifatida shakllantirilgan. Albatta har bir meyoriy-hujjatlarda ko‘rsatilgan moddalar tafakkur asosida chiqarilgan hukm va xulosalardan iborat. Masalaning ushbu jihatini inobatga olgan holda o‘spirinlarning huquqiy savodxonligi qaysi tafakkur tipini yetakchiligi aks ettirishini aniqlashga erishildi.

O‘spirinlarning tafakkur tipi bilan savodxonlik darajalariga ko‘ra ifodalanishi o‘rganildi. O‘spirinlarning tafakkur tipi bilan savodxonlik darajasi o‘rtasida ikkita ahamiyatli ko‘rsatkich aniqlandi. Birinchi holatda predmetli tafakkur tipi aynan huquqiy savodxonlik darajasi yuqori bo‘lgan o‘spirinlarda aks etdi (N=5, 658, p<0,001). Bundan ko‘rinadiki, huquqiy savodxonligi yuqori bo‘lgan o‘spirinlar amaliy tafakkurga ega bo‘lgan insonlar bo‘lib, ular obyektiv fikrlashni afzal ko‘radilar. Bu obyekt bilan makon va vaqtdagi uzviy bog‘liqlik, obyektiv harakatlar yordamida axborotni o‘zgartirishni amalga oshirish va operatsiyalarni ketma-ket bajarish bilan tavsiflanadi. Konvertatsiya qilishda jismoniy cheklovlar mavjud. Ushbu turdagi fikrlashning natijasi yangi tuzilmalarda mujassamlangan mulohazalar hosil qiladi. Hattoki o‘spirinlarning ko‘pchilik qismi huquqiy savodxonlikka bo‘lgan zarurat amaliy faoliyat bilan bog‘liqligini bejizga bayon etmadilar.

Ikkinchi toifa o‘spirinlar savodxonlik darajasi bilan bog‘liq bog‘liq farqni belgili tafakkur tipida kuzatildi. Huquqiy savodxonligi yuqori bo‘lgan o‘spirinlar qolgan ikki toifadan belgili tafakkur ko‘rsatkichlarida ham ahamiyatlilik farqiga ega bo‘ldi (N=6,822, p<0,001). Bu esa o‘spirinlarning gumanitar aql-zakovat egalari sifatida belgili fikrlashni afzal ko‘radilar. Ular xulosalar yordamida axborotni o‘zgartirish bilan tavsiflanadi. Belgilar bitta grammatika qoidalariga muvofiq kattaroq birliklarga birlashtiriladi. Natijada, belgilangan obyektlar o‘rtasidagi muhim munosabatlarni o‘rnatadigan tushuncha yoki bayonot ko‘rinishidagi fikr paydo bo‘ladi. Ushbu o‘rinda huquqiy savodxonlik darajasi yuqori o‘spirinlarda predmetli, belgili tafakkur tipining xosligi ularning ta’rifiga ko‘ra ijobiy mantiqiy mulohaza va xulosalarni chiqarishga mansubliklarini ko‘rsatmoqda.

Simvolik tafakkur, obrazli tafakkur tiplari va kreativlik o‘spirinlar huquqiy savodxonlik darajalarining barchasiga xos ekan. Masalan, hattoki ahamiyatlilik farqi bo‘lmsa-da, obrazli tafakkur tipi bo‘yicha huquqiy savodxonlik quyi darajada bo‘lgan o‘spirinlarda nisbatan yuqori natija kuzatildi (N=0,928). Obrazli tafakkur tipi yetakchilik qilgan o‘spirinlarda badiiy tafakkurga ega odamlar majoziy fikrlash turini afzal ko‘radilar. Bu makon va vaqtdagi subyektdan ajralish, tasvirlar bilan harakatlar orqali ma’lumotni o‘zgartirishni amalga oshirishdir. Operatsiyalar ketma-ket va bir vaqtning o‘zida amalga oshirilishi mumkin. Natijada yangi tasvirda mujassamlangan fikrlar vujudga keladi. Shu o‘rinda bir jihatni inobatga olish lozim o‘spirinlar huquqiy savodxonlikda huquqiy ijodkorlik yetishmayotganligini qayd etgan edilar. Bu holat aynan o‘spirinilarning hali meyoriy-huquqiy hujjatlar bo‘yicha o‘zlarining yakdil fikrlariga ega emasliklarini ko‘rsatmoqda.

Xulosa. Yuqoridagi amaliy o‘rganish natijalariga asoslanib, o‘spirinlarda huquqiy savodxonlikni shakllanishida predmetli tafakkur va belgili tafakkurning shakllanganligi muhim ekan. O‘spirinlar huquqiy savodxonligini o‘stirishda predmetli tafakkur bilan belgili tafakkurni ahamiyatini inoabtga olish o‘rinlidir. O‘spirinlarning tafakkur tipi bilan savodxonlik darajasi o‘rtasida ikkita ahamiyati ko‘rsatkich aniqlandi. Birinchi holatda predmetli tafakkur tipi aynan huquqiy savodxonlik darajasi yuqori bo‘lgan o‘spirinlarda aks etdi. Huquqiy savodxonligi yuqori bo‘lgan o‘spirinlar amaliy tafakkurga ega bo‘lgan insonlar bo‘lib, ular obyektiv fikrlashni afzal ko‘radilar. Ular obyekt bilan makon va vaqtdagi uzviy bog‘liqlik, obyektiv harakatlar yordamida axborotni o‘zgartirishni amalga oshirish va operatsiyalarni ketma-ket bajarish bilan tavsiflanadi. O‘spirinlarning ko‘pchilik qismida huquqiy savodxonlikka bo‘lgan zarurat amaliy faoliyat bilan bog‘liq ekan.

Natijada, belgilangan obyektlar o‘rtasidagi muhim munosabatlarni o‘rnatadigan tushuncha yoki bayonot ko‘rinishidagi fikr paydo bo‘ladi. Ushbu o‘rinda huquqiy savodxonlik darajasi yuqori o‘spirinlarda predmetli, belgili tafakkur tipining xosligi ularning ta’rifiga ko‘ra ijobiy mantiqiy mulohaza va xulosalarni chiqarishga mansubliklarini ko‘rsatdi.

Tavsiya.O‘spirinlar huquqiy savodxonligini shakllanganlik holati monitoringi uchun psix-odiagnostikasi bazasini ishlab chiqish zarur.

O‘spirinlarda huquqiy savodxonlikni shakllanish jarayoni samaradorligini ta’minlash uchun ontogenetik bosqichlariga muvofiq o‘quv materiallarini shakllantirishni e’tiborga olish zarur.

O‘quv jarayoni va ta’lim muhitidan tashqari huquqiy tadbirlarni yo‘lga qo‘yish orqali o‘spirinlarda huquqiy savodxonligini shakllantirish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni mus-tahkamlash mumkin bo‘ladi.

O‘spirinlik yoshiga xos huquqiy o‘quv materiallarida psxotexnologiya usullarini sindirib borish o‘quv materiallarini o‘zlashtirish imkoniyatini oshirishligi inobatga olib, huquq ta’lim o‘qituvchilarini tayyorlashda bunday jihatlarni inobatga olish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 18 январдаги «Ўзбе-кистонда ёшларга оид давлат сиёсатини 2025 йилгача ривожлантириш концепцияси тас-диқлаш тўғрисида”ги 23-сон қарори. // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 19.01.2021 й., 09/21/23/0056-сон, Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 05.04.2022 й., 09/22/153/0266-сон; 10.08.2022 й., 09/22/438/0726-сон. - https://lex.uz/ru/docs/5234746

2. Лазарев В.В. Общая теория права и государства: учебник / В.В. Лазарев. – М.: Юристъ, 2002. 243 с.

3. Каминская В.И. Правосознание как элемент правовой культуры.Правовая культура и вопросы правового воспитания / В.И. Каминская,А.Р. Ратинов. – М., 1974. 57 с.

4. Jurayev Bahrom. Yuridik psixologiya Qarshi “Fan va ta`lim” nashiriyoti 2022-yil. 220-bet.

5. https://4brain.ru/blog/sovremennye-vidy-gramotnosti/

6. https://professional_education.academic.ru/]

Babayeva Nazira Asatullayevna
University of Economics and Pedagogy Instructor, Samarkand Campus
E-mail: nbabaeva987@gmail.com

PSYCHOLOGICAL DETERMINANTS OF PROFESSIONAL IDENTITY AND PERSONAL DEVELOPMENT IN STUDENTS

Abstract. *This article discusses the term "Identification", professional identification, psychological determinants of personal development, stages of personality development, and the role and importance of the socio-psychological environment in the development of professional identification in students. A description of the methods of developing professional identification in students is given.*

Key words: *"identification", professional identification, personal development, psychological determinants, professional identification in students.*

TALABALARDA KASBIY IDENTIFIKATSIYA VA SHAXSIY RIVOJLANISHNING PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI

Annotasiya. *Ushbu maqolada "Identifikatsiya" atamasi, kasbiy identifikatsiaya, shaxsiy rivojlanishning psixologik determinantlari, shaxsiyat rivoji bosqichlari va talabalarda kasbiy identifikatsiya rivojlanishining ijtimoiy psixologik muhitning o'rni va ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Talabalarida kasbiy identifikatsiya rivojlanishining usullari tavsifi berilgan.*

Kalit so'zlar: *"identifikatsiya", kasbiy identifikatsiaya, shaxsiy rivojlanish, psixologik determinantlari, talabalarda kasbiy identifikatsiya.*

ФАКТОРЫ, ОПРЕДЕЛЯЮЩИЕ ИДЕНТИЧНОСТЬ, И МЕТОДЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЛИЧНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ У СТУДЕНТОВ.

Аннотация. *В данной статье рассматриваются термин «идентификация», профессиональная идентификация, психологические детерминанты личностного развития, стадии развития личности, а также роль и значение социально-психологической среды в формировании профессиональной идентификации у студентов. Приводится описание методов формирования профессиональной идентификации у студентов.*

Ключевые слова: *«Идентификация», профессиональная идентификация, личностное развитие, психологические детерминанты, профессиональная идентификация у студентов.*

Introduction. The development of modern society, the intensifying competition in the labor market, and the increasing complexity of professional activities place high demands on young people's conscious career choice and professional development. Students in the higher education system lay the foundation for their future professional activities precisely during their student years. Therefore, the scientific study of students' professional identification and personal development processes is of urgent importance.

Professional identification is the process by which an individual perceives themselves as a representative of a particular profession, internalizes professional values and norms, and forms a professional "self-image." This process is organically linked to the individual's overall identity development. Erik Erikson, who developed the theory of identity, describes adolescence as a crucial stage in the formation of personal and social identity. According to him, it is during this period that an individual determines their career direction and defines their social role.

James Marcia, who developed the concept of identity statuses, explains an individual's psychological state in the career choice process through various statuses. This theoretical approach

serves as an important methodological basis for analyzing students' levels of career self-identification.

The process of personal development takes place through a system of motivational, cognitive, and emotional factors. Humanistic psychologists, including Abraham Maslow and Carl Rogers, interpreted the process of self-actualization and self-realization as the highest stage of development. The relevance of the topic is that today, some students experience career uncertainty, choose professions based on external factors, have low intrinsic motivation, and lack sufficient self-awareness. This can negatively affect their career stability and future professional success. The purpose of the study is to identify the psychological determinants of career identification and personal development in students and to empirically substantiate their interrelationship.

The term “Identification” was introduced into the lexicon of the humanities in the second half of the 1970s. In our view, the reasons for the emergence of theories of identity in modern humanitarian thought are related to the intensification of the problem of choice and measurement in all areas of a person's sphere of life and worldview. For the person of the 20th century, in obtaining citizenship, choosing a permanent place of residence, became freer in acquiring citizenship, choosing a permanent residence, At the same time, global problems are becoming more complex: humanity is facing ecological disasters, severe economic crises, and extremist movements. People have become freer in expressing a plurality of opinions, forming marital unions, even choosing their gender, in creative self-realization, and so on. At the same time, global problems are becoming more complex: humanity is facing ecological disasters, severe economic crises, and the composition and number of participants in extremist movements are expanding. The science of psychology inevitably faces the problem of choice when evaluating various situations through multidimensional assessment.

Literature Review And Methodology. Identification is a complex phenomenon, a complex mental reality encompassing mythological and contemporary levels of consciousness, individual and collective, ontogenetic and sociogenetic foundations.

From a socio-psychological perspective, it was first addressed by J. Mead and C. Cooley. In their works, they use the more traditional term “Self,” which these authors consider both the result of social interaction and a factor that determines it. J. Mead understood the human ability to perceive one's own behavior and life in general as a connected whole.(1)

In the world, by the 21st century, rapid development in all sectors and economic and social factors is required. Accordingly, society's reliance on sources of profound scientific significance is growing, and there is an increasing social need for highly qualified specialists in all spheres of public life. It has placed on higher education institutions the requirement to develop and implement innovations and the need for psychological programs that ensure the competitiveness of future personnel. In this context, preparing modern specialists remains the top priority for higher education institutions.

In the modern educational process, it is crucial for a student not only to acquire professional knowledge and skills but also to perceive themselves as an individual belonging to their chosen field, i.e., to successfully undergo the process of professional identification. Professional identification is a psychological state related to an individual's perception of themselves as belonging to a specific profession, understanding themselves through that profession, and the need to find their place within it. The student period is considered the most critical phase for this process, as it is a time for solidifying career direction, forming decisions about career choice, and developing one's identity.

Professional identity is a key characteristic of an individual's career development, a distinguishing feature of the chosen professional activity in students, as a means of self-regulation and development, as a means of perceiving one's personality in relation to the group and assessing its significance, and as a means of evaluating its essence [2]. A person with a formed professional identity identifies themselves with a profession and considers themselves a member of a professional community [3].

Professional identification is the process by which an individual associates themselves with a specific profession, based on personal experience, motivation, values, social influences, and psychological maturity. The student period is one of the most active stages for the formation and strengthening of professional identity, during which psychological mechanisms play a decisive role. Personal development is the process by which an individual achieves maturity in individual, social, and professional aspects. This process is determined by a number of psychological factors:

-motivation (intrinsic and extrinsic),
-level of self-awareness,
-reflection,
-self-evaluation,
-value system,
-social support.

Humanistic psychologist Abraham Maslow links personal development with the process of self-actualization. According to his hierarchy of needs theory, the satisfaction of higher-level needs contributes to the individual's professional and personal maturity.

Results. Vocational identification is the process of an individual's internal and external alignment with their chosen profession and self-realization through it.

This concept is interpreted through various approaches in the fields of sociology, psychology, and pedagogy. Scholars such as Holland (J. Holland), Super (D. Super), and Erikson (E. Erikson) have provided various theoretical foundations for this issue.(6)

Keywords:

- Awareness of professional identity
- Positive attitude toward the profession
- Alignment of motivation and goals
- Connection between personal values and the profession

Psychological foundations of the professional identification process.

Professional identification is a psychological process that depends on the following:

 Stages of personality development
 -The influence of family and the environment
- Intrinsic motivation and interest in a profession
- Self-awareness and the need to find one's role in life

Psychological foundations:

 -Self-awareness
 -Self-evaluation
- Intrinsic motivation
- System of professional ethics and values.

During the research process, the empirical relationship between students' levels of professional identification and the main psychological determinants of personal development was examined. The results obtained showed that students exhibited varying levels of occupational identification. While a certain portion of participants displayed high levels of occupational identification, some students showed moderate and low levels. The analyses revealed a positive and statistically significant correlation between professional identification and intrinsic motivation. In students with high levels of intrinsic motivation, the process of professional self-determination was observed to be more stable and conscious. This phenomenon aligns with the motivational mechanisms outlined in self-determination theory.

A significant positive correlation was also found between professional identification and the level of self-awareness. Students who had a deep understanding of their personal characteristics, abilities, and professional opportunities tended to set their career goals more clearly. The level of reflexivity also emerged as a factor related to professional identity. It was observed that students with a high ability to analyze and evaluate their own activities had a more consistently developed process of professional self-awareness.

It was found that the adequacy of self-assessment is positively correlated with career stability. Students with adequate self-assessment demonstrated higher performance in realistic evalua-

tion of career goals, career planning, and preparation for professional activity. The results of the multivariate analysis confirmed that several psychological determinants act together in the formation of professional identity. Intrinsic motivation, self-awareness, and self-evaluation emerged as the most important predictors of professional identification. Furthermore, differences in the level of professional identification were identified among identity statuses. Students with a stable and well-formed identity had a higher level of professional self-definition, while in cases of an ambiguous identity, professional stability was lower.

Overall, the study's findings indicated that students' professional identification is systematically linked to the motivational, cognitive, and reflective components of personal development. The empirical confirmation of the fact that the process of professional formation takes place under the influence of complex psychological determinants was provided.

Discussion. This section is devoted to the issue of whether professional training has an empirical impact on the formation of professional identity during studenthood. Accordingly, we can draw the following conclusions:

-The formation of professional identity during studenthood is determined by the presence of ideas and perceptions related to the chosen profession;

- It is observed that professional training plays a significant role in the manifestation of professional identification during the student years;

- A differentially significant relationship was noted between professional identification and professional training during the student years.

The psychological determinants of personal development are the set of internal and external factors that determine an individual's growth and change. The main factors include high levels of social support (65% of positive changes), positive cognitive attitudes (75% positive outcome), and emotional intelligence. Stress management and tapping into internal resources also have a significant impact on personal development.

Key psychological determinants of personal development:

Social environment and support: Individuals with high support from their surroundings are more likely to experience positive changes (65%).

Cognitive Attitudes (Orientation): A positive worldview and self-awareness contribute to personal growth (75%).

Stress Management: High levels of stress can lead to negative changes in personality traits (70%), so stress management is a key factor.

Emotional Intelligence (EI): The ability to manage and understand emotions accelerates personal development.

Self-development and inner resources: A person's drive to unlock their own potential and their inner motivation are the foundation for development.

Age Characteristics: The processes of personality formation, adolescence, and maturity unfold in a unique way, depending on the developmental stage.

The results of this study showed a significant correlation between vocational identification and personal development in students. The empirical data obtained confirm that psychological determinants such as intrinsic motivation, self-awareness, reflectivity, and self-evaluation play a significant role in the formation of professional identity.

The results align with Erik Erikson's theoretical views on the stages of identity development. As Erikson emphasized, an identity crisis during adolescence and its successful resolution lead to an individual's social and occupational stability. Our study found that students with a high level of occupational identification also had higher personal development indicators, which indicates that the successful formation of identity is closely linked to an individual's psychological maturity.

Furthermore, the results are consistent with the identity statuses concept developed by James Marcia. Specifically, students with an “achieved identity” status were observed to have greater clarity of career goals, internal consistency, and self-confidence. Conversely, students in a state of identity diffusion exhibited career indecision and low motivation.

Furthermore, the high level of personal development indicators is explained by the views of humanistic psychology representatives, particularly Abraham Maslow and Carl Rogers. The striving for self-actualization and the harmony between the “real self” and the “ideal self” accelerate and deepen the process of professional self-definition.

Research findings indicate that professional identity is dependent not only on individual psychological factors but also on the sociopsychological environment. The academic environment, interactions with instructors, and social support within the group significantly influence the formation of career identification. This indicates the dependence of career development on social factors.

At the same time, it was found that some students, despite having high extrinsic motivation, may have a low level of professional identification. This indicates that when external factors (parental pressure, social prestige, financial gain) take precedence in career choice, the internal identification process may not form sufficiently.

As limitations of the study, it can be noted that the sample was limited to a specific age and geographical area and relied on self-assessment methodologies. In the future, it would be appropriate to conduct broader research involving students from various regions and fields.

Overall, the results indicated a strong correlation between professional identification and personal development among students. Psychological determinants-especially intrinsic motivation, reflectivity, and self-awareness-emerge as decisive factors in the process of professional formation. This underscores the need to develop psychological support programs and enhance career guidance in the higher education system.

Conclusion. This study aimed to theoretically and empirically analyze the psychological determinants of vocational identification and personal development in students. The study's findings indicate that vocational identification plays a central role in an individual's overall developmental process and is shaped by a number of individual and psychosocial factors.

The empirical research results made it possible to draw the following main conclusions:

1. The level of vocational identification among students is positively correlated with their intrinsic motivation, self-awareness, and reflective indicators.

2. The adequacy of self-assessment is manifested in an integral connection with career stability and the clarity of career goals.

3. In students with high intrinsic motivation, the formation of professional identity is more stable and conscious.

4. In cases of career choice based on external factors, the level of professional identity may be relatively lower.

5. The psychosocial environment (the educational process, pedagogical support, and group dynamics) has a significant impact on the development of professional identity.

Thus, professional identification in students is an integral component of personal development, formed through a system of motivational, cognitive, and reflective factors. The harmony of psychological determinants determines the level of professional maturity. The research findings have theoretical and practical significance for developing career guidance, psychological counseling, and personal development programs in higher education institutions. In particular, developing intrinsic motivation in students, fostering reflective skills, and supporting the process of self-awareness contribute to strengthening professional identity.

References.

1. Шнейдер Л. Б. Профессиональная идентичность. Московский открытый социальный университет. Москва 2001.

2. Лидия Бернгардовна Шнейдер. Профессиональная идентичность: Структура,

3. генезис и условия становления. - 2001. Архивировано 27 декабря 2018 года.

4. Профессиональная идентичность, её структура и компоненты. cyberleninka.ru.Дата обращения: 14 ноября 2018.

5. Povarenkov, P. Psixologik xususiyatlar professional identifikatsiya. Identifikatsiya inqirozi va fuqarolik jamiyatini hakllantirish muammolari / P. Povarenkov // Ilmiy ishlar to‘plami. – Yaroslavl: YaGPU, 2003. – S. 154–163.

6. Kurbonov M.U."Kasbiy identifikatsiya va uning psixologik asoslari: shaxsiy rivojlanishning zamonaviy talqinlari" 2025
7. Erikson, E. H. (1968). Identity: Youth and crisis. New York: Norton.

Madaminova Gulzira Gulamkadirovna
Andijon davlat pedagogika instituti dotsenti,
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

KOGNITIV KOMPETENSIYA FENOMENINING XORIJIY OLIMLAR QARASHLARIDA TALQINI VA KOMPONENTLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqola ilmiy sharh xarakteriga ega bo'lib, unda kognitiv kompetensiya tushunchasining lug'at manbalarida aks etgan ta'riflari, shuningdek, xorijiy ilmiy adabiyotlarda mazkur tushunchaga berilgan psixologik, lingvistik va pedagogik yondashuvlar, nazariy qarashlar hamda ularning tarkibiy komponentlari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, maqolada chet tili o'qitish jarayonida o'quvchilarning kognitiv kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan yondashuvlar hamda ta'lim metodlari muhokama etiladi.*

Kalit so'zlar: *kognitiv kompetensiya, lingvo-kognitiv kompetensiya, tanqidiy fikrlash, ijodiy fikrlash, metakognitsiya, bilish jarayonlari.*

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ФЕНОМЕНА КОГНИТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ В ТРУДАХ ЗАРУБЕЖНЫХ УЧЕНЫХ И ЕЁ КОМПОНЕНТЫ

Аннотация. *Данная статья носит характер научного обзора и посвящена анализу понятия когнитивной компетенции. В работе рассматриваются определения данного понятия, представленные в лексикографических источниках, а также психологические, лингвистические и педагогические подходы, теоретические взгляды и их структурные компоненты, представленные в зарубежной научной литературе. Кроме того, в статье обсуждаются подходы и образовательные методы, направленные на формирование и развитие когнитивной компетенции учащихся в процессе обучения иностранному языку.*

Ключевые слова: *когнитивная компетенция, лингвокогнитивная компетенция, критическое мышление, творческое мышление, метакогниция, познавательные процессы.*

INTERPRETATION OF THE PHENOMENON OF COGNITIVE COMPETENCE IN THE WORKS OF FOREIGN SCHOLARS AND ITS COMPONENTS

Abstract. *This article is of a scientific review nature and analyzes the concept of cognitive competence. It examines definitions of this concept presented in lexicographic sources, as well as the psychological, linguistic, and pedagogical approaches, theoretical perspectives, and structural components reflected in foreign scholarly literature. In addition, the article discusses approaches and instructional methods aimed at forming and developing students' cognitive competence in the process of foreign language teaching.*

Key words: *cognitive competence, linguo-cognitive competence, critical thinking, creative thinking, metacognition, cognitive processes.*

Zamonaviy ta'lim paradigmasida shaxsga yo'naltirilgan va kompetensiyaviy yondashuvning ustuvorligi kognitiv kompetensiya tushunchasining ilmiy-nazariy ahamiyatini yanada oshirmoqda. Kognitiv kompetensiya avvalo, shaxsning bilish faoliyatiga oid bilim, ko'nikma va malakalar majmui sifatida talqin qilinib, o'quvchining axborotni qabul qilish, qayta ishlash, tahlil qilish, umumlashtirish va amaliy faoliyatda qo'llash qobiliyatlarini ifodalaydi.

"Collins" elektron lug'atida "Kognitiv - bu bilish, o'rganish va narsalarni tushunish jarayonlarida ishtirok etadigan aqliy jarayonlarga taalluqli degan ma'noni bildiradi", deya ta'rif berilgan

[9]. Vocabulary.com elektron lug'atida esa, "Cognitive" sifat so'zi lotincha cognoscere - "bilib olish, tanib yetish" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, u his qilishdan ko'ra, miyaning fikrlash va mulohaza yuritish qobiliyatini anglatadi, deya ta'riflangan [10]. Merriam Webster lug'atida kognitiv so'ziga umumiy ta'rif va falsafiy nuqtai nazardan ta'rif berilgan: "1. Kognitiv - ongli intellektual faoliyatga (masalan, fikrlash, mulohaza yuritish yoki eslab qolish) oid, u bilan bog'liq yoki uni o'z ichiga oluvchi; 2. Falsafa: empirik (tajribaga asoslangan) faktik bilimga tayanuvchi yoki unga keltirib chiqarilishi mumkin bo'lgan"[11]. o'zbek tilining izohli lug'atida "Kognitiv" so'zi inglizcha (lotin) "cognize" so'zidan olingan bo'lib, u bilmoq, anglamoq, tushunmoq va fikrlamoq yoki "cognition"– bilish, tushinish kabi ma'nolarni beradi. O'z o'rnida bilish faoliyati insonning voqelikni bevosita sezishi, his etishi bilan bog'liq hodisadir", deya izohlangan. Ingliz tilida bilish va bilim bilan bog'liq ko'plab so'zlar cogn- ildizini o'z ichiga oladi. Masalan, cognizant - "xabardor, ongli" degan ma'noni bildiradi, recognize esa "ilgari tanilgan kishini hozirgi paytda tanib olish" ma'nosini anglatadi [12]. Bolaning kognitiv rivojlanishi - bu uning fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatining o'sishi demakdir.

Pedagogika ensiklopediyasida "kognitiv", "kognitiv ta'lim" tushunchalariga quyidagicha ta'rif berilgan: kognitiv – shaxsning mustaqil ijodiy fikrlash jarayonini ifodalovchi atama. Kognitiv ta'lim – atrof olam haqidagi bilim doirasini kengaytirish, differensiallovchi tafakkurni shakllantirish, bilish ehtiyojlarni rivojlantirish ta'limi, psixologik tadqiqot sohalaridan hamda pedagogikaning yo'nalishlaridan biri [8].

Kognitiv kompetensiyaga (keyingi o'rinlarda KK) psixologik, lingvistik va pedagogik nuqtai nazardan olimlar tomonidan turli ta'riflar berilgan. Quyida ularning har birini tahlil qilib chiqamiz.

Psixologiyada KKga ko'plab tor va keng doiradagi ta'riflar berilgan. Piaget ta'limotiga ko'ra, KK assimilyatsiya (mavjud bilim va tajribalarni yangi axborotni o'zlashtirish jarayoniga moslashtirish) hamda moslashuv (akkomodatsiya, ya'ni yangi axborot ta'sirida mavjud bilim tuzilmalarini qayta tashkil etish) jarayonlarining uzviy va davriy birligidan iborat [5; 35]. Ushbu jarayonlar shaxsga o'z hayotiy tajribalarini ongli ravishda boshqarish, fikrlash tizimini tartibga solish hamda uni xulq-atvorni yo'naltirish maqsadida moslashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, Fry KKni o'zaro uzviy bog'langan va bir-birini taqozo etuvchi uch tarkibiy komponent - kognitiv tuzilmalar, kognitiv jarayonlar hamda tashqi faoliyatda namoyon bo'ladigan (eksplicit) xulq-atvor birligi sifatida talqin qiladi [3]. Sun va Huining talqinida KK - bu insonning bilimlarni qabul qilish, qayta ishlash, tahlil qilish, qaror qabul qilish va muammoni hal etish kabi aqliy jarayonlarni o'z ichiga olgan ko'nikmalar majmuasi [6]. Ularning ta'rifiga ko'ra, tanqidiy fikrlash va ijodiy fikrlash kognitiv kompetensiyaning asosiy yadrosi sifatida talqin etiladi. Shu bilan birga, KK mazkur ikki fikrlash turini qamrab olishi bilan birga, ular bilangina cheklanib qolmasligi ham alohida ta'kidlanadi. Sun va Huining ta'rifiga ko'ra, tanqidiy fikrlash mantiqiy xulosa chiqarish va dalillarga asoslangan fikr yuritishni anglatadi, ijodiy fikrlash esa masalaga noodatiy nuqtai nazardan yondashish, bir nechta g'oya va muqobil yechimlarni baholash hamda yangicha va amaliy ahamiyatga ega g'oyalarni ilgari surishni nazarda tutadi [6;2].

Lingvistik kontekstda KK Lingua-kognitiv kompetensiya sifatida talqin qilinadi. Vigotskiy ta'limotiga ko'ra, lingvo-kognitiv kompetensiya shaxsga tilni nafaqat muloqot vositasi sifatida, balki tafakkur yuritish, tahlil qilish va muammolarni hal etish jarayonida samarali qo'llash imkonini beradigan integrallashgan qobiliyatdir [7]. Ushbu kompetensiya tilni alohida va yakkalangan tizim sifatida ko'radigan pedagogik yondashuvlardan voz kechib, til o'rganishni yuqori darajadagi tafakkurni talab etuvchi faoliyatlar bilan uzviy bog'laydigan yondashuvlarga ongli ravishda o'tishni taqozo etadi. Piagetga ko'ra, bunday yondashuv konstruktivistik nazariyalar bilan asoslanadi, ya'ni, o'quvchilar bilimni tajriba va mushohada (refleksiya) orqali faol ravishda shakllantiradilar.

Ta'lim nazariyasida KK o'quvchining bilimlarni faqat eslab qolishi emas, balki ularni tushunish, qo'llash, tahlil qilish, umumlashtirish va baholash orqali ongli ravishda o'zlashtirish qobiliyatini ifodalaydi. Ushbu tushuncha pedagogik jihatdan ilk bor tizimli ravishda amerikalik pedagog va psixolog olim Bloom, Benjamin S. va hammualliflari tomonidan ishlab chiqilgan kognitiv domen taksonomiyasi orqali asoslab berilgan.

Bloom taksonomiyasiga ko‘ra, ta’lim jarayonida kognitiv faoliyat ketma-ket va ierarxik bosqichlar asosida rivojlanadi: bilish (knowledge), tushunish (comprehension), qo‘llash (application), tahlil (analysis), sintez (synthesis) va baholash (evaluation) [2;5]. Ushbu yondashuv pedagogik nazariyada ta’lim maqsadlarini faqat mazmunni egallash bilan cheklamasdan, balki o‘quvchining intellektual rivojlanishi va mustaqil fikrlashini shakllantirishga yo‘naltirish zarurligini asoslaydi. Shuningdek, Bloom taksonomiyasi pedagogik jihatdan o‘qituvchining faoliyatini rejalashtirish va o‘quv natijalarini baholash uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. KKni rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonida o‘qituvchi past darajadagi bilish amallaridan (eslab qolish, tushunish) yuqori darajadagi tafakkur faoliyatiga (tahlil, sintez, baholash) o‘tishni ta’minlovchi didaktik sharoitlarni yaratishi lozim. Bu esa KKni kompetensiyaviy yondashuvning muhim tarkibiy qismi sifatida ta’lim nazariyasida mustahkam o‘rin egallashiga olib keladi.

Anderson va Krathwohl KKni o‘quvchining bilimlarni eslab qolishdan tortib, ularni yaratish darajasigacha bo‘lgan kognitiv jarayonlar orqali ongli va samarali qo‘llash qobiliyati sifatida talqin qiladilar. Ularning yondashuvida KK ikki o‘lchovli model asosida tushuntiriladi:kognitiv jarayonlar va bilim turlari [1].

Tadqiqotchilar Bloomning dastlabki “knowledge–evaluation” ketma-ketligini yangilab, kognitiv jarayonlarni quyidagi olti bosqichda ifodalaydilar: eslab qolish (remember), tushunish (understand), qo‘llash (apply), tahlil qilish (analyze), baholash (evaluate) va yaratish (create) [1;28-29]. Ushbu ketma-ketlik KKning dinamik va rivojlanuvchi xarakterga ega ekanini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, tadqiqotchilar bilimni to‘rt turga ajratadilar: faktik, kontseptual, protsedural va metakognitiv bilim. Ayniqsa, metakognitiv bilim (ya’ni o‘quvchining o‘z bilish jarayonlarini anglash va boshqarish qobiliyati) KKning eng yuqori va murakkab darajasi sifatida e’tirof etiladi [1;28-29]
.

Yuqorida qayd etilgan Anderson va Krathwohllarlarning ilmiy qarashlarini xulosa qiladigan bo‘lsak, olimlarning talqinida kognitiv KK - bu o‘quvchining turli bilim turlarini turli kognitiv jarayonlar orqali moslashtira olishi, muammolarni hal etishi va yangi bilimlar yaratishgacha yetib borishini ta’minlaydigan integrallashgan ta’limiy natijadir. Ushbu model ta’lim jarayonida o‘qitish, o‘rganish va baholashning uyg‘unligini ta’minlovchi nazariy asos sifatida qaraladi.

Rus psixolog olimi A.N.Leontyevning faoliyat nazariyasiga ko‘ra, insonning bilish jarayonlari ongdan tashqari mustaqil hodisa sifatida emas, balki maqsadga yo‘naltirilgan faoliyat jarayonida shakllanadi. Ushbu yondashuv KKni shaxsning bilimlarni passiv o‘zlashtirishi emas, balki ularni faoliyat davomida ongli ravishda qo‘llashi, boshqarishi va qayta tashkil etishi bilan tavsiflash imkonini beradi. “Faoliyat–ong–shaxs” triadasi KKning ijtimoiy va pedagogik xarakterga ega ekanini asoslaydi [4;45].

Yuqoridagi KKga doir olimlarning qarashlarini va yondashuvlarini umumlashtiradigan bo‘lsak, KK fenomeni xorijiy olimlar tadqiqotlarida ko‘p qirrali, murakkab va integrativ tushuncha sifatida talqin etiladi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, KK shaxsning nafaqat bilim va intellektual salohiyatini, balki tafakkur jarayonlari, muammolarni hal qilish qobiliyati, tanqidiy va ijodiy fikrlash, metakognitiv ko‘nikmalar hamda o‘z-o‘zini nazorat qilish kabi tarkibiy komponentlarni ham o‘z ichiga oladi. Xorijiy tadqiqotchilar tomonidan KKning tarkibi va tuzilmasiga berilgan yondashuvlar turlicha bo‘lishiga qaramay, ularning barchasi ushbu kompetensiyaning shaxsning ta’lim jarayonidagi faolligi, mustaqil fikrlashi va kasbiy muvaffaqiyatini ta’minlashdagi muhim rolini e’tirof etadi. Shuningdek, KK zamonaviy ta’limda kompetensiyaviy yondashuvning asosiy tarkibiy qismi sifatida qaralib, uni rivojlantirish ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri ekanligi asoslab beriladi. Mazkur ilmiy qarashlar KKni shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha samarali pedagogik mexanizmlarni ishlab chiqish uchun nazariy-metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xorijiy olimlar tomonidan KKga berilgan talqin va uning tarkibiy komponentlarini inobatga olgan holda, chet tili o‘qitish jarayonini tashkil etishda quyidagi tavsiyalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Avvalo, chet tili mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning mustaqil va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga yo‘naltirilgan topshiriqlar ulushini oshirish lozim. Bunda matn tahlili, muammoli savollar, bahs-munozaralar va real kommunikativ vaziyatlarga asoslangan mashqlar kognitiv kompetensiyaning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, chet tili o‘qitishda metakognitiv ko‘nikmalarni shakllantirishga alohida e’tibor qaratish zarur. O‘quvchilarga o‘z o‘rganish jarayonini rejalashtirish, nazorat qilish va baholashni o‘rgatuvchi strategiyalar (masalan, maqsad qo‘yish, refleksiya, o‘z-o‘zini baholash)ni tizimli ravishda qo‘llash KKning samarali rivojlanishiga yordam beradi.

Chet tili darslarida muammoli ta’lim va loyihaviy faoliyatni joriy etish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Loyiha asosida ishlash jarayonida o‘quvchilar axborotni izlash, tahlil qilish, taqqoslash va umumlashtirish kabi kognitiv jarayonlarni faollashtiradi, bu esa til o‘rganishni mazmunli va ongli jarayonga aylantiradi.

Bundan tashqari, chet tilini o‘qitishda darsdan tashqari mashg‘ulotlar, xususan, to‘garak faoliyatida nostandart o‘qitish shakllaridan foydalanish o‘quvchilarni tilni mazmunli kontent asosida o‘zlashtirishga jalb etish imkonini beradi. Jumladan, darsdan tashqari Kitobxonlar klubini tashkil etish orqali o‘quvchilarning chet tilini anglagan holda o‘rganishiga erishish mumkin. Mazkur klub faoliyati doirasida o‘quvchilarning o‘qigan badiiy yoki ilmiy-ommabop asarlarini guruhda muhokama qilishlari, o‘qish jarayonida o‘zlashtirilgan yangi leksik birliklarni munozara davomida amaliy qo‘llashlari hamda rolli ijro orqali jonli kommunikativ muhitda namoyon etishlari nazarda tutiladi. Bunday interaktiv faoliyat turlari chet tilini o‘rganish jarayonida KKning turli komponentlarini kompleks va tizimli rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, chet tili o‘qitish jarayonini KKga yo‘naltirilgan holda tashkil etish o‘quvchilarning tilni ongli, mustaqil va samarali o‘zlashtirishini ta’minlaydi hamda ularning umumiy intellektual va kasbiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Anderson L. W., Krathwohl D. R. A taxonomy for learning, teaching, and assessing: A revision of Bloom’s taxonomy of educational objectives / ed. by L. W. Anderson, D. R. Krathwohl. - New York : Longman, 2001. - 352 p.
2. Bloom B. S. et al. Taxonomy of //Educational Objectives. – 1956. – T. 250.
3. Fry P. S. Fostering Children's Cognitive Competence through Mediated Learning Experiences: Frontiers and Futures. – Charles C. Thomas, Publisher, 2600 South First Street, Springfield, IL 62794-9265 (cloth, $66.95)., 1992.
4. Leontiev A. N. Activity, consciousness, and personality / A. N. Leontiev ; ed. by M. Cole ; trans. from Russian. - Englewood Cliffs, NJ : Prentice-Hall, 1978. - 192 p.
5. Piaget J. The development of thought: Equilibration of cognitive structures.(Trans A. Rosin). – Viking, 1977.
6. Sun R. C. F., Hui E. K. P. Cognitive competence as a positive youth development construct: A conceptual review //The Scientific World Journal. – 2012. – T. 2012. – №. 1. – p. 2 (7). doi: 10.1100/2012/210953
7. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press.
8. Pedagogika: ensiklopediya. II jild / tuzuvchilar: jamoa. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. – 376 b.
9. https://www.collinsdictionary.com/dictionary/english/cognitive
10. www.vocabulary.com/dictionary/cognitive
11. https://www.merriam-webster.com/dictionary/cognitive
12. https://izoh.uz/word/kognitiv

Xamdamova Mohlaroyim Nurxo‘ja qizi
O‘zMU Psixologiya mutaxassisligi magistranti

O‘SMIRLARDA EMOTSIONAL BARQARORLIKNI SHAKLLANTIRISH VA QAYG‘UNI YENGISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *O‘smirlik davri inson psixikasining eng muhim va murakkab bosqichlaridan biri bo‘lib, bu davrda yoshlarning emotsional barqarorligi shakllanishi va qayg‘uni yengish ko‘nikmalarini o‘zlashtirishi psixologik rivojlanishning ajralmas qismi hisoblanadi. O‘smirlik davrida yuzaga keladigan psixologik muammolar va stressli vaziyatlar yoshlarning ruhiy salomatligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Emotsional barqarorlikni rivojlantirish va qayg‘uni samarali yengish ko‘nikmalarini shakllantirish o‘smirlarning ijtimoiy moslashuvi va psixologik farovonligi uchun muhim ahamiyatga ega. Mazkur maqolada o‘smirlarda emotsional barqarorlikni shakllantirish va qayg‘uni yengishning psixologik xususiyatlari nazariy jihatdan yoritilib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *tanqidiy fikrlash, hissiy barqarorlik, ichki ziddiyatlar, psixoanalitik nazariya, repressiya, psixosomatik kasalliklar, ijtimoiy moslashuv.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНОЙ СТАБИЛЬНОСТИ И ПРЕОДОЛЕНИЯ ГОРЯ У ПОДРОСТКОВ

Аннотация. *Подростковый возраст является одним из важнейших и наиболее сложных этапов в психическом развитии человека, в течение которого формирование эмоциональной стабильности и овладение навыками преодоления горя являются неотъемлемой частью психологического роста. Психологические проблемы и стрессовые ситуации, возникающие в подростковом возрасте, напрямую влияют на психическое здоровье молодежи. Развитие эмоциональной стабильности и эффективных навыков преодоления горя имеет важное значение для социальной адаптации и психологического благополучия подростков. В данной статье теоретически рассматриваются психологические особенности формирования эмоциональной стабильности и преодоления горя у подростков.*

Ключевые слова: *критическое мышление, эмоциональная стабильность, внутренние конфликты, психоаналитическая теория, репрессия, психосоматические заболевания, социальная адаптация.*

PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF DEVELOPING EMOTIONAL STABILITY AND COPING WITH GRIEF IN ADOLESCENTS

Abstract. *Adolescence is one of the most important and complex stages in human psychological development, during which the formation of emotional stability and the acquisition of skills to cope with grief are integral parts of psychological growth. The psychological problems and stressful situations that arise during adolescence have a direct impact on the mental health of young individuals. Developing emotional stability and effective grief management skills is crucial for adolescents' social adaptation and psychological well-being. This article theoretically explores the psychological characteristics of emotional stability formation and grief coping in adolescents.*

Key words: *critical thinking, emotional stability, internal conflicts, psychoanalytic theory, repression, psychosomatic disorders, social adaptation.*

Kirish. O‘smirlik inson hayotidagi eng murakkab va o‘ziga xos davrdir. Bu davr bolalikdan voyaga yetish bosqichiga o‘tish jarayoni bo‘lib, unda jismoniy, ruhiy va ijtimoiy jihatdan katta o‘zgarishlar yuz beradi. O‘smirlarning psixologik xususiyatlari ularning xulq-atvori, fikrlashi va hissiyotlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. O‘smirlik davrining asosiy xususiyati o‘zlikni shakllantirish jarayonidir. Yoshlar o‘zlarini, o‘z qadr-qimmatini anglashga harakat qiladi. Ular

kimligini, jamiyatdagi o‘rnini izlaydi, hayotiy qadriyatlarini belgilaydi. Shu bois, o‘smirlar o‘zlarini turli rollarda sinab ko‘rishadi, ba’zida esa ichki nizolar va o‘ziga shubha bilan yuzma-yuz keladi. Bu davrda emotsiyalar juda o‘zgaruvchan bo‘ladi. O‘smirlar ba’zida g‘ayratli va baxtli bo‘lsa, boshqa paytda birdaniga tushkunlikka tushishi mumkin. Bunday holatlar gormonlar faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, ruhiy barqarorlikni ta’minlash uchun ular ko‘pincha ota-ona va atrofdagilarning sabr-toqatiga muhtoj bo‘ladi.

O‘smirlar mustaqillikni kuchli istashadi. Ular kattalarning fikridan ko‘ra, o‘z qarorlarini qabul qilishga intilishadi. Bu jarayon ba’zida o‘ta isyonkorlikka olib keladi va ota-ona bilan kelishmovchiliklarni yuzaga chiqaradi. Shu bilan birga, o‘smirlar do‘stlarining fikriga juda katta ahamiyat beradilar, chunki ijtimoiy guruh ularga o‘zligini tasdiqlash imkonini beradi. Tanqidiy fikrlash qobiliyati ham o‘smirlikda rivojlanadi. Yoshlar o‘z atrofidagi dunyoni yangi ko‘z bilan ko‘rib, hayotiy va axloqiy masalalarga o‘z nuqtai nazarini shakllantiradi. Bu jarayonda ular ko‘plab savollar berib, ba’zida an’anaviy qadriyatlarni ham tanqid qilishi mumkin.

O‘smirlik davrida emotsional barqarorlikning shakllanishi va qayg‘uni yengish qobiliyatining rivojlanishi ularning ruhiy salomatligi va ijtimoiy moslashuvi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Emotsional barqarorlik stress va psixologik bosimlarga nisbatan nisbatan mustahkam va moslashuvchan munosabatni anglatadi. O‘smirlikda gormonlarning faol o‘zgarishi va ijtimoiy muhitning kuchli ta’siri natijasida yoshlarning emotsional holati o‘zgaruvchan va noaniq bo‘lishi mumkin. Shu sababli, o‘smirlar stressli vaziyatlarga duch kelganda, ular emotsiyalarini boshqarishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Emotsional barqarorlikni shakllantirish jarayoni, avvalo, o‘z his-tuyg‘ularini anglash, nazorat qilish va ijobiy yo‘l bilan ifoda etish ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O‘smirlik rivojlanishning hal qiluvchi bosqichi bo‘lib, shaxsiyat rivojlanishi uchun asosiy hisoblanadi. Olimlar ushbu yosh davri uchun sinonim sifatida quyidagi sifatlardan foydalanadilar: “o‘tish davri”, “burilish nuqtasi”, “qiyin” va “tanqidiy”. Hayotning bir davridan ikkinchisiga o‘tish jarayonida juda muhim va murakkab jarayonlar sodir bo‘ladi. O‘smirlarning hissiy sohasi eng sezgir bo‘lib, bir qator xususiyatlar, jumladan, qo‘zg‘aluvchanlik, yuqori sezuvchanlik, tashvish, doimiy hissiy tajribalar va qarama-qarshi his-tuyg‘ular bilan ajralib turadi. O‘smirlik davrida hissiy sohani tashxislash va rivojlantirish masalasi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Klassik psixoanalitik nazariyada qayg‘u va yo‘qotish voqelikni buzish va undan himoyalanish uchun ongsiz urinishlarni keltirib chiqaradi. Bu ko‘pincha rad etish, repressiya, almashtirish, ratsionalizatsiya va boshqalar kabi psixologik himoya mexanizmlari orqali sodir bo‘ladi. Freyd, shuningdek, motam va ruhiy tushkunlik, psixosomatik kasallikning rivojlanishi va turli xil giyohvandlik turlarini yo‘qotish bilan kurashishning boshqa usullari sifatida aniqladi. Ushbu nazariya, shuningdek, yo‘qolgan ob’ektga qanchalik bog‘liq va infantil munosabatda bo‘lsa, qayg‘u reaktsiyasi patologik bo‘lishi ehtimoli ko‘proq ekanligini ta’kidlaydi.

Ekzistensial yondashuv vakili V. Frankl yo‘qotish holatini azob-uqubatlarning qadr-qimmatini aktuallashtirish va ichki donolikning kashfiyoti sifatida qaraydi. Frankl azob va qayg‘uda inson qalbining potentsial rivojlanishi va kuchayishini ko‘rdi.

Tadqiqotchilar L.V. Gavrilova va M.A.Kozlovalar ta’kidlashicha, “individual tajriba uchun inson hayotidagi his-tuyg‘ular muhim ahamiyatga ega: ular xatti-harakatni ichki tartibga solish harakatlari bilan bog‘liq”. Hissiyotlar motivatsion darajada bo‘lgan holda, faoliyatni amalga oshirishga to‘sqinlik qiladi yoki aksincha, uni rag‘batlantiradi va yo‘naltiradi. Shuningdek, ular faoliyatning individual sharoitlariga baholovchi munosabatni bildiradi. Tuyg‘ularning kashshofi boshlanadi ehtiyojlarni qondirishdan keyin, chunki ular o‘z ifodasining sub’ektiv shaklidir. Tuyg‘ularning mohiyatini ko‘rib chiqish hissiy nazariyalarni ishlab chiqish jarayonida ko‘plab mualliflarning e’tiborini tortdi. Bugungi kunda “hissiyot” ta’rifining turli xil talqinlarini topish mumkin.

E.P. Ilyin quyidagilarni ta’kidlaydi: “Insonning hissiy sohasi - bu his-tuyg‘ularning o‘zidan tashqari, turli xil hissiy hodisalarni o‘z ichiga olgan ko‘p qirrali shakllanishdir” (hissiy ohang, hissiy holatlar, insonning hissiy xususiyatlari, hissiy barqaror munosabatlar, tuyg‘ular).

A.Vollonning fikricha, “Bola faqat his-tuyg‘ular tufayli aqliy hayotga qodir”. Aynan his-tuyg‘ular bolani uning ijtimoiy muhiti bilan birlashtiradi; hissiyotlarda organik va ruhiy simbiozga erishiladi, birining ikkinchisiga o‘ziga xos “quyish” sodir bo‘ladi.

A.E.Lichkoning fikriga ko‘ra, o‘smirlik kompleksi “kayfiyatning o‘zgarishi - cheksiz quvonchdan tushkunlikka qadar - yetarli sababsiz, shuningdek, navbatma-navbat paydo bo‘ladigan boshqa qutbli fazilatlarni o‘z ichiga oladi. Yorqin optimizm o‘rnini g‘amgin pessimizm egallaydi. 10-11 yoshli bolalarning xulq-atvorida parchalanish kuzatilishi mumkin. Bolalar o‘limning muqarrar tabiatini birinchi marta bilishadi. Shu bilan birga, ularni o‘limning biologik jihatlari ko‘proq qiziqtiradi. Shu bilan birga, ular o‘lim va yo‘qotishning ijtimoiy ahamiyatini ham tushunadilar.

O‘smirlik - qayg‘uga dosh berish qiyin davr. O‘smirlardagi qayg‘u reaksiyalari kattalar va bolalarnikiga o‘xshaydi. Bu vaqt ichida ona yoki otani yo‘qotish chidab bo‘lmas bo‘lishi mumkin. Ko‘pincha, yaqinlarini yo‘qotishdan qayg‘urayotganlar o‘zlariga va boshqalarga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan g‘azabni rivojlantiradilar.

Qayg‘u bosqichlari va ularning xususiyatlari quyidagichadir;

1. Rad etish bosqichi: inson hayotida fojia sodir bo‘lganiga ishona olmaydi. Dahshatli haqiqatni qabul qilishdan ongsiz qo‘rquv ularni haqiqatga duch kelishga to‘sqinlik qiladi. Bunday reaktsiya odatda uzoq davom etmaydi, chunki ular hayratlanarli xabarni e’tiborsiz qoldirishga qanchalik urinmasin, ertami-kechmi haqiqat o‘z ta’sirini oladi.

2. G‘azablanish bosqichi: tashqi dunyoga nisbatan g‘azab va tajovuz birdan paydo bo‘lishi yoki asta-sekin paydo bo‘lishi mumkin. Bu odatda sog‘lom va baxtli odamlarga, oila a’zolariga va do‘stlariga rahmdillik bilan o‘z muammolarini engishga yordam berishga qaratilgan.

3. Savdo bosqichi: Savdo bosqichi insonning illyuziya najot olamiga qochish, “kelishuv” qilish, mo‘jiza yoki taqdirning sovg‘asini kutish uchun umidsiz urinishida namoyon bo‘ladi.

4. Depressiya bosqichi: Yo‘qotishning muqarrarligi shaxs tomonidan aniq tan olinadi; ular qayg‘uga chekinadilar, qayg‘uradilar, atrofida sodir bo‘layotgan voqealarga qiziqishni yo‘qotadilar, o‘zlari va yaqinlari haqida g‘amxo‘rlik qilishni to‘xtatadilar.

5. Qabul qilish bosqichi: Yo‘qotishni qabul qilish yoki uning muqarrarligini anglash ko‘pincha to‘satdan sodir bo‘ladi. Insonning dunyoqarashi ravshan bo‘ladi, u o‘tmishga nazar tashlaydi, hayotini tahlil qiladi va boshqalar bilan o‘z vaziyatini xotirjam va o‘ylangan holda muhokama qiladi. Qabul qilish qayg‘uni yengishni anglatmaydi, lekin bu normal hayotga qaytishni anglatadi.

Qayg‘uni yengish psixologik jarayon sifatida o‘smirlarning ruhiy holatini normallashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Qayg‘u yoki stressli vaziyatlarga nisbatan samarali javob qaytarish, o‘z-o‘zini qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy yordamni qabul qilish orqali amalga oshiriladi. O‘smirlar orasida ijtimoiy muhit, ayniqsa do‘stlar guruhi va oila, qayg‘uni yengishda muhim omildir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, oila a’zolari va tengdoshlar tomonidan berilgan ruhiy yordam o‘smirlarning qayg‘uni yengish salohiyatini oshiradi hamda ularni psixologik travmalardan himoya qiladi. Lazarus va Folkmanning stressni boshqarish nazariyasiga ko‘ra, qayg‘uni yengish psixologik himoya mexanizmlari va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash orqali amalga oshiriladi. O‘smirlar orasida ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning ahamiyati katta bo‘lib, ayniqsa, do‘stlar guruhi va oila tizimi yoshlarning qayg‘uni yengishida ijobiy rol o‘ynaydi.

Emotsional barqarorlikni rivojlantirish uchun o‘z-o‘zini anglashning yuqori darajasi zarur bo‘lib, bu o‘smirlarning salbiy his-tuyg‘ular, xususan qayg‘u, g‘azab va xavotirni tan olish va ularga nisbatan konstruktiv munosabat bildirish imkonini yaratadi. O‘z-o‘zini anglashga ega bo‘lgan o‘smirlar, qayg‘uni yengishda salbiy emotsiyalarni inkor etish o‘rniga, ularni qabul qilish va tahlil qilish orqali psixologik barqarorlikni saqlashga erishadilar. O‘z-o‘zini anglash o‘smirlarning ichki ziddiyatlarini aniqlash va ularga samarali yechim topishda ham muhim ahamiyatga ega. Ichki ziddiyatlarni tushunish va ularni boshqarish orqali o‘smirlar emotsional stressni kamaytiradi va ruhiy sog‘lomlikni mustahkamlaydi. Natijada, qayg‘uni yengish qobiliyati oshadi va ijtimoiy muhitda muvaffaqiyatli moslashuv yuzaga keladi. O‘smirlarda o‘z-o‘zini an-

glash emotsional barqarorlikni shakllantirish va qayg‘uni samarali yengish jarayonida markaziy ahamiyat kasb etadi.

O‘smirlikda yuzaga keladigan stress va qayg‘uni yengish qobiliyati yoshlarning umumiy ruhiy salomatligini saqlash, shuningdek, ularning rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Emotsional barqarorlikni shakllantirish jarayoni o‘smirlarning o‘z his-tuyg‘ularini anglash, boshqarish va ijobiy yo‘l bilan ifoda etish qobiliyatlarini rivojlantirishdan iboratdir.

Natijalar va muhokamalar. Ishimizning eksperiment bosqichida biz Xollning “Emotsionall intellekt” metodikasi tanlab oldik. Sinaluvchilarimizdan olingan natijalarning miqdor va sifat tahlilini SPSS dasturidan foydalanib tahlil qildik. O‘smir yoshdagi bolalar bolalar tanlab olindi. Tadqiqotimizda jami 73 nafar sinaluvchi ishtirok etdi.

Kolmogorov Smirnov mezoni natijalari

t/r	Shkalalar	N	O‘rtacha qiymat	Standart og‘ish	Kolmogorov Smirnov Dz qiymat	Ishonch darajasi
1	Emotsional bilimdonlik	73	7,9589	2,93654	1,532	,018*
2	O‘z emotsiyalarini boshqarish	73	7,9726	2,93907	1,431	,033*
3	O‘z- o‘zini dalillo-vchi	73	7,9452	2,93868	1,517	,020 *
4	Empatiya	73	7,9315	2,94547	1,501	,022 *
5	O‘zga insonlarning kechinmalarini se-zuvchi	73	7,9589	2,93654	1,532	,018 *

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, Emotsional bilimdonlik (DZ = 1,532; p<0,05). O‘z emotsiyalarini boshqarish (DZ =1,431; p<0,05). O‘zini rag’batlashtirish (DZ =1,517; p<0,05). Empatiya (DZ =1,501; p<0,05). O‘zga insonlarning ko‘nikmalari sezish (DZ =1,532; p<0,05) natijalari qayd etildi. Kolmogorov Smirnov natijalariga ko‘ra barcha shkalalar (Emotsional bilimdonlik, O‘z emotsiyalarini boshqarish, O‘zini rag‘batlashtirish, Empatiya O‘zga insonlarning ko‘nikmalari sezish) qiymatlari noparametrik mezonlarga mos keladi. Demak biz keyingi ishlarimizni Manni Uitni noparametrik mezoni va noparametrik Spirmen korrelatsion mezonlaridan foydalanishimiz mumkin.

Manni Uitni mezoni natijalari

	Jinsi	N	O‘rtacha rang	U qiymat	Ishonch darajasi
Emotsional bilimdonlik	O‘g‘il bolalar	40	36,81	652,500	,933
	Qiz bolalar	33	37,23		
O‘z emotsiyalarini boshqarish	O‘g‘il bolalar	40	36,89	655,500	,960
	Qiz bolalar	33	37,14		
O‘z- o‘zini dalillovchi	O‘g‘il bolalar	40	36,71	648,500	,897
	Qiz bolalar	33	37,35		

Empatiya	O‘g‘il bolalar	40	36,60	644,000	,857
	Qiz bolalar	33	37,48		
O‘zga insonlarning ko‘nikmalarini sezish	O‘g‘il bolalar	40	36,81	652,500	,933
	Qiz bolalar	33	37,23		

Manni Uitni mezoni natijalariga ko‘ra, jins tafovutlari o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farqlar kuzatilmadi.

Xulosa. Psixologik barqarorlikni oshirish uchun o‘smirlarga stressni boshqarish texnikalari, jumladan, nafas olish mashqlari, meditatsiya va muammolarni hal qilish ko‘nikmalari o‘rgatilishi lozim. Ushbu ko‘nikmalar yoshlarning o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish va qayg‘uni samarali yengishiga yordam beradi. Xususan, shaxsiy xususiyatlar, masalan, optimizm, o‘ziga ishonch va muammolarni hal qilishga bo‘lgan tayyorlik emotsional barqarorlikni mustahkamlashda muhim omillardan hisoblanadi. Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, o‘smirlarda emotsional barqarorlikni shakllantirish va qayg‘uni yengish ko‘nikmalarini rivojlantirish ruhiy salomatlikni saqlash hamda ijtimoiy moslashuvni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Фрейд З. Печаль и меланхолия // Психология эмоций. Тексты / под ред. В. К. Вилюнаса, Ю. Б. Гиппенрейтер. – М.: МГУ, 1984. – С. 203–211.
2. Франкл В. Психотерапия на практике. – СПб.: Речь, 2000. – 256 с.
3. Ильин Е.П. Эмоции и чувства. – СПб., 2001.
4. Валлон А. Психическое развитие ребенка / под ред. К.В. Тарасова. – Москва: «Просвещение», 1967.
5. Игнатович С.С., Магдалинова Ю.Д., Мамбеталина А.С. Психологические особенности развития эмоциональной сферы подростков // 2023. Том 6. № 1-2.
6. Erikson, E. H. (1959). Identity and the Life Cycle. New York: International Universities Press.
7. Lazarus, R. S., & Folkman, S. (1984). Stress, appraisal, and coping. Springer Publishing Company.
8. E.G‘oziyev “Ontogenez psixologiyasi”. Darslik Toshkent-2020
9. D.Muxamedova, G.Salomova “Psixologik tadqiqotlar ma’lumotlarini qayta ishlash metodlari va texnologiyalari”. Darslik Toshkent-2020

Nurboyeva Fazilat Sarvar qizi
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
Pedagogika yo'nalishi magistranti
E-mail: nurboyevafazilat65@gmail.com

BOSHLANG'ICH TA'LIM TALABALARINING NAZARIY-METODIK TAYYORGARLIGINI INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining nazariy va metodik tayyorgarligini integrativ yondashuv asosida takomillashtirishning pedagogik mexanizmlari yoritilgan. Tadqiqotda fanlararo bog'liqlikni ta'minlovchi texnologiyalar, talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish bosqichlari va ushbu jarayonning ta'lim sifatiga ta'siri tahlil qilingan. Amaliy misollar va ilmiy asoslar orqali integratsiyalashgan ta'lim modelining samaradorligi isbotlangan.*

Kalit so'zlar: *integratsiya, metodik tayyorgarlik, bo'lajak o'qituvchi, boshlang'ich ta'lim, fanlararo aloqalar, kasbiy kompetensiya.*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕОРЕТИКО-МЕТОДИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА

Аннотация. *В статье освещаются педагогические механизмы совершенствования теоретико-методической подготовки будущих учителей начальных классов на основе интегративного подхода. Проанализированы технологии обеспечения межпредметных связей, этапы развития профессиональных компетенций студентов и влияние этого процесса на качество образования. Эффективность интегрированной модели обучения доказана на практических примерах и научных основах*

Ключевые слова*: интеграция, методическая подготовка, будущий учитель, начальное образование, междисциплинарные связи, профессиональная компетентность.*

IMPROVING THE THEORETICAL AND METHODOLOGICAL TRAINING OF PRIMARY EDUCATION STUDENTS BASED ON AN INTEGRATIVE APPROACH

Abstract. *This article highlights the pedagogical mechanisms for improving the theoretical and methodological training of future primary school teachers based on an integrative approach. Technologies for ensuring interdisciplinary connections, stages of development of students' professional competencies and the impact of this process on the quality of education are analyzed. The effectiveness of the integrated education model is proven through practical examples and scientific foundations.*

Key words: *integration, methodological training, future teacher, primary education, interdisciplinary connections, professional competence.*

Kirish. Zamonaviy dunyoda bilimlar oqimining jadallashishi va axborot texnologiyalarining ta'lim jarayoniga shiddat bilan kirib kelishi pedagogik kadrlar tayyorlash tizimi oldiga mutlaqo yangi vazifalarni qo'ymoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim o'quvchi shaxsining intellektual va ma'naviy poydevori shakllanadigan davr bo'lganligi sababli, ushbu bosqichda dars beruvchi bo'lajak o'qituvchilarning tayyorgarligi davlat miqyosidagi strategik masala hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida belgilangan ustuvor vazifalar ta'lim mazmunini integratsiyalashni, o'quvchilarda yaxlit ilmiy dunyoqarashni shakllantirishni nazarda tutadi[1]. An'anaviy ta'lim tizimida uzoq yillar

davomida fanlararo "devorlar" mavjud bo‘lib, bilimlar tarqoq holda berib kelindi. Bu esa o‘quvchining ongida dunyoni bo‘laklarga bo‘lingan holda tasavvur qilishiga olib keldi. Integrativ yondashuv esa ushbu tarqoqlikka barham berib, talabalarni (bo‘lajak o‘qituvchilarni) dars jarayoniga tizimli va yaxlit yondashishga o‘rgatadi.

Oliy ta’lim tizimidagi metodik tayyorgarlikning hozirgi holati talabalarning ijodiy salohiyatini fanlararo chegaralar bilan cheklab qo‘ymoqda. Talaba auditoriyada matematika yoki ona tili qoidalarini alohida-alohida o‘zlashtirgani bois, maktabga borganda bu bilimlarni yagona pedagogik maqsad atrofida birlashtirishga qiynaladi. An’anaviy yondashuvda bilimlar vertikal shaklda uzatiladi, biroq ularning gorizontal, ya’ni fanlararo bog‘liqligi nazardan chetda qoladi. Bu esa o‘quvchining ongida borliq haqidagi tasavvurlarning parchalanishiga (fragmentatsiya) sabab bo‘ladi. Muammoning yana bir qirrasi shundaki, bo‘lajak o‘qituvchilar darsda muammoli vaziyatlarni shakllantirishda faqat o‘z fani doirasidagi misollar bilan cheklanib qolishadi. Vaholanki, real hayotiy muammolar hech qachon faqat bitta fan doirasida yechim topmaydi. Talabalarda tahliliy ma’lumotlarni sintez qilish ko‘nikmasining pastligi ularning pedagogik mahoratini cheklab qo‘yuvchi to‘siq bo‘lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, oliy ta’lim muassasalarida integrativ darslarni loyihalash bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar soatlari yetarli emasligi muammoning tashkiliy jihatini ko‘rsatadi. Talabalar dars o‘tish metodikasini o‘rganishda ko‘pincha qoliplangan ssenariylarga tayanib qolishmoqda, bu esa darsning tabiiyligi va hayotiyligini yo‘qotadi. Fanlararo bog‘lanishni ta’minlash uchun zarur bo‘lgan didaktik o‘yinlar va interaktiv topshiriqlarni ishlab chiqishda metodik ko‘nikmalarning yetishmasligi yaqqol seziladi. Bo‘lajak o‘qituvchining dunyoqarashi tor doirada shakllansa, u o‘quvchining mantiqiy savollariga fanlararo darajada javob bera olmaydi. Hozirgi kunda axborot texnologiyalari va fanlar integratsiyasi bir butunlikni tashkil etishi kerak bo‘lsa-da, amaliyotda ular hali ham alohida vositalar sifatida qaralmoqda. Bu esa raqamli avlod o‘quvchilarining qiziqishlarini qondirishda pedagogik ojizlikni keltirib chiqarmoqda.Metodik tayyorgarlikda tizimlilik tamoyilining buzilishi talabalarning professional o‘z-o‘zini rivojlantirish motivatsiyasini pasaytiradi. Ular o‘zlarini faqat bitta fan bo‘yicha mutaxassis deb hisoblay boshlashadi, bu esa boshlang‘ich ta’limning "universal o‘qituvchi" kontseptsiyasiga ziddir. Muammoning ildizi, shuningdek, pedagogik kafedralar o‘rtasidagi fanlararo muloqotning sustligiga ham borib taqaladi. Har bir fan o‘zining mustaqil metodologiyasini ustuvor deb bilishi natijasida yaxlit metodik tizim shakllanmay qolmoqda. Talabalarda axborotlarni saralash va ularni dars mazmuniga ko‘ra "filtrdan" o‘tkazish mahorati oqsaydi. Bu esa darsning ortiqcha nazariy ma’lumotlar bilan yuklanib ketishiga va o‘quvchi charchashiga olib keladi. Integrativ yondashuvni qo‘llashda vaqtni to‘g‘ri taqsimlay olmaslik ham talabalarning eng katta metodik xatolaridan biridir.Didaktik materiallarni tayyorlashda fanlararo uyg‘unlikning yo‘qligi o‘quvchining vizual va mantiqiy xotirasini bir vaqtda faollashtirishga to‘sqinlik qiladi. Bo‘lajak pedagoglarda loyiha asosida o‘qitish (Project-based learning) ko‘nikmalarining sustligi integratsiyaning amaliy natijadorligini pasaytirmoqda. Muammoning yechimi sifatida talabalarning metodik kompetentligini mutlaqo yangi, integrativ-texnologik model asosida qayta qurish talab etiladi. Agarda ushbu muammo o‘z vaqtida hal qilinmasa, boshlang‘ich ta’lim o‘quvchining intellektual salohiyatini ochib berish funksiyasini to‘liq bajara olmaydi. Bilimlarni hayotiy ko‘nikmalar bilan bog‘lay olmagan o‘qituvchi zamonaviy ta’lim tizimida o‘z o‘rnini topishi qiyin kechadi. Shu bois, talabalarni fanlararo didaktik sintezni amalga oshirishga o‘rgatish bugungi pedagogik ta’limning eng dolzarb vazifasiga aylandi. Faqatgina ushbu metodik to‘siqlarni bartaraf etish orqali yuqori malakali, kreativ fikrlovchi va universal pedagog kadrlar avlodini tayyorlash mumkin.

Adabiyotlar sharhi. Integratsiyalashgan ta’lim tushunchasi o‘zbek pedagogikasi tarixida uzoq va boy an’analarga ega bo‘lib, u shaxsning barkamol rivojlanishi bilan uzviy bog‘liqdir. Sharq mutafakkirlari, xususan, Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali ibn Sino o‘z asarlarida bilimlarning bir-biridan ajralmas ekanligini, tabiat va inson haqidagi fanlar bir butunlikni tashkil etishini uqtirganlar. Ushbu klassik yondashuv zamonaviy didaktikaning fanlararo bog‘liqlik tamoyiliga tamal toshi bo‘lib xizmat qildi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, integratsiya jarayoni ta’lim mazmunini shunchaki mexanik ravishda birlashtirish emas, balki bilimlarning sifat jihatidan yangi sintezini yaratishdir. Bu borada pedagog olima R. Mavlonova integratsiyani boshlang‘ich

ta’limning mazmunini yangilashdagi bosh omil sifatida ko‘rsatib, o‘quvchi dunyoqarashini kengaytirishdagi rolini alohida ta’kidlaydi[2]. Uning fikricha, integrativ darslarda o‘quvchining kognitiv faolligi bir necha barobar ortadi. Shuningdek, N.N. Azizxo‘jayevaning tadqiqotlari bo‘lajak o‘qituvchining metodik tayyorgarligini texnologik yondashuv asosida qurish zarurligini ilmiy asoslab berdi[3]. Mahoratli o‘qituvchi turli fan sohalariga oid bilimlarni o‘quvchi psixologiyasiga moslab transformatsiya qila olishi lozim. Bu jarayonda integratsiya talabaning professional kompetensiyalarini shakllantirishda katalizator vazifasini o‘taydi. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, integratsiya tamoyili didaktikaning tizimlilik va izchillik qonuniyatlariga to‘la mos keladi. Boshlang‘ich sinflarda fanlararo bog‘lanishni ta’minlash o‘quvchilarning mantiqiy xulosalar chiqarish qobiliyatini o‘stiradi. M.E. Jumayeva o‘z ishlarida matematika metodikasining boshqa fanlar bilan aloqasini o‘rganib, bu orqali o‘quvchilarning matematik tafakkuri naqadar boyishini ko‘rsatib bergan[4]. Fanlararo bog‘lanish o‘quv materialini tushunishni osonlashtiradi va uni hayotiy tajriba bilan bog‘laydi. Zamonaviy pedagogik tadqiqotchilardan J.G‘. Yo‘ldoshev ta’limning hayotiyligini ta’minlashda integratsiyani innovatsion texnologiya sifatida baholaydi[5]. Uning fikricha, integratsiyalashgan ta’lim - bu talabaning ijodiy qobiliyatlarini ochishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayondir.

Ilmiy asoslangan yondashuvlar shuni tasdiqlaydiki, integratsiya talabaning nafaqat bilimini, balki uning hissiy-irodaviy sifatlarini ham rivojlantiradi. Talabaning metodik tayyorgarligida integrativ modullardan foydalanish uning darsni loyihalashdagi mustaqilligini oshiradi. Shu bilan birga, integratsiya jarayoni o‘qituvchidan doimiy ravishda o‘z ustida ishlashni va keng ensiklopedik bilimga ega bo‘lishni talab qiladi. R. Ishmuhamedovning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, innovatsion texnologiyalar integratsiya bilan uyg‘unlashganda ta’lim samaradorligi kutilgandan yuqori bo‘ladi. Bilimlarni sintez qilish jarayonida talabaning tahliliy va tanqidiy fikrlashi yangi bosqichga ko‘tariladi. Xalqaro tajribalarni tahlil qilish ham integratsiyaning global ta’lim trendi ekanligini ko‘rsatmoqda. Masalan, Finlandiya va Singapur kabi ta’lim tizimi rivojlangan davlatlarda boshlang‘ich ta’lim butunlay fanlararo loyihalarga asoslangan. Bu esa o‘z navbatida bo‘lajak o‘qituvchilarning tayyorgarlik standartlarini ham qayta ko‘rib chiqishga undadi. Tadqiqotimizning ilmiy asosi sifatida olingan ushbu nazariyalar talabaning metodik kompetentligini dinamik tizim sifatida qarash imkonini beradi. Integratsiya tamoyili o‘quv materialining takrorlanishini oldini oladi va o‘quvchi yuklamasini optimallashtiradi. Bu jarayon talabani darsni "blokli" tizimda qurishga, ya’ni vaqtdan unumli foydalanishga o‘rgatadi. Ilmiy dalillar shuni ko‘rsatadiki, integrativ yondashuv o‘quvchilarning xotirasini mustahkamlaydi, chunki bilimlar bog‘liqlik asosida esda saqlanadi. Talabaning darsda turli metodik usullarni uyg‘unlashtirishi uning pedagogik imidjini shakllantiradi. Shuningdek, integratsiyalashgan ta’lim jarayonida o‘quvchilarning nutqiy ko‘nikmalari ham jadal rivojlanishi aniqlangan. Chunki fanlararo mavzular doimiy muloqot va tahlilni talab qiladi. Tadqiqotchi N.B. Azizova boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kompetentligini oshirishda integratsiyaning o‘rni beqiyos ekanligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, integratsiya - bu o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hamkorlikning oliy ko‘rinishidir. Bilimlarni yaxlitlash jarayoni talabani kreativ izlanishga chorlaydi. Bu esa ta’limning mazmuni va shaklini yangilashga xizmat qiladi. Ilmiy adabiyotlarda integratsiya darajalari - fani ichidagi, fanlararo va fandan tashqari (transdissiplinar) ko‘rinishlarda tahlil etiladi. Bizning tadqiqotimizda ayniqsa fanlararo integratsiyaning amaliy mexanizmlariga e’tibor qaratildi. Nazariy tahlillar shuni ko‘rsatdiki, integratsiya o‘quvchilarda tabiat va jamiyatga nisbatan mas’uliyat hissini ham uyg‘otadi. Oxir-oqibat, ushbu ilmiy asoslar bo‘lajak o‘qituvchini tayyorlashda integrativ yondashuvning muqarrar ekanligini isbotlaydi.

Professor N. Azizxo‘jayeva pedagogik mahoratning asosi sifatida o‘qituvchining texnologik savodxonligini ko‘rsatadi[3]. Integrativ tayyorgarlik talabadan quyidagi sifatlarni talab etadi: Integratsiyalashgan darslarning metodik modelini yarata olish. M. Jumayeva boshlang‘ich ta’lim metodikasida fanlararo bog‘liqlikning didaktik imkoniyatlarini o‘rganib, matematik tushunchalarni badiiy matnlar orqali tushuntirishning afzalliklarini statistik isbotlab bergan[4]. Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda bo‘lajak o‘qituvchilarning tayyorgarligini takomillashtirish uchun "Sintezlashgan-modulli o‘qitish" texnologiyasi asos qilib olindi.

Tadqiqot bosqichlari. Tadqiqot jarayoni uchta asosiy bosqichni qamrab oldi: 1. Diagnostik bosqich: Talabalarning mavjud metodik bilimlari va integratsiyaga bo‘lgan munosabati test va so‘rovnomalar orqali aniqlandi.

2. Loyihalash bosqichi: "Boshlang‘ich ta’limda fanlararo integratsiya" nomli maxsus metodik modullar ishlab chiqildi.

3. Amaliy-eksperimental bosqich: OTM auditoriyalarida va maktab amaliyoti jarayonida ushbu modullar sinovdan o‘tkazildi.

Integrativ darslarni loyihalash texnologiyasi. Talabalarga darsni "Blokli tizim" asosida qurish o‘rgatildi. Bu tizim quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

O‘zak mavzu (Katalog): Masalan, "Quyosh va yer".

Fizik-matematik blok: Quyoshdan yergacha bo‘lgan masofa, nur tezligi (elementar hisob-kitoblar).

Filologik blok: Quyosh haqida xalq maqollari va she’rlar tahlili.

Ekologik-etik blok: Tabiatni asrash va quyosh energiyasining ahamiyati.

Natijalar va muhokama. Tajriba-sinov ishlari tahlili. Tadqiqot oliy ta’lim muassasalarining "Boshlang‘ich ta’lim" yo‘nalishi 3-4 bosqich talabalari ishtirokida olib borildi. Tajriba guruhi (TG) va nazorat guruhi (NG) natijalari quyidagicha shakllandi:

1-jadval.

Talabalarning metodik tayyorgarlik darajasi (foizlarda):

Ko‘rsatkichlar	Nazorat guruhi (NG)	Tajriba guruhi (TG)	O‘sish koeffitsienti
Fanlararo bog‘lanishni rejalashtirish	45.2%	89.4%	+44.2%
Integrativ dars ishlanmasi yaratish	38.6%	82.1%	+43.5%
Kreativ pedagogik topshiriqlar tuzish	41.0%	78.5%	+37.5%
Didaktik sintez qilish mahorati	44.3%	90.2%	+45.9%

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, integrativ yondashuv talabalarning kognitiv tuzilmasida tub burilish yasaydi. Avvalo, bo‘lajak o‘qituvchining darsga tayyorgarlik ko‘rish ssenariysi shunchaki rejadan ijodiy loyihaga aylanadi. Tajriba guruhidagi talabalar fanlararo bog‘liqlikni sun’iy emas, balki tabiiy ehtiyoj sifatida qabul qila boshladilar. Bu jarayonda talabaning tahliliy tafakkuri axborotlarni saralash va ularni umumiy maqsad atrofida birlashtirishga yo‘naltirildi. Integratsiyalashgan ta’lim modelida talaba o‘zini fanlararo koordinator sifatida his qila boshlashi kuzatildi.

Bundan tashqari, talabalarning metodik mahorati faqat nazariya bilan cheklanib qolmasdan, amaliy ko‘nikmalar bilan sintezlashdi. Muhokamalar jarayonida aniqlandiki, integrativ darslarda talabaning nutq madaniyati va tushuntirish qobiliyati ham sezilarli darajada o‘sdi. Bo‘lajak o‘qituvchi bitta tushunchani turli fan prizmalari orqali yoritishni o‘rgandi. Masalan, "ekologiya" tushunchasini ham biologik, ham matematik, ham axloqiy jihatdan talqin qilish talabaning professional moslashuvchanligini oshirdi. Bu esa oliy ta’lim bitiruvchisining zamonaviy mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini ta’minlovchi asosiy omildir. Pedagogik tajriba shuni ko‘rsatdiki, an’anaviy metodikada talabalar ko‘pincha vaqt tanqisligidan shikoyat qiladilar. Integrativ yondashuvda esa dars vaqti bir necha fanning didaktik vazifalarini parallel bajarish hisobiga tejaladi. Bu tejalgan vaqt talabaga o‘quvchilar bilan individual ishlash imkoniyatini beradi. Shuningdek, talabalarning dars ishlanmalarida metodik rang-baranglik va innovatsion ruh yaqqol ko‘zga tash-

landi. Ular darsga shunchaki bilim manbai sifatida emas, balki shaxsni rivojlantiruvchi platforma sifatida qaray boshladilar. Tajriba davomida talabalarning mustaqil ishlash qobiliyati 40% ga yuqorilaganligi qayd etildi. Bu ko‘rsatkich integratsiyaning talaba shaxsini shakllantirishdagi transformatsion kuchidan dalolat beradi. Bo‘lajak o‘qituvchilar darsda muammoli vaziyatlarni yaratishda turli fan sohalaridan misollar keltirish mahoratini egalladilar. Bunday yondashuv o‘quvchilarning darsdagi faolligini oshirib, ularning bilim o‘zlashtirish sifatini tubdan yaxshiladi. Tadqiqotimizning ilmiy qiymati shundaki, u talaba metodik tayyorgarligining yangi modelini taklif etdi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, integrativ yondashuv talabalarda "tizimli fikrlash" qobiliyatini rivojlantiradi. NG talabalari dars o‘tishda faqat bitta darslik doirasi bilan cheklanib qolgan bo‘lsalar, TG talabalari dars jarayoniga qo‘shimcha adabiyotlar, san’at asarlari va hayotiy misollarni erkin jalb qila oldilar. Ayniqsa, "Tabiiy fanlar" va "Ona tili" darslarining integratsiyasi natijasida talabalar o‘quvchilarning lug‘at boyligini fan tushunchalari bilan boyitishning yangi usullarini kashf etdilar. Masalan, "Havo" mavzusini o‘tishda talabalar nafaqat fizik xususiyatlarni, balki "havo kabi zarur" iborasining frazeologik ma’nosini ham tushuntirish orqali darsni qiziqarliroq tashkil etdilar. Raqamli texnologiyalarning o‘rni. Zamonaviy integratsiyani raqamli vositalarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Tadqiqot davomida talabalar multimedia vositalari (Prezi, Canva), virtual simulyatsiyalar (Phet Colorado) va interaktiv taxtalardan foydalanish orqali fanlararo bog‘lanishni vizuallashtirishni o‘rgandilar. Bu esa ta’limning ko‘rgazmalilik darajasini 60% ga oshirdi.

Xulosa va tavsiyalar. Boshlang‘ich ta’lim talabalarining nazariy-metodik tayyorgarligini integrativ yondashuv asosida takomillashtirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar quyidagi xulosalarga kelish imkonini berdi:

Strategik ahamiyat: Integrativ yondashuv shunchaki metodik usul emas, balki ta’lim sifatini kafolatlovchi strategik zaruriyatdir. U bilimlarning tarqoqligiga barham beradi.

Kompetensiyaviy rivojlanish: Talabalarda "didaktik universalizm" shakllanadi. Ular darsni nafaqat o‘tishni, balki uni loyihalashni (me’morlikni) o‘rganadilar.

Psixologik qulaylik: Integratsiyalashgan darslarda o‘quvchilarning zerikish darajasi pasayadi va o‘quv motivatsiyasi keskin ortadi.

Samaradorlik: Tajriba natijalari integrativ tayyorgarlik an’anaviy metodikadan 25-30% yuqori samaradorlikka ega ekanini tasdiqladi.

Amaliy tavsiyalar. Tadqiqot natijalari asosida oliy ta’lim muassasalari va maktablar uchun quyidagi tavsiyalar taklif etiladi:

O‘quv rejalariga o‘zgartirishlar: OTMlarning "Boshlang‘ich ta’lim" yo‘nalishi o‘quv rejalariga "Boshlang‘ich sinflarda fanlararo integratsiya texnologiyalari" nomli 2-3 kreditli tanlov fani kiritilishi lozim.

Kafedralararo klaster: Pedagogika, psixologiya va xususiy metodikalar kafedralari o‘rtasida "Integrativ hamkorlik klasteri"ni tashkil etish. Bu klaster doirasida birgalikda ochiq darslar va metodik qo‘llanmalar yaratish zarur.

Metodik qo‘llanmalar majmuasi: Bo‘lajak o‘qituvchilar uchun "100 ta integratsiyalashgan dars ssenariysi" nomli metodik tavsiyalar to‘plamini chop etish.

Pedagogik amaliyot transformatsiyasi: Talabalarning 4-kursdagi malakaviy amaliyoti davomida ulardan haftasiga kamida 2 ta integratsiyalashgan dars o‘tishni talab qilish va bu darslarni videotasvirga olib tahlil qilish.

Raqamli platforma yaratish: Respublika miqyosida "Integrativ darslar banki" elektron platformasini yaratish. Unda eng yaxshi dars ishlanmalari va vizual resurslar jamlanishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi "Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-289-sonli qarori. Toshkent, 2022.

2. Mavlonova R., Rahmonqulova N. Boshlang‘ich ta’limda integratsiya. Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2009. 180 b. 3. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. Toshkent: TDPU, 2006. 160 b.

4. Jumayeva M.E. Boshlang‘ich ta’limda matematika o‘qitish metodikasi. Toshkent: "O‘qituvchi", 2005. 312 b.

5. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish. Toshkent: "Fan va texnologiya", 2008.

6. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. Toshkent: "Iste’dod", 2008.

7. Azizova N.B. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda innovatsiyalar. Toshkent: TDPU, 2019.

8. Safarova R.G‘. Ta’lim jarayonida fanlararo bog‘lanishni ta’minlashning metodik asoslari. Toshkent: "Fan", 2015.

Amirova Zohida Oripovna
Qarshi davlat universiteti dotsent, Phd
E-mail: zohidaamirova@gmail.com
Tojiyeva G.N.
Filologiya fanlari doktori, professor

MATN LINGVISTIKASIDA INTERTEKSTUALLIK: LISONIY MEXANIZMLAR VA KOMMUNIKATIV FUNKSIYALAR

Annotatsiya. *Mazkur maqolada matn lingvistikasi doirasida intertekstuallik hodisasi tahlil qilinadi. Intertekstuallik matnlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni, madaniy va kommunikativ tajribaning uzviy davomiyligini aks ettiruvchi muhim matniy kategoriya sifatida talqin etiladi. Tadqiqotda iqtibos, alluziya, ishora, pretsedent matnlar va yashirin intertekstuallik kabi lisoniy ko‘rsatkichlarga alohida e’tibor qaratiladi. Shuningdek, intertekstuallikning ma’no yaratilishi, matnni talqin qilish jarayoni va madaniy xotirani shakllantirishdagi roli yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *matn lingvistikasi, intertekstuallik, diskurs, pretsedent matn, alluziya, iqtibos, madaniy xotira*

ИНТЕРТЕКСТУАЛЬНОСТЬ В ЛИНГВИСТИКЕ ТЕКСТА: ЯЗЫКОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ И КОММУНИКАТИВНЫЕ ФУНКЦИИ

Annotation. *This article examines the phenomenon of intertextuality within the framework of text linguistics. Intertextuality is analyzed as a fundamental textual category that reflects the interaction between texts and the continuity of cultural and communicative experience. The study focuses on linguistic markers of intertextuality such as quotations, allusions, references, precedent phenomena, and implicit textual connections. The role of intertextuality in meaning construction, interpretation processes, and the formation of cultural memory is also explored.*

Key words: *text linguistics, intertextuality, discourse, precedent text, allusion, quotation, cultural memory, textual coherence*

INTERTEXTUALITY IN TEXT LINGUISTICS: LINGUISTIC MECHANISMS AND COMMUNICATIVE FUNCTIONS

Аннотация. *В статье рассматривается феномен интертекстуальности в рамках лингвистики текста. Интертекстуальность анализируется как важнейшая текстовая категория, отражающая взаимодействие текстов и преемственность культурного и коммуникативного опыта. Особое внимание уделяется языковым маркерам интертекстуальности: цитатам, аллюзиям, отсылкам, прецедентным текстам и имплицитным связям между текстами. Также исследуется роль интертекстуальности в формировании смысла, процессах интерпретации и сохранении культурной памяти.*

Ключевые слова: *лингвистика текста, интертекстуальность, дискурс, прецедентный текст, аллюзия, цитата, культурная память*

Kirish. Zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda matn endilikda faqat grammatik va semantik birliklar yig‘indisi sifatida emas, balki ijtimoiy, madaniy va kognitiv omillar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan murakkab kommunikativ hodisa sifatida talqin qilinmoqda. Shu nuqtai nazardan, matnlar o‘rtasidagi munosabatni ifodalovchi intertekstuallik tushunchasi matn lingvistikasining markaziy kategoriyalaridan biriga aylandi.

Intertekstuallik g‘oyasi XX asr ikkinchi yarmida poststrukturalizm va semiotika doirasida shakllanib, Y. Kristeva, R. Bart, M. Baxtin kabi olimlarning ishlari orqali ilmiy muomalaga

kiritildi. Unga ko‘ra, har bir matn o‘zidan oldingi matnlar bilan ochiq yoki yashirin aloqada bo‘ladi va ularning izlarini o‘zida mujassamlashtiradi. Demak, matn mustaqil, yopiq tizim emas, balki doimiy dialogda mavjud bo‘lgan ochiq kommunikativ makondir.

Bugungi globallashuv va raqamli axborot oqimi sharoitida intertekstuallik nafaqat badiiy adabiyotda, balki publitsistik, ilmiy, siyosiy va internet diskurslarida ham faol namoyon bo‘lmoqda. Shu bois intertekstuallikni lingvistik jihatdan o‘rganish matn mazmunini chuqurroq anglash, uning pragmatik va madaniy qatlamlarini ochib berish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature Review). Intertekstuallik nazariyasi zamonaviy tilshunoslik va matn lingvistikasining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, uning shakllanishi va rivojlanishi bir necha bosqichlarda amalga oshgan. Ushbu nazariyaning metodologik asoslari, avvalo, rus faylasufi va tilshunosi Mixail Baxtinning dialogizm konsepsiyasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Baxtin tilni yopiq va mustaqil tizim sifatida emas, balki doimiy muloqotda, boshqa nutqlar va matnlar bilan uzviy aloqada mavjud bo‘ladigan ijtimoiy hodisa sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, har bir nutq avvalgi nutqlarga javob tarzida shakllanadi va kelajakdagi nutqlarga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Shu sababli, har qanday matn o‘zidan oldin yaratilgan matnlarning izlarini, aks-sadosini va ma’no qatlamlarini o‘zida mujassamlashtiradi.

Baxtinning dialogizm haqidagi qarashlari intertekstuallik nazariyasining nazariy poydevorini yaratib berdi. U til birliklarining faqat grammatik yoki semantik jihatdan emas, balki ijtimoiy, madaniy va kommunikativ kontekstda o‘rganilishi zarurligini ta’kidladi. Baxtin uchun matnlar o‘rtasidagi munosabat tasodifiy emas, balki tarixiy va madaniy xotira bilan bog‘liq jarayondir. Aynan shu yondashuv keyinchalik intertekstuallik tushunchasining kengayishiga zamin yaratdi. Baxtinning g‘oyalari fransuz adabiyotshunosi va faylasufi Yuliya Kristeva tomonidan yanada rivojlantirildi. U ilmiy muomalaga “intertekstuallik” terminini kiritib, matnni mustaqil va yopiq tuzilma sifatida emas, balki boshqa matnlar bilan uzluksiz aloqada bo‘lgan ochiq tizim sifatida izohladi. Kristevaning mashhur ta’rifiga ko‘ra, “har bir matn iqtiboslar mozaikasidir”, ya’ni har qanday matn avvalgi matnlarning qayta ishlanishi, ularning ma’no va shakliy elementlarining yangi kontekstda qayta talqin qilinishidan iboratdir. Ushbu yondashuv matnni muallif tomonidan yaratilgan yagona mahsul sifatida emas, balki madaniy va ijtimoiy diskurslar kesishgan nuqta sifatida ko‘rishga imkon berdi.

Kristeva intertekstuallikni faqat adabiy hodisa sifatida emas, balki umumiy madaniy jarayon sifatida talqin qildi. Uning qarashlariga ko‘ra, o‘quvchi matnni idrok etish jarayonida o‘zining oldingi bilimlari, madaniy tajribasi va boshqa matnlar bilan bog‘liq assotsiatsiyalariga tayanadi. Shu bois intertekstuallik matn ma’nosining shakllanishida muhim rol o‘ynaydi va matnni ko‘p qatlamli semantik tuzilma sifatida namoyon qiladi. Intertekstuallik nazariyasining rivojiga sezilarli hissa qo‘shgan yana bir muhim olim Roland Bart hisoblanadi. U intertekstuallikni mualliflik tushunchasining yemirilishi bilan bog‘lab talqin qildi. Bartga ko‘ra, matnning yagona va qat’iy ma’nosi mavjud emas, u cheksiz ma’nolar maydonidan iboratdir. Muallif matnning yagona manbai emas, balki mavjud diskurslar va madaniy kodlar bilan ishlovchi shaxsdir. Bart “muallifning o‘limi” konsepsiyasi orqali e’tiborni muallifdan o‘quvchiga qaratdi va matnning ma’nosi o‘quvchi tomonidan talqin jarayonida shakllanishini ta’kidladi.

Bartning ushbu qarashlari intertekstuallikni o‘rganishda o‘quvchi omilining ahamiyatini oshirdi. Chunki intertekstual birliklarni anglash darajasi o‘quvchining bilim saviyasi, madaniy xotirasi va oldingi matnlar bilan tanishligiga bog‘liqdir. Natijada intertekstuallik matnni tushunish jarayonida faol intellektual ishtirokni talab qiladigan hodisa sifatida namoyon bo‘ladi.

Zamonaviy g‘arb tilshunosligida intertekstuallik diskurs tahlili, pragmatika, kognitiv lingvistika va madaniyatshunoslik bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganilmoqda. Tadqiqotlarda intertekstuallik nafaqat badiiy adabiyotda, balki publitsistik, siyosiy, reklama, internet va kundalik muloqot matnlarida ham faol ishlatilishi ta’kidlanadi. Bu esa intertekstuallikning universal va ko‘p qirrali hodisa ekanini ko‘rsatadi. O‘zbek tilshunosligida intertekstuallik masalasi nisbatan yangi tadqiqot yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, so‘nggi yillarda ushbu mavzuga bo‘lgan ilmiy qiziqish tobora ortib bormoqda.

Tadqiqotlarda asosan badiiy matnlardagi intertekstual birliklar, xususan, pretsedent matnlar, xalq og‘zaki ijodi namunalari, diniy va mifologik manbalarga ishoralar tahlil qilinmoqda. Bu kabi birliklar orqali milliy madaniyat, tarixiy xotira va ijtimoiy qadriyatlar matn tarkibida qanday aks etishi o‘rganilmoqda. Shuningdek, o‘zbek tilshunosligida intertekstuallikning tarjima jarayonidagi roli, matn pragmatikasi va stilistik xususiyatlar bilan bog‘liqligi ham tadqiq etilmoqda. Ushbu tadqiqotlar intertekstuallikning faqat nazariy emas, balki amaliy ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi. Ayniqsa, milliy madaniyatga xos intertekstual birliklarning tahlili o‘zbek tilining boy semantik imkoniyatlarini ochib berishga xizmat qilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology) Mazkur tadqiqot intertekstuallik hodisasini ko‘p qirrali va tizimli yondashuv asosida o‘rganishni maqsad qilgan. Tadqiqot jarayonida tavsifiy, qiyosiy va diskursiv tahlil metodlaridan kompleks tarzda foydalanildi. Ushbu metodlar intertekstuallikning lisoniy shakllari, semantik xususiyatlari va pragmatik funksiyalarini chuqur tahlil qilish imkonini berdi. Tavsifiy metod yordamida matnlarda uchraydigan intertekstual birliklar aniqlanib, ularning tashqi shakli va strukturaviy xususiyatlari tavsiflandi. Bu metod intertekstuallikning ochiq va yashirin ko‘rinishlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etdi. Qiyosiy metod esa turli diskurslarga mansub matnlardagi intertekstual birliklarni solishtirish orqali ularning o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlash imkonini berdi.

Diskursiv tahlil metodi yordamida intertekstuallikning kommunikativ jarayondagi roli ochib berildi. Matn muallifining pragmatik maqsadlari, o‘quvchiga ta’sir ko‘rsatish usullari va madaniy kontekst bilan bog‘liqlik masalalari ushbu metod asosida tahlil qilindi. Bundan tashqari, semantik-pragmatik yondashuv intertekstuallikning ma’no hosil qilishdagi funksiyasini aniqlashda asosiy metodologik vosita bo‘lib xizmat qildi. Tadqiqot materiali sifatida badiiy adabiyot namunalari, publitsistik maqolalar hamda internet diskursiga oid matnlar tanlab olindi. Ushbu materiallar intertekstuallikning turli kommunikativ muhitlarda qanday namoyon bo‘lishini kuzatish imkonini berdi. Matnlarning turli janr va uslubga mansubligi tadqiqot natijalarining umumlashma va xolis bo‘lishiga xizmat qildi.

Tahlil va natijalar. O‘tkazilgan tahlillar intertekstuallik matn tuzilmasining ajralmas qismi ekanini va u turli lisoniy hamda semantik vositalar orqali namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi. Intertekstual birliklar matn mazmunini boyitib, unga qo‘shimcha ma’no qatlamlari yuklaydi. Natijada matn biryoqlama emas, balki ko‘p qirrali va chuqur semantik tuzilma sifatida namoyon bo‘ladi. Tahlil jarayonida aniqlandi-ki, iqtiboslar muallif fikrini asoslash va mustahkamlashda muhim vosita hisoblanadi. Iqtibos orqali muallif o‘z qarashlarini boshqa mualliflarning fikrlari bilan bog‘laydi va matnning ishonchliligini oshiradi. Alluziyalar esa yashirin ma’no hosil qilib, o‘quvchini faol fikrlashga undaydi. Bunday ishoralar orqali matn madaniy va tarixiy kontekst bilan boyitiladi. Pretsedent matnlar jamiyat tomonidan yaxshi tanilgan bo‘lib, ular orqali umumiy madaniy fon yaratiladi. Ushbu birliklar o‘quvchi va muallif o‘rtasida umumiy bilim maydonini shakllantiradi. Yashirin intertekstuallik esa bevosita ko‘rsatkichlarsiz, kontekst va assotsiatsiyalar orqali anglashilib, matnni yanada murakkab va chuqur talqin qilish imkonini beradi.

Umuman olganda, intertekstuallik matnning semantik chuqurligini oshiribgina qolmay, uning pragmatik ta’sirchanligini ham kuchaytiradi. U o‘quvchini passiv qabul qiluvchi emas, balki faol talqin qiluvchi subyektga aylantiradi. Shu orqali muallif va o‘quvchi o‘rtasida madaniy va intellektual muloqot maydoni yuzaga keladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, intertekstuallik matn lingvistikasining muhim kategoriyalaridan biri bo‘lib, matnlararo aloqadorlikni, madaniy davomiylikni va kommunikativ tajribani aks ettiradi. Intertekstual birliklar matnning mazmuniy boyligini oshirib, uni ko‘p qatlamli semantik tizimga aylantiradi. Zamonaviy diskurslar sharoitida intertekstuallikni o‘rganish nafaqat lingvistik, balki madaniy va kognitiv tadqiqotlar uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Kelgusida intertekstuallikni raqamli diskurs, media matnlar va sun’iy intellekt tomonidan yaratilgan matnlar doirasida tadqiq etish ilmiy jihatdan istiqbolli yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Bakhtin, M. The Dialogic Imagination. University of Texas Press. 1981.
2. M. Yo`ldoshev, S.Muhamedova, M.Saparniyazova. Matn lingvistikasi. 2021.
3. T.H. Asadov. Matn tilshumosligi. 2023.
4. Beaugrande, R., & Dressler, W. Introduction to Text Linguistics. Longman. 1981.
5. Genette, G.Palimpsests: Literature in the Second Degree. University of Nebraska Press. 1997
6. Crystal, D. Language and the Internet. Cambridge University Press. 2006
7. O'zbek tilshunosligida matn va diskurs masalalari. – Toshkent, 2020.

Khalilova Nasiba Djamolovna
PhD student, Navoi State University
E-mail: n_djamolovna@mail.ru

DEVELOPING STUDENTS' HIGHER-ORDER THINKING AND COLLABORATIVE DECISION-MAKING THROUGH MULTI-LEVEL LEARNING ENVIRONMENT DESIGN

Abstract. *This study proposes an innovative model for organizing students' academic activity in collaborative learning environments aimed at developing creative and critical thinking as well as collective decision-making competencies in higher education. The model is grounded in sociocultural learning theory, which emphasizes the role of mediated interaction and cooperation in cognitive development, and in contemporary research on collaborative learning as a mechanism for knowledge co-construction and engagement. The proposed framework integrates three methodological components: Collaborative Learning Development (CLD), Active Analyze (AA), and the Collaborative Analyzing Tool (ColAT). These components function within a multi-level learning environment that structures students' interaction at cognitive, social, reflective, and decision-making levels. The model is informed by research demonstrating that collaborative learning enhances academic performance, promotes analytical reasoning, and strengthens communication and teamwork skills. Additionally, the study draws on analytical frameworks that interpret collaborative activity across event, task, and goal levels, allowing deeper understanding of group learning processes. The findings suggest that the implementation of the proposed multi-level collaborative model contributes to increased student engagement, improved higher-order thinking, and more effective organization of academic activity. The study highlights the pedagogical potential of structured collaborative environments as a means of fostering intellectual development and preparing students for complex problem-solving in modern educational contexts.*

Key words: *collaborative learning, academic activity organization, critical thinking, creative thinking, multi-level learning environment, interaction analysis, student competencies, higher education pedagogy*

KO‘P BOSQICHLI TA’LIM MUHITI DIZAYNI ORQALI TALABALAR YUQORI DARAJADAGI TAFAKKURINI VA HAMKORLIKDA QAROR QABUL QILISH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. *Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida talabalar akademik faoliyatini kollaborativ o‘qitish sharoitida tashkil etishning innovatsion modeli taklif etiladi. Tadqiqotning maqsadi talabalarda kreativ va tanqidiy fikrlash, shuningdek jamoaviy qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan ko‘p darajali ta’lim muhitini ishlab chiqishdan iborat. Taklif etilgan model uchta o‘zaro bog‘liq komponentdan iborat: Active Analyze (AA), Collaborative Analyzing Tool (ColAT) va Collaborative Learning Development (CLD). Ushbu komponentlar talabalar o‘rtasidagi hamkorlikni tizimli tashkil etish, analitik muloqotni rag‘batlantirish hamda o‘quv faoliyatini refleksiv tahlil qilish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari ko‘rsatadiki, strukturaviy kollaborativ ta’lim muhitini qo‘llash talabalarning o‘quv faolligini oshiradi, tanqidiy tahlil qilish, ijodiy fikrlash hamda jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, taklif etilgan model oliy ta’limda o‘quv jarayonini samarali tashkil etish va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning istiqbolli pedagogik mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi.*

Kalit so’zlar: *kollaborativ o‘qitish, ko‘p darajali ta’lim muhiti, tanqidiy fikrlash, kreativ fikrlash, o‘quv faoliyatini tashkil etish, talaba kompetensiyalari, jamoaviy qaror qabul qilish, faol ta’lim, oliy ta’lim pedagogikasi, pedagogik texnologiyalar*

РАЗВИТИЕ МЫШЛЕНИЯ ВЫСШЕГО ПОРЯДКА И СОВМЕСТНОГО ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ У СТУДЕНТОВ ПОСРЕДСТВОМ ПРОЕКТИРОВАНИЯ МНОГОУРОВНЕВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЫ

Аннотация. *В статье предлагается инновационная модель организации учебной деятельности студентов в условиях коллаборативного обучения, направленная на развитие креативного и критического мышления, а также компетенций коллективного принятия решений в системе высшего образования. Теоретической основой исследования выступают социокультурная теория обучения и современные концепции коллаборативного взаимодействия, рассматривающие обучение как процесс совместного конструирования знаний. Предложенная модель включает три взаимосвязанных компонента: Collaborative Learning Development (CLD), Active Analyze (AA) и Collaborative Analyzing Tool (ColAT), которые функционируют в многоуровневой бразовательной среде. Модель обеспечивает структурирование взаимодействия студентов, стимулирует аналитический диалог и способствует рефлексивному осмыслению результатов совместной деятельности. Результаты исследования показывают, что внедрение предложенной модели способствует повышению учебной активности студентов, развитию навыков критического анализа, творческого мышления и командной работы. Сделан вывод о том, что структурированная коллаборативная среда обучения является эффективным педагогическим механизмом формирования профессиональных и интеллектуальных компетенций студентов.*

Ключевые слова: *коллаборативное обучение, многоуровневая образовательная среда, критическое мышление, креативное мышление, организация учебной деятельности, компетенции студентов, коллективное принятие решений, активное обучение, высшее образование, педагогические технологии*

Introduction. The rapid transformation of higher education in the context of globalization and technological development has intensified the need for instructional approaches that promote students' higher-order thinking, collaboration, and independent knowledge construction. Traditional teacher-centered models are increasingly insufficient for preparing students to address complex academic and professional challenges. Consequently, contemporary pedagogical research emphasizes student-centered learning environments that foster interaction, reflection, and joint problem solving.

Collaborative learning has emerged as one of the most effective approaches for achieving these educational goals. It is understood as a learning process in which students construct knowledge through interaction, dialogue, and shared activity rather than through passive reception of information [15; p-720]. Research shows that collaborative environments stimulate deeper understanding, improve communication skills, and support the development of analytical reasoning and problem-solving abilities. Through collaborative interaction, learners articulate their ideas, exchange perspectives, and develop conceptual understanding collectively.

The theoretical foundations of collaborative learning are closely related to sociocultural learning theory, which posits that cognitive development occurs through mediated interaction and participation in shared activities. Within this framework, collaboration functions not only as a teaching strategy but also as a mechanism of intellectual development, as learners internalize knowledge through communication and guided participation [9; p-2367–2375].

Empirical and theoretical studies further indicate that effective collaborative learning requires specific structural conditions, including positive interdependence, active interaction, individual accountability, and group reflection processes [8; p-814-818]. When these elements are present, collaborative learning contributes to improved academic engagement and learning outcomes. Recent studies also confirm that collaborative learning positively influences students' academic performance, motivation, and social integration within educational environments [13; p-409-426].

Advances in learning technologies have enabled deeper analysis of collaborative processes. Research on computer-supported collaborative learning demonstrates that group activity can be

interpreted across multiple analytical levels, such as events, tasks, and goals, which allows understanding of both behavioral and cognitive aspects of learning interaction [1; p-325 -346]. Such approaches emphasize the importance of designing structured learning environments that integrate interaction analysis, reflective dialogue, and coordinated decision-making.

Despite the extensive body of research on collaborative learning, there remains a need for methodological models that systematically organize students' academic activity within multi-level learning environments. Many existing approaches focus either on interaction techniques or on technological tools, while fewer studies integrate structural design, analytical engagement, and competency-based outcomes into a unified pedagogical framework [2; p-432].

To address this gap, the present study proposes an innovative model for organizing students' academic activity through the integration of Collaborative Learning Development (CLD), Active Analyze (AA), and the Collaborative Analyzing Tool (ColAT). The model aims to create a multi-level collaborative learning environment that supports the development of creative thinking, critical reasoning, and collective decision-making competencies in higher education.

Literature review. Theoretical Foundations of Collaborative Learning

Collaborative learning is widely recognized as a pedagogical approach that supports knowledge co-construction through social interaction and shared problem solving. Unlike traditional instructional models, collaborative learning emphasizes dialogue, negotiation of meaning, and joint cognitive activity among learners [4; p-398]. This perspective positions learning as a socially mediated process rather than an individual acquisition of information.

The sociocultural theory of learning further strengthens this view. According to L.Vygotsky, intellectual development occurs through interaction within the Zone of Proximal Development, where learners internalize knowledge through guided collaboration and communication. This theoretical perspective highlights that collaboration functions as a mechanism for cognitive growth rather than merely a teaching technique [14; p-1978–159].

Research also indicates that collaborative learning environments encourage deeper conceptual understanding and the development of critical thinking skills. Students engaged in collaborative dialogue must explain their reasoning, defend ideas, and integrate multiple viewpoints, which leads to higher-order cognitive processing and reflective learning practices [3; p-432].

2. Structural Elements of Effective Collaborative Learning

Studies suggest that collaborative learning becomes effective only when specific pedagogical conditions are met. These conditions include positive interdependence, active interaction, individual accountability, social skill development, and group reflection processes [5; p-350]. When these components are present, collaborative learning environments promote responsibility, engagement, and shared knowledge construction. The essential components of collaborative learning can be summarized as follows:

Table-1

The essential components of collaborative learning

Component	Pedagogical Function	Educational Outcome
Positive interdependence	Encourages shared responsibility	Cooperative problem solving
Active interaction	Promotes dialogue and feedback	Deeper understanding
Individual accountability	Prevents passive participation	Academic responsibility
Social skills	Supports communication and leadership	Teamwork competence
Group reflection	Enables evaluation of group work	Metacognitive development

This structure demonstrates that collaborative learning operates simultaneously at cognitive, social, and reflective levels.

3. Collaborative Learning and Academic Performance

Empirical research consistently confirms that collaborative learning contributes to improved academic outcomes. Studies show that students who engage in structured group learning demonstrate higher motivation, stronger engagement, and better academic achievement [6; p-188]. Collaborative interaction enhances students' understanding by allowing them to explore diverse perspectives and collectively solve problems. It also promotes responsibility for both individual and group learning outcomes. In higher education contexts, collaborative learning is particularly effective for developing communication skills, critical reasoning, and professional competencies. Students working collaboratively gain experience in negotiation, discussion, and decision-making, which are essential for modern professional environments [7; p-480].

4. Analytical Approaches to Studying Collaboration

Recent research in computer-supported collaborative learning emphasizes the importance of analyzing collaborative activity at multiple levels. Analytical frameworks suggest that learning processes can be interpreted through:

Event level – observable actions and interactions

Task level – coordinated activities and roles

Goal level – strategic intentions and decision processes

Such multi-level analysis allows researchers to understand not only behavioral interaction but also cognitive and strategic dimensions of collaboration.

This approach demonstrates that collaborative learning environments should be designed to support not only interaction but also reflection and joint decision-making processes.

5. Conceptual Diagram of Collaborative Learning Processes

Below is a conceptual representation synthesizing the reviewed research and theoretical models:




Figure 1. Multi-Level Collaborative Learning Model.

The presented model represents a multi-level collaborative learning framework designed to organize students' academic activity through structured interaction, analytical engagement, and

collective decision-making processes. The model integrates three interconnected components: Collaborative Learning Development (CLD), which structures academic interaction; Active Analyze (AA), which supports analytical dialogue and reflective reasoning; and the Collaborative Analyzing Tool (ColAT), which facilitates interpretation, coordination, and joint decision-making.

The model operates across cognitive, social, and reflective levels of learning, ensuring that collaboration functions not only as a method of instruction but also as a mechanism for developing higher-order thinking skills and professional competencies. As a result, the framework supports the development of students' creative thinking, critical reasoning, and teamwork abilities within higher education environments.

6. Research Gap

Despite the extensive research on collaborative learning, many studies focus either on interaction techniques or technological tools. Fewer approaches integrate structural organization of academic activity, analytical engagement, and competency-based outcomes into a unified model. Therefore, there is a need for pedagogical frameworks that combine structured collaborative design, analytical reflection, and competency development within a multi-level learning environment. The present study addresses this gap by proposing an integrated model based on CLD, AA, and ColAT components.

Methodology. This study adopts a design-based pedagogical research approach aimed at developing and theoretically substantiating an innovative framework for organizing students' academic activity in collaborative learning environments. The research focuses on the construction and justification of the Multi-Level Collaborative Learning Model (MLCL model) as a structured mechanism for integrating interaction, analytical engagement, and collective decision-making into higher education practice.

The methodological foundation of the study is based on sociocultural learning theory, collaborative learning research, and competency-based education principles. These perspectives conceptualize learning as a socially mediated process in which knowledge is constructed through dialogue, shared activity, and reflective interaction. Collaborative learning environments, when systematically structured, have been shown to promote deeper understanding, critical reasoning, and academic engagement.

The MLCL model integrates three interconnected methodological components. The Collaborative Learning Development (CLD) component structures group interaction by defining learning tasks, distributing roles, and establishing conditions for positive interdependence among students. The Active Analyze (AA) component promotes analytical dialogue and reflective reasoning by engaging students in evaluation of perspectives, justification of arguments, and synthesis of knowledge. The Collaborative Analyzing Tool (ColAT) component functions as an interpretative mechanism that supports reflection on group activity and facilitates collective decision-making processes.

The model operates within a multi-level learning environment encompassing cognitive, social, reflective, and decision-making dimensions of learning. Such structuring ensures that collaborative learning functions not only as a teaching method but also as a mechanism for developing higher-order thinking skills and professional competencies. To construct and substantiate the proposed model, the study employs theoretical analysis of pedagogical literature, comparative analysis of collaborative learning approaches, and conceptual modeling of instructional design. These methods enable the model to be theoretically grounded and pedagogically justified as an effective framework for organizing students' academic activity.

The implementation of the MLCL model is expected to enhance students' creative and critical thinking skills, improve their participation in analytical dialogue, strengthen teamwork competencies, and increase responsibility for both individual and collective learning outcomes. Thus, the model provides a methodological basis for integrating structured collaboration and reflective analysis into higher education practice.

Analysis and results. The analysis of the proposed Multi-Level Collaborative Learning Model (MLCL model) indicates that structured collaborative environments contribute to im-

provements in students' academic engagement, analytical reasoning, and teamwork competencies. The integration of CLD, AA, and ColAT components creates a learning framework in which collaboration functions simultaneously at cognitive, social, and reflective levels.

To evaluate the pedagogical potential of the model, its expected impact on key educational outcomes can be summarized as follows.

Model Component	Learning Process Supported	Expected Student Outcome
CLD	Structured interaction and role distribution	Increased responsibility and engagement
AA	Analytical dialogue and reflective reasoning	Development of critical thinking skills
ColAT	Interpretation and decision-making processes	Improved teamwork and collective problem solving
Multi-level structure	Integration of cognitive, social, and reflective learning	Holistic competency development

Table 2.

Expected Pedagogical Outcomes of the MLCL Model

The data presented in Table 2 demonstrate that each component of the model contributes to a distinct dimension of learning while collectively supporting comprehensive competency development. This confirms that collaborative learning becomes more effective when supported by structured interaction and analytical engagement mechanisms.

In addition to qualitative analysis, the potential pedagogical impact of the model can be represented through a conceptual evaluation of learning outcomes before and after implementation of structured collaborative interaction.




Figure 2.

Comparative Learning Outcomes: Traditional Instruction vs. MLCL-Based Instruction

The diagram illustrates the pedagogical impact of the proposed Multi-Level Collaborative Learning Model (MLCL model) by summarizing the relationship between its structural compo-

nents and expected learning outcomes. The left part of the diagram demonstrates how each component of the model contributes to specific dimensions of student development. The CLD component promotes responsibility and engagement through structured interaction; the AA component supports the development of critical thinking by encouraging analytical dialogue; the ColAT component enhances teamwork and collaborative problem solving through reflection and decision-making processes; and the multi-level structure ensures holistic competency development.

The right part of the diagram presents a conceptual comparison between traditional instruction and MLCL-based instruction. The comparison suggests that structured collaborative environments increase student participation, deepen conceptual understanding, strengthen communication skills, and promote shared responsibility for learning outcomes. In contrast to traditional approaches that often emphasize individual performance and surface-level learning, the MLCL model supports active engagement and collective decision-making.

Overall, the diagram demonstrates that integrating structured collaboration with analytical reflection provides a comprehensive pedagogical framework for developing students' higher-order thinking skills and professional competencies in higher education.

Conclusion. This study presents the Multi-Level Collaborative Learning Model (MLCL model) as a structured framework for organizing students' academic activity in collaborative learning environments. By integrating the CLD, AA, and ColAT components, the model supports interaction, analytical engagement, and collective decision-making within higher education practice.

The analysis indicates that structured collaborative environments promote deeper understanding, stronger student engagement, and the development of critical thinking, creativity, and teamwork competencies. Thus, the MLCL model provides a methodological basis for transforming collaborative learning into a systematic mechanism for competency development.

Future research may focus on empirical implementation of the model and assessment of its impact on student learning outcomes across different educational contexts.

References.

1. Avouris N., Komis V., Margaritis M., Fiotakis G. An environment for studying collaborative learning activities // Educational Technology & Society. – 2004. – Vol. 7, №2. – P. 34–41. [2] Deci, E. L., Vallerand, R. J., Pelletier, L. G., & Ryan, R. M. (1991). Motivation and education: The self-determination perspective, 26 (3 & 4), 325 -346.

2. Bean J.C., Melzer D. Engaging ideas: The professor's guide to integrating writing, critical thinking, and active learning in the classroom. – San Francisco: Jossey-Bass, 2021. – 432 p.

3. Brookfield S.D. Teaching for critical thinking: Tools and techniques to help students question their assumptions. – San Francisco: Jossey-Bass, 2017– 320 p.

4. Dillenbourg P. Collaborative learning: Cognitive and computational approaches. – Oxford: Elsevier, 1999. – 398 p.

5. Fischer F., Kollar I., Stegmann K., Wecker C. Scripting computer-supported collaborative learning: Cognitive, computational and educational perspectives. – New York: Springer, 2013. – 350 p.

6. Garrison D.R. E-learning in the 21st century: A framework for research and practice. – London: Routledge, 2017. – 188 p.

7. Johnson D.W., Johnson R.T. Joining together: Group theory and group skills. – Boston: Pearson, 2018. – 480 p.

Ostonova Shaxzoda Toshevna
Buxoro viloyati Shofirkon tuman 1-maktab direktori,
Jo'raqulova Gulruh Murot qizi
Osiyo xalqaro universiteti tayanch doktoranti (Phd)
E-mail: gulruhjurakulova@mail.com

MONTESSORI METODIKASINING BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA TIL KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDAGI PEDAGOGIK SAMARADORLIGI

Annotatsiya. *Ushbu maqola Montessori metodikasining boshlang'ich sinf o'quvchilarida til o'rganish ko'nikmalarini shakllantirishdagi pedagogik samaradorligini kompleks tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotda metodikaning nazariy asoslari, uning bolalarning individual ehtiyojlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ta'lim berishdagi roli ilmiy-pedagogik adabiyotlar tahlili orqali o'rganildi. Eksperimental usullar yordamida Montessori muhitida amalga oshirilgan mashg'ulotlar natijalari kuzatildi va statistik tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Montessori metodikasi bolalarning mustaqil ishlash qobiliyati, til o'rganish motivatsiyasi, lisoniy kompetensiyalari (so'z boyligi, grammatik tushuncha, muloqot qobiliyatlari)ning sezilarli darajada oshishiga olib keladi. Metodikaning muvaffaqiyatli tatbiq etilishi uchun maxsus tayyorlangan o'qituvchilar, moslashtirilgan materiallar va individual yondashuvni ta'minlash zarurligi aniqlandi. Umuman olganda, Montessori metodikasi zamonaviy ta'limning bolani markazga qo'yuvchi, uning intellektual va ijtimoiy rivojlanishini integrallashtiruvchi samarali vositasidir.*

Kalit so'zlar: *montessori metodikasi, lisoniy kompetensiya, boshlang'ich ta'lim, til o'qitish metodikalari, individual yondashuv, pedagogik innovatsiya, mustaqil ta'lim, bolani markazga qo'yish.*

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ МЕТОДИКИ МОНТЕССОРИ В РАЗВИТИИ ЯЗЫКОВЫХ НАВЫКОВ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация. *Данная статья направлена на комплексный анализ педагогической эффективности методики Монтессори в формировании навыков изучения языка у учащихся начальных классов. В исследовании на основе анализа научно-педагогической литературы рассмотрены теоретические основы методики, а также её роль в организации обучения с учётом индивидуальных потребностей и интересов детей. С помощью экспериментальных методов были проведены наблюдения за результатами занятий, реализованных в среде Монтессори, и выполнен их статистический анализ. Результаты исследования показали, что методика Монтессори способствует значительному повышению способности детей к самостоятельной работе, мотивации к изучению языка, а также развитию лингвистических компетенций (словарного запаса, понимания грамматических структур, коммуникативных навыков). Выявлено, что для успешного внедрения методики необходимы специально подготовленные педагоги, адаптированные учебные материалы и обеспечение индивидуального подхода. В целом методика Монтессори является эффективным инструментом современного образования, ориентированного на ребёнка и обеспечивающего интеграцию его интеллектуального и социального развития.*

Ключевые слова: *методика Монтессори, лингвистическая компетенция, начальное образование, методики обучения языку, индивидуальный подход, педагогическая инновация, самостоятельное обучение, личностно-ориентированный подход.*

THE PEDAGOGICAL EFFECTIVENESS OF THE MONTESSORI METHOD IN DEVELOPING LANGUAGE SKILLS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Abstract. *This article is aimed at providing a comprehensive analysis of the pedagogical effectiveness of the Montessori method in developing language learning skills among primary school*

students. The study examines the theoretical foundations of the method and its role in organizing instruction in accordance with children's individual needs and interests, based on an analysis of scientific and pedagogical literature. Using experimental methods, the outcomes of activities implemented in the Montessori environment were observed and statistically analyzed. The research findings indicate that the Montessori method significantly enhances children's ability to work independently, increases their motivation to learn a language, and improves their linguistic competencies (vocabulary development, understanding of grammatical structures, and communication skills). It was determined that the successful implementation of the method requires specially trained teachers, adapted instructional materials, and the provision of an individualized approach. Overall, the Montessori method serves as an effective tool of modern education that places the child at the center of the learning process and integrates intellectual and social development.

Key words: *montessori method, linguistic competence, primary education, language teaching methodologies, individualized approach, pedagogical innovation, independent learning, child-centered education.*

Har bir bola o‘zida cheksiz imkoniyatlar, yashirin intellektual salohiyat va individual rivojlanish istiqbollarini mujassam etgan noyob shaxsdir. Zamonaviy pedagogika fanida bolani tayyor bilimlarni qabul qiluvchi obyekt sifatida emas, balki o‘z rivojlanishining faol subyekti sifatida qarash ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro ta’lim tashkilotlari, jumladan UNESCO va OECD tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim yondashuvi XXI asr ta’limining asosiy ustunlaridan biri sifatida e’tirof etilgan. Ushbu yondashuv bolaning tabiiy qiziqishlari, ehtiyojlari va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etishni nazarda tutadi.

Zamonaviy ta’lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri - har bir bolaning individual imkoniyatlarini aniqlash, rivojlantirish va ularni jamiyat taraqqiyotiga xizmat qila oladigan shaxs sifatida shakllantirishdir. Shu nuqtai nazardan, Montessori metodikasi ilmiy asoslangan, tabiiy rivojlanishga tayangan va xalqaro miqyosda tan olingan pedagogik yondashuv sifatida alohida ahamiyatga ega[10]. Mazkur metodika bugungi kunda Yevropa, AQSh, Yaponiya va boshqa rivojlangan davlatlarning boshlang‘ich ta’lim tizimlarida muvaffaqiyatli qo‘llanilib kelinmoqda[4].

Montessori metodikasining asoschisi M. Montessori o‘z tadqiqotlarida bolaning mustaqil faoliyati orqali o‘rganishi eng samarali natija berishini ta’kidlaydi[2]. Keyingi yillarda amerikalik tadqiqotchi A. Lillard tomonidan olib borilgan empirik tadqiqotlar ham Montessori muhitida ta’lim olgan bolalarda mustaqil fikrlash, muammo yechish va akademik ko‘rsatkichlar yuqori ekanligini tasdiqlagan[3]. Xalqaro tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Montessori metodikasiga asoslangan ta’lim muhitida o‘quvchilar faqat bilim egallabgina qolmay, balki o‘z-o‘zini boshqarish va o‘rganishga bo‘lgan ichki motivatsiyani ham rivojlantiradilar.

Montessori pedagogikasining muhim tamoyillaridan biri - bolaning avtonomligi, ya’ni mustaqil o‘rganish va qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantirishdir[1]. Bu yondashuvda o‘qituvchi bilim beruvchi markaziy figura emas, balki yo‘naltiruvchi va fasilitator rolini bajaradi. Xalqaro pedagogik tadqiqotlarda bunday yondashuv “learner-centered education” yoki “child-centered learning” atamalari bilan izohlanadi. OECD tomonidan o‘tkazilgan ta’lim samaradorligi bo‘yicha tadqiqotlarda ham o‘quvchilarning mustaqil faoliyatga jalb qilinishi ularning bilimlarni chuqurroq va uzoq muddatga o‘zlashtirishiga xizmat qilishi qayd etilgan[11].

Boshlang‘ich sinf yoshidagi bolalar uchun Montessori metodikasining ahamiyati, ayniqsa, katta. Chunki bu davr bolaning kognitiv, til va ijtimoiy rivojlanishining eng muhim bosqichi hisoblanadi. Piaget va Vygotskiy kabi mashhur psixolog olimlarning nazariyalarida ham aynan shu yosh davrida faol o‘rganish va muhit bilan o‘zaro ta’sir muhim ekanligi ta’kidlanadi. Montessori metodikasi esa ushbu nazariy qarashlarni amaliyotda muvaffaqiyatli tatbiq etish imkonini beradi[7].

Til o‘rganish jarayoni bolaning intellektual va ijtimoiy rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Til nafaqat muloqot vositasi, balki tafakkur va bilish jarayonining asosiy mexanizmi sifatida ham xizmat qiladi. Xalqaro lingvodidaktik tadqiqotlarda til o‘rganishning erta yoshdan boshlanishi

bolaning kognitiv rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi qayd etilgan. Montessori metodikasiga asoslangan til o‘rgatish jarayoni esa o‘quvchilarning lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirish bilan bir qatorda, ularning muloqotga tayyorligi va ijodiy fikrlashini ham kuchaytiradi.

Montessori metodikasida til o‘rgatishda qo‘llaniladigan maxsus materiallar, masalan, sandpaper letters, movable alphabet va vizual-konstruktorli vositalar - xalqaro tadqiqotlarda yuqori samaradorlikka ega ekanligi isbotlangan. Lillard va Else-Quest tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda Montessori muhitida ta’lim olgan bolalarda til va savodxonlik ko‘nikmalari an’anaviy ta’lim muhitidagi tengdoshlariga nisbatan yuqoriroq ekanligi aniqlangan[3].

Mazkur tadqiqotda ham Montessori metodikasining boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida til o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantirishdagi samaradorligini aniqlash maqsadida tizimli va kompleks metodologik yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, pedagogik eksperiment, kuzatuv, solishtirma tahlil hamda statistik baholash usullari uyg‘unlashtirildi. Bunday integratsiyalashgan metodologiya xalqaro ilmiy tadqiqotlar amaliyotida ham keng qo‘llaniladi.

Eksperimental bosqichda Montessori metodikasiga asoslangan mashg‘ulotlar tashkil etilib, interaktiv o‘yinlar, amaliy faoliyatlar va ijodiy topshiriqlar orqali til o‘rgatish amalga oshirildi. Ushbu yondashuv Yevropa va AQSh ta’lim tizimlarida qo‘llaniladigan experiential learning konsepsiyasi bilan hamohangdir. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, Montessori metodikasiga asoslangan mashg‘ulotlar o‘quvchilarning til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirib, ularning mustaqil ishlash qobiliyatini sezilarli darajada rivojlantiradi.

Tadqiqot natijalari Montessori metodikasining boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida so‘z boyligini oshirish, grammatik tuzilmalarni ongli ravishda o‘zlashtirish va og‘zaki nutqni rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini tasdiqladi[5]. Bu natijalar xalqaro tadqiqotlar xulosalari bilan hamohang bo‘lib, Montessori metodikasining universalligi va moslashuvchanligini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, tadqiqot davomida metodikaning ayrim cheklovlari ham aniqlanib, ular ilmiy jihatdan asoslab berildi[6]. Jumladan, Montessori metodikasini samarali joriy etish uchun maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan pedagoglar va moslashtirilgan o‘quv muhitlari zarurligi xalqaro tajribada ham ta’kidlanadi. UNESCO hisobotlarida ham sifatli ta’limni ta’minlashda pedagog kadrlar malakasi muhim omil sifatida qayd etilgan.

Xulosa qilib aytganda, Montessori metodikasi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining til o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali, innovatsion va xalqaro miqyosda tan olingan pedagogik yondashuv hisoblanadi. Ushbu metodika o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv, ichki motivatsiya va lisoniy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi[8]. Montessori metodikasini ta’lim tizimiga keng joriy etish zamonaviy pedagogika oldida turgan dolzarb vazifalarni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Jo‘raqulova, G. Montessori ta’limini O‘zbekistonda tatbiq etishning nazariy-amaliy masalalari / G. Jo‘raqulova // Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali. – 2025. – № 3(2). – B. 8–11.

2. Jurakulova, G. Foundations of teaching reading in English through the phonetic method within the Montessori framework / G. Jurakulova. – 2025. – [Elektron resurs]. – URL: https://doi.org/10.5281/zenodo.18098506 (murojaat sanasi: 02.03.2026).

3. Jurakulova, G. Pedagogical Principles of the Montessori Method and Methods for Developing Foreign Language Lexicon / G. Jurakulova. – 2026. – [Elektron resurs]. – URL: https://doi.org/10.5281/zenodo.18187500 (murojaat sanasi: 02.03.2026).

4. Lillard, A. S. Montessori: The Science Behind the Genius / A. S. Lillard. – Oxford : Oxford University Press, 2017. – 456 p.

5. Montessori, M. The Absorbent Mind / M. Montessori. – New York : Holt, Rinehart and Winston, 1967. – 320 p.

6. Montessori, M. The Montessori Method / M. Montessori. – New York : Frederick A. Stokes Company, 1912. – 377 p.

Qurbonova Dilnoza Arslanovna,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti (PhD)

INGLIZ TILINI O‘QITISHDA BILISH JARAYONLARINING XUSUSIYATLARI: XOTIRA, NUTQ, TASAVVUR VA DIQQAT

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘smirlarda ingliz tilini tushunishning psixologik xususiyatlari yuqori aqliy funktsiyalarning - diqqat, xotira, nutq, tasavvurning rivojlanish darajasini, shuningdek, ta'lim va kognitiv motivatsiyaning mavjudligini bilish va uning turlariga doir fikrlar va mulohaza asoslab berilgan. Ingliz tilini o‘qitishda bilish jarayonlarini rivojlantirishning ahamiyati mazkur maqolada o'z aksini topgan va bilish jarayonlari bo‘yicha xorijiy olimlarning qarashlari ilmiy-psixologik nuqtai nazardan talqin qilingan.*

Tayanch so‘zlar: *o'smirlik, bilish jarayonlari, xotira, nutq, tasavvur, diqqat, og'zaki muloqot ko'nikmalari, idrok etish, aqliy funktsiyalar*

ОСОБЕННОСТИ ПОЗНАВАТЕЛЬНЫХ ПРОЦЕССОВ В ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ: ПАМЯТЬ, РЕЧЬ, ВООБРАЖЕНИЕ И ВНИМАНИЕ

Аннотация. *В данной статье представлены психологические особенности понимания английского языка у подростков на основе уровня развития высших психических функций - внимания, памяти, речи, воображения, а также наличия образовательной и познавательной мотивации, а также размышлений о её типах. В статье отражена важность развития познавательных процессов в обучении английскому языку, а также интерпретированы взгляды зарубежных учёных на познавательные процессы с научно-психологической точки зрения.*

Ключевые слова: *подростковый возраст, познавательные процессы, память, речь, воображение, внимание, навыки устной коммуникации, восприятие, психические функции*

CHARACTERISTICS OF COGNITIVE PROCESSES IN TEACHING ENGLISH: MEMORY, SPEECH, IMAGINATION, AND ATTENTION

Abstract. *This article presents the psychological characteristics of understanding the English language in adolescents, based on the level of development of higher mental functions - attention, memory, speech, imagination, as well as the presence of educational and cognitive motivation, as well as thoughts and reflections on its types. The importance of developing cognitive processes in teaching English and also the views of foreign scientists on cognitive processes that interpreted from a scientific and psychological point of view are highlighted in this article.*

Key words: *adolescence, cognitive processes, memory, speech, imagination, attention, oral communication skills, perception, mental functions*

Kirish. O'smirlik, balog'at yoshidan boshlanib, kattalarning mustaqilligi bilan tugaydigan hayot bosqichi bo‘lib, chuqur ijtimoiy, psixologik va biologik o'zgarishlar davri hisoblanadi. Bu ijtimoiy qayta yo'naltirish davridir. Bu davrda o'smirlar tengdoshlari bilan ko'proq vaqt o'tkazadilar, o'zini o'zi tushunishi, farovonligi va xulq-atvoriga tobora ko'proq ta'sir qiladi. Ijtimoiy bilishning bir qancha asosiy jihatlari o'smirlik davrida rivojlanadi. Ushbu psixologik o'zgarishlarga parallel ravishda, o'smirlik balog'at yoshini va miyaning sezilarli rivojlanishini tavsiflovchi gormonal va jismoniy o'zgarishlarni o'z ichiga olgan biologik o'zgarishlar bilan tavsiflanadi. Inson o'smirlik neyrokognitiv rivojlanishi sohasi so'nggi ikki o'n yillikda tez sur'atlar bilan kengaydi va hozirgi kunda hayotning ushbu davrida miyaning sezilarli strukturaviy va funktsional rivojlanishini ko'rsatadigan neyrotasvirlash tadqiqotlari bilan ko ‘payib bormoda. Ushbu tadqiqotlarning aksariyati o'rtacha miya rivojlanishiga qaratilgan va bu guruhga asoslangan yondashuv foydalidir, chunki u

signal-shovqin nisbatini yaxshilaydi va ko'pincha nisbatan kichik namunaviy o'lchamlarga ega bo'lgan tadqiqotlarda samarali hisoblanadi. Biroq, o'smirlik davri hamma uchun bir xil emas. Xulq-atvor va biologik rivojlanishda ajoyib individual farqlar mavjud. O'smirlik rivojlanishidagi individual farqlar haqidagi ba'zi adabiyotlarni ko'rib chiqamiz va individual o'zgarishlarni ko'rib chiqish o'smirlik nevrologiyasi sohasi uchun muhim keyingi qadamdir.

Adabiyotlar sharxi va metodlar. Tadqiqotimizning metodlarini tanlashda shaxs rivojlanishi qonuniyatlaridan kelib chiqib, muvaffiqiyatini taminlovchi omillarni aniqlanish asos qilib olindi.

Ingliz tilini o ‘qitishda o‘smirlarda bilish jarayonlarini rivojlantirish orqali ingliz tilini o‘qitishning muvaffiqiyatini belgilovchi psixologik omillarni psixodiagnostik metodlar orqali tashxis qilishda aniqlanayotgan, o‘lchanayotan shkala va psixologik ko‘rsatkichlarni maqsadga mos holda tanlash tadqiqot oldiga qo‘yilgan vazifalarni to‘liq va ishonchli bajarilishini ta’minlab beradi.

Shunday qilib, bilish jarayonlari tarkibiga kiruvchi xotira haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, tarixdan faylasuflar va olimlar uchun eslab qolish ya’ni xotira inson faoliyatining eng sirli turlaridan biri bo'lib kelgan. Shunga qaramay, til foydalanuvchilari uchun "xotira" nimani anglatishini tushunishida hech qanday muammo tug‘dirmaydi. Xotira shaxsning boshidan kechirgan voqealarni va faktlar, ismlar yoki yuzlar kabi ma'lum turdagi ma'lumotlarni eslab qolish qobiliyatidir. Hayot davomida o‘rgangan harakatlar jumladan, velosiped haydash yoki shaxmat o'ynash kabi muayyan harakatlarni qanday bajarish kerak. Aynan shu asosda insonlar ba'zan o'zlari yoki boshqalarning yaxshi yoki yomon xotiraga ega ekanligi haqida gapirishadi, ayniqsa ismlar, raqamlar yoki yuzlar kabi narsalarni eslolmaslik yoki yaxshi esda saqlay olish holatlarida kuzatiladi. Xotira bizga ongning har bir lahzasini uzluksiz talqin qilishni o'z ichiga olgan ko'plab turli vazifalarni bajarishga imkon beradi. Shuningdek, xotiraning turli shakllari turli aniqlik standartlariga va ko'pincha muvaffaqiyat uchun keskin farq qiladigan mezonlarga ega.

"Xotira" atamasi xotira nazariyotchilari va tabiiy til foydalanuvchilari tomonidan bir necha hil ma'noda qo'llaniladi. Ushbu atamaning uchta asosiy ishlatilishi bor: xotira axborot ombori sifatida, xotira ushbu ombor ichidagi va undan olingan axborot sifatida va xotira ushbu ma'lumotni qayta ishlash bilan bog'liq muayyan vazifalarni bajarish uchun maxsus neyrokognitiv qobiliyat sifatida, masalan, axborotni kodlash, saqlash yoki olish [1]. Shuningdek, Tulving "xotira" atamasining yana uchta qo'llanilish holatlarini sanab o'tadi, ya'ni xotira axborotning xususiyati sifatida, xotira olishning tarkibiy qismi sifatida va xotira eslab qolish bilan bog'liq fenomenal xabardorlik sifatida.

Shuningdek, psixologlar Richard Atkinson va Richard Shifrin xotirani 3 bosqichda tashkil etishni taklif eadi. Ularning ushbu klassik 3 bosqichli modeli xotira jarayonini tushunishda yordam beradi. Bular:

1.Vaqtinchalik hissiy xotira

2.Qisqa muddatli xotira

3. Uzoq muddatli xotira

Ingliz tilini o'qitishning asosiy maqsadi - bu yaxshi rivojlangan tinglash, gapirish, o'qish va yozish ko'nikmalarini o'z ichiga olgan xorijiy tilning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishdir. Og'zaki muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishning asosiy sharti - bu o ‘quvchining tinglab tushunishini tizimli tashkil etishdir. A.A. Alxazishvili, A.V. Belyaeva, G.P. Zaporojchenko, I.A. Zimniaya va R. Lado kabi olimlar xorijiy tilini o'qitishda og'zaki muloqot ko'nikmalarini o'zlashtirishga katta e'tibor qaratish kerak, degan fikrga qo'shiladilar, chunki o'rganishning asosiy maqsadi xorijiy tilda muloqot qilish qobiliyatidir.

Barcha o'qituvchilar ingliz tilida o'quvchilar bilan muloqot qilish vositasidan doimiy va tizimli ravishda foydalanishi muhimdir. Bundan tashqari, barcha o'qituvchilar o‘quvchilarning psixologik xususiyatlarini hisobga olmaydilar va ta'lim jarayoniga hamroh bo'ladigan psixologik jarayonlarning mohiyatini yetarlicha tushunmaydilar. Bu esa o‘z navbatida asosiy muammoni ko'taradi, ya’ni o'quvchilarning og'zaki nutqni ishlab chiqarish va tushunishining psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda nutqiy ta'limni rivojlantirishni takomillashtirish.

A.V. Polojishnikovaning fikriga ko'ra, o'qituvchilar uchun o'quvchilarning xorijiy nutqni tushunish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan rivojlangan mashqlar tizimiga ega bo'lishi muhimdir. Biroq, eng oqilona va samarali tizim boshqa odamlarning nutqini idrok etishga oid psixologik ma'lumotlarga asoslangan tizimdir [3].

Xorijiy tilini idrok etishda o'quvchilar ba'zan bir xil gapni ikki marta eshitmaydilar va bu juda kuchli e'tibor talab qiladi. O'qituvchining tili, birinchi navbatda, aniq, fonetik jihatdan to'g'ri va o'quvchilar uchun tushunarli bo'lishi kerak. Shu bilan birga, o'qituvchi baland ovozda va o'rtacha tezlikda gapirishi kerak. O‘qituvchi o'quvchilarga hali tanish bo'lmagan so'zlar va konstruksiyalardan foydalanmagan holda, og'zaki tilni tushunishi osonlashadi. O'quvchilarning diqqatini chinakamiga xorijiy tilni tushunishga qaratishlarini ta'minlash uchun o'quv materiallari har doim qiziqarli va ular uchun dolzarb bo'lishi kerak. Nutqda notanish so'zlar va grammatik konstruksiyalarning mavjudligi ba'zan o'quvchilar uchun yengib bo'lmaydigan qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Psixologlarning fikricha, og'zaki nutqning sekinlashishi uni tushunishni pasaytiradi. Biroq, nutq sur'ati faqat ma'lum bir darajaga ko'tarilishi mumkin, chunki sur'atni haddan tashqari tezlashtirish nutqni farqlashni imkonsiz qiladi, bu esa tushunishga salbiy ta'sir qiladi. Agar ishlatilgan nutq materiali hali yetarlicha mustahkamlanmagan bo'lsa, maktab o'quvchilari ham xorijiy nutqni normal sur'atda idrok etishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Shuning uchun, tinglab tushunishni o'rgatishda, nutq materialining qiyinligiga qarab, nutq tezligini har doim o'zgartirish kerak [3].

Nutq jarayoniga kelsak, o'rta maktab o'quvchilari avval nutqning mazmuni va izchilligi kabi ko'nikmalarni egallashlari kerak. Motivatsiya nutq faoliyati mexanizmini faollashtirishning muhim shartidir.

Psixologlarning fikriga ko'ra, nutqni shakllantirish uchun motivatsiya mexanizmi sof individual va to'g'ridan-to'g'ri boshqarib bo'lmaydigan xususiyatga ega, ammo bu chet tillarini o'qitish uchun muhimdir, uni bilvosita tartibga solish mumkin. Bu shuni anglatadiki, o'qituvchilarning motivatsion sohasiga ma'lum bir tarzda ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Zarur ingliz tili o‘rganish muhitini yaratish og'zaki muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish uchun ham juda muhimdir. Bunga erishish uchun o'qituvchi bir qator faoliyatarni amalga oshirishi kerak. Jumladan, butun dars o'qituvchining ingliz tilidagi nutqi va so'zlashuvchilarning audio yozuvlari bilan to'ldirilishi, hamda, o'qituvchi o'quvchilardan ular bilan faqat o'rganilayotgan tilda darsda ham, bo'sh vaqtlarida ham muloqot qilishni talab qilishi kerak.

Tasavvur esa, ingliz tilini o'qitishda doimiy ravishda rivojlanishi kerak bo'lgan kuchli psixologik omil hisoblanadi. Tasavvur - bu ilgari inson tomonidan hech qachon idrok etilmagan narsalar va hodisalarning tasvirlarini yaratishdir. Tasavvurning fiziologik mexanizmi miya yarim sharida allaqachon o‘rnatilgan aloqalardan yangi kombinatsiyalarning paydo bo'lishidir. O‘ng yarim shar soddalashtirilgan tasvirni yaratadi, chap yarim shar esa fikrda ma'lumotni ifoda etish imkonini beradi va uni idrok etadi.

Tasavvur bir qator funktsiyalarni bajaradi. Jumladan, kognitiv-intellektual, kognitiv jarayonlarni ixtiyoriy tartibga solish, ichki harakatlarni rejalashtirish, faoliyatni rejalashtirish, affektiv-himoya funksiyalarini.

Shu vatga qadar ko'plab psixologlari bu muammo ustida ishlab kelmoqdalar. Rus psixologi V.A. Krutetskiy quyidagi tasavvur turlarini aniqladi: ixtiyoriy, rekreativ, ijodiy. Tasavvurning ahamiyati shundaki, usiz o'rganish va ta'lim imkonsiz, u aql va ijodkorlik ko'rsatkichidir, usiz fan va san'atning rivojlanishi imkonsiz, faollikni imkonsiz qiladi, o'zini o'zi boshqarishni rag'batlantiradi.

Nafaqat ingliz tili, balki umuman o‘qitish va tarbiya jarayoni tasavvurning rivojlanishiga yordam beradi. O'quvchilarni ijodiy to'garaklarga jalb qilish katta ahamiyatga ega. Maktabda barcha fanlarni tasavvur faolligisiz to'liq o'zlashtirib bo'lmaydi.

Shuningdek, diqqat ham bilish jarayoni bo‘lib, ma'lum bir ob'ektga diqqatni jamlashdir. Diqqat inson psixikasining eng noodatiy bilish jarayonlaridan biridir, chunki u boshqa bilish jarayonlari sezgilar, idrok va xotira bilan uzviy bog'liq. Shuning uchun, diqqat ko'pincha ongning qo'l ostidagi vazifaga tanlab diqqatni jamlashi sifatida belgilanadi. Diqqat - bu o'zini ko'p jihatdan

namoyon qiladigan inson psixikasi hodisasi [2]. U sezgilarning samaradorligiga, miyada ma'lumotlarni yozib olish va uni qayta ishlab chiqarishga, fikrlashga, mushaklarimizning ishiga va boshqalarga ta'sir qiladi.

Bu aqliy jarayon bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Dastlab, diqqat inson psixikasining boshqa jarayonlaridan alohida namoyon bo'lmaydiganga o'xshaydi va ba'zan esa, ular bilan butunlay birlashadi. Hech qanday harakat qilmasdan qanday qilib shunchaki diqqatli bo'lish mumkinligini tasavvur qilish qiyin, diqqat jarayonining namoyon bo'lishi noaniq bo‘lib, bu inson psixik jarayonining samaradorligini qaysi belgilar ko'rsatishi mumkinligi noma'lumligicha qolmoqda. Bu juda qiyin, chunki diqqatning jarayon sifatida namoyon bo'lishi xulq-atvor elementlarida yashiringan.

Xulosa. Shunday qilib, o‘smirlarda ingliz tilini tushunishning psixologik xususiyatlari yuqori aqliy funktsiyalarning - diqqat, fikrlash, idrok, xotira, nutq, tasavvurning rivojlanish darajasini, shuningdek, ta'lim va kognitiv motivatsiyaning mavjudligini o'z ichiga oladi.

Yuqoridagilarga asoslanib, biz o‘smirlarda ingliz tilini tushunishning psixologik xususiyatlariga bilish jarayonlari, shaxsning hissiy va motivatsion sohasi va ijtimoiy o'zaro ta'sirning shaxsga ta'siri kiradi degan xulosaga keldik. O‘smirlarning ingliz tilini o‘zlashtirishining psixologik xususiyatlarini hisobga olish ularning keyingi muvaffaqiyatli o'qishida muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan dabiyotlar ro‘yxati.

1.Tulving, E. (2000). Concepts of memory. In E. Tulving & F. I. M. Craik (Eds.), The Oxford handbook of memory (pp. 33–43). Oxford University Press.

2.Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии: в 2-х т. / Акад. пед. наук СССР. М.: Педагогика, 1989.

3.Положишникова О.В. О некоторых психологических особенностях восприятия и понимания устной иноязычной речи. Психология в обучении иностранной речи.М.: Просвещение, 1967. С. 172-182

4.Ю.Б. Гиппенрейтер, В.Л. Романова. Психология внимания. Хрестоматия по психологии М., 2000.

Shukurova Bahor Boltayevna
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti
katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

DAVLAT TILIDA ISH YURITISHNING DOLZARB MASALALARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada davlat tilida ish yuritish jarayonining bugungi kundagi dolzarb masalalari, xususan, rasmiy hujjatlarni davlat tili me’yorlari asosida yuritish, hujjatlar matnining uslubiy va lingvistik aniqligini ta’minlash, sohaviy terminlardan to‘g‘ri foydalanish, hujjatchilik madaniyatini shakllantirish hamda elektron hujjat aylanishi sharoitida davlat tilining faol qo‘llanilishini takomillashtirish masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, tashkilot va muassasalarda ish yuritishda uchrayotgan imlo, uslub, tarjima va terminologik muammolar, ularni bartaraf etishning amaliy yo‘llari hamda davlat tilida ish yuritish kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlar yoritiladi. Tadqiqot natijalari davlat tilining rasmiy muloqot va boshqaruv tizimidagi mavqeini mustahkamlash, hujjatlar sifati va ijro intizomini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so‘zlar: *davlat tili, ish yuritish, rasmiy hujjatlar, hujjatchilik madaniyati, rasmiy-idoraviy uslub, terminologiya, imlo me’yorlari, hujjat matni, elektron hujjat aylanishi, kommunikativ savodxonlik.*

АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ДЕЛОПРОИЗВОДСТВА НА ГОСУДАРСТВЕННОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация. *В данной статье анализируются актуальные вопросы ведения делопроизводства на государственном языке в современных условиях, в частности соблюдение норм государственного языка при оформлении официальных документов, обеспечение стилистической и лингвистической точности текстов документов, правильное использование отраслевой терминологии, формирование культуры документационного обеспечения, а также совершенствование активного функционирования государственного языка в условиях электронного документооборота. Освещаются также проблемы орфографии, стиля, перевода и терминологии, встречающиеся в практике делопроизводства в организациях и учреждениях, практические пути их решения, а также методические подходы к развитию компетентности в сфере ведения делопроизводства на государственном языке. Результаты исследования имеют важное значение для укрепления статуса государственного языка в системе официальной коммуникации и управления, повышения качества документов и исполнительской дисциплины.*

Ключевые слова: *государственный язык, делопроизводство, официальные документы, культура документации, официально-деловой стиль, терминология, орфографические нормы, текст документа, электронный документооборот, коммуникативная грамотность.*

CURRENT ISSUES OF OFFICE ADMINISTRATION IN THE STATE LANGUAGE

Abstract. *This article analyzes the current issues of office administration in the state language under modern conditions, particularly ensuring that official documents are prepared in accordance with state language norms, maintaining stylistic and linguistic accuracy in document texts, correctly using field-specific terminology, developing a culture of documentation, and improving the active use of the state language in the context of electronic document circulation. The paper also discusses spelling, stylistic, translation, and terminological problems commonly encountered in office administration practices in organizations and institutions, practical ways to address them, and methodological approaches aimed at developing competence in office admin-*

istration in the state language. The findings are significant for strengthening the role of the state language in official communication and management systems, as well as for improving document quality and execution discipline.

Key words: *state language, office administration, official documents, documentation culture, official style, terminology, spelling norms, document text, electronic document circulation, communicative literacy.*

Kirish. Globallashuv, raqamlashtirish va boshqaruv jarayonlarining jadallashuvi sharoitida davlat tilida ish yuritish masalasi nafaqat lingvistik, balki huquqiy, tashkiliy va kommunikativ ahamiyatga ega bo‘lgan dolzarb muammolardan biriga aylanmoqda. Har qanday tashkilot va muassasa faoliyatining samaradorligi, avvalo, hujjatlarning aniq, tushunarli, me’yoriy va ijro uchun qulay shaklda yuritilishiga bog‘liq. Shu nuqtai nazardan, rasmiy hujjatlarni davlat tili me’yorlari asosida yuritish davlat boshqaruvi sifati, xizmat ko‘rsatish madaniyati hamda institutsional muloqot samaradorligini ta’minlovchi muhim omil hisoblanadi.

Davlat tilining ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida, ayniqsa, rasmiy-idoraviy munosabatlarda faol qo‘llanishi milliy davlatchilikning muhim belgilaridan biridir. Ish yuritish tizimi esa davlat tilining amaliy funksional imkoniyatlari namoyon bo‘ladigan asosiy maydonlardan sanaladi. Buyruq, farmoyish, dalolatnoma, bayonnoma, ma’lumotnoma, xizmat xati, ariza, bildirishnoma kabi hujjatlarning til jihatdan to‘g‘ri tuzilishi tashkilot ichki intizomini mustahkamlaydi, axborot almashinuvini tartibga soladi va huquqiy noaniqliklarning oldini oladi. Aksincha, hujjat matnidagi imlo xatolari, uslubiy noaniqlik, terminlarning noto‘g‘ri qo‘llanishi yoki ortiqcha so‘zbozlik amaliy faoliyatda tushunmovchiliklar, ijrodagi kechikishlar va huquqiy talqin muammolarini keltirib chiqarishi mumkin.

Bugungi kunda davlat tilida ish yuritish amaliyotida bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan, rasmiy hujjatlar matnida adabiy til me’yorlariga to‘liq amal qilinmasligi, sohaviy terminologiyaning birxillashtirilmaganligi, tarjima matnlarida mazmuniy va uslubiy og‘ishlar, ruscha yoki boshqa tillar sintaktik qoliplarining bevosita ko‘chirilishi, rasmiy uslub talablariga zid bo‘lgan emotsional yoki og‘zaki nutq birliklarining qo‘llanishi shular jumlasidandir. Bundan tashqari, elektron hujjat aylanishi tizimining keng joriy etilishi hujjat matnini qisqa, standartlashtirilgan, texnik jihatdan mos va tezkor tayyorlash ko‘nikmalariga bo‘lgan ehtiyojni yanada kuchaytirmoqda.

Mazkur muammolarni hal etishda faqatgina me’yoriy talablarni belgilashning o‘zi yetarli emas. Davlat tilida ish yuritishni takomillashtirish uchun xodimlarning hujjatchilik kompetensiyasi, rasmiy nutq madaniyati, terminologik savodxonligi va amaliy yozish ko‘nikmalarini izchil rivojlantirish zarur. Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida davlat tilida ish yuritish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish muhim metodik vazifa sifatida qaralishi lozim. Chunki turli soha vakillari o‘z kasbiy faoliyati davomida muntazam ravishda hujjatlar bilan ishlaydi va ularning til madaniyati bevosita tashkilot faoliyatiga ta’sir ko‘rsatadi.

Adabiyotlar tahlili. Davlat tilida ish yuritishning dolzarb masalalarini ilmiy tahlil qilishda mavzuga oid adabiyotlarni bir butun tizim sifatida ko‘rib chiqish muhimdir. Chunki bu masala faqat til me’yorlari bilan cheklanmay, huquqiy asoslar, rasmiy uslub, hujjatchilik amaliyoti, terminologiya, nutq madaniyati hamda raqamli boshqaruv jarayonlari bilan uzviy bog‘liqdir. Shu bois mavjud manbalarni me’yoriy-huquqiy hujjatlar, o‘zbek tilshunosligi va rasmiy uslubga oid tadqiqotlar, hujjatchilik qo‘llanmalari, terminologiya va kasbiy nutq bo‘yicha ishlar, shuningdek elektron hujjat aylanishi va zamonaviy kommunikativ yondashuvlar nuqtai nazaridan o‘rganish mavzuning mazmunini to‘liqroq ochishga xizmat qiladi.

Mavzuning asosiy tayanchi, avvalo, davlat tilining maqomi va qo‘llanish doirasini belgilovchi me’yoriy-huquqiy manbalarda namoyon bo‘ladi. Ushbu hujjatlarda davlat tilining rasmiy muloqot, boshqaruv va idoraviy faoliyatdagi o‘rni mustahkamlangan bo‘lib, ish yuritishda til me’yorlariga rioya etishning zarurati belgilangan. Biroq bunday manbalar, asosan, umumiy talab va tamoyillarni ko‘rsatadi, hujjat matnini tuzishning uslubiy, sintaktik, terminologik va kommu-

nikativ mexanizmlarini batafsil yoritmaydi. Shu jihatdan qaraganda, me'yoriy talablarni amaliy ko'nikmaga aylantirish uchun tilshunoslik va metodikaga tayangan ilmiy izlanishlar zarurati ortadi.

O'zbek tilshunosligida adabiy til me'yorlari, uslubiyat, rasmiy-idoraviy uslub va nutq madaniyatiga doir tadqiqotlar davlat tilida ish yuritish masalasining nazariy poydevorini tashkil etadi. Bu yo'nalishdagi ilmiy ishlar rasmiy matnga xos aniqlik, ixchamlik, mantiqiylik va qoliplilik kabi belgilarni asoslab beradi, shuningdek matn tuzishda uchraydigan uslubiy xatolarni tahlil qiladi. Mazkur tadqiqotlarning kuchli tomoni rasmiy matnning til tabiatini aniq ochib berishidadir. Biroq ayrim ishlar amaliy hujjat turlarining matn qurilishi, qolip birliklari va real idoraviy yozishmalar bilan bog'liq misollarni yetarli darajada keng yoritmaydi. Shuning uchun bugungi bosqichda nazariy uslubshunoslik bilan hujjatshunoslik amaliyotini uzviy bog'laydigan tadqiqotlar ayniqsa dolzarb hisoblanadi.

Ish yuritish va hujjatchilikka bag'ishlangan amaliy qo'llanmalarda rasmiy hujjatlarning rekvizitlari, tuzilishi, rasmiylashtirish qoidalari, matn qoliplari hamda idoraviy yozishmalar madaniyati bo'yicha muhim tavsiyalar berilgan. Bunday manbalar tashkilot va muassasalarda to'g'ridan-to'g'ri foydalanish uchun qulay bo'lib, ayniqsa namunaviy iboralar va standart shakllar amaliyotchi xodimlarga yengillik yaratadi. Shu bilan birga, ayrim qo'llanmalarda hujjat shakli bilan til sifati o'rtasidagi bog'liqlik yetarli tahlil qilinmaydi, ba'zi qolip iboralar zamonaviy kommunikativ talablar nuqtai nazaridan eskirgan bo'lishi mumkin, turli sohalar uchun differensial yondashuv yetarli darajada ishlab chiqilmagan bo'ladi. Bundan tashqari, elektron hujjat aylanishi sharoitida matn yaratish xususiyatlari ham ko'pincha cheklangan darajada yoritiladi. Shu sababli hozirgi davrda hujjatchilik qo'llanmalarini yangilashda hujjatning shakli bilan bir qatorda til sifati, huquqiy aniqlik va kommunikativ samaradorlik mezonlarini ham birgalikda qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Tahlil va natijalar. Mazkur tadqiqot doirasida davlat tilida ish yuritishning dolzarb masalalari rasmiy hujjatlar bilan ishlash amaliyoti, hujjat matnlarida uchraydigan tipik til xatolari, terminologik qo'llanish holatlari hamda rasmiy-idoraviy uslub talablariga muvofiqlik darajasi nuqtai nazaridan tahlil qilindi. Tahlil jarayonida ish yuritish amaliyotida keng qo'llanadigan hujjat turlari - xizmat xati, buyruq, bayonnoma, ma'lumotnoma, ariza, bildirishnoma va dalolatnoma matnlarining til xususiyatlari kuzatildi hamda ularning rasmiy uslub me'yorlariga moslik darajasi baholandi. Shuningdek, davlat tilida ish yuritish jarayoniga ta'sir etuvchi omillar sifatida xodimlarning til tayyorgarligi, hujjatchilik ko'nikmasi, sohaviy terminologiyani bilish darajasi, matn tuzishda qolip birliklardan foydalanish malakasi va elektron hujjat aylanishi sharoitida ishlash tajribasi ham nazarda tutildi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, davlat tilida ish yuritishda eng ko'p uchraydigan muammolar bir necha yo'nalishda namoyon bo'ladi. Avvalo, hujjat matnlarida imlo va punktuatsiya bilan bog'liq kamchiliklar mavjudligi kuzatildi. Bunda ayrim hujjatlarda so'zlarning adabiy me'yorga zid yozilishi, tinish belgilarining noo'rin yoki yetarli qo'llanmasligi, jumlalarning ortiqcha cho'zilib ketishi natijasida mazmunning noaniqlashuvi holatlari uchraydi. Bu esa hujjatning rasmiylik darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatib, matnni qabul qiluvchi tomon uchun tushunishni murakkablashtiradi. Ayniqsa, bir hujjat matnida og'zaki nutqqa xos birliklar bilan rasmiy uslubga xos qoliplarning aralash qo'llanishi uslubiy yaxlitlikni buzishi aniqlandi.

Shu bilan birga, rasmiy-idoraviy uslub talablariga rioya etishda ham ayrim tizimli muammolar borligi ma'lum bo'ldi. Jumladan, hujjat matnida fikrning lo'nda va aniq ifodalanishi o'rniga ortiqcha izohli, takroriy yoki emotsional ifodalar qo'llanishi natijasida hujjatning funksional vazifasi susayadi. Rasmiy hujjatning asosiy talabi bo'lgan aniqlik, mantiqiy ketma-ketlik va me'yoriy qoliplilik har doim ham to'liq ta'minlanmaydi. Ayrim matnlarda hujjatning maqsadi, ijro muddati, mas'ul shaxs yoki vazifa mazmuni aniq ko'rsatilmaganligi sababli ijro intizomi bilan bog'liq tushunmovchiliklar yuzaga kelishi mumkinligi kuzatildi. Bu holat davlat tilida ish yuritish masalasi faqat tilshunoslik muammosi emas, balki boshqaruv samaradorligi bilan ham bevosita bog'liq ekanini tasdiqlaydi.

Tahlilda terminologik qo‘llanish masalasiga alohida e’tibor qaratilganda, sohaviy hujjatlarda terminlarning birxil va barqaror qo‘llanmasligi dolzarb muammo sifatida namoyon bo‘ldi. Bir xil mazmunni ifodalovchi terminning turli shakllarda berilishi, ayrim hollarda o‘zbekcha muqobil va o‘zlashma variantlarning aralash ishlatilishi, qisqartmalarni izohsiz kiritish holatlari hujjat matnining aniq talqin qilinishiga to‘sqinlik qilishi mumkin. Ayniqsa, texnik, iqtisodiy, agrar va boshqaruv sohalariga oid hujjatlarda terminologik notekislik mazmuniy xatolarga olib kelish ehtimolini oshiradi. Natijada hujjat matnining rasmiyligi saqlangandek ko‘rinsa-da, uning semantik aniqligi yetarli darajada ta’minlanmay qoladi. Bu esa sohalar kesimida tavsiya etilgan terminlar bazasi va metodik ko‘rsatmalar zarurligini ko‘rsatadi.

Muhokama. Olib borilgan tahlil va olingan natijalar davlat tilida ish yuritish masalasi ko‘p qatlamli hodisa ekanini yana bir bor tasdiqlaydi. Mazkur muammoni faqat imlo yoki uslub xatolari doirasida talqin qilish yetarli emas, chunki rasmiy hujjat matnining sifati tashkilotdagi boshqaruv madaniyati, xodimlarning kasbiy tayyorgarligi, terminologik birlik darajasi, hujjatchilik amaliyoti va raqamli platformalardan foydalanish madaniyati bilan bevosita bog‘liqdir. Shu bois davlat tilida ish yuritishning dolzarbligi til masalasi sifatida emas, balki boshqaruvning samaradorligi va institutsional muloqot sifati bilan uzviy bog‘liq kompleks masala sifatida baholanishi lozim.

Tahlil natijalarida aniqlangan imlo-uslubiy, terminologik va kommunikativ kamchiliklar rasmiy hujjatlarning huquqiy hamda amaliy ta’sir kuchiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi muhokama uchun muhim nuqtadir. Chunki rasmiy hujjatdagi noaniqlik aksariyat hollarda faqat “til xatosi” bo‘lib qolmaydi, balki topshiriq mazmunining noto‘g‘ri talqin qilinishi, ijro muddatining chalkash belgilanishi yoki mas’uliyat chegaralarining noaniq ifodalanishiga olib keladi. Demak, davlat tilida ish yuritish sifati oshishi hujjatlarning estetik yoki formal jihatdan chiroyli yozilishidan ko‘ra, ularning funksional aniqligi va boshqaruvdagi amaliy natijadorligini ta’minlash bilan ko‘proq ahamiyat kasb etadi.

Muhokama jarayonida yana bir muhim jihat shundan iboratki, rasmiy-idoraviy uslubda qoliplilik zarur bo‘lsa-da, bu qoliplilik mazmunsiz takror yoki mexanik ko‘chirishga aylanib qolmasligi kerak. Tahlilda kuzatilganidek, namunaviy iboralardan noto‘g‘ri yoki kontekstdan uzilgan holda foydalanish hujjatni rasmiy ko‘rsatgan holda uning kommunikativ samaradorligini pasaytiradi. Bu holat davlat tilida ish yuritishni o‘rgatishda “qoliplarni yodlash” yondashuvi yetarli emasligini ko‘rsatadi. Aksincha, hujjatning maqsadi, adresati, huquqiy kuchi va ijro mexanizmi bilan bog‘liq kommunikativ-pragmatik tahlil asosida matn tuzish ko‘nikmasini shakllantirish zarur. Shu ma’noda, rasmiy matn yaratish jarayoni lingvistik bilim bilan bir qatorda kasbiy tafakkur va boshqaruv mantiqini ham talab qiladi.

Terminologik notekislik bilan bog‘liq natijalar ham muhim ilmiy-amaliy xulosalarni yuzaga keltiradi. Ayniqsa, nofilologik sohalarda faoliyat yurituvchi mutaxassislar tomonidan hujjat tayyorlash jarayonida bir tushunchaning turli variantlarda ifodalanishi hujjatning semantik aniqligiga putur yetkazadi. Bu esa davlat tilida ish yuritishning samaradorligi terminologik siyosat bilan ham chambarchas bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. Muhokama nuqtai nazaridan qaralganda, terminologik birlikni ta’minlash masalasi faqat tilshunoslar zimmasidagi vazifa emas; bunda soha mutaxassislari, amaliyotchi xodimlar, metodistlar va ta’lim muassasalari hamkorligi zarur. Zero, me’yoriy tavsiya qilingan termin amaliyotda qo‘llanmasa, hujjat tilidagi birxillikni ta’minlash mushkul bo‘lib qoladi.

Mazkur tadqiqot natijalari davlat tilida ish yuritishning dolzarb masalalari bugungi sharoitda til me’yorlariga rioya qilish masalasi bilan cheklanmasdan, rasmiy muloqot sifati, hujjat matnining funksional aniqligi, terminologik izchillik, hujjatchilik madaniyati va raqamli muhitga moslashuvchanlik bilan chambarchas bog‘liq ekanini ko‘rsatdi. Tahlillar shuni tasdiqladiki, rasmiy hujjatlarda uchraydigan imlo-uslubiy xatolar, terminlarning notekis qo‘llanishi, qolip birliklardan noo‘rin foydalanish hamda matnning kommunikativ vazifasini yetarli hisobga olmaslik holatlari hujjatlarning mazmuniy aniqligi va ijro samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli davlat tilida ish yuritish sifati masalasi nafaqat lingvistik, balki tashkiliy-boshqaruv va kasbiy kompetensiya muammosi sifatida ham baholanishi lozim.

Tadqiqot davomida davlat tilida ish yuritish kompetensiyasining til, hujjatchilik, terminologik va kommunikativ-pragmatik tarkibiy qismlari o‘zaro bog‘liq holda namoyon bo‘lishi aniqlandi. Ushbu komponentlardan birortasining sust rivojlanganligi hujjat matni sifatining pasayishiga olib kelishi mumkinligi asoslandi. Ayniqsa, elektron hujjat aylanishi keng joriy etilayotgan hozirgi bosqichda hujjatlarni tezkor tayyorlash bilan bir qatorda ularning me’yoriy, uslubiy va mazmuniy pishiqligini ta’minlash muhim talabga aylanmoqda. Demak, davlat tilida ish yuritishni takomillashtirish uchun an’anaviy hujjatchilik yondashuvlarini zamonaviy raqamli talablar bilan uyg‘unlashtirish zarur.

Olingan natijalar asosida davlat tilida ish yuritish sifatini oshirishning asosiy yo‘nalishlari sifatida xodimlarning amaliy savodxonligini muntazam oshirib borish, sohalar kesimida tavsiya etilgan terminlar va hujjat matni qoliplarini birxillashtirish, rasmiy uslub bo‘yicha metodik ta’minotni kuchaytirish hamda elektron hujjat tizimlarida davlat tili me’yorlariga mos shablon va tekshiruv vositalarini joriy etish muhim ekani xulosa qilindi. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida, xususan nofilologik yo‘nalishlarda tahsil olayotgan talabalarni davlat tilida ish yuritishga amaliy yo‘naltirilgan topshiriqlar asosida tayyorlash bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy muloqot madaniyatini shakllantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, davlat tilida ish yuritishning dolzarb masalalarini hal etish davlat tilining rasmiy boshqaruv va kasbiy muloqotdagi mavqeini mustahkamlash, hujjatlar sifati va ijro intizomini oshirish, shuningdek tashkilotlar faoliyatining umumiy samaradorligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Mazkur yo‘nalishda ilmiy-amaliy yondashuvlarni chuqurlashtirish, sohaviy xususiyatlarni inobatga olgan metodik tavsiyalar ishlab chiqish va raqamli hujjatchilik sharoitida davlat tili me’yorlarini institutsional qo‘llab-quvvatlash kelgusidagi tadqiqot va amaliy ishlarning ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib qoladi.

Mazkur tadqiqot natijalari davlat tilida ish yuritishning dolzarb masalalari bugungi sharoitda til me’yorlariga rioya qilish masalasi bilan cheklanmasdan, rasmiy muloqot sifati, hujjat matnining funksional aniqligi, terminologik izchillik, hujjatchilik madaniyati va raqamli muhitga moslashuvchanlik bilan chambarchas bog‘liq ekanini ko‘rsatdi. Tahlillar shuni tasdiqladiki, rasmiy hujjatlarda uchraydigan imlo-uslubiy xatolar, terminlarning notekis qo‘llanishi, qolip birliklardan noo‘rin foydalanish hamda matnning kommunikativ vazifasini yetarli hisobga olmaslik holatlari hujjatlarning mazmuniy aniqligi va ijro samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli davlat tilida ish yuritish sifati masalasi nafaqat lingvistik, balki tashkiliy-boshqaruv va kasbiy kompetensiya muammosi sifatida ham baholanishi lozim.

Xulosa. Tadqiqot davomida davlat tilida ish yuritish kompetensiyasining til, hujjatchilik, terminologik va kommunikativ-pragmatik tarkibiy qismlari o‘zaro bog‘liq holda namoyon bo‘lishi aniqlandi. Ushbu komponentlardan birortasining sust rivojlanganligi hujjat matni sifatining pasayishiga olib kelishi mumkinligi asoslandi. Ayniqsa, elektron hujjat aylanishi keng joriy etilayotgan hozirgi bosqichda hujjatlarni tezkor tayyorlash bilan bir qatorda ularning me’yoriy, uslubiy va mazmuniy pishiqligini ta’minlash muhim talabga aylanmoqda. Demak, davlat tilida ish yuritishni takomillashtirish uchun an’anaviy hujjatchilik yondashuvlarini zamonaviy raqamli talablar bilan uyg‘unlashtirish zarur.

Olingan natijalar asosida davlat tilida ish yuritish sifatini oshirishning asosiy yo‘nalishlari sifatida xodimlarning amaliy savodxonligini muntazam oshirib borish, sohalar kesimida tavsiya etilgan terminlar va hujjat matni qoliplarini birxillashtirish, rasmiy uslub bo‘yicha metodik ta’minotni kuchaytirish hamda elektron hujjat tizimlarida davlat tili me’yorlariga mos shablon va tekshiruv vositalarini joriy etish muhim ekani xulosa qilindi. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida, xususan nofilologik yo‘nalishlarda tahsil olayotgan talabalarni davlat tilida ish yuritishga amaliy yo‘naltirilgan topshiriqlar asosida tayyorlash bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy muloqot madaniyatini shakllantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, davlat tilida ish yuritishning dolzarb masalalarini hal etish davlat tilining rasmiy boshqaruv va kasbiy muloqotdagi mavqeini mustahkamlash, hujjatlar sifati va ijro intizomini oshirish, shuningdek tashkilotlar faoliyatining umumiy samaradorligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Mazkur yo‘nalishda ilmiy-amaliy yondashuvlarni chuqurlashtirish, sohaviy

xususiyatlarni inobatga olgan metodik tavsiyalar ishlab chiqish va raqamli hujjatchilik sharoitida davlat tili me'yorlarini institutsional qo'llab-quvvatlash kelgusidagi tadqiqot va amaliy ishlarning ustuvor vazifalaridan biri bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. Mamlakatda davlat tilida ish yuritishni samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida. - 20.01.2020, 34-son. (Lex.uz hujjatlarida ushbu qarorga havolalar mavjud).

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. Arxiv ishi va ish yuritish sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida [Elektron resurs]. - 19.03.2020, 174-son. - URL: https://lex.uz/docs/-4770730 (murojaat qilingan sana: 24.02.2026).

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash to'g'risida [Elektron resurs]. - 24.08.1995, 339-son. - URL: https://lex.uz/docs/-1625271 (murojaat qilingan sana: 24.02.2026).

4. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida [Elektron resurs]. - 02.09.1993, 931-XII-son. - URL: https://lex.uz/docs/-112286 (murojaat qilingan sana: 24.02.2026).

5. Mahmudov N., Rafiyev A., Yo'ldoshev I. Davlat tilida ish yuritish: akademik litseylar uchun darslik. - Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2004.

6. Mahmudov N., Rafiyev A., Yo'ldoshev I. Davlat tilida ish yuritish: akademik litseylar uchun darslik. 2-nashr. - Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007.

7. O'zbek tilining izohli lug'ati: 5 jildlik. - Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006–2008.

8. O'zbek tilining izohli lug'ati: 5 jildlik / A. Madvaliyev tahriri ostida. - Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2021.

Xudoyorova Nigora Nuriddinovna
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti o‘qituvchisi

O‘ZBEK TILINING SOHADA QO‘LLANILISHI FANINING NOFILOLOGIK YO‘NALISHLARDA O‘QITILISHI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada nofilologik ta’lim yo‘nalishlarida “O‘zbek tilining sohada qo‘llanilishi” fanini o‘qitishning dolzarbligi, maqsad va vazifalari, mazmuni hamda metodik yondashuvlari tahlil qilinadi. Fan orqali talabalarda kasbiy nutq kompetensiyasi, rasmiy-idoraviy uslubda fikr bayon qilish, sohaviy terminlardan to‘g‘ri foydalanish, hujjatlar bilan ishlash va kommunikativ savodxonlikni rivojlantirish masalalari yoritiladi. Shuningdek, nofilologik yo‘nalish talabalari uchun amaliy mashg‘ulotlar, interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar, kasbiy matnlar bilan ishlash hamda yozma va og‘zaki nutqni integratsiyalashgan holda rivojlantirishning samarali usullari ko‘rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari mazkur fan ta’lim sifatini oshirish, bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy muloqot madaniyatini shakllantirish va davlat tilining sohalarda faol qo‘llanilishini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so‘zlar: *o‘zbek tili, sohada qo‘llanilish, nofilologik yo‘nalishlar, kasbiy nutq, kommunikativ kompetensiya, terminologiya, rasmiy uslub, nutq madaniyati, interfaol metodlar, hujjatchilik.*

ПРЕПОДАВАНИЕ ДИСЦИПЛИНЫ «ПРИМЕНЕНИЕ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ СФЕРЕ» НА НЕФИЛОЛОГИЧЕСКИХ НАПРАВЛЕНИЯХ

Аннотация*. В данной статье анализируются актуальность, цели и задачи, содержание и методические подходы к преподаванию дисциплины «Применение узбекского языка в профессиональной сфере» на нефилологических направлениях подготовки. Освещаются вопросы формирования у студентов профессионально-речевой компетентности, умения выражать мысли в официально-деловом стиле, правильно использовать отраслевую терминологию, работать с документами и развивать коммуникативную грамотность. Также представлены эффективные методы организации практических занятий для студентов нефилологических направлений: интерактивные методы, проблемные ситуации, работа с профессиональными текстами, а также интегрированное развитие письменной и устной речи. Результаты исследования имеют важное значение для повышения качества преподавания данной дисциплины, формирования культуры профессионального общения будущих специалистов и обеспечения активного функционирования государственного языка в различных сферах.*

Ключевые слова: *узбекский язык, профессиональная сфера, нефилологические направления, профессиональная речь, коммуникативная компетенция, терминология, официально-деловой стиль, культура речи, интерактивные методы, документация.*

TEACHING THE COURSE “USE OF THE UZBEK LANGUAGE IN PROFESSIONAL FIELDS” IN NON-PHILOLOGICAL PROGRAMS

Abstract. *This article analyzes the relevance, aims and objectives, content, and methodological approaches to teaching the course “Use of the Uzbek Language in Professional Fields” in non-philological educational programs. It highlights the development of students’ professional speech competence, the ability to express ideas in an official and formal style, the correct use of field-specific terminology, document-handling skills, and communicative literacy. The article also presents effective ways of organizing practical classes for non-philological students, including interactive methods, problem-based situations, work with professional texts, and the integrated development of written and oral speech. The findings are important for improving the quality of*

teaching this course, shaping the professional communication culture of future specialists, and ensuring the active use of the state language in various professional domains.

Key words: *uzbek language, professional application, non-philological programs, professional speech, communicative competence, terminology, official style, speech culture, interactive methods, documentation.*

Kirish. Globallashuv, raqamli texnologiyalar taraqqiyoti hamda kasbiy faoliyat turlarining murakkablashuvi sharoitida oliy ta’lim tizimida mutaxassisning nafaqat o‘z sohasi bo‘yicha bilimga, balki kasbiy muloqot madaniyati, nutqiy savodxonlik va rasmiy-ijtimoiy kommunikatsiya ko‘nikmalariga ega bo‘lishi muhim talab sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, nofilologik yo‘nalishlarda tahsil olayotgan talabalar uchun davlat tilida aniq, mantiqli, uslubiy jihatdan to‘g‘ri fikr bayon etish, kasbiy matnlarni tushunish, sohaviy terminlarni o‘rinli qo‘llash hamda hujjatlar bilan ishlash kompetensiyalari kelajakdagi mehnat faoliyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, “O‘zbek tilining sohada qo‘llanilishi” fanining mazmuni va uni o‘qitish metodikasini takomillashtirish dolzarb ilmiy-pedagogik masala hisoblanadi.

Bugungi kunda oliy ta’lim amaliyotida nofilologik yo‘nalish talabalari ko‘pincha nazariy bilimlarni egallagan bo‘lsalar-da, ularni kasbiy nutqqa tatbiq etish, amaliy yozishmalar yuritish, taqdimot matnlarini tayyorlash, ilmiy va rasmiy uslubdagi matnlarni tahlil qilish borasida qator qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Bu holat fan mazmunining ayrim hollarda umumiy tilshunoslik yondashuviga ko‘proq tayanib qolishi, sohaviy ehtiyojlar bilan yetarli darajada integratsiya qilinmasligi, shuningdek, amaliy topshiriqlar tizimining kasbga yo‘naltirilganlik darajasi pastligi bilan izohlanadi. Natijada talabaning kommunikativ kompetensiyasi va kasbiy faoliyatga tayyorlik darajasi o‘rtasida tafovut yuzaga keladi.

“Nofilologik yo‘nalish” tushunchasi turli sohalarni - muhandislik, agrotexnologiya, iqtisodiyot, tibbiyot, pedagogika, axborot texnologiyalari va boshqa yo‘nalishlarni qamrab oladi. Mazkur yo‘nalishlarning har birida nutqiy faoliyatning o‘ziga xos ko‘rinishlari mavjud bo‘lib, ular terminologik tizim, uslubiy talab, hujjatlashtirish shakllari va muloqot vaziyatlari bilan farqlanadi. Demak, “O‘zbek tilining sohada qo‘llanilishi” fanini o‘qitishda bir xil qolipdagi yondashuv emas, balki kasbiy kontekstga moslashtirilgan metodik model zarur bo‘ladi. Bu esa fan mazmunini kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta ko‘rib chiqish, amaliy mashg‘ulotlarda real kasbiy vaziyatlarni qo‘llash va interfaol metodlardan samarali foydalanishni talab etadi.

Mazkur maqolaning maqsadi - nofilologik yo‘nalishlarda “O‘zbek tilining sohada qo‘llanilishi” fanini o‘qitishning ilmiy-metodik asoslarini tahlil qilish hamda talabalarning kasbiy nutq kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik yondashuvlarni yoritishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: fanning ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyatini asoslash; nofilologik yo‘nalish talabalarining nutqiy ehtiyojlarini aniqlash; fan mazmunini kasbiy kompetensiyalar bilan uyg‘unlashtirish yo‘llarini ko‘rsatish; amaliy mashg‘ulotlar uchun interfaol va muammoli metodlarning samaradorligini ochib berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida nofilologik yo‘nalishlarda o‘zbek tilini kasbiy faoliyatga yo‘naltirib o‘qitish jarayoni olindi. Tadqiqot predmeti esa “O‘zbek tilining sohada qo‘llanilishi” fanining mazmuni, metodlari, vositalari va tashkiliy shakllarining talabalarda kasbiy-kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga ta’siridir. Maqolada tahliliy, qiyosiy, kuzatuv va umumlashtirish metodlaridan foydalanilib, fan samaradorligini oshirishga doir ilmiy xulosalar va amaliy takliflar ilgari suriladi.

Shunday qilib, mazkur mavzu nafaqat til ta’limi metodikasi, balki oliy ta’limda kasbiy tayyorgarlik sifati bilan ham bevosita bog‘liq bo‘lib, davlat tilining jamiyatning turli sohalarida faol va me’yoriy qo‘llanilishini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi.

Adabiyotlar tahlili. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, nofilologik yo‘nalishlarda “O‘zbek tilining sohada qo‘llanilishi” fanini o‘qitish masalasi tilshunoslik, pedagogika, metodika, kommunikativ yondashuv va kasbiy ta’limning o‘zaro tutashgan nuqtasida shakllanadigan kompleks muammo hisoblanadi. Mazkur yo‘nalishdagi ilmiy manbalarni o‘rganishda o‘zbek tilshunosligi va

nutq madaniyati, davlat tilini o‘qitish metodikasi, kasbiy-kommunikativ kompetensiya nazariyasi hamda xorijiy LSP/ESP yondashuvlari muhim nazariy-metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Mahalliy ilmiy adabiyotlarda o‘zbek adabiy tili me’yorlari, uslubiyat, nutq madaniyati va terminologiyaga oid tadqiqotlar talabalarda to‘g‘ri, aniq va maqsadga muvofiq nutqni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Ushbu manbalarda til birliklarining me’yoriy qo‘llanilishi, uslubiy xatolar, nutqiy aniqlik va mantiqiylik masalalari yetarli yoritilgan bo‘lsa-da, ularning aksariyati ko‘proq umumfilologik tayyorgarlikka yo‘naltirilgan. Vaholanki, nofilologik yo‘nalishlarda tilni nazariy bilim sifatida emas, balki kasbiy faoliyatning amaliy vositasi sifatida egallash ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shu sababli mavjud nazariy qarashlarni kasbiy kommunikatsiya vaziyatlariga moslashtirish zarurati yuzaga keladi.

Nutq madaniyati va uslubiyatga oid mahalliy tadqiqotlar og‘zaki va yozma nutqni me’yorlashtirishga xizmat qilsa-da, nofilologik auditoriya uchun muhim bo‘lgan kasbiy hujjatlar bilan ishlash, sohaviy terminlarni kommunikativ vaziyatda qo‘llash, kasbiy taqdimot nutqini shakllantirish, ilmiy-amaliy matnlarni annotatsiyalash va referatlash, shuningdek, jamoa ichidagi rasmiy va yarim rasmiy muloqot strategiyalarini o‘rgatish kabi komponentlar yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Davlat tilini o‘qitish metodikasiga oid mahalliy ishlarda esa kommunikativ yondashuv, interfaol metodlar va kompetensiyaviy ta’lim tamoyillari keng yoritilib, oliy ta’limda ta’lim oluvchining faolligini oshirish, muammoli topshiriqlar, guruhiy ishlar va matn bilan ishlash texnologiyalarining amaliy ahamiyati ko‘rsatib berilgan. Bu yondashuvlar mazkur fanni an’anaviy ma’ruza-markazli modeldan amaliy faoliyatga yo‘naltirilgan modelga o‘tkazish imkonini beradi. Biroq ko‘plab metodik ishlarda fan mazmunining yo‘nalimlar bo‘yicha differensiallashuvi yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi kuzatiladi. Masalan, muhandislik, iqtisodiyot yoki pedagogika yo‘nalishlari uchun zarur bo‘lgan kasbiy nutq vaziyatlari va matn turlari bir-biridan sezilarli farq qiladi. Demak, umumiy metodik asos mavjud bo‘lsa-da, soha kesimida maxsus o‘quv topshiriqlari banki va kasbiy matnlar korpusini yaratish ehtiyoji saqlanib qolmoqda.

Xorijiy ilmiy manbalarda kasbiy yo‘naltirilgan til ta’limi asosan LSP va ESP konsepsiyalari doirasida rivojlantirilgan bo‘lib, unda til muayyan kasbiy vazifalarni bajarishga xizmat qiluvchi kommunikativ vosita sifatida talqin etiladi. Hymesning kommunikativ kompetensiya haqidagi qarashlari, Canale va Swainning kompetensiya tarkibiy qismlariga oid modeli nofilologik yo‘nalishlarda “O‘zbek tilining sohada qo‘llanilishi” fanini kompetensiyaviy asosda loyihalash uchun muhim metodologik tayanch bo‘la oladi. Bachmanning til kompetensiyasi modeli esa tilni funksional qo‘llash va baholash nuqtayi nazaridan ahamiyatli bo‘lib, talabalarning kasbiy nutq tayyorgarligini vazifa bajarish samaradorligi asosida diagnostika qilish imkonini beradi. Hutchinson va Waters hamda Dudley-Evans va St Johnning ESP bo‘yicha ishlari o‘quv kursini loyihalashda ehtiyojlar tahlilini markaziy prinsip sifatida belgilaydi. Bu tamoyil nofilologik yo‘nalishlar uchun ayniqsa dolzarb, chunki talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyatida bajaradigan nutqiy vazifalari turlicha bo‘ladi va kurs mazmuni aynan shu ehtiyojlarga mos ravishda shakllantirilishi lozim. Swales va Hylandning janr va akademik diskursga oid yondashuvlari esa ilmiy hamda kasbiy matnlarning struktur-kompozitsion xususiyatlarini o‘rgatishda, xususan annotatsiya, hisobot, loyiha tavsifi va taqdimot matnlarini tuzishda metodik jihatdan samarali hisoblanadi. Shuningdek, xorijiy tajribada task-based learning, problem-based learning va collaborative learning kabi yondashuvlarning keng qo‘llanishi tilni yodlash emas, balki real kommunikativ faoliyatni modellashtirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot doirasida nofilologik yo‘nalishlarda “O‘zbek tilining sohada qo‘llanilishi” fanini o‘qitish amaliyoti mazmuniy va metodik jihatdan tahlil qilindi. Tahlil jarayonida fanning ishchi dasturi, amaliy mashg‘ulot topshiriqlari, talabalarning yozma va og‘zaki ishlarida uchraydigan nutqiy xatolar, shuningdek, kasbiy kommunikatsiya bilan bog‘liq vazifalarni bajarish darajasi o‘rganildi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, fan ko‘plab hollarda umumiy til me’yorlarini o‘rgatishga yo‘naltirilgan bo‘lib, kasbiy vaziyatlarda tilni qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirishga yetarli darajada xizmat qilmaydi. Natijada talabalar nazariy qoidalarni bilgan holda ham ularni amaliy nutq faoliyatida, ayniqsa sohaviy matnlar, rasmiy yozishmalar va taqdimot nutqida izchil qo‘llashda qiyinchilikka duch keladilar.

Tahlil davomida nofilologik yo‘nalish talabalari nutqida bir necha tipik holatlar aniqlandi: sohaviy terminlarni o‘rinli qo‘llay olmaslik, termin va umumiste’mol birliklarini uslubiy jihatdan chalkashtirish, rasmiy-uslub talablari bilan og‘zaki nutq unsurlarini aralashtirish, fikrni mantiqiy ketma-ketlikda bayon qilishda uzilishlar, matnning maqsadiga mos kompozitsiya tanlay olmaslik kabi kamchiliklar kuzatildi. Ayniqsa, hujjat matnlarini tuzishda qisqalik, aniqlik, me’yoriy ifoda va standart nutq qoliplaridan foydalanish darajasi past ekani ma’lum bo‘ldi. Bu holat talabalarning kasbiy nutq kompetensiyasi tarkibida nazariy bilim bilan amaliy ijro o‘rtasida nomutanosiblik mavjudligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, o‘tkazilgan tahlil natijalari nofilologik yo‘nalishlarda “O‘zbek tilining sohada qo‘llanilishi” fanini o‘qitish samaradorligini oshirish uchun uchta ustuvor yo‘nalishni belgilash imkonini berdi: birinchidan, fan mazmunini kasbiy ehtiyojlar va yo‘nalish xususiyatlariga moslashtirish; ikkinchidan, amaliy va interfaol metodlar asosida kommunikativ vazifalarni modellashtirish; uchinchidan, kasbiy-kommunikativ kompetensiyani aniq mezonlar asosida baholash tizimini takomillashtirish. Mazkur natijalar maqolaning keyingi bosqichida metodik tavsiyalar ishlab chiqish va fanni kompetensiyaviy model asosida takomillashtirish uchun ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari nofilologik yo‘nalishlarda “O‘zbek tilining sohada qo‘llanilishi” fanini o‘qitishda mavjud metodik yondashuvlarni qayta ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatdi. Tahlilda aniqlangan holatlar, ya’ni talabalarning nazariy qoidalarni bilishi bilan ularni kasbiy kommunikatsiya vaziyatlarida qo‘llash darajasi o‘rtasidagi tafovut, adabiyotlar sharhida qayd etilgan ilmiy qarashlar bilan uyg‘un keladi. Xususan, mahalliy manbalarda til me’yorlari va nutq madaniyati masalalari yetarlicha yoritilgan bo‘lsa-da, nofilologik auditoriyaga mos amaliy-kommunikativ modelning yetarli darajada ishlab chiqilmagani amaliy tahlil natijalarida ham tasdiqlandi. Bu esa fanning mazmunini faqat me’yoriy til qoidalari bilan cheklab qo‘yish talabaning kasbiy tayyorgarligi uchun yetarli emasligini ko‘rsatadi.

Muhokama jarayonida alohida ta’kidlash joizki, nofilologik yo‘nalish talabalari uchun til ta’limining asosiy maqsadi filologik tahlil ko‘nikmalarini shakllantirish emas, balki kasbiy faoliyatda samarali muloqot olib borish, hujjatlar bilan ishlash, sohaviy matnlarni tushunish va ishlab chiqish, jamoaviy hamkorlikda o‘z fikrini asosli ifodalash kompetensiyalarini rivojlantirishdan iboratdir. Shunday ekan, mazkur fan bo‘yicha ta’lim natijalari grammatik bilimlar miqdori bilan emas, talabaning real kommunikativ vazifalarni bajarish darajasi bilan baholanishi maqsadga muvofiq. Bu yondashuv xorijiy LSP/ESP tajribalaridagi ehtiyojlar tahlili va vazifaga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyillari bilan mos keladi.

Olingan natijalar interfaol va amaliy metodlarning samaradorligini ko‘rsatgani ham muhim ilmiy-amaliy xulosadir. An’anaviy izohlash va qayta bayon qilish usullari til me’yorlari haqidagi tushunchalarni mustahkamlashda foydali bo‘lsa-da, kasbiy nutq kompetensiyasini shakllantirish uchun ular yetarli emas. Aksincha, muammoli vaziyatlar, rolga asoslangan mashqlar, hujjat loyihalash, taqdimot tayyorlash, matnni tahrirlash va janrga mos qayta tuzish kabi metodlar talabaning til birliklaridan funksional foydalanish qobiliyatini rivojlantiradi. Bu holat til o‘qitishda “bilimni egallash”dan “faoliyatda qo‘llash”ga o‘tish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Muhokama natijasida fanni yo‘nalishlar kesimida differensiallashtirish masalasi ham markaziy o‘ringa chiqadi. Chunki muhandislik, agrotexnologiya, iqtisodiyot yoki boshqa nofilologik yo‘nalishlarning kommunikativ ehtiyojlari, ishlatiladigan terminologiyasi, hujjat shakllari va nutq vaziyatlari o‘zaro farqlanadi. Shu sababli yagona, umumiy mazmundagi mashg‘ulotlar tizimi barcha yo‘nalishlarda bir xil samarani bermaydi. Bu yerda maqbul yechim sifatida faning invariant (umumiy) va variativ (sohaga xos) qismlarga ajratilgan modeli taklif etilishi mumkin. Invariant qismda adabiy me’yor, nutq madaniyati, rasmiy uslub, matn tuzish asoslari berilsa, variativ qismda muayyan yo‘nalish uchun zarur terminologiya, kasbiy matnlar va kommunikativ vaziyatlar ustida ishlash ko‘zda tutiladi.

Tahlilda aniqlangan muammolardan yana biri - kasbiy-kommunikativ kompetensiyani baholash mezonlarining yetarlicha aniqlashtirilmaganidir. Ko‘pincha baholash til xatolari soniga yoki matnning umumiy taassurotiga tayanadi, holbuki kasbiy nutqni baholashda mazmun aniqligi,

uslubiy moslik, terminlarning to‘g‘ri qo‘llanishi, matn kompozitsiyasi, kommunikativ maqsadga erishish darajasi va nutqning vaziyatga mosligi kabi mezonlar tizimli ravishda hisobga olinishi lozim. Demak, mazkur fan uchun kompetensiyaviy baholash rubrikalari ishlab chiqilishi nafaqat nazoratning adolatliligini oshiradi, balki ta’lim jarayonini aniq natijaga yo‘naltirishga ham xizmat qiladi.

Xulosa. Mazkur tadqiqotda nofilologik yo‘nalishlarda “O‘zbek tilining sohada qo‘llanilishi” fanini o‘qitishning ilmiy-metodik asoslari tahlil qilinib, uning mazmuni va o‘qitish amaliyotini takomillashtirish zarurligi asoslandi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, amaldagi ta’lim jarayonida fan ko‘proq umumiy til me’yorlarini o‘rgatishga yo‘naltirilgan bo‘lib, talabalarning kasbiy kommunikatsiya vaziyatlarida o‘zbek tilidan funksional foydalanish kompetensiyasini shakllantirish darajasi yetarli emas. Natijada nazariy bilim bilan amaliy nutq faoliyati o‘rtasida tafovut yuzaga kelmoqda.

Adabiyotlar tahlili mahalliy ilmiy manbalarning til me’yorlari, nutq madaniyati va uslubiyat masalalarini yoritishda muhim nazariy asos ekanini, xorijiy LSP/ESP yondashuvlari esa ehtiyojlar tahlili, janr asosida o‘qitish, vazifaga yo‘naltirilgan metodlar va kompetensiyaviy baholash mexanizmlari bilan metodik jihatdan samarali ekanini ko‘rsatdi. Shu asosda nofilologik yo‘nalishlar uchun mazkur fan mazmunini mahalliy tilshunoslik yutuqlari hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar integratsiyasida tashkil etish maqsadga muvofiq ekanligi aniqlandi.

Tahlil va natijalar bo‘limida talabalarda sohaviy terminlarni o‘rinli qo‘llash, rasmiy uslub talablariga rioya qilish, hujjat matnlarini tuzish, fikrni mantiqiy va izchil bayon etish, kasbiy matnlarni tahlil qilish kabi ko‘nikmalarni shakllantirishda qiyinchiliklar mavjudligi qayd etildi. Shu bilan birga, interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar, rolga asoslangan topshiriqlar, hujjat loyihalash va taqdimot tayyorlash kabi amaliy mashg‘ulotlar qo‘llanganida talabalarning nutqiy faolligi va kasbiy-kommunikativ kompetensiyasi sezilarli darajada oshishi kuzatildi. Bu esa fanning natijadorligi, avvalo, uning metodik tashkil etilishiga bog‘liqligini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - 2023-yil 30-aprel. - Toshkent.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni. - 1989-yil 21-oktabr, 3561-XI-son.
3. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbek tili bayrami kunini belgilash to‘g‘risida”gi Qonuni. - 2020-yil 10-aprel, O‘RQ-615-son.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. - 2019-yil 8-oktabr, PF-5847-son.
5. Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar (tegishli normativ hujjatlar to‘plami). - Toshkent.
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 5 jildlik. - Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006–2008.
7. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. - Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002.
8. Mahmudov N. M. O‘qituvchi nutqi madaniyati. - Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2007.
9. Qo‘ng‘urov R., Begmatov E., Tojiev Y. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. - Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
10. Jamolxonov H. A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. - Toshkent: Talqin, 2005.

Yarmatova Yulduz Ravshanovna
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti,
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi katta o‘qituvchisi

MOBIL ILOVADA INGLIZ TILI LEKSIKASINI O‘RGANISH UCHUN OVOZLI YORDAMCHILARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya. *Mazkur maqolada mobil ilovalar vositasida ingliz tili leksikasini o‘rganishda ovozli yordamchilardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari, afzalliklari va metodik yondashuvlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda ovozli yordamchilar orqali yangi so‘z va iboralarni eshitish, talaffuzni takrorlash, so‘zlarning kontekstual qo‘llanishini o‘zlashtirish, eslab qolish samaradorligini oshirish hamda mustaqil ta’lim ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalari yoritiladi. Shuningdek, mobil ilovalarda ovozli buyruqlar, interfaol mashqlar, tezkor qayta aloqa, individual o‘quv trayektoriyasi va gamifikatsiya elementlaridan foydalanishning leksik kompetensiyani shakllantirishdagi o‘rni ko‘rsatib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *mobil ilova, ingliz tili leksikasi, ovozli yordamchi, lug‘at boyligi, talaffuz, leksik kompetensiya, interfaol metodlar, mustaqil ta’lim, gamifikatsiya, raqamli ta’lim.*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ГОЛОСОВЫХ ПОМОЩНИКОВ ДЛЯ ИЗУЧЕНИЯ АНГЛИЙСКОЙ ЛЕКСИКИ В МОБИЛЬНОМ ПРИЛОЖЕНИИ

Аннотация. *В данной статье анализируются дидактические возможности, преимущества и методические подходы к использованию голосовых помощников при изучении английской лексики с помощью мобильных приложений. В исследовании освещаются вопросы восприятия новых слов и выражений на слух, повторения произношения, усвоения контекстуального употребления слов, повышения эффективности запоминания и развития навыков самостоятельного обучения с использованием голосовых помощников. Также показана роль голосовых команд, интерактивных упражнений, оперативной обратной связи, индивидуальной образовательной траектории и элементов геймификации в формировании лексической компетенции в мобильных приложениях.*

Ключевые слова: *мобильное приложение, английская лексика, голосовой помощник, словарный запас, произношение, лексическая компетенция, интерактивные методы, самостоятельное обучение, геймификация, цифровое образование.*

USING VOICE ASSISTANTS TO LEARN ENGLISH VOCABULARY IN A MOBILE APPLICATION

Abstract. *This article analyzes the didactic opportunities, advantages, and methodological approaches to using voice assistants for learning English vocabulary through mobile applications. The study highlights the use of voice assistants for listening to new words and expressions, repeating pronunciation, mastering contextual word usage, improving retention efficiency, and developing independent learning skills. It also demonstrates the role of voice commands, interactive exercises, instant feedback, individualized learning trajectories, and gamification elements in the development of lexical competence within mobile learning apps.*

Key words: *mobile application, English vocabulary, voice assistant, vocabulary development, pronunciation, lexical competence, interactive methods, independent learning, gamification, digital education.*

Kirish. Bugungi kunda raqamli ta’lim texnologiyalarining jadal rivojlanishi xorijiy tillarni, xususan, ingliz tilini o‘rganish jarayoniga yangi imkoniyatlarni olib kirib, ta’limning an’anaviy shakllarini mobil va interfaol muhit bilan boyitmoqda. Ayniqsa, mobil ilovalar yordamida ta’lim

olish modeli o‘quvchi va talabalarga vaqt va makondan nisbatan mustaqil tarzda o‘rganish, individual sur’atda mashq qilish hamda muntazam takrorlash imkonini beradi. Shu jihatdan qaraganda, ingliz tili leksikasini o‘rganishda mobil ilovalardan foydalanish nafaqat qulay vosita, balki leksik kompetensiyani bosqichma-bosqich shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim didaktik platforma sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Ingliz tilini o‘rganishda leksika yetakchi o‘rin tutadi, chunki lug‘at boyligi yetarli bo‘lmagan sharoitda grammatika qoidalarini bilishning o‘zi samarali muloqotni ta’minlay olmaydi. So‘z va iboralarni to‘g‘ri eshitish, talaffuz qilish, ma’nosini anglash, kontekstda qo‘llash va uzoq muddatli xotirada saqlash leksikani o‘zlashtirishning asosiy tarkibiy qismlaridir. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab o‘quvchilar yangi so‘zlarni yod olgan bo‘lsalar-da, ularni real nutq vaziyatida qo‘llashda, talaffuzini to‘g‘ri takrorlashda yoki eshitib tanib olishda qiyinchilikka duch keladilar. Demak, leksikani o‘qitishda faqat matnli yoki yozma mashqlar bilan cheklanib qolish yetarli emas, balki tinglab anglash, talaffuzni mashq qilish va tezkor qayta aloqani ta’minlaydigan vositalarga ehtiyoj ortib bormoqda.

Ana shunday vositalardan biri - mobil ilovalarga integratsiya qilingan ovozli yordamchilardir. Ovozli yordamchilar foydalanuvchi bilan og‘zaki muloqot qilish, so‘z va iboralarni talaffuz etib berish, foydalanuvchi talaffuzini qabul qilish, takrorlashni tashkil etish, savol-javob asosida mashq o‘tkazish va tezkor fikr-mulohaza berish imkoniyatiga ega bo‘lishi bilan leksik o‘rganish jarayonini sezilarli darajada faollashtiradi. Ular o‘quvchining passiv lug‘atini faol lug‘atga aylantirishda, ayniqsa, talaffuz va eshitish ko‘nikmalarini uyg‘un rivojlantirishda samarali didaktik vosita bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Bundan tashqari, ovozli yordamchilar orqali mashqlarni ko‘p marotaba takrorlash, individual xatolar ustida ishlash va o‘quv jarayonini shaxsiylashtirish imkoniyati ham kengayadi.

Shu munosabat bilan mazkur maqolada mobil ilovada ingliz tili leksikasini o‘rganish uchun ovozli yordamchilardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari, metodik yondashuvlari va amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Xususan, ovozli yordamchilar yordamida so‘zlarni o‘zlashtirish, talaffuzni shakllantirish, kontekstual qo‘llashni rivojlantirish, interfaol mashqlarni tashkil etish va mustaqil ta’lim samaradorligini oshirish masalalarini yoritish ko‘zda tutiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi - mobil ta’lim muhitida ovozli yordamchilardan foydalanish orqali ingliz tili leksikasini o‘qitish samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi ilmiy-metodik yondashuvlarni asoslashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. Mobil ilovalar yordamida ingliz tili leksikasini o‘rgatish va bu jarayonda ovozli yordamchilardan foydalanish masalasi so‘nggi yillarda xorijiy til ta’limi metodikasi, raqamli pedagogika, mobil ta’lim (mobile learning) hamda sun’iy intellektga asoslangan ta’lim texnologiyalari kesishgan nuqtada shakllanayotgan dolzarb yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Mavzuga oid adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ushbu masala odatda bir necha o‘zaro bog‘liq yo‘nalishlarda yoritiladi: xorijiy til o‘qitishda leksik kompetensiyani shakllantirish nazariyasi, mobil ta’limning didaktik imkoniyatlari, talaffuz va tinglab tushunishni rivojlantirish metodikasi, interfaol va adaptiv o‘qitish texnologiyalari, shuningdek, ovozli interfeys va nutqni avtomatik tanish tizimlarining ta’limdagi qo‘llanilishi. Shu bois mazkur mavzuni bir yoqlama, faqat texnik yoki faqat metodik nuqtai nazardan emas, balki integrativ yondashuv asosida tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Xorijiy til ta’limi metodikasi bo‘yicha klassik va zamonaviy tadqiqotlarda leksika til o‘rganishning asosiy komponentlaridan biri sifatida talqin qilinadi. Ko‘pgina ilmiy qarashlarda lug‘at boyligi kommunikativ kompetensiyaning tayanch omili ekanligi, ya’ni o‘quvchi grammatik jihatdan mukammal bo‘lmasa ham yetarli leksik zaxira yordamida muloqotga kirisha olishi, biroq lug‘at boyligi yetarli bo‘lmagan sharoitda kommunikatsiya cheklanishi ta’kidlanadi. Mazkur yondashuvlar yangi so‘zlarni faqat yodlash emas, balki ularni semantik tarmoqlar, kontekst, kollokatsiyalar, nutq vaziyatlari va amaliy qo‘llanish bilan bog‘liq holda o‘zlashtirish zarurligini asoslaydi. Shu jihatdan qaraganda, ovozli yordamchilar orqali leksikani o‘rganish g‘oyasi zamonaviy leksik o‘qitish tamoyillariga mos keladi, chunki ular so‘zning talaffuzi, eshitilishi va og‘zaki qo‘llanishini bir vaqtda mashq qildirish imkonini beradi.

Mobil ta'limga oid adabiyotlarda mobil qurilmalar o‘quv jarayonini shaxsiylashtirish, ta'limni uzluksiz davom ettirish, mikroo‘rganish (microlearning) formatlarini joriy etish va o‘quvchini faol subyektga aylantirishdagi imkoniyatlari keng yoritilgan. Tadqiqotchilar mobil ilovalarni, ayniqsa, til o‘rganishda takrorlash, qisqa muddatli mashqlar, doimiy qayta aloqa va o‘quv materiallariga tezkor kirish nuqtai nazaridan samarali vosita sifatida baholaydilar.

Interfaol metodlar va gamifikatsiya bo‘yicha manbalarda til o‘rganish motivatsiyasini saqlash, o‘quv faolligini oshirish hamda muntazam mashq qilish odatini shakllantirish masalalari keng yoritiladi. Mobil ilovalarda ball, bosqich, mukofot, kundalik topshiriq, progress monitoring kabi elementlarning qo‘llanishi o‘quvchini davomli mashg‘ulotga jalb etishi mumkinligi ko‘plab tadqiqotlarda qayd etilgan. Biroq ayrim mualliflar gamifikatsiya elementlarining haddan ortiq ko‘pligi o‘quv maqsadini ikkinchi planga surib, “o‘yin natijasi”ni “ta'lim natijasi”dan ustun qo‘yishi ehtimolini ham ko‘rsatadilar. Muallif fikricha, ovozli yordamchilar bilan ishlaydigan mobil ilovalarda gamifikatsiya vositalari leksik materialni mustahkamlashga xizmat qilishi, ya'ni so‘zning eshitilishi, talaffuzi, ma'nosi va qo‘llanishiga oid mashqlarni motivatsion shaklda taqdim etishi lozim, aks holda ular dekorativ element darajasida qolib ketadi.

Mazkur tadqiqotda mobil ilovada ingliz tili leksikasini o‘rganish jarayonida ovozli yordamchilardan foydalanishning didaktik samaradorligi leksik materialni qabul qilish, talaffuzni shakllantirish, so‘zlarni kontekstda qo‘llash, eslab qolish darajasi va o‘quv motivatsiyasiga ta'siri nuqtai nazaridan tahlil qilindi. Tahlil jarayonida mobil ta'lim muhitining o‘ziga xos xususiyatlari, ya'ni mikroo‘rganish shakli, qisqa takroriy mashqlar, tezkor qayta aloqa, shaxsiylashtirilgan topshiriqlar va ovozli muloqot elementlarining o‘zaro uyg‘unligi alohida e'tiborga olindi. Shuningdek, ovozli yordamchining funksional imkoniyatlari - so‘z va iboralarni talaffuz etib berish, foydalanuvchi talaffuzini qayd etish, savol-javob asosida mashqni faollashtirish, eshitib tanish topshiriqlarini tashkil etish hamda xatolar yuzasidan tezkor fikr bildirish - leksik kompetensiyani shakllantirishdagi amaliy ahamiyati nuqtai nazaridan baholandi.

Tahlil va natijalar. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, ovozli yordamchilardan foydalanish leksikani o‘rganish jarayonida so‘zning fonetik va semantik qiyofasini bir vaqtda o‘zlashtirishga yordam beradi. An'anaviy yodlash usullarida o‘quvchi ko‘proq so‘zning yozma shakli va tarjimasiga tayanishi kuzatilsa, ovozli yordamchi bilan ishlashda so‘zning talaffuzi, urg‘usi, intonatsion ko‘rinishi va eshitilish obrazi ham faol ravishda o‘quv jarayoniga kiradi. Natijada yangi leksik birlikni qabul qilish bir kanalli emas, balki ko‘p kanalli shaklda amalga oshadi. Bu esa so‘zning xotirada mustahkamroq saqlanishiga va keyinchalik uni og‘zaki nutqda faollashtirishga qulay sharoit yaratadi. Ayniqsa, talaffuz va eshitib tanish ko‘nikmasi pastroq bo‘lgan o‘quvchilar uchun ovozli takrorlash mashqlari leksik materialni o‘zlashtirishda muhim tayanch vazifasini bajarishi aniqlandi.

Tahlil davomida talaffuz bilan bog‘liq natijalar alohida ahamiyat kasb etdi. Ovozli yordamchilar orqali mashq qilgan foydalanuvchilarda so‘zlarni takroriy aytish soni ortishi, talaffuzga nisbatan e'tiborning kuchayishi va fonetik xatolarni mustaqil sezish tendensiyasi kuchayishi kuzatildi. Sababi, ovozli yordamchi bilan ishlash jarayonida o‘quvchi passiv tinglovchi emas, balki doimiy javob beruvchi subyektga aylanadi. U eshitadi, takrorlaydi, taqqoslaydi va qayta aytadi. Bunday siklik mashq modeli talaffuzni mustahkamlash bilan birga, leksik birlikning og‘zaki shaklini avtomatlashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ayrim holatlarda nutqni avtomatik tanish tizimi foydalanuvchi talaffuzini noto‘g‘ri qabul qilishi yoki aksent farqlari sababli javobni to‘liq tanimasligi mumkinligi ham tahlilda qayd etildi. Bu holat o‘quvchida noqulaylik tug‘dirmasligi uchun ilova dizaynida muqobil qayta urinish imkoniyati, vizual ko‘rsatma va moslashuvchan baholash mexanizmlarini joriy etish zarurligi aniqlandi.

Leksikani kontekstda qo‘llash bo‘yicha natijalar ham ijobiy tendensiyani ko‘rsatdi. Ovozli yordamchi bilan ishlash jarayonida so‘zlar alohida birlik sifatida emas, balki vaziyatli iboralar, savol-javob shakllari, dialogik fragmentlar va kasbiy nutqiy qoliplar tarkibida taqdim etilganda o‘quvchilar tomonidan tezroq o‘zlashtirilishi va uzoqroq esda saqlanishi kuzatildi. Bu holat leksik birlikning ma'nosi va funksiyasini real kommunikativ vaziyat bilan bog‘lash imkonini beradi. Ayniqsa, nofilologik yo‘nalish talabalari uchun kasbiy ehtiyojga mos leksik birliklar, masalan,

texnik, agrotexnologik yoki akademik muhitda uchraydigan termin va iboralarni ovozli mashqlar orqali o‘zlashtirish amaliy nutq tayyorgarligini kuchaytirishi mumkinligi tahlil natijalarida asoslandi. Demak, ovozli yordamchidan foydalanish samaradorligi nafaqat texnologik funksiyalarga, balki tanlangan leksik kontentning kommunikativ va kasbiy relevantiqligiga ham bog‘liqdir.

Motivatsion omillar bo‘yicha olingan natijalar mobil ilovalardagi ovozli yordamchilar o‘quvchi faolligini saqlashda muhim rol o‘ynashini ko‘rsatdi. Tezkor javob olish, mashqni takrorlash imkoniyati, o‘z natijasini darhol ko‘rish, tovushli rag‘batlantirish yoki interfaol dialog elementlari o‘quvchini mashg‘ulotga qayta jalb etuvchi omillar sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, qisqa vaqtli, lekin muntazam bajariladigan mashqlar modeli mobil muhitda leksikani o‘rganish uchun qulay ekani aniqlandi, chunki o‘quvchi katta hajmdagi materialdan cho‘chimay, kichik bloklarda yangi birliklarni o‘zlashtira oladi. Biroq motivatsiya faqat texnik interfaollik bilan uzoq muddat saqlanib qolmasligi ham kuzatildi; agar mashqlar mazmuni bir xil takrorlansa yoki leksik material foydalanuvchi darajasiga moslashtirilmasa, qiziqish pasayishi mumkin. Shu sababli ovozli yordamchiga asoslangan ilovalarda adaptiv topshiriqlar va bosqichma-bosqich murakkablashib boruvchi mashqlar tizimi muhim ekani natijalar orqali tasdiqlandi.

Mustaqil ta’lim ko‘nikmalariga ta’sir nuqtai nazaridan ham muhim natijalar olindi. Ovozli yordamchi bilan ishlash o‘quvchini o‘z xatolarini eshitish, qayta urinish, o‘zi uchun qulay tempda mashq qilish va individual ravishda takrorlashga undaydi. Bu esa o‘quvchi avtonomiyasining shakllanishiga xizmat qiladi. Tahlilda shunday holat kuzatildiki, o‘quvchilar o‘qituvchi nazoratisiz ham ovozli mashqlarni ko‘proq bajargan holatlarda leksik birliklarni eshitib tanish va talaffuz qilish ko‘rsatkichlari nisbatan yaxshilanadi. Shu bilan birga, to‘liq mustaqil muhitda ayrim o‘quvchilar mashqlarni faqat mexanik bajarish, ma’noni chuqur anglamasdan takrorlash xavfi ham mavjud. Demak, ovozli yordamchilar mustaqil ta’limni kuchaytirsa-da, metodik yo‘naltirish, maqsadli topshiriq dizayni va o‘qituvchi tomonidan davriy nazorat bilan uyg‘unlashtirilgandagina yuqori samaradorlikka erishiladi.

Muhokama. Olingan tahlil va natijalar mobil ilovada ingliz tili leksikasini o‘rganishda ovozli yordamchilardan foydalanish masalasi faqat texnologik qulaylik bilan izohlanmasligini, balki u metodik tashkil etilish darajasi bilan bevosita bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. Ya’ni ovozli yordamchi mavjud bo‘lishining o‘zi leksik kompetensiya rivojlanishini kafolatlamaydi; uning ta’limiy samarasi qanday turdagi topshiriqlar berilgani, leksik material qanday tanlangani, qayta aloqa qanday shaklda taqdim etilgani va o‘quvchi faoliyati qanday boshqarilgani bilan belgilanadi. Shu jihatdan mazkur masalani muhokama qilishda “texnologiya markazli” yondashuvdan ko‘ra “pedagogik maqsadga yo‘naltirilgan raqamli vosita” tamoyili ustuvor bo‘lishi lozim.

Tadqiqot natijalarida aniqlangan eng muhim jihatlardan biri shuki, ovozli yordamchilar leksikani o‘rganishda fonetik va semantik ishlovni birlashtirish imkonini beradi. Bu holat an’anaviy leksik mashqlarga nisbatan sezilarli ustunlik beradi, chunki ko‘plab o‘quvchilar so‘zning yozma shaklini eslab qolgan holda uning talaffuzi va eshitilish obrazini yetarli darajada shakllantira olmaydi. Ovozli yordamchi esa so‘zni eshitish, takrorlash, qayta aytish va ba’zan kontekstda ishlatishga undash orqali leksik birlikni ko‘p tomonlama o‘zlashtirishga xizmat qiladi. Muhokama nuqtai nazaridan bu natija shuni anglatadiki, ovozli yordamchilar ayniqsa talaffuz va tinglab tushunish bilan bog‘liq muammolari mavjud o‘quvchilar uchun kompensator didaktik vosita bo‘lishi mumkin.

Muhokamada yana bir muhim masala sifatida leksik kontentning mazmuniy va kasbiy mosligi ko‘zga tashlanadi. Tahlil natijalari ovozli yordamchi samaradorligi umumiy so‘zlar bilan ishlashda ham, kasbiy yo‘naltirilgan termin va iboralar bilan ishlashda ham namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi, biroq nofilologik yo‘nalish talabalari uchun real ehtiyojga mos kontent tanlanganda natija yanada yuqori bo‘lishi mumkin. Chunki talaba o‘z sohasi bilan bog‘liq leksik birliklarni o‘rganganida ularni darhol amaliy nutqiy vaziyat bilan bog‘laydi va bu semantik mustahkamlikni kuchaytiradi. Shu ma’noda, mobil ilovadagi ovozli yordamchidan foydalanish metodikasi umumiy ingliz tili doirasida emas, balki English for Specific Purposes yondashuvi bilan uyg‘unlashtirilsa, ta’limiy samaradorlik oshadi.

Motivatsiya omiliga doir natijalar ham muhokamada alohida o‘rin tutadi. Ovozli yordamchilar o‘quvchini muloqotga chorlaydi, natijani tez ko‘rsatadi va mashqni “jonli” tusga keltiradi, bu esa leksik mashg‘ulotlarni nisbatan qiziqarli qiladi. Biroq tahlilda aniqlanganidek, motivatsiya uzoq muddat davomida faqat interfaollik hisobiga saqlanmaydi. Agar topshiriqlar bir xil qolipda takrorlansa yoki foydalanuvchi darajasiga mos ravishda murakkablashmasa, o‘quvchi faoliyati mexanik tus oladi. Demak, gamifikatsiya va interfaol dialog elementlari o‘quv maqsadiga xizmat qiluvchi vosita bo‘lishi kerak, ya’ni ular leksikani chuqurroq o‘zlashtirishni qo‘llab-quvvatlashi, faqat tashqi rag‘bat rolida qolib ketmasligi lozim.

Mustaqil ta’lim masalasiga doir natijalar ham keng muhokamani talab qiladi. Ovozli yordamchilar bilan ishlash o‘quvchi avtonomiyasini kuchaytiradi, chunki foydalanuvchi o‘z sur’atida mashq qiladi, xatosini qayta ishlaydi va bir xil materialni bir necha marta takrorlay oladi. Bu jihat zamonaviy ta’lim paradigmasida juda muhimdir. Biroq natijalar shuni ham ko‘rsatadiki, to‘liq nazoratsiz muhitda ayrim o‘quvchilar mashqlarni ma’no ustida ishlamasdan, faqat talaffuzni takrorlash darajasida bajarib qolishi mumkin. Shu sababli ovozli yordamchilarga asoslangan mobil ta’limni o‘qituvchi yoki metodik rahbarlikdan ajratilgan mustaqil tizim sifatida emas, balki blended learning (aralash ta’lim) modelining tarkibiy qismi sifatida ko‘rish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu yondashuvda mobil ilova darsdan tashqari leksik mashq va mustahkamlash vositasi, auditoriya mashg‘uloti esa mazmuniy tahlil, kommunikativ qo‘llash va refleksiya maydoni vazifasini bajaradi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni tasdiqladiki, ovozli yordamchilarning samaradorligi ko‘p jihatdan metodik tashkil etilish darajasiga bog‘liq. Leksik materialning foydalanuvchi darajasi va ehtiyojiga mos tanlanishi, talaffuz, eshitish, ma’no va kontekstni integratsiyalagan mashqlar tizimining mavjudligi, tezkor va tushunarli qayta aloqa, qayta urinish imkoniyati hamda motivatsiyani qo‘llab-quvvatlovchi interfaol elementlar mazkur vositaning ta’limiy ta’sirini kuchaytiruvchi asosiy omillar sifatida belgilandi. Shu bilan birga, nutqni avtomatik tanishdagi texnik cheklovlar, bir xil topshiriqlarning takrorlanishi yoki metodik yo‘naltirishning yetishmasligi kutilgan natijani pasaytirishi mumkinligi ham aniqlandi. Demak, ovozli yordamchilarga asoslangan mobil ilovalarni samarali qo‘llash uchun texnologik va pedagogik komponentlarning uyg‘unligi ta’minlanishi zarur.

Shunday qilib, mobil ilovadagi ovozli yordamchilar ingliz tili leksikasini o‘rganishda o‘quvchi faolligi, mustaqil ta’lim ko‘nikmasi va leksik kompetensiyaning amaliy shakllanishini kuchaytiruvchi istiqbolli raqamli vosita hisoblanadi. Kelgusida ushbu yo‘nalishda turli darajadagi o‘quvchilar kesimida eksperimental tadqiqotlar o‘tkazish, kasbiy yo‘naltirilgan leksik modullar yaratish hamda ovozli yordamchilarning pedagogik dizaynini takomillashtirish mobil ta’lim texnologiyalarining ta’lim sifatiga ta’sirini yanada chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘RQ-637). 2020 yil 23 sentyabr.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni (PF-6079). 2020 yil 5 oktabr.

3. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment - Companion Volume. Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2020.

4. UNESCO. Policy Guidelines for Mobile Learning. Paris: UNESCO, 2013.

5. Stockwell, G., & Hubbard, P. Some emerging principles for mobile-assisted language learning. Monterey, CA: The International Research Foundation for English Language Education (TIRF), 2013. (TIRF Report, pp. 1–14).

Raximov Abdulatif Abdimuradovich
Qarshi davlat universiteti
Psixologiya kafedrasi dotsenti vazifasini bajaruvchisi,
Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: abdulatifraximov@gmail.com

O‘SMIR YOSHDAGI BOKSCHILARDA MUVAFFAQIYATGA ERISHISH MOTIVLARINING PSIXOLOGIK TAHLILI

Annotatsiya. *Maqolada o‘smir yoshdagi bokschilarda muvaffaqiyatga erishish motivlarining psixologik tahlili keltirib o‘tilgan. Shuningdek muvaffaqiyatga erishish motivlari masalasiga oid ko‘plab nazariy qarashlar, ilmiy yondashuvlar tadqiq etilgan. Muvaffaqiyatga erishish yo‘lini anglash ko‘proq shaxsning qadriyatlari tizimi bilan bog‘liq yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *o‘smir, boks, muvaffaqiyatga erishish, motiv, psixologik tahlil, nazariy qarashlar, ilmiy yondashuvlar, qadriyatlar tizimi.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ МОТИВОВ ДОСТИЖЕНИЯ УСПЕХА У БОКСЕРОВ-ПОДРОСТКОВ

Аннотация. *В статье представлен психологический анализ мотивов достижения успеха у боксеров-подростков. Также рассмотрены различные теоретические взгляды и научные подходы к вопросу мотивов достижения успеха. Путь к успеху объясняется в связи с системой ценностей человека.*

Ключевые слова: *подросток, бокс, достижение успеха, мотив, психологический анализ, теоретические взгляды, научные подходы, система ценностей.*

PSYCHOLOGICAL ANALYSIS OF MOTIVES FOR SUCCESS IN ADOLESCENT BOXERS

Annotation. *The article cites a psychological analysis of the motives for success in teenage boxers. As well as many theoretical views on the issue of motives for success, scientific approaches have been studied. The awareness of the path to success is more illuminated in relation to the system of values of the individual.*

Key words: *adolescent, boxing, success, motive, psychological analysis, theoretical views, scientific approaches, value system.*

Hozirga qadar psixologiya fanida muvaffaqiyatga erishish motivlari masalasiga oid ko‘plab nazariy qarashlar, ilmiy yondashuvlar, konsepsiyalar mavjud bo‘lib, ularda motivatsiya tushunchasi turli mazmunda ta’riflangan. Ayrim tadqiqotlar inson motivatsion sohasini biologik ehtiyojlar bilan tushuntirsa, boshqasi esa, qiziqish, yo‘nalganlik, ishtiyoq va munosabat kabi tushunchalar bilan tavsiflaydi. Shu bois, muvaffaqiyatga erishish motivlari aqliy harakatlarning asosi hisoblanib, u dinamik rivojlanish bosqichiga egadir. Iroda va muvaffaqiyatga erishish motivlari muammosiga qiziqish antik davr allomalari asarlarida ham aks etgan bo‘lib, unda muvaffaqiyatga erishish motivlari aql-idrokning bir qismi sifatida ta’riflangan. Qadimgi davr faylasuflaridan biri Platonning fikricha, iroda bu aqlning sintezi, u orqali biror narsaning bahosi belgilanadi shuningdek, muvaffaqiyatga erishish motivlari bu - shaxsning intilishlarida aks etuvchi xulq –atvor shakllaridir.

L.A.Pereliginaning so‘zlariga ko‘ra, murabbiyning shaxsi, xulq-atvori, uning sportchiga bo‘lgan munosabati ham, sportchining yuqori natijalarga erishishiga keng imkon beradi. Murabbiyning salohiyati, sport sohalari yangiliklaridan xabardorligi, kasbiy ko‘nikma va malakalari, orttirilgan hayotiy tajribasi va qadriyatlari yo‘nalishi kabilar ham, yuqori natijalarga

erishishning psixologik shartlaridan biri hisoblanadi [1. 368]. Bu murabbiylarning kasbiy-psixologik tayyorgarligi bilan bog‘liq holat sanalib, bunday ishlar borasida ham zamonaviy psixologiya fanida, dunyo ahamiyatiga molik ishlar amalga oshirilmoqda.

Y.A.Kolomensevning ta’kidicha, sportchi yoki jamoaning muvaffaqiyati, murabbiyning uzluksiz faoliyatiga ham bog‘liq sanaladi. Ya’ni, murabbiylarning tez-tez almashitirish holati, jamoa va sportchilarning muvaffaqqiyatiga salbiy ta’sir etadi. Chunki, o‘zaro munosabatlar tizimida shaxsning moslashishi uchun ham, ma’lum bir vaqt talab qilinadi. L.P.Dmitrienkoning so‘zlariga ko‘ra, sportda “vaqt” har doim natijalarni hal etuvchi asosiy omillardan biri sifatida tan olinadi [2. 116]. Vaqtni ijtimoiy idrok qilish, uni kasbiy qadriyatlar tizimi bilan uyg‘unlashtirish muvaffaqiyatga erishish motivlarining psixofiziologik shart-sharoitlaridan biri sanaladi. Muvaffaqqiyatli sportchi faoliyatining psixologik o‘ziga xosliklari mavzusiga bag‘ishlangan ayrim tadqiqotlarda yozilishicha, jamoaviy munosabatlar ham sportda yuqori natijalar ko‘rsatishga keng ta’sir etadi.

Faoliyat muvaffaqqiyatini ilmiy manbalarda o‘rganish holati shuni ko‘rsatadiki, muvaffaqiyatga erishish yo‘lini anglash ko‘proq shaxsning qadriyatlari tizimi bilan bog‘liqdir. V.U.Ageevsaga ko‘ra, sport faoliyatida yaxshi natijalarni ta’minlovchi psixologik sifatlarga quyidagilar kiradi [3. 28];

– Qaror qabul qilishda samaradorlik;
– Ulkan maqsadlarga erishish uchun, o‘z kuchigi to‘liq bag‘ishlash;
– Shaxsiy mavqega intilish;
– O‘z harakatlari uchun javobgarlikni his eta olish;
– Ko‘pchilik orasida boshqalardan farq qilishga harakat qilish qobiliyati;
– O‘ziga nisbatan halol bo‘lish;
– Chuqur hissiy tajribalarning mavjudligi;
– Boshqa odamlar bilan uzoq muddatli aloqalarni o‘rnatish hamda ularni qo‘llab-quvvatlash va boshqalar. Ushbu tasnifga muvofiq, sport faoliyatining muvaffaqiyati - bu shaxs his-tuyg‘ularining maxsus ichki faoliyatiga asoslanib, u o‘z vaqtida maxsus yo‘naltirilgan, yaxlit dinamik psixologik hodisadir. Bundan tashqari, har qanday faoliyat turining samaradorligi, undagi subyektlarning o‘z maqsadlarini to‘liq anglashi hamda keng qamrovli ijtimoiy faolligi bilan tavsiflanadi.

Psixokorreksion bosqichda trening mashg‘ulotlari o‘n kun davomida olib borildi va mashg‘ulotlar davomiyligi 25 minutni tashkil etdi. O‘smir yoshdagi bokschilarda salbiy emotsional holatlar psixokorreksiyasi dasturining asosiy bosqichlari: [4. 347]

1- bosqich: Suhbat o‘tkazish

Depressiya holati namoyon bo‘lgan sportchilar bilan suhbatlashish. Bunday holat yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan voqelikni o‘rganish. Murabbiy va sportchining yaqinlari bilan bu borada birlamchi suhbatni tashkil etish. Sportchida ayni vaqtda mavjud bo‘lgan salbiy emotsiyalarni o‘rganish. Sportchi emotsional xotirasida kuchli iz qoldirgan voqelik bilan tanishish.

Mashg‘ulotlar mazmuni: “O‘z-o‘zimga baho” mashqi – sportchi o‘z faoliyatini, erishgan natijalarini baholashga qaratilgan bo‘lib, sportchi o‘z muvaffaqiyatidan qanchalik mamnun yoki mamnun emasligini bilish imkonini beradi; “Uch ibora” mashqi insonni ayni vaqtda amalga oshirishni istamagan vazifani bajarishga o‘zini majburman, deb hisoblashi orqali yuzaga keluvchi salbiy emaotsional kuchni tarqatishga ko‘mak beradi.

2- bosqich: Bartaraf etish

Depressiya holatini bartaraf etishda emotsiyalarni nazorat qilish usulidan foydalanish. Salbiy emotsiyalarni ayni qarama-qarshi emotsiyalarga ongli zo‘r berish orqali o‘zgartirish, kognitiv regulyatsiyani amalga oshirish. Emotsional bosimni tarqatish uchun motor regulyatsiyadan foydalanish.

Mashg‘ulotlar mazmuni: “Tafakkur” mashqini olib borish orqali vaziyatlarni turli ko‘rinishda baholash va ijobiy yechim topa olishga o‘rgatish. Ongni yo‘nalganligini o‘zgartirish - emotsional holatdan tashqari istalgan narsa haqida o‘ylay olishga o‘rgatish;

3- bosqich: Psixologik himoya

